

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’ LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

MINTAQAVIY IQTISODIYOT

DARSLIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 dekabr 2021-yil 60-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda SamISI Ilmiy Kengashining 2023-yil 30-maydagi 10-son qaroriga asosan №067-30/05 sonli “O‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi” bilan nashr qilishga ruxsat etilgan.

Samarqand – 2023

UO'K: 332.1(075)

M 52

KBK: 65.04ya7

*G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, Z.S.Artikov, L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov. **Mintaqaviy iqtisodiyot.** [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: «FAN BULOG'I» nashriyoti, 2023 - 442 bet.*

Taqrizchilar:

R.Gaybullayev - TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya” kafedrasida professori, i.f.d.

A.Bektemirov - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasida professori, i.f.d.

Ushbu darslikda O‘zbekistonning iqtisodiy mintaqalari, ularning holati, mavjud ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari, ijtimoiy hamda demografik holatni o‘rganish, mamlakatimiz aholisi farovonligini yuksaltirish masalalari, shuningdek, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishda milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati va yo‘llari aks ettirilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlaridagi 60310100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishi hamda iqtisod ta‘lim sohasidagi bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishlari talabalariga mo‘ljallangan. Undan professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar hamda mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish va aholi farovonligini yuksaltirish muammolari bilan qiziquvchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Darslik institut Kengashining 2023-yil 30-maydagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (30.05.2023-yil 10-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-9864-5-1

©G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, Z.S.Artikov,
L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov. “SamISI” – 2023 y.
© “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2023 y.

KIRISH

“Mintaqaviy iqtisodiyot” iqtisodiyotning yangi tarmoqlaridan biridir. Yaqin yillargacha iqtisodchilar juda ko‘plab muammolarni tadqiq etishgan bo‘lsada, biroq hududiy o‘zgarishlar tahlil etilmagan. Geograflar esa, muammolarning oddiy ta‘rifini berib xaritada tasvirlashadi. Shaharlar rivojlanishini rejalashtiruvchilar ham shahar maketini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulot bilan cheklanib qolishgan. Oxirgi o‘n yillikda turli kasb egalari - iqtisodchilar, geograflar, ekologlar, shahar va mintaqa iqtisodchilari dolzarb muammolar ustida umumlashgan holda tadqiqot ishlarini olib borishdi. Xususan, 1940-yilda U.Ayzard tomonidan mintaqashunoslik faniga asos solindi. Makon (joy) xarakteriga ega bo‘lgan iqtisodiy tizimlarni o‘rganadi. Mintaqaviy yoki “makon (joy)” iqtisodiyoti quyidagi savol bilan ifodalanishi mumkin, “Nima, qaerda va nima uchun? savoli iqtisodiy faoliyatning har bir turiga tegishli bo‘lib, ishlab chiqarish korxonalari, fermer xo‘jaliklari va boshqa turdagi biznes faoliyati, uy xo‘jaligi, xususiy va jamoat tashkilotlarini “qayerda” joylashuvini o‘rganadi. Turli kasb egalari - iqtisodchilar, geograflar, ekologlar, shahar va mintaqa rivojlanishini rejalashtiruvchilar, mintaqashunos olimlar va urbanizatsiya bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar shahar va mintaqalarning nihoyatda muammoli vaziyatlarini o‘rganadilar.

Mintaqa iqtisodiyotida tabiiy resurslar va ishlab chiqarishning konsentratsiyasi, transport va kommunikatsiya tizimini shakllanishiga oid dolzarb muammolarni o‘rganadi. Makon (joy) yoki mintaqa iqtisodiyotini o‘rganishda qanday dolzarb muammolar bor? Ular biz ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan turli darajalarda vujudga keladi. Hududiy muammolar makroiqtisodiyot darajasida, uy xo‘jaliklari yoki biznes firmalarida qarorlarni qabul qilishda yuzaga kelishi mumkin¹.

Jumladan, biznes firmasi bozor, material manbalari, ishchi kuchi, xizmatlar va boshqa hududiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan qulay joyni tanlaydi. Biznes faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan tashkilotlar, uy xo‘jaligi, ijtimoiy tarmoqlar ham joy tanlash muammosi bilan to‘qnashadi. Bunda narx-navo va foyda nuqtayi nazaridan qulay bo‘lgan joy tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishlar yuzaga keladi. Shu sababdan mintaqaviy iqtisodiyot fanida barcha ijtimoiy-iqtisodiy obektlarning joylashuvi muhim tadqiqot ishi sifatida o‘rganiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanida joyga baho berishda transport va aloqa xizmatlarining roli yuqoridir. Xususan, tovar va xizmatlarning

hududiy joylashuvi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, bir qator omillarga – transport, transport va aloqa vositalarining texnik holati, logistika xizmatlariga bog'liqdir. Shu sababdan, mintaqaviy iqtisodiyot fani transport omili nuqtayi nazaridan turli xil joylarning imkoniyatlarini o'rganadi. Aynan alohida mintaqada iqtisodiyotning shakllanishi iqtisodiy munosabatlarga bevosita bog'liqdir.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani hududiy makonda narx-navo bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni va talabni tahlil qilishi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu tahlil iqtisodiyotning hududiy jihatlarini baholash imkoniyatini kengaytirib, narx-navoning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan hududiy yechimlarni beradi. Tahlil natijalari barcha iqtisodiyot tarmoqlarining joylashgan modellarini tushunish imkoniyatini beradi. Jumladan, neft qazib oluvchi texnologiyalarni sotish neft-gaz sanoati rivojlangan hududlarda ko'proq qiziqish uyg'otadi. Mintaqalarda narx-navoning shakllanishi hududiy imkoniyatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiyotni hududiy konsentratsiyalashuvining turli xil ko'rinishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiat va tabiiy sharoitlar mintaqalarda va joylarda joylashtirish qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Har bir iqtisodiy faoliyat ma'lum bir joyni talab etadi. Mazkur darslikda joy va masofa bir o'lchov birligida tahlil etiladi. Hududda joy va masofa ikki tomonlama rol o'ynaydi. Birinchi tomondan, masofa qiymat va noqulaylikni o'zida aks ettiradi. Insonlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida masofa bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishda transport va aloqa vositalari muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, mahsulotni bozorga olib borish zaruriyati yuzaga kelganda masofa bilan bog'liq bo'lgan noqulayliklarni bartaraf etishda transport muhim rol o'ynaydi. Har qanday inson faoliyati uchun ma'lum bir joyni tanlab olishi zarur. Shu sababdan aynan bu masalalar o'quv qo'llanmaning tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda joy yoki hududni tanlashga bo'lgan raqobatning yuzaga kelishi asosiy qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Bu esa, ma'lum bir joyda yoki biron bir nuqta atrofida yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot yo'nalishlarini o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Misol uchun, bozor markazi atrofida qishloq xo'jaligi zonalarining joylashuvi yoki bir qator sanoat tarmoqlarining joylashuvi ham yerdan foydalanish sohasining tarkibiy qismi sifatida ko'rib

chiqiladi. Mintaqaviy iqtisodiyotda bir qator o'rganiladigan muammolar yerdan foydalanish bilan bog'liqdir. Yer maydonidan qanday samarali foydalanish mumkin? Biroq, firma, uy xo'jaligi yoki sanoat korxonasi qaysi manzil bo'yicha yaxshiroq joylashgan? « - bu masalani o'rganish maqsadga muvofiq emas. Buning mohiyatini anglash uchun har bir tadqiqotchi, yer egalari, tadbirkorlar lokal miqyosda qanday jarayonlar sodir bo'layotganini o'rganishi zarur.

Yerdan foydalanish masalasini tahlil qilish shaharlarda iqtisodiy faoliyatni hududiy tashkil etish mohiyatini anglash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shu sababdan, mazkur o'quv qo'llanmada yerdan foydalanishda resurslarni taqsimlash va shaharlar hududiy tarkibining fundamental asoslarini shakllantirish tamoyillari o'rganiladi. Bu tahlil shaharsozlik bilan bog'liq muammolar yechimida muhim rol o'ynaydi.

Ta'kidlash lozimki, mintaqaviy iqtisodiyot alohida mintaqa doirasida urbanizatsiya qonuniyatlarini - shaharlar funksiyasi va uning o'lchamlari, shaharlar joylashuvini tadqiq etadi. Katta shahar o'zining funksiyasini qanday bajarmoqda? Yoki hududiy tarkibda uning o'rni qanday bo'lmoqda? Qanday o'lchamdagi shaharlar davlat obektlari va biznes faoliyati uchun yaxshi joy hisoblanadi? Rivojlangan yoki rivojlanmagan hududlarda qanday o'lchamdagi va tarkibdagi shaharlarni joylashtirish zarur? Mazkur savollar mintaqaviy iqtisodiyot fani bo'yicha yaratilayotgan darslikning dorlzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyotga o'tkazish va erkinlashtirishda ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish, mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solib borish katta ahamiyatga ega. Zero, har qanday tizimning, shu jumladan iqtisodiy makonning mukammalligi, barkamol shakllanishi eng avvalo uning tarkibiy qismlariga, hududlardagi mavjud tabiiy, mineral xom-ashyo, agroiklimiy va mehnat resurslaridan, infrastruktura hamda moddiy, moliyaviy va fan-texnika yutuqlaridan foydalanishga, joylarda sog'lom ekologik va ijtimoiy muhitni yaxshilashga, ularning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirishga bog'liq. Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va poytaxt Toshkent shahridan tashkil topgan.

Ularning har biri va birgalikda Respublika qudratini mustahkamlash, uning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon hamjamiyatidagi mavqeini ko'tarishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ushbu ma'muriy tuzilmalar bir-birlarini to'ldiradi,

o‘zaro iqtisodiy aloqalar (integratsiya) asosida mamlakatning yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta‘minlaydilar. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyotning sohaviy (tarmoq) yo‘nalishi bilan birga uning hududiy (mintaqaviy) jihati ham bor-ki, bu umumilmiy mazmunga ega bo‘lgan tizim-tarkib tamoyiliga mos keladi. Qolaversa, har qanday rivojlanish ayni paytda va albatta qaerdadir, aniq bir hududda joylanishi orqali sodir bo‘ladi. Binobarin, joylashtirish, joylanish, hududiy tashkil etish rivojlanishning ajralmas tomoni, doimiy yo‘ldoshidir. Demak, hozirgi zamon talabiga javob beruvchi iqtisodchi hududni atroflicha biluvchi, baholovchi va boshqaruvchi bo‘lmog‘i lozim. Avvalgi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni yurgazishda faqat soha (tarmoq) prinsipiga ustuvor ahamiyat berish ko‘ngildagi natijalar bermadi, mahalliy imtiyozlar inkor etildi, ijtimoiy va ekologik sohalar jabrlandi, natijada hudud alohida sog‘lom majmua shaklida rivojlanmadi. Vaholanki, ishlab chiqarishni to‘g‘ri hududiy tashkil qilish katta mintaqaviy yoki iqtisodiy geografik samara beradi

Mazkur darslik “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanini o‘rganuvchi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan. Undan ITI olib boruvchi katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari va mustaqil ilmiy tadqiqot olib boruvchi ilmiy xodimlar, talabalar, malaka oshirish markazi tinglovchilari, soha mutaxassislari va boshqa mintaqaviy iqtisodiyot bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

I BOB. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti, vazifalari va metodlari.

1.2. XIX-XX asrlarda mintaqaviy tadqiqotlar maktabi va fanning bugungi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari

1.3. Mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari hamda uning asosiy jihatlari

1.4. Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish metodlari.

1.1. “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti, vazifalari va metodlari.

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotini shakllanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarining ahamiyati katta. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlantirishga erishish ko‘p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya’ni mamlakatning turli ichki qismlarining salohiyat va imkoniyatlariga, faolligiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan hozirgi davrda ishlab chiqarishni to‘g‘ri hududiy tashkil qilish, viloyat va iqtisodiy rayonlarning yer-suv, mineral xom-ashyo, yoqilg‘i va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga muhim e’tibor qaratilmoqda. Erkin va ochiq iqtisodiyot, uning turli qatlamlarini vujudga keltirish, sog‘lom raqobat va investitsiya makonini shakllantirishdek dolzarb masalalarni hududlar xususiyatini hisobga olmasdan hal etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining rahbariyati mahalliy hokimiyat (viloyat, shahar, tuman hokimliklari) huquq va mas’uliyatlarini kengaytirishga urg‘u bermoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda hududlarni atroflicha o‘rganish, ularning imkoniyat va muammolarini chuqur tahlil qilish, ustuvor yo‘nalishlarni to‘g‘ri aniqlashga katta ehtiyoj tug‘iladi. Mintaqaviy iqtisodiyot yuqoridagi masalalarning hududiy jihatlarni tadqiq etadi va aynan shu nuqtayi nazardan u boshqa fanlardan farq qiladi. Uning predmetini qisqa tarzda quyidagicha ta’riflash mumkin: mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, alohida olingan hududlar yoki hudud (region,

rayon) ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining omil va qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandır¹.

Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlari, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi, mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda hududlar iqtisodiyoti va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o‘rganadi. Bundan tashqari hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o‘rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti eng avvalo, mamlakat yagona xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” mintaqa taraqqiyotining ob‘ektiv shart-sharoitlari va omillarini (geografik o‘rni, tabiiy, demografik va ishlab chiqarish salohiyatini), ishlab chiqarish tarkibi, ijtimoiy soha va aholining turmush sharoitini, aholi va xo‘jalikning joylashishini, iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishi va uning boshqarish mexanizmini, mazkur mintaqaning boshqa mintaqalar va mamlakatlar bilan o‘rnatgan iqtisodiy aloqalarini tadqiq etadi. “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- alohida mintaqa iqtisodiyoti;
- mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar;
- mintaqaviy tizimlar (bunda “milliy iqtisodiyot” mintaqalar iqtisodiyotlarining tizimi bo‘lib namoyon bo‘ladi);
- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish;
- iqtisodiy turmush tarzining mintaqaviy jihatlari.

Fanning vazifalari - “mintaqaviy iqtisodiyot” tushunchasini, mohiyatini, turli mintaqalarning geografik o‘rni, tabiiy sharoiti, resurslari, ixtisoslashuvdagi farqli va o‘xshash tomonlarini aniqlab, ularni xususiyatlarini tahlil qilishga o‘rgatish, mamlakat hududi va uning mintaqalarini tabiiy-resurs salohiyatini, rivojlanish darajasini, etakchi tarmoqlar joylashuvi haqida tushuncha berish, har bir mintaqaning tabiiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotni yuksaltirish bo‘yicha vazifalarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan mushtarak holda amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatishdan iborat.

Shuningdek, fanning asosiy vazifalarini quyidagi tarkibda tizimlashtirish mumkin:

¹ Soliyev Abdusami Soliyevich, Ahmedov Erkin A‘zamovich, Mahamadaliyev Ravshan Yo‘ldoshevich, Nazarov Mamatqodir Ismatillayevich, Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Boltayev Mahmudjon Jaloldinovich, Atajanova Umida. Mintaqaviy Iqtisodiyot o‘quv qo‘llanma

- Hududlar tabiiy sharoiti va boyliklarini tahlil qilish, ularga iqtisodiy baho berish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti masalalarini o‘rganish;

- Mintaqaviy infrastruktura va ijtimoiy–iqtisodiy omillarni tadqiq qilish;

- Ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri hududiy tashkil qilish, ularni davlat tomonidan tartibga solib borish;

- Mintaqaviy siyosatning ilmiy asoslarini yaratish, iqtisodiy rayonlashtirish;

- Mintaqaviy dasturlash va mintaqaviy bashorat, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha Bosh sxemalarni tuzish;

- Erkin iqtisodiy mintaqalar, investitsiya makonini tashkil qilishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratish;

- Shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, geoekologik muammolarni o‘rganish va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiyotning yuqorida keltirilgan vazifalari yoki asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o‘tish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda qator atama va tushunchalardan foydalaniladi. Shulardan eng muhimi hudud–yer, ya‘ni quruqlik yuzasining cheklangan qismi. Unga maydon, o‘ziga xos geografik o‘rin va boshqa shu kabi belgilar xos. Hududni to‘ldiruvchi tushunchalar bo‘lib akvatoriya–yer suv qobig‘ining cheklangan qismi va aerotoriya – yer havo qobig‘ining quyi qatlami hisoblanadi. “Hudud”, “akvatoriya”, “aerotoriya” tushunchalarini “geotoriya” -yer yuzasining geografik qobig‘i tushunchasi birlashtiradi.

Mintaqa (region)-bu ma‘lum hudud bo‘lib, u boshqa hududlardan qator belgilar bo‘yicha farq qiladi va o‘ziga xos bir butunlik, tarkibiy elementlari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjudligi bilan ifodalanadi. “Region” lotincha so‘z bo‘lib (regio), tarjima qilinganda mamlakat, o‘lka, oblast ma‘nosini anglatadi. “Region” so‘ziga sinonim qilib “rayon” tushunchasi ko‘pchilik olim va tadqiqotchilar tomonidan qabul qilingan.

Hududni mintaqalarga ajratish rayonlashtirish deb ataladi. Rayonlashtirish har doim maqsadli bo‘ladi, ya‘ni u biror-bir maqsadni ko‘zlab amalga oshiriladi. Bir hudud doirasida bir nechta turdagi rayonlashtirish amalga oshirilishi mumkin.


Fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar. Hozirda “Mintaqaviy iqtisodiyot” xilma-xil umumilmiy va maxsus fanlar metodlaridan foydalanmoqda. Ularni shartli tarzda mintaqaviy iqtisodiy tahlil va mintaqaviy iqtisodiyotning matematik modellariga taqsimlash mumkin. Shularning ichida balans metodi asosiy o‘rin egallaydi. Balans metodiga tayangan holda tarmoqlar balanslari, undan keyin hududiy tarmoqlararo balanslar ishlab chiqiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda qiyosiy-geografik va kartografik, ekspert baholash va boshqa metodlardan ham keng foydalaniladi. Mintaqaviy iqtisodiyotda modellashtirish, ekonometrik va boshqa metodlar ham keng qo‘llanilmoqda.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fani olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarning maqsadi hududiy tuzilmani takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan. Mintaqaviy iqtisodiyot texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimiga tayanadi, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash usullarini keng qo‘llaydi, ishlab chiqarishni joylashtirishning iqtisodiy boshqarish mexanizmini o‘rganadi. Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko‘pgina iqtisodiy omillar chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Mintaqaviy iqtisodiyot fanini o‘rganish usullari quyida keltirilgan (1.1-rasm). Didaktik usul tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganishga asoslangan. Didaktik usulda rivojlanish quyidan yuqoriga, bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivojlanadi. Didaktik induksiya va deduktsiya usullaridan tarkib topgan.

Induktsiyada yakka fakt olinib, umumiy xulosa chiqariladi. Deduktsiyada esa aksincha. Ilmiy abstraktsiya usulida mavhum ob‘yekt ilmga tayangan holda o‘rganiladi va uning faqat asosiga e‘tibor qaratiladi. Makro darajada o‘rganishda nazariy masalalarni keng ko‘lamda, mikro darajada esa kichik bir ko‘lamda o‘rganish tushuniladi. Taqqoslash usulida o‘rganilayotgan ob‘yekt davrlar bo‘yicha yoki boshqa bir ob‘yekt bilan taqqoslanadi. Statistika usulida tadqiqot sonli ko‘rsatkichlarga, jadval ma‘lumotlariga asoslanadi. Jadval ma‘lumotlarini chizmalarda aks ettirish grafik usul mohiyatini ochib beradi. Tizimli tahlil usuli bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo‘yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxmini bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari

quyidagilardan iborat: Didaktik usul: induksiya, deduksiya; tahlil va sintez; ilmiy abstraksiya; makro va mikroiqtisodiyot; statistik; taqqoslash. Tadqiqot jarayonida tizimlash o‘rganilayotgan hodisalarni alohida belgilariga ko‘ra guruhlariga ajratish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, turlash, umumlashtirish va boshqa usullar qo‘llaniladi. Balans uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida tushuntiriladi




1.1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari²

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o‘z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat:- hududiy usul; -tarmoq uslubi; -mahalliy uslub. Kartografik uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko‘rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo‘ysunuvchi iyerarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - iyerarxik pog‘onaning tadqiqot ob‘ekti; kartografik hududiy iqtisodiy jarayonlarni iqtisodiy matematik modellashtirish; xo‘jalik tarmoqlari rivojlanishini modellashtirish; mintaqada xo‘jalik xo‘jalik majmualari rivojlanishini modellashtirish; iqtisodiyot tarmoqlarining mutanosib rivojlanishini modellashtirish; tizimli tahlil quyi bosqichlarini egallab turgan ma‘muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar. Ijtimoiy so‘rovlar uslubi. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar

² Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.:2019.-228 b.,9 bet

xodimlarining ochiq chiqishlari bo'yicha dalillarning tahlili va boshqalar. Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o'rganish nihoyatda ko'plab usul va vositalarga tayanadi.



1.2-rasm. Alohida hududlar doirasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tadqiq qilishda qo'llaniladigan usullar.³

“Mintaqaviy iqtisodiyot” iqtisodiyotning yangi tarmoqlaridan biridir. Yaqin yillargacha iqtisodchilar juda ko'plab muammolarni tadqiq etishgan bo'lsada, biroq ularning hududiy o'zgarishlari tahlil etilmagan. Geograflar esa, muammolarning oddiy ta'rifini berib xaritada tasvirlashadi. Shaharlar rivojlanishini rejalashtiruvchilar ham shahar maketini yaratish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulot bilan cheklanib qolishgan

Oxirgi o'n yillikda turli kasb egalari - iqtisodchilar, geograflar, ekologlar, shahar va mintaqa iqtisodchilari dolzarb muammolar ustida umumlashgan holda tadqiqot ishlarini olib borishdi.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining tadqiqot usullari⁴:

³ Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.:2019.-228 b.,10 bet

⁴ R. Capello. Regional Economics, 2015 by Pearson Education, Inc.p. 38.

Tizimli tahlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo'yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish xususiyatlarini kompleks o'rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Balans uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida tushuntiriladi. Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubini o'z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat: hududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish yo'llarini mintaqaviy darajada o'rganish); tarmoq uslubini (tarmoqlar iqtisodiyotini geografik aspektida tadqiq etish); mahalliy uslub (ishlab chiqarishni uning birinchi bo'g'ini - alohida shahar, aholi punkti darajasida joylashtirish va rivojlantirishni o'rganish).

Iqtisodiy-matematik modellashtirish (mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining hududiy proporsiyalarini modellashtirish, mintaq xo'jaligini tarmoqlar bo'yicha modellashtirish, mintaq xo'jalik majmualarining shakllanishini modellashtirish).

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo'ysunuvchi ierarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - ierarxik pog'onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma'muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Ijtimoiy so'rovlar uslubini. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo'yicha faktlarning tahlili va b.q. Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o'rganish nihoyatda ko'plab usul va vositalarga tayanadi.

1.3.-rasm. Mintaqaviy iqtisodiyot fanida “joy” hududiy makonni o'rganish dolzarbligi

Xususan, 1940-yilda U.Ayzard tomonidan mintaqashunoslik faniga asos solindi. Mintaqaviy iqtisodiyot fani makon (joy) xarakteriga ega bo'lgan iqtisodiy tizimlarni o'rganadi. Mintaqaviy yoki “makon (joy)” iqtisodiyoti quyidagi savol bilan ifodalanishi mumkin.⁵

“Nima, qaerda va nima uchun?”

“Nima” savoli iqtisodiy faoliyatning har bir turiga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish korxonalarini, fermer xo'jaliklari va boshqa turdagi biznes faoliyati, uy xo'jaligi, xususiy va jamoat tashkilotlarini “qayerda” joylashuvini o'rganadi.

Turli kasb egalari-iqtisodchilar, geograflar, ekologlar, shahar va mintaq rivojlanishini rejalashtiruvchilar, mintaqashunos olimlar va urbanizatsiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar shahar va mintaqalarning nihoyatda muammoli vaziyatlarini o'rganadilar. Mintaqa iqtisodiyotida tabiiy resurslar va ishlab chiqarishning konsentratsiyasi,

⁵ <https://fayllar.org/1-mavzu-mintaavij-itisodiet-fanining-predmeti-masadi-va-vazifa.html>

transport va kommunikatsiya tizimini shakllanishiga oid dolzarb muammolarni o'rganadi.

Makon (joy) yoki mintaqa iqtisodiyotini o'rganishda qanday dolzarb muammolar bor? Ular biz ko'rishimiz mumkin bo'lgan turli darajalarda vujudga keladi. Hududiy muammolar makroiqtisodiyot darajasida, uy xo'jaliklari yoki biznes firmalarida qarorlarni qabul qilishda yuzaga kelishi mumkin.

Jumladan, biznes firmasi bozor, material manbalari, ishchi kuchi, xizmatlar va boshqa hududiy omillar bilan bog'liq bo'lgan qulay joyni tanlaydi. Biznes faoliyati bilan shug'ullanmaydigan tashkilotlar, uy xo'jaligi, ijtimoiy tarmoqlar ham joy tanlash muammosi bilan to'qnashadi. Bunda narx-navo va foyda nuqtayi nazaridan qulay bo'lgan joy tanlash bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar yuzaga keladi. Shu sababdan mintaqaviy iqtisodiyot fanida barcha ijtimoiy-iqtisodiy obektlarning joylashuvi muhim tadqiqot ishi sifatida o'rganiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanida joyga baho berishda transport va aloqa xizmatlarining roli yuqoridir. Xususan, tovar va xizmatlarning hududiy joylashuvi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, bir qator omillarga – transport va aloqa vositalarining texnik holati, logistika xizmatlariga bogliqdir. Shu sababdan, mintaqaviy iqtisodiyot fani transport omili nuqtayi nazaridan turli xil joylarning imkoniyatlarini o'rganadi. Aynan alohida mintaqada iqtisodiyotning shakllanishi iqtisodiy munosabatlarga bevosita bog'liqdir.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani hududiy makonda narx-navo bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni va talabni tahlil qilishi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu tahlil iqtisodiyotning hududiy jihatlarini baholash imkoniyatini kengaytirib, narx-navoning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan hududiy yechimlarni beradi. Tahlil natijalari barcha iqtisodiyot tarmoqlarining joylashgan modellarini tushunish imkoniyatini beradi. Jumladan, neft qazib oluvchi texnologiyalarni sotish neft-gaz sanoati rivojlangan hududlarda ko'proq qiziqish uyg'otadi. Mintaqalarda narx-navoning shakllanishi hududiy imkoniyatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiyot hududiy konsentratsiyalashuvining turli xil ko'rinishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiat va tabiiy sharoitlar mintaqalarda va joylarda joylashtirish qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Har bir iqtisodiy faoliyat ma'lum bir joyni talab etadi. Mazkur fanda joy va masofa bir o'lchov birligida tahlil etiladi. Hududda joy va masofa

ikki tomonlama rol o'ynaydi. Birinchi tomondan, masofa qiymat va noqulaylikni o'zida aks ettiradi. Insonlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida masofa bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishda transport va aloqa vositalari muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, mahsulotni bozorga olib borish zaruriyati yuzaga kelganda masofa bilan bog'liq bo'lgan noqulayliklarni bartaraf etishda transport muhim rol o'ynaydi. Har qanday inson faoliyati uchun ma'lum bir joyni tanlab olish zarur. Shu sababdan aynan bu masalalar mintaqaviy iqtisodiyot fanining tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanida joy yoki hududni tanlashga bo'lgan raqobatning yuzaga kelishi asosiy qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Bu esa, ma'lum bir joyda yoki biron bir nuqta atrofida yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot yo'nalishlarini o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Misol uchun, bozor markazi atrofida qishloq xo'jaligi zonalarining joylashuvi yoki bir qator sanoat tarmoqlarining joylashuvi ham yerdan foydalanish sohasining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Mintaqaviy iqtisodiyot fanida bir qator o'rganiladigan muammolar yerdan foydalanish bilan bog'liqdir. Yer maydonidan qanday samarali foydalanish mumkin? Biroq, firma, uy xo'jaligi yoki sanoat korxonasi qaysi manzil bo'yicha yaxshiroq joylashgan? - bu masalada o'rganish maqsadga muvofiq emas. Buning mohiyatini anglash uchun har bir tadqiqotchi, yer egalari, tadbirkorlar lokal miqyosda qanday jarayonlar sodir bo'layotganini o'rganishi zarur.

Yerdan foydalanish masalasini tahlil qilish shaharlarda iqtisodiy faoliyatni hududiy tashkil etish mohiyatini anglash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shu sababdan, mazkur fanda yerdan foydalanishda resurslarni taqsimlash va shaharlar hududiy tarkibining fundamental asoslarini shakllantirish tamoyillari o'rganiladi. Bu tahlil shaharsozlik bilan bog'liq muammolar yechimida muhim rol o'ynaydi.

Ta'kidlash lozimki, mintaqaviy iqtisodiyot fani alohida mintaqada doirasida urbanizatsiya qonuniyatlarini - shaharlar funksiyasi va uning o'lchamlari, shaharlar joylashuvini tadqiq etadi.

Katta shahar o'zining funksiyasini qanday bajarmoqda? Yoki hududiy tarkibda uning o'rni qanday bo'lmoqda? Qanday o'lchamdagi shaharlar davlat obektlari va biznes faoliyati uchun yaxshi joy hisoblanadi?

Rivojlangan yoki rivojlanmagan hududlarda qanday o'lchamdagi va tarkibdagi shaharlarni joylashtirish zarur? Mazkur savollar mintaqaviy iqtisodiyot fanini o'rganishda dorlzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman

olganda, mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatni hududiy tashkil etish va bu jarayonga taʼsir koʻrsatuvchi omillarni oʻrganadi.

Fan predmeti doirasida oʻrganiladigan muammolar. Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot fanlari tizimida “Mintaqaviy iqtisodiyot” yangi va mustaqil fan sifatida shakllanmoqda. Har bir mamlakatda tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining oʻziga xos jihatlarini aks ettiruvchi turli-tuman hududlarning joylashuvi mintaqaviy tadqiqotlarning rivojlanishiga sabab boʻldi. Mintaqaviy iqtisodiyot fani doirasidagi dastlabki tadqiqotlar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va iqtisodiy hududlashtirish muammolarini oʻrganishga qaratilgan edi.

Bugungi kunda “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanida mintaqaviy diagnostika, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, prognozlashtirish, dasturlashtirish, strategik tahlil va strategiyalarni ishlab chiqish, hududiy boshqaruv kabi yangi tadqiqot yoʻnalishlari shakllanib bormoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyotning *tadqiqot obekti* turli hududiy-iqtisodiy obʼektlar, jumladan, mintaqalar, iqtisodiy hududlar, viloyatlar, qishloq tumanlari boʻlishi mumkin. Bu obektlar mamlakatimizda berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning hududiy jihatlarini, milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini oʻzida aks ettiradi. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot koʻlamiga va qoʻyilgan maqsadga qarab turib, uning obekti sifatida yirik iqtisodiy hudud, respublikaning alohida mintaqasi yoki viloyat, qishloq tumani, shaharlar va boshqa hududiy birliklarini ajratib olish mumkin. Eng muhimi, ularning har biri oʻzaro aloqadorlikda va bir-birini toʻldirib boruvchi hududiy birliklar majmuasi hisoblanadi.

Shunday qilib, mintaqaviy iqtisodiyot alohida mintaqalarning iqtisodiyotini, xususan, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud obektiv shart-sharoitlar (geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, demografik, ishlab chiqarish va resurslar salohiyati) yoki ichki va tashqi omillar, ishlab chiqarish, ijtimoiy soha va aholining yashash sharoitlari, xoʻjalikni joylashtirish tizimi va uning boshqaruv mexanizmini oʻrganuvchi fandır.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani ishlab chiqarish omillarining hududiy jihatlarini, iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish qonuniyatlari, hududiy rivojlanish salohiyati va unga taʼsir etuvchi ichki va tashqi omillarni oʻrganadi.

Shuningdek, makroiqtisodiy prognozlashtirish, tarmoqlar iqtisodiyoti va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning tadqiqot

yoʻnalishlarini ham oʻrganadi. Ushbu fan oʻz tadqiqot predmeti doirasida mintaqalarning iqtisodiy muammolari bilan birga, ekologiya, ijtimoiy soha, hududiy boshqaruv masalalarini ham keng miqyosda qamrab oladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani doirasida quyidagi muammolar oʻrganiladi:

- davlatning viloyat, hududlarga nisbatan iqtisodiy siyosati va uning mazmun-mohiyati;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va hududiy boshqaruvni tashkil etish mexanizmi, uni takomillashtirish masalalari;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi;
- strategik rejalashtirish, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muammolari;
- uzoq va oʻrta muddatda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlashtirish masalalari;
- hududiy ixtisoslashuvning samaradorligi, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash muammolari;
- mintaqalarni kompleks rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning hududiy muvozanatligini taʼminlash masalalari;
- mintaqalar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va iqtisodiy hududlashtirish masalalari;
- tabiiy-iqtisodiy salohiyat va ishlab chiqarish omillarining hududiy jihatlari va boshqa muammolar.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti keng qamrovli boʻlib, oʻz tarkibiga quyidagilarni oladi:

- alohida mintaqa iqtisodiyoti;
- mintaqalar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar;
- hududiy tizimlar (bu yerda milliy iqtisodiyot oʻzaro aloqadorlikda boʻlgan mintaqalar tizimi sifatida qaraladi);
- ishlab chiqarishni joylashtirish masalalari;
- iqtisodiy faoliyat, shuningdek, moliya, investitsiya jarayoni, mehnat faoliyati, turmush darajasining hududiy jihatlari oʻrganadi.

1.2. XIX-XX asrlarda mintaqaviy tadqiqotlar maktabi va fanning bugungi kundagi rivojlanish yoʻnalishlari

Taʼkidlash lozimki, oʻtish davrida Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan barcha tarkibiy oʻzgarishlar bevosita mintaqalardagi tabiiy-iqtisodiy salohiyat, hududiy omillar va ichki imkoniyatlarga bogʻliq boʻlib qolmoqda. Shu sababdan mintaqaviy iqtisodiyotning *asosiy maqsadi* mintaqalar oʻrtasida mehnat taqsimotini oqilona joriy etish, har bir mintaqada aholi turmush darajasini oshirish va yashash sharoitlarini birday yaxshilash, ular oʻrtasidagi tafovutni bartaraf etishdan iborat.

Shunga koʻra, mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mintaqalarning ichki va tashqi omillarini, tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash, ularning iqtisodiy oʻsishiga boʻlgan taʼsirini oʻrganish.

2. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, yuzaga kelayotgan hududiy disproporsiyani aniqlash, uni bartaraf etish boʻyicha ilmiy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish.

3. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.

4. Mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish, hududiy boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy koʻrsatmalar va takliflarni ishlab chiqish.

5. Uzoq muddatda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining konseptual asoslarini va hududiy dasturlarini ishlab chiqishga ilmiy - uslubiy koʻmak koʻrsatish.

Respublika hududlarining asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarini prognozlashtirish, uning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish. Mintaqaviy iqtisodiyotning fan maqomida shakllanishi uncha katta tarixga ega emas.

Mazkur fanning shakllanishi ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik gʻoyalari yuzaga kelishi bilan bevosita bogʻliqdir. 1826-yilda nemis olimi I.Tyunen birinchi marta iqtisodiyotning hududiy jihatlarini oʻrganib, shahar atrofida qishloq xoʻjaligi tarmoqlarini halqasimon joylashtirishni asoslab berdi. Keyinchalik ishlab chiqarishni joylashtirish gʻoyalari boshqa nemis olimlari - A.Veber (sanoat, standart), V.Kristaller (markaziy oʻrinlar), A.Lyosh (iqtisodiy landshaftlar)

tomonidan rivojlantirilgan. Ammo u davrda yaratilgan g'oyalar majmui alohida fan doirasida o'zlashtirilmagan edi.

Fan maqomida esa mintaqaviy iqtisodiyot amerikalik U.Ayzard tomonidan XX asr o'rtalarida yaratildi. Albatta, mazkur fan asoslarining shakllanishida Fap6 klassik iqtisodchilarining (U.Petti, A.Smit, D.Rikkardo va boshqalar) nazariy ishlanmalaridan foydalanilgan. Ayni vaqtda, mintaqaviy iqtisodiyot mintaqaviy fanlar uyushmasiga ham kiradi. Bu uyushmani bir vaqtlar, aniqrog'i XX asr o'rtalarida amerikalik olim U.Izard (Ayzard) tashkil qilgan va boshqargan edi. Shu sababdan, uni mintaqaviy yoki regional fanlar "otasi", asoschisi sifatida tan olishadi.⁶

Bu fan mintaqalarni yaxlit bir tizim sifatida o'rganishga qaratilgan edi. Shu nuqtayi nazardan "mintaqa" iqtisodiyot, geografiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, psixologiya kabi fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblangan.

Mintaqaviy iqtisodiyot mintaqashunoslik fanlarining bir qismidir. Darhaqiqat, bugungi kunda mintaqaviy iqtisodiyot fani iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, demografiya, ekologiya, sotsiologiya, menejment, statistika kabi bir qator fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanmoqda, Mazkur fan ularning tadqiqot metodlari va ilmiy-uslubiy yondashuvlaridan foydalanadi. Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiyot fani iqtisodiyot fanlari tizimida makro va mikroiqtisodiyotning uchinchi yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyot fanining shakllanishida S.K.Ziyodullaev, K.N.Bedrinsev, Z.M.Akramov, M.A.Abdusalomov, A.S.Soliev, T.M.Axmedov, A.M.Sodiqovlar katta hissa qo'shishgan. Ta'kidlash joizki, 1998-2004-yillarda O'zbekiston Milliy universitetida professor A.Soliev tashabbuslari bilan dastlab "Mintaqaviy iqtisodiyot" yo'nalishi bo'yicha bakalavriat ta'limi yo'lga qo'yilgan edi. Hozirgi kunda O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutida "Mintaqaviy iqtisodiyot" kurslarini o'qitish yo'lga qo'yilgan. Mintaqaviy iqtisodiyot sohasi bo'yicha yirik ilmiy tadqiqot markazlaridan biri-bu «Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti» hisoblanadi. Institutning "Uzoq va o'rta muddatlarda iqtisodiyotning hududiy muvozanatliligini ta'minlash" loyihasida respublika mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy

⁶ <https://fayllar.org/reja-mintaqaviy-iqtisodiyot-faning-predmeti-va-obekti.html?page=4>

rivojlanish tendensiyalarini baholash, strategiyalarini ishlab chiqish, tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash bo'yicha bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Milliy iqtisodiyot tarkibini tahlil va tadqiq qilishda ishlab chiqarish hududiy tarkibining turli shakllaridan foydalaniladi. Ularning barchasi davlatning boshqaruv funksiyasini va uning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda xizmat qilishi mumkin. Biroq, bu nuqtayi nazardan rasmiy mahalliy hokimiyat tizimiga ega bo'lgan ma'muriy iqtisodiy hududlar juda qo'l keladi. Shu bilan birga, mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi, geosiyosiy tuzilmasi obektiv holatda shakllangan iqtisodiy hududlarga (mintaqalarga) asoslanishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston hududining tabiiy geografik jihatdan turli-tumanligi uning "geografik geometriyasi", hududiy iqtisodiyotining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Jumladan, Respublika maydonining 70 foizdan ko'prog'ini tekisliklar tashkil etishi, an'anaviy sug'orma dehqonchilik uchun kerak bo'lgan suv resurslarining notekis taqsimlanishi, aholi va ishlab chiqarish zich joylashgan voha va vodiylar bilan bir qatorda yaxshi o'zlashtirilmagan cho'l mintaqasining mavjudligi ichki hududiy-iqtisodiy tuzilmaning shakllanishini belgilab beradi. Shuningdek, bunga mamlakat geoqiyofasi (hududining konfiguratsiyasi, shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa cho'zilganligi), chegara chizig'i, uning oddiy va murakkabligi ham ta'sir etadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakat hududi ichki tuzilmasining tabiiy jihatdan har xilligi uning iqtisodiy rivojlanishida ijobiy ahamiyatga ega. Chunki, bunday tabiiy geografik holat iqtisodiy geografik vaziyatning shakllanishi, hududiy mehnat taqsimotining keng rivojlanishiga imkon beradi. Zero, har qanday mukammal tizim bir tUSDagi tarkibiy qismlarning oddiy yig'indisi emas, balki ularning turli-tumanligidan tashkil topadi.

Aynan ana shunday sharoitda hududiy birliklar bir-birini to'ldiradi, ular o'rtasida iqtisodiy integratsiya jarayoniga ehtiyoj tug'iladi va shu asosda iqtisodiyotning hududiy samaradorligi vujudga keladi. Biror-bir mamlakatning hududi tabiiy va iqtisodiy jihatdan mutloq bir xil bo'lmaydi. Xuddi shunga mos ravishda ishlab chiqarish kuchlari ham hudud bo'yicha bir tekis joylashmaydi. Notekislik esa, o'ziga xos hududiy-iqtisodiy rivojlanish omilidir. Qizig'i shundaki, har qanday mamlakat yoki viloyat o'zining hududida ishlab chiqarish kuchlarini bir tekis joylashtirishga, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini

tenglashtirishga harakat qiladi, ammo mutloq holda bunday tenglik hech qachon amalga oshmaydi.

Siyosiy mustaqillikka erishgan mamlakatlarda iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ularning ichidagi mehnat taqsimotini zaruriyat qilib qo'ydi. Chunki, ilgari tizimda respublikalar iqtisodiy makoni ichki jihatdan turlanmagan, asosan muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yoki xom ashyo bazasiga yo'naltirilgan edi. Natijada siyosiy mustaqillikni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash muammosi eng dolzarb bo'lib qoldi. Iqtisodiy mustaqillik esa, makroiqtisodiy sohada yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat (don), yo'l-transport tizimini jadal rivojlantirish, mamlakat ichki salohiyatidan to'laroq foydalanish, mintaqalarning bozor munosabatlariga tezroq moslashuvi, ularning iqtisodiy faolligini oshirishni taqozo etadi.

Hududiy mehnat taqsimoti va uning doimiy "yo'ldoshi" bo'lgan ixtisoslashuv natijasida iqtisodiy hududlar shakllanadi. Ular esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini tashkil qiladi. Ammo hududiy tarkib faqat iqtisodiy hududlar qatoridan iborat emas, u ma'muriy birliklar, tabiiy geografik va gidrografik omillar asosida ham belgilanishi mumkin. Iqtisodiy hududlar mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosatning obekti hisoblanadi. Agar ilgari iqtisodiy hududlashtirish xalq xo'jaligini rejalashtirish maqsadida ajratilgan bo'lsa, hozirgi sharoitda ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning asosiy shakli, davlat mintaqaviy siyosatining obekti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solib borish va boshqarish uchun zarur.

Qolaversa, iqtisodiy hududlarsiz mamlakat xo'jaligi ichki tuzilishi, hududiy tarkib va tizimini o'rganish ham qiyin. Aynan ana shu maqsadlarda iqtisodiy hududlashtirishning amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy - siyosiy tashkil etish va boshqarish yuzasidan ma'muriy- hududiy jihatdan ajratish, iqtisodiy hududlashtirish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy hududlashtirish mamlakat hududining katta-kichikligiga unchalik bog'liq emas, eng muhimi, iqtisodiy makon ichki jihatdan turlangan bo'lishi kerak. Ichki tafovutlar qanchalik katta bo'lsa, iqtisodiy hududlar turi va tizimi ham shuncha rivojlangan bo'ladi. Chunonchi, maydoni juda katta bo'lgan Avstraliya mamlakatida juda ko'p iqtisodiy hududlarni ajratish qiyin, vaholanki unga qaraganda ancha kichik bo'lgan yevropa davlatlarida bir qator hududlar shakllangan.

Iqtisodiy hududlarning turlari va shakllari har xil, ular butun mamlakat hududini o‘z ichiga olishi (unda maydon, iqtisodiy ahamiyatidan qat‘iy nazar, turli qismlarga bo‘linadi) yoki uning alohida joylarida, ya‘ni diskret holda ajratiladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy hududlar umumiy (integral) va tarmoq hududlarga bo‘linadi. Shuningdek, mamlakat hududi ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial hududlarga ham ajratilishi mumkin. Ammo, bu hududlarning hududiy ko‘lami bir-biridan farq qiladi. Odatda, iqtisodiy hududlarga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy hududlar kichikroq, ulardan esa sotsial hududlar yanada kichikroq bo‘ladi. Bunday farqlar har xil turdagi hududlardagi hudud hosil qiluvchi omillarga bog‘liq.

1.3. Mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari hamda uning asosiy jihatlari

Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo‘jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o‘zaro munosabati tufayli hosil bo‘lgan yaxlit birlikdir. Binobarin, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi hamda unda erkin bozor munosabatlarining joriy etilishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon beradi. Mamlakatdagi har bir hudud o‘zining iqtisodiy salohiyatiga asoslanib ish yuritishi, mavjud ichki resurslardan oqilona foydalanishi va dunyo miqyosida respublika nufuzining ortishiga o‘z hissasini qo‘shishi orqali mintaqa iqtisodiyoti taraqqiy etib boradi. Mamlakat muayyan hududlar yig‘indisi, shuning uchun, mamlakatdagi har bir hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish va uzluksiz taraqqiyotni ta‘minlab beruvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda uning ta‘sir yo‘nalishlarining tahlili asosida tavsiya, taklif va amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, butun jahonda kechayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozi ham alohida mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotini muntazam kuzatib borish va uni xalqaro iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga tayyor turishini ta‘minlash mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishning muhim shartidir. Mintaqa yohud alohida hududlar taraqqiyotini o‘rganish avvalo “hudud”, “iqtisodiy hudud”, “iqtisodiy hudud rivojlanishi”, “mintaqa”, “iqtisodiy rayon”, “iqtisodiy rayonning barqaror rivojlanishi” atamalarining mohiyatini ochib berishni taqozo etadi. Hudud (region) tushunchasining mohiyati – iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Masalan, hududiy

rivojlanish – bu territorial tizimning aholi turmush darajasi va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan holati bo‘lib, unda 7 hududning o‘zaro bir – biriga salbiy ta‘sir etmaydigan, barqarorlik bilan ta‘minlangan va muvozanatlashgan ijtimoiy, xo‘jalik, resurs va ekologik salohiyati doimiy takror ishlab chiqariladi. Hozirgi paytda tubdan o‘zgarib borayotgan O‘zbekistonning zamonaviy xo‘jalik majmuasi murakkab tarmoqlar tizimini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida elektrotexnika va elektronika, metallurgiya, mikrobiologiya va kimyo sanoati tarmoqlarida ko‘plab yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi, hamda bu soha mahsulotlarini qayta ishlash va xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bo‘lib qolmoqda.

1.4. Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish metodlari.

Ma‘lumki, har qanday siyosat, sub‘yektning ob‘ektga bo‘lgan munosabatini bildiradi va u muayyan prinsip (tamoyil) va metod (usul)lar majmuasidan tarkib topadi. Agar uni alohida shaxs yoki rahbar misolida emas, davlat darajasida ko‘radigan bo‘lsak, u holda siyosat, eng avvalo, ikki yo‘nalishda bo‘ladi. Chunonchi, davlatning tashqi siyosati – bu uning jahon hamjamiyatidagi boshqa suveren davlatlar bilan munosabati, jahon siyosiy xaritasi va geotuzilmasidagi o‘rnidir. Mazkur siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra an‘anaviy, haqiqiy yoki “siyosiy siyosat” hisoblanadi va u bilan maxsus fan – siyosatshunoslik shug‘ullanadi. O‘z navbatida tashqi siyosat turli yo‘nalishlardan iborat. U, avvalambor, boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashash, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika, global ekologik muammolarni hal qilishdagi xalqaro aloqalarni o‘z ichiga oladi. Tashqi siyosatning bir ko‘rinishi–geografik siyosat, ya‘ni geosiyosatdir. Bu siyosatning mazmunini ham ikki xil talqin qilish mumkin: avvalgi reaksiyon ma‘noda va hozirgi to‘g‘ri mazmunda. Birinchisi, ko‘proq g‘arb mamlakatlarida alohida oqim sifatida, asosan nemis, ingliz va shved olimlari (Fridrix Rassel, Rudolf Chellen, Karl Xausxafer, Alfred Mexen, Xelford Makkinder va b.) tomonidan yaratilgan bo‘lib, u o‘ta reaksiyon, o‘zga davlatlar va millatlarni kamsitish, ularning hududlariga tahdid-tajovuz qilish, bosib olishni anglatadi.

Aytish joizki, aynan ana shunday geosiyosat mamlakatlar o‘rtasidagi nizolar, jangu-jadallarga sababchi bo‘lgan: nemis

fashizmining Ikkinchi Jahon urushini boshlashi ham g'oyaviy jihatdan reaksiyon geosiyosatga asoslangan edi.

Yer yuzining turli qismlarida mavjud bo'lgan hududiy kelishmovchiliklar asosida turli davlatlarning birinchi yo'nalishdagi geosiyosati yotadi. Masalan, yaqinda sobiq Yugoslaviya hududidagi janjallar, Isroil-Falastin munosabati, Panjob va Kashmir, Tog'li qorabog', Checheniston kabi juda ko'p muammoli hududlar shular jumlasidandir. Geosiyosatning hozirgi zamon, to'g'ri ma'nosi u yoki bu davlatning jahonning boshqa mamlakatlari, eng avvalo qo'shni davlatlar bilan tinch-totuv yashash, ular bilan turli sohalarda hamkorlik qilishni bildiradi.

Shuningdek, bu yerda mamlakatning jahon okeaniga va bozoriga arzon, qulay, beg'araz va bexatar yo'llar orqali chiqishi ham nazarda tutiladi. Aynan shu ma'nodagi geosiyosat respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan amalga oshirilgan. Bu haqda I.A.Karimovning ko'pgina asarlari va, xususan, uning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" (T.: O'zbekiston, 1997) kitobi katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur asarda geosiyosat bilan birgalikda geostrategiya masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, u asosan Yer yuzining turli qismlarini, jumladan O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasining jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini, geografik mavqeini anglatadi. Demak, qat'iy va uzil-kesil, bir ma'noda kelishib olish kerak: hozirgi geosiyosat bu avvalgi hududiy siyosatdan tubdan farq qiladi va u davlatlarning tashqi munosabatini bildiradi. Bunday siyosat o'z navbatida turli tarmoq-soha siyosatlaridan tashkil topadi.

Mamlakatning geografik mazmundagi ichki siyosatini mintaqaviy siyosat shaklida qabul qilgan ma'qulroq. Garchi "geo"-yer, hudud, mintaqa atamasiga to'g'ri kelsada, uning aynan shu ko'rinishi to'g'riroqdir. Sababi-davlatning bunday siyosatini hududiy siyosat darajasida talqin qilish ba'zan kishilar ongiga singib qolgan tushunmovchiliklarga, noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining alohida, mustaqil mamlakati maqomida, boshqa davlatlarning ham suverenligini e'tirof etadi, ularning hudud va chegaralarini dahlsizligini hurmat qiladi. Ayni vaqtda u o'zining yagona geosiyosiy tizim, makon sifatida yaxlitligini har qanday yovuzlardan himoya etadi va o'zgalar tomonidan hurmat qilinishini talab qiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, mamlakat geotizimining mustahkamligi, faolligi eng avvalo uning ichki

qismlarining o‘zaro aloqalari, ma‘muriy-hududiy tuzilmasining to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liq. Ichki barqarorlik har qanday tizim-sistemaning mustaqil faoliyat ko‘rsatishini, boshqalardan o‘zini saqlash qobiliyatining garovidir. Shu nuqtayi nazardan mamlakat ichida hududiy mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, rayon va viloyatlar orasida sog‘lom raqobat muhiti, faol iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, yagona geoiqtisodiy makonni vujudga keltirish va uni mustahkamlash, turli hududiy bosqichdagi bozorlarni (mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy bozor) shakllantirish O‘zbekiston Respublikasining hozirgi davridagi nihoyatda dolzarb vazifalaridir. Chunki, tizim-tarkib (sistema-struktura) qoidasiga muvofiq, butun alohida qismlardan tashkil topadi, qismlar, ya‘ni mintaqalar esa butunlik, mamlakat geosiyosiy va geoiqtisodiy yaxlitligini ta‘minlaydi. Mamlakatning ichki siyosati ham ikki xilda bo‘ladi: sohaviy, ya‘ni tarmoqlar va hududiy yoki integral. Birinchisiga ijtimoiy, iqtisodiy, fan-texnika, demografik kabi siyosatlar kiradi va ular ham o‘z navbatida alohida qismlardan, “siyosatlardan” tashkil topadi. Masalan, iqtisodiy siyosatda mamlakatimizning yoqilg‘i-energetika, oziq-ovqat va yo‘l (transport) mustaqilligini ta‘minlash, ijtimoiy siyosatda– aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandlik siyosati, yoshlar va qariyalarga davlatning munosabati, demografik siyosatda oila, aholining tabiiy va migratsiya harakati bilan bog‘liq masalalarni ajratish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, tizim yoki sistemaning ichki jihati, ya‘ni uning tarmoq yoki komponent hamda hududiy tomonlari borligidek, biz ko‘rayotgan siyosatlar ham xuddi shunday xususiyatga ega. Zero har qanday hodisa yoki voqelik, albatta qaerdadir mavjuddir; rivojlanish, taraqqiyot ham faqat ma‘lum davrdagina emas, balki muayyan hududda sodir bo‘ladi. Shu jihatdan yondoshganda, yuqorida keltirilgan sohaviy siyosatlar o‘z navbatida hududiy taalluqlikka ega, ya‘ni ular ham turli mintaqalarda turlicha amalga oshiriladi.

Demak, biz bu yerda tarmoq va hududiy tizimlarning (siyosatlarning) o‘zaro aloqadorligi va bir-birlariga o‘tib turishini guvohi bo‘lamiz. Mintaqaviy siyosatning eng asosiy maqsadi mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir. Ammo ko‘zda tutilgan maqsadlarga eng avvalo iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri joylashtirish asosida erishiladi. Binobarin, har qanday mintaqaviy siyosat bu hududiy iqtisodiy siyosatdir, iqtisodiy siyosat esa keng ma‘nodagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir. Ma‘lumki, mintaqaviy

iqtisodiyot fani asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni o'rganadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish esa mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi.

Jumladan, o'tish davrining iqtisodiyoti bu davrni mumkin qadar tezroq va beshikast bosib o'tish, bozor iqtisodiyotining mustahkam ishlab chiqarish, huquqiy va ma'naviy asoslarini yaratishni talab qiladi.

O'tish davrida har qanday mamlakat eng avvalo iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu davrda ayniqsa energetika, don va yo'l mustaqilligini ta'minlash zarur.

Aynan ana shu makroiqtisodiy muammolar O'zbekistonning hozirgi kuni uchun o'ta muhimdir. Bozor munosabatlariga o'tish turli mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, barcha davlatlarga mos yagona andoza yo'q. Bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat bevosita iqtisodiyot tizimining o'zi, balki ichki va tashqi vaziyat, ijtimoiy va ekologik holatning qulayligi, aholining yangi munosabatlarga tayyorligi, ma'naviyati va moslashuvi kabi omillarga ham bog'liq.

O'tish davri chindan ham oraliq davrdir; dialektik nuqtayi nazardan bunday sharoitda yangilikning qiyinchilik bilan kirib kelishi, eskilikning ma'lum darajada saqlanib turishi, ular o'rtasidagi "kurash" bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bu davrning yana boshqa murakkab jihati shundan iboratki, davlat ilgorigidek qat'iy va adresli rejalashtirishni tashkil etmaydi, chunki endi mulk faqat uning tasarrufida emas. Binobarin, bu davrda davlatning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga bo'lgan munosabati keskin o'zgaradi, u bu jarayonga bevosita emas, ko'proq bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ta'kidlash joizki, davlat o'z funksiyasining shakli va mexanizmini o'zgartirgan holda har qanday sharoitda ham asosiy islohotchi, tashkilotchi bo'lib qolaveradi. Bu O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatning bozor munosabatlariga o'tish davriga tegishli besh tamoyillaridan biridir.

Davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi roli, shuningdek, ayrim xo'jalik tarmoqlarining o'tish davrida bevosita uning qaramog'ida qolishi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, faqat davlat strategik vazifalar, xalqaro munosabatlar va ichki mintaqaviy siyosatni amalga oshiradi. Ammo, shu bilan birga, o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yish xavfi tug'iladi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Hududlarga erkinlik berilishi ayni vaqtda ularning xo‘jalik tizimini o‘zicha, nazoratsiz rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga muvofiqlashmaslik xavfi;
- Hududiy mehnat taqsimotini yaxshi boshqarmaslik oqibatida mintaqalar iqtisodiyot samaradorligining pasayishi;
- Ichki rayonlar va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanmasligi, turli darajadagi bozorlar shakllanishining qiyinlashuvi;
- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning saqlanib qolishi;
- Tabiiy resurslardan shoshmashosharlik bilan noto‘g‘ri foydalanish, ekologik muammolarning yuzaga kelishi va keskinlashuvi;
- Ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishda nisbiy afzallik (D.Rikardo) qonunining buzilishi;
- Ishlab chiqarishning noto‘g‘ri regionlashuvi, eksport import jarayonini amalga oshirishdagi ba‘zi qiyinchiliklar va h.k.

Tabiiyki, yuqoridagi kamchiliklar davlat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga salbiy ta‘sir qiladi. Zero, to‘g‘ri boshqarilmagan va tashkil qilinmagan demokratiya beboshlikka olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, hududlar rivojlanishi to‘g‘ri tartibga solinmasa, boshqarilmasa mintaqalarda 10 erkin raqobat muhiti, ochiq iqtisodiy munosabatlar to‘laqonli vujudga kelmaydi; bunday sharoitda “regional xudbinlik” alomatlari paydo bo‘lish ehtimoli saqlanib qoladi. Demak, o‘tish davri iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishining davlat tomonidan tartibga solib borilishi ob‘ektiv qonuniyatdir. Ushbu vazifa eng avvalo davlatning mintaqaviy siyosati orqali amalga oshiriladi. Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o‘zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo‘lmasligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo‘lgan ustuvor yo‘nalish va tarmoqlarga qaratiladi. Shu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo‘nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;

- Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko‘tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;
- Joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- Shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;
- Ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri hududiy tashkil etish;
- Aholi bandligini yaxshilash va h.k.

Yuqoridagi strategik maqsadlarga turli yo‘llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko‘rinishida tenglashtirish g‘oyasidan voz kechish talab qilinadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhitini yaratish lozim. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda o‘zaro manfaatli qo‘shma korxonalar qurish, turli yo‘nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish hududlar rivojlanishiga katta turtki beradi.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o‘shish qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so‘ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o‘tadi.

Natijada, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy sikllik yoki davriylik, “geografik uzun to‘lqinlar” xususiyatiga ega bo‘ladi. Shu sababdan, ma‘lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg‘u berilishi boshqa hududni kamsitish, imtiyozlarini cheklashni anglatmaydi. Chunki, keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e‘tibor beriladi. Ammo mintaqaviy siyosat hududlarning o‘zlarini ham faolligini nazarda tutadi. Shuning uchun mahalliy hokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo‘lishi talab etiladi.

Mintaqaviy siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra tashqi siyosatdan (geosiyosatdan) farq qilib, u mamlakatning ichki ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uning darajalari ham har xil. Masalan, mamlakat ichkarisiga nisbatan 2 darajadagi siyosat ajratiladi: davlatning mintaqaviy siyosati, ya‘ni mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o‘zini siyosati–viloyat hokimiyatining qishloq, tuman va

shaharlar rivojlanishiga munosabati. Har qanday sharoitda ham ushbu siyosatni yurgazuvchi yuridik tashkilot respublika va viloyatlar hokimiyati hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni hududiy jihatdan yanada yuqoriroq yoki quyiyoq bosqichda ko'rish mumkin. Chunonchi, qishloq tumani hokimligining ham o'zining ichki siyosati bo'ladi. Ayni vaqtda davlat darajasidan yuqorida turgan davlatlararo mintaqaviy siyosat ham mavjud. Bunda mintaqa sifatida alohida davlatlar yoki qo'shni mamlakatlarning tutash hududlari nazarda tutiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi miqyosida ana shunday mintaqaviy siyosat olib boriladi. Kelajakda xuddi shunday darajadagi mintaqaviy siyosat boshqa hududiy iqtisodiy ittifoqlar darajasida ham qo'llanilishi mumkin. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda mintaqaviy siyosat amalda yo'q edi. Ba'zi hududlarning jadalroq rivojlanishi ko'proq "Butunittifoq" manfaatlarini ko'zlab olib borilardi. Jumladan, Mirzacho'l yoki qarshi dashtlarini o'zlashtirib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, Buxoro, Qashqadaryo tabiiy gaz, Navoiy viloyati oltin konlarini qazib olish aynan shu maqsadda bajarilgan. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mintaqaviy siyosatga tegishli ilmiy tadqiqotlar ilgari ham olib borilgan. Sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha Kengash (SOPS) Respublika hududlar imkoniyatlarini atroflicha tadqiq qilish, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish konsepsiyalarini yaratgan. Dastavval Farg'ona vodiysi, so'ngra Buxoro-Navoiy, Angren-Olmaliq, Qashqadaryo va quyi Amudaryo mintaqalari maxsus o'rganilib, bu hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning bosh sxemalari tuzilgan. Olib borilgan ishlar natijasida o'sha davrda Ittifoqda mashhur bo'lgan mintaqalar kompleks muammolarini o'rganish ilmiy yo'nalishi shakllangan.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha makroiqtisodiy barqarorlik 1996-yildan beri kuzatilmoqda; ba'zi viloyatlar, masalan, Andijon, Buxoro, Xorazm va boshqalar sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayni vaqtda iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan hududlar (Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlari) bu barqarorlikka kechroq erishishdi. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Asaka va Samarqand avtomobilsozlik, Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, ko'pgina viloyatlarda qurilgan to'qimachilik korxonalarini va boshqalarning ahamiyati katta. Ammo, barcha qo'shma korxonalar ham

samarali faoliyat ko'rsatishmayapti. Jumladan, mustaqillik yillarida barpo etilgan o'ndan ortiq to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim masala hisoblanadi. Sanoatning boshqa tarmoqlaridagi vaziyat ham bir xil emas: chunonchi, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlarida mahsulot ishlab chiqarish samarali, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ham chet-el sarmoyalari bilan qayta jihozlangandan so'ng mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Surxondaryoda Xo'jakon osh tuzi, Gulistonda farmasevtika, Sho'rtan va Muborakda gaz-kimyó majmualari, qo'ng'irotda soda zavodi kabi qator yangi korxonalar qurilib, respublikaning turli rayonlarida joylashtirilmoqda. Qishloq xo'jalik sohasida ham strukturaviy (tarkibiy) o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, paxta maydonlarini qisman qisqartirish asosida g'allachilikka katta e'tibor berilmoqda. Bu esa qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda o'zgartirishlarga olib kelmoqda. Ammo, eslatish lozimki, agrosohada hozircha qator muammolar mavjud; ba'zi yillari ob-havoning noqulay kelishi tufayli bug'doy, sholi, paxta hosilining kamayishi ham uchrab turadi. Uning ustiga, tuproqning ikkilamchi sho'rlanishi natijasida anchagina ekin maydonlari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib qolmoqda. Mazkur holat agrosanoat majmui, qayta ishlash sanoatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Transport sohasidagi o'zgarishlar ham mintaqaviy va yo'l mustaqilligini ta'minlash siyosati doirasida olib borilmoqda. Jumladan, G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on, Uchquduq-Nukus temir yo'llari hamda Angren-Pop avtomobil yo'llarining qurilishi va kengaytirilishi mamlakat xo'jaligining hududiy tarkibida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Respublika rahbariyati ayniqsa qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham bo'lsa mintaqaviy siyosatning o'ziga xos bir ko'rinishidir.

Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etib, aholisining 2/3 qismidan ko'prog'i qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o'zgarishlarga erishmay turib strategik vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infrastrukturasini rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish eng muhim muammolardan sanaladi. Albatta, bundan boshqa muammolar ham mavjud. Chunonchi, ilgari hududiy mehnat taqsimoti, gorizontaliq iqtisodiy aloqalar buzilganligi

oqibatida ko'pgina og'ir sanoat korxonalari faoliyati yaxshi emas, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining anchagina qismi mujassamlashgan avvalgi yirik sanoat markazlarining (Chirchiq, Angren, Marg'ilon, Bekobod va b.) rivojlanishi sustroq. Ayni chog'da ichki mehnat taqsimoti keng ko'lamda yo'lga qo'yilmagan, ishlab chiqarishni noto'g'ri hududiy tashkil etilganligi sababli turli mintaqalarda ijtimoiy va ekologik muammolar biroz keskinlashgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosat turli hududlarda turlicha olib boriladi: ba'zi iqtisodiy rivojlanishi to'xtab qolgan yoki sekinlashgan (masalan, Angren-Olmaliq sanoat rayoni) depressiv rayonlar xo'jaligi harakatga keltirilishi, aholisi zich agrosanoat rayonlarda (Farg'ona vodiysi) ish o'rinlarini ko'paytirish, ekologik tanglik vujudga kelgan Orol bo'yi kabi rayonlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni to'g'ri tashkil qilish talab qilinadi.

Shunday qilib, mintaqaviy siyosatni amalga oshirish ishlab chiqarish kuchlarini u yoki bu hududda ustuvorroq rivojlantirish demakdir. Binobarin, mazkur siyosatning zaminida sanoat, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish yotadi, chunki joylashtirish rivojlantirishning hududiy tomoni, in'ikosidir. Respublika milliy iqtisodiyoti to'la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa "muammoli" rayonlarga ham qaratiladi.

Jumladan, hozirgi kunda Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu katta hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Kelajakda alohida daryo havzalari, voha va vodiylar, tog' yoki cho'l hududlari ham davlatning mintaqaviy siyosatini ob'ekti sifatida ko'rilishi mumkin.

Sobiq Ittifoq parchalanib, yangi mustaqil mamlakatlar paydo bo'lishi bilan ilgarigi chegaralar davlat chegarasiga aylanib qoldi. Shu munosabat bilan chegaraga yaqin yoki o'ziga xos geografik o'ringa ega bo'lgan qishloq tumanlari (masalan, So'x, Farg'ona, Bo'stonliq, Olot, Urgut, qo'rg'ontepa, Shovot, Sariosiyo va b.) ham viloyat va mamlakatning mintaqaviy siyosatida alohida e'tiborga ega bo'ladi. Xullas, mintaqaviy siyosat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda navbatma-navbatchilikni, "erkin hududiy raqobat va musobaqani" nazarda tutadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy makoni va tarmoqlar tarkibida doimiy o'zgarishlar bilan birga sodir bo'ladigan dialektik jarayondir.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida “mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti, vazifalari va metodlari, mintaqaviy iqtisodiyot fanida “joy” hududiy makonni o‘rganish dolzarbligi,. XIX-XX asrlarda mintaqaviy tadqiqotlar maktabi va fanning bugungi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari, mintaqaviy iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari hamda uning asosiy jihatlari, davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish metodlari kabi masalalar ko‘rib chiqildi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlari, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi, mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda hududlar iqtisodiyoti va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o‘rganadi. Bundan tashqari hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o‘rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti eng avvalo, mamlakat yagona xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” mintaqaviy taraqqiyotining ob‘ektiv shart-sharoitlari va omillarini (geografik o‘rni, tabiiy, demografik va ishlab chiqarish salohiyatini), ishlab chiqarish tarkibi, ijtimoiy soha va aholining turmush sharoitini, aholi va xo‘jalikning joylashishini, iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishi va uning boshqarish mexanizmini, mazkur mintaqaning boshqa mintaqalar va mamlakatlar bilan o‘rnatgan iqtisodiy aloqalarini tadqiq etadi. “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- alohida mintaqaviy iqtisodiyoti;
- mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar;
- mintaqaviy tizimlar (bunda “milliy iqtisodiyot” mintaqalar iqtisodiyotlarining tizimi bo‘lib namoyon bo‘ladi);
- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish;
- iqtisodiy turmush tarzining mintaqaviy jihatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: milliy iqtisodiyot, mintaqaviy, urbanizatsiya, makon va joy, mehnat taqsimoti, mintaqaviy siyosat.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Mintaqashunoslik faniga kim tomonidan asos solingan?
2. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot obektiga nimalar kiradi?
3. Mintaqaviy iqtisodiyot fani doirasida qanday muammolar o‘rganiladi?

4. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti o‘z tarkibiga nimalarni oladi?
5. Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. “Mintaqa”, “hudud”, “iqtisodiy hudud”, “iqtisodiy rayon”, tushinchalarini o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlang.
7. Mintaqaviy iqtisodiyotning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
8. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan o‘rnini va uning rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.
9. Mintaqaviy iqtisodiyotning predmeti va o‘rganish ob’ektini tavsiflang.
10. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullarini tavsiflang.

II BOB. MINTAQALAR ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISH QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

2.1. Ishlab chiqarish kuchlari xaqida tushuncha.

2.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha xorijiy nazariyalar

2.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari

2.4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari

2.1. Ishlab chiqarish kuchlari xaqida tushuncha

Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, xom-ashyo va x.k.) sanoat va qishloq xo‘jaligi hamda mehnat resurslarini o‘z ichiga oladi. Odatda, ishlab chiqarish asosan sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport kabi makroiqtisodiy sohalardan tashkil topadi. Ammo ularning barchasini harakatga keltiruvchi ishchi kuchi, ya‘ni inson hisoblanadi. Binobarin, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishdek murakkab jarayonning markazidan o‘rin oladi. Buni biz demotsentrik prinsip deb yuritishimiz mumkin. Afsuski, ilgari aholi asosan bosh ishlab chiqaruvchi kuch sifatida baholanardi. Vaholanki, bizning sharoitimizda, hozirgi demografik vaziyatda faqat 48-50 foiz aholi mehnatga layoqatli yoshlardir, xolos.

Ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi eng avvalo uch tarkibiy qismdan iborat. Bu ham bo‘lsa, bevosita ishlab chiqarish, taqsimot va iste‘moldir. Bularning barchasi, albatta, ishchi kuchisiz bo‘lmaydi. Ayni paytda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan uni iste‘mol qilish o‘rtasidagi aloqadorlikni amalga oshirishda transportning ahamiyati katta. Shu sababli uni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining “qon tomiri” yoki harakatga keltiruvchi omili darajasida qarash to‘g‘riroq bo‘ladi. Demak, ishlab chiqarish kuchlari keng va murakkab iqtisodiy tushuncha, uning tarkibi ishlab chiqarishning ob‘ekti bilan sub‘ekti, ya‘ni ishchi kuchidan tashkil topadi. Aholining ishtiroki qisman, mehnat resursi doirasida kuzatiladi. Umuman aholi esa, u ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonining qoq o‘rtasidan joy oladi. Sababi - aholi (mehnat resurslari) moddiy va ma‘naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni paytda ularning iste‘molchisi hamdir. Biroq, ishlab chiqaruvchilar ozroq, iste‘mol qiluvchilar esa barcha aholidan (uning yosh va jinsidan qat‘iy nazar) iborat.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘tish davri (ya‘ni uning “o‘zbek modeli”)ning 5 ta asosiy

tamoyilini ishlab chiqqan va ular hozirgi kunda bosqichma-bosqich hayotga tatbiq qilinmoqda. Shulardan biri ishlab chiqarishning ijtimoiy maqsadlarga qaratilishidir. Bu prinsip eng avvalo iqtisodiyot tizimida xalq iste'mol mollarini qay darajada ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda "joylashtirish" tushunchasi juda ko'p ishlatiladi. Tarmoq yoki sohaviy iqtisodiyotida ko'proq "rivojlanish", taraqqiyot, o'zgarish kabilar tilga olinadi. Shu o'rinda qayd qilmoq lozimki, joylashtirish geografiyaning boshqa tarmoqlari, masalan, tabiiy geografiya uchun muhim emas, chunki iqlim, yer usti tuzilishi, tuproq, o'simlik yoki hayvonot dunyosi joylashtirilmagan, ularning hududiy xususiyatlari boshqa omil va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. Umuman rivojlanishning, har qanday hodisa yoki voqelikning ajralmas, bir paytning o'zida (permanent) sodir bo'ladigan xususiyati yoki jihati mavjud. U ham bo'lsa joylanishidir. Zero, u yoki bu voqelik ma'lum vaqtda va aniq joyda yuzaga keladi-ki, biz bu yerda zamon va makon birligining guvohi bo'lamiz.

Shundan kelib chiqqan holda e'tirof etish mumkinki, rivojlanish va joylanish bir borliqning, hodisaning ikki tomonidir yoki boshqacha qilib aytganda, joylanish rivojlanishning hududdagi, makondagi in'ikosidir. Binobarin, iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda ushbu tushunchalarning bir joyda, qo'shaloq ishlatilishi an'ana bo'lib qolgan (masalan: paxtachilikning rivojlanishi va joylanishi, qora metallurgiya sanoatining rivojlanishi va joylanishi, temir yo'l transportining rivojlanishi va joylanishi va h.k.).

Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, joylanish va ayniqsa joylashtirish barcha hodisa yoki voqeliklarga tegishli emas. Misol uchun, okeanda baliqni, yer ostida qazilma boyliklarni, atmosferada bulutlarni hech kim joylashtirmagan. Demak, joylashtirish deganda, uning kimdir (sub'ekt) tomonidan amalga oshirilganligi nazarda tutilganligi sababli baliq yoki ko'mirning geografiyasini boshqacha izohlash kerak. Shu bois, geografiya faqat joylashuvigina emas, balki u hodisa va voqeliklarning hududiy tarkibi va tizimi, bir joyning ikkinchi joydan farqini o'rganadi. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tushuncha, ob'ekt hisoblanadi. Hatto mintaqaviy iqtisodiyotni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi fan sifatida ta'riflaydilar. Qolaversa, sobiq Ittifoq davridagi iqtisodiyot universitetlarining iqtisodiy geografiya kafedralarini nomlari avval ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga, undan keyin esa mintaqaviy iqtisodiyotga o'zgartirildi.

Mazkur fanlarda “ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish” bilan bir qatorda “ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish” tushunchasi qo‘llaniladi. Chindan ham bu ikki tushuncha bir-biriga juda o‘xshash. Ayniqsa, “joylashtirish” hududiy tashkil qilishga yaqin, chunki bu ma‘lum bir sub‘ekt (shaxs, davlat) tomonidan amalga oshiriladi. Hududiy tashkil qilish joylashtirish, joylanishning yuqori, mukammal shaklidir. Uning eng muhim xususiyati boshqaruv, nazorat (monitoring)-da o‘z ifodasini topadi. Shu sababli hududiy tashkil qilish umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan tizim yoki tizim-tarkib g‘oyasiga asoslanadi.

Ma‘lumki, har qanday tizimga, asosan murakkab tizimlarga quyidagilar xos:

- Ikki va undan ortiq element va qismlardan iborat bo‘lish;
- Ichki va tashqi, tik va gorizontaal aloqalar;
- Ko‘p bosqichlik, ierarxialik;
- Mustaqil amal qilish, faoliyat ko‘rsatish;
- Tartib va tarkiblilik;
- Boshqaruvchanlik va h. k.

Aynan ana shu jihatlarga ko‘ra hududiy tashkil qilish joylashtirishga nisbatan ma‘qulroq, afzalroq va amaliyroqdir. Masalan, talabalarning o‘z hoxishlaricha sinfda o‘tirishlari yoki yangi uyga mebel va boshqa jihozlarni tartibsiz o‘rinlashtirish, bu tub mohiyati bilan joylashtirish yoki hududiy tashkil qilish emas; bu jarayonni o‘qituvchi yoki uy bekasi boshqaradi.

Boshqarish hamma vaqt tartibni, tashkil qilishni, ma‘lum maqsadga qaratilishni nazarda tutadi. Binobarin, o‘qituvchi o‘z darsini samarali o‘tkazish maqsadida sinfni tashkil qiladi. Aniqrog‘i talabalar o‘tirishini, ya‘ni kim-kim bilan va qaerda joylashishini sinfda tartibga soladi, boshqaradi, nazorat qilib boradi. Xuddi shunday, uy bekasi ham yangi uyga keltirilgan jihozlarni hududiy tashkil qiladi, tartibli joylashtiradi.

Yuqoridagi misollar qulayroq bo‘lishi uchun ular soddaroq tarzda, kichik hududlar darajasida keltirildi. Bu o‘rinda aytish mumkinki, eng avvalo ana shu kichik hududda yirik masshtabli tadqiqotlarni o‘tkazish, “mikroiqtisodiyotni” chuqur o‘rganib, so‘ngra katta hududlarga o‘tish kerak. Zero: “kichik kalit katta eshikni ochadi”, deyishadi; kichikda kattani, kattada kichikni ko‘ra bilish muhimdir.

Hududiy tashkil qilishda hudud o‘zgarmas (constanta), bazis bo‘lib xizmat qiladi; turli ob‘ektlar –sanoat korxonalari, qishloq xo‘jalik ekinlari, aholi va h.k. o‘zlarining xususiyatlariga qarab ma‘lum hududda joylashtiriladi. Bu yerda, hududda joylashtiriladi deyish mumkin, ammo

hududiy joylashtirish uncha to‘g‘ri emas, chunki har qanday joylashtirish o‘z-o‘zidan ma‘lumki hududiydir (to‘g‘ri, kamdan-kam hollarda, masalan avtobuslar qatnovini yoki dars jadvalini muayyan vaqt va soatlarda joylashtirish, taqsimlash mumkin).

Ayni paytda “hududni tashkil qilish” tushunchasi ham mavjud. U ko‘proq rayon planirovkasida, sotsiologiyada yirik va o‘rta masshtabli tadqiqotlarda qo‘llaniladi. Bu yerda joylashtiriladigan ob‘ektning emas, balki hududning xususiyati, imkoniyati (“dili, tili, nafasi”) hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda, nimani qaerda joylashtirish emas, qaerda nimani joylashtirish nazarda tutiladi. Umuman olganda esa hududiy tashkil qilish bilan hududni tashkil qilishni o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish qulay va yaxshi samara beradi. Hududiy tashkil qilish hududiy tarkib (struktura), hududiy tizim (sistema), iqtisodiy rayon tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq va ular mintaqaviy iqtisodiyot hamda iqtisodiy geografiyaning o‘zak tushunchalarini tashkil qiladi. Har qanday sistemaning ikki jihati, ya‘ni uning xususiyliigi va hududiyliigi borligidek, ishlab chiqarishni tashkil qilish ham ijtimoiy hamda hududiy shakllardan iborat. Ijtimoiy tashkil qilish ixtisoslashuv, mujassamlashuv, kooperatsiya va kombinatlashuvdan iborat bo‘lsa, hududiy tashkil qilishda sanoat markazi va tugunlari, sanoat parklari, texnopolislar, hududiy ishlab chiqarish majmualari mavjud. Ijtimoiy va hududiy shakllar turli xo‘jalik tarmoqlarida har xil. Shuning uchun ularga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash katta ahamiyatga ega.⁷

2.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha xorijiy nazariyalar

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlaridan g‘oyat unumli va samarali foydalanishni ta‘minlash bilan shunga mos yuksak ishlab chiqarish munosabatlarini ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlikni rivojlantiradi. Har bir kishining milliy boylikni oshirish mas‘uliyatini kuchaytiradi, har bir kishini boy qilish orqali jamiyatni ham boyitib boradi. Erkin bozor munosabatlarini takomillashtirish hamda iqtisodiyotni leberallashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri va oqilona tashkil etish davlatning ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosati asosini tashkil qiladi. Muayyan makon va zamondagi ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish negizida uning

⁷ <https://fayllar.org/download/ishlab-chiqarish-kuchlarini-joylashtirish.doc>

ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, aniq xulosalar chiqarish hamda amaliy tadbirlar belgilash mumkin. Binobarin, samarali, barqaror rivojlanib boruvchi ishlab chiqarish tizimini yuzaga keltirish tom ma'noda o'ziga xos tamoyillarga asoslangan ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish, tabiat bilan jamiyatning qonun va qonuniyatlarini anglash, ularni chuqur tahlil qilish, ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonlarining maqsad-mohiyati ham mamlakat mintaqalarida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan to'g'ri va oqilona tashkil etish orqali milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tomonidan keng muhokama qilingan mazkur Harakatlar strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini beshta ustuvor yo'nalish doirasida qamrab olganligi va "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish, har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash"ga qaratilganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ilmiy manbalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning quyidagi asosiy tamoyillari ajratiladi:

- ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbalari, yoqilg'i va energiya resurslarini iste'mol mintaqalariga yaqin joylashtirish;
- yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmualiy foydalanish tizimini barpo qilish;
- mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrof- muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik mavqeidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat

taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

➤ yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va oʻrta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.


Ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish asosida yuqori foyda beruvchi samarali ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish toʻgʻrisidagi gʻoyalar uzoq tarixga ega boʻlsa-da, sanoatlashgan ishlab chiqarishning qaror topishi bilan “shtandort”, yaʼni joylashtirish toʻgʻrisidagi taʼlimotlar ham yuzaga keldi. I.Tyunen, A.Veber, T.Palander, A.Lyosh va boshqalarning sanoatlashgan ishlab chiqarish tizimiga bagʻishlangan asarlari yuzaga kelishi bilan “shtandort” soʻzi yangi mazmunda ifodalanib, ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish toʻgʻrisidagi taʼlimotga aylandi. Dastlabki “shtandort” nazariyasi I.Tyunenning 1826-yilda chop etilgan “Alohida davlat, uning qishloq xoʻjaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati” nomli kitobida yoritilgan boʻlib, unda qishloq xoʻjaligi quyidagi uch omil boʻyicha tadqiq qilinadi. 1. Ishlab chiqarish sarflari (ishlab chiqarish xarajatlari); 2. Tuproq unumdorligi (tuproqning tabiiy unumdorligi) va oʻsimliklar xususiyati; 3. Bozor narxlariga nisbatan transport xarajatlari; I.Tyunen bozor markaziga nisbatan qishloq xoʻjaligining joylashtirilishi qonuniyatini shu bozorga nisbatan ixtisoslashgan mintaqalardan (doiralardan) iborat boʻlishi lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, I.Tyunen birinchi boʻlib ishlab chiqarishning joylashishini asoslashda matematik hisob-kitoblarni qoʻllaydi. Nemis iqtisodchisi A.Veber “Sanoat shtandorti nazariyasi” nomli asarida sanoatni joylashtirishning quyidagi uchta omil yoki yoʻnalishi ajratib koʻrsatadi:

1. Transport yoʻnalishi, yaʼni mulkdorlar oʻz korxonalarini transport xarajatlari eng kam boʻlgan aholi manzilgohlarida koʻrishga intiladilar.

2. Ishchi yoʻnalishi, yaʼni mulkdorlar oʻz korxonalarini eng arzon ishchi kuchi mavjud aholi manzilgohlarida qurishga intiladilar. 3. Aglomeratsiya, yaʼni mulkdorlar oʻz korxonalarini boshqa sanoat korxonalarini toʻplangan hududlarda koʻrishga harakat qiladilar va bu bilan transport yoʻllari, energetika xoʻjaligi, kommunal xoʻjaligi (ishlab

chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi tizimi) barpo qilishga bo'lgan xarajatlarini qisqartirishga harakat qiladilar.



2.1-rasm. A.Veberning joylashtirish nazariyasi.

B – tayyor mahsulotning iste'mol qilish hududi;

M1 – 1 tonna tayyor mahsulot olish uchun $3/4$ tonna xomashyo sarflanadigan materiallar omborxonasi;

M2 – 1 tonna tayyor mahsulot olish uchun $1/2$ tonna xomashyo sarflanadigan materiallar omborxonasi;

S – “ishlab chiqarish shtondort” joylashgan hudud

A.Veber ta'limoti keyinchalik O.Englander, T.Palander, A.Lyosh, V.Kristallerlar tomonidan rivojlantiriladi. Xususan, V.Kristallerning “Markaziy joy” nazariyasi aholi manzilgohlarining joylashishini asoslasi, A.Lyosh shtandort nazariyasini takomillashtirish orqali monopol foyda, demping, soliq tizimi, davlat chegarasi, xalqaro savdo, texnika taraqqiyoti va boshqa tushunchalar mohiyatini ochib beradi. Korxonalarni joylashtirishda yuqori foyda olishni ko'zlagan tadbirkorlar bilan butun iqtisodiyot manfaatlari o'rtasida kurash ketadi.

Ushbu ta'limotlar bozor munosabatlari hukmronlik qilayotgan sharoitda yuqori foyda olishni ko'zlagan samarali ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishning nazariy jihatdan asoslashga qaratilgani bois, uning bir qator yo'nalishlari - V.Bungening “markaziy joy” M.Skarletning “joylashishning uch tipi”, F.Perruning “rivojlanish qutbi” va “rivojlanish markazlari”, shuningdek, “yangi g'oyalar” (diffuzii novovvedeniy-yangilik kiritish) yuzaga keldi. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlangan fan-texnika inqilobi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, hududiy tashkil qilishni takomillashtirishning “klassik” nazariyalariga bir qator “tuzatishlar” kiritdi. Ular jumlasiga:

a) sanoatning o'ta yangi tarmoqlari, avvalo, ilmiy tadqiqot va loyihalash-tajriba ishlari bilan chambarchas bog'liq “ilmtalab” sohalarning gurkirab rivojlanishi;

b) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sanoat tarmoqlariga ko'chishi - agrosanoat majmuasining (agrobiznes) shakllanishi;

v) infratuzilma sohalarining milliy daromaddagi hissasi barqaror ortib borishi;

g) ishlab chiqarish tizimini tobora transport-geografik o‘ringa va xomashyoga bog‘liqligining qisqarib borish jarayoni;

d) ilmiy tadqiqot ishlari va loyihalash-tajriba markazlari rolining ortib borishi;

j) yuqori malakali mehnat hissasining tobora keng rol o‘ynashi;

z) ijtimoiy-ekologik omillar - ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida ro‘y bergan sezilarli o‘zgarishlarni keltirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, “joylashtirish” nazariyasida D.J.Gelbreytning “industrial jamiyat”, U.Ayzardning “joylashtirishning bozor nazariyasi” kabi yangi yo‘nalishlar rivojlanishiga zamin hozirladi. Biroq, mavjud vaziyat “tabiat-jamiyat” tizimida aholi va u bilan bog‘liq qonun va qonuniyatlar mohiyatini to‘laqonli ochib berishga imkon bermagan.

Tahlil va natijalar Qonun-tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning (o‘zaro aloqadorligini) barqaror takrorlanib turuvchi sabab-oqibat bog‘lanishlarini ifodalasa, qonuniyat voqea va hodisalar ketma-ketligining barqarorligi va qonunlar majmuasining o‘zaro uyg‘unligini ifodalaydi. Shu bois, ishlab chiqarish mamlakat va mintaqalardagi umumiy iqtisodiy qonunlarning hududiy xarakteriga bog‘liq holda amalga oshadi. Ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining butun tarixiy-geografik bosqichlarida amal qiladigan, ularning sababiy aloqa va o‘zaro ichki bog‘lanishlarini ifodalovchi iqtisodiy qonunlar majmuasi umumiy iqtisodiy qonunlar deyiladi. Iqtisodiy qonunlar majmuasi ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlarning xarakteri va rivojlanish darajasi bilan bog‘liqligi, samarali ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, mehnat unumdorligining o‘sib borishi, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarning oshib borishi, ishlab chiqarish jarayonlarining umumlashuvi va iqtisodiy integratsiyasining chuqurlashuvi, davlat monopolistik mulki va iqtisodiyotning rivojlanishi, ishlab chiqarish monopolizmi va davlatning antimonopolistik tadbirlari, iqtisodiyotning boshqaruviga davlatning aralashuvi, mintaqaviy rejalashtirish, bashorat qilish va iqtisodiy hududlashtirish kabilardan iborat.

Masalaga bunday yondashuv A.Lyoshning konsepsiyasida ham kuzatiladi. Xususan, A.Lyosh iqtisodiy hududlarga alohida e‘tibor berib, hudud hosil qiluvchi asosiy omil ishlab chiqarish tizimi emas, balki tovarlarni bozorda sotish asosiy o‘rin tutadi deb hisoblaydi. Iqtisodiy

hududlashtirish – ishlab chiqarishni samarali tashkil qilishni takomillashtirish asosi sifatida mamlakatlarning hududiy-iqtisodiy majmuasini ifodalaydi. Iqtisodiy hududlashtirish hududiy mehnat taqsimotiga asoslanadi va uning natijasida mamlakatning ayrim qismlari, yaʼni tabiiy-iqtisodiy jihatdan yaxlit hududlari ishlab chiqarishning bir yoki bir nechta iqtisodiy samarali boʻlgan tarmoqlariga ixtisoslashadi.

A.Lyosh iqtisodiy hududlarni uchta turga ajratadi:

1) oddiy hududlar zonasi;

2) hududlar turi yoki tovarni sotish zonolari yigʻindisi;

3) hududlar tizimi, bu shajarada eng yuqori va murakkab tip boʻlib, A.Lyosh fikricha “Iqtisodiy landshaft” – bozor tizimi yoki bosh shaharning iqtisodiy taʼsir doirasida boʻladi. Bu esa oʻz navbatida, hudud darajasidagi va hududlararo aloqalarning amalga oshishiga zamin hozirlaydi.

Iqtisodiy hududlar bir-biridan ishlab chiqarish sharoitlari bilan farqlanadi. Bunday sharoitlar:

a) iqtisodiy rivojlanish darajasi;

b) mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlari;

v) ishlab chiqarish tizimining ixtisoslashuvi va konsentratsiyasi;

g) transport turining shakllanishi;

d) ishlab chiqarishning tabiiy omillari hamda tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy jihatdan qulay hududlarda yirik ishlab chiqarish turlari - elektr energetikasi, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil, oziq-ovqat sanoati majmualari, ixtisoslashgan qishloq xoʻjaligini joylashtirish butun mamlakat xoʻjalik majmuasi uchun yuqori iqtisodiy samara beradi. Ayni vaqtda, iqtisodiy hududlarda samarali ishlab chiqarish tizimining shakllanishi mavjud tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan majmuali foydalanish, sanoat tarmoqlarining oʻzaro uygʻunlashgan holda rivojlanishini taʼminlash va sanoat majmualari, agrosanoat ishlab chiqarishi va infratuzilma tarmoqlarining barqaror rivojlanishi hamda Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qonuniyatlar bilan bir qatorda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va ijtimoiy-ekologik omillar ham muhim oʻrin tutadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari ishlab chiqarish korxonalarini, korxonalar guruhi, milliy xoʻjalik tarmoqlarining oqilona tashkil etishda ularning taʼsir darajasini hisobga olinishini nazarda tutadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ularning ta'sir darajasiga ko'ra, 4 guruhga bo'lish mumkin:

- ✓ tabiiy omillar;
- ✓ ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- ✓ ijtimoiy - demografik omillar;
- ✓ ijtimoiy-ekologik omillar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar birlamchi xarakterga ega bo'lib, u hududda ishlab chiqarishni tashkil etishning moddiy asosi sifatida xizmat qiladi. Keyingi omil demografik jarayonlarning bugungi va istiqbo'ldagi holatini hisobga oladi. Mehnat resurslari mavjud hududlarda sermehnat iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi tizimlari, yuqori malakali mehnat resurslari mavjud hududlarda zamonaviy va o'ta zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qiladi. Aholining hududiy joylashishiga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish migratsion jarayonlarning tartibga solish va boshqarish imkonini beradi. Bu o'rinda sanoat korxonalarini "filiallashtirish" orqali ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo'yicha bir tekis rivojlantirish mumkin.

Iqtisodiyot nuqtayi nazaridan uncha o'zlashtirilmagan, xo'jalik sig'imi past hududlarni rivojlantirish va jonlantirish borasida o'sish qutblari va rivojlanish markazlari to'g'risidagi nazariya ham katta ahamiyatga ega. Uning asoschisi fransuz olimi Fransua Perrudir. F.Perru "markaziy o'rinlar" g'oyasidan kelib chiqdi, omillarni emas, tarmoqlarni rivojlanish xususiyati, harakatchanligi, atrofga ta'siri bo'yicha tabaqalashtirdi va ularni uch guruhga ajratdi. U eng avvalo hududiy-iqtisodiy munosabatlarda tengsizlik, nobarobarlikni tan oldi va 23 mutloq jihatdan tenglikni amalga oshirish mumkin emasligiga to'la ishonadi. Perru fikricha, uchinchi guruh tarmoqlari tez, jadal rivojlanish, rayon (majmua) hosil qilish salohiyatiga, qobiliyatiga ega bo'lib, aynan ana shunday mintaqaviy iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi tarmoqlar rivojlanishi o'sish markazlarini tashkil qiladi.

Markazlarning mustahkamlanishi, ularda turdosh korxonalarining ko'payishi, atrofga bo'lgan ta'sir doirasining kengayishi natijasida o'sish qutblari vujudga keladi. Ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 40-yillarida xuddi shunga o'xshash "iqtisodiy uchoqlar" g'oyasi rus olimlari, jumladan A.G.Aleksandrov va N.N.Kolosovskiy tomonlaridan ham yaratilgan edi. O'sish qutblari g'oyasi shved olimi - Lund

universiteti professori (Shvesiya, 1954) T.Xagerstrandning yangiliklar diffuziyasi nazariyasiga o'xshab ketadi. Faqat muallif bu g'oyani ko'proq sotsial geografiya bo'yicha ishlab chiqqan. Chindan ham, jahon taraqqiyoti, dunyo xo'jalik tizimining rivojlanish tarixi fan-texnika yutuqlari, ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar, innovatsiyalar texnologik determinizm bilan bog'liq. Tarix nuqtayi nazaridan yondoshganda, jahon xo'jaligi rivojlanishida ma'lum sikllarni ajratish mumkin. Bu davr yoki sikllar yangi kashfiyotlarning ixtiro etilishi, tatbiq etilishi, tarqalishi va ularning o'rniga boshqa innovatsiyalarning kelishi bilan belgilanadi⁸.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida "markaziy joy" yoki "rivojlanish qutbi" yo'nalishlari doirasida tadbirlar amalga oshirilib, birinchi navbatda o'sish imkoniyati mavjud bo'lgan mintaqalarga ustuvor darajada e'tibor qaratildi. Investitsion jozibadorlik, ishlab chiqarishni tashkil etishda moddiy texnik bazaning mavjudligi, miqdor va sifat jihatdan yetarli miqdordagi ishchi kuchining to'planganligi, xomashyo resurslari bilan ta'minlanganligi kabi omillar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida mutlaqo yangi ishlab chiqarish ob'ektlaridan iborat sanoat markazlarining shakllanishi asos bo'ldi. Endilikda ushbu markazlarning ta'sir doirasini kengaytirish va qo'shni hududlarning qamrab olishini ta'minlash maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi⁹ farmonida 2017-2021-yillarda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish hisobiga hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustuvor ta'minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali hududlar ijimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda Xitoy tajribasi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etiladi. Mamlakat sharqida 1333 ta bojsiz zonalar 32 ta zamonaviy texnologik ishlab chiqarish zonalarini 52

⁸ <https://library.samdu.uz/files/9ae5113def1ac54c4a504766108a7f08>

⁹ «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 70 modda. 6 (766) son O'zbekiston Respublikasi qonuni hujjatlar to'plami, 2017-yil.


ta texnopolislar 10 dan ortiq erkin savdo zonalari va ularni birlashtirib turuvchi yirik maxsus iqtisodiy zonalar tuzilgan bo'lib, bu hududlar Xitoyning tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqa qilishdagi o'ziga xos "ochiq eshik"lar vazifasini bajarmoqda.

Mamlakatimizda dastlabki erkin industrial-iqtisodiy zona Navoiy viloyatida tashkil etildi. "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi farmonga asosan yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va zamonaviy korxonalar bunyod etish hamda xorijiy investorlarga soliq va boj to'lovlari bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozlar belgilab berildi. Xorijiy investorlarning hududga qiziqishi yillar o'tgan sari ortib bormoqda va buning natijasida hududda yirik logistika markazlari tashkil etildi hamda qo'shma korxonalar soni ortib borishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-dekabrda "Angren maxsus industrial zonani barpo etish to'g'risida" gi, 2013-yil 18-martdagi "Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi, 2016-yil 26-oktyabrda PF-4853-sonli "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" gi hamda 2017-yil 12-yanvar PF-4931-sonli "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Xazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" gi Farmonlari hududlarda ishlab chiqarishni yangi bosqichga o'tishiga muhim poydevor bo'ldi. Ushbu hududlardagi mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlovchi va yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali va mahalliyashtiriladigan zamonaviy korxonalarini tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, erkin iqtisodiy zonalarning muayyan sohaga ixtisoslashuvini qo'llab-quvvatlash va ularda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning alohida o'rni bor. Angren erkin iqtisodiy zonasini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, Angren EIZ tashkil etilganidan buyon umumiy qiymati 285 mln. AQSH dollariga teng 15 ta loyiha amalga oshirildi va qariyb 840 ta yangi ish o'rinlari yaratildi¹⁰.

¹⁰ <http://www.invest.gov.uz/>



2.2-rasm. Angren EIZ mahsulotlar eksport hajmi (mln. AQSH dollari)

2.2-rasm ma'lumotlari tahlil natijalaridan ko'rinadiki, Angren erkin iqtisodiy zonasida mahsulotlar eksport hajmi yillar sayin ko'payish tendensiyasiga ega bo'lib, 2013-yilda 0,17 mln. AQSH doll.ni, 2014-yilda 0,98 mln. AQSH doll.ni, 2015-yilda 6,9 mln. AQSH doll.ni, 2016-yilda 13,0 mln. AQSH doll.ni, 2017-yilda 16,2 mln. AQSH doll.ni, 2018-yilda 17,9 mln. AQSH doll.ni, 2019-yilda 23,1 mln. AQSH doll.ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, bu ko'rsatkich 2013-yilga nisbatan 24,53 mln. AQSH doll.ga ko'paygan va 24,7 mln. AQSH doll.ni tashkil qilgan.

Chunki bozor iqtisodiyoti jahon sivilizatsiyasining g'oyat ulkan yutug'i sifatida – iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini uzluksiz ta'minlovchi iqtisodiy tizim ekanligini isbotladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 23 ta erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mavjud bo'lib, ulardan 22 tasi sanoat, 1 tasi qishloq xo'jaligi va 1 tasi turizm sohasiga ixtisoslashgan. 2008-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda erkin iqtisodiy zonalar hududlarida 2,4 milliard dollarlik jami 448 ta loyihalar amalga oshirildi. Umumiy summadan 764,6 mln dollarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Loyihalar hisobiga 34 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Ushbu loyihalarning eng yirigi Angren EIZ (730,7 mln dollarlik 73 ta loyiha), "Urgut" EIZ (312,9 mln dollarlik 55 ta loyiha), "Navoiy" EIZ (282,8 mln dollarlik 53 ta loyiha) va "Buhoro-agro" EIZda (325,1 mln dollarlik 112 ta loyiha) amalga oshirildi.

2020-yil yakuniga qadar faoliyat ko'rsatayotgan EIZ hududlarida umumiy qiymati 487,4 mln dollarga teng bo'lgan 128 ta loyiha amalga oshirildi. Shundan 162,1 mln dollarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

investitsiyalar tashkil etadi. Loyihalar zamonaviy issiqxonalar qurish (204,7 mln dollarlik 62 ta loyiha), qurilish materiallari ishlab chiqarish (140 mln dollarlik 18 ta loyiha), kimyo va neft-kimyo sanoati (50,6 mln dollarlik 13 ta loyiha), oziq-ovqat sanoati (15,9 mln dollarlik 10 ta loyiha), to'qimachilik sanoati (20,1 mln dollarlik 8 ta loyiha), mashinasozlik (6 mln dollarlik 2 ta loyiha), charm-poyabzal sanoati (14,9 mln dollarlik 5 ta loyiha), elektrotexnika sanoati (13,7 mln dollarlik 3 ta loyiha), farmatsevtika sanoati (56,3 mln dollarlik 6 ta loyiha), mebel va qog'oz ishlab chiqarish (1,1 mln dollarlik 1 ta loyiha) kabi sohalarni qamrab oldi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda EIZ ishtirokchi korxonalar 11,9 trln so'mlik 538 turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarib, 257,6 mln dollarlik mahsulotlarni eksport qildilar, bu esa pandemiyaning salbiy iqtisodiy oqibatlariga qaramay, 2019-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 145 foizga oshdi. Shuningdek, 186 ta yangi korxonalar EIZ ishtirokchisi maqomini oldi.

Erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi. Xususan, "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Hujjat bilan EIZlarni yaratish, ular faoliyat ko'rsatishining muddatini uzaytirish va tugatish, chegaralarini o'zgartirish tartibi belgilandi hamda ularni boshqarish tizimi, o'z hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlash tamoyillari, shuningdek, EIZ ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi qayta ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, hujjatda EIZ hududida infratuzilma obyektlarini qurish yoki qayta ta'mirlash ishlari markazlashtirilgan hamda nomarkazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

EIZlarni zarur infratuzilma bilan ta'minlash ularning samarali ishlashi va yangi investorlar va tadbirkorlarni o'z hududlarida loyihalarni amalga oshirishga jalb qilishning asosiy omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan, 2021-yilda mavjud EIZni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash bo'yicha ishlarni bajarish uchun 890 mlrd so'm ajratish rejalashtirilgan.

Xususan, bu EIZdagi investitsiya faoliyatining ijobiy prognozlari bilan bog'liq. 2021-yilda Respublikaning erkin iqtisodiy zonalarida qiymati 2,9 mlrd dollarlik 443 ta yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan, ulardan 1,4 mlrd dollari to'g'ridan-to'g'ri

xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida 552 yangi turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi va 41,6 ming yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Bundan tashqari, joriy yilda “Buxoro-agro” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ va “Urgut” EIZ hududlarini kengaytirish, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida yangi erkin iqtisodiy zonani - “Qoraqalpog‘iston-agro” va Farg‘ona viloyatidagi ikkita maxsus erkin iqtisodiy zonalar - “Andijon-tekstil” va “Namangan-tekstil”ni ishga tushirish rejalashtirilgan¹¹.

Shuningdek, olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategisi sari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmonining 29-maqsadida: “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” chora tadbirlari belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun “Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish. Bunda: sanoat zonalarining har biriga kamida 15 ta korxonani joylashtirish; elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlari va yo‘l infratuzilmasi yetkazib berishni to‘liq Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirish (buning uchun 2022-yilda 1,5 trln. so‘m ajratish).” vazifalari belgilangan¹². Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun esa tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo‘lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so‘ng - XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalar deb atalib, ular Y.G.Fon Tyunen, V.Launxard, A.Veber nomlari bilan bog‘liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- alohida olingan biror qishloq xo‘jaligi yoki sanoat korxonasining ko‘rib chiqilishi;

¹¹ <https://mift.uz/oz/menu/svobodnye-ekonomicheskije-zony-uzbekistana-itogi-2020-goda-i-perspektivy-razvitiya-na-2021-god>

¹² <https://lex.uz/docs/5841063#5842914>

• joylashtirishning barcha omillari to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning qulay joyi to'g'risida aniq javob olish mumkinligi to'g'risida takliflar mavjudligi.

Y.G.Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo'lgan). Tyunen qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta'minlovchi shahargacha bo'lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo'jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashtirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

V.Launxard ham sanoat korxonalarini ko'rib, chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalarini joylashadigan joy to'g'ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

A.Veber sanoatni joylashtirishning to'liq nazariyasini birinchi bo'lib ishlab chiqqan olimdir. A.Veber nazariyasiga ko'ra, qulay joylashtirishning asosiy mezonini ishlab chiqarish va sotishning jami xarajatlarini minimallashtirish sanaladi. Bunda transport, mehnat, xomashyo va energiya xarajatlari hamda aglomeratsiya omili ham hisobga olinishi kerak. A.Vebercha sanoat shtandorti nazariyasi. A.Veberning I.Tyunen asari paydo bo'lib, eradan yuz yil o'tgach yozilgan asari sanoatni rivojlantirishga (joylashtirishga) oid burjua iqtisodiy adabiyotida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni joylashtirishga nisbatan "Ajratilgan davlat" asari egallangan o'rin singari o'rinni egallaydi. Sanoatni joylashtirishning shundan keyingi barcha nazariyalari A.Veber nazariyasini bevosita rivojlantirishdan yoki uni salgina o'zgartirishdan iboratdir. 20-yillardagi adabiyotda "Veber tarixning asosiy usullaridan foydalanish" mumkinligi va biron-bir yangi metodologik usullarga urinmaslik kerakligi to'g'risidagi fikr ancha keng tarqalgan edi.

Klassik standart nazariyalar 1920-yillarda A.Predel va T.Palander tomonidan tanqid qilinadi. A.Predel muvaffaqiyatli joylashtirish joylarini ko'satib olgan (ya'ni qulay joylashtirish joyini matematik aniqlash imkoniyatini inkor etgan). T.Palander maxsus (turli xil tarmoqdagi korxonalar uchun) va umumiy standart nazariyalarini taklif etdi.

Joylashtirish nazariyalari rivojlanishi yangi bosqichining (taxminan XX asr o'rtalarida boshlangan) ko'zga ko'ringan vakillari Avgust Lyosh va Devid Smit hisoblanadi. Ularning nazariyalari yangi yoki neoklassik standartlar bilan ataladi (bu yerda "neoklassik" tushunchasining neoklassik iqtisodiyot nazariyasiga aloqasi yo'q). Neoklassik nazariyaning klassik nazariyadan farqi shundaki, unda ishlab chiqaruvchilar qulay hududiy joylashuvni ta'minlay oluvchi sanoat ishlab chiqarishi joylashuvining umumiy nazariyasini yaratish mumkin emasligini tushunib yetishlari lozim. Unga ko'ra, xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarishning joylashish joyini tanlash sub'yektiv amalga oshiriladi. Qulay joylashtirishning mezoni sof foydani maksimallashtirish hisoblanadi.

Statik nazariyalarning rivojlanishi hozirgacha davom etmoqda. Ular asosan korxonani joylashtirish omillari sonining ko'payishi yo'nalishida amalga oshirilmoqda. Undan tashqari, bir zavodli emas, balki ko'p zavodli sanoat firmalari ko'rib chiqila boshlandi (Raynold Grotzning 1980-yillar boshlaridagi ishlari). Aynan ko'p zavodli sanoat firmalari hayotda ko'p bo'lib, aksariyat hollarda ularning tarkibiga iqtisodiyotning uchinchi sektori korxonalari ham kiradi. Bunday kompaniyalarda qulay joylashtirish muammosiga yondashuv bir zavodli firmalarga nisbatan tubdan farq qiladi. Ko'p zavodli firmaning asosiy maqsadi tarkibidagi korxonalarni shunday joylashtirishki, bunday joylashtirish natijasida minimal va kompaniya foydasi maksimal bo'lsin.

Joylashtirishning dinamik nazariyalari, yuqorida aytib o'tilganidek, XX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Birinchi sodda dinamik konsepsiya sifatida X.Xotelling modelini aytish mumkin. U 1920-yillardagi ishida O'zaro raqobatlashadigan ikkita ishlab chiqaruvchi korxonani qulay joylashtirishni isbotlab bergan. Dinamik nazariyalarda statik nazariyalardan farqli ravishda ko'proq ko'p zavodli kompaniyalar g'olib chiqiladi.

R.Vernoning mahsulot ishlab chiqarish davri konsepsiyasini garchi, u mintaqaviy nazariya doirasidan chetga chiqib ketgan bo'lsa ham, joylashtirishning dinamik nazariyasi deb hisoblash mumkin (1960-yillarda paydo bo'lgan). Vernoning asosiy tezisi shundan iboratki, har bir mahsulot chegaralangan hayotiy davrga ega bo'lib, shu davrda ishlab chiqarish jarayoni hamda uni qulay joylashtirishda O'zgarishlar ro'y berib turadi.

Mahsulotning hayotiy davri bir qancha bosqichni (ishlab chiqarish, O'zgartirish, ulg'ayish, standartlashtirishni) o'z ichiga oladi. Ular

joylashtirishning asosiy omillaridagi nisbatlari bilan farq qiladi. Hozirda dinamik nazariyalar soni ko‘p emas.

Dinamik konsepsiyalar doirasida sanoat firmalarining hududiy rivojlanish bosqichlari ajratiladi. Har bir bosqichda kompaniyalar o‘z faoliyatini joylashtirishning turli mezonlaridan foydalanadi. Masalan, Storper va Volker bunday bosqichlarning to‘rttasini ajratadi. Birinchisi - “lokalizatsiya” - yangi sanoat firma va korxonalarining yangi hududlarda joylashuvi. Ikkinchisi - “sektiv suburbanizatsiya” - dastlab tanlangan hududlarda bozor holatlari mustahkamlangan sari ushbu firmalar quvvatlarining oshirib borilishi. Uchinchisi - “dispersiya” - sanoat firmalarining chetga (pereferiyaga) tomon harakati. Va nihoyat, to‘rtinchisi – “joylashuvchi og‘irlik markazlarini ko‘chirish” - sanoat tuzilmasining yangilanishi ta‘siri ostida ishlab chiqarishni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishlari. Masalan, texnologik yangiliklar asosida, talab tuzilmasining tarkibiy o‘zgarishi hisobiga, eski tarmoq va ishlab chiqarish evolutsiyasi natijasida.

Firmalar - yangilanish jarayonining tashuvchilari ko‘pincha oldin paydo bo‘lgan yirik sanoat markazlaridan tashqari joylashadi. Bu esa jarayonni yana “lokalizatsiya” bosqichiga qaytaradi.

Standartlar nazariyasiga muvofiq sanoatni joylashtirish quyidagi omillar orqali aniqlanadi:

-korxonalarini joylashtirishda transport xarajatlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi;

-korxonalarini joylashtirishda arzon ishchi kuchini hisobga olish orqali amalga oshiriladi;

-korxonalar sanoat hududlari va uzellarida joylashtiriladi.

Ushbu nazariyada transport xarajatlari omili yetakchi rol o‘ynaydi. Xomashyo va materiallarning transportabelligi xarajatlarga ta‘sir ko‘rsatadi va shu bilan bo‘lg‘usi korxonaning joyini aniqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida, tashqi bozorga chiqish transport xarajatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shuning uchun mazkur omil transportni kam talab etadigan, xomashyoni qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan sohalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Markazdan uzoqda joylashgan mintaqalar - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari korxonalarida transport xarajatlari mahsulot tannarxi tarkibida katta o‘rin egallaydi. Shuning uchun transport omili mazkur mintaqalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Arzon ishchi kuchi va aglomeratsiya omiliga asoslangan ikkinchi va uchinchi yo‘nalishlar mamlakatimiz uchun xarakterli bo‘lib, mehnatni

ko‘p talab etadigan tarmoqlarni joylashtirish hamda sanoat hududlari va uzellarini tashkil etishni rag‘batlantirish uchun xizmat qiladi.

Respublikamizning deyarli barcha mintaqalari ishchi kuchini ko‘p talab etadigan tarmoqlarni joylashtirish uchun yetarli mehnat resurslariga ega. Joylashtirish nazariyasi asoschilaridan Avgst Lyosh joylashtirishda differensial tabiiy resurslarni bir tekisda taqsimlanishini hisobga olib, quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi:¹³

1. Barcha iqtisodiy faoliyat turlarining ma‘lum bir oyda konsentratsiyalashuvi;

2. Hudud yer maydonida iqtisodiy faoliyat barcha turlarining joylashuvida bir xil dispersiyaga ega bo‘lishi;

3. Yoki tizimli bo‘lmagan xolatda ishlab chiqarishning notekis joylashuvi.

A. Lyoshning “Bozor hududi nazariyasi”ga muvofiq, ob‘ekt qurilishi uchun joy tanlashda foyda, soliq, demping, bojxona to‘lovlari va boshqa bozor indikatorlari muhim omil sifatida ishtirok etadi. Muallif, iqtisodiy-matematik modellardan foydalangan holda, mahsulot sotilish radiusini aniqlaydi va bunga kovra, radiusdan tashqarida mahsulot sotish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydi.

A. Lyosh mintaqani muayyan chegaraga ega bo‘lgan va mintaqalararo raqobatga tortilgan bozor sifatida qoladi. Bunda hududga mutlaqo bir jinsli va bir qiymatli bo‘shliq sifatida qaraladi hamda faqat ikki omil: ishlab chiqarishni bir joyda to‘planish samarasi va mahsulotni iste‘molchiga yetkazishning hudud bo‘ylab tekis taqsimlangan transport xarajatlari hisobga olinadi.

“Bozor hududi nazariyasi” o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, xususan MDH davlatlari iqtisodiyotida hozircha yetarli darajada qo‘llanilmayapti. O‘zbekistonda sanoat korxonalarini joylashtirishda bozor indikatorlaridan foydalanilmayapti.

Shu qatorda Kristaller L. Shahar va axoli punktlarining joylashuvida turli xil kristalli tarkib mavjudligini ta‘kidlaydi. Iqtisodiy faoliyat turlarini joylashtirishda tabiiy resurslar omili qatorida ma‘lum bir faoliyatning hududiy tarkibini tadqiq etish muxim ahamiyat kasb etadi.¹⁴

Joylashtirishda A. Lyosh tomonidan ishlab chiqilgan abstrakt modelda joylashtirish hududini aniqlashda ikki xil jihat ajratib ko‘rsatiladi:

¹³ Edgar M. Hoover and Frank Giarratani “An Introduction to Regional Economics”/Pub BR, 2015, page 10

¹⁴ Edgar M. Hoover and Frank Giarratani “An Introduction to Regional Economics”/Pub BR, 2015, page 10

1)Hududiy konsentratsiyalashuvda iqtisod qilinishi;

2)Transport harajatlari.

Mintaqaviy iqtisodiyotda joylashtirish muammolarini o‘rganishda 3 ta muhim jihat hisobga olinishi zarur:

1) tabiiy resurslar imkoniyati;

2)Konsentratsiya hisobidan iqtisod qilinishi;

3)Transport va aloqa harajatlari.

Birinchiidan, “qulay yoki yaxshi” joylashuv o‘zida nimani aks ettiradi. Joylashuvning ikki jihati harajat va risk (tavakkalchilik) bilan bog‘liqdir. Sababi, investorning daromad olishi uning harajat va riski bilan bog‘liqdir. Joylashtirishda ishlab chiqarishni yoki tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi jarayonlarni boshlash, iste‘molchilarning joylashuvdagi siljishlar, transport tariflarining o‘zgarishlarini hisobga olgan holda biznes-joyni tanlab olish maqsadga muvofiqdir. Joylashtirishdagi o‘zgarishlar ishlab chiqarish jarayonlarining ko‘lami, bozorlarning kengayishi, transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlar va boshqa omillar asosida sodir bo‘ladi. Kichik korxonalar ishlab chiqarishining kengayishi hududning joylashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Yirik ishlab chiqarish korxonalari, jumladan, metallurgiya zavodlari, korporatsiyalarni joylashtirishda hudud imkoniyatlarini baholash zarur. Shuningdek, firma va tadbirkorlarning «qulay joy»ni tanlab olishi turli xil joylardagi daromadlar va harajatlarni taqqoslashni talab etadi. Yoki shaharlarda avtobus garajlarini qurish uchun kerakli bo‘lgan joyni tanlashni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, daromadlar garajlarning joylashuviga emas, asosiy muammo-bu garajlarni joylashtirish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni minimallashtirishdan iborat¹⁵.

Shunday qilib, yangi sog‘liqni saqlash muassasasini joylashtirish uchun muqobil joyni baholash uchun ko‘proq joylashtirish harajatlarini emas, balki jamiyatga ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan xizmatlar sifatini baholash lozim. Agar uy xo‘jaliklari uchun yashash joylarini tanlab olish masalasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu yerda joylashtirishning muhim elementi sifatida uy-joyni sotib olish va ijara narxi, kommunal harajatlar, shuningdek, ishga, savdo shahobchalari, maktab va boshqa ijtimoiy obektlarga borish imkoniyatlari baholanadi.

Bundan tashqari, tijorat korxonalari, aholi va boshqa sub‘ektlarning joylashuvi ma‘lum bir momentda omillar ta‘sirida o‘zgaradi. Jumladan,

¹⁵ Edgar M.Hoover and Frank Giarratani “An Introduction to Regional Economics”/Pub BR,2015,page 13

ish joyini o'zgartirish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish (bolalarni maktabga berish), yangi loyihalarning amalga oshirilishi va boshqa omillarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Joylashtirishda yerdan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim, hudud maydonida minerallar yoki boshqa komponentlarning joylashganligi joylashtirish uchun noqulay vaziyatni yuzaga keltiradi. Tabiiy sharoitlar, iqlim va mahalliy suv ta'minoti, rel'ef ham qurilish harajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Joylashtirishda yer maydonlarining cheklanganligi atrof-muhitning ifloslanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Sababi, ma'lum bir joyda aholi va ishlab chiqarish hamda ijtimoiy obektlarning konsentratsiyalashuvi, o'z navbatida, chiqindilarning tashlanishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan joylashtirishda atrof-muhit va ekologik vaziyatga baho berish zarur¹⁶.

V.Kristaller "Markaziy o'rin nazariyasi"ning asoschisidir. U matematik hisob-kitoblar orqali hududiy ierarxiya bir darajadan boshqa darajaga geometrik progressiya orqali o'tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o'z navbatida tumanlar ko'plab qishloq fuqarolari yig'inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o'ziga tegishli bo'lgan tovar va xizmatlar yo'naltirilgan. Shunday qilib, olim aholi punktlari guruhiy tizimini tashkil etishning qulay variantini aniqlash orqali markaziy olimlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo'nalishlarini, shahar va aholi punktlari boshqaruvi ma'muriyatining qulay tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o'rganishga oxirgi o'n yilliklarda nisbatan kamroq e'tibor berildi. To'g'ri, hududiy iqtisodiyot bo'yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko'rib chiqildi. Biz mavjud hududiy nazariyalarni mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning amaliy masalalarini hal etishda foydalanish imkoniyati nuqtayi nazaridan tahlil etishga harakat qildik.

Hududiy siyosat nazariyalari hududlar iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlarini shakllantiradi. Biroq bu nazariyalarning o'zinigina o'rganish bilan chegaralanib qolish noto'g'ri,

¹⁶ Edgar M.Hoover and Frank Giarratani "An Introduction to Regional Economics"/Pub BR,2015,page 14

chunki ulardan ko‘pi mintaqalarning iqtisodiy o‘shishi nazariyalariga asoslangan (boshqacha qilib aytganda, mintaqalarning iqtisodiy o‘shish sur‘atlarida farqlar yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlamasdan turib, hududiy siyosat haqida gapirish noto‘g‘ri).

Hududiy o‘shish nazariyalarini kelib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi - hududlarda iqtisodiy o‘shish modellarini qo‘llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o‘shishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o‘xshatish mumkin (development ekonomiks). Ikkinchisi esa, alohida korxonalar va firmalarning hatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina belgilab beradi. Kompaniyalar o‘z faoliyatini u yoki bu hududda olib borishining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko‘rib chiqiladi.

Tahlil etilayotgan nazariyalarni ishlab chiqish bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassisleri, ham iqtisodchilar shug‘ullanishgan. Chunki iqtisodiy geografiya bilan hududiy iqtisodiyot o‘rtasida aniq bir chegara o‘rnatishning iloji yo‘q.

Fransuz iqtisodchilari va iqtisodiy geografiyashunoslari ijtimoiy masalalarga doim katta qiziqish bilan qarashgan. Hududiy nazariyalarda ular “O‘shish qutblari” va “rivojlanish o‘qlari” urbanistik konsepsiya bilan bogliq ilmiy yo‘nalishlar rivojlanishiga katta hissa qo‘shishgan (F.Peru, J.R.Budvil, P.Pote).

Hududiy nazariyalar sohasida Rossiya iqtisodchi va geograflari tomonidan ham katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular asosan g‘arb olimlari fikrlarini rivojlantirganlar. Bu borada ayniqsa, universitet hudud maktabining iqtisodiy va ijtimoiy geografiya vakillari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganlar. N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy, I.A.Viti, Yu.G.Saushkin kabi olimlar ushbu yo‘nalishni mustahkamlashga katta hissa qo‘shganlar.

2.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muayyan qonuniyatlar namoyon bo‘lmoqda. Ular muayyan tarixiy bosqichda ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining o‘zaro harakati natijasida shakllanadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o‘rtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab

chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;

- mintaqalarni kompleks rivojlantirish;

- mintaqalar o'rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;

- mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo'lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xomashyo, yoqilg'i, energiya va iste'mol manbalariga yaqinligini ta'minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Kooperatsiyalashtirish va kombinatlashtirish hamda chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Mintaqalarni kompleks rivojlantirish uchun bozor infratuzilmasi elementlari, ishlab chiqarish tarmoqlari, aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq sohalar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining mushtarakligiga erishish lozim. Mintaqa xo'jaliklarining kompleksligi turli tarmoq va sohalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Mintaqalar o'rtasida hududiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Shuning uchun har bir mintaqa faqat O'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi.

Xo‘jalik yuritishning yangi sharoitida mintaqalar orasida hududiy mehnat taqsimotini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda hukumat va alohida hududlar manfaatlarining mushtarakligi hisobga olinishi, turli ma‘muriy-hududiy birliklar resurslarining umumlashtirilishi lozim. Mintaqalar ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning barcha mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi bosqichdagi muhim vazifalardan biri, hukumat tomonidan alohida e‘tiborga molik mintaqalar belgilanib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun davlat budjetidan qo‘shimcha mablag‘lar ajratilishi va aniq rejalar tuzishdan iborat.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bozor iqtisodiyotining rivojlanishi qonunlarida namoyon bo‘ladi. Ular o‘zaro ajralmagan holda rivojlanadi va bir-birini taqozo etadi.

2.4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bilan birga ularni joylashtirish tamoyillari ham katta ahamiyatga ega. Joylashtirish tamoyillari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muayyan davri mobaynida ishlab chiqarish hududiy taqsimotida namoyon bo‘ladi. Ushbu tamoyillarni xo‘jalik yuritish usullari sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish tamoyillarini davlat iqtisodiy siyosatining o‘ziga xos ilmiy nizomi sifatida tushunish mumkin. Turli mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari bozor iqtisodiyotining rivojlanish modelini o‘rganish va tajribalaridan foydalanish asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda quyidagi tamoyillari ajralib turadi:

- ishlab chiqarishning energiya, xomashyo, yoqilg‘i manbalari va iste‘mol mintaqalariga yaqinlashuvi;
- tabiiy resurslarning eng samarali turlarini o‘zlashtirish va ulardan kompleks foydalanish;
- ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ko‘rish va tabiatdan oqilona foydalanish;

- xalqaro mehnat taqsimotining iqtisodiy qulayliklaridan foydalanish, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tiklash va rivojlantirish;

- korxonalar va infratuzilma obektlarini joylashtirishda favqulodda holatlarni (zilzila, suv toshqini, togʻ va jarliklarning surilishi, sel va h.k.) hisobga olish.

Ishlab chiqarishni energiya, xomashyo, yoqilgʻi manbalari va isteʼmol mintaqalariga yaqinlashtirish tamoyili amalga oshirilganda uzoq masofaga yuk tashish va ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish bilan bogʻliq muammolar yechiladi. Bu oʻz navbatida iqtisodiy samaradorlikning oʻsishiga olib keladi.

Ayniqsa, energiyani koʻp talab etadigan korxonalarning yoqilgʻi va energiya manbalariga yaqin boʻlishi katta ahamiyatga ega (masalan, rangli metallurgiya yoki kimyo sanoati tarmoqlari). Xomashyo manbalariga material koʻp talab qiluvchi sanoat tarmoqlari yaqin joylashadi (qora metallurgiya, ogʻir mashinasozlik).

Yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari mahsulotlarini ishlab chiqarish isteʼmol mintaqalariga, fanga ehtiyoj sezuvchi tarmoqlar esa yuqori malakali mehnat resurslari bilan taʼminlangan mintaqalarga yaqinlashadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jarayonida mintaqalarda tabiatdan foydalanish muammosi dolzarb boʻlib turibdi.

Hozirgi paytda tabiatga zarar keltirish, ekologik toza boʻlmagan mahsulot ishlab chiqarish, tabiiy resurslarni dunyo narxlaridan koʻra arzonga sotish kabi iqtisodiy masʼuliyatsizlik illatlari bartaraf etilishi zarur. Iqtisodiy holatni yaxshilash, tabiatdan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi iqtisodiy dastaklar lozim:

- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish doirasida mintaqalar va ekotizimlar boʻyicha ekologik cheklashlar tizimining qonuniy va meʼyoriy asosini yaratish;

- takror ishlab chiqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ragʻbatlantiruvchi ekologik soliq va tabiatdan foydalanganlik uchun toʻlovlar tizimini kiritish;

- tabiiy resurslar isteʼmoli, ifloslantiruvchi moddalarning chiqarib tashlanishini cheklash, chiqindilarni joylashtirish, shuningdek tabiiy resurslardan samarali va kompleks foydalanish koʻrsatkichlari tizimini shakllantirish.

Hozirgi sharoitda birgalikda moliyalashtirish va xo‘jalik obektlarini qurish, qo‘shma korxonalar tuzish, moliya va bank sohalarida hamkorlik qilish, kompensatsiya asosida hamkorlik qilish, tashqi savdo kabi iqtisodiy hamkorlikning turlari katta ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda boshqa tamoyillar ham hisobga olinadi, masalan, katta shaharlarning o‘shini boshqarish tamoyili, kichik shaharlar rivojlanishini faollashtirish va boshqalar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyat va tamoyillari bilan birgalikda nazariy jihatdan ishlab chiqarishning lokalizatsiyasini belgilab beradigan, ba‘zi xo‘jalik tarmoqlarining joylashuviga, turli toifadagi mintaqaviy komplekslarning iqtisodiy hududlar, viloyatlar va tumanlardagi hududiy ishlab chiqarish majmualari (HIM) shakllanishiga ta‘sir etadigan omillar ham katta ahamiyatga ega.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiyot rivojlanishi uning ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarishning bunday shakllari esa muayyan bir jarayonning ikki tomoni bo‘lib, u mohiyatan ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mehnat taqsimoti bajarilayotgan ishning kim tomonidan va qay tarzda amalga oshirilayotganligini anglatadi. Odatda, ishlab chiqarish asosan sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport kabi makroiqtisodiy sohalardan tashkil topadi. Ammo ularning barchasini harakatga keltiruvchi ishchi kuchi, ya‘ni inson hisoblanadi. Binobarin, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishdek murakkab jarayonning markazidan o‘rin oladi. Buni biz demotsentrik prinsip deb yuritishimiz mumkin. Afsuski, ilgari aholi asosan bosh ishlab chiqaruvchi kuch sifatida baholanardi. Vaholanki, bizning sharoitimizda, hozirgi demografik vaziyatda faqat 48-50 foiz aholi mehnatga layoqatli yoshlardir, xolos.

Mehnat taqsimoti mamlakat, mintaq, hududning biror bir maxsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar kursatishga ixtisoslashuvi bulib, bu mehnat taqsimoti shakllarini namoyon kiladi. Quyidagi mehnat taqsimoti umumlashgan xolda milliy mehnat taqsimotini namoyon kiladi. Bu jixatdan Uzbekiston yaqingacha jahon bozorida paxta tolasi bilan ishtirok etgan. Ishlab chiqarish jarayonida xom ashyodan tayyor mahsulot yaratiladi. Bu jarayonda u takomillashib boradi va texnologik tus oladi. Ayni shu holat ishlab chiqarishga bo‘lgan turli yondoshuvlarga sabab bo‘ladi.

Tayanch soʻz va iboralar: Ishlab chiqarish kuchlari, bozor, korxonalar, sanoat korxonalar, sanoat, iqtisod, mehnat resurslari.

Oʻzini-oʻzi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Ishlab chiqarish kuchlari deganda nima tushuniladi?
2. Ilmiy manbalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning nechta asosiy tamoyillari mavjud?
3. Qishloq xoʻjaligi nechta omil boʻyicha tadqiq qilinadi?
4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish boʻyicha xorijiy nazariyalarni keltiring
5. A.Lyosh iqtisodiy hududlarni nechta turga ajratgan?
6. Iqtisodiy hududlar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
7. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga taʼsir etuvchi omillarni taʼsir darajasiga koʻra, nechta guruhga boʻlish mumkin?
8. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillarini va qonuniyatlarini ayting.

III BOB. O‘ZBEKISTONNING MA‘MURIY HUDUDIY BO‘LINISHI

3.1. O‘zbekistonning ma‘muriy - hududiy bo‘linishining tarixi va hozirgi holati

3.2. Ma‘muriy-hududiy bo‘linish masalalarini qonuniy-huquqiy asoslari

3.3. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari

3.1. O‘zbekistonning ma‘muriy - hududiy bo‘linishining tarixi va hozirgi holati

So‘ngi bir asr davomida mamlakatimizning geografik xaritasi tez-tez o‘zgarib turdi. 1917-yilda hozirgi O‘zbekiston hududi Turkiston general-gubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi O‘rtasida taqsimlangan edi. 1924-yilda yuz bergan O‘rta Osiyoning milliy-hududiy taqsimlanishi natijasida O‘zbekiston SSR tashkil topgan.

1930-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasining poytaxti Samarqand shahrida joylashgan bo‘lib, 1936-yilda uning tarkibiga ilgari RSFSR (Rossiyskaya Sovetskaya Federativnaya Sotsialisticheskaya Respublika) da bo‘lgan Qoraqalpog‘iston ASSR kiritilgan. 1939-yilda ushbu avtonom respublikaning poytaxti To‘rtko‘l shahridan Nukusga ko‘chirilgan.

Viloyat bo‘linishlari O‘zbekistonda 1938-yilning yanvaridan boshlab vujudga kelgan. Dastlab, 5 ta viloyat tashkil etilgan, ya‘ni: Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm.

1941-yilning martida ular safiga Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943-yil yanvarida esa Qashqadaryo viloyatlari qo‘shilgan.

1945-yilga kelib O‘zbekistonda 9 ta viloyat va 1ta avtonom respublika mavjud bo‘lgan.

1960-yilga kelib, Namangan viloyati – Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlari o‘rtasida taqsimlangan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyati butunlay Surxondaryo viloyatiga qo‘shib yuborilgan.

1963-yil fevral oyida Mirzacho‘lning yangi o‘zlashtirilgan yerlarida Sirdaryo viloyati tuzilgan. Ushbu mintaqa Samarqand va Toshkent viloyatlari negizida tashkil topgan bo‘lib, ma‘muriy markazi dastlab Yangier, keyinchalik Guliston shahri etib belgilangan.

1964-yilda Qashqadaryo, 1967-yilda esa Namangan viloyatlari qaytadan tiklangan. 1973-yil oxirida Sirdaryo viloyatidan Jizzax viloyati ajralib chiqqan.

O‘zbekistonning eng kenja viloyati bo‘lgan Navoiy 1982-yilda Buxoro va Samarqand viloyatlarining tumanlari negizida vujudga kelgan. Shunday qilib, respublikada viloyatlar soni 12 tani tashkil etgan.

1988-yilda viloyatlar soni yana 10 taga tushib qolgan. Bunda, Jizzax viloyati Sirdaryo viloyati tarkibiga qo‘shib yuborilgan. Navoiy viloyatining tumanlari Buxoro va Samarqand viloyatlariga bo‘lib berilgan.

Lekin tezda ushbu ma‘muriy chegaralar yana o‘z holiga qaytarilgan, ya’ni: 1989-yilda Jizzax viloyati, 1992-yilda esa Navoiy viloyati qaytadan tiklangan. Bunday o‘zgarishlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muayyan bosqichidagi ob‘ektiv zarurat, ba‘zan esa masalaga sub‘ektiv yondoshuvlar natijasida ro‘y bergan.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy birlik jihatdan 14 mintaqaga (Toshkent shahri, 12ta viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) bo‘lingan bo‘lib, ushbu mintaqalarda 1201ta shahar aholi punktlari mavjud, shundan 119 tasi shaharlar va 1082 tasi shaharchalardan iborat.

Shular bilan bir qatorda 14 ta mintaqada hududida 11838 ta qishloq aholi punktlari mavjud, 1464 ta qishloq fuqarolik kengashlari va 7801 ta mahalla yig‘inlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari orasida aholi soni bo‘yicha farq 3,5 marotabani (Samarqand va Namangan viloyatlari), hudud maydoni bo‘yicha esa 39,7 marotabani (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyati) tashkil etadi.

Ma‘muriy-hududiy birliklar soni bo‘yicha ham turli mintaqalar o‘rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Jumladan, Toshkent viloyati shaharlar (16 ta) va shaharcha (97 ta), Farg‘ona viloyati qishloq fuqarolik kengashlari (164 ta) soni bo‘yicha eng yuqori o‘rinlarni egallasalar, Samarqand viloyati qishloq aholi punktlarining (1935 ta) soniga ko‘ra hammadan oldinda turadi.

Bunday tafovutlarni ayrim tumanlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, qishloq fuqarolik kengashlari (20 ta) soni bo‘yicha Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani, qishloq aholi punktlarining (266 ta) soni bo‘yicha esa Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani respublikada eng yuqori o‘rinlarni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud ma’muriy-hududiy birliklarni ierarxiya tizimiga ko‘ra **3 bo‘g‘inga** ajratish mumkin:

yuqori bo‘g‘in - Toshkent shahri, 12 viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi;

o‘rta bo‘g‘in - viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar, qishloq va shahar tumanlari;

quyi bo‘g‘in - tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar, shaharchalar, qishloq fuqarolik kengashlari va mahalla yig‘inlari.

Shular bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasining **Shaharsozlik kodeksi** (*O‘zbekiston Respublikasining 22.02.2021-y. O‘RQ-676-son Qonuni bilan tasdiqlangan*) **12-moddasiga asosan** O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy bo‘linishi-shaharlarga, shaharchalarga, qishloqlar va ovullarga bo‘linishi belgilangan, bulardan:

Aholining soniga qarab shaharlar quyidagilarga bo‘linadi:

eng yirik - aholisining soni bir milliondan ortiq kishidan iborat;

yirik - aholisining soni ikki yuz ellik mingdan bir milliongacha kishidan iborat;

katta - aholisining soni yuz mingdan ikki yuz ellik minggacha kishidan iborat;

o‘rtacha - aholisining soni ellik mingdan yuz minggacha kishidan iborat;

kichik - aholisining soni ellik minggacha kishidan iborat bo‘lgan shaharlar.

Aholining soniga qarab shaharchalar quyidagilarga bo‘linadi:

katta - aholisining soni yigirma mingdan ortiq kishidan iborat;

o‘rtacha - aholisining soni o‘n mingdan yigirma minggacha kishidan iborat;

kichik - aholisining soni o‘n minggacha kishidan iborat bo‘lgan shaharchalar.

Aholining soniga qarab qishloqlar va ovullar quyidagilarga bo‘linadi:

yirik - aholisining soni besh mingdan ortiq kishidan iborat;

katta - aholisining soni uch mingdan besh minggacha kishidan iborat;

o‘rtacha - aholisining soni bir mingdan uch minggacha kishidan iborat;

kichik - aholisining soni bir minggacha kishidan iborat bo‘lgan qishloqlar va ovullar.

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy bo‘linishida shaharlar muhim ahamiyat kasb etib, O‘zbekistonda shaharlar respublikaga bo‘ysunuvchi, viloyatga bo‘ysunuvchi va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar toifalariga ajratilgan. Shaharlarning toifalari asosida ularning huquqiy holati belgilangan, u yerlarda shunga mos keladigan davlat idoralari tashkil etilgan, xalq xo‘jaligining turli yo‘nalishlari bo‘yicha rahbarlikni amalga oshiruvchi tashkilotlar tuzilgan.

3.2. Ma‘muriy-hududiy bo‘linish masalalarini qonuniy-huquqiy asoslari

“O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonun 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma‘qullangan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilning 28-avgustida O‘RQ-635 son bilan tasdiqlangan.

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, qonun bilan:

viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ysunuvidagi shaharlar) - aholisining soni, qoida tariqasida, kamida o‘ttiz ming kishi bo‘lgan, muhim ma‘muriy ahamiyatga, rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo‘lgan aholi punktlari;

ma‘muriy-hududiy tuzilish - O‘zbekiston Respublikasi hududini ma‘muriy-hududiy birliklarga bo‘lish;

ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalari – ma‘muriy-hududiy birliklarni tuzish, tugatish va ularning chegaralarini o‘zgartirish, ma‘muriy-hududiy birliklarning ma‘muriy markazlarini belgilash va ko‘chirish, ma‘muriy-hududiy birliklarning bo‘ysunuvini o‘zgartirish;

respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari bilan aniqlanishi mumkin bo‘lgan, strategik ahamiyatga, yirik sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo‘lgan aholi punktlari;

tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar - aholisining soni, qoida tariqasida, kamida yetti ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan aholi punktlari;

tumanlar - viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarkibidagi, qoida tariqasida, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan iborat bo‘lgan ma‘muriy hududiy birliklar;

shaharlardagi tumanlar - shaharlarning ma‘muriy-hududiy birlik maqomidagi, aholisining soni, qoida tariqasida, kamida yigirma ming kishi bo‘lgan, fuqarolar yig‘inlaridan (mahallalardan) iborat bo‘lgan qismi;

shaharchalar - aholisining soni, qoida tariqasida, kamida ikki ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalarini, temir yo‘l stansiyalari va boshqa muhim ob‘yektlar yaqinida joylashgan, fuqarolar yig‘inlaridan (mahallalardan) iborat bo‘lgan aholi punktlari;

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari - viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi;

qishloqlar va ovullar - tumanlar hududida joylashgan, fuqarolar yig‘inlaridan (mahallalardan) iborat bo‘lgan aholi punktlaridan iboratligiga ta‘rif berilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi hududining yaxlitligi va bo‘linmasligi;
qonuniylik;

ma‘muriy-hududiy birliklardagi davlat boshqaruvining samaradorligi;

ma‘muriy-hududiy birliklarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirilishi belgilangan.

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan iboratligi, viloyatlar tumanlardan, shuningdek viloyat va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlardan, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardan iboratligi, viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar doirasida ham tumanlar tashkil qilinishi mumkinligi o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari o‘z vakolatlari doirasida:

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir qarorlar qabul qilishi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflarini ko‘rib chiqishi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Qoraqalpog‘iston

Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflarini kelishishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflar tayyorlashi; O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun kiritishi; viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha iltimosnomalarini ko'rib chiqishi; O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha komissiya tashkil etish masalalari belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi o'z vakolatlari doirasida:

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir qarorlar qabul qilishi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflarini ko'rib chiqishi; Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun kiritish masalalari o'z yechimini topgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi o'z vakolatlari doirasida:

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflar tayyorlashi; tumanlar va shaharlar hokimlarining Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha iltimosnomalarini ko'rib chiqishi; Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir takliflarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga ko'rib chiqish uchun kiritish masalalari yoritilib berilgan.

Shu bilan birga, Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o'z vakolatlari doirasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilangan.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar va shaharlar) hokimlari o'z vakolatlari doirasida:

Ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha iltimosnomalar kiritishi;

Ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha komissiyalar tashkil etishi;

Ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha iltimosnomalarning davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlashi;

Ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralovchi marza belgilari o'rnatilishini ta'minlash masalalari belgilangan.

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi o'z vakolatlari doirasida: (O'zR 16.08.2021-y. O'RQ-708-son Qonuni tahriridagi xatboshi)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlarni, shu jumladan xaritalar va chegaralar chizig'i tavsifini tayyorlashi, chegaralar nuqtalari koordinatalarining katalogini tuzish va boshqa masalalar yoritib berilgan.

Qonun bilan, ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining takliflarini hamda viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) hokimlarining iltimosnomalarini ko'rib chiqish hamda davlat ekspertizasidan o'tkazish maqsadida Ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha komissiyalar tashkil etiladi, komissiya tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rahbarlari kiritilishi belgilangan. (O'zR 16.08.2021-y. O'RQ-708-son Qonuni tahriridagi qism)

3.3. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari

Respublika bo'ysunuvidagi shaharlarni tuzish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarni, viloyatlar tumanlarini, Toshkent shahar tumanlarini va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tumanlarini tuzish hamda tugatish O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tegishli viloyatlar hokimlarining, Toshkent shahri tumanlariga nisbatan esa - Toshkent shahar hokimining iltimosnomalari asosida amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlarni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ysunuvidagi shaharlarni va shaharlarda tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarni, qishloqlarni va ovullarni tuzish hamda tugatish tegishli tumanlar hokimlarining iltimosnomalari asosida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarni, shaharchalarni, qishloqlarni va ovullarni tuzish hamda tugatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining taklifiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan tegishli tumanlar hokimlarining iltimosnomalari asosida amalga oshirilishi qonunda o‘z aksini topgan.

Bulardan tashqari Qonun bilan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasining chegaralarini o‘zgartirish; viloyatlarning va Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish; respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar chegaralarini o‘zgartirish; viloyat yoki tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarning, viloyatlar tumanlarining, Toshkent shahri tumanlarining va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar tumanlarining chegaralarini o‘zgartirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlarning, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ysunuvidagi shaharlarning va shaharlarda tumanlarning chegaralarini o‘zgartirish;

shaharchalarning, qishloqlarning va ovullarning chegaralarini o‘zgartirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning chegaralarini o‘zgartirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxtini belgilash va ko‘chirish;

viloyatlarning ma‘muriy markazlarini belgilash va ko‘chirish;

viloyat tumanlarining ma‘muriy markazlarini belgilash va ko‘chirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlarning ma‘muriy markazlarini belgilash va ko‘chirish;

shaharlarni respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar toifasiga kiritish;

shaharlarni viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar toifasiga kiritish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ysunuvidagi shaharlar toifasiga kiritish;

shaharchalarni tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar toifasiga kiritish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining shaharchalarini tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar toifasiga kiritish;

qishloqlar va ovullarni shaharchalar toifasiga kiritish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloqlari va ovullarini shaharchalar toifasiga kiritish;

ma‘muriy-hududiy tuzilish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish;

ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalari hal etilayotganda saylov okruglarining chegaralarini o‘zgartirish(O‘zR 16.06.2022-y. O‘RQ-779-son Qonuniga muvofiq kiritilgan modda);

ma‘muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik;

nizolarni hal etish;

ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etishda yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash masalalari belgilab berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonun¹⁷ 24 yil oldin qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunning yangi, yanada to‘liq, batafsil yoritib berilgan tahriridan iborat.**

Yangi qonunning farqli jihatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, alohida moddada asosiy tushunchalar shakllantirilgan, unda mamlakatning ma‘muriy-hududiy birliklari tizimi (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi) aks ettirilgan:

a) shaharlar:

• respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar – strategik ahamiyatga, yirik sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo‘lgan aholi punktlari;

¹⁷ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/mamlakatimiz_hududiy_tuzilishi_yanada_tartibga_solinadi

• viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ysunuvidagi shaharlar – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida 30 ming kishi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyatga, rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo'lgan aholi punktlari;

• tuman bo'ysunuvidagi shaharlar – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida 7 ming kishi bo'lgan, sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan aholi punktlari;

b) tumanlar – viloyatlar yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi, qoida tariqasida, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan iborat bo'lgan ma'muriy hududiy birliklar. Shaharlardagi tumanlar – shaharlar hududida joylashgan, aholisining soni, qoida tariqasida, kamida 20 ming kishi bo'lgan, fuqarolar yig'inlaridan (mahallalardan) iborat bo'lgan qismi;

v) shaharchalar – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida 2 ming kishi bo'lgan, sanoat korxonalarini, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim ob'yektlar yaqinida joylashgan, fuqarolar yig'inlaridan (mahallalardan) iborat bo'lgan aholi punktlari;

g) qishloqlar va ovullar – tumanlar hududida joylashgan, fuqarolar yig'inlaridan (mahallalardan) iborat bo'lgan aholi punktlari;

ikkinchidan, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Davergeodezkadastrqo'm, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Mahkamasi, Xalq deputatlari Kengashi va hokimliklarning vakolatlari belgilandi;

uchinchidan, ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha komissiyalarni tashkil etish va faoliyat yuritishining umumiy tartibi, asosiy vazifalari, shuningdek komissiya tomonidan xulosa chiqarish mexanizmi, muddatlari va mazmuni qayd etildi;

to'rtinchidan, Ma'muriy-hududiy birliklarning davlat reestri, uni shakllantirishning asosiy jihatlari va nimalarni o'z ichiga olishi bayon etildi;

beshinchidan, ma'muriy-hududiy birliklarni tuzish va tugatish, ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini o'zgartirish, ma'muriy markazlarni belgilash va ko'chirish, shuningdek bo'ysunuvini o'zgartirish tartibi keltirilgan. Har bir taomil doirasida zarur hujjatlar, ularni tuzish algoritmi, taqdim etish va ko'rib chiqish, shuningdek davlat

organlarining tasdiqlangan vakolatlariga muvofiq idoralararo o‘zaro harakatlarni amalga oshirish tartibi qayd etilgan¹⁸.

Hozirgi paytda respublikamizda 119 ta shahar va 117 ta shaharcha mavjud. Shu jumladan:

- 1 ta respublikaga bo‘ysunuvchi shahar;
- 30 ta viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar;
- 89 ta tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar.

Respublikaga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga yirik iqtisodiy, madaniy va ma‘muriy markazlar kiradi. Bunday shaharlarda yashagan aholi soni 500 mingdan ortiq bo‘lishi shart. Toshkent - respublikaga bo‘ysunuvchi shaharlar toifasiga mansub bo‘lgan mamlakatimizdagi yagona shahar hisoblanadi.

Viloyatga, respublikaga bo‘ysunuvchi shaharlar jumlasiga muhim sanoat ahamiyatiga molik iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan hamda aholisi 30 mingdan kam bo‘lmagan shaharlar kiradi. Ba’zi sabablarga ko‘ra, ya’ni sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hamda ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotini hisobga olgan holda, ayrim shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo‘lsa ham viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga kiritiladi. Bular jumlasiga Shirin (Sirdaryo viloyati), Xonobod (Andijon viloyati) shaharlarini kiritish mumkin.

Ushbu toifaga mansub shaharlarni tashkil etish bo‘yicha ayrim muammolar mavjud. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-sentyabrdagi 459-sonli qaroriga binoan mamlakat bo‘yicha viloyatlarga bo‘ysunuvchi 19 ta shahar qoldirilib, qolganlari tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar toifasiga o‘tkazildi. Ular orasida aholisining soni 60 ming kishidan ham ortiq bo‘lgan Shahrixon (59,1 ming), Chust (61,5 ming), Xojyli (70 ming), Denov (64 ming) kabi shaharlarning mavjudligi bu sohada yangicha yondoshuvlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, 90 ming kishi istiqomat qiladigan, Markaziy Osiyoning madaniy markazlaridan biri hisoblangan Shahrisabz shahri boshqaruvning huquqiy va iqtisodiy richaglardan mahrumligi uning taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga sanoat korxonalari, kommunal xo‘jaligi, ko‘p qavatli turarjoy binolari, ijtimoiy-madaniy tashkilotlar, savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari mavjud bo‘lgan hamda aholisi 7 mingdan kam

¹⁸ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/mamlakatimiz_hududiy_tuzilishi_yanada_tartibga_solinadi

bo'lmagan aholi punktlari kiradi. Bunday shaharlardagi aholining uchdan ikki qismidan ko'prog'i ishchi va xizmatchilardan iborat bo'lmog' lozim. O'zbekistonda aholi punktlariga shahar maqomini berish mahalliy hokimiyat organlarining takliflariga muvofiq, respublika Oliy Majlisi tomonidan hal etiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sanoat rivojlanishi sezilarli darajada o'smoqda, uning tarmoqlar tarkibi takomillashtirilmoqda. Yangi qazilma boyliklarning o'zlashtirilishi, ularni qayta ishlash natijasida kichik shaharlar paydo bo'lmoqda va natijada shaharlarda aholi soni o'sib bormoqda. Lekin mamlakatimiz aholisining 60%dan ortig'i qishloq joylarida yashaydi. Bu esa sanoat va urbanizatsiya ko'rsatkichlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikamiz mintaqalarida, jumladan Toshkent viloyatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida tabiiy boyliklarni qazib olish, ularni qayta ishlash hamda qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashni rivojlantirish natijasida sanoat markazlari, kichik shaharlar paydo bo'lmoqda. Hozirgi kunda Toshkent viloyatida 16 shahar va 18 shaharchalar mavjud bo'lgan.

Viloyatdagi o'rta va katta shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi (Chirchiq, Bekobod, Ohangaron) sanoat va transport tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Qazilma boyliklarni qazib olish, tog'-kon sanoati rivojlanishi natijasida Olmaliq, Angren, Yangiobod, Krasnogorsk va boshqa shaharlar vujudga keldi. So'nggi yillarda tuman markazlari va qishloq joylarida mahalliy qishloq xo'jaligi xomashyolarini qayta ishlash rivojlanib borishi tufayli agrosanoat markazlari va kichik shaharlar paydo bo'lmoqda. Bularga Bo'ka, Parkent, Piskent va boshqalar misol bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, har bir mamlakatning shaharlarni rivojlantirishning o'ziga xos milliy xususiyatlari va mintaqaviy siyosati mavjud. Shuningdek, mamlakat ichidagi har bir mintaq va hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik sharoiti, vujudga kelgan ekologik vaziyatini hisobga olgan holda shaharlar rivojlanadi.

Shuningdek, shaharlarning shakllanishi jarayonida davlat tomonidan tartibga solinadigan talablar inobatga olinadi, ma'lum qonunlarga amal qilinadi. Shaharlarning shakllanishi jarayonida investitsiya muhitning yaratilishi, ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi, ma'lum mutaxassislar jalb etilishi va ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish sanoat tarmoqlarining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqalarda shahar aholisi salmog'ining ortib borishi, urbanizatsiya jarayonidagi o'zgarishlarga ichki va tashqi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda shaharlarning shakllanishi, urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi sharqona xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Shaharlar aksariyat hollarda past qavatli shaxsiy imoratlar, mahalla markazlari kabi elementlarga ega bo'ladi. Bu jarayon ayniqsa respublikamizning mustaqillikka erishgandan keyingi yillardan boshlab yaqqol ko'zga tashlana bordi.

Sobiq Ittifoq davrida shahar aholisining o'sishi natijasida urbanizatsiya darajasining muttasil ortib borishi kuzatilgan edi. Mustaqillik yillarida barcha mintaqalarda, jumladan, Toshkent viloyatida ham shaharlar aholisi kamayib borishi natijasida urbanizatsiya ko'rsatkichi pasayib bordi.

Bu sanoat markazlari va shaharlardan tub bo'lmagan millat vakillarining ko'chib ketishi, tug'ilish va tabiiy ko'payishning qisqarishi tufayli sodir bo'lgan. Buni Toshkent viloyatidagi Chirchiq, Olmaliq, Angren va boshqa shaharlar misolida kolish mumkin.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mintaqalarda sanoatning rivojlanishiga erishilmoqda, yangi-yangi tarmoqlar vujudga kelmoqda.

Qishloq joylarida qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlashni rivojlantirish tufayli agrasanoat markazlari vujudga kelmoqda. Masalan, Bovka, Pskent, Parkent shaharlarida qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlashning rivojlanishi tufayli yangi ish olimlarining yaratilishi, aholining tabiiy ko'payishi hisobiga aholining o'rtacha o'sish sur'atlari ko'rildi. Qishloq xo'jaligi xomashyosi qayta rivojlanishi natijasida ilgari uncha katta bo'lmagan tuman markazlari shahar tusiga kirib shahar maqomini olgan. Demak, viloyatda shahar hosil qiluvchi omil sifatida mahalliy xomashyoni qayta ishlovchi sanoat ishlab chiqarishining ahamiyati ortib bormoqda.

Ushbu holat mintaqa urbanizatsiya darajasining o'sib borishiga olib kelmoqda. Viloyatdagi yerosti boyliklarini qazib olish jarayonida shakllangan shaharchalar (Krasnogorsk, Yangiobod, Chirchiq va h.k.) ham qaytadan "jonlanib", rivojlanib bormoqda.

Mintaqalarda urbanizatsiya darajasining o'sishi va shaharlarning rivojlanishiga zamonaviy infratuzilmani tashkil etish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosida mahalliy xomashyoni qayta ishlovchi qo'shma korxonalar tashkil etish asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarib, tovarlar eksportini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

2022-yil 20-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasida Prezidentning ta‘kidlashicha, respublikadagi yirik shaharlar ham “o‘shish nuqtalari”ga aylanmoqda. “Ma‘muriy islohotlar doirasida yana bir muhim tashabbusni ilgari surmoqchiman. Hozirga kelib Markaziy Osiyoda aholisi milliondan ortiq shaharlar 7 taga yetdi. Mintaqamizda poytaxtlar bilan bir qatorda, boshqa yirik shaharlar ham ‘o‘shish nuqtalariga aylanmoqda. Bular orasida Samarqand va Namangan shaharlari ham bor. Ularning har birida aholi soni bir millionga yetmoqda. Ikkala shaharda ham ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylandi. Namangan ham sanoat, tadbirkorlik, ta‘lim, madaniyat sohalarida mintaqaviy markaz sifatida o‘z o‘rnini topmoqda. Shu bois, Samarqand va Namangan shaharlarini alohida ma‘muriy-hududiy birliklar sifatida respublika bo‘ysunuviga o‘tkazishni taklif qilaman”, — deydi Shavkat Mirziyoyev. Davlat rahbarining qayd etilishicha, Samarqand va Namangan shaharlari Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi. “Endi, ushbu viloyat hokimlari faqat yirik shaharlar bilan emas, tumanlarda sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha ham ishlashi talab etiladi. Har ikkala shaharni rivojlantirish dasturi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlanib, ularning ijrosi uchun bevosita bosh vazir javob beradi”, — Shavkat Mirziyoev¹⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonining 33-maqсадida: “Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish”.

14 ta hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlari “qoniqarsiz” bo‘lgan shahar va tumanlar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda “millionlik shaharlar”ga aylantirish bo‘yicha choralar ko‘rish. 450 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib,

¹⁹ <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish.

Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi “Shaharlar qulayligi” indeksini joriy etish.

Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va “Aqlli shahar” konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish.

Toshkent shahrida barpo etilgan “INNO” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkini 4 ta hududda tashkil etish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish.

Oliy ta‘lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish.

Qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta‘minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish.

Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish” chora tadbirlari belgilangan.

Qisqacha xulosalar

Sungi yillarida mamlakatning ma‘muriy-hududiy bo‘linishi va uning huquqiy asoslari takomillashtirildi. Bu borada 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishiga doir masalalarni hal qilish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 3 sentyabrdagi Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasidagi ma‘muriy-hududiy birliklar, aholi manzilgohlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizik-jo‘g‘rofiy, geologik va boshqa toponimik ob’ektlarga nom berish hamda ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 996 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida” gi Qonun me‘yoriy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch soʻz va iboralar: xizmatchilar, mintaqa, urbanizatsiya, iqtisodiyot, servis, qishloq aholisi, shahar aholisi

Oʻzini-oʻzi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Maʼmuriy-hududiy boʻlinish masalalari qanday qonuniy-huquqiy asoslarni oʻz ichiga oladi?
2. Oʻzbekistonning maʼmuriy - hududiy boʻlinishining tarixi haqida nimalarni aytish mumkin
3. Oʻzbekistonda viloyat boʻlinishlari qachondan boshlab vujudga keldi?
4. Hozirgi paytda mamlakatimiz maʼmuriy nechta mintaqaga boʻlingan?
5. Hududiy hokimiyat organlarini maʼmuriy isloh qilish qaysi yoʻnalishda amalga oshirilmoqda?
6. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari nimalarga bogʻliq?
7. Hozirgi paytda respublikamizda nechta shahar va shaharcha mavjud?
8. Mamlakatimizdagi mavjud maʼmuriy-hududiy birliklarni ierarxiya tizimiga koʻra nechta boʻgʻinga ajratish mumkin?

IV BOB. MINTAQALAR TABIIY-RESURS SALOHIYATI VA ULARNING HUDUDIIY TARAQQIYOTDA TUTGAN O‘RNI

4.1. Tabiiy resurslar turlari va ulardan foydalanish

4.2. Tabiiy va mineral - xomashyo resurslarining iqtisodiy ahamiyati

4.3. Tabiiy va mineral - xomashyo resurslarining mintaqalar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlanashiga ta‘siri

4.4. Tabiiy resurslardan foydalanishda kutiladigan muammolar va ularning yechimlari

4.1. Tabiiy resurslar turlari va ulardan foydalanish

Tabiiy jismlar va energiya turlariga resurs (manba)lar deyiladi. Resurs so‘zi fransuzcha bo‘lib “Yashash vositasi” degan ma‘noni anglatadi. Tabiiy resurslar insonlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan asosiy manbadir.

Tabiiy resurslarga: havo, suv, tuproq, turli xil rudalar, yoqilg‘i va energiya manbalari ko‘mir, neft, gaz, turli xil yog‘ochlar hamda yovvoi o‘simliklar va hayvonlar kiradi. Bularning hammasi yer planetasida mavjud bo‘lgan tabiiy resurslardir. Bundan tashqari kosmik resurslar ham mavjud. Kosmik resurslarga quyoshdan kelayotgan nur, meteoritlar va boshqalar kiradi.

Tabiiy resurslardan rasional foydalanish va uni muhofaza qilishni to‘g‘ri tushuntirish uchun ularni turlarga bo‘lib o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. qazilma boyliklar;
 2. iqlim resurslari;
 3. suv va havo resurslari;
 4. tuproq resurslari;
 5. o‘simlik resurslari (flora);
 6. fauna (biror joy mamlakat yoki geologik davrga oid bo‘lgan hamma hayvonlar) resurslari;
 7. atom resurslari;
 8. biosfera resurslari;
 9. kosmik resurslar;
- Foydalanish darajasiga qarab tabiiy resurslar:
- a) tugaydigan
 - b) tugamaydiganlarga bo‘linadi.

Tugaydilan resurslar. Bular o‘z navbatida qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanadigan resurslarga bo‘linadi.

Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish natijasida miqdori va sifati kamayib boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va uni qo‘riqlash quyidagicha bo‘lmog‘i lozim: miqdori va sifatini hisobga olish, kompleks ravishda to‘g‘ri, tejab, o‘rnida foydalanish, ularni qazib olish, tashish, qayta ishlash, ishlatishda nobudgarchilikka yo‘l ko‘ymaslik, chiqindi kam chiqarish choralarini ko‘rish, yangi konlar topish, ayniqsa yerning chuqurroq qatlamlarini o‘rganish zarur va nihoyat ularning o‘rnini bosuvchi yangi sun‘iy manbalar topish va boshqalar. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlargacha to‘la ta‘minlay oladi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ba‘zi foydali qazilmalar tugaguncha ularning o‘rnini bosa oladigan yangi resurslar yaratish mumkin.

Qayta tiklanadigan resurslarga asosan, suv, tuproq, o‘simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Masalan: tuproq, unda o‘simlik o‘stirib foydalanilishi natijasida tugab yo‘q bo‘lib ketmaydi. Tuproq shuning uchun ham tugamaydigan – qayta tiklanadigan resurslar jumlasiga kiritiladiki, madaniy o‘simliklar undagi mineral ozuqa moddalar (azot, fosfor, kaliy birikmalarini va boshqalar) ni shimib oladi, ana shu ozuqa moddalar tiklab borilmasa, tuproqning unumdorligi yildan-yilga kamayib, dehqonchilik uchun butunlay yaroqsiz bo‘lib qoladi. Tajribadan ma‘lumki, tuproq unumdorligini doimo tiklab borish mumkin. Bu tiklanish tabiiy va sun‘iy ravishda bo‘lishi mumkin. Masalan: tuproq yo‘qotgan mineral ozuqalarini o‘simlik qoldiqlarining chirishi natijasida, tog‘lardan oqib keladigan suvlar tarkibidagi turli birikmalar hamda kishilar tomonidan beriladigan tabiiy mineral o‘g‘itlar hisobiga qayta tiklaydi. Agar tiklanadigan resurslardan plansiz ravishda, vaxshiylarcha foydalanilsa ular tiklanmaydigan holga tushib qoladi. Bunga yer sirtida atom bombasini portlashi, konlar tugagandan so‘ng o‘z holiga tashlab ketishlar va boshqalar kiradi. Tuprog‘ini suv yuvib yoki shamol uchirib ketgan joyni qayta tiklash mumkin. Ammo buning uchun ko‘p mablag‘, uzoq vaqt mehnat qilish kerak. Ekinlar ekiladigan joylarga ko‘plab kimyoviy o‘g‘itlar solish ham, uni yaroqsiz holga olib keladi, oqibatda hech narsa o‘smaydigan bo‘lib qoladi.

Yer sharida o‘rmonlar, o‘simliklar dunyosi nihoyatda ko‘p va rang-barang. O‘simlik dunyosi tabiatda alohida ahamiyat kasb etadi. Darahtlar, o‘rmonlar qirgilsa, uni qayta tiklash mumkin. Shu sababli

darahlarni shartli ravishda qayta tiklanadi deyiladi. O'rmonlarni qayta tiklash uchun 20-30 yil vaqt kerak bo'ladi.

Qayta tiklanishi mumkin bo'lgan tabiiy (boyliklar) resurslar sekinlik bilan, uzluksiz tiklanib boradi. Biroq ularning tiklanishi uchun ma'lum darajada tabiiy sharoit bo'lishi lozim. Agar ana shu tabiiy sharoit buzilsa, tabiiy resurslarning o'z-o'zidan tiklanishi sekinlashadi yoki batamom to'xtashi mumkin. Demak, inson qayta tiklanadigan (boyliklar) resurslaridan foydalanishda uning tabiiy holatiga alohida e'tibor berishi zarur. Tugamaydigan resurslar. Bularga asosan quyidagilar kiradi:

1. suv resurslari;
2. iqlim resurslari;
3. kosmik resurslari.

Suv resurslari. Suv yer yuzida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Suv manbalari hajmi, hosil bo'lishi va joylashish o'rniga qarab mahalliy, regional va global suv resurslariga bo'linadi.

Suvsiz inson hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Suv o'simliklar, hayvonlar va odamlar uchun hayot hamda asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Suvning eng yaxshi tomoni shundaki, undan qaysi maqsadda va qaerda foydalanilmasin, u yo'q bo'lib ketmaydi. Faqat bir holatdan boshqa holatga o'tishi, bir jism tarkibidan boshqa jism tarkibiga o'tishi mumkin. Shu sababdan ham suv tugamaydigan, qayta tiklanadigan tabiiy resurs hisoblanadi. Suv qayta tiklanish uchun:

1. daryolar, yer osti suvlari, muzliklar zapasi asrlar davomida o'zgarishligi;
2. insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy suvlarning ifloslanish darajasi ularning sifat jihatidan o'z-o'zini tiklash imkoniyatidan katta bo'lmashligi lozim.

Inson faoliyati ta'sirida yer sharining ayrim joylarida suv miqdori ancha o'zgarishi va ifloslanib yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Amaliy jihatdan olganda faqat okean suvlarigina tugamaydi. Ammo, okean suvlari ham neft hamda turli chiqindilar ta'sirida, ichimlik suvlari ham neft hamda turli chiqindilar ta'sirida o'zining tabiiy xususiyatini yo'qotadi. Bu hol esa hayvonlar va o'simliklar hayotini xavf ostida qoldiradi. Chuchuk (toza) suv miqdori yer sharida nihoyatda ko'p. Ammo yer sharining ko'pgina joylarida uning miqdori kamaygan. Bu joylarda ekin maydonlarini sug'orish, kommunal ehtiyojlar sanoat xom ashyolari, ichish uchun toza suv yetishmaslik hollari sezilmoqda. Joylarda toza suvlarning kamayishiga sabab faqat unga bo'lgan talabning oshganligi bo'lmasdan, suv keladigan daryolarning,

ko'llarning o'rmonlar kesilishi natijasida qurib qolishi va inson faoliyati natijasida suvning ifloslanishi kabi hollar ham sababchidir. Toza suv masalasi yildan-yilga eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ifloslangan suv ichish uchun yaroqsiz bo'lib, u hatto tirik organizmlar uchun xavfli bo'lib qoladi. Shu sababdan undan ratsional foydalanish, uning tozaligini saqlash va muhofaza qilish hozirgi vaqtda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz yillik yuza suv resurslari 99,5 km³ ga teng bo'lib uning faqat 12,2 km³ qismi shu o'lka territoriyasida hosil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonining 31-maqsadida : “Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish.Suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish. Suv xo'jaligi ob'ektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish. Suv xo'jaligi ob'ektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish” chora tadbirlari belgilangan.

Ma'lumki, suv resurslarini muhofaza qilish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchidan, uni miqdoriy jihatdan kamayishidan saqlash bo'lsa, ikkinchisi uning ifloslanish va minerallashtirish darajasi oshib ketishining oldini olishdir. Hozirgi vaqtda o'lkamizda har ikki yo'nalish ham juda muhimdir.

Iqlim resurslari. Atmosferadagi havo, shamol energiyasi iqlim resurslariga mansub. Atmosfera havosidan har qancha foydalanilgan taqdirda ham u tugamaydi, boshqa narsaga aylanib qolmaydi. Hajmi ham deyarli o'zgarmaydi. Shu sababdan ham atmosfera havosi tugamaydigan tabiiy resurs hisoblanadi. Ammo havo insoniyatning turli faoliyati natijasida tez ifloslanib havfli manba bo'lib qolishi mumkin. Bu hol havoni muhofaza qilish lozimligini ko'rsatadi.

Kosmik resurslarga quyosh radiatsiyasi, yer va Oyning o'zaro tortishi natijasida dengiz hamda okeanlardagi suvning ko'tarilishi yoki pasayishi jarayonida hosil bo'ladigan energiyalar, olam fazosidagi yer sirtiga keladigan turli xil nurlar, meteorit oqimlar kiradi.

Tabiat o'ziga ta'sir etmaydigan tabiiy omillarga bardosh berib, ularning ifloslanishidan o'z-o'zini himoya qilib turadi.

4.2. Tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining iqtisodiy ahamiyati

Tabiiy va mineral-xomashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Mineral-xom-ashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yer ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xomashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflangan. Ammo yer ostidagi bunday mineral xomashyo zaxiralari potensial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular yer qa'ridan qazib olingandan keyingina haqiqiy mineral xomashyo hisoblanadi. Mineral xomashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Foydali qazilma - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xomashyo ko'rinishiga ega bo'ladi. Shunday qilib, yer qa'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.

Foydali qazilma zaxiralari — foydali qazilma konlari tuzilishini o'rganish, geologik qidiruv ishlari, razvedka qilish, ularni qazib olish va foydalanish jarayonida olingan ma'lumotlarga ko'ra yer ostida, ustida, havzalar ostida aniqlangan foydali qazilma miqdori. Ushbu ma'lumotlar foydali jism hajmini hisoblab chiqishga imkon beradi, bu hajmni zichlikka ko'paytirganda foydali qazilma zaxiralari og'irligini xisoblash mumkin. Suyuq va gazsimon (neft, yer osti suvlari, yonuvchi gazlar) foydali qazilma zaxiralari burg'i quduqlaridagi oqimni hisoblash usuli bilan aniqlanadi. Ba'zi konlar uchun undan tashqari, ulardan qimmatbaho komponentlarning zaxiralari, mis, rudalardagi metall miqdori xisoblab chiqiladi. Zaxiralar m³ (qurilish materiallari, yonuvchi gazlar va boshqalar), t (neft, kumir, rudalar), kg (nodir metallar) va karatda (olmoslar) o'lchanadi. Foydali qazilma zaxiralari ularni aniqlanganlik darajasiga qarab, A, V, S, va S2 toifalarga bo'linadi. O'zlashtirishning iqtisodiy jihatdan samaradorligiga qarab zaxiralar balans va balansdan tashqari turlarga ajratiladi. Foydali qazilma

zaxiralariz konlarni sanoatbop toifaga ajratishda muhim omillardan hisoblanadi²⁰.

4.3. Tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining mintaqalar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlantirishiga ta'siri

Mamlakatimizning hududiy tarkibiga kirgan har bir viloyat, tumanlar ma'lum ob'ektiv qonuniyatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, geografik va hududiy joylashuvi, iqtisodiyotining tarkibi, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi, hududlarning demografik holati va aholining joylashuvi, shuningdek, iqlimi, suv va tabiiy resurslar salohiyatiga egaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida foydali qazilma mineral xom ashyo resurslari juda kam, Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi foydali qazilma mineral xom ashyo resurslariga boy, Jizzax, Samarqand viloyatlarida ushbu resurslar mavjud hududlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimiz yoqilg'i energetik salohiyatida esa Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarining salohiyati yuqori. Yurtimiz aholisi ham viloyatlar bo'yicha notekis joylashgan. Masalan, Andijon viloyatida 1 km² ga to'g'ri keladigan aholi soni 665 kishini, Navoiy viloyatida esa 8,2 kishini tashkil etadi. Viloyatlar va tumanlarning yer-suv resurslari, iqlim sharoitlari ham kam bo'lsada farqlanadi. Yer-suv resurslarining sifatida ham jiddiy tafovutlar mavjud. Toshkent, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiat bilan bog'liq ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulay imkoniyatlar mavjud.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon kabi jahon biladigan turistik shaharlar mavjud. Turizm sohasida deyarli barcha viloyat va tumanlarda imkoniyatlar mavjud, ammo yuqorida sanab o'tilgan hududlarda absolyut va nisbiy ustunliklar ko'proq sanaladi. Yana bir jiddiy farq hududlarda iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va insonlar uchun yashashi uchun zarur ne'matlar bilan ta'minlash imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Ana shunday murakkab holat sharoitida barcha viloyat va tumanlarni barqaror va jadal rivojlantirish, ular o'rtasidagi tafovutlarni juda kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining jiddiy e'tibor berayotgan masalalari qatoriga kiradi. Olib

²⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydali_qazilma_zaxiralari

borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasiga ko‘ra hududlarning rivojlanishida, ularning iqtisodiyotining tarkibida jiddiy farqlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida belgilab berilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi Davlat dasturida ham aynan, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan masalalar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

Quyida berilgan 1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2021-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida Toshkent shahri (121 829,5mlrd.so‘m), Toshkent viloyati (82 148,45mlrd.so‘m), Navoiy (59 357,75mlrd.so‘m) va Samarqand (53 749,95mlrd.so‘m) viloyatlari salmoqli hissaga ega. Xorazm, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikalarining ulushlari mos ravishda 2-3 foiz atrofida bo‘lgan. Ushbu raqamlar yuqoridagi viloyatlar va tumanlarning mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish to‘liq emasligini, hududlarda katta imkoniyatlar ishga tushmay qolayotganligini ko‘rsatadi.

2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi²¹.

Bugungi kunda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularda mavjud salohiyatdan samarali va optimal foydalanish hisobidan hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustuvor ta‘minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta‘minlash dolzarb masalalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatning barcha viloyat va tumanlaridagi mavjud imkoniyatlarni chuqur o‘rganish, iqtisodiyotini ilmiy, amaliy tahlil etish asosida viloyat va tumanlarda, chekka qishloqlarda ham sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohalarini keng rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda. Bu jarayoning asosiy maqsadlaridan biri yurtimizning

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. “Xalq so‘zi” G.// 08.02.2017-y. №28 (6722).

barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va hududlari iqtisodiyotining tarkibi holati tahlili (2021-yil) mlrd.so‘m.

Mintaqalar nomi	YAIM (YAHM)	Sanoat mahsuloti	Iste‘mol tovarlari	Qishloq, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik	Qurilish ishlari
O‘zbekiston Respublikasi	734 587,7	456 056,1	155159,1	317 027,6	107492,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	26 250,7	16 630,4	2945,6	12 340,9	4480,6
Andijon	43 790,8	35 935,3	25823,9	31 582,5	5657,8
Buxoro	38 742,4	20 772,1	8570,2	29 170,4	7401,1
Jizzax	23 349,2	8 731,8	4009,7	21 202,8	3085,4
Qashqadaryo	43 833,3	18 771,9	4660,9	29 232,8	6336,6
Navoiy	59 357,7	73 633,5	4342,5	15 224,9	5155,5
Namangan	34 479,8	14 695,1	8303,8	23 654,5	5556,7
Samarqand	53 749,9	22 834,3	14381,9	40 329,6	7385,7
Surxondaryo	30 090,5	6 675,3	2640,6	23 881,8	5868,4
Sirdaryo	15 583,1	9 813,3	3718,9	10 485,2	2708,8
Toshkent	82 148,4	83 433,9	19981,5	31 371,1	9401,2
Farg‘ona	47 331,9	27 761,5	11763,9	28 223,2	6993,7
Xorazm	26 900,3	13 658,1	8591,6	20 327,9	4228,5
Toshkent shahri	121 829,5	90 211,9	35424,2	0	26535,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Quyida berilgan 4.2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, viloyatlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy ko‘rsatkichlarda ham jiddiy farqlar mavjud. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish mamlakat bo‘yicha o‘rtacha 6 258,6 ming so‘mni tashkil etgan holda bu ko‘rsatkich Navoiy viloyatida 11 271,0 ming so‘mni, Toshkent shahrida 13 068,8 ming so‘mni tashkil etgan. Andijon, Jizzax, Samarqand, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida 4000 ming so‘mdan past bo‘lgan. Ko‘rsatkichlardagi farqlar mavjud holatni chuqur tahlil qilish asosida viloyatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlarni sabablarini aniqlash, imkon darajasida ularni minimallashtiradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu masalalarni optimal yechishning eng

muhim omillaridan biri sifatida shaxsiy javobgarlikni oshirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

4.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy ko'rsatkichlar (kishi, ming so'm) (2018-yil)

Mintaqalar nomi	YaIM (YaHM)	Sanat mahsuloti	Qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliq mahsulotlari	Asosiy kapitalga Investitsiyalar	Xizmatlar	Chakana savdo
O'zbekiston Respublikasi	6 258,6	3493,7	1520,7	1553,5	2 857,0	2764,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3612,7	2394,6	767,2	2067,5	1 616,0	1629,6
Andijon	3836,5	2662,8	1808,7	641,0	1 727,2	2344,2
Buxoro	5971,9	3126,9	2435,7	3183,0	2 281,2	3059,0
Jizzax	3808,2	1504,1	1872,0	972,2	1 573,4	2258,4
Qashqadaryo	4872,3	3155,5	1288,6	2071,6	1 490,2	2030,4
Navoiy	11271,0	11421,4	2545,6	3035,5	2 903,5	3973,5
Namangan	3374,2	1298,1	1357,8	899,0	1 488,6	1968,7
Samarqand	3886,6	2174,0	1598,2	929,4	1 664,3	2080,3
Surxondaryo	3764,0	890,0	1706,4	776,3	1 580,9	2441,4
Sirdaryo	5258,7	4367,1	2330,5	1369,5	1 485,4	1909,0
Toshkent	7300,9	5997,1	1171,4	1354,5	3 000,5	3390,2
Farg'ona	3938,7	2292,3	1140,7	663,9	1 669,1	2165,4
Xorazm	4026,2	1584,2	1722,0	823,8	1 527,5	1885,4
Toshkent shahri	13068,8	9370,4	x	4457,7	11523,9	7929,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statitika Davlat qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekistonni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yo'nalishida 2017-yildan boshlab o'tgan 4 yil davomida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017-2020-yillarda mamlakatimizning iqtisodiy o'sish darajasi 18,3 foizni tashkil etib, YaIM 60 mlrd. dollarga yetdi. Tashqi savdo aylanmasi 2016-yildagi 24 mlrd. dollardan 2020-yilda 36 mlrd. dollarga ko'paydi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 369 trln. so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 23,4 foizga o'sdi. Natijada sanoat mahsulotlarining YaIMdagi ulushi 19,5 foizdan 27,4 foizga ko'tarildi. So'nggi 5 yilda iqtisodiyotimiz juda katta tarkibiy o'zgarishlarni olib bordi. Sanoatning YaIMdagi ulushi 19 foizdan 27 foizgacha o'sdi va qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi 30 foizdan yuqori qismidan pastga, ya'ni 25 foizgacha kamaydi. Demak, iqtisodiyotda resurslar samarali ravishda iqtisodiy samarasi yuqori

bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi sektorlarida, ya‘ni iqtisodiy samarasi yuqori bo‘lgan sanoat sektorlariga o‘tish mana shu 5 yilda kuzatildi. Bu degani, mana shu iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, kam resurs sarflab, aholining turmush farovonligini oshirishga erishishga qadamlar tashlanganligini aytishimiz mumkin. Bundan keyingi 5 yilda iqtisodiyotimiz faqatgina O‘zbekistondagi holat emas, butun regiondagi O‘rta Osiyo va global iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda o‘zini rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab olishi kerak. Birinchi o‘rinda Respublikamizda 35 mln. nafardan ziyod aholi yashayotgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib aholi soni 38 mln kishiga yetadi. Bu nafaqat O‘zbekistonda, balki qo‘shni davlatlarimiz Qozog‘istonni olamizmi, Qirg‘izistonni olamizmi har bitta mamlakatda mana shunday iqtisodiy aholining o‘shish tendensiyalari kuzatiladi. Aholining o‘shish tendensiyalarining kuzatilishi bir tomondan yaxshi, chunki ishchi kuchi resurslari oshadi, ikkinchi tomondan ularni ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, turmush farovonligini oshirish bo‘yicha ko‘pgina harakatlarni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida hozirda 14 mlnga yaqin ishchi kuchi faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, har yili 600 mingga yaqin yangi resurslar kirib kelayapti. Biz ularni oylik maoshi samaradorli bo‘lgan ish bilan ta‘minlashimiz kerak. Hozir butun dunyoda ko‘rilayotgan eng katta tendensiyalardan bittasi iqtisodiy o‘shishda ishchi kuchi va kapitalni o‘stirish orqali, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash emas, bilimlarga asoslangan iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash bo‘yicha harakatlarni olib bormasak, hayotimizning kelajakdagi raqobatbardoshligini ta‘minlab berolmaymiz. Yana bir narsani aytib o‘tadigan bo‘lsak, ayni vaqtda mintaqada suv resurslar va energiya resurslar bilan bo‘layotgan taqchilliklar. Bu taqchilliklar ham O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir qiladigan faktorlardan bittasi. Prognozlarga ko‘ra 2050-yilda Amudaryo-Sirdaryo havzalaridagi suvning taqchilligi va bu taqchillik orqali qishloq xo‘jaligining samaradorligi pasayib ketishi va undan tashqari hududdagi barcha mamlakatlarning YaIMga keskin ta‘sir qilishi mumkin. Mana shu barcha faktorlarni inobatga olgan holda 2022-2026-yildagi o‘shish tendensiyalarini qaraydigan bo‘lsak, yaqinda Davlatimiz rahbari belgilab berganlaridek, u yerda eng asosiy ko‘rsatkich 60 mlrd dollar deydi bo‘lsak, demak YaIMni 2026-yilga kelib 107 mlrd. dollarga yetkazish asosiy reja hisoblanadi. YaIMning bunday o‘shish tendensiyasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM

hozirgi 1750 dollardan 2026-yilgacha 2800 dollargacha va 2030-yilgacha 4000 dollargacha ko‘tarilishi rejalashtirilgan²².

Mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlab berayotgan hududiy iqtisodiyot tarmoqlari muhim hisoblanadi. Bu tarmoqlar mamlakat aholisining sanoat, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashda, qayta ishlash sanoati tarmoqlarini esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondirishda katta ahamiyatga ega. Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz poytaxti hisoblangan Toshkent shahri bevosita iqtisodiyotning barcha sohalarida ijobiy o‘shish tendensiyasiga erishib kelmoqda.

2017-2020-yillar davomida poytaxtning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 36 foizga oshib, 37 trln. so‘mdan 97,5 trln so‘mga yetdi. Shu davr mobaynida YaHMning sanoat va qurilish sohasi 30,3 foizdan 39,1 foizga o‘sdı. Bozor xizmatlari 30 foizga ko‘payib, 29,7 trln. so‘mdan 79,9 trln so‘mga yetdi. So‘nggi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 23,5 trln so‘mdan 66,2 trln so‘mga yetib, 30 foizga oshdi. Poytaxtda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 2016-yildagi 47,2 ming donadan 2020-yilda 86,8 ming donaga 84 foizga ko‘paydi. Infratuzilmani rivojlantirish sohasida 2016-2020-yillarda 103 km suv ta‘minoti tarmoqlari yotqizildi. Shu davr mobaynida 765 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi. O‘tgan besh yil davomida poytaxtda 4 844 ming kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirildi, maktabgacha ta‘lim muassasalarida 3,8 ming o‘rin, maktablarda 39,7 ming o‘rin, shifoxonada 2,4 ming o‘ringa mo‘ljallangan koyekalar joylashtirildi. (Toshkent shahrining 2016-2021-yillardagi rivojlanish natijalari)²³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, Toshkent shahri hududlarida sanoat va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tumanning “o‘shish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “2022 — 2026-yillarda Toshkent shahri hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini

²² <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-yaim-aholi-jon-boshiga-4000-dollarga-oshiriladi-obid-hakimov>

²³ <https://review.uz/uz/post/infografika-toshkent-shahrining-besh-yillik-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanishi?q=%D1%82%D0%BE%D1%88%D0%BA%D0%B5%D0%BD%D1%82%20%D1%88%D0%B0%D2%B3%D1%80%D0%B8%D0%BD%D0%B8>

yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.05.2022-yildagi 236-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha o‘rnatilgan yangi tartib asosida Toshkent shahrining tumanlaridagi mavjud muammo va imkoniyatlar chuqur o‘rganilgan holda, hududlar kesimida muhim loyihalar shakllantirish shuningdek, Toshkent shahrida 2022 — 2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,6 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravarga, xizmatlar hajmini 3,0 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,6 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlar parametrlari tasdiqlangan.

4.3-jadval

2022 — 2026-yillarda Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlar²⁴

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
1.	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	hajmi (trln so‘m)	1,6 baravar	144,8	173,2	203,1	235,0	267,1
		o‘shish (%)		108,8	109,5	110,0	110,6	110,7
1.1.	aholi jon boshiga	mln so‘m	-	49,9	58,0	66,0	74,1	81,6
2.	Sanoat mahsulotlari	hajmi (trln so‘m)	1,4 baravar	95,2	108,7	124,1	141,1	159,1
		o‘shish (%)		106,3	107,2	107,6	108,1	108,4
2.1.	aholi jon boshiga	mln so‘m	-	32,8	36,4	40,3	44,5	48,6
3.	Xizmat ko‘rsatish	hajmi (trln so‘m)	3,0 baravar	163,9	222,6	250,4	280,5	313,6
		o‘shish (%)		152,1	135,8	112,5	112	111,8
3.1.	aholi jon boshiga	mln so‘m	-	56,5	74,5	81,4	88,4	95,7
4.	Qurilish ishlari	hajmi (trln so‘m)	1,6 baravar	31,5	36,6	41,5	46,5	51,2
		o‘shish (%)		108	109,8	108,1	109,2	108,7
4.1.	aholi jon boshiga	mln so‘m	-	10,9	12,3	13,5	14,7	15,6
5.	Byudjet tushumlari	mlrd so‘m	46858,0	6951,0	7993,0	9191,0	10569,0	12154,0
6.	Ishsizlik darajasi	foiz	-	6,2	5,9	5,7	5,1	5,0
7.	Kambag‘allikni qisqartirish	foiz	-	7,6	9,3	10,1	11,0	12,0
8.	Jami bandligi ta‘minlanadigan aholi soni:	ming kishi	644,5	117,1	124,6	129	134,1	139,7

²⁴ <https://lex.uz/docs/5995312>

<i>4.3-jadval davomi</i>								
8.1.	mehnat faoliyatini legallashtirish	ming kishi	431,4	84,4	85,3	86,0	87,2	88,4
8.2.	jamoat ishlarini kengaytirish	ming kishi	31,7	5,4	5,5	6,2	6,9	7,7
8.3.	bandlik markazlari hisobidan	ming kishi	181,6	27,3	33,8	36,8	40	43,6
9.	Yangidan tashkil qilinadigan kichik biznyes sub'yektlari soni	birlik	91224	17063	17694	18001	18712	19754
10.	Investitsiya loyihalarini ishga tushirish	loyiha soni	2047	477	360	380	400	420
		qiymati (mln doll)	14000	1868	2843	2988	3109	3192
11.	Hududiy eksport hajmi	qiymati (mln doll)	8905	1401	1434	1630	1876	2564
12.	Ko'p qavatli uy-joylar qurish	dona	182	24	34	37	42	45
		xonadon soni	11648	1536	2176	2368	2688	2880
13.	Ichimlik va oqova suv ta'minotini yaxshilash:							
13.1.	ichimlik suvi tarmoqlarini tortish va ryekonstruksiya qilish	km	610	49	60	108	214	179
13.2.	aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi	foiz	100	95	96	97	98	100
13.3.	oqova suv tizimi bilan qamrov darajasi	foiz	98	87	89	92	95	98
14.	Elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash:							
14.1.	elyektr tarmoqlarini qurish va ryekonstruksiya qilish	km	4456	873	878	887	905	914
14.2.	transformatorlarni qurish va ta'mirlash	dona	1129	225	226	226	226	226
14.3.	podstansiyalarni yangidan qurish va ryekonstruksiya qilish	dona	12	3	3	2	2	2
15.	Tabiiy gaz ta'minotini yaxshilash:							
15.1.	gaz quvurlarini	km	576,9	92,9	104,2	114,5	125,3	140,0

	joriy ta'mirlash							
16.	Tungi yoritish tizimini yaxshilash:							
16.1.	har xil tipdagi temir-beton ustunlarini ruxlangan metall ustunlariga almashtirish	dona	57171	7622	11910	12428	12704	12507
16.2.	havo liniyalarini yer osti kabyel tarmoqlariga almashtirish	km	1553	207	324	338	345	339
17.	Yo'l transport infratuzilmasi:							
17.1.	avtobus oraliq bekatlarini qurish	dona	1160	280	260	300	320	-
18.	Avtomobil yo'llari holatini yaxshilash:	km	2206,9	313	263,3	362,9	348,3	395,8
18.1.	umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini:	km	195,0	29,0	24,3	31,9	30,6	34,8
18.2.	asfalt bilan qoplash	km	195,0	29,0	24,3	31,9	30,6	34,8
18.3.	ichki xo'jalik yo'llarini:	km	2011,9	284,5	239,0	331,0	317,7	361,1
18.4.	asfalt bilan qoplash	km	2011,9	284,5	239,0	331,0	317,7	361,1
19.	Ko'priklarni qurish va ta'mirlash	dona	21	5	4	4	4	4
20.	"Yashil hududlar"ni ko'paytirish:							
20.1.	hududlarda yashil maydonlar tashkil etish	gektar	85	5	40	40	-	-
20.2.	shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlarini qayta tiklash	gektar	47,3	12,3	13,2	21,8	-	-
20.3.	daraxt va manzarali butalar ekish	mln dona	2,7	0,7	0,5	0,5	0,5	0,5
21.	Maishiy chiqindilarni qayta ishlash	foiz	-	23	25	29	32	35
22.	Tibbiyot muassasalarini qurish-ta'mirlash hamda jihozlash	soni	54	15	16	10	8	5
		mlrd so'm	816,5	347,0	206,0	143,0	66,5	54,0
23.	Maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi	foiz	100,0	89,4	93,1	97,6	98,7	100,0

<i>4.3-jadval davomi</i>								
23.1.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash:	dona	249	33	41	50	64	61
		o'rin	41380	8490	9150	7950	7360	8430
23.2.	yangi qurilish	dona	49	7	10	13	10	9
23.3.	rekonstruksiya qilish	dona	200	26	31	37	54	52
24.	Nodavlat va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish	dona	339	46	54	69	79	91
		o'rin	23330	3180	3680	4690	5430	6350
25.	Umumta'lim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash:	dona	202	50	57	37	36	22
		ming o'rin	227,2	64,7	61,1	36,9	41,1	23,4
		mlrd so'm	3590	795	837,1	661,8	812,8	483,3
25.1.	yangi maktab qurish	dona	30	6	6	5	7	6
25.2.	rekonstruksiya qilish	dona	66	18	22	13	9	4
25.3.	mukammal ta'mirlash	dona	106	26	29	19	20	12
26.	Madaniyat muassasalarini qurish-ta'mirlash:	dona	22	4	5	5	4	4
26.1.	yangi qurish	dona	10	2	2	2	2	2
26.2.	rekonstruksiya qilish	dona	10	2	2	2	2	2
26.3.	mukammal ta'mirlash	dona	2		1	1		
27.	Turizm ob'yektlari va dam olish joylarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish	dona	184	33	34	37	39	41
28.	Turistlar sonini oshirish:	ming kishi	9550	950,0	1400,0	1900,0	2 300,0	3 000,0
28.1.	xorijiy turistlar	ming kishi	3445,3	342,7	505,1	685,4	829,8	1 082,3
28.2.	ichki turizm hisobiga	ming kishi	6104,7	607,3	894,9	1214,6	1 470,2	1 917,7

Respublikamiz iqtisodiy tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida o'tgan 2021-yilda O'zbekistonda aholi jon boshiga YaIM 21 mln so'mni yoki 1983 dollar ekvivalentiga teng bo'ldi (bunda dollarning o'rtacha yillik kursi 2021-yilda 10610 so'm etib belgilangan)²⁵. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi xabar berdi. 2021-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda YaIM hajmi 734,6 trln so'mni yoki 69 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga (59,885 mlrd dollar) nisbatan **7,4 foizga** o'sgan. Aholi jon boshiga YaIM esa 2020-yilga nisbatan **5,3 foizga** o'sgan.

2021-yilda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sishi quyidagicha qayd etildi:

- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi — 4%;
- sanoat — 8,7%;
- qurilish — 6,8%;
- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar — 13%;
- tashish va saqlash, axborot hamda aloqa — 17,2%;
- boshqa xizmat tarmoqlari — 5,9%;
- mahsulotlarga sof soliqlar — 6,7%.

YaIM deflyator indeksi. 2021-yilda YaIM dyeflyator indeksi **13,6 foizni** tashkil etdi. Tarmoqlar kesimida dyeflyator indeksining yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (116,7%), qurilishda (114,2%) hamda sanoatda (113,8%) qayd etildi. Ryespublikaning o'rtacha darajasidan (113,6%) past bo'lgan dyeflyator indeksi tashish va saqlash, axborot va aloqada (106,5%), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (112,8%) hamda boshqa xizmat tarmoqlarida (112,6%) kuzatildi. Shu bilan birga, mahsulotlarga sof soliqlarning dyeflyator indeksi 112,3 foizni tashkil etdi.

Texnoparklar zimmasiga ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari, akademik fanlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'zaro uzviy aloqani yo'lga qo'yish, ushbu maqsadda olimlar, yuqori malakali mutaxassislar, amaliyotchilar hamda talabalarni jalb etish vazifasi ham yuklatilgan.

Texnopark qatnashchilari yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslarning mulk solig'i, ijtimoiy infrastrukturani obodonlashtirish va rivojlantirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi hamda davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod etiladi.

²⁵²⁵ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/gdp-2021/>

Innovatsion texnoparklar xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlari faoliyati rivojida ahamiyatli tomoni shundaki, aynan ushbu soha vakillari tomonidan yangi fikrlar tashabbusi natijasida innovatsion ishlanmalarni joriy etish orqali ishlab chiqarishni modyernizatsiya qilish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilishda ustuvor ahamiyatga ega. Shiddatli raqobat muhiti sharoitida jahon mamlakatlari iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar aynan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslariga tez fursatlarda yangi innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi, mehnat bozori, tovar va xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayishi, har bir faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'yektidan ishlab chiqarishni tarkiban yangilash, modyernizatsiya qilish, tarmoqlarda diversifikatsiyani to'g'ri amalga oshirgan holda ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Dunyo amaliyotida o'zini oqlagan boshqaruv usullarini rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishni taqozo etmoqda. Navoiy viloyati sanoatlashgan hududlardan biri bo'lib, aynan "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga asosan hudud erkin industrial-iqtisodiy zonaga aylantirildi. Ushbu Farmon ijrosi yuzasidan yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va zamonaviy korxonalar bunyod etildi hamda xorijiy investorlarga soliq va boj to'lovlari bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozlar belgilab berildi. Xorijiy investorlarning hududga qiziqishi yillar o'tgan sari ortib bormoqda va buning natijasida hududda yirik logistika markazlari tashkil etildi hamda qo'shma korxonalar soni ortib borishi kuzatilmoqda.

Hudud tabiiy va mineral xomashyo resurslariga boy bo'lganligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi (4-jadval). Navoiy viloyatida asosiy xomashyo resurslarini qazib olish prognozlarini bo'yicha keltirilgan statistik ma'lumotlarga tahliliy yondoshadigan bo'lsak, 2017-2020-yillar davomida aynan sanoat va qurilish sohaslari uchun zarur bo'lgan mineral xomashyo resurslarini qazib olish va hajmi ortib borishi jadvalda o'z aksini topgan. 2017-2020-yillarda Nurota tumanida ham "Zafar granite mining" QK tomonidan granit toshni qayta ishlab, chegara bloklari va zina ishlab chiqarish, loyiha qiymati 1,2 mlrd. so'mlik loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

**Navoiy viloyatida asosiy xomashyo resurslarini qazib olish
prognozlari (ming tonna)²⁶**

Mineral xomashyo turi	2015 yil	2016 yil	hisobot		prognoz	
			2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil
Tog'-kon xomashyolarni qazib olish						
Bazalt	0,6	0,6	0,7	0,7	0,7	0,8
Bentonitli gil	22,1	23,2	24,3	25,5	26,8	28,1
Granit	0,3	0,5	0,5	0,6	0,6	0,7
Kvars jilasi	0,0	3,7	3,9	4,1	4,3	4,5
Kvarsli qum	87,7	53,7	53,8	53,9	54,0	54,1
Gips	238,6	222,2	221,6	221,6	221,6	221,6
Diabaz	1217,7	967,8	934,4	942,7	929,9	904,0
Lyossimon jinslar	10,4	10,9	11,5	12,0	12,6	13,3
Marmar	22,9	25,0	26,5	28,0	29,7	31,5
Marmarlashgan ohaktosh	0,0	0,1	0,6	0,7	0,7	0,7
Mineral tuz	46,3	52,9	55,4	57,9	60,6	63,4
Ohaktosh	4941,1	5006,4	4 983,4	5 130,4	5185,5	5 185,1
Slanes	302,1	365,4	354,9	365,0	363,5	354,6
Tabiiy qum	35,4	37,2	39,0	41,0	43,0	45,2
Tuffit	0,0	123,3	203,0	217,5	232,0	246,5
Fosforit rudasi	1347,2	1347,2	3 100,5	3 100,5	3500,8	6 000,2

Manba: Navoiy viloyatini 2017-2020-yillarda kompleks rivojlantirish dasturida belgilab o'tilgan ko'rsatkichlar asosida keltirilgan.

“Shu maqsadda kimyo sanoatini, rangli va nodir metallar, uglevodorod xomashyosi, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, to'qimachilik, charm- poyabzal, farmasevtika, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga qaratilgan 8 ta maxsus dastur qabul qilindi va amalga oshirilmoqda. Yaqin besh yilda umumiy qiymati qariyb 40 milliard dollar bo'lgan 657 ta investitsiya loyihasini amalga oshiramiz. Bu choralar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar ko'paytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha dasturni ishlab chiqish yakuniga yetkazildi”²⁷. Albatta, bu kabi dasturlarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy zonalarni ahamiyati katta. Shuningdek, 2012-yil 13-dekabrda

²⁶ Navoiy viloyati hokimiyati ma'lumotlari asosida. 25.07. 2016-yil.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturidan.

“Angren maxsus industrial zonani barpo etish to‘g‘risida” gi, 2013-yil 18-martdagi “Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida»gi, 2016-yil 26-oktyabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi hamda 2017-yil 12-yanvar PF-4931-sonli “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hududlarda ishlab chiqarishni yangi bosqichga o‘tishiga muhim poydevor qo‘ydi.

2016-yil 26-oktyabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bevosita hududlarda xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferentsiyalarni bixillashtirishga turtki bo‘ldi²⁸.

Hududlar engil sanoatida 85 ta, charympoyabzal sohasida 31 ta, qurilish materiallari ishlab chiqarishda 16 ta, oziq-ovqat sanoatida 78 ta, farmatsevtika sohasida 18 ta, elektrotexnika sanoatida 17 ta loyihalarni amalga oshirish muhim vazifasi qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va modernizatsiyalash bo‘yicha “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da belgilangan chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi hududlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish, hududlarda aholining o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga erishishga, hududiy korxonalar faoliyatiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etishga, hududiy raqobatdosh va xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, hududlarda ishlab chiqarishni ixtisoslashuvini to‘g‘ri tashkil etish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishga, hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga, hududlardagi mavjud mineral-xomashyo resurslari imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va qazib

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni. 26.10. 2016-yil. PF-4853-son.

olish hamda qayta ishlash borasida tejamkor texnologiyalarni joriy qilishga, hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish mexanizmini yanada takomillashtirish va ishlab chiqarishning to'liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini shakllantirishga, hududlarda qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirish asosida sanoatni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishga va aholini sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilashga, hududlardagi mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlashga erishishga xizmat qiladi.

4.4. Tabiiy resurslardan foydalanishda kutiladigan muammolar va ularning yechimlari

Inson tabiiy resurslardan foydalanishda ko'plab iqtisodiy foyda olishni ko'zda tutadi. Lekin, u ko'pincha, tabiiy sharoitning o'zgarishi kishilarning jismoniy, psixik holatiga ta'sir etishini hisobga olmaydi. Inson tabiatning har bir bo'lagi, har bir komponenti (suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va minerallar) bir-biri bilan shu qadar chambarchas bog'langanki, uning biron qismiga noto'g'ri ta'sir etish oqibatida ma'lum vaqt o'tishi bilan tabiatning boshqa komponentlarining holatini o'zgartirib yuborishini bilmaydi. Masalan: inson faoliyati natijasida atmosferada karbonat angidrid miqdorining ortishi planeta haroratining ortishiga sabab bo'ladi. Bu hol esa muzliklarning erishiga, iqlimning o'zgarishiga, suv sathi va miqdorining ortishiga, quruqliklarnin kamayishiga olib kelishi mumkin. Jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilovchi asosiy omil moddiy boyliklardir. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish esa o'z navbatida tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq. Bunda ishlab chiqarish kuchlari va fanning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson qo'lida tabiat kuchlaridan moddiy ne'mat ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi.

Turli davlatlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida quyidagilar asosiy rol o'ynagan:

- 1) kishilarning onglik darajasi;
- 2) fan;
- 3) texnika;
- 4) tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar.

Insonning iqtisodiy va madaniy talablarini qondirish borasida hozirgi zamon texnikasining taraqqiyoti endilikda jamiyatning tabiatga ta'sirini nihoyatda kuchaytirib yubordi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida inson faqat yer sirtinigina o'zgartirib qolmasdan, uning chuqur

qatlamlaridagi va okean tublari, baland tog‘ bag‘irlarini o‘rganib, ulardagi resurslardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmoqda. Inson yerning chuqurroq qatlamlaridan foydali qazilma boyliklarni olish uchun bir qancha muhim muammolarni hal qilishi zarur. Chunonchi:

1. takomillashgan mashinalarga ega bo‘lishi;
2. bunday mashinalar yaratish uchun ko‘p miqdorda yuqori sifatli va mustahkam toza metallga ega bo‘lishi;
3. bu mashinalar yordamida tabiatga ta‘sir etish chiyegasini biladigan, uni boshqara oladigan yuqori malakali, madaniyatli mutaxassislar bo‘lishi va boshqalar.

Dengiz, okean tubidagi resurslardan foydalanishda esa bundan ham murakkabroq muammolarni hal qilish zarur. Bunda insonga yuqori va past bosim ostida va kam kislorodli muhitga ishlashga to‘g‘ri keladi. Olingan xom ashyolarni joylarga tashish va qayta ishlash uchun ancha ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Inson kosmosni o‘zlashtirdi. Bu holda esa inson tabiat qonunlarini yanada chuqurroq o‘rganib u bilan hisoblashishi zarur bo‘ladi. Shu sababdan progressiv olimlar tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni sinchkovlik bilan o‘rganib kelmoqdalar. Tabiat boyliklaridan unumli, planli ravishda tejab-tergab foydalanish lozimligini isbotlamoqdalar. Aks holda inson tabiatdan hech qanday ehson kutmasligi isbotlanilmoqda. Tabiiy resurslardan foydalanish fan-texnika yutuqlarini hisobga olgan holda reja asosida olib borilmog‘i zarur. Fan va texnika taraqqiyoti, tabiat boyliklaridan xalq manfaatlari yo‘lida, samarali foydalanishga, energiyaning yangi turlarini ochishga va yangi materiallar yaratishga, iqlim sharoitlariga ta‘sir ko‘rsatish metodlarini ishlab chiqishga, kosmik fazoni zabt etishga imkon beradi.

Tabiiy resurslardan foydalanishda quyidagilarga qat‘iy amal qilish lozim:

- 1) foydalanish lozim bo‘lgan mavjud tabiiy resurslarning miqdori va sifatini aniqlash;
- 2) ishlab chiqarishning xom ashyo bazasini reja asosida kengaytirish;
- 3) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklashda fan va texnika yutuqlariga tayangan holda ish tutish;
- 4) tabiiy resurslardan foydalanishda texnikani takomillashtirishga va aholining dunyoqarashini shakllantirishga alohida e‘tibor berish.

Mamlakatimizda moddiy-tyexnika bazasini vujudga keltirishda quyidagi omillarning ahamiyati katta:

1) mamlakatning energetika va yoqilg'ı balansini o'rganish yo'llarini axtarib topish;

2) ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish, ularni tobora to'laroq avtomatlashtirish masalalarini ishlab chiqish;

3) himiyani xalq xo'jaligiga keng ko'lamda tatbiq etish yo'llarini ilmiy ravishda ishlab chiqish;

4) foydali qazilma boyliklarini qidirish va tabiat boyliklaridan kompleks foydalanishning mavjud metodlarini takomillashtirish va yangi, eng samarali metodlarini topish;

5) tabiat boyliklarini o'rnini bosuvchi yangi metallar yaratish;

6) tabiat boyliklaridan foydalanishni koordinatsiyalab, yopiq holda avtomatlashtirish.


Tabiiy resurslarning tasnifi va ulardan oqilona foydalanish yo'llari. Aslida "resurs" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, "yashash vositasi" degan ma'noni anglatadi. Resurs deganda, tabiiy jismlar va foydalanadigan energiya turlari tushuniladi. Tabiiy resurslar insonning yashashi uchun zarar bo'lgan shunday vositalaridirki, ular jamiyatga bevosita emas, balki ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalari orqali ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "tabiiy resurslar" tushunchasini ko'pgina olimlar turlicha ta'riflashadi. Masalan, geograf olimlar, eng to'liq ta'rif berganlar: "Tabiiy resurslar – kishi bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarar bo'lgan xilma-xil vositalardir". Prof. Yu.G.Saushkin esa "elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab-chiqarish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xom ashyolarni" tabiiy resurslar deb ta'riflaydi.

Geograf olim A.A.Mins esa, "tabiiy resurslardan foydalanish shakllari va yo'nalishlariga qarab, ularni iqtisodiy jihatdan sinflarga bo'lishni" birinchi o'ringa qo'yadi. Bu sinflarga bo'lishda, ya'ni tasniflashda, tabiiy resurslar moddiy ishlab chiqarishning asosiy sektorlarida va ishlab chiqarishdan tashqari sferada foydalanishga qarab guruhlariga ajratiladi. Shunday qilib, tabiiy resurslar kishilarning yashashi uchun zarur manbalarga va mehnat vositalari manbalariga bo'linadi. Mukammalroq sinflarga bo'lganda, tabiiy resurslar 2 ta asosiy guruhlariga bo'linadi:

1-guruhi – moddiy ishlab chiqarish resurslari. Bu guruhga yoqilg'ı mahsulotlari, metallar, suvlar, yog'och-taxta, baliq, ovlanadigan hayvonlar kiradi.

2-guruhi – ishlab chiqarishdan tashqari sfera resurslari. Bu guruhga ichimlik suvi, daraxtzorlar, iqlim resurslari va hokazolar kiradi.

Tabiiy resurslarga oziq-ovqatga ishlatiladigan yovvoyi o‘simliklar va hayvonlar, ichimlik suvi va boshqa maqsadlarda foydalanadigan suvlar, metallar olinadigan maydonlar, qurilishga ishlatiladigan yog‘och-taxtalar, energiya va yoqilg‘i manbalari bo‘lgan ko‘mir, neft va tabiiy gazlar kiradi.



4.1-rasm. Tabiiy resurslarning tasnifi

Manba: Mualliflar ishlanmasi.

Tabiiy resurslar 2 turga bo‘linadi:

1. Tugaydigan tabiiy resurslar.
2. Tugamaydigan tabiiy resurslar.

Tugaydigai tabiiy resurslar o‘z navbatida 2 guruhga bo‘linadi:

1. Tiklanadigan resurslar.
2. Tiklanmaydigan resurslar.

Tabiiy resurslarning tasnifi (sinflarga bo‘linishi) quyidagi 4.1.rasmda ko‘rsatilgan:

Tiklanmaydigan tabiiy resurslarga yer osti boyliklari va foydali qazilmalar, ya‘ni ma‘danli va ma‘dansiz qazilmalar kiradi. Ular foydalanayotgan darajadan million-million marta sekin tiklanadigan tabiiy resurslar hisoblanadilar. Bunday resurslarni tiklab bo‘lmas ekan, mineral resurslardan samarali foydalanish, ularni tyejab-tyergab ishlatish

va ularni qazib olinayotganda yerlarga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Tiklanadigan tabiiy resurslarga tirik mavjudotlar, o'simlik va hayvonlar, daraxtlar, shuningdek, tuproq kiradi. Tuproq yo'q bo'lib ketmaydi, balki asosiy xossasini – unumdorligini yo'qotishi mumkin. Bunday resurslardan foydalanayotganda shuni esda tutish kerakki, muayyan tabiiy sharoitning buzilishi ularning qayta tiklanishiga xalaqit berishi mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda butunlay qirib yuborilgan ko'pgina o'simlik va hayvonot turlari, shuningdek, eroziya natijasida butunlay tarkibi buzilgan tuproqlar qaytadan tiklanmaydi. Bundan tashqari, shuni ham yodda tutish kerakki, tiklanadigan tabiiy resurslarning paydo bo'lish jarayoni ma'lum tezlikka ega bo'lishi kerak. Masalan, otib tashlangan hayvonlarning qaytadan paydo bo'lishi uchun bir yoki bir necha yil kerak. Ammo daraxtlari kesilib tashlangan o'rmon kamida 60 yildan keyin qayta tiklanishi mumkin. Yer qobig'ida tuproqni unumli va hosildor qatlamini hosil bo'lish jarayoni nihoyatda sekinlik bilan kechadi. Yuz yilda 0,5 sm dan 2 sm gacha tuproq hosil bo'ladi.

Tarkibi o'zgargan tuproqning yaxshilanishi uchun esa bir necha ming yil vaqt kerak. 20 sm qalinlikdagi unumdor tuproq hosil qilish uchun tabiat 2000-yildan 7000-yilgacha vaqt sarflaydi. Shuning uchun tabiiy resurslarni ishlatish tezliga ularning tiklanish tezligiga to'g'ri kelishi kerak.

Tiklanadigan tabiiy resurslar uchun zaruriy sharoitlar yaratib berilsa, ular inson ehtiyojlarini qondirishga abadiy xizmat qilishi mumkin.

Tugamaydigan tabiiy resurslarga suv, iqlim va kosmik resurslar kiradi.

Suv barcha tirik organizmlar uchun hayot manbai bo'lib, u tabiatda uchta fizik holatda: qattiq (muz), suyuq va bug'simon holatlarda uchraydi. Yer sharida suvning umumiy miqdori bitmas tunganmas bo'lib, hech qachon o'zgarmasa kerak. Biroq insonning faoliyati natijasida suvning zahirasi va miqdori Yer sharining ayrim mintaqalarida turli davralarda turlicha bo'lishi mumkin.

Dunyodagi suvlarning 94% i okeanlardadir. Bevosita foydalanishga yaroqli bo'lgan ichimlik suvining zahiralari 1% ni ham tashkil etmaydi. Biroq bitmas-tunganmas hisoblangan dengiz suvlari ham o'ta ifloslanish xavfi ostida turibdi. Chuchuk suv sifat jihatidan tugaydigan resurs hisoblanadi, chunki insonga har qanday suv emas, balki iste'mol qilish uchun yaroqli toza suv kerak. Yer sharining ko'pgina mintaqalarida suvdan samarasiz foydalanish, daryolarning sayozlanib qolishi va

boshqa sabablar oqibatida ichimlik suv miqdori keskin kamaymoqda. Holbuki, sugʻorish, sanoat va kommunal xoʻjalik uchun chuchuk suvga boʻlgan ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda.

Xuddi shunga oʻxshagan, miqdor jihatidan olganda atmosfera havosi tugamaydigan tabiiy resurslarga kiradi, ammo sifat jihatidan olganda u tugaydigan resurslarga kiradi.

Quyosh radiatsiyasi (yorugʻlik, issiqlik), atmosfera havosi, shamol, suv va toʻlqinlar energiyasi iqlim va kosmik resurslarga kiradi. Yogʻingarchiliklar esa suv resurslariga ham, iqlimiy resurslarga ham kiradi.

Sayyoramizga kelayotgan Quyosh nurlarining yarmidan koʻprogʻi energiyaning boshqa turlariga aylanadi. Ularning muayyan qismi tuproq, suv va atmosfera havosini isitishga sarf boʻladi va sekin-asta fazoga tarqaladi. Ularning muayyan qismi oʻsimliklar tomonidan oʻzlashtiriladi. Quyoshning nurli energiya zahiralari milliard-milliard yillarga yetishi mumkin. Shuning uchun Quyosh energiyasi bitmas – tuganmasdir.

Atmosfera havosi tirik organizmlar uchun hayot manbaidir. Havo bitmas-tuganmas, lekin uning tarkibi oʻzgarishi mumkin. Havo tarkibida karbonat angidrid (SO_2), radioaktiv moddalar, turli gazlarning mexanik aralashmalari, kul, chang va boshqa moddalar mavjud. Bunday iflosliklarni sanoat korxonalarini va xususan, transpord vositalari chiqaradi. Bu esa inson sogʻligʻiga katta salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Tugamaydigan resurslardan samarali foydalanish uchun ularni toza saqlash va eng avvalo, suvni tejab-tergab sarflash kerak. Suv resurslari yetishmaydigan mintaqalarda, ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasida, suvni ehtiyot qilish kerak.

Oʻtgan asrning 80-yillari oxirida Oʻzbekistonda ekologik axborot sohasidagi asosiy muammolardan biri idoralarning tarqoqligi, atrof tabiiy muhit holatini kuzatish va nazorat qilish idoraviy xizmatlarining jihozlar-dasturiy va uslubiy uygʻunsizligi edi. Atrof muhit holatini kuzatish boʻyicha mavjud idoraviy xizmatlar tabiatni muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv vazifalariga moʻljallanmagandi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi, “Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida”gi, “Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi qonunlariga muvofiq hamda atrof tabiiy muhitni kuzatish, baholash, ifloslanish darajasini prognoz qilish boʻyicha Oʻzbekistonda mavjud idoraviy xizmatlar faoliyatini uygʻunlashtirish va atrof tabiiy

muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini axborot bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi Sog'liqni saqlash, Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari, O'zgidromet, Davgeologiyaqo'm, Davrgeodezkadastrqo'm va Davtabiatqo'm atrof muhit ifloslanishini kuzatish xizmatlarini o'z ichiga olgan tabiiy muhit monitoringining mavjud idoraviy xizmatlari bazasida tashkil etilgan. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi zimmasiga vazirliklar, idoralar, xo'jalik boshqaruvi organlarining atrof tabiiy muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanishning davlat monitoring tizimining amal qilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklangan. Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bu dasturlar bo'yicha vazirliklar va idoralarning monitoring turlari bo'yicha asosiy ishlari, ularning hamjihatligi va axborot bilan almashinish nazarda tutilgan. Bunda tabiatdan foydalanishni boshqarish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik nazorat uchun axborot bilan ta'minlashga, shuningdek ekologik holat haqida jamoatchilikni xabardor qilishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tegishli vazirlik va idoralarning ekspertlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida Milliy ma'ruzalar tayyorlandi va nashr etildi. Mazkur ma'ruzalarda vakolatli vazirlik va idoralarning kuzatuvlari, hisob-kitoblari va ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilish asosida atrof tabiiy muhit va uning tarkibiy qismlari – atmosfera havosi, yerusti va yersoti suvlari, yerlar, shuningdek ularni ifloslantiruvchi manbalar holatini baholash bo'yicha umumlashtirilgan axborot keltirilgan; yer-suv resurslarinig zamonaviy holati va ulardan foydalanishga tavsif berilgan hamda ulardan oqilona foydalanish hamda sug'oriladigan yerlarning tanazzulga uchrashini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan; O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha ekologik holatni va uning aholi salomatligiga ta'sirini kompleks baholashga yondashuvlar ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturi hamda amalga oshirilayotgan dastur natijalariga ko'ra salbiy

jarayonlarning oldini olish va yo‘qotish hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi davlat nazoratini ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilib va choralar ko‘riladi. Shu bilan bir qatorda mavjud monitoring tizimida o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar miqdorining haddan tashqari ko‘pligi, monitoringni yuritish jarayonida organlarning yyetarlicha munosabatda bo‘lmasligi va monitoring axboroti bilan operativ almashinishning yo‘qligi kabi ba‘zi kamchiliklar ta‘kidlandi. Atrof muhit holati monitoringi tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hukumati va BMTning “O‘zbekistonda atrof muhit holatining monitoringi uchun ekologik indikatorlar” loyihasi bajarildi. I bosqich ekologik indikatorlarni tanlash va asoslashga yo‘naltirildi. II bosqich - O‘zbekistonda atrof muhit holatini monitoring qilish uchun Geografik axborot tizimini (GAT) qo‘llagan holda ekologik indikatorlar ma’lumotlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlandi. Atrof muhit holati monitoringini olib borishning yakuniy mahsuloti va GAT uchun asos bo‘lgan ma’lumotlari bazasi bo‘lishi kerak. Bazada saqlanuvchi ma’lumotlardan samarali foydalanish uchun quyidagi uchta asosiy sharoit mavjud bo‘lishi kerak:

1. Har qanday ekologik indikatorlar ma’lumotlar bazasi monitoring to‘g‘risida batafsil va ishonchli ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak.

2. Ekologik ma’lumotlari bilan ishlaydigan tashkilotlarga ma’lumotlar bazasiga ochiq ruxsat berilishi kerak.

3. Ekologik ma’lumotlar bazasi formatlari va klassifikatorlari yagona sistyemada bo‘lishi kerak.

Loyihani amalga oshirish jarayonida ekologik indikatorlar asosida O‘zbekiston Ekologik Atlasi va O‘zbekistonda atrof muhit holati haqidagi axborotnomalar tayyorlandi. O‘zbekistonda atrof tabiiy muhit holati davlat monitoringining kyeyingi taraqqiyoti quyidagilarga yo‘naltiriladi:

- ATMDM doirasida tabiiy muhit holatini kuzatish hajmlari va ekologik muhim ko‘rsatkichlar-indikatorlarni tanlashni muqobil holga kyeltirish;

- xalqaro konvyensiya va bayonnomalarga muvofiq monitoring uslubiyatini takomillashtirish;

- monitoring jarayonida ishtirok etadigan tahliliy laboratoriyalar mustaqilligini mustahkamlash, zamonaviy tahliliy uskunalar bilan ta‘minlash;

- davlat byudjyeti, mahalliy fondlar va boshqa resurslardan (investitsiyalar va boshq.) foydalanish asosida yyetarlicha moliyalashtirishni ta'minlash;

- tabiiy muhit sifati standartlari va sanoat korxonolari emissiyalarini qayta ko'rish;

- qarorlar chiqarish va jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida monitoring ma'lumotlari bilan tanishish imkoniyatini oshirish uchun tabiiy muhit monitoringini elyektron boshqarish va axborot bilan almashinish tizimini rivojlantirish zarur.

14.09.2017-yildagi O'RQ-446-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi **Qonunlariga ko'ra**, tabiiy resurslardan foydalanishga tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish, tabiat majmualari yaxlitligini saqlab qolish, jonli tabiat ob'yektlarining yashash va o'sish muhiti buzilishiga yo'l qo'ymaslik, boshqa tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning huquqlarini buzmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi. Shuningdyek, yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanishning qator yangi shartlari kiritilgan:

- yer osti boyliklaridan va keng tarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish sohasida belgilangan qoidalarga rioya etilsa;

- foydali qazilma konlarini ishga solish loyihalari bo'yicha, shuningdek mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash korxonalarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda kengaytirish loyihalari yuzasidan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi mavjud bo'lsa;

- yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziya mavjud bo'lsa yoki yer qa'ri uchastkalarini foydalanishga berish nazarda tutilgan mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim mavjud bo'lsa;

- foydali qazilmalarning yuzasini olishda hosil bo'ladigan va sig'diradigan jinslar ag'darmalari, saqlagichlar, terikonlar, ularning atrof-muhitga eng kam darajada zararli ta'sir ko'rsatishi ta'minlangan holda joylashtirilsa.

Bundan tashqari, keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olishda hokimliklar bilan kelishilgan yer osti boyliklaridan foydalanish shartlari ta'minlanishi, shuningdek davlatga, atrof-muhitga zarar keltirilishining hamda odamlarning hayoti va sog'lig'i uchun xavf yuzaga kelishining

oldini olish chora-tadbirlari ko‘rilishi kerak. Ko‘rsatilgan sub’yektlarga yetkazilgan zararining o‘rni qoplanadi²⁹.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida quyidagi savollar kurib chiqildi tabiiy resurslar turlari va ulardan foydalanish, tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining iqtisodiy ahamiyati, tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining mintaqalar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlanishiga ta‘siri, tabiiy resurslardan foydalanishda kutiladigan muammolar va ularning yechimlari. Tabiiy jismlar va energiya turlariga resurs (manba)lar deyiladi. Resurs so‘zi fransuzcha bo‘lib “Yashash vositasi” degan ma‘noni anglatadi. Tabiiy resurslar insonlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan asosiy manbadir.

Tabiiy resurslarga: havo, suv, tuproq, turli xil rudalar, yoqilg‘i va energiya manbalari ko‘mir, neft, gaz, turli xil yog‘ochlar hamda yovvoi o‘simliklar va hayvonlar kiradi. Bularning hammasi yer planetasida mavjud bo‘lgan tabiiy resurslardir. Bundan tashqari kosmik resurslar ham mavjud. Kosmik resurslarga quyoshdan kelayotgan nur, meteoritlar va boshqalar kiradi.

Foydali qazilma - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan yer qobig‘idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xomashyo ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, yer qabrig‘idan qazib olingan, xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.

Tayanch so‘z va iboralar: Tabiiy resurslar, qazilma boyliklar, iqlim resurslari, suv va havo resurslari, tuproq resurslari, o‘simlik resurslari, fauna (biror joy mamlakat yoki geologik davrga oid bo‘lgan hamma hayvonlar) resurslari, atom resurslari, biosfera resurslari, kosmik resurslar.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Tabiiy resurslar nima?
2. Tabiiy resurslarning turlari?

²⁹ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/tabiiy_resurslardan_foydalanishda_qoidalarga_rioya_qiling

3. Qazilma boyliklar qanfay resurslar hisoblanadi ?
4. Qachondan beri neftdan foydali qazilma sifatida foydalanib kelinmoqda?
4. Tugamaydigan tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
6. Tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining iqtisodiy ahamiyati nimada?
7. Mehnat resurslari foydalanish darajasiga ko‘ra qaysi mehnat resurslari turiga kiradi?
8. Tabiiy va mineral-xom ashyo resurslari mintaqalar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlantirishga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
9. YaIM deflyator indeksi nima?
10. Tabiiy resurslardan foydalanish qanday muammolarni keltirib chiqaradi va ularning yechimlari yuzasidan fikringizni ayting?

V BOB. MINTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

5.1. O‘zbekiston mintaqalarining demografik holati.

5.2. Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish.

5.3. “Ijtimoiy siyosat” tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlanish zaruriyati va uning asoslari.

5.1. O‘zbekiston mintaqalarining demografik holati

Har bir o‘lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog‘liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o‘lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanshida katta rol o‘ynaydi.

Demografik omilning o‘zgarib borishi global muammo bo‘lib, u ko‘p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi.

Doimiy aholi soni hamda demografik holat ko‘rsatkichlari Adliya vazirligining joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar va Ichki ishlar vazirligining joylardagi Ichki ishlar boshqarmasi (bo‘limi)ning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan. Ushbu hisob-kitoblar Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan uslubiy Nizomga muvofiq amalga oshirilgan.


I. Doimiy aholi soni. O‘zbekiston Respublikasida 1991-2019-yillar mobaynida aholi sonining barqaror o‘sishi kuzatilib, doimiy aholisi soni 1991-yilda 20,6 mln. kishini, 2001-yilda 24,8 mln. kishini, 2006-yilda 26,3 mln. kishini, 2011-yilda 29,1 mln. kishini va 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikaning doimiy aholisi soni 34,5 mln kishini tashkil etib, 1991-yilga nisbatan 11,5 mln kishiga yoki 1,6-martaga o‘sgan.

Davlat statistika qo‘mitasining mamlakatdagi demografik vaziyat haqidagi hisobotida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra 34,86 mln kishini tashkil etib, yil boshidan 301,3 ming kishiga yoki 0,9% ga ko‘paydi .

Shahar aholisi soni 17 mln 664,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,7%), qishloq aholisi soni esa 17 mln 195,4 ming kishi (49,3%)ni tashkil etdi.


Respublika doimiy aholisi sonining 31,1% i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58% i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,9% i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2022-yil 1-oktyabr holatiga ko‘ra. O‘zbekistonda 1-oktyabr holatiga doimiy aholi soni 549,7 ming kishiga yoki 1,6% ga ko‘payib, 35 821 ming kishini tashkil etgan (5.1-rasm). Jumladan, shahar aholisi soni 18 234,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,9%), qishloq aholisi soni 17 586,3 ming kishi (49,1%)ni tashkil etdi.



5.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni (yil boshiga)

Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining 31,7% i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,0% i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,3% i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ekanini ko‘rsatmoqda. 2022-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi aholisining yosh va jinsi guruhlarini taxlil qilsak, 0-4 yoshgacha - ayollar 10,8 %ni, erkaklar 11,5%ni, 5-9 yoshgacha - ayollar 10,0 %ni, erkaklar 9,4 %ni, 10-14 yoshgacha - ayollar 9,1 %ni, erkaklar 8,75 %ni, 15-19 yoshgacha - ayollar 7,6 %ni, erkaklar 7,3 %ni, 20-24 yoshgacha - ayollar 7,4 %ni, erkaklar 7,6 %ni, 25-29 yoshgacha - ayollar 8,8 %ni, erkaklar 9,1 %ni, 30-44 yoshgacha - ayollar 8,8 %ni, erkaklar 8,9 %ni, 35-39 yoshgacha - ayollar 7,8 %ni, erkaklar 7,8 %ni, 40-44 yoshgacha - ayollar 6,3 %ni, erkaklar 6,2 %ni, 45-49 yoshgacha - ayollar 5,6 %ni, erkaklar 5,5 %ni, 50-54 yoshgacha - ayollar 4,9 %ni, erkaklar 4,6 %ni, 55-59 yoshgacha - ayollar 4,6 %ni, erkaklar 4,1 %ni, 60-64 yoshgacha - ayollar 3,9 %ni, erkaklar 3,5 %ni, 65 yoshdan yuqorilari esa - ayollar 5,7%ni, erkaklar 4,5 %ni tashkil etmoqda (5.2-rasm).



5.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

Mazkur yillarda respublika aholisining joylashuvi bo‘yicha tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan, ya‘ni 1991-yilda shahar aholisining jami aholi sonidagi ulushi 40,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib esa 50,8 foizni tashkil etdi (5.3-rasm).



5.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining joylashuvi bo‘yicha taqsimlanishi

Respublika aholisining tarkibida erkaklar soni 1991-yilda 10,2 mln kishini, ayollar esa 10,4 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib, erkaklar soni 16,1 mln kishiga va ayollar soni esa 16,0 mln kishiga etgan. O‘z navbatida 2019-yil boshiga jami aholi sonida erkaklarning ulushi 50,5 foiz va ayollarning ulushi esa 49,5 foizni

tashkil etdi. 2022-yil oxiriga jami aholi sonida erkaklarning ulushi 18,1 mln kishi, ayollar 17,9 mln kishini tashkil etdi (5.4-rasm).



5.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi (2022yil 3 choragi)


O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 1920-yilda 4,4 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning 1-yanvariga kelib, doimiy aholi soni 31,6 million kishiga yoki 8 barobarga ko‘payib 36 024,9 ming kishini tashkil etdi. O‘z navbatida, tabiiy o‘shish koeffitsienti 1920-yilga (11,0 promille) nisbatan 9,9 promillega ko‘paygan hamda 20,9 promilleni tashkil etdi (5.5-rasm).



5.5-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi sonining so‘nggi yuz yildagi o‘zgarishi (2023-yil 1-yanvar holatiga, million kishi, yillar).

Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 36 024,9 ming kishini tashkil etdi. shundan erkaklar soni 18 128,6 ming kishini, ayollar soni 17 896,3 ming kishini, shahar aholisi soni 18 335,7 ming kishini, qishloq aholisi soni 17 689,2 ming kishini tashkil etdi Diagrammada keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston aholisi soni o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2019-yilda 101,8 foizni tashkil

etgan bo'lsa, 2023-yilning 1-yanvar holatiga 102,1 foizni tashkil etgan. (5.6-rasm).




5.6-rasm. O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni (2023-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi).

Respublika aholisining 1991-2017-yillarda yosh tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, 1991-yilda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar (0-15 yoshdagilar) ulushi 43,1 foizni, mehnatga layoqatli yoshdagilar (erkaklar 16-59 yosh, ayollar 16-54 yosh) 49,1 foizni, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (erkaklar 60 yosh va undan katta, ayollar 55 yosh va undan katta) 7,8 foizni tashkil etgan. 2019 yil 1-yanvar holatiga mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 30,1 foiz, 60,5 foiz va 9,4 foizni tashkil etgan (5.7-rasm).

2019 yilda 1991-yilga nisbatan mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, mehnatga layoqatli yoshdagilar va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ulushi esa o'sgan.

Respublika bo'yicha 1991-yilda aholining o'rtacha yoshi 23,3 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 28,5 yoshni tashkil etmoqda, ya'ni respublika aholisining o'rtacha yoshi 5,2 yoshga keksayganligini kuzatish mumkin.




5.7-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining yosh tarkibi to‘g‘risida ma’lumot (jami aholi soniga nisbatan foizda; yil boshiga)

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra doimiy aholi sonining 31,7 foizi mehnat yoshidan kichiklar, 56,8 foizi mehnat yoshidagilar va 11,5 foizi mehnat yoshidan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (5.8-rasm).

II. Aholining tabiiy harakati. Aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarishlar kuzatilib, 1991-yilda respublikada 723,4 ming nafar bola tug‘ilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 34,5 promilleni, o‘sha yilda 130,3 ming kishi vafot etgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsienti 6,2 promilleni tashkil etgan bo‘lib, aholining tabiiy o‘sishi 593,1 ming kishiga, ya‘ni

1000 aholiga nisbatan aholining tabiiy o‘shish koeffitsienti 28,3 promilleni tashkil etgan.




5.8-rasm. Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi (2023-yil 1-yanvar holatiga % da).

2.1. Tug‘ilganlar soni. Respublikada 2018-yilda 775,9 ming nafar bo‘la tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 23,3 promilleni tashkil etgan. 2015-yilga qadar respublikada tug‘ilishning eng yuqori ko‘rsatkichi 1991-yilga to‘g‘ri kelib, mazkur yilda 723,4 ming nafar bo‘la tug‘ilgan. 1992-yildan 2003-yilgacha tug‘ilganlar soni kamayish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2003-yilda 508,5 ming nafar bo‘la tug‘ilgan. 2004-2015-yillarda tug‘ilganlar soni o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2015-yilda respublika tarixida eng ko‘p, ya‘ni 734,1 ming nafar bo‘laning tug‘ilganligi qayd etilgan. 2022-yil Yanvar-sentyabr oylarida 681,8 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 25,6 promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2021-yilda 25,8 promilleni tashkil etgan). Tug‘ilishlarning eng ko‘p soni yoz oylariga to‘g‘ri kelmoqda.

2.2. O‘lganlar soni. Respublikada 2018-yilda 156,7 ming kishi vafot etib, 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsienti 4,7 promilleni tashkil etgan. Respublikada 1991-yilda 130,3 ming kishi, 2001-yilda 132,5 ming kishi, 2011-yilda 143,3 ming kishi vafot etgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsienti 6,2 promille, 5,3 promille, 4,9 promilleni tashkil etgan. Respublikada 2022-yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni 172,1 ming kishini tashkil


etgan, shundan erkaklar soni 95,0 ming kishini, ayollar soni 77,1 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 92,0 ming kishini, qishloq joylarida 80,1 ming kishini tashkil etgan. Shuningdek, 2018-yilda vafot etganlar 96,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 99,8 foizni, 2020-yilda Covid-19 pandemiyasining ta'siri tufayli vafot etganlar o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 113,6 foizni, 2021-yilda pasayish tendensiyasiga ega bo'lib 99,4 foizni va 2022-yilda 98,6 foizni tashkil etgan. (3.3-rasm). Respublikada 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsienti 1991-yilda 35,5 promilleni, 2001-yilda 18,3 promilleni, 2016 yilda 10,7 promilleni tashkil etgan.



5.9-rasm. O'zbekiston Respublikasi aholisining tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, yil boshiga)


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida har ming aholiga nisbatan vafot etish koeffitsienti 4,8 promille kuzatilgan.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 55,5 foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,6 foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,0 foizi – o'simtalaridan, 5,5 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 15,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan. (5.10-rasm)



5.10-rasm. O'limning asosiy sabablari bo'yicha taqsimlanishi (2022-yil yanvar-dekabr, kishi)

2022-yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo'yicha tahlil etilganda 20 yoshgacha vafot etganlar 20,0 % ni, 20-59 yoshda vafot etganlar 24,6 % ni, 60 va undan katta yoshda vafot etganlar esa 55,4 % ni tashkil etganligi kuzatilgan.




5.11-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'daklar o'limi ko'rsatkichlari (1000 tug'ilgan bolaga nisbatan; promille)

Respublikada 2018-yilda besh yoshgacha bo'lgan bolalar soni 10,1 ming nafar bolani tashkil etib, 1000 ta tug'ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o'limi koeffitsienti 14,1 promilleni tashkil etgan.


Respublikada 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o'limi koeffitsienti 1991-yilda 48,2 promilleni, 2001-yilda 26,6 promilleni, 2010-yilda 14,8 promilleni tashkil etgan. Respublikada onalar o'limi ko'rsatkichi ham pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 100 000 tug'ilgan bolaga nisbatan 1991-yilda onalar o'limi koeffitsienti 65,3 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2001-yilda 34,1 promilleni,

2010-yilda 21,0 promilleni va 2018-yilda esa 17,4 promilleni tashkil etdi (5.12-rasm).



5.12-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha onalar o‘limi ko‘rsatkichlari (100 000 tug‘ilgan bolaga nisbatan)

III. Tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi. Insoniyatning yashash sifati ko‘rsatkichlaridan biri bu tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi hisoblanadi.



5.13-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi (umumiy)

Tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda o‘rish tendensiyasiga ega bo‘lib, jumladan 1991-yilda ushbu ko‘rsatkich 66,4 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2001-yilda 71,3 yoshni, 2010-yilda 73,0 yoshni tashkil etgan.

2022-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 73,8 yilni tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2021-yil boshida 73,4 yoshni tashkil etgan Ushbu ko‘rsatkich 2022-yilning 1-yanvar holatiga erkaklar uchun 71,7 yilga, ayollar uchun esa 75,8 yilga teng. Shahar va qishloq joylar

uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bir xil, ya’ni 73,8 yilni tashkil etgan.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan barcha sohalar kabi tibbiyot sohasida ham jiddiy islohotlar olib borish ishlari boshlandi. Tibbiyot sohasida davlatimiz tomonidan ko‘plab qonunlar, farmonlar, qarorlar, dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq etila boshlandi. Buning natijasida hayot sifati va insonlar salomatligi yaxshilanib bormoqda. Xususan, respublikada turli kasalliklarni oldini olish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilani rejalashtirish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, tibbiyot muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida respublikada o‘lim darajasi, jumladan, bolalar va onalar o‘limi ko‘rsatkichlarining pasayish tendensiyasi kuzatildi va bu o‘z navbatida respublikada tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi ko‘rsatkichining o‘shishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

IV. Nikoh va ajralishlar soni 2022-yil yanvar-dekabr oylarida

Qayd etilgan nikohlar soni 296,7 ming birlikni tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli kamayganligi, ya’ni 2018-yilga nisbatan 14,7 mingtaga yoki 4,7 foizga kamayganligi kuzatilgan, shundan 149,3 tasi shahar joylarda va 147,4 tasi qishloq joylarda qayd etilgan. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 48,7 ming birlikni tashkil etib, shundan 30,2 tasi shahar joylarda va 18,5 tasi qishloq joylarda qayd etilgan , so‘nggi 5 yilda sezilarli ko‘payganligi, ya’ni 2018-yilga nisbatan 16,4 mingtaga yoki 50,8 foizga kamayganligi kuzatilgan. (5.14-rasm)



5.14-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajralishlar (2022-yil yanvar-dekabr)

Nikohdan ajrashganlarning oʻrtacha yoshi 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun 39,2 yoshni, ayollar uchun 33,1 yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning aksariyat qismi 35 yoshgacha boʻlganlar orasida qayd etilgan, yaʼni jami nikohdan ajrashganlarning 50,5 foizini tashkil etgan.


1 kv.kv. yer maydoniga doimiy aholi soni. 2022-yilning 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga oʻrtacha 78,6 kishi toʻgʻri kelgan. Bu esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga koʻproq (2021-yilda 1 kv.km.ga 77,0 kishi).

Hududlar boʻyicha qaraydigan boʻlsak, aholi zichligining eng yuqori koʻrsatkichi Toshkent shahri (8035,1 kishi), Fargʻona (576,4 kishi) va Andijon (756,6 kishi) viloyatlarida, eng past koʻrsatkichlar Navoiy viloyati (9,3 kishi), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (11,7 kishi) va Buxoro viloyatida (49,1 kishi) qayd etilgan. 2022-yil 1-yanvar holatiga koʻra, Oʻzbekistonda 1 kvadrat kilometr ga oʻrtacha 79,8 kishi toʻgʻri kelgan. Bu esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,7 kishiga ortgan (2021-yilda 1 kv.km.ga 78,1 kishi). Hududlar boʻyicha qaraydigan boʻlsak, aholi zichligining eng yuqori koʻrsatkichi Toshkent shahrida 8035,1 kishi, Andijon viloyatida 756,6 kishi, Fargʻona viloyatida 576,4 kishi, Namangan viloyatida 394,0 kishi, Samarqand viloyatida 240,4 kishini tashkil etgan boʻlsa, eng past koʻrsatkichlar Navoiy viloyati 9,3 kishi, Qoraqalpogʻiston Respublikasida 11,7 kishi, Buxoro viloyatida 49,1 kishi, Jizzax viloyatida 68,1 kishi, Qashqadaryo viloyatida 119,3 kishini tashkil etgan. (5.15-rasm)



5.15-rasm. Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha aholi zichligi ajralishlar (2022-yil 1-yanvar)

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha 80,2 kishi to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ortgan (2022-yilda 1 kv.km.ga 78,6 kishi). Hududlar bo‘yicha tahlil etilganda, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 6 597,5 kishi, Andijon viloyatida 772,7 kishi, Farg‘ona viloyatida 588,2 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati 9,5 kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 11,9 kishini tashkil etgan (5.16-rasm).



5.16-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi ajralishlar (2023-yil 1-yanvar)

2021-yil davomida 905,2 mingta bola tug‘ilgan bo‘lsa, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 25,9 promilleni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan (24,6 promille) 1,3 promillega balandroq. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 174,5 mingta o‘lim holati kuzatilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsienti 5 promilleni tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan (5,1 promille) - 0,1 promillega kamaygan. O‘tgan yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 61,7 foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 foizi – o‘simtalardan, 6,7 foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,2 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 3,1 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 11,4 foizi esa boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2022-yil 9 oy ichida vafot etganlar 130,4 ming kishini tashkil etib, ularning eng ko‘pi Samarqandda qayd etilgan. O‘lim holatining 56,8%

i — qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,2% i — o‘simtalardan, 9,8% i — nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,6% i — baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0% i — ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 1,5% i — yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 14,1% i boshqa kasalliklardan vafot etganlardir.

5.2. Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish

Mehnat bozori bozor infratuzilmasida ishchi kuchini yollash va undan foydalanish bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlari majmui bo‘lib, mehnatga bo‘lgan talab va taklifda o‘z ifodasini topadi. Ma‘lumki, mehnat bozorida uchta sub‘yekt faoliyat ko‘rsatadi: ish beruvchi, yollanma ishchi va davlat. Agrar mehnat uzoq vaqt rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilishi natijasida qoloq professional iqtisodiyot, past mehnat unumdorligi hamda ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning muvozanatsizligi oqibatlarini girdobida bo‘lishi mehnat motivatsiyasi pasayib ketishiga olib keldi. Bu esa, ishchi kuchining sun‘iy tanqisligini yuzaga keltiradigan yuqori mehnat sig‘imi natijasi bilan bog‘liq. Mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanatning mohiyati quyidagilardan iborat: talab, taklif, ishchi kuchi bahosi va raqobat. Ishchi kuchi hamda mehnat resurslariga bo‘lgan talabning hajmi mehnat resurslariga bo‘lgan talab va ularning bahosiga bog‘liq. Taklif esa, demografik xususiyatlarga asosan belgilanadi. Mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri raqobat quyidagicha belgilanishi mumkin: agar talab va taklifni qiyoslash jarayonida taklif talabdan ko‘proq bo‘lsa, demak, raqobat mavjud bo‘ladi. Uni ta‘minlash uchun esa, birinchi navbatda ishlab chiqaruvchilarda erkinlik bo‘lishi lozim.

Mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanat shunday holatki, unda talab, taklif va ishchi kuchi bahosi egri chiziqlari bir nuqtada bir-birlarini kesib oladi. Egri chiziqlar bir-birlarini kesib oladigan nuqta esa, mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanat nuqtasi hisoblanadi. Lekin, bozorning bunday holatda bo‘lishi juda kamdan-kam uchraydi. Bu bozor sharoitlaridagi iqtisodiyotning iqtisodiy muvozanatda emasligidan dalolat beradi. Mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanatda talab, taklif va ishchi kuchining qaysi holatida ishsizlik, qaysi holatida ishchi kuchi yetishmasligi kuzatiladi. Bunda mehnat bozorini boshqarishga bo‘lgan ishchi kuchining muvozanatlashganini baholash juda katta rol o‘ynaydi. Bozor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan, ish haqi darajasi ishchi kuchining

narxi muvozanatlashgan narxdan yuqori oʻrnatilganda taklifning talabga nisbatan koʻpligi paydo boʻladi, talab oshgani sari ish haqi ham oshadi, talab kamaygani sari ish haqi ham kamayadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, respublikadagi past darajali mehnat taʼminotiga ega boʻlgan xoʻjaliklarda mehnat natijalari erkinligining yoʻqligi past daromad olinishiga sabab boʻldi. Bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Ayni shu sabablarga koʻra, ushbu xoʻjaliklarda ishchi kuchi tanqisligi sunʼiy yoʻl orqali paydo boʻladi. Ishchi kuchi bilan yuqori darajada taʼminlangan xoʻjaliklarga xos boʻlgan daromad olish yoʻnalishlari ayni ishchi kuchi bilan past darajada taʼminlangan xoʻjaliklarga xos boʻlgan yoʻnalishlar bilan bir xil, faqat ikkinchi holatda ishchi kuchi taʼminoti bahosi va talabi koʻpayishiga imkoniyat boʻlmaydi. Shuning uchun ham, bunday xoʻjaliklarda ishchi kuchining ortiqchaligi yoki yashirin ishsizlik mavjud. Mehnat bozoriga tegishli muhim masalalardan biri bandlik hajmini aniqlashdir. Bozor klassik nazariyasiga muvofiq, bandlik hajmi yalpi talab va yalpi takliflarning kesib oʻtish nuqtasi orqali aniqlanadi. Ayni shu nuqtada kutilgan tadbirkorlik foydasi maksimal darajada boʻladi. Bandlik hajmining oʻsishi aholining isteʼmol qilishga moyilligiga hamda ish joylarining koʻpayishi uchun kerak boʻlgan investitsiyalar hajmiga bogʻliq. Yalpi daromad oʻsishi bilan isteʼmol qilish ham oʻsadi, shuningdek jamiyatning yalpi investitsiyalar bilan bogʻliq xarajatlari ham oshadi. Shu munosabat bilan rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida davlat monopolist sifatida ish haqining sunʼiy pasaytirilgan darajasini qoʻllab-quvvatlashni maʼqul koʻradi, chunki bu u yuritayotgan siyosatini asosiy vositalaridan biri edi. Mehnat bozorini oʻrganish jarayonida quyidagilar juda muhim hisoblanadi: “Iqtisodiy muvozanat” tushunchasi, mehnat bozori segmentatsiyasi, bandlik hajmining belgilanishi, zamonaviy makroiqtisodiy tuzilmalar uchun axborotga ega boʻlish juda ham muhim, chunki atrof-muhitdagi noaniqlik yuz marta oʻsdi, bu koʻpincha, firmalar, korxonalar, korporatsiyalar, banklar faoliyatining buzilishiga olib keldi, rahbarlikning har qanday darajasida asoslanmay qabul qilingan qarorlar xoʻjalik obʼyektlari uchun tuzatib boʻmaydigan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, mehnat bozori infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining muhim shart-sharoiti, vositasi boʻlib, uning subʼyektlari oʻrtasidagi aloqalarni taʼminlovchi mehnat bozori axborot tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat bozorida axborot tizimini takomillashtirish hududiy ish bilan bandlik xizmati organlari o'rtasida yagona ish bilan bandlik siyosatini yuritish, ular o'rtasida kommunikatsiya aloqalarini ta'minlash hamda transaksion xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz, Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo'lsa-da, o'tgan yili Bandlikka ko'maklashish markazlari atiga 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog'liq". Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda "yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish" dolzarb masala hisoblanadi. Axborotlashtirish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solish va mehnat bozorida davlat siyosatini yuritish bo'yicha yangi-yangi talablarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston mehnat bozoridagi hududiy farqlar ahamiyatli ravishda hududiy bozorlar integratsiyasini ta'minlaydigan hamda hududiy xususiyatlarni hisobga oladigan hududiy ish bilan bandlik siyosatini ishlab chiqishni zarurat etmoqda. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ulkan va global miqyosda hamda har qanday tarmoq yoki xizmatlarga tegishli firmalarning har bir funksiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda sanoati rivojlangan mamlakatlarda 50% ish bilan band bo'lganlar kompyuter texnikasidan foydalanmoqdalar.

Mehnat bozorining yagona axborot tizimi, masalan, 2000-yilda Janubiy Koreya Respublikasida yaratildi. Mehnat bozorida axborotlarning yo'qligi yoki yetishmasligi ish bilan bandlikka ko'maklashish doirasida nomutanosib holatlarni keltirib chiqaradi, agarda bo'sh ish o'rinlariga ishchi kuchi yetishmaydigan joyda ishsizlar mavjud bo'lsa, qanday qilib bo'sh ish joylari tuzilmasini to'ldirish orqali ishsizlik darajasini kamaytirish mumkin. Shu sababli mehnat bozorida hududiy ish bilan bandlik siyosatini samarali amal qilishi uchun hududdagi bo'sh ish joylarining sifatli tasnifi va ishsizlar soni haqida barcha operativ ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi, ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish bo'yicha hududiy axborot tizimini yaratish zarur.

Aholini ishga joylashtirish bo'yicha hududiy bandlik xizmati axborot tizimlarini yaratilishida barcha imkoniyatlari bilan yetakchi rol o'ynaydi. Har bir hududda axborot tizimlarining yaratilishi va qo'llanishi respublika miqyosida yagona davlat siyosatini yuritish maqsadida mehnat bozorining markaziy axborot tizimiga birikishini nazarda tutadi. Hududiy axborot tizimlarining yaratilishi ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solishda tarmoqli – axborotlarni taqsimlash xususiyatlari bilan aloqadorlikda ijobiy tashqi samaralarni yuzaga keltiradi. Haqiqatdan ham, bunday axborot tizimlari xizmatlariga talab hududiy mehnat bozorini qamrab olish doirasigacha kengayib boradi.

Ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solishda hududiy axborot tizimi ishchilarning bo'sh ish joylarini izlashda ularning raqobatbardoshligini oshirishga amaliy natija beradigan yordam ko'rsatishi mumkin. U ishsizlikdan sug'urtalash tizimi bilan birgalikda davlat ish bilan bandlik xizmatiga mehnat bozoridagi holatlarning hududiy darajada ancha egiluvchan va moslashuvchan ta'sir etishi va faoliyatining samaradorligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, mehnat bozorining hududiy axborot tizimlari davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari faoliyatlarida ish joylarini tanlash davrini qisqartirish, ishsizlik bo'yicha to'g'ri va zamonaviy nafaqa to'lovlarini ta'minlash, ishsizlikning davomiyligini qisqartirish, mavjud ish joylari to'g'risida ma'lumotlar banki bilan muvofiqlikda ishchilarni kasbga qayta tayyorlashni ishlab chiqish samaradorligini oshirishda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hududiy axborot tizimi yaratilishining shart-sharoiti bo'lib, hududiy ish bilan bandlik xizmatini axborotlashtirish asosida axborot uzatish texnikalari bilan jihozlangan yaxlit hududiy axborot tizimlarini yaratish hisoblanadi. Rossiyada Sankt-Peterburg shahrida "Katarsis" kompaniyasi bozorda axborot tizimi sifatida 11 yildan ko'proq faoliyat yuritmoqda va Rossiya Federal ish bilan bandlik xizmati uchun yagona axborot tizimini yaratmoqda. Hududiy va milliy darajada axborot tizimi rivojlanishining muhim pallasi bo'lib, qo'yilgan masalani yechishda kompleks yondashuv hisoblanadi.

Bunda u nafaqat axborot jihozlarini o'rnatish, balki loyihalashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, dasturlashtirish, axborot uzatishning markazlashgan tizimlarini ishlab chiqish, tarmoqli monitoringning samarali usullarini qo'llash kabi ishlarni olib boradi. Hozirgi vaqtda "Katarsis" dasturiy – apparatlashgan kompleksi axborot almashish maqsadida "Mehnat resurslari", "Nafaqalarni hisoblash va to'lash",

“Bandlik jamg‘armasi”, “Tahlil”, “Maslahatchi 1”, “Maslahatchi 2” kabi avtomatlashgan tizimlarni birlashtiradi. Bu axborot tizimi mijozlarga alohida tartibda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari, kasbiy tayyorgarlikdan o‘tish imkoniyatlari, nafaqa miqdori va boshqalar haqida yetarli darajada ma’lumotlar berib turadi. Barcha ishlanmalar mahalliy va xorijiy firmalar bilan birgalikda yaratilgan maxsus dasturiy ta’minotga bazalashtiriladi. O‘zbekistonda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi “Katarsis” kompaniyasiga o‘xshash axborot tizimining hududiy ish bilan bandlik xizmati mablag‘lari yoki davlat byudjeti hisobiga yaratilishi mehnat bozorida davlat siyosatini yuritish samaradorligini oshishida muhim vosita bo‘lib, ish bilan bandlikka ko‘maklashish sohasidagi institutsional tuzilmalar o‘rtasida samarali axborot almashishni ta’minlaydi.

Ko‘pincha rivojlangan mamlakatlarda axborot to‘plash va uzatishga ixtisoslashgan vositachi firmalar faoliyati tijorat asosiga qurilgan. Biroq o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, viloyat mehnat bozorida axborot xizmatlarini tijoratlashtirish imkoniyatlari yetarli darajada emas, chunki yuqori ish haqiga ega bo‘lgan ish o‘rinlari va lavozimlar yetarli miqdorda emas. Shuning uchun hozirgi vaqtda mehnat bozori axborot tizimi jamoat sektori doirasida shakllanishi zarur, lekin kelajakda uning faoliyatini tijorat asosiga o‘tkazish mumkin. Hududiy axborot tizimi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi zarur: ishsizlar va mavjud ish joylari haqida dastlabki ma’lumotlarni–yig‘ish; ular uchun qayta ishlash dasturi; mavjud yig‘ilgan va to‘plangan axborotlar asosida viloyat davlat ish bilan bandlik xizmati va uning joylardagi bandlikka kumaklashish markazlar ifaoliyati bilan muvofiqlikda lokal kompyuter tarmog‘ini yaratish va internet tarmog‘iga ulash.

Buning uchun barcha hududiy ish bilan bandlik xizmatlarini internet tarmog‘iga ulash nazarda tutiladi. Iqtisodiyotda xususiy sektor rolining kengayishi bilan aloqadorlikda ishga joylashtirishga ko‘maklashish bo‘yicha agentliklar, nodavlat ixtisoslashgan mehnat birjalari va xususiy vositachi firmalarning yaratilishi hamda faoliyatlari davomida maqsadga muvofiq ravishda mehnat bozori yagona axborot tizimidan foydalanish huquqi beriladi. Haqiqatdan ham, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmati organlari ma’lumotlar bankining shakllanishida qo‘shma hamkorlik hududiy mehnat bozorida jarayonlar tezlashishining mutanosibligini ta’minlaydi. Shunday qilib, mehnat bozorida talab va taklifni tartibga solish bo‘yicha hududiy axborot tizimlarini yaratilishi bozor aloqalarini shakllantirish, mehnat bozorida xo‘jalik sub’yektlari

tranzaksion xarajatlarini kamaytirish, tarmoqlar bo'yicha ishchi kuchi taqsimlanishini optimallashtirish maqsadida, ular o'rtasida intensiv aloqalarni qaror toptirish shart-sharoitlarini vujudga keltiradi. To'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi mehnat bozori samarali monitoringini ta'minlash uchun axborotlar uzatish jarayonini tezlashtiradi va hududiy ish bilan bandlik xizmati organlari uchun ish bilan bandlikka ko'maklashish dasturini ishlab chiqishda ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Demak, hududiy axborot tizimlarining yaratilishi mehnat bozorini tartibga solishda hududiy ish bilan bandlik siyosatini samaradorligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi

5.3. "Ijtimoiy siyosat" tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlanish zaruriyati va uning asoslari


Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyotining ijtimoiyligi iqtisodiy siyosatni ijtimoiy siyosat bilan uzviy aloqada bo'lishini talab qiladi. Iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratib bersa, o'z navbatida ijtimoiy muammolarning hal etilishi inson kapitalining rivoji orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Mana shunday bog'lanishning real hayotda bo'lishi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning uyg'unlashuvini talab qiladi. "Davlat ijtimoiy siyosati – bu insonning hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, insonni himoya qilish va kamol topishiga qaratilgan siyosatdir. Uning maqsadi ommaviy farovonlikni oshirishga ko'mak berishdir. Bu siyosatda ish bilan bandlik darajasini belgilash, minimal ish haqi, nafaqa, pensiyani to'lash, kambag'allik chegaralarini aniqlash, tirikchilik minimumini belgilash, ijtimoiy himoya me'yorlarini aniqlash kabi usullar qo'llaniladi. Uning asosiy yo'nalishlari bandlik, daromad va ijtimoiy himoya siyosatidir" Insonga munosib hayot sharoiti, ya'ni uning o'zini namoyon qila olishi uchun imkoniyatlar yaratish – iqtisodiyotimizni va butun jamiyatni rivojlantirishning oliy maqsadidir.

Davlat keskinlikka yo'l qo'ymaslik uchun kuchli ijtimoiy siyosat yuritadi. Avvalo, fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash borasida aniq ishlar qilinadi. Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'ladi. Ijtimoiy siyosat – aholining turmush darajasini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishni tashkil etish munosabatlari

bo'yicha rivojlantirishning oliy maqsadidir. Davlat keskinlikka yo'l qo'ymaslik uchun kuchli ijtimoiy siyosat yuritadi. Avvalo, fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash borasida aniq ishlar qilinadi. Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'ladi.

Ijtimoiy siyosat – aholining turmush darajasini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishni tashkil etish munosabatlari bo'yicha davlat siyosatining bir bo'g'inidir. Ijtimoiy siyosat fuqarolarning konstitutsion huquqlari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy dasturlar, me'yorlar, normativlar, standartlar, qonunlar, grantlar ijtimoiy siyosatning amalga oshirish vositalari bo'lib hisoblanadi. "Ijtimoiy siyosat – bu aholining turmush farovonligini oshirish, uning yashashi va ishlashi uchun yetarli sharoitlarni ta'minlaydigan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir". Ijtimoiy barqarorlikka davlat ijtimoiy siyosatining yo'nalishlari orqali erishiladi. Bizning respublikamizda ijtimoiy siyosatning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha ishlar olib borilmoqda³⁰.



5.17-rasm. Ijtimoiy siyosatning yo'nalishlari

Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari:

- Aholi turmush darajasi va sifatini oshirish;
- Kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini borgan sari to'laroq qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Ijtimoiy adolatni chuqurlashtirish, ijtimoiy kafolat va ijtimoiy himoya mexanizmini takomillashtirish.

³⁰ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016-yil 2
www.iqtisodiyot.uz

Davlatning ijtimoiy siyosati quyidagi holatlarni taqozo etadi. Barcha mehnatga layoqatlilarga tadbirkorlik va mehnat uchun qulay sharoitlarni ta'minlash. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Biznesni liberallashtirish;
- Kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish;
- Yuqori darajadagi bandlikni qo'llab-quvvatlash;
- Mehnat munosabatlarini tartibga solish. Jamiyatning barcha a'zolariga farovonlikning ma'lum standartlarini ta'minlash.

Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarurat hisoblanadi:

- Jamiyatda daromadlarni qayta taqsimlash;
- Turli nafaqalar va pensiyalarni optimallashtirish;
- Umumiy savodxonlik va barcha jamiyat a'zolari uchun zaruriy tibbiy yordamni uyushtirish.

Ijtimoiy siyosat davlat ichki siyosatining tarkibiy qismi Ijtimoiy dasturlari va amaliyotida o'z ifodasini topadi va jamiyatdagi munosabatlarni aholi asosiy ijtimoiy guruhlarini manfaatlari yo'lida va shu manfaatlar orqali tartibga soladi. Ijtimoiy siyosat kelib chiqishiga ko'ra, barcha ijtimoiy vazifalarni hal qilishning belgilovchi moddiy asosi bo'lgan va bo'lib kelayotgan iqtisodiyotga nisbatan ikkilamchidir. Har qanday ijtimoiy dasturlar agar ular iqtisodiy jihatdan ta'minlangan bo'lmasa, ular hech narsaga arzimaydi. Ijtimoiy siyosat Davlat, tijoriy tuzilmalar va nohukumat jamoat birlashmalarining aholi zaruriy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha amalga oshirayotgan tadbirlarining maqsadga yo'naltirilgan tizimi. Hozirgi bosqichda ijtimoiy siyosatning bosh vazifalaridan biri aholini iqtisodiyotdagi bozor munosabatlarining salbiy oqibatlarini ta'siridan ijtimoiy himoyalashdir.

Bu aholi pul daromadlari va tovar zahiralari o'rtasidagi muvozanatni saqlab turishni;

Fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash uchun qulay imkoniyatlar yaratishni;

Aholi uchun xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga bo'lgan talabini qondirishni;

Aholi salomatligini mustahkamlashning moddiy bazasini kengaytirish, uning ma'lumot va madaniy darajasi o'sishini nazarda tutadi.

Davlat sektori ijtimoiy siyosatining eng muhim vazifasi:

a) tabiiy ofatlar, ocharchilik, kasalliklar, global jarayonlarning maksimal salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha davlat kafolatlarini berish;

b) moddiy boyliklarni qayta taqsimlash, mamlakatda erishilgan turmush darajasini soliqlar, homiylik ishlarini rivojlantirish, tadbirkorlikni progressiv vositalar bilan birgalikda qo'shib ta'minlashga yo'naltirilgan tashkiliy harakatlarni muvofiqlashtirish.

Ijtimoiy siyosat ijtimoiy ishning turli shakllari, davlatning bir martalik yirik qarorlari va tadbirlari, shuningdek, ijtimoiy (maxsus va kompleks) dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

moddiy yordam-pul mablag'lari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, sanitariya va gigiena vositalari, bolalarga qarash predmetlari, kiyim-kechak, poyafzal, kundalik zaruriy predmetlarni berish;

nogironlikning oldini olish, nogironlar va tashqaridan qarovga muhtoj shaxslarni reabilitatsiya qilish uchun zarur bo'lgan maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash.

Shuningdek, doimiy nostatsionar xizmat ko'rsatishga muhtoj bo'lgan fuqarolar va oilalarga ijtimoiy vasiylik qilish:

- ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko'rinishidagi yordam, tibbiy yoki boshqa ko'mak olishga yordamlashish, bolalarga qarash bo'yicha xizmat ko'rsatish;

- o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish layoqatini qisman yoki to'laligicha yo'qotgan va o'zgalarning doimiy qaroviga muhtoj kishilarga statsionar xizmatlarni tashkil etish- hayot faoliyati uchun zaruriy sharoitlarni yaratish, tibbiy, psixologik, ijtimoiy xarakterdagi tadbirlar o'tkazish, oziq-ovqat, qarov bilan ta'minlash, imkoniyati darajasida mehnat faoliyati, dam olish, hordiqni tashkil etish;

- Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari turar joyi va aniq mashg'uloti bo'lmagan fuqarolarga, shunday yordamga muhtoj bo'lgan qarovsiz bolalar va o'smirlarga vaqtincha boshpana berish kabilardir.

Reabilitatsiya xizmatlari esa quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

-nogiron fuqarolarning kasbiy, ijtimoiy, ruhiy reabilitatsiyasiga ko'maklashish;

-balog'atga yetmaganlar va xulq-atvori jamiyat uchun xavfli bo'lgan fuqarolar bilan reabilitatsiya ishlari olib borish.

Ijtimoiy xizmatlar ijtimoiy xizmat mijozlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlariga mos ravishda yordam ko'rsatish bo'yicha hatti-

harakatlarni o'z ichiga oladi. Xizmatlar pulli yoki bepul bo'lishi mumkin. Bepul xizmatlar quyida fuqorolarga ko'rsatiladi:

- yoshi, xastaligi, nogironligi tufayli o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish layoqati bo'lmagan shuningdek, daromadlari to'rt minimal ish haqidan past bo'lgan shaxslarga;
- ishsizlik, tabiiy ofatlar, falokatlar, avariylar, majburiy migratsiyalar tufayli favqulodda hayot vaziyatiga tushib qolgan fuqarolarga;
- balog'atga yetmagan yetim va qarovsiz bolalarga;
- har bir a'zosiga olinadigan o'rtacha daromad 1,5 minimal ish haqidan past bo'lgan oilalarga.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq ijtimoiy himoya masalasi O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu yo'nalishda avvalo qonunlar tizimi yaratildi, keskin tabaqalanishdan holi bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi, eng muhimi kuchli ijtimoiy himoya yo'lga qo'yildi. Masalan, eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi;

Boshlang'ich sinf o'quvchilari va yolg'iz nafaqaxo'rlar uchun bepul nonushtalar; 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat;

Barcha maktab o'quvchilari va talabalar uchun arzonlashtirilgan ovqat kabi imtiyozlar amal qilib turdi.

Muhofazaga muhtojlar davlat himoyasiga olinib insonga jamiyatda o'z munosib o'rini topishi va faoliyati yuksalishiga sharoit yaratiladi.

Ijtimoiy himoyaning asosiy ko'rinishlari:

- Arzon turar joylar bilan ta'minlash
- Bepul maktablarning mavjudligi
- Kam ta'minlangan oiladagi talabalarga stipendiya, shartnoma to'lovlariga chegirma
- Nogironlarni reabilitatsiya qilish dasturlari
- Xarbiylarni adaptatsiya dasturlari (turar joy, ish bilan ta'minlash)

Onalar va bolalar uchun moddiy yordamlar.

Bepul yoki imtiyozli tibbiy xizmat O'zbekistondagi ijtimoiy siyosatning asosiy prinsplari

- Aholini kam ximoya qilingan qatlamlariga ko'mak berish;
- Ijtimoiy soxada davlat va jamoatchilik nazorati;
- Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mahalliy xokimiyatni ahamiyatini va vakolatlarini kuchaytirish;
- Barcha fuqarolarga yashash uchun minimumni kafolati.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida O‘zbekiston mintaqalarining demografik holati, mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish, “Ijtimoiy siyosat” tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlanish zaruriyati va uning asoslari kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Har bir o‘lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog‘liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o‘lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanshida katta rol o‘ynaydi.

Demografik omilning o‘zgarib borishi global muammo bo‘lib, u ko‘p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi.

Doimiy aholi soni hamda demografik holat ko‘rsatkichlari Adliya vazirligining joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar va Ichki ishlar vazirligining joylardagi Ichki ishlar boshqarmasi (bo‘limi)ning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan. Ushbu hisob-kitoblar Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan uslubiy Nizomga muvofiq amalga oshirilgan. Mehnat bo‘limlarining maslahatlariga muxtoj bo‘lgan fuqarolar ularning yashash joylari qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, istalgan mehnat bo‘limiga murojaat qilishlari mumkin. Ularni ro‘yxatga olishda yoshi va boshqa jihatlari bo‘yicha cheklashlar belgilanmaydi. Ayni vaqtda fuqarolar mahalliy mehnat organlarining yo‘llanmalari asosida kasbga tayyorlash, qayta tayyorgarlikdan o‘tish, malakasini oshirish huquqiga ham egadirlar. Mazkur qonunda ilk bor O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida mehnat sohasida faoliyat ko‘rsatish tartibi joriy qilindi. Bunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga egadirlar.

Tayanch so‘z va iboralar: Ishlab chiqarish kuchlari, mehnat bozori, mehnat resurslari, korxonalar, sanoat korxonalar, sanoat, iqtisod.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. O‘zbekiston mintaqalarining demografik holati haqida ma’lumot bering

2. 2021-yil boshiga jami aholi sonida erkaklarning ulushi necha foizni tashkil qilgan?
3. 2022-yilda jami aholi soni qanchani tashkil qilgan?
4. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi necha yilni tashkil etgan?
5. Respublika bo‘yicha 2020-yilda qancha nikoh qayd etilgan?
6. Mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanat deganda nimani tushunasiz?
7. Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlarini aytib bering.
8. “Ijtimoiy siyosat” tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlanish zaruriyati va uning asoslari.
9. Bepul yoki imtiyozli tibbiy xizmat O‘zbekistondagi ijtimoiy siyosatning asosiy prinsiplarini aytib bering.

VI BOB. MINTAQALARDA SANOAT TARMOG‘INING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

6.1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

6.2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko‘rsatkichlari

6.3. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni

6.4. Sanoatga qulay investitsiya muhitining yaratilganligi holati

6.1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson hayotining asosini moddiy ne‘matlar, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish tashkil etadi. Chunki, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari bo‘lmasa, ayirboshlaydigan, taqsimlaydigan va iste‘mol qiladigan ne‘matlarning o‘zi bo‘lmaydi. Inson iste‘molsiz yasholmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham turolmaydi. Biroq, bugungi kunda iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha ko‘plab darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini yoritish e‘tibordan chetda qolmoqda. Bu bir tomondan, talabalarning mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) qaerda, kim tomonidan, qanday ishlab chiqarilishini tushunmaslikka olib keladi, ikkinchi tomondan, butun ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘layotgan ishlab chiqarish munosabatlaridan bexabar qolishiga sabab bo‘ladi, uchinchi esa, butun jahonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy inqirozlarning tub sababini tushunmaslikka olib keladi.

Ushbu BOBda bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoniga tegishli muammolar ko‘rib chiqiladi. Ishlab chiqarishning omillari tavsifi, ishlab chiqarishning maqsadi va mazmuni ochib beriladi, uning natijalari va samaradorligi bilan bog‘liq masalalar bayoni, “ishlab chiqarish imkoniyatlari” tushunchasiga ham o‘rin ajratiladi. Shuningdek, keyingi qo‘shilgan mahsulot nafiligi va uning kamayib borishi, keyingi qo‘shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonunining mazmuniga tegishli marjinalistik g‘oyalar bilan tanishtiriladi, ularning kamchilik jihatlari ochib beriladi. Bu yerda ishlab chiqarish jarayonining har taraflama muvozanatli va mutanosibli rivojlantirilishi iqtisodiy inqirozdan qutilishning yoki uning oldini olishning muhim yo‘li sifatida qaraladi.

Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini chuqur anglash uchun eng avvalo, ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qoʻllaniluvchi barcha resurslar ishlab chiqarish omillari deyiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qatʼiy nazar uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari boʻlishi shart. Bundan koʻrinadiki, ishlab chiqarish omillari, iqtisodiy resurslardan farqli oʻlaroq, oʻz ichiga faqat ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi unsurlarni oladi. Misol uchun, iqtisodiy resursning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan pul resurslari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qoʻllanilmaganligi sababli, ishlab chiqarish omili boʻla olmaydi. Ishlab chiqarish omillarining mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun ularning har birini alohida koʻrib chiqamiz.

Ishchi kuchi deb insonning mehnat qilishga boʻlgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yigʻindisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega boʻlgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning oʻzi emas yoki uning mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir.

Mehnat qurollari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga taʼsir qiladigan vositalarga aytiladi. Bularga mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat taʼsir qiladigan, yaʼni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir. Yer, suv, xomashyo va boshqa turli materiallar mehnat predmetining asosiy turlarini tashkil etadi. Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuli, yaʼni xomashyo boʻlishi mumkin.

Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi; shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir.


Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy boʻlsada, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha taʼrif beriladi. Jumladan, “Siyosiy iqtisod” darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari mavjudligi tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan iborat ishlab

chiqarish vositalari ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb yuritiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko‘pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to‘rt omili: mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi.

Bu yerda ishchi kuchi bilan mehnat o‘rtasidagi farqni anglab olish juda muhimdir. Chunki, **mehnat insonning, to‘g‘rirog‘i ishchi kuchining ma‘lum maqsadga qaratilgan faoliyati jarayoni bo‘lib, ishchi kuchi tushunchasidan tamomila farqlanadi.** Ko‘pgina adabiyotlarda esa ularga sinonim (bir xil tushuncha) sifatida qaralib, bunday holat ko‘plab chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bizga ma‘lumki, **ishchi kuchi insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyati, uning bilim, malaka darajasi bilan birgalikda ishlab chiqarishda qatnashishiga tayyor turgan omillardan biri hisoblanadi. Mehnat esa barcha omillarning, shu jumladan, ishchi kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan qo‘shilishi natijasida sodir bo‘ladigan va ma‘lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir.**

Shuning uchun biz mehnat degan tushunchani emas, balki ishchi kuchi degan tushunchani ishlab chiqarishning omili deb bilamiz va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat deb ta‘kidlaymiz (6.1-rasm)

Ishchi kuchi insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi bo‘lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi. Ishchi kuchining boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori ham mavjud bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o‘rniga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o‘rniga ishchi kuchi resurslari deyilsa to‘g‘ri va tushunarli bo‘lar edi.



6.1-rasm. Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi

Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko‘pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o‘z egasiga qo‘shimcha

qiymat keltiruvchi qiymat, o‘z-o‘zidan ko‘payuvchi, o‘svuvchi qiymat deb hisoblaydi. Ayrim g‘arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L.Valras, I.Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

Qator g‘arb iqtisodchilarining jumladan, D.Xayman, P.Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R.Dornbush va boshqalarning fikrini keltirib va ularni umumlashtirib, prof. V.D.Kamaev o‘zining rahbarligida yozilgan darsligida “haqiqatdan ham — kapital o‘zidan o‘zi ko‘payuvchi qiymat”³¹ deb yozadi. Bunday fikr D.D.Moskvin, V.Ya.Ioxin, A.G.Gryaznova, Ye.F.Borisov va boshqalarning rahbarligida nashr etilgan qator iqtisodiyot nazariyasi kitoblarida ham aytiladi. Lekin, Amerika va Yevropa mamlakatlaridan kirib kelgan “Ekonomiks” darsliklari va boshqa ayrim adabiyotlarda kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida qo‘llaniladigan moddiy vositalardan, ya‘ni hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqa shu kabilardan iborat deb ko‘rsatadi, unga pul va tovarni kiritmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning sotsial mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e‘tiborni kuchaytirgan. G‘arb iqtisodchilarining ayrimlari ham kapitalni bir tomonlama, ya‘ni uning qiymat tarafini e‘tiborga olgan bo‘lsa, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiyiligini e‘tibordan chetda qoldirib, uning moddiy ob‘ektini, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko‘rsatadilar. Shuning uchun ular kapitalni doimiy, o‘zgarmas tushuncha deb, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. Biz bu ikki xil tushunchani bir tangananing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya‘ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko‘rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko‘rinishi ekanligini e‘tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz. Biz kapital deganda o‘z egalariga daromad keltiradigan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning hamma sohalarida qo‘llanadigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo‘ljallangan pul mablag‘larini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, **“kapital” ham qiymatga, ham nafilikka ega bo‘lgan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish**

³¹ Ekonomicheskaya teoriya: Ucheb. dlya stud. vьsssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.D.Kamayeva. – 10-ye izd., pererab. i dop. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2004, 217-bet.

jarayonida foydalaniladigan, yollanma mehnat (ishchi kuchi) tomonidan harakatga keltiriladigan vositalardir.

Hamma adabiyotlarda yerga deyarli bir xil tushuncha beriladi, ya'ni yer deganda tuproqning unumli qatlami, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. Tadbirkor deb iqtisodiy resurslar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilarga aytiladi; bu xislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, ular yer va kapitalda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ularni alohida omil deb qarashga hojat yo'q³².

6.2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko'rsatkichlari

Sanoat siyosati milliy iqtisod tizimining sanoatni qo'llab-quvvatlashga va barqaror o'sishiga yo'naltirilgan iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy tadbirlarning majmui hisoblanganligi bois, uning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, milliy ishlab chiqaruvchilarning farovonligini va ularning raqobatdoshligini oshirishdir.

Shu nuqtayi nazardan, sanoat siyosati eskirgan ishlab chiqarish tuzilmalarini bartaraf etadi hamda zamonaviylarini shakllantiradi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi va boshqaruvini takomillashtiradi, shuningdek, jahon iqtisodiyotini globallashtiruvining ob'ektiv talablariga moslashuvchanligini yanada oshirib boradi.

Shu sababli, O'zbekiston sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni va innovatsion texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etishga katta e'tibor qaratilib, sanoat tarmoqlarini izchil rivojlantirishga erishilmoqda.

Olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida O'zbekiston sanoatini jadal rivojlantirish borasida quyidagi salmoqli natijalarga erishildi:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda keskin pasayishlarga yo'l qo'yilmadi;

³² "Iqtisodiyot nazariyasi", Darslik, Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, Toshkent-2014.

– yirik sanoat korxonalari hisobidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi saqlab qolindi;

– strategik muhim tarmoqlar, birinchi navbatda, yoqilg‘i-energetika majmuasini qo‘llab-quvvatlash natijasida so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘rta ta‘minlamoqda.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning muhim jihati sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda texnik va texnologik yangilashdir.

Iqtisodiyotda modernizatsiya, diversifikatsiya va investitsiya jarayonlari o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, sanoat tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlarning mohiyati va tamoyillarini tahlil qilish, xususan, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonining nazariy asoslari va xorijiy davlatlar tajribalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Sanoat tarmoqlarida modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishning dolzarbligi quyidagi shartlar bilan asoslanadi:

– ma‘naviy eskirgan va ishlash muddati o‘tib bo‘lgan asbob-uskunalar hisobiga milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining pastligi;

– tashqi bozorlarda milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga talabning kamligi;

– innovatsiyalarni moliyalashtirish va ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb qilish manbalarining yetarli darajada emasligi;

– investorlarda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida modernizatsiya qilish jarayonlarni amalga oshirish va mavjud imkoniyatlar yuzasidan tushunchalarning to‘liq shakllanmagani va boshqalar.

“Modernizatsiya” va “diversifikatsiya” atamalariga oid turli talqinlar mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlarining asosiy jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz. “Modernizatsiya – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarining texnologik qo‘lqo‘lqilg‘inini bartaraf etish vositasi bo‘lib, mehnat, moddiy va xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish darajasiga keskin ta‘sir ko‘rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatbardosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi”.

Iqtisodiyot va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga olib keladi. “Diversifikatsiya –

yuqori qo‘shilgan qiymat o‘shish dinamikasini ta‘minlaydigan mahsulot va xizmatlar assortimentining oshish va kengayish jarayonidir. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bevosita uyg‘unlashgan hodisasidir”.

Milliy iqtisodiy adabiyotda sanoatni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishda investitsiyalarning ahamiyatiga qaratilgan yondashuvlar keltirilgan bo‘lib, xususan, bir guruh mualliflar tomonidan tayyorlangan qo‘llanmada “Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarni tiklashning asosiy vositasidir”, deb ta‘kidlanadi.

Aytib o‘tish joizki, investitsiyalar modernizatsiyalash, texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning asosiy vositasi bo‘lib, bunda, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasi ko‘tariladi, natijada korxonalarining raqobatbardoshligi oshadi.

“Investitsiya birligining iqtisodiy o‘shishdan iborat natijasi ortib borishi uchun u iqtisodiyotning ilg‘or sohalariga yuborilib, yangi texnologiyani joriy etishga qaratilishi kerak. Bu investitsiyalarning novatsiyalarga, ya‘ni yangilikni joriy etishga yuborilishini bildiradi. Agar investitsiyalar novatsiyaga yuborilsa, iqtisodiyot tez o‘sadi, chunki bular bozorda talab bor tovarlarning yangi yuksak unumli texnologiyaga tayanib ishlab chiqarilishini bildiradi”.

Darhaqiqat, agar investitsiyalar eski va ma‘naviy eskirgan texnologiyalarga yo‘naltirilsa, uning samaradorligi past darajada bo‘ladi, chunki resurslarning sarfiga nisbatan mahsulot va xizmatlar miqdorining o‘shish darajasi past bo‘ladi, natijada ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi.

Iqtisodchi olimlar P.Krugman, R.Vells va M.Olnining fikricha, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda investitsiyalarning inson kapitali bilan bir qatorda jismoniy kapitalga, ya‘ni texnika va texnologiyalarni kiritish, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda zaxiralarga yo‘naltirish asosiy omil hisoblanadi.

Ta‘kidlash lozimki, ishlab chiqarishda inson kapitali muhim o‘rin tutgani bois, investitsiyalarni uning bilimi, tajribasi va malakasini oshirishga sarflash zamonaviy iqtisodiyotning asosiy omillaridandir. Shu bilan birga, investitsiyalarning korxonani modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yangi va zamonaviy texnologiyalarni

kiritishga ham yoʻnaltirilishi mahsulot raqobatbardoshligini oshirish bilan birga yangi ish oʻrinlarini yaratish hamda xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilashga olib keladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, har bir davlat uzoq tarixiy va oʻziga xos rivojlanish bosqichlarida sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash boʻyicha islohotlarni shakllantirib borgan.

Jumladan, Yaponiyada sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish islohotlari, asosan, 20-asrdan keyin jadal amalga oshirilgan. Yaponiya sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda Gʻarb amaliyoti joriy qilina boshlagan, biroq anʻanaviy tarmoqlarda investitsion faollik bir maromda ushlab turilgan. Shu asosda ushbu tarmoqlarda ishlab chiqarish va mehnat resurslari qisqartirilgan. Shu bilan birga, ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirish manbalarini qidirib topish ragʻbatlantirilgan. Investitsiyalarning asosiy qismi (korxonalarining oʻz mablagʻlari), ayniqsa, eksportga yoʻnaltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir chuqur qayta ishlash tarmoqlari rivojlanishiga kiritilgan. Ustuvor tarmoqlarga yuqori samarali asbob-uskunalar, texnika va texnologiyalar xarid qilish uchun chet-el valyutasi qulay shartlarda jalb etilgan. Shuningdek, soliq imtiyozlari, ehtiyot va butlovchi qismlar, xom ashyolar uchun pasaytirilgan import tariflari joriy qilingan.

Hindistonda sanoatni modernizatsiyalash evolyutsion yoʻl bilan amalga oshirilgan. Mamlakatda ushbu islohotlar bir necha bosqichda oʻtkazilgan. Birinchi bosqichda mamlakat, asosan, davlat sektori rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi “aralash” iqtisodiyot tizimini, keyinchalik iqtisodiyotda davlat rolini kuchaytirgan holda “uyushgan kapitalizm” konsepsiyasini amalga oshirgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida xususiy kapitalning ahamiyati keskin oshdi. Islohotlar jarayonida litsenziyalashdan bosqichma-bosqich voz kechila boshlandi, tarmoqlarga chet-el va milliy xususiy kapitalni jalb qilish boʻyicha yoʻl ochib berildi.

Makroiqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan nazorat qilishni saqlab qoluvchi nozik mexanizm yaratildi. Import uchun toʻsiqlar bosqichma-bosqich olib tashlandi va yuqori darajadagi tariflar pasaytirildi.

Shuningdek, Hindiston hukumati asosiy eʼtiborni iqtisodiy hududlarni tashkil etishga qaratdi. Ushbu hududlarda korxonalar 5 yilgacha barcha soliqlardan toʻliq ozod etilib, keyingi 5 yilda soliqlarning yarmini toʻlash mexanizmi joriy qilindi.

Yuqorida tilga olingan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash pirovardida mamlakat iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari ulushining keskin oshishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi turmush farovonligi oshishi, barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanishiga asos bo'ladi.

2022-yil 1-fevral holatiga respublikada 91,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,6 % i) Toshkent shahriga, 10,0 mingtasi (10,9 %) Farg'ona viloyatiga, 9,5 mingtasi (10,3 %) Andijon viloyatiga, 9,3 mingtasi (10,2 %) Toshkent viloyatiga va 8,1 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda³³

2022-yil 1-yanvar holatiga Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy (6301,2 ming so'm), Toshkent (2150,9 ming so'm) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (1753,2 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (942,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.³⁴

2021-yilning 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda qayta saylangan mamlakat rahbari tomonidan kelgusi besh yil uchun eng asosiy ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ilgari surildi.

Prezident taqdim etgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat bo'lib, u besh yil avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning doirasida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli islohotlarning uzviy davomi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining **uchinchi yo'nalishi — milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish** bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni Harakatlar strategiyasining **iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari** doirasida boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida baholash mumkin. O'z o'rnida shuni ham aytish joizki, samarali amalga oshirilgan islohotlar navbatdagi muvaffaqiyat garovidir.

³³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

³⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Asosiy maqsad — aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish. 2022–2026-yillardagi ustuvor vazifa sifatida aynan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish ko‘zda tutilganligida ham o‘ziga xos ma‘no bor.

O‘tgan besh yil, ya‘ni 2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida **sanoatning yetakchi tarmoqlari (to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar) ni rivojlantirish** strategiyalari qabul qilindi.

Shuningdek, **qishloq xo‘jaligida erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini** joriy etish, xususan, paxta va g‘alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirildi.

O‘z navbatida, hududlarning iqtisodiy potensialini ko‘paytirish maqsadida **erkin iqtisodiy zonalar** tashkil etildi, ularga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun tegishli imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi.

Yetakchi tarmoqlarga ixtisoslashgan **kichik sanoat zonalari** bunyod qilinib, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur infratuzilmalar yaratildi. Yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan innovatsion texnoparklar tashkil etilib, ularda zamonaviy ilm-fan yutuqlari orqali yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda **turizm sohasini tubdan isloh qilish** orqali sayyohlik infratuzilmasi rivojlantirildi, sayyohlik xizmatlari tarkibi (ziyosat turizmi, tibbiy turizm, kino turizmi va h.k.)ning yana ham kengaytirilishi natijasida mamlakatning sayyohlik potentsiali yildan-yilga yuksalib bormoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026-yillarda yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan yo‘nalishlarda hayotga tatbiq etilgan islohotlarni samarali davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, **aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish**, 2030-yilga borib esa aholi jon boshiga hisoblaganda, O‘zbekistonning aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishi maqsad qilingan.

Bunga esa, o‘z navbatida, **xususiy sektorni rag‘batlantirish** va uning ulushini oshirish, **to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb**


etish hamda **drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish** orqali erishish koʻzda tutilgan.

Oʻz oʻrnida aytish lozimki, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning samarali va jadal rivojlanishi mamlakatdagi YaIM hajmining ortishiga, yaʼni aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmining koʻpayishiga olib keladi. 2021-yilda YaIMning nominal hajmi 734,6 trln. soʻmni yoki 69,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, qishloq hoʻjaligi YaIMning 25,0 foizini yoki 183,5 trln. soʻmni, xizmatlar 35,7 foizini yoki 262,5 trln. soʻmni, sanoat 25,8 foizini yoki 189,6 trln. soʻmni, qurilish 6,2 foizini yoki 45,8 trln. soʻmni va eksport import mahsulotlariga sof soliqlar 7,2 foizini yoki 53,2 trln. soʻmni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2021-yilda 451,6 trln. soʻmni tashkil qildi va oʻtgan yilga nisbatan 8,7 foizga oshdi. Shundan 42,9 trln. soʻm togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari (oʻsish 10,7 foiz), 375,0 trln. soʻm ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari (8,2 foiz), 30,8 trln. soʻm elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash mahsulotlari (13,0 foiz) va 2,9 trln. soʻm suv bilan taʼminlash mahsulotlariga (-17,7 foiz) toʻgʻri keladi. Bunda, umumiy sanoat mahsulotlarining togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari 9,5 foizini, sanoat ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari 83,0 foizni, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash mahsulotlari 6,8 foizni va suv bilan taʼminlash mahsulotlari 0,7 foizini tashkil qiladi.


Ishlab chiqaradigan sanoatning tarmoqlari kesimida oziq-ovqat, toʻqimachilik, kimyo mahsulotlari, avtotransport vositalari ishlab chiqarish va metallurgiya sanoati tarmoqlariga eng yuqori ulushlar toʻgʻri keladi. Xususan, 2021-yilda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 5,3 foizga koʻpayib, 51,1 trln. soʻmni, toʻqimachilik mahsulotlari 19,1 foizga oshib, 51,5 trln. soʻmni, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 5,7 foizga oʻsib, 27,6 trln. soʻmni, metallurgiya sanoati 8,1 foizga koʻpayib, 96,5 trln. soʻmni va avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 5,7 foizga qisqarib 32,0 trln. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar oyida respublika korxonalari tomonidan 32,9 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,5 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,0 % ni tashkil etdi (6.2-rasm).



6.2-rasm. 2022-yilning yanvar oyida respublika korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari


2022- yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko'ra sanoat tarmog'ini qo'shilgan qiymatida 5,3 % ga o'sish kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 5,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining 14,7 % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi (6.3-rasm).



6.3-rasm. 2018-2022 yillarda sanoat tarmogining yalpi qo'shilgan qiymat hajmi, mird.so'm

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash bo'yicha islohotlar bevosita davlat, milliy

korporatsiyalar, kompaniyalar, korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobidan hamda AQShning “Jeneral Motors”, Germaniyaning “MAN”, “Klaas”, Buyuk Britaniyaning “BAT”, Yaponiyaning “Isuzu”, Janubiy Koreyaning “Korean Eyr”, “LG”, Rossiyaning “Lukoyl”, “Gazprom” kabi kompaniyalari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi yirik xalqaro moliya tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.



6.4-rasm. 2018-2022 yillarda sanoat tarmogining yalpi qo‘shilgan qiymati dinamikasi

Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ushbu jarayonlarga investitsiyalarni jalb etish kabi yo‘nalishlarga oid huquqiy hujjatlar, xususan, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi, “Chet-el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet-ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi, “Investitsiya

faoliyati to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, so'nggi yillarda hukumat tomonidan har yili investitsiya dasturi va ushbu jarayonlarni jadallashtirishga oid qonuniy-me'yoriy hujjatlar qabul qilib kelinmoqda.

Yuqoridagi ijobiy natijalar bilan bir qatorda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga e'tibor qaratilishiga sabab bo'layotgan quyidagi muammolar mavjud:

- strategik ahamiyatga ega tarmoq korxonalarida ma'naviy eskirgan va yeyilgan texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning salmog'i yuqoriligi;

- sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayoniga energiya va resurs tejoychi texnika va texnologiyalarni joriy qilish darajasining nisbatan pastligi;

- korxonalarda texnologik jarayonlarni boshqarish va audit qilishning zamonaviy tizimi to'liq tashkil etilmaganligi;

- ichki va tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi sharoitida sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini pasaytirish va uni boshqarishning ilg'or tizimi to'liq darajada joriy etilmaganligi va boshqalar.

Yuqoridagilar inobatga olinib, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni bosqichma-bosqich amalga oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yuqori texnologik sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, ushbu jarayonlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 2015-yil 4-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Unga asosan, tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

- elektroenergetika sanoatida yangi quvvatlarni tashkil qilish va mavjudlarini izchillik bilan modernizatsiya qilish;

- neft-gaz va neft-kimyosanoatida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va assortimentlarini kengaytirish;

- kimyo sanoatida ishlab chiqarish va eksportni diversifikatsiya qilish;

- qishloq xo‘jaligi, yuk avtomobillari va butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi mavjud quvvatlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish;
- tekstil va charm-poyabzal sanoati mahsulot tarkibini yaxshilash;
- elektrotexnik asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori texnologik quvvatlarni o‘zlashtirish va rivojlantirish;
- informatsion texnologiyalar uchun asbob-uskunalar va aksessuarlar ishlab chiqarish bo‘yicha yangi quvvatlarni tashkil qilish;
- keng ko‘lamli ekologik toza qurilish materiallarini ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- farmasevtika sanoati mahsulotlari assortimenti va ishlab chiqarish hajmlarini tubdan kengaytirish;
- oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish.

Yuqorida keltirilgan sanoat tarmoqlarida yangi quvvatlarni tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish uchun katta miqdorda investitsiyalar kiritiladi. Jumladan, 2015-2020 yillar mobaynida yangi quvvatlarni yaratish uchun jami 13 676,9 mln. AQSh dollari, shuningdek, modernizatsiya uchun 4 487,0 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan. Ushbu mablag‘larning katta qismi, asosan, yangi qurilishga sarflanishiga ustuvorlik berilgan. Jumladan, 2015-2019-yillarda yo‘naltirilishi rejalashtirilayotgan jami investitsiyalarning 79,4 foizi, chet-el investitsiyalari va kreditlarning esa 85,8 foizi yangi qurilishga sarflanadi.

Sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishga katta hajmda investitsiyalarning kiritilishi va davlat tomonidan korxonalariga soliq, boj va boshqa imtiyozlarning berilishi hisobiga O‘zbekiston sanoatida sifat jihatdan o‘zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, 2016-2019-yillar mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur‘ati yiliga 9 foizdan yuqori bo‘lishi ta‘minlanadi.

Istiqbolda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

- sanoat tarmoqlari korxonalarining texnologik jarayonlarini doimiy tanqidiy audit qilib borish;
- sanoat korxonalari tomonidan olib kelinayotgan asbob-uskunalar, texnika va texnologiyalarning sifati va texnik parametrlarini qat‘iy nazorat qilish;
- sanoat tarmoqlarining har bir sohasiga tegishli asbob-uskunalar, texnika va texnologiyalarning ilg‘or modellari bo‘yicha axborot bazasini tashkil etish va korxonalariga undan foydalanish huquqini berish;

-innovatsiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar va bank kreditlari ta'sirchanligini oshirish;

-sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni moliyalashtirish tizimini yanada soddalashtirish;

-tarmoqlarning eksport salohiyatidan keng foydalanish va jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;

-sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirish jarayonlarini iqtisodiy rag'batlantirish va boshqalar.


Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan inqiroz va turli salbiy tendensiyalarga qaramay, O'zbekistonda olib borilayotgan izchil siyosat evaziga ijobiy natijalarga erishilmoqda, iqtisodiyotimiz tarmoqlarida jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda. Ushbu omillar, birinchi galda, xalqimiz turmush farovonligining yuksalishiga va mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqei mustahkamlanishiga olib keladi va iqtisodiyotda barqaror o'sish darajasini ta'minlaydi.

O'zbekistonda sanoatning rivojlanishi: 2021-yil yakunlari va istiqbollari³⁵

Har qanday davlatning uzoq muddatli farovonligi asosida uning ishlab chiqarish quvvatlari yotadi. Shu ma'noda, sanoat (ishlab chiqarish) sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida ham katta o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda sanoat orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 28%i yaratilib, iqtisodiy faol aholining 23,5%ini ish bilan ta'minlaydi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik jihatdan yangilash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish YaIMdagi ulushini sezilarli darajada o'sishiga olib keldi. Sanoatning YaIMdagi ulushi 2016-yildagi 19,5%dan 2021-yilda 28,0%ga yetdi. Xususan, joriy yilda sanoatning real o'sish suratlari o'tgan yillarga nisbatan eng baland – 9,5%ni tashkil etishi kutilmoqda. Natijada, sanoatning YaIMdagi ulushi pandemiyadan avvalgi ko'rsatkichga qaytadi. Shuningdek, joriy yilda iqtisodiy o'sishning uchdan bir qismi (2,3%) aynan sanoatning hissasiga to'g'ri keladi va bu xizmatlar sohasidan so'ng eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi (6.5-rasm).

³⁵ <https://review.uz/oz/post/promshlennoe-razvitie-uzbekistana-itogi-2021-goda-i-perspektiv-na-2022-god>



6.5-rasm. 2016-2022-yillarda sanoatning YaIMdagi ulushining o'zgarishi va o'sish surati

Hududlar kesimida hududiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning eng yuqori surati Surxondaryoda (26,8%), Xorazmda (24,9%), Buxoroda (25%), Jizzaxda (21,2%) va Namanganda (20,4%) kutilayotgan bo'lsa, o'sish surati Farg'onada (3,9%), Toshkent viloyatida (1%) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (0,8%) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past hisoblanadi.

Sanoat sohasida o'sish sur'atlari asosan:

- qayta ishlash sanoatida to'qimachilik mahsulotlarining – **21,2 foizga**;

- kiyim ishlab chiqarish – **17 foizga**,

- farmasevtika mahsulotlari – **20 foizga**,

- kompyuter va elektron mahsulotlar – **24 foizga**,

- metallurgiya – **10 foizga**,

- elektr va issiqlik energiyasi – **12 foizga**

- boshqa transport uskunalarni ishlab chiqarish hajmining – **21,5 foizga**;

- tog'-kon sohasida ko'mir qazib olishning – **15,7 foizga**,

tabiiy gaz va neft qazib olishning – **14,5 foizga**,

metall rudalar qazib olishning – **14 foizga** o'sishi orqali erishildi.




6.6-rasm. Tarmoqlar tasarrufidagi korxonalarda ishlab chiqarishning o'sishi (% da)

Prezidentning 2021-yilga mo'ljallangan Parlamentga Murojaatnomasida bir qator sohalar bilan birga to'qimachilik va elektrotexnika sanoati milliy iqtisodiyotning "drayveri"ga aylanishi kerak bo'lgan tarmoqlar sifatida belgilangan. 2021-yilda mazkur sohalarda qanday natijalarga erishildi? **To'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ining rivojlanishi.** To'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Pandemiya bilan bog'liq ichki va tashqi xatarlarga qaramay hukumat tomonidan o'z vaqtida qabul qilingan qarorlar natijasida o'tgan ikki yilda mamlakatimizda sohada nafaqat ishlab chiqarish va eksport hajmining pasayishi oldi olindi, balki o'tgan yillarga nisbatan yuqori o'sish suratlarga erishildi. Covid-19 bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramay 2020-yilda sohaning o'sish surati 12%ni tashkil etdi. 2021-yilda esa ishlab chiqarish surati jadallashib, o'sish ko'rsatkichi

to‘qimachilik mahsulotlarida 21,2%ga va kiyim ishlab chiqarishda 17%ga yetdi. So‘nggi yillarda to‘qimachilik sanoatini eksportga yo‘naltirish siyosati va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligining o‘shishi uning sanoatimizning asosiy drayver sohalardan biri bo‘lishiga imkon yaratdi. Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati ip-kalavadan tortib tayyor tikuv va trikotaj mahsulotlarigacha eksportni yo‘lga qo‘yishga erisha oldi (6.7-rasm).

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining eksport salohiyati ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, mazkur sohaning jami ishlab chiqarish tarmoqlari eksportidagi ulushi 2017-yilda 25,7%dan, 2020-yilga kelib 45,5%ga yetdi. 2021-yilda trikotaj mahsulotlari eksporti hajmi o‘tgan yilga nisbatan 1,5 baravardan ziyodga ko‘payib, 2,9 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda. 2016-yilga solishtirganda bu ko‘rsatkich 4,3 baravar ko‘pdir. Shuningdek, sohaning jami eksportdagi ulushi ham muttasil ortib bormoqda – 2016-yilda mazkur sohaga jami eksportning 7,4 foizi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 18,8%ga yetadi.



6.7-rasm. 2016-2021-yillarda to‘qimachilik mahsulotlari eksporti (mln dollarda)

“GSP +” tizimi O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati uchun nima beradi?

Eksport bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni va eksport qilinuvchi davlatlar geografiyasi ham ortmoqda. Bunda joriy yilning aprel oyidan boshlab Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo‘yicha maxsus preferensiyalar tizimining (GSP+) O‘zbekiston uchun kuchga kirishini alohida ta‘kidlash kerak. Bu tizim orqali Yevropa bozoriga kirishda mato, kiyim-kechak va plastik mahsulotlar kabi bir

qator muhim eksport tovarlariga tariflar bekor qilinmoqda. O'zbekistonning GSP+ tizimiga qo'shilishi mahalliy to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirib, 300 mlrd.dollarlik Yevropa bozoriga kirishini yengillashtiradi. GSP+ imtiyozli savdo rejimi ostida dastlabki bosqichda to'qimachilik mahsulotlarining kutilayotgan eksport hajmi 300 mln. dollarni tashkil etib, keyinchalik 2025-yilga kelib 1,2 mlrd. dollarga ko'payishi kutilmoqda. Muvaffaqiyat zaminida yaqin o'tgan 5 yilda boshlangan islohotlar yotibdi. Sohaga yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy etish maqsadida 2017-yilda tajriba tariqasida birinchi paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etildi. Dastlabki yilda yagona bo'lgan paxta-to'qimachilik klasteri tomonidan jami yetishtirilgan paxta xom-ashyosining 0,9%i qayta ishlangan bo'lsa, 2018-yilga kelib klasterlar soni 15 taga yetib, ular tomondan qayta ishlangan xom-ashyo ulushi 15,1%ga yetdi. 2021-yilga kelib esa bunday klasterlar soni 122 tani, qayta ishlangan paxta tolasi ulushi esa 100%ni tashkil etmoqda.

To'qimachilik va kiyim-kechak sanoatining jadal rivojlanishi so'nngi yillarda sohaga yangi texnologiyalarni joriy etish bilan ham bevosita bog'liq. **Jumladan:**

- hosildorlikni oshirish maqsadida klasterlar tomonidan 14 mingdan ziyod unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi mashinalari, shu jumladan 660 dan ortiq paxta terish mashinalari sotib olindi;

- paxta-to'qimachilik klasterlariga tegishli yerlarda loyiha qiymati 320 mln. dollar bo'lgan tomchilab sug'orish tizimini joriy etishning kuchayishi;

- sertifikatsiyalash tizimining kiritilishi va mahsulot sifatining ko'tarilishi. 1300 dan ortiq to'qimachilik korxonalarida ISO, BSCI, OEKOTEX, GOT kabi xalqaro standartlar joriy etildi. Bularning soni 2022-yilda 1650 taga yetadi.

Elektrotexnika sanoati korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijalari

Elektrotexnika sanoatini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, yangi turdagi zamonaviy elektr va elektrotexnika maishiy mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, sohaning investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning mart oyida Prezidentning "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan elektrotexnika sanoatining 2021-2022-yillarga mo'ljallangan quyidagi maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi:

- mis xom-ashyosini chuqur qayta ishlash hajmini 2021-yilda 55 ming tonnaga, 2022-yilda 70 ming tonnaga yetkazish;
- 2021-yilda tarmoq ishlab chiqarish hajmini 15 trln so'mga, 2022-yilda 19 trln so'mga yetkazish;
- 2021-yilda 450 mln. dollarlik, 2022-yilda 600 mln. dollarlik mahsulot eksporti hajmini ta'minlash;
- tarmoqdagi ish o'rinlari sonini 2021-yilda 27 mingga, 2022-yilda 34 mingga yetkazish.

Shuningdek, qaror bilan 2021-2022-yillarda elektrotexnika sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish dasturi tasdiqlandi. Dasturga kiritilgan 136 ta loyihani amalga oshirish uchun investitsiyalar hajmi 531,9 mln. dollarni tashkil etadi, shundan loyiha tashabbuskorining mablag'lari 169,5 mln. dollar (31%), bank kreditlari 228,2 mln. dollar (43%) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 137,7 mln. dollarni (26%) tashkil etadi. Loyihalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha 9,7 ming yangi ish o'rinlari yaratiladi. Elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar "O'zeltexsanoat" uyushmasiga birlashgan bo'lib, uning tarkibida 15 ta kabel-sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, 40 ta maishiy elektrotexnika buyumlari ishlab chiqaruvchi va 31 ta elektr energetika uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

2021-yilning 11 oyligi yakunlariga ko'ra "O'zeltexsanoat" uyushmasi korxonalari quyidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishdi:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi 14,74 trln. so'mni tashkil etib, yillik o'sish surati 120,5%ni tashkil etdi. Yil yakuniga qadar ishlab chiqarish hajmi 16,7 trln.so'mga yetishi kutilmoqda;
- eksport hajmi 1,8 baravar o'sib, 509,2 mln.dollarni tashkil etdi. Yillik ko'rsatkich 550,4 mln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda;
- o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 112,5 mln. dollarni, shundan 65,6 mln. dollarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar tashkil etadi. 2021-yilning yakuniga kelib bu ko'rsatkich 142,7 mln. dollarni tashkil etadi.

"2021-2022-yillarda elektrotexnika sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish dasturi" doirasida 2021-yilda 45 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lsa, shu kunga qadar ularning 44 tasi amalga

oshirilgan. Mis xomashyosini qayta ishlash hajmi 48,9 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga qadar bu ko'rsatkichni 55 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Sanoat rivojlanishining istiqbollari

2022-yilda ham **sanoat** mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yuqori suratlarni saqlab qolishi prognoz qilinmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 2022-yilda sanoat **7%ga** o'sib, **525,6 trln. so'mlik** mahsulotlar ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Mazkur o'sish nimaning hisobiga erishiladi? Sanoat tarmoqlari kesimida qanday yirik loyihalar ishga tushishi rejalashtirilgan? Qanday yangi mahsulotlar o'zlashtiriladi?

Elektrotexnika sanoati

2022-yilda ham ushbu sohada yuqori o'sish suratlari saqlanib qoladi. Xususan, ishlab chiqarish hajmi 13,9%, eksport hajmi 9%ga ko'payishi prognoz qilinmoqda.

2022-yil uchun Dasturga muvofiq umumiy summasi 393,8 mln. dollarga teng bo'lgan 91 ta investitsiya loyihasi ishga tushishi rejalashtirilgan. **Mazkur loyihalarni amalga oshirish natijasida:**

- mis xom ashyosini chuqur qayta ishlash hajmini 70 ming tonnaga yetkazish;

- mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 19 trln. so'mgacha oshirish;

- mahsulotlar eksporti hajmini 600 mln.dollarga yetkazish;

- tarmoqdagi ish o'rinlari sonini 34 mingtaga yetkazish ko'zda tutilgan.

Kelgusi yilda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yirik loyihalar safiga quyidagilar kiradi:

- "Central Asia Motors" kompaniyasi tomonidan elektr avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan umumiy qiymati 68 mln.dollar bo'lgan loyiha (Angren shahrida);

- "Premier Electrotech" kompaniyasi tomonidan yillik quvvati 330 ming dona bo'lgan muzlatgich va kir yuvish mashinalarini ishlab chiqish loyihasi (Angren shahri);

- "Camel M-Arash" kompaniyasi tomonidan yillik quvvati 550 ming dona bo'lgan akkumulyatorlar ishlab chiqish loyihasi (Angren shahri);

- "Texnopark" kompaniyasi tomonidan yillik quvvati 15 ming tonna bo'lgan konditsioner tizimi va muzlatgich uskunalari uchun mis trubalarini ishlab chiqish loyihasi (Yashnobod tumani);

- “ITT-Group” kompaniyasi tomonidan yillik quvvati 5 ming tonna bo‘lgan mis trubalarini ishlab chiqish loyihasi (Qarshi shahri);
- “Vodiy Shuz” kompaniyasi tomonidan yillik quvvati 118 ming km. bo‘lgan kabellar ishlab chiqish loyihasi (Farg‘ona tumani);
- “UZEL Electronics” kompaniyasi tomonidan yillik quvvati 125 ming dona bo‘lgan maishiy texnikalar ishlab chiqish loyihasi (Urgut tumani);
- “Andijon saxovati” va “Uraland” kompaniyalari tomonidan yillik quvvati 20 mln. metr va 330 ming km. bo‘lgan tomchilab sug‘orish texnologiyasi uskunalari ishlab chiqish loyihasi (Andijon tumani).

Avtomobilsozlik sanoati

Avtomobilsozlik sanoatida 2022-yil burilish yili bo‘lishi kutilmoqda. Kelgusi yilda sohani transformatsiya qilishning 1-bosqichi yakunlanib, 2-bosqichiga qadam qo‘yiladi. E‘tiborlisi, 2-bosqichda “General Motors” kompaniyasi tomonidan yangi modellarni bozorga olib chiqish ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda, 2022-yilda qiymati 427,6 mln.dollar bo‘lgan 190 ming yangi yengil avtomobillar – Chevrolet Tracker, Chevrolet Onix - ishlab chiqarish imkonini beruvchi loyiha o‘zlashtirilishi kutilmoqda. Shuningdek, 190 ming dona yangi dvigatel “CSS PRIME” ishlab chiqarishga mo‘ljallangan loyiha ham ishga tushadi. Shu bilan birga 2022-2023-yillarda avtomobilsozlik sohasida bir qator yangi maxsulotlar o‘zlashtiriladi. Bular tarkibiga alyumin diskalar, plastik benzobaklar, rul chambaraklari, rezina zichlovchi mahsulotlar va payvandlash simlari kabilar kiradi.

Kimyo sanoati

2016–2020-yillar uchun O‘zbekiston kimyo sanoatining sharhi
2022-yilda kimyo sanoatini transformatsiya qilish “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga muvofiq davom ettiriladi.

Keyingi yillarda sanoat ishlab chiqarishining o‘shishi yangi quvvatlarni joriy etish (*kaliy sulfat, melamin, avtobus va yuk mashinalari shinalari, kolaksilin, piroksilin, kord matolari va shtapel tolalari*), mavjud quvvatlardan foydalanishni oshirish (*kalsinatsiyalangan soda, azotli va fosforli o‘g‘itlar, PVX, natriy sianidi,*

tiamochevina, kaustik soda, KMS), shuningdek «Navoiyazot» AJ ishlab chiqarish negizida yangi klaster barpo etish hisobiga ta'minlanadi.

Sohani transformatsiya qilish rejalari qatorida 2022-yilda Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda "O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish hamda "Farg'onaazot" AJ va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJni xususiylashtirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, kelgusi yilda "Navoiyazot" AJ va unga tutash hududlar negizida kimyo texnologik klasteri faoliyatini yo'lga qo'yish hamda kimyo sanoatini transformatsiya qilish va 2035-yilgacha kimyo, gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirish dasturi qabul qilinadi³⁶.

6.3. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni

"Mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat ob'ekti ishga tushirildi. Bu biz uchun kelgusi yilda qo'shimcha 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasi barpo etildi. Bu esa qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug'-gaz qurilmasi, Qizilqum bag'ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Hozirgi vaqtda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Yoshlik – 1", "Yoshlik – 2" konlarini o'zlashtirishga kirishildi. Sardoba, Markaziy Farg'ona va To'palang suv omborlarini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Bu yirik inshootlar ham, hech shubhasiz, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim voqea bo'ladi.

Farg'ona – Marg'ilon yo'nalishidagi temir yo'l tarmog'i ayni paytda elektrlashtirilmoqda. Yana bir yirik ob'ekt – Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018-yilda qo'shimcha ravishda 4 milliard 100 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi. O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to'liq faoliyat boshlaydi. Shular qatorida "O'zagrotex-sanoatxolding" aksiyadorlik jamiyatida yangi yilda

³⁶ <https://review.uz/oz/post/promshlennoe-razvitie-uzbekistana-itogi-2021-goda-i-perspektiv-na-2022-god>

5 mingdan ko‘proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq pritseplar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.”³⁷ Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiyot tarmoqlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyot va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqishni diversifikatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish omili yotadi. Mamlakatimizda sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni va innovatsion texnologiyalarni keng ko‘lamda joriy etishga katta e’tibor qaratilib, sanoat tarmoqlarini izchil rivojlantirishga erishilmoqda.

Keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekiston sanoatini jadal rivojlantirish borasida quyidagi salmoqli natijalarga erishildi:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda keskin pasayishlarga yo‘l qo‘yilmadi;

– yirik sanoat korxonalari hisobidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi saqlab qolindi;

– strategik muhim tarmoqlar, birinchi navbatda, yoqilg‘i-energetika majmuasini qo‘llab-quvvatlash natijasida so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish ta‘minlanmoqda.

Natijada sanoat tarmoqlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 2002 yilda YaIMda sanoatning ulushi 14,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2016 yilga kelib 24,1 foizga yetdi, ya‘ni 9,9 punktga o‘sdı. Milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash, uning o‘sish sur‘atlarini jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko‘tarish, turli siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, jahon bozori kon‘yukturasidagi tebranishlar, inqirozlarga ta‘sirchanlikni kamaytirish, mustaqil rivojlanish salohiyati aynan turli tarmoqlardagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog‘liq. Ayni vaqtda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi o‘zgarishlarga chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Xo‘sh, modernizatsiya nima? “Modernizatsiya – ishlab chiqarishning tayyorlanayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan texnologik yangilanishi jarayonidir. U korxonalarining texnologik qoldig‘ini bartaraf etish vositasi bo‘lib, mehnat, moddiy va xomashyo resurslaridan samarali foydalanishga keskin ta‘sir ko‘rsatadi. Modernizatsiya, texnik va

³⁷ “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi”, Toshkent-2017-y.

texnologik yangilanish natijalari yuqori texnologik raqobatbardosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi”.

Mamlakatimiz sanoat korxonalarini modernizatsiya qilishda 2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi dastur hamda 2015-2020 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlarning asosiy maqsadi respublikada ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash, sanoatning yuqori texnologik tarmog‘ini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o‘stirishga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirishdan iborat.

Dasturda yangi korxonalarni tashkil etish, faoliyat yuritayotganlarini innovatsion texnik-texnologik jihatdan modernizatsiya va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirish, shu asosda diversifikatsiyalashuv darajasi oshib borishini ta‘minlash belgilangan. Jumladan, ushbu dastur doirasida jami qiymati 38 milliard dollarga teng bo‘lgan 870 ta yirik investitsiya loyihasi bajarilib, 415 ta yangi korxonalar barpo etish hamda ishlab turgan 455 ta korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash nazarda tutilmoqda.

Ushbu investitsion loyihalar, asosan, tog‘-metallurgiya, neft-gaz, yengil, oziq-ovqat va kimyo tarmoqlariga tegishli bo‘lib, unda yangi korxonalar tashkil etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, kengaytirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish asosida raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi mahalliy hamda sifatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va unda iste‘mol tovarlarini tayyorlash o‘zlashtirilishi belgilangan.

Keyingi yillarda mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdagi ulushini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soladigan 50 dan ortiq huquqiy hujjat qabul qilindi. Jumladan, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi, “Chet-el investitsiyalari to‘g‘risida”gi,

“Chet-ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi, “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar ayni shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Bu boradagi sa‘y-harakatlar natijasida oxirgi yillarda yurtimiz kimyo sanoatida yirik investitsion loyihalar amalga oshirdi. Yiliga 100 ming tonna mahsulot ishlab chiqaradigan Qo‘ng‘irot soda zavodi, 200 ming tonnadan ortiq yillik quvvatga ega Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi kabi yirik korxonalar ishga tushirildi. “Maksam-Chirchiq” va “Farg‘onaazot” korxonalari modernizatsiya qilinishi natijasida karbamid ishlab chiqarish hajmi yanada oshdi.

Kimyo sanoati korxonalari boshqa sanoat korxonalariga nisbatan tezroq yemirilishga uchraydi. Bunga sabab sohada foydalaniladigan xomashyo va texnologik jarayonlardir. Bu korxonalarda texnika va texnologiyalarning yaroqlilik muddati 15-20 yilni tashkil etadi. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan ko‘pgina kimyo sanoati korxonalari bu muddatni o‘tab bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, hukumat qarorlari asosida “Maksam-Chirchiq” AJ (2009-2012-yillar), “Farg‘onaazot” AJda karbamid ishlab chiqarish jarayoni (2011-yil) rekonstruksiya va modernizatsiya qilindi. Buning natijasida ishlab chiqarish quvvati 2007-yildagi 72,2% dan 2015-yilda 80,4% ga, karbamid ishlab chiqarish 71,7% dan 85,6% ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

Ammo bu choralar jahon bozorida mahsulotlarimiz raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga yetarlicha imkoniyat bermaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kimyo sanoati mahsulotlari quvvat va resurs sig‘imi yuqori hisoblanadi. Mamlakatimizda energiya resurslari bahosi jahon narxlariga nisbatan ancha past bo‘lishiga qaramay, kimyo sanoati korxonalari mahsuloti zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar bilan raqobatlasha olmaydi. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi tahlili ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi: xomashyo va materiallar xarajatlari 42,4%, yoqilg‘i va energiya xarajatlari 30,2%, mehnatga doir xarajatlar 3,2%, amortizatsiya ajratmalari 3,9% va boshqa sarf-xarajatlar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash vazifalarini umumiy ko‘rinishda quyidagicha ajratish mumkin:

– zamonaviy va ilgʻor texnologiyalarni joriy qilish yordamida strategik muhim tarmoqlarning texnik va texnologik qoloqligini minimallashtirish;

– uzoq muddatli modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash boʻyicha loyihalarni amalga oshirishga qodir investitsiya muhitini shakllantirish;

– tarmoqlar oʻrtasida raqobatni kuchaytirishga asos boʻluvchi iqtisodiyotning tashkiliy-funksional boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish;

– kooperatsiya birjalari va innovatsion yarmarkalarni tashkil etish orqali sanoat tarmoqlarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini yanada jadallashtirish;

– ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) hamda amaliy tadqiqotlarni buyurtma va grant shaklida davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni takomillashtirish va boshqalar.

Shularni inobatga olgan holda mamlakatimizda kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

– maqsadli davlat va hududiy dasturlarni amalga oshirish;

– kimyo sanoatini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar va bank kreditlari taʼsirchanligini oshirish;

– infratuzilmani shakllantirish (suv, gaz, elektr energiyasi, transport va boshqalar);

– ishlab chiqariladigan mahsulotlar eksporti koʻlamini kengaytirish.

6.4. Sanoatga qulay investitsiya muhitining yaratilganligi holati

Bugungi kunda mamlakatimiz yoqilgʻi-energetika sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro kooperatsiyani rivojlantirish bilan yangi ishlab chiqarish turlarini yaratish, xorijiy hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga juda katta eʼtibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz yoqilgʻi sanoati barcha turdagi yoqilgʻini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish hamda neft mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarini oʻz ichiga qamrab oladi. Yoqilgʻi sanoatining yirik korxonalarini respublikamizning Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Mamlakatimizda yoqilgʻi sanoati rivojlanganlik darajasining yuqori koʻrsatkichlari Qashqadaryo (viloyat jami sanoat mahsulotining

62 %), Fargʻona (40 %) va Buxoro (40 %) viloyatlariga toʻgʻri keladi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda yoqilgʻi sanoati mahsulot ishlab chiqarishini boshqa tarmoqlarga nisbatan tezroq oʻstirish talab etiladi. Hozirgi kunda bozor munosabatlariga oʻtish sharoitida mamlakatimiz neft, gaz va neftni qayta ishlash sanoati tarmoqlarining samarali ishlashini va yanada rivojlanishini taʼminlash, tarkibiy boʻlinmalarning tashabbusi va mustaqilligini kengaytirish hamda isteʼmolchilarni neft, neft mahsulotlari va gaz bilan puxta taʼminlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, neft, neftni qayta ishlash va gaz sanoatida xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik kengaytirilib, oʻzaro foydali tashqi iqtisodiy, savdo va ilmiy texnikaviy aloqalar rivojlantirilmoqda. Shuningdek, tarmoq korxonalarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va texnika bilan qayta jihozlash, tarmoqda ilgʻor texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz yoqilgʻi sanoatida yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilib, tarmoqning eksport salohiyati oshib bormoqda. Tarmoqda chet-ellik investorlar bilan hamkorlikda yangi majmualarni qurish va mavjud majmualarni modernizatsiya qilish boʻyicha investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz yoqilgʻi sanoatida xorijiy investorlar eʼtiborini jalb qilish vositasida Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan qoʻshma korxonalar sonini yanada koʻpaytirishga eʼtibor qaratilib, oʻzimizda faol ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻygan mahalliy investorlar koʻmagiga tayangan holda yangi korxonalar tashkil etilmoqda. Yoqilgʻi sanoatida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash mehnat unumdorligi 2–3 barobarga oshishini taʼminlamoqda. Mehnat unumdorligining yuqori boʻlishi esa tarmoqda faoliyat yuritayotgan ishchilar daromadlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bundan tashqari tarmoqning moddiy texnik bazasini yaxshilash, tarmoq korxonalarini eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda eng zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish natijasida tarmoqda asosiy fondlar qiymatining oshib borishiga olib kelmoqda. Bularning barchasi yoqilgʻi sanoati korxonalariga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida kiritilayotgan mahalliy va xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshmoqda. Mamlakatimiz yoqilgʻi sanoatining eksport salohiyatini oshirish, tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yanada koʻpaytirish, yangi texnika va texnologiyani joriy etish hisobiga jahon bozorida raqobatlasha oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, yoqilgʻi resurslarini qazib olish va qayta

ishlashning samarali tizimini joriy qilish dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalarning ahamiyatini tobora oshirmoqda

Mamlakatimiz yoqilg‘i sanoatiga kiritilgan investitsiyalar mamlakatimizda keyingi yillarda nafaqat yoqilg‘i sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish sur‘atlarini tezlashtirishga, balki mamlakatimiz hududlarida yangidan-yangi sanoat majmualarining tashkil topishiga, yangidan-yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga hamda aholi jon boshiga yoqilg‘i sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz sanoatining boshqa tarmoqlariga nisbatan tez rivojlanib borayotgan yoqilg‘i sanoatida investitsion jozibadorlik ortib bormoqda. Mamlakatimiz yoqilg‘i sanoatiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining ortib borishi natijasida tarmoqning ishlab chiqarish darajasi va samaradorligi o‘sishi ta‘minlanmoqda. Tarmoq ishlab chiqarish darajasi yuqori bo‘lishi mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoat va boshqa sohalarning rivojlanishiga, respublikamiz sanoat salohiyatining kuchayishiga hamda aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga olib keladi. Yoqilg‘i sanoati korxonalarining faoliyat yuritishi sharoitlarini yanada takomillashtirish, tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalarni samarali qayta taqsimlash, mamlakat yoqilg‘i sanoatini rivojlantirishning ichki manbalarini va zaxiralarini faollashtirishga qodir qayta ishlash tizimini tashkil etish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Yoqilg‘i sanoati mahsulotlarini ko‘plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xomashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish, shuningdek tarmoq qayta ishlash majmualarini rivojlantirish nafaqat yoqilg‘i sanoati ishlab chiqarishining rivojlanishiga, balki O‘zbekistonning dunyo bozoriga jadal kirib borishini ta‘minlaydi.

2017 — 2021-yillarda past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash dasturiga muvofiq, 2017-yilda 5,1 ming km elektr tarmoqlarini, 1040 ta transformator punktini qurish va rekonstruksiya qilish. Ko‘mir mahsulotlarini sotish infratuzilmasini quyidagi yo‘llar bilan yanada rivojlantirish: “O‘zbekko‘mir” AJ distribyutorlik markazlarining 84-ta ko‘mir saqlash maskanlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash; Har bir ko‘mir saqlash omborida briketlar miqdorini yiliga 880 ming tonna chiqarish imkonini beruvchi 84 dona ko‘mirni briketlash uskunalari ishga tushirish; ko‘mir konlarini ochish va qazib olishning zamonaviy texnologiyalarini joriy

etish hisobiga ko‘mir qazib olishni 2022-yilga kelib 11,67 mln. tonnagacha ko‘paytirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish.

Yangi kichik sanoat zonalarini tashkil etish va faoliyat yuritayotganlarining samaradorligini oshirish maqsadida: kichik sanoat zonolari ishtirokchilarining zaruriy muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish holatini tanqidiy o‘rgangan holda tegishli chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash; kichik sanoat zonalariga ularning ixtisoslashuvi, hududning resurs salohiyatini inobatga olgan holda, ishlab chiqarishning to‘liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub‘ektlarini joylashtirish; investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish va ishtirokchilarga yuklatilgan majburiyatlarning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring olib borish; kichik sanoat zonolari hududida yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish.

Tarmoqlar va xo‘jalik birlashmalari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda, birinchi navbatda, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda yangi loyihalarni ishlab chiqish: yengil sanoatda 85 ta, charpoyabzal sohasida 31 ta, qurilish materiallari ishlab chiqarishda 16 ta, oziq-ovqat sanoatida 78 ta, farmasevtika sohasida 18 ta, elektrotexnika sanoati da 17 ta loyihani amalga oshirish ko‘zga tutilgan

2020-yil 9-yanvardagi “O‘zbekistonning 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident PQ-4563-sonli qarori bilan O‘zbekistonning 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi tasdiqlangan edi.

Dasturda, 850,5 trln. so‘m investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish, 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratish nazarda tutilgan.

Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston nomidan yoki kafolati ostida tashqi qarzni jalb etish bo‘yicha 2020-yilda yangi imzolanadigan shartnomalar doirasidagi loyihalar “2020-yil uchun O‘zbekistonning Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan chegaraviy hajmlar doirasida aniqlanishi, shuningdek, qiymati 50 mln AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi 50 foizdan kam bo‘lmagan investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini byudjet mablag‘lari hamda moliyalashtirishning boshqa ichki manbalari hisobidan qurish

tartibi mazkur investitsiya loyihalarining quyidagi talablariga mos kelgan taqdirda qo‘llanilishi belgilangan.

Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish natijasida 2021-yilning yanvar–iyun oylarida O‘zbekistonda 103,1 trillion so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 64,8 trillion so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan hamda korxonalar, tashkilotlar va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 38,3 trillion so‘m moliyalashtirilgan.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo‘yicha hajmi:

- Qoraqalpog‘iston — 3201,4 milliard so‘m;
- Andijon viloyati — 4026,3 milliard so‘m;
- Buxoro viloyati — 7938,7 milliard so‘m;
- Jizzax viloyati — 6567,6 milliard so‘m;
- Qashqadaryo viloyati — 6897 milliard so‘m;
- Navoiy viloyati — 8631 milliard so‘m;
- Namangan viloyati — 5367 milliard so‘m;
- Samarqand viloyati — 2499,4 milliard so‘m;
- Surxondaryo viloyati — 7378,8 milliard so‘m;
- Sirdaryo viloyati — 4244,3 milliard so‘m;
- Toshkent viloyati — 10722 milliard so‘m;
- Farg‘ona viloyati — 5923,9 milliard so‘m;
- Xorazm viloyati — 3712,7 milliard so‘m;
- Toshkent shahri — 23696,5 milliard so‘mni tashkil etgan.

Mamlakatimizdagi barqarorlik va qulay investitsiya muhiti natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanmoqda. 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega. Albatta, koronavirus pandemiyasi hali-hamon iqtisodiy jarayonlarga jiddiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Shunga qaramay, eksportda izchil o‘sishga erishilmoqda.

Xususan, 2020-yilda mamlakatimizda eksport miqdori 9 milliard dollardan oshgan bo‘lsa, 2021-yilda 12 milliard dollarni tashkil etgan. E‘tiborlisi, bunda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli ko‘paygan. 2022-yilda **9 milliard 500 million dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni o‘zlashtirish**, 282 ta yirik va 9

mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo‘ljallangan. **Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish** hisob-kitob qilingan³⁸.

2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 190 trln. so‘mni tashkil etgan, shundan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 72 trln. so‘m miqdorida qayd etilgan.

O‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan investor davlatlar orasida Rossiya birinchi o‘rinda qayd etildi – 21 foiz.

Ushbu ko‘rsatkich qolgan davlatlar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega:

- Xitoy – 19,9 foiz;
- Turkiya – 10,4 foiz;
- Germaniya – 6,5 foiz;
- Saudiya Arabistoni – 4,6 foiz;
- Italiya – 3 foiz;
- Kipr – 2,7 foiz;
- Shvetsariya – 2,6 foiz;
- Buyuk Britaniya – 2,1 foiz;
- AQSh – 1,8 foiz³⁹.

Yevroosiyo taraqqiyot banki tahlilchilari Markaziy Osiyoga bag‘ishlangan hisobotida keltirilgan ma’lumotlariga asosan, so‘nggi 10 yil davomida O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishi 5,9 foizni tashkil etdi va bu mamlakat jadal rivojlanayotganining yaxshi ko‘rsatkichidir degan xulosaga kelgan.

Hisobot mualliflarining⁴⁰ yozishicha, respublika iqtisodiyotida jiddiy o‘zgarishlar 2017-yilda boshlangan va hozirda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi doirasida davom etmoqda. YeOTB tahlilchilarining fikricha, strategiya mamlakatning “eksport salohiyati va investitsion jozibadorligini oshirish kontekstida asosiy mezon”ga aylandi.

YeOTB ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha Markaziy Osiyoda ikkinchi o‘rinda turadi (birinchi o‘rinda Qozog‘iston). O‘zbekiston YaIM – 69,2 mlrd dollar. Mamlakat tabiiy

³⁸ <https://review.uz/oz/post/v-2022-godu-planiruetsya-privlech-95-mlrd-pryamx-inostrannx-investiciy>

³⁹ Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

⁴⁰ <https://sputniknews-uz.com/20221111/eotb-ekspertlari-yangi-ozbekiston-iqtisodiyoti-qanday-ozgarayotganini-aytdi-29902212.html>

resurslarga boy: qimmatbaho metallar, mis, uran, volfram, ko‘mir va tabiiy gaz.

O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari xizmat ko‘rsatish (YaIMning 36 foizini tashkil qiladi), qishloq xo‘jaligi (25 foiz) va ishlab chiqarish sanoati (20 foiz) hisoblanadi.

Agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston sanoati haqida gapiradigan bo‘lsak, bu sohada metallurgiya, mashinasozlik, to‘qimachilik, oziq-ovqat va kimyo sanoati yetakchilik qilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik va o‘rta biznes (KvaO‘B) muhim rol o‘ynadi – bu tarmoq YaIMning deyarli 55 foizini ta‘minladi, O‘zbekiston band aholisining 70 foizini ish bilan ta‘minlayapti.

YeOTB tahlilchilari fikricha, O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy ustunligi uning doimiy o‘zgarib turadigan tashqi muhitga tez moslasha olishidadir. Bunga esa, o‘z navbatida, mehnat resurslarining ko‘payishi yordam bermoqda – respublika aholisi 35 mln. kishidan oshdi (2000-yilda u 24,8 mln. kishi edi). Shu bilan birga mamlakatda 30 yosh atrofidagi yosh avlod ko‘pchilikni tashkil qiladi, aholining 60 foizi shu toifaga kiradi.

Barcha imkoniyatlardan foydalanib 2019-yilda YeOTB tahlilchilari O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishidagi asosiy to‘siqlarni o‘rganib, nima uchun respublikaning daromadlar bo‘yicha Qozog‘iston bilan yaqinlashuvi sekin kechayotganini aniqlashgan harakat qilishgandi. O‘shanda iqtisodchilar bunga omillar sifatida sarmoya va texnologiya yetishmasligi, shuningdek, infratuzilma muammolarini sanab o‘tgandilar. YeOTB prognozlariga ko‘ra, ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirish orqali O‘zbekiston qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo va neft-kimyo sanoatida o‘z ishtirokini kengaytirish orqali iqtisodiy yutuq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodidagi bugungi vaziyatga nazar tashlasak, mamlakat rahbariyati sanoat sohasiga e‘tibor qaratayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, kimyo sanoati haqida gapirganda, joriy yil boshidan buyon O‘zbekistonda 1 mln tonnadan ortiq mineral o‘g‘it ishlab chiqarilib, ularning eksporti o‘tgan yilga nisbatan ikki baravar ko‘payib, 330 million dollarga yetganini eslamaslik mumkin emas. Qurilish sohasi ham rivojlanmoqda – bu o‘rinda monitoring o‘tkazishga ham zarurat yo‘q, Toshkentdagi keng ko‘lamli qurilishlarga nazar tashlashning o‘zi kifoya.

O‘zbekiston iqtisodiyoti nisbatan ochilgani tufayli xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni ham ko‘paydi, deya qayd etadi YeOTB. 2017-yilda ularning soni arang 5 mingdan oshgan. 2022-yil boshida mamlakatda xorij kapitali ishtirokidagi 13 289 ta korxonalar faoliyat yuritgan. Yangi O‘zbekiston – yangi iqtisodiyot Strategiyaning asosiy qoidalari qanday?

Hujjatda turli imtiyozlar joriy etish orqali mamlakatda qulay sarmoyaviy muhit yaratish ko‘zda tutilgan. Shu tariqa, O‘zbekiston yaqin besh yilda 120 milliard dollar miqdorida sarmoya jalb etishni rejalashtirmoqda, ularning 70 milliardini xorijiydir.

O‘zbekiston eng avvalo qaysi sohalarga sarmoya kiritishni muhim deb bilyapti? Energetika, transport, suv xo‘jaligi, kommunal xizmatlar, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ekologiyada. “O‘zbekiston alohida viloyatlarning Hindiston, Xitoy va Rossiya bilan hamkorligini mustahkamlash, eksport geografiyasini 115 ta davlatdan 150 tagacha kengaytirish, shuningdek, turizm, transport, axborot va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravar, 4,3 milliard dollargacha ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Nihoyat, belgilangan strategiya doirasida O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan chegaradosh hududlarda erkin savdo zonalarini tashkil etishni rejalashtirmoqda”, deb yozadi YeOTB tahlilchilari. O‘zbekistonga sarmoya kiritish uchun eng muhim yo‘nalishlar haqida gapirar ekan, bank iqtisodchilari ta‘lim sifati va migratsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiryapti. Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston uchun muhim masala, chunki ish o‘rinlarining yetishmasligi mamlakatning dolzarb muammosi hisoblanadi.

“2021-yilda ishsizlik darajasi 9,6 foizni tashkil etdi. Bu esa O‘zbekiston fuqarolarini xorijda ish topishga majbur qilyapti va pul o‘tkazmalari iqtisodiyot uchun muhim bo‘lib qolmoqda: ularning tushumlari 2018–2021-yillar davomida o‘rtacha YaIMning 13,4 foizini tashkil qilgan”, deyiladi YeOTB hisobotida.

Bu muammoni hal qilish uchun O‘zbekistonda ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish bo‘yicha doimiy ishlar olib borilmoqda – har yili o‘rtacha 280 mingga yaqin ish o‘rinlari paydo bo‘lyapti. Biroq, amalda ishsizlikni to‘liq bartaraf etish uchun mamlakatda har yili 600 ming ish o‘rni yaratilishi kerak, deya ta‘kidlaydi YeOTB.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston fuqarolari tashqi bozorlarda – asosan qo‘shni davlatlarda ish izlamoqda. Taxminan 70 foiz ulushga ega shaxsiy o‘tkazmalarning asosiy donori Rossiyadir. Shu bilan birga, Qozog‘iston ulushi ortib bormoqda – o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra,

O‘zbekistonga shaxsiy o‘tkazmalarning 9,4 foizi (2019-yilda esa 5,9 foiz) uning hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shunday bo‘lsa ham O‘zbekiston bu masalani yana qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda hal qilish ustida ishlamoqda. Kelajak innovatsion sohalarga tegishli ekanini, shu bilan birga mamlakatda malakali kadrlar yetishmasligini anglagan Toshkent ta‘lim xizmatlari tizimini modernizatsiya qilishni maqsad qilgan.

Savdo farovonlik ramzi sifatida “Mintaqa farovonligi ko‘p jihatdan Xitoy va Rossiya bilan Markaziy Osiyo davlatlari uchun foydali bo‘lgan iqtisodiy hamkorlik formatini yo‘lga qo‘yish va tranzit imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘ladi”, deb yozadi YeOTB tahlilchilari.

Ularning fikri raqamlarga asoslangan: O‘zbekistonning asosiy kapitaliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining 24,2 foizi Rossiya, yana 20,4 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Bu davlatlar respublikaning eng yirik savdo hamkorlari hisoblanadi.

O‘zbekiston nima yetkazib beryapti? O‘zbekistonning asosiy eksport mahsulotlari oziq-ovqat (2021-yilda 10,5 foiz), rangli metallar (10,4 foiz), kimyo mahsulotlari (8,7 foiz), energetika mahsulotlari (6,3 foiz), mashina va uskunalari (5 foiz) hisoblanadi.

Import ham o‘shib bormoqda (ayniqsa, O‘zbekiston ochiqlik tamoyiliga o‘tgan 2017-yildan beri faollashgan). Besh yil ichida u qariyb 11 milliard dollarga ko‘payib, 23 milliard dollardan oshdi, deya qayd etyapti YeOTB. Sababi, O‘zbekiston uskunalari xarid qilishni ko‘paytirdi, import qilinadigan tovarlarning deyarli 40 foizi uning hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Bu ichki investitsiyalar va korxonalarining o‘shishidan dalolat beradi, deb hisoblaydi hisobot mualliflari.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari ham mustahkamlanmoqda. O‘tgan yili Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdo aylanmasi 165,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bank ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 20 yil ichida bu ko‘rsatkich olti barobarga oshgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-sonli qarori bilan Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab

chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida vazifalari belgilangan.

Bunda investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan shakllantirilgan, kelgusi besh yilda 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi qabul qilinib tegishli chora tadbirlar belgilangan. Investitsiya dasturiga muvofiq 2022-2026-yillarda "O'zyog'moysanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalar tomonidan 157,7 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiya jalb etiladi. Jumladan, 2022-yilda 28,0 million dollar hajmida investitsiya o'zlashtiriladi, shundan 7,0 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar 2023-yilda 28,2 million dollar (shundan 7,1 million dollari xorijiy investitsiya va kreditlar)ni, 2024-yilda 30,7 million dollar (shundan 7,5 million dollari xorijiy investitsiya va kreditlar)ni, 2025-yilda 33,8 million dollar (shundan 7,7 million dollari xorijiy investitsiya va kreditlar)ni, 2026-yilda 37,0 million dollar (shundan 8,0 million dollari xorijiy investitsiya va kreditlar)ni tashkil qiladi⁴¹.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida mintaqalarda sanoat tarmog'ini rivojlanish xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari, sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko'rsatkichlari, strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, sanoatga qulay investitsiya muhitining yaratilganligi holati kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson hayotining asosini moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tashkil etadi. Chunki, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari bo'lmasa, ayirboshlaydigan, taqsimlaydigan va iste'mol qiladigan ne'matlarning o'zi bo'lmaydi. Inson iste'molsiz yasholmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham turolmaydi.

Ushbu mavzuda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoniga tegishli muammolar ko'rib chiqiladi. Ishlab chiqarishning omillari tavsifi, ishlab chiqarishning maqsadi va mazmuni ochib beriladi, uning natijalari va samaradorligi

⁴¹ <https://yogmoy.uz/post/view?slug=2022-2026-jillarda-1577-million-dollar-mikdorida-investicia-zalb-etiladi>

bilan bog‘liq masalalar bayoni, «ishlab chiqarish imkoniyatlari» tushunchasiga ham o‘rin ajratiladi. Shuningdek, keyingi qo‘shilgan mahsulot nafliligi va uning kamayib borishi, keyingi qo‘shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonunining mazmuniga tegishli marjinalistik g‘oyalar bilan tanishtiriladi, ularning kamchilik jihatlari ochib beriladi. Bu erda ishlab chiqarish jarayonining har taraflama muvozanatli va mutanosibli rivojlantirilishi iqtisodiy inqirozdan qutilishning yoki uning oldini olishning muhim yo‘li sifatida qaraladi. O‘zbekiston sanoati ayni vaqtda o‘z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar hamda xalq ehtiyojiga kerak bo‘ladigan mahsulotlarni ham uzluksiz tayyorlab bermoqda. Shu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o‘shirishini ta‘minlash lozim. Chunki sanoat ishlab chiqarishi darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustahkam, aholining turmush sharoiti ham shuncha yaxshi bo‘ladi.

Sanoat siyosati milliy iqtisod tizimining sanoatni qo‘llab-quvvatlashga va barqaror o‘shirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy tadbirlarning majmui hisoblanganligi bois, uning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, milliy ishlab chiqaruvchilarning farovonligini va ularning raqobatdoshligini oshirishdir.

Shu nuqtai nazardan, sanoat siyosati eskirgan ishlab chiqarish tuzilmalarini bartaraf etadi hamda zamonaviylarini shakllantiradi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi va boshqaruvini takomillashtiradi, shuningdek, jahon iqtisodiyotini globallashtiruvining ob‘yektiv talablariga moslashuvchanligini yanada oshirib boradi.

Shu sababli, O‘zbekiston sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni va innovatsion texnologiyalarni keng ko‘lamda joriy etishga katta e‘tibor qaratilib, sanoat tarmoqlarini izchil rivojlantirishga erishilmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar: Ishlab chiqarish omillari, mehnat predmetlari, mehnat qurollari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, modernizatsiya, diversifikatsiya, investitsiya, soliq imtiyozlari, xom ashyo.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Ishlab chiqarish omillari nima?
2. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari nimalarga bog‘liq?
3. Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi?

4. Modernizatsiya nima?
5. Diversifikatsiya nima?
6. Ishlab chiqarish vositalari nima?
7. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko'rsatkichlarini ayting
8. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini ayting
9. Sanoatga qulay investitsiya muhitining nimalarga bog'liqligini tushuntiring

VII BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING HUDUDIIY IXTISOSLASHUVI

7.1. Qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va reliefi

7.2. Agrosanoat majmuasi tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish.

7.3. Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari

7.1. Qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va reliefi

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo‘g‘inlari uchun umumiy bo‘lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o‘ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish ko‘p jihatdan tirik organizm (hayvon, o‘simlik va boshqalar) bilan ham bog‘liq. Ushbu bobda iqtisodiyotning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning agrar sohada namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, agrar munosabatlarning mazmuni tahlil qilinib, yer rentasining vujudga kelishi va taqsimlanishi muammolari hamda ularning qisqacha tavsifi beriladi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalariga to‘xtalib o‘tilib, agrobiznes va uning turlari bayon etiladi.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo‘lib, unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun iste‘mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga xomashyo ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbari bu sohaga har doim alohida e‘tibor berib kelmoqdalar.

“Qishloq xo‘jaligidagi islohotlardan maqsad, – deb ta‘kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev, – iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur”.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda “2019-2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash milliy dasturi”ni qabul qilishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi mamlakatimizda meva-sabzavot yetishtirish bo‘yicha klaster tizimi qanday holatda ekanini chuqur tahlil qilib, 2019-yil 1-martga qadar bu boradagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etishga doir takliflarni kiritin”⁴².

⁴² “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018-yil 29-dekabr. №271-272 soni.

Bu vazifalarni bajarish uchun agrar sohani va ular bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarini har tomonlama rivojlantirish zarurdir. Boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligida ham kishilar o'rtasida iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.02.2021-yildagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5009-son qarori, Prezidentning 23.10.2019-yildagi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi doirasida 2021-yilda quyidagilar nazarda tutilgan:

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish yo'nalishida:

- shakllangan dehqonchilik ko'nikmalari, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minotidan kelib chiqib, respublikaning barcha tumanlarining hududlari muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich ixtisoslashtiriladi;

- 2021-yil 1-apreldan boshlab tuman hokimliklari zaxirasidagi yaxlit holda 300 gektargacha yer maydonlarida plantatsiya usulida intensiv bog' va tokzorlar barpo etish va 7 yil muddatda to'lash sharti bilan aholiga sotish tizimi yo'lga qo'yiladi;

- kooperatsiya shartlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun yoshlarga foydalanishga kiritiladigan yer maydonlari ijaraga beriladi, shuningdek, fermer xo'jaliklari hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining ekin maydonlari ikkilamchi ijaraga beriladi va boshqalar.

Qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish yo'nalishida quyidagilarni amalga oshirish huquqi beriladi:

- bir tumanda uchtagacha paxta-to'qimachilik klasterlariga fermer xo'jaliklari bilan shartnoma asosida faoliyat yuritish;

- fermer xo'jaliklariga ushbu klasterlar bilan paxta xom ashyosini yetkazib berish bo'yicha ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomalarini tuzish.

Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish yo'nalishida 2021-yildan boshlab yerning bozor qiymatini baholash hamda keyinchalik undan garov ta'minoti sifatida foydalanish amaliyoti tizimli yo'lga

qo'yiladi. Shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2021-yilda qayta foydalanishga kiritiladigan va o'zlashtiriladigan yer maydonlarining prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish yo'nalishida:

- 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sertifikatlangan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari va ko'chatlarini xarid qilish uchun ajratiladigan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

- a) foiz xarajatlarini qoplash uchun quyidagi miqdorlarda kompensatsiya taqdim etiladi:

- milliy valyutada kreditlar bo'yicha – tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining MBning asosiy stavkasidan oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko'p bo'lmagan qismi;

- xorijiy valyutada kreditlar bo'yicha – tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 30%igacha, lekin 3 foiz punktidan ko'p bo'lmagan qismi;

- b) kredit summasining 50%igacha miqdorida kafillik taqdim etiladi:

- 2021-yil 31-dekabrqa qadar mahalliy urug'chilik xo'jaliklaridan sertifikatlangan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari va ko'chatlarini sotib olgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sotib olingan urug' va ko'chatlar qiymatining 20%igacha Davlat byudjetidan qoplab beriladi;

- limon yetishtiriladigan issiqxonalar barpo etishda muqobil energiya (tabiiy gazga nisbatan) orqali ishlaydigan isitish tizimini xarid qilish xarajatlarining bir qismini Davlat byudjetidan qoplash tartibi joriy etiladi;

- viruslardan xoli, yuqori hosilli sertifikatlangan urug' va ko'chatlarni yetishtirish va yetkazib berish tizimi samarali yo'lga qo'yiladi;

- 2021-yil 1-martdan boshlab "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida bog'dorchilik, uzumchilik va limonchilikni rivojlantirish uchun aholiga ajratiladigan kreditlar muddati 3 yildan 7 yilgacha, imtiyozli davr esa 1 yildan 3 yilgacha uzaytiriladi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i statistikasining shaffof mexanizmini yaratish yo'nalishida:

- yerdan foydalanuvchilar reestri bo'yicha 3 mln gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning monitoringi yo'lga qo'yiladi;

- 5 turdagi asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining (paxta, g'alla, sholi, kartoshka, moyli ekin) ekilishini kosmik sur'atlar yordamida tahlil qilinadi;

- "ArcGIS" dasturi yordamida qishloq xo'jaligi yerlarining asosiy va takroriy ekin turlari, hosildorlik darajasidan kelib chiqib, interfaol xaritada kuzatish imkoniyatiga ega yagona axborot bazasini shakllantirish hamda uning milliy geoaxborot tizimi bilan integratsiya qilinishi ta'minlanadi va h.k.

Hujjat bilan tajriba-sinov tariqasida 2021-yilning yakuniga qadar faoliyat yuritadigan meva-sabzavotchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish Respublika kengashi tarkibi tasdiqlandi va uning vazifalari belgilandi.⁴³

Yuqorida qayd etilgan vazifalarning bajarilishi agrar sohada ishlab chiqarishni rivojlanishiga olib keladi.

Agrar sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq bo'ladi. **Yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.**

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar – yer, o'simlik, chorva mollari bilan bog'liq bo'ladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan bog'lanib ketadi. Bunda yer mehnat quroli va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdorligi oshib boradi.

Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumdorligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik "oziqlanishi" mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi yerning tabiiy unumdorligi deyiladi.

Agar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida, ya'ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan (masalan, yerni organik va kimyoviy o'g'itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan holda sug'orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda boshqa shu kabi yo'llar bilan) amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi.

⁴³ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/qishloq_hujaligini_rivojlantirish_strategiyasi_asosiy_chora-tadbirlar_belgilandi

Yerdan olinadigan hosil ko‘proq mana shu yerning tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirish, ya‘ni insonning, aniqrog‘i ishchi kuchining, jonli mehnatning yerga faol ta‘siri bilan bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi qishloq xo‘jaligida ham ishlab chiqarish uning omillarining bevosita birikishi asosida sodir bo‘ladi. Bunda ishchi kuchi faol bo‘lib, asosiy rolni o‘ynaydi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida yerdan boshqa barcha ishlab chiqarish vositalari xususiy, shaxsiy, jamoa mulki shaklida bo‘lishi mumkin. Turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish vositalaridan jamiyat barcha a‘zolarining turmush darajasini yaxshilash yo‘lida foydalaniladi. Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning asosiy ko‘rinishlari fermer va dehqon xo‘jaligi shakllarida bo‘lib, ulardagi ishlab chiqarish jarayonlari turli iqlim va tuproq sharoitlarida olib boriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ham asosiy kapital turli xil traktorlar, mashinalar, transport vositalari, bino, inshootlar, ko‘p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva hamda ish hayvonlari, shuningdek, xizmat muddati bir yildan ortiq bo‘lgan turli xil asbob-uskunalardan tashkil topadi.

Qishloq xo‘jaligida muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer pul bilan baholanmasligi, ya‘ni qiymati o‘lchanmasligi tufayli, kapital qiymati tarkibida hisobga olinmaydi.

Qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan asosiy kapitalning ayrim turlari masalan, ko‘p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva, ish hayvonlari, sug‘orish inshootlari va boshqalar sanoat tarmoqlarida bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish vositalari hisoblangan binolar, sug‘orish inshootlari va boshqalar ishlab chiqarish natijasini oshirishga faol ta‘sir o‘tkazadi, sanoat tarmog‘ida esa ular birmuncha sustroq va bilvosita ta‘sir o‘tkazadi. Shunga binoan qishloq xo‘jaligida kapitalning tarkibida turli inshootlar, binolar, uzatma mexanizmlar va boshqalarning hissasi ko‘proq. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishni amalga oshirishda asosiy kapital ham qatnashadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma kapital quyidagilardan tashkil topadi: yosh va boquvdagi hayvonlar, yem-xashak, urug‘lik fondlari, kimyoviy o‘g‘itlar, xizmat muddati bir yildan kam bo‘lgan turli xil ishlab chiqarish vositalari – inventarlar, yoqilg‘i va moylash materiallari hamda shu kabilar. Ishlab chiqarish jarayoni qishloq xo‘jaligida aylanma kapitalning ko‘pgina qismi hali tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida kapital boshqa tarmoqlardagidek doiraviy aylanib turadi, ya‘ni pul shaklidan ishlab chiqarish shakliga, undan tovar shakliga o‘tib, yana pul shakliga qaytib keladi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, qishloq

xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori yerning hosildorligi, uning sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yerning tabiiy, biologik, iqtisodiy va texnikaviy sharoitlarini yaxshilash ham qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan kapitalning doiraviy aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu omillardan to'laroq foydalanish har bir xo'jalikning muhim vazifasidir.

Tabiiy omillar qishloq xo'jalik mahsulotining bevosita ko'payishiga ta'sir etsa ham, mahsulotning qiymatini oshirmaydi, ya'ni qiymat yarata olmaydi. Ishlab chiqarish tabiiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu yerda ish davri va umumiy ishlab chiqarish vaqti o'rtasidagi muddat sanoatga nisbatan birmuncha uzoqroq bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida turli ekinlarni ekib bo'lingandan to' hosil yig'ishtirib olingungacha ishlab chiqarish vaqti davom etadi. Ish davri esa shu vaqt ichida qishloq xo'jalik ekinlari mehnat ta'sirida bo'lgan kunlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiyligi bilan xususiyatlidir. Bu hol qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan mehnat vositalaridan, ya'ni kombayn, turli ekish asboblari va shu kabilardan foydalanish vaqtiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat vositalaridan yilning ma'lum muddatlaridagina foydalaniladi, qolgan vaqtda esa ular bekor turadi. Masalan, seyalkadan ekish davomida foydalanilsa, g'alla o'rish kombaynlari, paxta terish mashinalari esa yiliga 20-30 kun yig'im-terim paytida ishlatiladi, xolos. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligida mehnatning kapital va energiya bilan qurollanish darajasi moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori bo'lishini taqozo qiladi, lekin bu yerda asosiy va aylanma kapital harakati sustroq. Bulardan tashqari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va mehnat jarayonlarining mavsumiyligi sababli yil davomida aylanma mablag'larning sarfi bir me'yorda bo'lmaydi. Qish va yoz mavsumlarida xarajat qilinadigan aylanma mablag'lar tarkibida birmuncha tafovutlar mavjud. Masalan, qish mavsumida aylanma mablag'larning ko'pgina qismi (urug'lik, yem-xashak, turli ozuqalar) ishlab chiqarish ehtiyot qismi shaklida turadi, yoz faslida esa tugallanmagan ishlab chiqarish, texnikaning butlash qismlari, neft mahsulotlari va shu kabilarning hissasi ortib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni hisobga olib, ishni tashkil qilish uning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Bizning mamlakatimizda aholining nisbatan zichligi va qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning cheklanganligini hisobga olib, yerga xususiy

mulkchilik joriy qilinmadi, unga davlat mulki saqlanib qoldi. Lekin, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, oqilona agrar islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayon chuqurlashtirilmoqda.

Xalqimiz tumush farovonligini yaxshilash, umuman, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ahamiyati beqiyos ekanligi ma‘lum. Agrosanoat majmuining taraqqiyoti nafaqat oziq-ovqat ta‘minotini yaxshilash, balki muhim xomashyo yetkazib beruvchi tarmoq sifatida mamlakat sanoatining taraqqiyoti uchun ham o‘ta zarur. Ma‘lumki, hozirgi paytda O‘zbekiston qishloqlaridagi xilma-xil xo‘jaliklarda qariyb 4,5 mln. gektar maydonda dehqonchilik bilan shug‘ullanilmoqda. Shuncha kenglikdagi ziroatni o‘stirishda katta va kichik texnika vositalari dehqonga qudratli qanot bo‘lmoqda.

Yirik tarmoq bo‘lmish qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston milliy xavfsizlikni ta‘minlash, turli qishloq xo‘jaligi ekinlari, shu jumladan, texnik ekinlar o‘stirish uchun juda qulay, hududda joylashgan, paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda (AQSh, Hindiston, Xitoy va Pokistondan keyin) 5-o‘rinda, unni eksport qilish bo‘yicha 2-o‘rinda turadi. O‘rta Osiyoda yetishtiriladigan jami paxta hajmining 75 %i O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, respublikada har yili 5 million tonnadan ko‘proq sabzavot va meva yetishtiriladi. O‘zbek qorako‘l terilariga va pillasiga jahon bozorida talab kattadir.

2021-yil yakunlariga ko‘ra jami qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hajmi 317,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Shundan, 307,5 trln. so‘m dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik sohalariga, 7,6 trln. so‘m o‘rmon xo‘jaligiga va 2,7 trln. so‘m baliq xo‘jaligiga to‘g‘ri keldi. Natijada, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy qishloq xo‘jaligining 96,8 foizini, o‘rmon xo‘jaligiga 2,4 foizini va baliq xo‘jaligi 0,8 foizini tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasida 2021-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘tgan yilga nisbatan 3,6 foizga o‘sdi. Bunda, dehqonchilik mahsulotlari hajmi 151,1 trln. so‘m va chorvachilik mahsulotlari 151,4 trln. so‘mni tashkil qildi. Jumladan, dehqonchilik mahsulotlaridan 10,9 mln. tn sabzavotlar, 3,3 mln. tn kartoshka, 2,3 mln. tn poliz, 2,9 mln. tn meva va qariyb 3,3 mln. tn paxta xom-ashyosi yetishtirildi. Umumiy chorvachilik mahsulotlari hajmi 151,4 trln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 97,7 mln. so‘m go‘sht, 39,3 mln. so‘m sut, 5,9 mln. so‘m tuxum mahsulotlariga to‘g‘ri keladi. Umumiy chorvachilik mahsulotlari hajmi 151,4 trln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa,

shundan 97,7 mln. so‘m go‘sht, 39,3 mln. so‘m sut, 5,9 mln. so‘m tuxum mahsulotlariga to‘g‘ri keladi.

Dehqonchilik mahsulotlarining o‘shish dinamikasiga ko‘ra, sabzavot yetishtirish 3,0 foizga, meva mahsulotlari 8,5 foizga, paxta xomashyosi 6,2 foizga oshdi. Undan tashqari, don mahsulotlari o‘shish darajasi 1,2 foizga kamaygan va go‘sht mahsulotlari yetishtirish 2020-yildagidan 4,1 foizga oshgan. Meva va rezavorlar o‘shish darajasi 2020-yilda 2,2 foiz, 2021-yilda esa 1,4 foizga tushdi. Sut mahsulotlari 2,5 foiz yillik o‘shish darajasini ko‘rsatdi⁴⁴

2022- yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 3,6 % (2021-yilning yanvar-sentabr oylarida – 4,0 %, 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,6 %, 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,2 %, 2018- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,8 %) darajasida ijobiy o‘shish qayd etildi. Ushbu ijobiy o‘shish sur‘atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 4,1 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,6 %, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,2 %, 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,6 %, 2018- yilning yanvar_sentabr oylarida – 5,6 %)ga hamda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,0 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 5,7 % ga o‘shish, 2020- yilning yanvar_sentabr oylarida – 3,1 % ga o‘shish, 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,3 % ga o‘shish, 2018- yilning yanvar-sentabr oylarida – 3,3 % ga kamayish)ga o‘shishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yil 1-yanvar holatiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni – 53 808 tani, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko‘rsatilgan xizmatlarda – 49 859 tani, o‘rmon xo‘jaligida – 268 tani hamda baliqchilik xo‘jaligida – 3 681 tani tashkil etgan (3- rasm). Ushbu ko‘rsatkich hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p korxonalar va tashkilotlar Qashqadaryo viloyatida – 7 742 tani yoki respublika bo‘yicha mazkur sohada faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning 14,4 % ini tashkil etgan bo‘lsa, aksincha eng kam korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida – 1 074 ta (2,0 %) qayd etilgan (7.1- rasm).

⁴⁴ Manba: Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida.



7.1-rasm. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

Bu yerda, **1.** Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

2. O'rmon xo'jaligi

3. Baliqchilik xo'jaligi

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni – 7 307 taga, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarda – 6 931 taga, o'rmon xo'jaligida – 46 taga hamda baliqchilik xo'jaligida – 330 taga ko'paygan.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 364,5 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 352,1 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 9,2 trln. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 3,2 trln. so'mni tashkil qildi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni (2021-yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan – 104,0 %), shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 103,6 % (103,9 %)ni, o'rmon xo'jaligi – 102,3 % (103,0 %)ni, baliqchilik xo'jaligi – 101,9 % (118,0 %)ni tashkil qilgan.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 347 564,4 mlrd. so‘mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 179 853,4 mlrd. so‘mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari – 167 711,0 mlrd. so‘mni (103,4 %) tashkil qilgan.

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (41 833,9 mlrd. so‘m), Andijon (35 811,3 mlrd. so‘m) va Buxoro (33 255,9 mlrd. so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (11 465,3 mlrd. so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (13 389,0 mlrd. so‘m) va Navoiy viloyatini (15 266,7 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘shish sur‘atlari Namangan (104,3 %), Samarqand (103,9 %), Navoiy (103,9 %) va Toshkent (103,8 %) viloyatlarida qayd etilgan.

Respublikadagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz eng katta ulush Samarqand (12,0 %), Andijon (10,3 %) va Buxoro (9,6 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida dehqonchilik mahsulotlari ulushi 51,7%ni va chorvachilik mahsulotlarining ulushi-48,3%ni tashkil etgan.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, dehqonchilik mahsulotining ulushi yuqori bo‘lgan hududlarga Andijon (63,3 %), Farg‘ona (59,8 %), Sirdaryo (59,5 %), Namangan(58,3 %), Samarqand (54,3 %), Surxondaryo (53,4 %) va Buxoro (52,0 %) viloyatlarini aksincha, chorvachilik mahsulotining ulushi yuqori bo‘lgan hududlarga Navoiy (64,5 %), Qashqadaryo (59,3 %), Jizzax (59,1 %), Xorazm (53,9 %), Toshkent (50,6 %) viloyatlarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasini (50,5 %) keltirishimiz mumkin.

7.2. Agrosanoat majmuasi tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarasi ko‘p jihatdan agrosanoat majmuasi tarmoqlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Mamlakatimiz ijtimoiy – iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda agrosanoat majmuasining ahamiyati katta. Uning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash hamda iste‘molchilarga yetkazib berish tizimining maqsadga muvofiq, bir me‘yorda barqaror ishlashini ta‘minlash, pirovardida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan iqtisodiy

mexanizmlarni yaratish, mahsulotlar sifatini oshirish, ishlab chiqarishning eng maqbul shakllarini vujudga keltirish, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirishga intilish bugungi kunda agrosanoat majmuasida ham eng dolzrab masalalardan hisoblanadi. Agrosanoat majmuasini rivojlantirish axolining turmush darajasini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e‘tibor berilib kelinmoqda. Buning natijasi o‘laroq, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotini yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilmoqda. Olib borilgan siyosat natijasida agrar sohada nodavlat sektor tez rivojlantirildi. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 99,1 foizi nodavlat sektorda ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish asosan shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklari shaklida tashkil etildi bozor talablari va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarishning tarkibi o‘zgartirildi. Paxta yakkahokimligiga barham berildi, g‘allachilik tarmog‘i keskin kengaytirildi. Natijada g‘allachilik bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan maxsus tizim vujudga keldi. G‘alla urug‘chiligi keng yo‘lga qo‘yildi, g‘allachilikning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydigan zarur moddiy – texnika bazasi yaratildi. Chorvachilik tarmog‘i deyarli xususiylashtirildi. Mamlakatda yetishtirilgan hosilni qayta ishlash darajasi va kimga qancha sotish masalalari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ijobiy hal qilinmoqda. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy fanlar, jumladan, “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Chunonchi agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni imkon darajasida bir-biriga mutanosib rivojlantirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish masalalari yanada kuchaymoqda. Bozor munosabatlarining rivojlantirilishi biz uchun nisbatan yangi hisoblangan marketing, menejment iqtisodiy havfsizlik, moliya va soliq, inflyatsiya, monopoliyaga qarshi kurash va raqobatni rivojlantirish, bankrotlik, birja, shartnomaviy munosabatlar kabi ko‘plab iqtisodiy masalalarni chuqur o‘rganishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasida asosiy vositalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishiga e‘tibor juda katta. Respublika agrosanoat majmuasi tarmoqlari ayniqsa, qishloq xo‘jaligi yangi texnikalar, ish qurollari, texnologiyalarsiz rivojlana olmaydi. Ushbu tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Agrosanoat majmuasining birinchi (agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish

vositalari ishlab chiqaruvchi) sohasining rivojlanishiga e'tiborning yanada kuchayishi talab qilinadi. Birinchi soha tarmoqlarining rivojlantirilishi agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlarning fond bilan ta'minlanishi va kurollanishini yaxshilashga, pirovardda ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlari o'zgarib, oxir-oqibatda aholining turmush sharoitlari yuksalishiga olib keladi.

Mamlakat agrosanoat majmuasi 4 ta sohadan tashkil topadi. Bular quyidagilardir.


1-soha. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari (tizimi) uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik, mineral o'g'it va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, chorvachilik uchun omuhta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar kabilar kiradi.

2-soha. Qishloq xo'jaligining o'zi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etadi va majmuaning boshqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar asosan shu tarmoq mahsulotlari asosida faoliyat yuritadilar yoki xizmat ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi o'z navbatida o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlariga bo'linadi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga, pillachilik, asalarichilik, qisman o'rmonchilik (tabiiy oziq-ovqat va dorivor o'simliklar yetishtirish) hamda baliqchilik kiradi.

3-soha. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig'indisidan iborat. Paxta zavodlari, go'sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, yog'-moy zavodlari, junni, kanopni, pillani qayta ishlash zavodlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni saqlaydigan korxonalar, ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibini tashkil etadi.

4-soha. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi. Infratuzilmaning o'zi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir. Mamlakat agrosanoat majmuasining umumiy ko'rinishini quydagicha ifodalash mumkin:

Ana shu 4 ta sohaga kiruvchi tarmoqlar birlashib, mamlakatning yagona agrosanoat majmumasini tashkil etadi.



7.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining tarkibi

Mamlakat iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining ahamiyati va o‘rni juda katta. Uning o‘rni eng avvalo mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog‘i bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatda yaratilayotgan yalpi mahsulotning 70 foiziga yaqini agrosanoat majmuasida ishlab chiqariladi. Respublika agrasanoat majmuasi eksportbob mahsulotlar yetishtiradi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan qattiq valyuta tushumini ta‘minlaydi. Mamlakat iqtisodiyotiga tushayotgan qattiq valyuta iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilishga, yurt havfsizligini ta‘minlashga, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish

maqsadlariga sarflanadi. Hozirda qattiq valyutaning 70 foizdan ko‘prog‘i shu majmua mahsulotlarini sotishdan tushadi. Agrosanoat majmuasi mamlakatda mavjud ijtimoiy muammolarni yumshatishda asosiy rolni o‘ynaydi. Majmua aholi uchun ish joylari beradi. Agrosanoat majmuasini rivojlanishtirish har qanday davlatning, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ham ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning nisbatan yaxshi rivojlangan sohasi hisoblanadi. Uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati juda katta. Chunki bu soha katta moliyaviy resurslar talab qilmasdan yaxshi samara bera oladigan sohadir. Boshqa tarmoqlarni tashkil etish va rivojlanish, o‘z navbatida, katta moliyaviy va yangi sohada ixtisoslashgan asosiy vositalar, mehnat resurslarining bo‘lishini talab qiladi. Agrosanoat majmuasi esa, O‘zbekiston Respublikasining tarixiy mavjud bo‘lgan va rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ham agrosanoat majmuasini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi uchun eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

“Siyosat” termini (grek tilidan politika-davlat va jamiyat ishlari) aholi turli guruhlarini o‘rtasidagi munosabatlar sohasidagi faoliyat, shuningdek davlat ishlaridagi ishtirok, uning faoliyati mazmuni, shakl va vazifalarining aniqlanishi tushuniladi. Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne‘matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy siyosati o‘z ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-byudjet, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarni oladi

Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq xo‘jalik sohalarini qamrab oladi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashni yaxshilash, agrar sektor ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqlarni obod etish asosida qishloq aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish vazifalarining amalga oshirilishini ko‘zda tutadi. Uni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko‘rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin. Agrar siyosatni agrar iqtisodiyot sohasida eng ta‘sirchan shakl va usullar orqali yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro ta‘siri orqali amalga oshuvchi

agrar sektorda xo‘jalik-moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlatning faoliyati sifatida belgilash mumkin. Davlatning agrar siyosati qishloq xo‘jaligi va hududlarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi deganda ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘shishi, qishloq xo‘jaligi samaradorligining oshishi, qishloq aholisi to‘liq bandligiga erishish va turmush darajasining oshishi, yerlardan oqilona foydalanish tushuniladi. Agrar siyosat o‘zida qishloq aholisining moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat, soliqlar va soliqqa tortish, ijtimoiy muhit, maqsadli va tarkibiy qayta shakllanish agrar siyosatning asosiy sohalaridir. Agrar siyosatning umumiy maqsadi muayyan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy, tarmoq, ekologik maqsadlar bilan tavsiflanadi.

Davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

1. qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta‘minlash;
2. qishloq hududlari barqaror rivojlanishini, qishloq aholisi bandligini ta‘minlash, ularning turmush darajasini, shuningdek qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ish haqini oshirish;
3. qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qo‘llaniluvchi tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish va asrab-avaylash;
4. qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari daromadliligi oshishini va shu bozorlar infratuzilmasi rivojlanishini ta‘minlovchi xomashyo, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari samarali faoliyat yurituvchi bozorlarini shakllantirish;
5. qishloq xo‘jaligi sohasida investitsiyalar hajmini oshirish va qulay investitsion muhitni yaratish;
6. qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini qo‘llovchi sanoat mahsulotlariga narx indeksini kuzatish va bu narxlar indeksi o‘zaro nisbati paritetini ushlab turish.

Davlatning agrar siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning manzilliligi va hammabopligi;

- davlat agrar siyosati holati to‘g‘risida axborotning mavjudligi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari bozorining yagonaligi va bu bozorda raqobat teng shartlarining ta‘minlanishi;
- davlat agrar siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirishning ketma-ketligi va uning barqaror rivojlanishi;
- davlat agrar siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining ishtiroki.

Davlat agrar siyosatining asosiy yo‘nalishlari:

- oziq-ovqat tovarlari bilan aholini barqaror ta‘minlash;
- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyo bozorlarini shakllantirish va tartibga solish, uning infratuzilmasini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini davlat qo‘llab-quvvatlashi;
- ichki va tashqi bozorda qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- agrosanoat majmuasi sohasida fanni va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;
- qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi uchun mutaxassislarni o‘qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Agrar siyosat negizida agrar qonunchilik va agrar tarkib shakllanadi.

Agrar qonunchilik - qishloq xo‘jaligida va qishloq aholisi hayoti bilan bog‘liq holda amalga oshayotgan jarayonlarga ta‘sir o‘tkazuvchi huquqiy me‘yorlardir. Yerga egalik munosabatlari, kredit va soliqqa tortish, mehnat munosabatlari, mulkiy munosabatlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘moli yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy ta‘minot va boshqalar agrar qonunchilikning muhim sohalariga kiradi: Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo‘jaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog‘liq agrar sohaning iqtisodiy, texnik va ijtimoiy unsurlari yig‘indisidir. U mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Agrar siyosatning negizida agrar bozor yotadi. Agrar bozor agrar siyosatni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste‘molchi manfaatlariga mos amalga oshirilishiga yordam qiladi. Agrar siyosatning asosiy vazifasi – agrar sohadagi jarayon va qarashlarni aks ettiribgina

qolmasdan, balki kishilarning shu sohadagi qarashlari, jarayonlari va qonunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash;
- qishloq xoʻjaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini taʼminlash, agrar sektorni rivojlantirish;
- agrar tashqi savdo siyosatini olib borish, qishloq xoʻjaligi infratuzilmasini yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish.

Agrar siyosatning tamoyillarini koʻrib chiqib uning muhim oziq-ovqat, qishloq xoʻjaligi, agrosanoat va tashqi savdo jihatlariga, shuningdek uni tavsiflovchi koʻrsatkichlariga eʼtiborni qaratish lozim: Oziq-ovqat jihati tamoyillar tahlilining muqaddimasi boʻlib, agrar siyosat maqsadi-oziqovqat xavfsizligining miqdoriy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlariga talabning fiziologik va toʻlovga qodir chegaralarini aniqlaydi, shuning uchun isteʼmolning fiziologik meʼyorlari, isteʼmolning mavjud tarkibi, mamlakatni shu jumladan ichki ishlab chiqarish hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlanishi koʻrsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Qishloq xoʻjaligi jihati oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning haqiqiy holatini tavsiflaydi, oziq-ovqat mahsulotlarini olishda agrar salohiyatni aniqlaydi. U qishloq xoʻjaligi samaradorligi koʻrsatkichlarini oʻz ichiga oladi: (er hosildorligi, mehnat unumdorligi, chorva mollari mahsuldorligi, ozuqa qoplanganligi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnatga haq, qishloq xoʻjaligiga dotatsiyalar, fond qaytimi va boshqa omillar).

Agrosanoat jihati, bir tomondan, qishloq xoʻjaligi moddiy-texnika bazasi tahlilini amalga oshirish, ikkinchi tomondan marketing sohasi samaradorligini baholashga imkon beradi. Baholash uchun muhim koʻrsatkichlar bu – sarf-xarajtalarning yiriklashtirilgan tarkibi, turli maqsadlarda mahsulotni ishlatish.

Tashqi savdo jihati jahon va ichki qishloq xoʻjaligi bozorlari oʻzaro bogʻliqligini aks ettiradi. U turli mahsulotlar boʻyicha importga qaramlik, qishloq xoʻjaligi va tayyor mahsulotni chetga chiqarish va olib kirish balansi, qishloq xoʻjaligini erkinlashtirishdan kutilayotgan zararni baholash va boshqalar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan

keyingi dastlabki masala iqtisodiyotni tezroq barqarorlashtirish va shu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, mamlakat aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish, mamlakatni oziq-ovqat bilan to'la ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini yetarli xomashyoga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish, agrar resurslar salohiyatidan maqsadli foydalanishga erishish orqali davlatimizning iqtisodiy qudratini yanada o'stirish, mamlakat aholisini yashash farovonligini yaxshilash eng muhim masalalardan hisoblangan edi⁴⁵.

7.3. Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlari oldida bir qator maqsadli asosiy vazifalar turibdi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini ko'paytirish va assortimentini yaxshilash. Bu borada katta ishlar amalga oshirilishi lozim. Chunki mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan tibbiyot me'yoriga mos ravishda taminlanish darajasi hali ancha past. Ayniqsa, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni keskin ko'paytirish lozim.

Mamlakatda don yetishtirishni 10-12 mln. tonnaga yetkazish, go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirishni eng kamida ikki martaga, tuxum yetishtirishni 3-martaga ko'paytirish talab qilinadi. Albatta fiziologik me'yor (energiya olish) nuqtayi nazaridan oziq-ovqat muammosi mamlakatda to'liq hal etilgan. Ammo oziq-ovqat muammosi ijtimoiy – iqtisodiy tomondan baholanganda katta muammo bo'lib turibdi.

Gap shundaki, fiziologik me'yor bo'yicha olinayotgan energiya qaysi mahsulotlarni iste'mol qilish evaziga hosil bo'lmoqda, degan savol tug'iladi. Hozirda mamlakat aholisi oziq-ovqatdan olinayotgan energiyaning asosiy qismi non va non mahsulotlari, kartoshka, uglevodlar va mevalarni iste'mol qilishdan olinmoqda. Inson organizmi talab darajasida yaxshilash faloiyat ko'rsatishi uchun esa balanslashgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish talab etiladi.

Chunki, bu mahsulotlar aholi jon boshga qanchadan iste'mol qilinishini ko'rsatuvchi maxsus me'yor ham ishlab chiqilgan. Bu borada, ya'ni balanslashgan oziq-ovqat iste'mol qilishda, hali jiddiy kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, chorvachilik, asalarichilik, baliq mahsulotlariga bo'lgan talab juda katta bo'lib, ular qoniqarsiz

⁴⁵ http://www.agriculture.uz/filesarchive/Agar_policy_Food_security_20072016_all.pdf

ta'minlangan. Shu jihatdan mamlakatda yer, suv, mehnat va boshqa resurslardan foydalanishning eng samarali yo'llarini topish, fan, texnika va texnologiyaning eng ilg'or yutuqlarini ishlab chiqarish va amliyotga qo'llash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hamda ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, assortimentini yaxshilash agrosanoat majmuasining bosh vazifalaridan biridir.

Agarda yer yuzi aholisining 2 mlrd.ga yaqini ochlik va ichimlik suvi tanqisligi sharoitida yashayotganini xisobga olsak, bu muammo yanada keskinligi ayonlashadi. Bundan tashqari yer yuzi aholisi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi aholisi ham, keskin ko'payib bormoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, 2030-yilga borib Respublika aholisi 46 mln. kishini tashkil etar ekan.

Ikkinchidan, ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxi past bo'lishini ta'minlash. Bu juda dolzarb muammolardan biri bo'lib, bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqadi. Bozorda raqobatga bardosh berish uchun yetishtirilayotgan mahsulotlar ham sifatli, ham arzon bo'lishi kerak. Bozorda talab va taklif qonuni talablari natijasida shakllangan narxdan yetishtirilayotgan mahsulot tannarxi arzon bo'lishi talab qilinadi.

Mahsulotlar tannarxining arzon bo'lishi ma'lum darajada ijtimoiy masalaning ham to'g'ri hal etilishiga xizmat qiladi. Gap shuningdek, mahsulotlar tannarxining past bo'lishi ularning narxini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu, aholining mahsulotlarni sotib olish imkoniyatlarini kengaytiradi, turmush darajasini oshiradi, ishlab chiqaruvchilarning esa foydasi ko'payishini ta'minlaydi. Natijada korxonalarining davlat byudjetiga to'lovlari va soliqlar umumiy muqdori ko'p bo'ladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi va yanada tez rivojlanish imkoniyatlari tug'iladi.

Keyingi yillardagi narx siyosati natijasida qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlari ancha cheklanib qoldi. Sanoat mahsulotlariga erkin narxlar siyosati olib borildi va natijada qishloq xo'jaligi sotib olayotgan o'g'it, yoqilg'i – moylash materallari, texnika, ularni butlovchi qismlari narxlari 14 yil (1991-2004) ichida 1400-marta va undan ko'proqqa oshdi. Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari bo'lgan paxta va donga narxlar esa 24-28-marta oshdi, xolos. Narxlarning bunday holatida shakllanishi (narx paritetining buzilishi) qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlari cheklanishiga

sabab bo‘ladi va bu, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi korxonalarida ko‘plab boshqa muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining bu holati, o‘z navbatida, umuman, mamlakat agrosanoat majmuasining jadal rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli ham yetishtirilayotgan mahsulotlar birligini tannarxini imkon darajasida pasaytirish agrosanoat majmuasi asosiy vazifalarining ikkinchisi hisoblanadi.

Uchinchidan, mamlakat agrosanoat majmuasi tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida, mehnat unumdorligini oshirish. Ma‘lumki mehnat unumdorligining yuqori bo‘lishi juda katta ijobiy natijalarga olib keladi. Mehnat unumdorligining oshishi mahsulot tannarxi nisbatan past bo‘lishini, katta miqdordagi resurslar tejalishini ta‘minlaydi.

Qishloq xo‘jaligi mehnat resurslarining bo‘shashiga olib keladi. Qishloq xo‘jaligidan bo‘shashgan mehnat resurslari nisbatan ko‘p malaka va bilim talab qiladigan sanoatning turli saholarida ishlashi uchun imkoniyatlar tug‘iladi. Natijada mamlakat mehnat resurslarining sifat darajasi oshadi. Bu esa eng katta boylik hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tarjibalari shuni ko‘rsatadiki, bizda mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari juda katta. Masalan: AQSh, Germaniya, Gollandiya kabi rivojlangan davlatlarida qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan bir xodim mamlakat aholisining 90-110 tasi yetarli mahsulot ishlab chiqariladi. Bizda bu ko‘rsatkich 8-9 tani tashkil etadi. Albatta, rivojlangan davlatlar agrosanoat majmuasi tarkibida asosiy mehnat resurslari agrosanoat majmuasining qishloq xo‘jaligiga xizmat qiladigan yoki mahsulotini qayta ishlaydigan sohalarida band. Agar umuman, agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligini hisobga olsak, yuqoridagi nisbatning farqi kamayadi. Shunga qarasdan rivojlangan davlatlar va O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligining darajasi o‘rtasidagi farq juda katta. Shu sabablarga ko‘ra, mamlakat agrosanoat majmuasi mehnat unumdorligini oshirish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatda yutib chiqish va barqaror rivojlanish uchun mehnat unumdorligini oshirishga et‘iborni kuchaytirish lozim.

To‘rtinchidan, majmua tarmoqlarining bir-biri bilan mutanosib holda rivojlanishini ta‘minlash. Bu juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biridir. Hozirda mamlakat agrosanoat majmuasining 1-sohasi, agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning mavjudligi va borlarining rivojlanish darajasi talabdagidan juda past. Natijada,

traktorlarning katta qismi, kombaynlarning, yuk avtomobillarining yuz foizi import evaziga qoplanadi. Mamlakatda traktor, paxta terish mashinasi va qator qishloq xo‘jaligi uchun zarur ishchi mashinalar ishlab chiqarishga yetarlicha imkoniyat bor. Shu sababli ana shu tarmoqlarni rivojlantirishga eng ustuvor yo‘nalishlardan bir sifatida qaralmoqda.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning nobud bo‘lmasligi jihatdan ularni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi va iste‘molchilarga yetkazib beruvchi tarmoq va xizmatlarning mavjudligiga, ularning jihozlanishiga va bir me‘yorda yetarli quvvat bilan ishlashiga bog‘liq. Hozirda qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan ayrim mahsulotlarning 25-30 foizi ana shu tarmoqlardagi kamchiliklar sababli nobud bo‘lmoqda.

Bu esa ishlab chiqarish resurlari, mahsulotlar taqchilligi sharoitida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan yo‘qotishdir. Ayniqsa pomidor, uzum, olma kabi mahsulotlar pishgan paytda ularni tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi tashkilotlar quvvatining yetishmasligi bunga sabab bo‘lmoqda. Ba‘zi hollarda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasining pastligi ham iqtisodiyotga katta zarar keltiradi. Masalan, hozirda go‘shetni qayta ishlash sanoati o‘z quvvatidan yil davomida 5-18 foizga foydalanmoqda. Bu, o‘z navbatidan ishlab chiqarish samaradorligi pasayishiga, mavjud resurslarning bekor turib qolishiga olib keladi. Umuman olganda, agrosanoat majmuasi tarmoqlarini bir-biriga mutanosib rivojlantirish juda murakkab bo‘lsada, bu masalaga e‘tiborsiz bo‘lish mumkin emas. Uni oqilona hal etish iqtisodiy siyosatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, mahsulot eksportini ko‘paytirish, xorijiy davlatlarning ilg‘or tarjibasini o‘rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish, kadrlar malakasini, bilimni oshirish, mehnatkashlarning turmush sharoitlarini yuksaltirish masalalari ham majmuaning muhim vazifalari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabriklarida ta‘kidlaganidek: ”Mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlash, sohada yangi ish o‘rinlari yaratish, manfaatdorlikni yanada oshirish, ilg‘or yondashuvlarni joriy etish eng muhim masalaga aylanmoqda. Shuning uchun biz iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-

quvvatlash masalasiga har doyimidan ham ko‘proq ahamiyat bermoqdamiz. Xususan, 2020-yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 5 ta qonuni, Prezidentning 12 ta farmoni va 30 dan ortiq qarori hamda hukumatning ko‘plab qarorlari ayni shu yo‘nalishga qaratilgandir. Bugungi kunda mamlakatimizda 97 ta paxta-to‘qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g‘allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxta-to‘qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo‘nalishi bo‘yicha 34 ta, parrandachilik bo‘yicha 10 ta, baliqchilik tarmog‘i bo‘yicha 36 ta, asalarichilik yo‘nalishi bo‘yicha 15 ta fermer xo‘jaligi klaster usulida mahsulot yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, keyingi ikki yilda respublikada pillachilik sohasida 62 ta klaster ishga tushirilib, ular tomonidan 600 milliard so‘mga yaqin mahsulot ishlab chiqarildi. Joriy yilning o‘tgan davrida respublika bo‘yicha 11 mingga yaqin, ya‘ni 90 foiz fermer xo‘jaliklari ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarga aylantirildi. Buning natijasida qariyb 37 ming aholi ish bilan ta‘minlandi. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, uning hududiy organlari, mahalla fuqarolar yig‘inlarida tomorqa xo‘jaliklari bo‘yicha alohida o‘rinbosar lavozimi joriy etildi. Shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari samaradorligini oshirishga qaratilayotgan ana shunday chora-tadbirlar natijasida bu yil respublika bo‘yicha to‘rt yarim million aholiga tegishli 432 ming gektar tomorqa maydonlarida ekinlar to‘liq ekilishi ta‘minlandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu maydonlarda 10 million tonnadan ziyod mahsulot yetishtirildi. Davlat tomonidan shaxsiy tomorqa egalariга artezian quduqlari qazish hamda ixcham issiqxonalar qurish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratilayotgani ham aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yana bir o‘ziga xos yo‘nalishiga aylandi. Ushbu ezgu maqsadlar uchun O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi jamg‘armadan 65 yarim milliard so‘m, tomorqa xizmati korxonalari, qishloq xo‘jaligi kooperativlari va fermerlarni qo‘llab-quvvatlash uchun esa 110 milliard so‘mga yaqin mablag‘ yo‘naltirildi. Bundan tashqari, “Har bir yoshga – bir gektar” dasturi doirasida g‘alladan bo‘shagan maydonlarning 84 ming gektari 266 mingta kam ta‘minlangan oilalar va ishsiz yoshlarga berilib, ularga fermer xo‘jaliklari va tomorqa xizmati korxonalari birlashtirildi. Ushbu dastur natijasida 1 million tonnadan ziyod mahsulot yetishtirildi. Amalga oshirilgan ana shunday islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida bu yil, jahonda yuz berayotgan pandemiyaning salbiy ta‘siriga qaramasdan,

822 million dollardan ziyod miqdordagi qariyb 1,5 million tonna meva-sabzavot 70 dan ortiq davlatga eksport qilindi. Sohadagi ilg'or tajribalarga tayangan holda, hududlarda "Tuproq klinikasi" mobil laboratoriyalari tashkil etilib, sho'rlanish, suv, shamol eroziyasi, ozuqa elementlari kamayishining oldini olish, tuproq unumdorligi va mahsuldorligini oshirish borasida fermer xo'jaliklari va klasterlariga zarur xizmatlar ko'rsatmoqda. Shu o'rinda paxta maydonlari hamda bog', uzumzor va issiqxona xo'jaliklarida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish xarajatlarining bir qismi davlat tomonidan qoplab berilayotganini alohida qayd etish lozim. Joriy yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgan 677 milliard so'mlik 80 ga yaqin loyiha, 1 trillion 240 milliard so'mlik investitsiya mablag'lari asosida 12 ta agrologistika markazi ishga tushirilib, qariyb uch yarim ming yangi ish o'rni yaratildi. Shuningdek, paxtachilik klasterlari, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyunchilik tarmoqlarida hamda zamonaviy issiqxonalarining barpo etilishi natijasida 14 mingga yaqin aholi ish bilan ta'minlandi. Ayni paytda chorvachilikda naslchilikni yaxshilash, zotdor chorva mollarini ko'paytirish, ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ushbu sohaga davlat tomonidan subsidiyalar ajratib berish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan davrda chorvachilik xo'jaliklariga ushbu maqsadlar uchun 20 milliard so'mga yaqin subsidiyalar ajratildi".

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishda yanada chuqurlashtirganda davlat siyosatini to'g'ri yo'naltirgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Aholining oziq-ovqat xavsizligini ta'minlash;
- Qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- Soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish;
- Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- Atrof-muhit muhofazasini ta'minlash;
- Qishloq xo'jaligida ilm-fan, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

-Investisiyalarni jalb qilish, resurs tejamkor texnologiyalarini joriy etish va hokazolar.

Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizda agrar sohaning barcha yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun arzon kreditlar berilishi yo‘lga qo‘yilmoqda. Joriy yilda 2 milliard AQSH dolloriga teng kelgusi 5-7 yil ichida esa bundan 3-4 baravar ko‘p meva sabzavot mahsulotlarini eksport qilish rejalashtirilgan. To‘g‘ri joriy yildagi mazkur reja bajarilishida bir qancha qiyinchiliklar yuz berdi, lekin bugun istiqbol zaminida o‘zbek dehqonlariga cheksiz imkoniyatlar bergani barobarida unumdor yer va daromadli ekin mahsulotlarini yetishtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri agrosanoat majmuini raqamlashtirish borasida qabul qilingan hukumat qarorlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.12.2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-son qaroriga muvofiq agrar sohani raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi⁴⁶:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishning idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini joriy etish

- agrosanoat majmuidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish

- qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy AKTni joriy etish uchun DXSh shartlari asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish;

- suv omborlari va sug‘orish tizimlarida suv resurslaridan foydalanishni onlayn rejimda nazorat qilish texnologiyalarini joriy etish

- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste‘moli hisobini yuritish hamda ma‘lumotlar bazasini shakllantirish biznes-startap loyihalarni amalga oshirish va innovatsion loyihalar natijalarini tijoratlashtirish uchun korxonalariga ko‘maklashish.

Qaror bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat muassasasi tashkil etiladi. Markaz agrosanoat majmuida “Raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimi yuritilishi uchun mas‘ul hisoblanadi Raqamli qishloq xo‘jaligi» axborot

⁴⁶ <https://yuz.uz/news/agrosanoat-majmuini-raqamlashtirishning-ustuvor-yonalishlari-belgilandi>

tizimi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, ta‘minotchilar hamda qayta ishlash tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va reliefi, agrosanoat majmuasi tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish, agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo‘g‘inlari uchun umumiy bo‘lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o‘ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish ko‘p jihatdan tirik organizm (hayvon, o‘simlik va boshqalar) bilan ham bog‘liq. Ushbu bobda iqtisodiyotning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning agrar sohada namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, agrar munosabatlarning mazmuni tahlil qilinib, yer rentasining vujudga kelishi va taqsimlanishi muammolari hamda ularning qisqacha tavsifi beriladi.

Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalariga to‘xtalib o‘tilib, agrobiznes va uning turlari bayon etiladi.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo‘lib, unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun iste‘mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga xomashyo ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbari bu sohaga har doim alohida e‘tibor berib kelmoqdalar.

«Qishloq xo‘jaligidagi islohotlardan maqsad, – deb ta‘kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev, – iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda “2019-2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash milliy dasturi”ni qabul qilishi kerak. Qishloq xo‘jaligi vazirligi mamlakatimizda meva-sabzavot yetishtirish bo‘yicha klaster tizimi qanday holatda ekanini chuqur tahlil qilib, 2019-

yil 1-martga qadar bu boradagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etishga doir takliflarni kiritsin”⁴⁷.

Bu vazifalarni bajarish uchun agrar sohani va ular bilan bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish va infratuzilma sohalarini har tomonlama rivojlantirish zarurdir. Boshqa sohalar kabi qishloq xo‘jaligida ham kishilar o‘rtasida iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar: agrar munosabatlar, tuproq unumdorligi, yerning tabiiy unumdorligi, iqtisodiy unumdorlik, agrosanoat majmuasi, huquqiy baza, fermer, dehqon xo‘jaliklari, shirkat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Agrar munosabatlar nima?
2. Yerning tabiiy unumdorligi nima?
3. Iqtisodiy unumdorlik nima?
4. Agrosanoat majmuasi nima?
5. Fermer va dehqon xo‘jaliklari qanday farqlanadi?
6. Davlatning agrar siyosati qanay tamoyillarga asoslanadi?
7. Davlat agrar siyosatining qanday asosiy yo‘nalishlari mavjud?
8. Agrosanoatni raqamlashtirish markazi faoliyati qanday tashkil etiladi?

⁴⁷ “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018-yil 29-dekabr. №271-272 soni.

VIII BOB. TRANSPORT VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA INFRAUZILMASINING MINTAQAVIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

8.1. Transportning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi

8.2. Temir yo‘l transporti

8.3. Avtomobil transporti

8.4. Havo va suv transportlari

8.5. Axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlari

8.6. Transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari

8.1. Transportning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi


Transport sohasi jahon iqtisodiyoti va umuman hayot rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismidir, chunki transport jahon iqtisodiyotining strategik muhim tarmog‘idan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarining tezlashishi transport sohasini doimiy takomillashtirishga undaydi. Transport sohasining talab darajada xizmat ko‘rsatishi va xalqaro savdo jarayonlarini tavsiflovchi tarkibiy o‘zgarishlar jahon transport sohasidagi evolyutsion rivojlanishlardan biri deb aytsak bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi transport xizmatlari sohasi globallashuvning asosiy omillaridan biridir, Bugungi kunda «xalqaro transport bozori qiymati 2,2 trillion AQSh dollarga teng deb baholanmoqda (YaIMni 6,8%). Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportning YaIMdagi ulushi 4-9 foizni, aholi bandligida esa 3-7 foizni tashkil etadi»⁴⁸. Kuchli raqobat sababli temir yo‘l tizimi boshqa transport turlari, xususan, avtomobil va havo yo‘llari tarmog‘i bilan raqobatga kirishmoqda. Bir tomondan, temir yo‘l transport tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi. Zamon talablari asosida temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchi J.A.Haydarovning fikriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, transport infratuzilmasiga quyidagicha tarifni bergan: “Transport infratuzilmasi – bu iqtisodiy kategoriya bolib yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish maqsadida transport vositalari

⁴⁸ <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>

harakati, kutish, muvofiqlashtirish va elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlovchi muhandislik inshootlari majmuasi bilan ifodalangan xalq xo'jaligining maxsus tarmog'idir".

Tariflarga asoslanib, transport infratuzilmasining bir qator o'ziga xos xususiyatlariga va transport muhitining xususiyatlariga ko'ra, biz «transport infratuzilmasi» toifasini diagrammada keltirilgan uning beshta asosiy segmentining kontsentratsiyasi shaklida taqdim etishimiz mumkin (8.1-rasm).




8.1-rasm. Transport infratuzilmasini transport vositasi turlari bo'yicha segmentatsiyasi⁴⁹

Mamlakatimizda ishlab chiqarish sohasini katta amaliy va strategik ahamiyatga molik istiqboliy yo'nalishlarda o'sishi, chet-el investitsiyalari asosida xalqaro qo'shma korxonalarini jadal sur'atlarda shakllanayotgani va faoliyat ko'rsatishni boshlayotganligi transportga bo'lgan talabni oshiradi. Bu transport tizimini texnik-texnologik imkoniyatlarini rivojlantirishni, turli transport vositalari va tarmoqlari esa iste'molchilarning tashish hajmlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'z muddatlarida samarali ta'minlashlarini taqoza etadi. 8.1-rasmda O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida transportning barcha turlarida yuk tashish va yuk aylanmasining

⁴⁹ Haydarov J.A.– SamISI, “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistenti. “O'zbekistonda transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish omillari”. “Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2-qism. 2023-yil 20-22 may. 73-76- betlar.


o‘shish sur‘atlarini taqqoslanishi, % da (yanvar-iyun) o‘zgarish dinamikasi keltirilgan⁵⁰.



8.2-rasm. Transportning barcha turlarida yuk tashish va yuk aylanmasining o‘shish sur‘atlarini taqqoslanishi, % da (yanvar-iyun).

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan, ko‘rinib turibdiki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 2022-yilning yanvar-iyun oylarida transportning barcha turlari bo‘yicha yuk aylanmasi hajmining 1 038,0 mln. t-km.ga o‘shishi kuzatilgan. Bu asosan avtomobil transportining hissasiga to‘g‘ri kelib, ularning yuk aylanmasi hajmi 647,4 mln. t-km.ga oshgan⁵¹

Transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasini kurib chiqsak, (% da 2022 yil, yanvar-iyun) umumiy yuk aylanmasi tarkibida havo transportining ulushi nisbatan ahamiyatsiz bo‘lib (0,5 %), yuk aylanmasining hajmi 163,6 mln tonna-km tashkil etganligi 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,4 martaga oshganligini ko‘rsatgan (8.3-rasm)⁵².



8.3-rasm. Transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasini kurib chiqsak, (% da 2022 yil, yanvar-iyun) umumiy yuk aylanmasi tarkibida havo transportining ulushi


⁵⁰ Davlat statistika qo‘mitasi

⁵⁰ Davlat statistika qo‘mitasi

⁵¹ Davlat statistika qo‘mitasi


⁵² Davlat statistika qo‘mitasi

Shu bilan bir qatorda, temir yo‘l transporti yuk aylanmasi hajmi 12 188,9 mln. t-km.ni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 209,8 mln. t-km.ga yoki 1,8 % ga o‘shish kuzatilgan⁵³ (8.4-rasm).



8.4-rasm. Transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasini kurib chiqsak, (% da 2022 yil, yanvar-iyun) umumiy yuk aylanmasi tarkibida , temir transportining ulushi

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, avtomobil transporti yuk aylanmasi hajmi 9 212,0 mln. t-km.ni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 647,4 mln. t-km.ga yoki 7,6 % ga oshgan (8.5-rasm).⁵⁴




8.5-rasm. Transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasini ko‘rib chiqsak, (% da 2022 yil, yanvar-iyun) umumiy yuk aylanmasi tarkibida, avtomobil transportining ulushi

Ushbu davrda quvur yo‘li transporti yuk aylanmasi hajmi 14 679,2 mln. t-km.ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 131,3 mln. t-km.ga yoki 0,9 % ga o‘shish kuzatilgan (8.6-rasm).

⁵³ Davlat statistika qo‘mitasi

⁵⁴ Davlat statistika qo‘mitasi



8.6-rasm. Transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasini kurib chiqsak, (% da 2022 yil, yanvar-iyun) umumiy yuk aylanmasi tarkibida, quvur transportining ulushi

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida umumiy yuk aylanmasi hajmida eng yuqori ulush quvur transporti hissasiga to‘g‘ri keldi – 40,5 %, temir yo‘l transporti 33,6 %, avtomobil transporti 25,4 % va havo transporti ulushi 0,5 % ni tashkil etgan.

Transport – (lotincha “transporto” - tashiyman) ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i, yuklarni va yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat, viloyat va tumanlari, korxonalari, xalq xo‘jalik tarmoqlari o‘rtasida, shuningdek, mamlakat ichida ayriboshlash va aloqani ta’minlaydi. Quyidagi transportlar mavjud: yer usti transporti (avtomobil, quvur yo‘llari), suv transporti (dengiz va daryo), Havo transporti (aviatsiya). Foydalanishiga ko‘ra ichki ishlab chiqarish (sanoat) transportga va umumiy foydalaniladigan transportga bo‘linadi. Bu transport turlari bilan bir qatorda shaxsiy foydalaniladigan avtotransportlar ham mavjud. Vazifasi va xususiyatiga ko‘ra yo‘lovchilar va yuk tashuvchi transportga bo‘linadi. Ichki ishlab chiqarish transporti bevosita moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi va korxonada ishlab chiqarish vositalarining tarkibiy qismi xisoblanadi. Umumiy foydalaniladigan transport (yer usti, suv va Havo) ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim soxani tashkil etadi. Umumiy foydalaniladigan transportning moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida paydo bo‘lishi sanoat to‘ntarishi bilan bog‘liq.

Bugungi kunda transport sohasini rivojlantirish borasida O‘zbekistonda juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda va bu sohaga e’tibor davlat darajasida bo‘lmoqda. Xususan, *Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev* 2022 yil 28 sentyabrda *transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishida quyidagilarni*

ta'kidlagan: “Transport qulayliklari mamlakat rivojini ko'rsatuvchi va buni ta'minlovchi omillardan biri. Yurtimizda soha infratuzilmasi yangilanib, sharoitlar kengaytirilayotgani o'z natijalarini bermoqda. Jumladan, aviatsiya bozori erkinlashgani hisobiga oxirgi uch yilda O'zbekistonga parvozlarni amalga oshirayotgan aviakompaniyalar soni 2 baravarga o'sgan. Avtomobilda xalqaro yuk tashishda mahalliy korxonalarining ulushi 62 foizga yetgan. 300 kilometr temir yo'l elektrlashtirilgan, 1 ming 500 kilometr avtomobil yo'li qurilgan”⁵⁵.

Davlatimiz rahbari hali foydalanilmayotgan imkoniyatlar, qilinadigan ishlar juda ko'pligini strategik islohotlar agentligi tomonidan sohadagi ishlar natijadorligi tahlil qilinganda, bir qator muammolar aniqlanganligini aytib o'tganlar. Masalan, oxirgi uch yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 16 foiz o'sgani holda, temir yo'lda yuk aylanmasi atigi 7 foiz oshgan. Aviatsiyada raqobat muhiti to'la shakllanmagan, 10 ta aeroportning samaradorligi past darajada. Oqibatda, raqobatdosh narxlarda yetkazib berish qulayligi bo'yicha Xalqaro logistika samaradorligi indeksida mamlakatimiz 160 ta davlat ichida 120-o'rinni egallagan.⁵⁶

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28-dekabrda Oliy Majlisning qo'shma majlisida qilgan murojaatnomasida bu soha to'g'risida shunday degan edilar: “...Shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda.

Shu bois, “Uzbekistan Airways” va “O'zbekiston temir yo'llari” kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarur.

Vazirlar Mahkamasi eksport yuklarini qo'shni davlatlardan temir yo'l orqali imtiyozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borishi kerak. Shu bilan birga, Jahon bankining “Logistika samaradorligi indeksi”dagi mamlakatimiz o'rini yuqori pozitsiyaga ko'tarish choralarini ko'rish lozim”⁵⁷.

Mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdoning o'sishiga asosan dengiz kemachilgining rivojlanishi turtki beradi. Avtotranspot XIX asrning oxirida paydo bo'ldi. XX asrning 20 yillarida qisqa masofaga yuk va

⁵⁵ <https://mintrans.uz/uz/news/transport-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-takliflar-korib-chiqildi>

⁵⁶ <https://mintrans.uz/uz/news/transport-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-takliflar-korib-chiqildi>

⁵⁷ “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 29 декабр. №271-272 сони.

yo‘lovchilar tashishni amalga oshirib, temir yo‘llari va daryo transporti bilan raqobat qila boshladi. Fuqaro Havo transporti XX asrning birinchi choragida vujudga keldi.

XX asrda jahon transport tizimi juda yuksaldi. Rivojlangan mamlakatlarda transport tizimlarining barcha turlari (AQSh, Kanada) yoki ayrim transport turlari (G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya) ning yuksak darajada rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

XX asrning boshlariga qadar O‘zbekistonda yuk va yo‘lovchilar, asosan, temir yo‘llari, ot-ulov transporti, tuya, xachir va boshqa yuk tashuvchi xayvonlarda tashilgan. XX asrning 20 yillarida avtomobil va havo transporti, yirik sanoat korxonalarini qurilishi bilan sanoat tarmog‘i vujudga keldi. 80 yillar oxiriga kelib, respublika transportining moddiy texnika bazasi birmuncha yaxshilandi. Sanoat va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport modiy texnika bazasining yuksalishi bilan yuk va yo‘lovchi tashish hajmi ham orta bordi.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin transportning xalq xo‘jaligiga va aholiga xizmat ko‘rsatishini tubdan yaxshilash va transportni boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida “O‘zbekiston Havo yo‘llari” milliy aviya kompaniyasi (1992), “O‘zbekiston avtomobil transporti” davlat aksiyadorlik korparatsiyasi (1993), “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasi (1994) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aksiyadorlik, ochiq turdagi aksiyadorlik, ma’suliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi⁵⁸.

Respublika avtotransport vositalarining bir qismi (avtobuslar, yuk va yengil mashinalar) jamoa xo‘jaliklari, fuqarolarning mulkiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo‘lovchi tashuvchi transportlarning barcha turi – temir yo‘llari, avtomobil, aviatsiya, shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus, metro-politen), daryo transporti, quvur yo‘llari transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan (sanoat) transporti turlari avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan.

Asaka avtomobil zavodi “O‘zDeu avto” kompaniyasi – O‘zbekiston avtomobil sanoatining yetakchi va to‘ng‘ich korxonasidir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qurilgan. Zavodning ishga tushirilishi tufayli O‘zbekiston jahonda

⁵⁸ <https://geografiya.uz/muhim-va-mashhur-sanalar/10238-1851-yil-8-yanvarda-fizik-jan-bernar-leon-fukoyer-aylanishini-yaqqol-korsatuvchi-asbob-yasagan.html>

o‘z avtomobil sanoatiga ega bo‘lgan 28 mamlakat qatoridan o‘rin oldi. Asaka avtomobil zavodi Andijon viloyatining asaka shaxrida 1994-1996 yillarda qurilgan. Avtomobil zavodi o‘rta klasdagi dvigateli sig‘imi 1500 sm³ bo‘lgan “Neksiya”, o‘ta kichik klasdagi yonilg‘i kam sarflovchi, dvigateli sig‘imi 800 sm³ “Tiko” yengil avtomobili xamda furgon tipidagi yetti o‘rindiqli, dvigateli sig‘imi 800 sm³ bo‘lgan “Damas” miniavtobuslarini ishlab chiqaradi. Uning barcha uskuna va jixozlari Koreya, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Italiya mamlakatlarida ishlab chiqarilgan ilg‘or avtomatika va texnologiyalardan iborat. “UzDeu Avto” kompaniyasi yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati. Muassislari: O‘zbekiston Respublikasi xukmati nomidan “O‘zavtosanoat” uyushmasi va Koreya Respublikasining “DEU” korparatsiyasi. Aksiyalari xissasi 50% ga 50% bo‘lib, investitsiyalarning umumiy hajmi 650 mln AQSh dollariga teng. Kompaniyani tuzish to‘g‘risidagi ta‘sis shartnomasi 1992 yil 29 avgustda imzolangan. Zavod qurilishi esa 1994 yil boshlarida boshlangan. “Damas” minibuslari 1996 yil 25 martdan, “Tiko” 1996 yil iyun oyining o‘rtalaridan, “Neksiya” avtomobiliesa 1996 yil iyul oyining o‘rtalarida ishlab chiqarila boshandi.

1996 yil 19 iyulda zavodning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Zavod kuniga 200 “Neksiya”, 120 “Tiko”, 60 “Damas” rusumli avtomashinalar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan. Korxonadan 2000 yil oktyabr oyiga qadar 216659 ta avtomobil ishlab chiqarildi, 1999 yil 15 mingga yaqin avtomobil eksport qilindi.

Toshkent shahrida avtomobillarni sotish va sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatadi. Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Yekaterinburg, Tyumen, Novosibirsk, Minsk, Bishkek, Chimkent, Krasnodar kabi shaharlarda mintaqaviy vakolatxonalari va sho‘ba korxonalarini ochilgan.

Transport xalq xujaligida axamiyati katta bulib, ishlab chikarish kuchlarining rivojlantirishda uning roli kattadir. O‘zbekistonda xozirgi zamon transport turlarini deyarli xammasi mavjuddir.

Temir yul, Havo, avto, suv, quvur va elektron transportlar.

O‘zbekiston xalq xo‘jaligida hozirgi kunda aholining 4-5 %i banddir. Yoki Respublika moddiy boylik ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchi xizmatchilarning 12 % dan ortig‘i transportda ishlaydi.

O‘zbekistonda transport tarmogi ayniqsa, sobiq sovet xokimiyati davrida rivojlandi. Bu jarayon O‘zbekiston xaqiqiy mustaqillikka ega bulgandan keyin yana rivojini topdi.

O'zbekistonda transportning moddiy texnika bazasi mustaxkamlanib bormokda. Yuk tashishda temir yul transporti asosiy o'rinda turadi.

Temir yo'l transporti umumiy foydalaniladigan transport turlari buyicha yuk oborotini 93,2 % ini tashkil qiladi. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1888 yildan boshlangan edi. Krasnovodskiydan Gorjuy temir yo'li davom ettirib, Farobiy bekatidan Samarqandgacha, Xovosdan Andijongacha temir yo'l o'tkazildi. 1905 yilda Toshkent-Orenburg temir yo'li qurildi. Fuqarolar urushi yillarida temir yo'l va uning xarakatiga ancha ziyon yetadi. Tez kunda O'zbekiston hukumati buzilgan yo'llarni tikladi va uni yanada rivojlantirdi.


1930 yilda Turksib temir yo'li qurildi. U bilan O'zbekiston, Qirg'iziston orqali Sibir bilan o'tadi.

Urush yillarida Toshkent viloyatida Qizil to'qimachi temir yuli quriladi.

1925-1955 yillari Chorjuy-Qo'ng'iro't temir yo'li bilan O'zbekiston boshqa rayonlari - quyi Amudaryo hududi bilan tutashadi. 1962 yili Navoiy-Uchquduq temir yo'li qurilib tog'-kon sanoati bilan markaz tutashtiriladi.

O'zbekiston keyingi yillarda Mirzacho'l, Qarshi yo'li, Quyi Amudaryo va boshqa yerlarda yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari avj oladi. Shu munosabat bilan qisqa masofaga temir yo'llar ko'riladi: Sirdaryo Jizzax bilan Samarqand-Qarshi, 1972 yilda Qo'ng'iro'tdan - Ustyurt orqali Baynov temir yo'llari qurildi. Bu temir yo'l O'rta Osiyoni Yevropa bilan ikkinchi yo'nalishda temir yo'l aloqasi vujudga kelib, bu yo'l Aris orqali Orenburg, Ural va Volga bo'yi hamda markaz bilan aloqani kuchaytiradi.

1990 yilda Nukus-Chumbay temir yo'li quriladi, Tuyamuyna-To'rtko'l temir yo'li quriladi. Surxondaryodan Bo'ldir-Xujahon tuz konigacha va Sho'rchidan-Bandixongacha va Boytun konigacha temir yo'l qurildi. Xozir O'zbekiston temir yo'l uzunligi 6,6 ming km.ni tashkil qiladi. O'zbekiston 1000 km.kv maydonga temir yo'l uzunligi 7,9 km.ga to'g'ri keladi. Bu O'zbekiston uchun ancha yuqori ko'rsatkichdir.



8.7-rasm. Transportning asosiy funksiyalari

O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

1. Havo transportida bozor munosabatlari va raqobat muhitini rivojlantirish

2. Temir yo'l transportida sohani o'zgartirish, raqobatni rivojlantirish, transport samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish.

3. Transportning barqaror va samarali ishlashi iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari, mamlakat yaxlitligi, milliy xavfsizligini ta'minlash, aholining turmush darajasini yaxshilash va O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga oqilona integratsiyalashuvi uchun zarur shartdir.

Havo transportida bozor munosabatlari shakllari, mulkni o'zgartirish mexanizmlari va raqobat muhitining sust rivojlanishi asosiy tizimli muammolar bo'lib qolmoqda. Xalqaro temir yo'l tarmog'ida tashish hajmi o'sish sur'atlarining yetarli emasligi respublikaning transport va tranzit salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, temir yo'l transportida raqobatni rivojlantirish,

transport samaradorligini oshirish va boshqalar bilan bog'liq muammolar mavjud.

2022-2026 yillarda transport tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlar:

- tezyurar poezdlarni qo'shimcha sotib olish yo'li bilan yo'lovchilar aylanishini ko'paytirish va mamlakat hududlari o'rtasida tezyurar poezdlar qatnovini rivojlantirish. Tezyurar poezdlar harakatlanadigan ikkita yo'lakli yo'l o'tkazgichlarni qurish uchun sarmoyalarni jalb qilish;

- yo'lovchilar tashishni yuk tashish daromadlaridan to'g'ridan to'g'ri subsidiyalashtirishni bosqichma-bosqich bekor qilish va davlat byudjet hisobiga o'tkazish;

- yuk egalari va yo'lovchilarga davlat-xususiy sheriklik asosida onlayn tarzda xizmatlar ko'rsatish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish;

- O'zbekistonning tranzit yo'laklari chorrahasida jahon savdo zonasini tashkil etish;

- normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlatlararo standartlarni uyg'unlashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish va temir yo'l transporti, infratuzilma ob'yektlari sohasidagi muvofiqlikni tasdiqlash tizimida ishlash;

- ilmiy-tadqiqot institutlarini yaratish, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot va loyihalash ishlari hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish.

Ichki temir yo'llarning raqobatbardoshligini oshirish va tranzit yuklarni muqobil temir yo'ldan ichki temir yo'lga yo'naltirish uchun quyidagilar:

- Afg'oniston orqali Pokiston bilan, shuningdek, Qirg'iziston orqali Xitoy bilan temir yo'l aloqasini o'rnatish;

- G'alaba (O'zbekiston) va Peshovar stansiyalari o'rtasida (Pokiston) logistika klasterlarini yaratish va Qashqar (Xitoy) va Andijon stansiyalari o'rtasida (O'zbekiston) intermodal tashishlarni tashkil etish lozim (temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali). Bu esa ushbu yo'nalishda ham yuk egalari, ham Afg'oniston va Qirg'iziston transport kompaniyalari tomonidan yuk tashishga qiziqish uyg'otadi;

- mavjud xalqaro avtomagistrallardan foydalanish va yuklarni Qashqar (Xitoy)dan Andijon (O'zbekiston)gacha va Peshovar

(Pokiston)dan G'alaba (O'zbekiston)gacha bo'lgan xalqaro avtomobil yo'llarida tashishni tashkil etish.

Havo transporti sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha:

- parvozlar geografiyasini kengaytirish. Ham to'g'ridan to'g'ri, ham tranzit yo'lovchilar tashishni rivojlantirish, shuningdek, barcha yo'nalishlarda parvozlar intervalini izchil oshirish;

- yo'lovchilar tashish bozorida transport xizmatlarining yangi turlarini, marketing va tarif siyosatini joriy etish maqsadida axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish;

- mavjud xalqaro intermodal logistika markazlaridan maksimal darajada foydalangan holda Yevropa va Osiyo o'rtasida muntazam yuk tashish yo'nalishlarini samarali tashkil etish.

Yo'l qurilishi va avtomobil transporti sohasida xizmatlar ko'rsatish sifatini yanada oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- transport infratuzilmasi ob'yektlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sohasida yo'llarning tirbandligini kamaytirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganishni hisobga olgan holda yangi yondashuvlarni qo'llash (yuqori tezlikdagi yo'l o'tkazgichlar, yer usti metrosi, ko'priklar, tunnellar va boshqalar);

- yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish va monitoring qilish tizimidan foydalangan holda xalqaro, mintaqaviy, davlat va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun investitsiya mablag'larini jalb qilish;

- davlat va xususiy sheriklik asosida shaharlar va viloyat markazlarida avtostansiyalarni, shuningdek, yo'l bo'yidagi infratuzilma ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish;

- joriy yo'l infratuzilmasiga yukni kamaytirish maqsadida muqobil pullik yo'llar tarmog'ini yaratish;

- jamoat transportining favqulodda xizmat ko'rsatish tizimlari bilan integratsiyalashgan holda onlayn rejimida amalga oshirilishini monitoring qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish, shuningdek, jamoat transportida yo'lovchilar to'lovlarini amalga oshirish tizimlarini to'laligicha raqamlashtirish.

8.2. Temir yo'l transporti

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishida, vertikal integratsiyalashgan tizimlarning yuqori sur'atlarda o'sishida ko'p jihatdan transport faoliyati o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Dunyo

mamlakatlarining iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan koronavirus pandemiyasi oqibatida pasayib ketgan xalqaro transport-iqtisodiy aloqalarini yana jadallik bilan rivojlantirish zarurati sezilmoqda. Bugungi kunda "xalqaro transport bozori qiymati 2,2 trillion AQSh dollarga teng deb baholanmoqda (YaIMni 6,8%). Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportning YaIMdagi ulushi 4-9 foizni, aholi bandligida esa 3-7 foizni tashkil etadi"⁵⁹. Kuchli raqobat sababli temir yo'l tizimi boshqa transport turlari, xususan, avtomobil va havo yo'llari tarmog'i bilan raqobatga kirishmoqda. Bir tomondan, temir yo'l transport tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi. Zamon talablari asosida temir yo'l transport tizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish, mahsulotning yakuniy qiymatida logistika xarajatlarini kamaytirish va mamlakatning tranzit hamda transport-logistika salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Covid-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida transport faoliyatini samarali tashkil etish, undagi risklarni baholash hamda tranzit masalalarini rivojlantirish, transport tizimi samaradorligini oshirish, dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlar uchun muqobil arzon va qisqa transport koridorlarini yaratish, multimodal transport koridorlaridan foydalanishni rivojlantirish, zamonaviy va qulay transport-logistika xizmatlarini joriy etish, tovar tannarxida transport xarajatlarini kamaytirish, yagona kompleks texnologik jarayon asosida materiallar harakatini tezlashtirish, statik va dinamik usullardan foydalangan holda temir yo'l transport tizimi samaradorligini baholash, transport tarmog'ini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish

⁵⁹ <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>

va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan⁶⁰. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchi tashish faoliyati samaradorligiga baho beruvchi indikator-ko‘rsatkichlarini aniqlash, tarmoqni yanada rivojlantirishning strategik maqsadlari, tizimning yagona texnologik jarayoni hamda tashkiliy-iqtisodiy konsepsiyasini joriy etilishi ta‘sirini asoslash, temir yo‘l transportining iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlovchi imkoniyat va zaxiralarni ochib berish, tarmoq iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli istiqboldagi prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish lozim.

So‘nggi yillarda qabul qilingan quyidagi farmon va qarorlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019 yil 1 fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5647-son Farmonlari, 2017 yil 2 dekabrda “2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3422-son qarori, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish lozim.

2015 – 2019 yillarga mo‘ljallangan ishlab chiqarishni tizimli o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashtirish choralari dasturiga muvofiq, ushbu loyihaning moliyaviy manbalari aniqlandi: bunga “O‘ztemiryolmashtirish” unitar korxonasi 66,1 million dollar miqdoridagi o‘z mablag‘lari sarflanadi.

2013 yili “O‘zbekiston temir yo‘llari” unitar korxonasi qarashli metall quyish-mexanika zavodi rekonstruksiyasini yakunladi. Zavod “Kunkel Vagner”, “Otto Junker” va “Nederman” kabi nemis kompaniyalari, shuningdek, Yevropa va Osiyoning boshqa kompaniyalarining zamonaviy texnika va texnologiyalari bilan jihozlandi. 150 million dollarga baholangan loyiha “O‘zbekiston temir yo‘llari” mablag‘lari hamda O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot fondi krediti hisobidan moliyalashtirildi. “Review.uz” ning ma‘lum qilishicha, loyiha 1,2 ming yangi vagon qurish, 950 ta yirik hajmli konteyner ishlab chiqarish va 1500 ta yuk vagonini ta‘mirlash imkonini beradi.

Temir yo‘l transportining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi, chunki mahsulotning yakuniy narxi tarkibidagi transport xarajatlari va o‘z

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли фармони. // www.lex.uz.

vaqtida yetkazib berishni ta'minlash imkoniyati mahalliy korxonalarining muhim raqobatbardoshlik omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan temir yo'l transport tizimining asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini, transport va logistika infratuzilmalarining rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda tizimda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda mahalliy yuk tashuv hajmining ulushi 5,3% va tranzit tashuv hajmining ulushi 92,5% temir yo'l transportiga to'g'ri keladi. Temir yo'l transporti o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash uchun harakatlanuvchi tarkibning faoliyat samaradorligini oshirish zarur. 8.1-jadvalda umumiy foydalanishdagi ishchi, yuk, harakatlanuvchi tarkibning ayrim turlaridan foydalanishni tavsiflovchi ma'lumotlar keltirilgan.

8.1-jadval

O'zbekistonda temir yo'l transporti ishi ko'rsatkichlari⁶¹

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Lokomotiv unumdorligi, sutkasiga ming t/km brutto	947	1015	1056	1110	1190	1200
Yuk vagonining unumdorligi, sutkasiga tkm netto	30	30,4	30,8	31,1	32	32,2
Yuk poezdining uchastka bo'yicha o'rtacha tezligi, km-soat	32	31	30,6	31,3	30	31
Yuk poezdining texnik tezligi, km-soat	39,3	39,7	40,4	40,7	41,1	41
Yuk vagonining o'rtacha aylanish vaqti, sutka	4,6	5,78	4,2	4,1	3,84	3,9

Temir yo'l orqali tranzit tashuvlar hajmi 2012 yilda 11,984 mln. tonnani, 2021 yilga kelib esa 8,35 mln. tonnani tashkil etgan, ya'ni 2012 yilga nisbatan bu ko'rsatkich 30 % ga kamaygan. Tranzit yuklarning kirib kelishi Tojikistondan - 421 ming tonna yoki 36,1 mln. dollarga, Qirg'istondan - 76 ming tonna yoki 2,9 mln. dollarga, Turkmanistondan - 21 ming tonna yoki 3,6 mln.dollarga, Rossiyadan 16 ming tonna yoki 453 ming dollarga kamaygan.

2021 yilda jami tashishdan olingan daromad 8 603.5 mlrd. so'm, shundan


96 % yuk tashish hajmiga to'g'ri kelmoqda . Mazkur yilda yuk tashish xarajatlari 5 248,7 mlrd. so'mga, olingan foyda 3 318.8 mlrd. so'mga teng bo'lgan. Yo'lovchi tashishdan olingan daromad 359,2 mlrd. so'mni,

⁶¹ «Ўзбекистон темир йўллари» АЖ маълумотлари.

unga sarflangan jami xarajatlar 767,016 mlrd. soʻmni tashkil etib, yoʻlovchi tashishdan koʻrilgan zarar 407,8 mlrd. soʻmga teng.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida magistral temir yoʻl transporti orqali 35,8 mln. tonna yuk tashilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 101,9 % ni tashkil etgan. 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan taqqoslaganda, temir yoʻl transporti yuk aylanmasi 209,8 mln. tonna-km.ga oshib, 12 188,9 mln. tonna-km.ni tashkil etdi. Shu davrda, yoʻlovchi aylanmasi 238,1 mln. yoʻlovchi-km.ga oʻsib, 1 703,1 mln. yoʻlovchi-km.ni tashkil etgan.⁶²

Yuk aylanmasi yoʻlovchi aylanmasi:



8.8-rasm. Temir yoʻl transportining yuk va yoʻlovchi aylanmasi oʻsish surʻatlarini taqqoslanishi, % da (yanvar-iyun)

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, temir yoʻl transporti yuk aylanmasi 11 979,1 mln. t-km, yoʻlovchi aylanmasi 1 465,0 mln. yoʻlovchi-km.ga teng boʻlgan.

Temir yoʻl transporti orqali oʻrtacha bir kunlik yuklarni joʻnatish hajmi 198,1 ming tonnani tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ortdi. Bir tonna yuk joʻnatishning oʻrtacha masofasi 339,9 km.ni tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davri koʻrsatkichi darajasidan 0,1 % ga kamaydi. Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, temir yoʻl transporti yuk aylanmasi 11 979,1 mln. t-km, yoʻlovchi aylanmasi 1 465,0 mln. yoʻlovchi-km.ga teng boʻlgan. Temir yoʻl transporti orqali oʻrtacha bir kunlik yuklarni joʻnatish hajmi 198,1 ming tonnani tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ortdi. Bir tonna yuk joʻnatishning oʻrtacha masofasi 339,9 km.ni tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davri koʻrsatkichi darajasidan 0,1 % ga kamaydi.⁶³

⁶² Davlat statistika qoʻmitasi

⁶³ Davlat statistika qoʻmitasi

2022-yilning yanvar-iyun oylarida umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti orqali tashilgan yuk turlarining 2021- yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etilgan bo‘lib, jumladan, kartoshka, poliz mahsulotlari va ho‘l mevalar (175,2 %), qurilish yuklarida (135,5 %) kuzatildi. Shuningdek, paxta tolasi (24,3 %), sement (63,3 %), qora metall parchalari (81,6 %), don va yormalar (85,7 %), ko‘mir (91,7 %) va yog‘och yuklari (92,1 %) kamroq jo‘natilgani kuzatildi.

Temir yo‘l transportida tashilgan jami yuk hajmida eng yuqori ulush turli rudalar (9,9 %), qurilish (9,4 %), neft yuklari (7,6 %), ko‘mir (7,1 %), kimyoviy va mineral o‘g‘itlar (6,2 %), sement (4,3 %) va boshqa yuklarga (50,0 %) to‘g‘ri kelgan⁶⁴.

Shuni alohida ta’kidlash lozim, yo‘lovchi tashish temir yo‘lda yuk tashish faoliyatiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatib, ko‘p hollarda yo‘lovchi poezdlarni o‘tkazib yuborish uchun soatlab kutib qolish zarurati paydo bo‘ladi. Bu esa yetkazib berish vaqtiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va yuk egalarida boshqa transport turlaridan foydalanish zarurati yuzaga kelib, shu bilan birga, mamlakatning logistika samaradorlik indeksi ko‘tarilishiga to‘siq bo‘lmoqda.

8.3. Avtomobil transporti.

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan globallashuv, keskin raqobatchilik va COVID-19 pandemiyasi kechayotgan hozirgi sharoitda dunyo avtomobillari bozori 14 foizgacha pasayib, bu ko‘rsatkich 2020 yilda dunyoning avtomobil sanoati markazlari bo‘lgan Xitoyda 4 foizni, AQShda 14,8, Germaniyada 19,1, Fransiyada 25,5 va Italiyada 32,3 foizni tashkil qildi⁶⁵. Biroq 2021 yilning dastlabki choragida dunyo avtomobil bozorida 22 foizgacha o‘shish kuzatilib, 21 mln. avtomobil sotildi⁶⁶. Darhaqiqat, avtomobil sanoati ulushi rivojlangan davlatlar YaIMda 3 foizdan oshmasada, AQSh, Fransiyada 5 foizni, Yaponiya va Germaniyada 10 foizni, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyada 3-3,5 foizni tashkil qiladi. Iqtisodiyotda avtomobil sanoati multiplikativ samarasi sababli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli avtomobil sanoati korxonalarida barqaror biznes jarayonlarini ta’minlash uchun innovatsion boshqaruv usullarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi⁶⁷. O‘zbekistonda ham avtomobil sanoati

⁶⁴ Davlat statistika qo‘mitasi

⁶⁵ https://www.plastinfo.ru/information/news/46869_18.01.2021 2 <http://greenway.icnet.ru/cars-sales-actual-world.html>

⁶⁶ ; <https://www.acea.be/>; <http://en.caam.org.cn/> China Association of Automotive Manufactures (CAAM); JADA;

⁶⁷ Qarang: O‘sha joyda 4

YaIMning 6,6 foizini, sohada 30 ming va turdosh tarmoqlarda 200 mingdan ortiq ishchini ta'minlovchi jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2016-2021 yillarda O'zbekistonda avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 3 barobarga o'sib, 280 mingtaga yetkazildi⁶⁸. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan avtomobil sanoatida 2023 yilda yillik ishlab chiqarish hajmini 350 ming donagacha va eksport hajmini yiliga 100 ming dona yoki 1 mlrd. AQSh dollarigacha yetkazish vazifasi qo'yildi⁶⁹. Shuningdek, o'tgan besh yilda avtomobillar xarid qilishdagi navbatda turishlar, korrupsion holatlar bartaraf etildi va sohada raqobatni kuchaytirish maqsadida GM-Uzbekistan, MAN, GM Power Train Uzbekistan, SamAuto kompaniyalari bilan birga Germaniyaning Volkswagen brendi ostida Jizzaxda avtomobillar ishlab chiqarila boshladi. O'zbekiston Respublikasida avtomobil sanoatini jahon talablari asosida tashkil qilish, ishlab chiqarishning mahalliyashtirish darajasini oshirish, samarali sanoat siyosatini amalga oshirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida milliy iqtisodiyotda sanoat ulushini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Bu borada milliy avtosanoat sohasida innovatsion jarayonlarni "muammo, kelajak talablari, ilmiy tadqiqot, ilmiy-ishlab chiqarish va tijoratlashtirish" zanjirida tashkil qilish, ishlab chiqarishning mahalliyashtirish darajasini hududlar imkoniyati bilan bog'lagan holda asoslash va innovatsion salohiyatni oshirish yo'nalishlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Avtomobil transporti. Avtomobil transporti davlat uchun iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega. Strategik ahamiyatga harbiy, favqulotdagi holatlarda, masalan, tabiiy ofatlarda paydo bo'ladigan masalalarni yechishga avtomobil transportini qodir ekanligi kiradi. Yuk va yo'lovchilarni tashish bilan moliya iqtisodning qon aylanish tizimi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy aloqalarning tez rivojlanishi yuk tashishni

⁶⁸ review.uz/oz/c9c 5 <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/4975/>

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha H

ham rivojlanishini talab etadi. Avtomobil transporti quyidagi o'ziga xos afzalliklari bilan ko'pgina masalalarni yecha oladi:

- yuk jo'natuvchi omboridan yuk oluvchi omborigacha, o'rtada yuklarin ortib-tushurishsiz, belgilangan vaqtda yukni tashib berish;
- yuk tashishni yuqori tezligi va u aylanma mablag'larga bo'lgan talabni kamayishi va sarmoyani aylanishini tezlashtirishi;
- mijozlar xohishiga binoan kichik partiyali yuklarni tashish imkoniyati mavjudligi.

Yo'lovchi tashish jamiyat talabi bo'lib, ular ijtimoiy ahamiyatga ega va insonni erkin xarakatlanishini ta'minlaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida, davlat transport sohasi faoliyati uchun to'liq javobgarlikni ola olmaydi hamda majbur ham emas. Lekin shunday javobgarlik joylari borki, u yerda davlatning qo'shimcha kuchi zarur. Bu birinchi navbatda, transport jarayonini xavfsizligini ta'minlash, transport infratuzilmalari va harakat tarkibi saroyini strategik rivojlantirish, belgilangan me'yor va qoidalarni barcha transport sub'ektlari tomonidan bajarilishini ta'minlash, yagona transport tizimini yaratish, milliy va xorijiy investitsiyani jalb etishga ko'maklashish.

Barcha o'tgan davr ichida O'zbekiston iqtisodiyotida avtotransport asosiy o'rinlardan birini egallab keldi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikga erishish tarixiy axamiyati avtotransport soxasini ham chetlab o'tmadi.

Hozirgi vaqtga kelib avtomobil transporti to'laligicha bozor munosabatlari qonunlariga amal qilgan xolda ish yuritadi.

Xo'jalik sub'ektlari konkurent musobaqa sharoitida ishlaydilar, davlat boshqaruvidan ajralganlar, xalqaro avtomobil yo'nalishlarida yo'lovchilarni va yuklarni tashuvchi 70% dan ortiq avtotransport xususiy tadbirkorlar tomondan boshqariladi. Respublikada oxirgi yillardagi iqtisodning o'sish tendensiyasi avtomobil yo'llari kompleksining rivojiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Avtotransportning barcha turlarida yuk tashish hajmi ortmoqda, avtobus parkining tarkibi jadallik bilan yangilanmoqda, yo'lovchi tashish hajmi va axolining ijtimoiy ximoyalanganligi ortmoqda. Bu yosh, tez rivojlanib borayotgan transportdir. Bu transportning O'zbekistonda tumanlararo va xujaliklararo yuk tashish roli kattadir. Keyingi vaqtda MDX va boshka xalqaro xalq xujalik yuklarini tashishda axamiyati ortib bormokda. Avtomobil transporti cho'l, adir va tog' vodiylarida, shahar ichida yuk tshishda roli kattadir.

O‘zbekiston – Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining huddudlarini kesib o‘tadigan yo‘l bor. Bundan O‘zbekistonda katta tabiiy transport yo‘li Dushanbegacha davom etadi.

Zarafshon transporti Samaqand-Buxoro viloyatlarini birlashtiradi. Qozog‘iston transport - To‘rtko‘l, Nukus, Taxtako‘prik yeridan Buxoro - gazli – G‘azalkent avtomagistrali Qizilqum cho‘lini kesib o‘tadi.

Toshkent - Qo‘qon yo‘li poytaxtni vodiy bilan qisqa yo‘l orqali bog‘laydi. 1982-yili Termizdan Amudaryo orqali Afg‘onistonga olib boradigan Avtomatik va temir yo‘l ko‘prigi qurildi.

Toshkent shahri va barcha viloyatlarga yirik avtomagistralar qurildi. Hozir 70 ga yaqin avtobus va taksimotor parklari barpo qilingan.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti yetakchilik qilmoqda.

Uning jami yo‘lovchi tashish hajmidagi ulushi - 98,0 % ni tashkil etmoqda.

Avtomobil transportida tashilgan yo‘lovchilar umumiy hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar:

- Toshkent shahri – 19,2 %⁷⁰
- Andijon viloyati – 12,4 %
- Toshkent viloyati – 11,4 %
- Farg‘ona viloyati – 11,1 %
- Samarqand viloyati – 7,9 %
- Namangan viloyati – 7,9 %
- Xorazm viloyati – 7,0 %

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibida temir yo‘l va avasiya turlarini ham rivojlantirish lozim.

8.4. Havo va suv transportlari

O‘zbekiston jahondagi ko‘p mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaharlar, sanoat markazlari bilan Havo yo‘llari orqali bog‘langan. Respublikaning Havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920-yillardan boshlanadi. 1924-yil 12-mayda uzunligi 800 km bo‘lgan Toshkent-Avliyoota (Jambul)-Pishpek (Beshkek)-Olmaota marshrutida dastlabki

⁷⁰ Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirildi. O'sha yili uzunligi 450 km bo'lgan Kogon-Oktukay-Darg'onota-Xiva Xamda Buxoro-Termiz-Dushanbe Havo yo'llari ochildi. 1930 yildan Toshkent - Moskva yo'lida samolyotlar muntazam qatnay boshladi. Aviatsiyadan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda va sanitariya maqsadlarida ham foydalanildi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin 1992-yildan sobiq ittifoq tasarrufida bo'lgan O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, fuqaro aviatsiyasining 243-ta'mirlash zavodi, "Aviaqurilish" birlashmasiga qarashli "Aviamaxsusmontajsozlash" negizida "O'zbekiston Havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Respublikaning, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, turistik aloqalarini yo'lga qo'yishda o'z havo transporti muhim rol o'ynamoqda. "O'zbekiston Havo yo'llari" ning bir qancha Yevropa va Osiyo, Amerika mamlakatlarida vakolatxonalari ochildi. 1993-1995 yillarda 18 ta yangi xalqaro marshrutlarda samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yildi: 1993-yildan Toshkentdan MDX dan tashqari London, Manchester, Frankfurt-Mayn, Tel-Aviv, Sharja, Jidda, Istanbul, Karachi, Dexli, Kuala-Lumpur, Bangkok, Pyokin, Afina, Amsterdam, Seul va Nyu-York shaharlariga muntazam xalqaro aviareyslar, Xalab (Amppo), Singapur hamda Osiyo va Evropaning ko'pgina mamlakatlariga yo'lovchi tashish reyslari bajariladi. "O'zbekiston Havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi Germaniya, Fransiya, Rossiya firmalari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda. 1993-yildan shunday hamkorlik natijasida Yevropaning yirik "Erbas industri" konsenridan "O'zbekiston Havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi sotib olgan "Erbas"-A-310-300 avtobuslari xalqaro marshrutlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsata boshladi.

"O'zbekiston Havo yo'llari" aviakompaniyasi va Nukusdagi bo'linmasi xilma-xil tipdagi havo kemalariga ega: qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan "AN-2", mahalliy (respublika ichida) havo yo'llarida qatnaydigan "AN-24", "YaK-40", xalqaro klassdagi "IL-76", "IL-62", "IL-86", "TU-154", "A-310" kabi samolyotlar, vertolyot parkida "MI-2", "MI-8", "KA-26" kabi mashinalar bor. Respublikada "AN-2" samolyoti, "MI-2", "MI-8", "KA-26" vertolyotlaridan iborat maxsus maqsadlardagi aviatsiya parki qishloq xo'jaligi, tibbiy-sanitariya xizmati, meteorologiya, geologiya-qidiruv, gaz sanoati va boshqa sohalarda unumli ishlatiladi. 1996-yildan "BOING-757" va "BOING-764" samolyotlari, mahalliy havo yo'llarida "IL-114", "Rj-85" samolyotlaridan foydalanilmoqda. "O'zbekiston Havo yo'llari" milliy

aviakompaniyasi tarkibida 12 zamonaviy aerovokzal (aeroport) bor. Bular Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Nukus, Termiz, Urganch, Farg‘ona, Qarshi, Qo‘qon shaharlarida. Sergeli, Uchquduq, Zarafshon, Sariosiyo, Shaxrisabz, Qung‘iroq, To‘rtkul, Mo‘ynoq shaharlaridagi aeroportlar viloyat markazidagi aeroportlarga qaraydi, “YaK-40”, “AN-24” samolyotlarini qabul qilishga moslashtirilgan. Viloyat markazlaridagi aeroportlar “TU-154”, Samarqand, Namangan, Urganch, Termiz aeroportlari “IL-62”, “IL-76”, Nukus aeroporti “IL-86”, “A-313” aerobuslarni qabul qilishga qodir. Toshkent, Samarqand, Termiz, Nukus aeroportlari xalqaro maqomga ega. Respublika Hukumati qaroriga ko‘ra, yangi yirik xalqaro aeroport, Uchquduqda jahondagi eng ilg‘or andozalarga mos keladigan katta aeroport qurilishi boshlandi.

XX-asr boshlarida Amudaryo va Orol dengizidagi suv yo‘llari bo‘ylab yuklar va yo‘lovchilarning ancha qismi tashilgan. 1924-yilda kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo‘llarining umumiy uzunligi 887 km edi. Amudaryo Xarbiy flotilayasi, “Xiva”, “Merkuriy” aksiyadorlik jamiyatlari kemalarida, shuningdek xususiy qayiqlarda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatilgan, zarur yuklar tashib berilgan. O‘sha davrda O‘rta Osiyo suv yo‘llarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming t. bo‘lgan kema va umumiy yuk ortish quvvati 24 ming t bo‘lgan 1500 qayiq bor edi. 1980-yilda O‘zbekistonda suv yo‘llarining umumiy uzunligi 2800 kmga yetgan. Amudaryo panji (Tojikiston) bandargoxidan Mo‘ynoqqa qadar paraxodlar qatnovi amalga oshirildi. Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi natijasida suv yo‘llari keskin qisqardi, ammo shunga qaramay 1980-yili daryo transportida 1420 ming t yuk tashildi. O‘rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganlaridan keyin O‘rta Osiyo paroxodchiligi Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston o‘rtasida taqsimlandi.

1994-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasida joylashgan daryo floti bo‘linmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. O‘rta Osiyo paroxodchiligining O‘zbekistondagi bo‘linmalari negizida “Termiz daryo porti”, “Xorazm daryo floti”, “Qoraqalpog‘iston daryo floti” ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. “Uzavtotrans” korporatsiyasi Hududida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo‘yicha bosh boshqarma (Toshkentda) tuzildi. Respublikada Termiz daryo porti, Sharlovuk, To‘rtko‘l, Beruniy, Qoratorov, Xo‘jayli bandargohlari, Amudaryo orqali To‘rtko‘l-Xonqa, Chalish-Beruniy suzma ko‘priklari, Xo‘jayli kema tamirlash zavodi ishlab turibdi. Termiz daryo porti yiliga 2,5 mln. t

yukni qabul qilish – jo‘natish quvvatiga ega. U Afg‘onistonning Xayraton bandargohi orqali eksport-import yuklarini yetkazib berishda xalqaro ahamiyatga molik. Respublika daryo flotida 150 ga yaqin teploxod, shuningdek barjalar, zemlesoslar, suzuvchi ekskavatorlar, port kranlari va boshqa yordamchi kemalar, texnika vositalari bor. Respublika suv yo‘llarining umumiy uzunligi 1000 km ga yaqin. Xalq xo‘jaligi yuklari asosan Termiz-Xayraton, Sharlovuk-To‘rtko‘l, Xo‘jayli-To‘rtko‘l, Xo‘jayli-Beruniy, Qoratov-Taxiyatosh yunalishlarida tashilmoqda.

O‘zbekistonning port va bandargohlari temir yo‘llar bilan boshlangan. Respublikada truboprovod transporti ham alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda 20 km uzunlikdagi birinchi nefteprovod 1905-yil Chimyon neft konidan Vannovsk (hozirgi Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodi tortilgan. Keyinchalik Farg‘ona vodiysi, Surxondaryo viloyatida yangi neft konlari ochilishi bilan transportning bu turi jadal rivojlantirildi.

Neft konlaridan Farg‘ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga umumiy uzunligi 228,5 km bo‘lgan nefteprovodlar qurildi. Respublika janubida-Surxondaryo viloyatida 1947-yil Lalmikor - Qumqo‘rg‘on va 1969-yil Amudaryo-Amu-Zang liniyalari barpo etildi (umumiy uzunligi 40 km). Qashqadaryo yangi neft konlari ochilganidan keyin 1967-yil G‘arbiy-Toshloq-Qashqadaryo stansiyasi (3,3 km), Shimoliy O‘rtabuloq-Oltiingugurt zavodi (72 km) nefteprovolarini ishga tushirildi. 1994-1997-yillarda uzunligi 100 km bo‘lgan Ko‘kdumaloq-Buxoro neftni qayta ishlash zavodi nefteprovodi qurilib, ishga tushirildi.

Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodini hom ashyo bilan uzluksiz ta‘minlashga xizmat qiladigan Qamchiq davoni orqali o‘tadigan Xonobod-Angren nefteprovodi qurilishini loyihalash ishlari olib borilmoqda. Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ulkan gaz konlarining topilishi va ishga tushirilishi bilan O‘zbekistonda gazprovod transporti rivoj topdi.

8.5. Axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlari

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayishi, xalqaro maydonda tovar va xizmatlar ayirboshlash, turli jabhalardagi hamkorlikning tobora kengayib borishi bugungi kunda yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirishni muhim strategik vazifaga aylantirdi kompyuter texnikasi, axborot

texnologiyalari, Internet, mobil telefon aloqalari sohalari misli ko‘rilmagan darajada taraqqiy etmoqda.

Aloqa turli vositalar yordamida axborot va ma’lumotlarni uzatish va qabul qilishni bildirib, ushbu vazifalar iqtisodiyotning pochta, telefon, telegraf, radio, televidenie kabi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Telekomunikatsiya turli signal, belgi, matn, tasvir va ovozlar orqali uzatiladigan axborotlarni qayta ishlash tizimlari majmuasi sifatida faoliyat yuritadi. Tor ma’noda bir yoki bir necha turdagi telefon, telegraf, faksimil axborotlar almashinuvi, televizion va radio dasturlarni uzatishga mo‘ljallangan texnika vositalari to‘plami telekommunikatsiya tarmog‘i deb yuritiladi.

“Transport tarmoqlari va kommunikatsiyani rivojlantirish masalalari, Respublikaning geografik joylashuvi, dengizga chiqish imkoni yo‘qligi, avtomagistrallar qurilishini ustuvor, istiqbolli va hayotiy ahamiyatga ega masalalardan biri qilib qo‘yadi. Kommunikatsiya tarmoqlari rivojlanmasa, O‘zbekistonning kelajagi bo‘lmaydi. Biz buni aniq anglab olishimiz kerak”.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida “Ushbu dasturlarni amalga oshirishdan ko‘zlangan pirovard maqsad – Evropa va Osiyo o‘rtasidagi savdo oqimining ma’lum qismini mamlakatimizdagi tranzit yo‘nalishlariga burish va shu asosda yurtimizda transport va tranzit xizmati hajmini oshirish, mavjud infratuzilma negizida logistika markazlarini tashkil etish, minglab odamlarni ish bilan ta’minlashdan iborat”, deb ta’kidlab o‘tdi. Quyida keltirilgan loyihalarning barchasi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, 2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturiga kiritilganligini qayd etish lozim. Ushbu dasturga umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan ziyod 327 ta loyiha kiritilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi bo‘yicha moliyalash manbalari aniq belgilangan va investorlar konsortsiumlari shakllantirilgan.

Respublikamiz iqtisodiyotiga ham AKTni bosqichma-bosqich joriy qilish, axborotlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Istiqloq yillarida sohaning huquqiy asosi yaratilib, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunlar, “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Mamlakatimizning dasturiy ta’minot vositalari

ishlab chiquvchilarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bunda dasturilamal bo‘layapti.

Bu boradagi bugungi dolzarb vazifa iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasini ishlab chiqishdan iborat. SHu asosda “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi⁷¹.

Internet tezkor axborot olish, etkazish va unga ishlov berish manbai hisoblanadi. Shu bois undan foydalanuvchilar soni tobora ko‘payib bormoqda. Ayni paytda mamlakatimizda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar 12 million, mobil aloqa abonentlari esa 22 million kishidan oshdi.

“Internet Live Stats” internetdan foydalanadigan aholi soni bo‘yicha 201 ta davlatning reytingi tuzib chiqdi. Mazkur reytingda O‘zbekiston 37 o‘rinda qayd etildi. Unda yurtimizning 51 foiz aholisi ya’ni 15453227 kishi doimiy ravishda internetdan foydalanishi yozib o‘tilgan.

O‘zbekistonda bir yilda internetdan foydalanuvchilar soni 6.1 foizga ya’ni 893596 kishiga oshgan.

Internetdan foydalanish bo‘yicha Xitoy (721 million), Hindiston (462 million), AQSh (286 million), Braziliya (139 million) va Yaponiya (115 million) dastlabki o‘rinni band etgan. MDH davlatlari orasida Rossiya 6-o‘rin, Ukraina 34-o‘rin, Qozog‘iston 47-pog‘ona, Belarus 61-o‘rin, Qirg‘iziston 106 o‘rin, Tojikiston va Turkmaniston 114 va 134-pog‘onalarda qayd etilgan.

8.6. Transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari

Mamlakatimizda keyingi yillarda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda.

“O‘zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo–bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyili asosida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratilib, o‘zaro ishonch va yaqin qo‘shnichilik aloqalarni

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi.2018 yil 28 dekabr.

mustahkamlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida suvdan oqilona foydalanish, chegara, transport qatnovini qayta tiklash va, milliy va mintaqaviy logistika xizmatlarini kengaytirish kabi ko‘plab nozik masalalarni samarali yechimiga asos bo‘lmoqda. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi xalqaro tuzilmalar va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan sheriklik munosabatlarida hamda Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari, Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya, Evropa va Osiyodagi bir qator davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganligi so‘zimizning isboti bo‘lib xizmat qiladi. SHuningdek, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralarni qaytadan boshlash ishtiyoqi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash joizki, tashqi iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta imkoniyat va zahiralar mavjud, borada biz Markaziy Osiyo mamlakatlari va yirik sheriklarimiz – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSh, Turkiya, Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi va mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo‘laklarini izchil shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Jumladan, milliy yuk tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik sub’ektlariga qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida “Milliy logistika portali”ni tashkil etish, tadbirkorlik sub’ektlari ushbu portal orqali dunyoning barcha nuqtalarida milliy yuk tashuvchilarning transportlari haqida ma’lumotlarni “onlayn” rejimida tezkor olishi va buyurtma berish imkoniyati yaratilishi, xalqaro logistika kompaniyalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Shuningdek, bugungi kunda “...transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko‘plab qiyinchiliklar paydo bo‘lmoqda. Shu bois, “O‘zbekistan Eyveys” va “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo‘yicha zamonaviy logistika yo‘nalishlarini yaratishlari zarur.

Vazirlar Mahkamasi eksport yuklarini qo‘shni davlatlardan temir yo‘l orqali imtiyozli narxlarda o‘tkazish bo‘yicha muzokaralar olib borishi kerak. Shu bilan birga, Jahon bankining “Logistika samaradorligi

indeksi”dagi mamlakatimiz o‘rnini yuqori pozitsiyaga ko‘tarish choralarini ko‘rish lozim.

Kelgusi yilda bojxona tartiblarini keskin soddalashtirish, bojxona nazorati punktlari hamda yuklarni rasmiylashtirish postlarini tubdan isloh qilish zarur”⁷²

Xitoy davlatining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi doirasida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya infratuzilmalari sohasidagi imkoniyatlarini oshirish lozim. Tranzit davlatlar, xususan, Turkmaniston, Eron, Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan asosiy eksport yuklarini tranzit shaklida tashishda prefyferentsiyalarga ega bo‘lish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hukumat tomonidan qo‘shni Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lida muhim kelishuvlar amalga oshirildi, yangi iqtisodiy loyihalar bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi. Shuningdek, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh va Evropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham samarali bitim va kelishuvlarga erishildi. O‘tgan yilda 200 dan ortiq xalqaro shartnomalar, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalarida qiymati qariyb 60 milliard AQSh dollariga teng kelishuv va bitimlar imzolandi. Mazkur hujjatlar ijrosini ta‘minlash maqsadida respublika hukumati tomonidan innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ichki va tashqi bozorlarda jamoat va xususiy sektorlardan ilg‘or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni faol tarqatish, bozor ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, tarmoq korxonalarining jadal rivojlanishiga ko‘maklashadigan mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususiy tadbirkorlik va investorlar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, yaqin qo‘shnilar bilan ishlab chiqarish aloqalarini tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda⁷³.

Bugungi kunda transport sohasida yagona davlat siyosatining shakllantirilishi va uning mintaqadagi qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarga yo‘naltirilishi O‘zbekistonni Evrosiyoning muhim

⁷²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

⁷³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

transport tuguniga va Buyuk Ipak yo'lini yangi shaklda tiklanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, O'zbekiston va Xitoy davlat chegaralarida yangi logistika markazlarini ochish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zaro kelishuvlar bu boradagi ijobiy qadam bo'lib xizmat qiladi. Yaqin kelajakda ichki temir yo'llarning jadal rivojlanishi tufayli O'zbekiston va Xitoy temir yo'llarini o'zaro bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi.

Transkavkaz avtomagistralidan foydalanish va Ruminiya, Bolgariya, Rossiya portlariga chiqish masalalari bo'yicha Kavkaz bo'yi davlatlari bilan o'rnatilgan hamkorlik O'zbekistonni qisqa yo'llar orqali savdo-sotiq olib borish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Joriy yilda Amudaryo orqali Turkmanobod-Farob temir yo'l va avtomobil ko'priklari ochilishi Turkmanistonning tranzit yo'llaridan o'tuvchi yuk oqimlari hajmini bir necha marotaba oshirishga imkon beradi va Kaspiy, Qora va O'rta yer dengizlari, Yevropa, Kavkazorti, Yaqin va O'rta Sharq davlatlariga to'g'ridan- to'g'ri chiqishga yo'l ochadi.

Milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lgan transport va logistika sohasi boshqa tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha transport turlarining izchil rivojlanishini va mamlakatimizning xalqaro transport va logistika xizmatlari bozoridagi nufuzini oshirish, iqtisodiyotimiz barcha tarmoqlari uyg'un rivojlanishiga va mamlakat eksport salohiyatining kuchayishiga yordam beradi⁷⁴. O'zbekistonning geografik joylashuvi jihatidan Buyuk ipak yo'lining bog'lovchimarkazida ekanligi uning savdo infratuzilmasi logistika markazlari tarmog'ini rivojlantirishning strategik muhim jihati va rag'batlantiruvchi omili hisoblanadi. Binobarin, "Afg'onistonda transport va logistika, energetika, savdo va ta'lim sohalarida yirik qo'shma loyihalarni hamda "Termiz-kargo" logistika markazini amalga oshirishga kirishdik"⁷⁵.

O'zbekistonning transport tarmoqlari va kommunikatsiya-larini rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorligi tobora rivojlanib bormoqda. Bunday o'zaro manfaatli hamjihatlik taraqqiyotiga xizmat qiladigan huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Xususan, mamlakatimiz tomonidan transport va tranzit masalalariga doir 100 dan ortiq xalqaro kelishuvlar va bayonlar, shu jumladan, 30 ga yaqin Konvensiyalar imzolandi. Bundan tashqari,

⁷⁴ Логистика. Владимир Юрьевич Конотопский, Москва. ЮРАЙТ. 2017 г., 144 стр.

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi.2018 yil 28 dekabr.

O'zbekiston Xalqaro temir yo'llari ittifoqi, Temir yo'llari hamkorlik tashkiloti, Xalqaro ekspeditorlar uyushmasi federatsiyasi, ESKATO, TRASEKA va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar a'zosi hisoblanadi. Hozirgi paytda mamlakat hududidan avtomobil transporti orqali yuklarni olib o'tuvchi xorijiy avtotashuvchilar uchun respublika tomonidan umumiy uzunligi 37 ming kilometr ga teng bo'lgan 44 ta yo'nalish belgilangan.

Mamlakat va mintaqalarning dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun istiqbolda quyidagi transport koridorlari xizmat qiladi:

-Tashkent - Ashg'abod - Turkmanboshi porti - Boku porti.

-Olma ota - Toshkent - Istanbul avtomagistrali.

-Markaziy Osiyo mamlakatlari - Sharqiy Xitoyning portlaridan birigacha.

-Markaziy Osiyo mamlakatlari-Tedjen-Seraxs-Mashxad-Bandar Abbasporti (Eron).

-Markaziy Osiyo mamlakatlari - Eron Islom Respublikasi - Turkiya Istanbul porti. Bugungi kunda xalqaro yuk tashuvlari bilan shug'ullanayotgan tashki iktisodiy faoliyat katnashchilari quyidagi transport koridorlaridan foydalanib kelmokdalar:

1-yo'lak-Bol'tiqbuyi davlatlari portlari yo'nalishida (tranzit bilan Kozogiston va Rossiya orqali)-Klaypeda (Litva), Riga, Liepaya, Ventspils(Latviya), Tallin (Estoniya);

2-yo'lak-Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) - Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegara utishlari, keyinchalik Evropaga;

3-yo'lak-Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali), Kora dengizga chiqish bilan;

4-yo'lak- TRASEKA yo'lagi deb nom olgan Gruzianing Poti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qora dengizga;

5-yo'lak-Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali) Fors kulfaziga chiqish bilan;

6-yo'lak-Sharqiy yo'nalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozog'iston orqali)Sariq dengizga;

7-yo'lak-sharqiy yo'nalishda Uzoq Sharqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) Sariq dengizga;

8-yo'lak-Turkiya va Evropaga ("Boku-Axalkalaki-Kars" yangi

temir yo‘lida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali)⁷⁶.

Hozirgi kunda yana quyidagi yo‘nalishlar rivojlantirilmoqda:

-Evropa va Janubi-sharqiy Osiyo yo‘nalishida (Turkiyaning Myersin porti, Turkmaniston va Eron orqali tranzit yo‘nalish);

-Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirg‘iziston orqali) Sariq, Sharqiy - Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish bilan.

Xalqaro ekspertlarning baholariga ko‘ra, loyiha amalga oshirilgan yo‘lakning o‘tkazish kobilyati 12-14 mln. tonnani (ichki tashishlarni hisobga olmaganda) tashkil etadi hamda Shanxaydan Lissabongacha uzluksiz yer usti yo‘nalishi shakllanadi, tomonlar Andijon, O‘sh va Qoshg‘ar o‘rtasidagi xalkaro avtomobil yo‘lini qayta kurish va rivojlantirish bitimini imzolagan.

Afg‘oniston orqali Eronning Bandar-Abbos va Chahbahor portlariga chiqadigan janubiy muqobil transport yo‘laklarini ishlab chiqish buyicha yangi istiqbollar ochilmokda.

Qamchiq dovoni orqali o‘tgan “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasining ishga tushirilishi transport-logistika xizmatlari ko‘rsatish va yo‘lovchilarni tashish sohasida erishilgan katta yutuq bo‘ldi. Bu bilan Xitoy – Markaziy Osiyo – Evropa yangi xalqaro tranzit temir yo‘l koridorining eng muhim bo‘g‘ini barpo etildi. Shu bilan birga, multimodal transport-logistika markazlari tarmog‘ini shakllantirish ham tashqi bozorga chiqadigan, eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish bo‘yicha transport-logistika markazlarini, shuningdek mamlakatimiz tranzit infratuzilmasini rivojlantirish imkonini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasida hajmi va nomenklaturasi tobora ko‘payayotgan mahalliy mahsulotlarning xorijiy bozorlarga eksportini ta‘minlash uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilar, yuk saqlovchilar, transport, transport-ekspeditorlik, logistik va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub‘ektlari o‘rtasida zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi mexanizmlari va ko‘rinishlarini tatbiq etish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Mamlakatimizda yaxlit temir yo‘l tarmog‘ini shakllantirish va chet davlatlarga, avvalo, Transafg‘on temir yo‘l koridori orqali Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish, respublikaning tranzit rolini kengaytirish strategiyasiga asosan uzunligi 700 kilometr ga yaqin “Navoiy– Uchquduq–Nukus”, “G‘uzor–Boysun–

⁷⁶ <https://uzsm.uz/uz/investorlar-diqqatiga/transport-corridors/>

Qumqo‘rg‘on”, 125 kilometrlik “Angren–Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘l qurilishi amalga oshirildi.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida transportning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi,temir yo‘l transporti,avtomobil transporti,havo va suv transportlari,axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlari,transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari kabi masalalr ko‘rib chiqildi.

Transport sohasi jahon iqtisodiyoti va umuman hayot rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismidir, chunki transport jahon iqtisodiyotining strategik muhim tarmog‘idan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarining tezlashishi transport sohasini doimiy takomillashtirishga undaydi. Transport sohasining talab darajada xizmat ko‘rsatishi va xalqaro savdo jarayonlarini tavsiflovchi tarkibiy o‘zgarishlar jahon transport sohasidagi evolyutsion rivojlanishlardan biri deb aytsak bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi transport xizmatlari sohasi globallashuvning asosiy omillaridan biridir, Bugungi kunda “xalqaro transport bozori qiymati 2,2 trillion AQSh dollarga teng deb baholanmoqda (YaIMni 6,8%). Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportning YaIMdagi ulushi 4-9 foizni, aholi bandligida esa 3-7 foizni tashkil etadi”⁷⁷. Kuchli raqobat sababli temir yo‘l tizimi boshqa transport turlari, xususan, avtomobil va havo yo‘llari tarmog‘i bilan raqobatga kirishmoqda. Bir tomondan, temir yo‘l transport tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi. Zamon talablari asosida temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.Aloqa turli vositalar yordamida axborot va ma’lumotlarni uzatish va qabul qilishni bildirib, ushbu vazifalar iqtisodiyotning pochta, telefon, telegraf, radio, televidenie kabi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Telekommunikatsiya turli signal, belgi, matn, tasvir va ovozlar orqali uzatiladigan axborotlarni qayta ishlash tizimlari majmuasi sifatida faoliyat yuritadi. Tor ma’noda bir yoki bir necha turdagi telefon, telegraf, faksimil axborotlar almashinuvi, televizion va radio dasturlarni uzatishga mo‘ljallangan texnika vositalari to‘plami telekommunikatsiya tarmog‘i deb yuritiladi.

⁷⁷ <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>

Tayanch so‘z va iboralar: Transport, yer usti transporti, suv transporti, logistika, avtosanoat, tasmali transport, osma arqon transporti, quvur transporti, infratuzilma, yuk tashish transporti, yo‘lovchi tashish transporti.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Transportning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini ayting
2. Yer usti transporti nima?
3. Suv transporti nima?
4. Logistika nima?
5. Quvur transporti nima?
6. Mamlakat va mintaqalarning dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun istiqbolda qaysi transport koridorlari xizmat qiladi?
7. Axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlarini ayting?
8. Transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsating?

IX BOB. O‘ZBEKISTONNING RESPUBLIKA, MINTAQA VA MAHALLIY BOSHQARUV ORGANLARI O‘RTASIDAGI VAKOLATLARNI TAQSIMLASH MEXANIZMI

9.1. Davlat hokimiyatining turli pog‘onalari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifa va tamoyillari

9.2. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati

9.3. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo‘llari

9.1. Davlat hokimiyatining turli pog‘onalari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifa va tamoyillari

Turli miqyosdagi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirmay, iqtisodiy rivojlangan davlat qurish, jamiyatda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish mushkul. “Davlat boshqaruvi”, “Mintaqaviy boshqaruv” va “Mahalliy boshqaruv” atamalari murakkab tizimni (davlat boshqaruv faoliyatining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari majmui)ni tashkil etadiki, odatda, boshqaruv maqsadlari, vazifalari, usullari, shakllari, subektlari va obektlari mazkur tizimning asosiy unsurlari hisoblanadi.

Mazkur unsurlar davlat hokimiyati ijro etuvchi organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tizimining maqomi, ularning maqsadlari, vazifalari va ish prinsiplari, vakolatlari doirasi, javobgarligi, tashkiliy huquqiy ish shakllari, shuningdek davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan vertikal yo‘nalish hamda xo‘jalik yurituvchi subektlar, fuqarolar va ularning birlashmalari bilan gorizontal yo‘nalishda o‘zaro aloqalarini belgilash orqali huquqiy rasmiylashtiriladi.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlar aniq taqsimlangan bo‘lmasa, bu davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Subektiv omil - tegishli mansabdor shaxslarning hududlarni mutanosib rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish manfaatlarida respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining o‘zaro samarali aloqalarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan oqilona qarorlar ishlab chiqa olmasligi, ba‘zan esa bunday qarorlarni

ishlab chiqishni istamasligi yuqorida zikr etilgan muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Biroq respublika va mintaqaviy hokimiyat organlari zimmasiga haddan tashqari ko'p ish yuklanganligi, moddiy-texnika, moliya, axborot va boshqa resurslarning taqchilligi natijasida mazkur hokimiyat organlari tomonidan mahalliy miqyosidagi muammolarni hal etishga yetarli e'tibor berilmayapti. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida yuqorida zikr etilgan hokimiyatning uch pog'onasi o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning samarali mexanizmini yaratish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, mazkur mexanizm mamlakatda mahalliy faoliyatni yanada mukammal tartibga solish, uni davlat siyosati va mintaqaviy siyosatning mustaqil sohasiga ajratish imkonini beradi.

O'zbekistonda Respublikasi mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni o'zaro manfaatli asosda taqsimlash zarurati - mahalliy tuzilmalar faoliyatining quyidagi muhim muammolari bilan belgilanadi:

a) mahalliy tuzilmalar va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarini himoya qilish;

b) davlat mulkini respublika, mintaq va mahalliy mulklarga taqsimlash;

c) mahalliy mulkning barcha shakllarini muhofaza qilish mexanizmini ishlab chiqish;

d) mahalliy tuzilmalarning xususiyatidan kelib chiqib, minimal byudjet bilan ta'minlash normativlari asosida belgilanadigan mahalliy byudjetlarning minimal zarur xarajatlarini qoplash uchun daromad manbalarini mustahkamlash yo'li bilan mahalliy byudjetlarning minimal miqdorini ta'minlash;

e) mahalliy tuzilmalar iqtisodiy faoliyatining barqaror normativ-huquqiy negizini ta'minlash;

f) mamlakatdagi mahalliy tuzilmalarning negizini tashkil etuvchi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish quyi organlarining mustaqil faoliyatini ta'minlash;

g) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining sud tartibida himoyalanihga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash;

h) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining davlat hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelgan

qo'shimcha xarajatlarning qoplanishi bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash;

i) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari berilgan alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslarning berilishini ta'minlash;

j) huquqning kompleks sohasi sifatida mahalliy huquqni shakllantirish, mahalliy qurilish va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish.

Mahalliy boshqaruv organlariga davlat tomonidan kafolatlar berish hamda davlat hokimiyati va mintaqa boshqaruv organlari tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi va mahalliy boshqaruv sohasida amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta'minlash respublika, mintaqa va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni samarali taqsimlashning muhim shartidir.

O'zbekistonda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning quyidagi asosiy tamoyillariga asoslanadi:

-davlat, mintaqaviy va mahalliy siyosat maqsadlari, yo'nalishlari, vazifalari hamda vakolatlarini taqsimlash mexanizmlarining yagonaligi prinsipi;

-Respublika, mintaqa va mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqa o'rnatish prinsipi;

-mahalliy islohotni amalga oshirishning turli bosqichlarida davlat siyosatining vorisiyligini ta'minlash prinsipi;

-mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlariga davlat hokimiyati yuqori organlarining aralashmasligi prinsipi va h.k.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni yanada aniq taqsimlash davlat hokimiyatining mazkur bo'g'inlarini boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish, har birining mustaqilligini kengaytirish, muayyan vakolatlar ularni mumkin qadar samarali amalga oshirishga qodir hokimiyat organlari zimmasiga yuklanishi uchun tegishli hududlarning o'ziga xos (geografik, iqtisodiy, demografik, etnik va h.k.) xususiyatlarini e'tiborga olishni tabaqalashtirish imkonini beradi.

Ortiqcha mehnat resurslarining mavjudligi vaziyatni yanada og'irlashtirayotgan yaxshi rivojlanmagan hududlarda shahar va

qishloqdarda mayda tovar ishlab chiqarishni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, xizmatlar ko'rsatish sohasi va agrosanoat kompleksida kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish zarur.

Yuqorida zikr etilgan tamoyillarni amalga tatbiq etish O'zbekistonda respublika davlat boshqaruvining turli bo'g'inlari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni o'rnatish va MDHning bir qator davlatlarida kuzatilgan turli ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik imkonini bermoqda.

9.2. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati

O'zbekistonda respublika mahalliy xo'jalik amaliyoti jahon tajribasidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirishning quyidagi samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutadi:

1) mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy ahamiyatga molik quyidagi masalalarni mustaqil hal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish:

a) mahalliy mulkka, shu jumladan yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;

b) mahalliy byudjetlarni shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish, mahalliy soliqlar va yig'imlarni belgilash;

c) jamoat tartibini saqlash bilan boq'liq chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

2) fuqarolarning: turar joyga ega bo'lish; sog'lig'ini saqlash; tibbiy yordam olish; bilim olish huquqlarini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish;

3) soliq va byudjet islohotlari doirasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning moliyaviy-iqtisodiy negizini shakllantirishni nihoyasiga yetkazish, avvalambor, quyidagilar hisobiga byudjet va soliqlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish:

a) O'zbekiston Respublikasi subektlarining birlashtirilgan byudjetlarga yo'naltiriluvchi respublika byudjeti mablag'larini qayta taqsimlash, mahalliy tuzilmalarning vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalarni hal qilish uchun mazkur tuzilmalarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;

b) davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zaro hamkorligi, shu jumladan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan alohida davlat vakolatlarning

amalga oshirilishi va davlatning minimal ijtimoiy standartlarini belgilash prinsiplarini ishlab chiqish;

c) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish moliyaviy-iqtisodiy negizining muhim tarkibiy qismi - mahalliy mulkni faol shakllantirish;

d) ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish va aholi daromadlarini jalb etish hamda kichik va o'rta biznes vakillarining ishtirokini ta'minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish;

e) tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda kichik va o'rta biznes korxonalarining aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlash va ularga xizmatlar ko'rsatish faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

f) respublika, mintaqaviy, mahalliy davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlarni hamda tegishli moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash;

g) mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilishlari ustidan samarali davlat nazorati tizimini shakllantirish;

h) mintaqa, respublika va xalqaro miqyosda o'zaro hamkorlik uchun shart-sharoitlar yaratish;

i) mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini davlat tomonidan ilmiy-uslubiy, tashkiliy-uslubiy va axborot bilan qo'llab-quvvatlash;

j) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarida ishlash uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va kadrlarning malakasini oshirish samarali davlat tizimini tashkil etish

Davlat va mahalliy hokimiyat organlarining sa'y-harakatlariga qaramay, mustaqillik yillarida respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonida me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga molik bir qator umumiy muammolar to'planib qolgan.

O'zbekiston Respublikasining (Konstitutsiyasi kuchga kirgunga qadar) qabul qilingan respublika me'yoriy-huquqiy hujjatlarining aksariyatida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining konstitutsiyaviy maqomiga mos kelmaydigan qoidalar mavjud edi. Bundan tashqari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning alohida masalalarini tartibga soluvchi normalar amaldagi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'zgartirishni talab etardi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etish va uning faoliyati bilan bog'liq alohida masalalar qonun hujjatlari bilan to'liq tartibga solinmaganligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining ehtiyojlarini hali huquqiy jihatdan to'liq qondirolgani yo'q. Bundan tashqari, mahalliy huquqning ba'zi bir normalari turli talqin qilinayotganligi ham mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining amaliy faoliyatida qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

O'zbekistonning bir qator mintaqalarida mintaqaviy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va alohida mansabdor shaxslarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari qoidalariga rioya qilmaslik, shu jumladan, mahalliy huquq normalarini bajarmaslik holatlari qayd etildi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni me'yoriy tartibga solish mexanizmining nomukammalligi, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlar huquqiy jihatdan aniq taqsimlanmaganligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hal qilinmagan ko'pgina masalalar mahalliy tuzilmalarning moliyaviy- iqtisodiy mustaqilligi yetarli darajada ta'minlanmaganligi bilan bog'liq. Mahalliy mulkni shakllantirish, to'laqonli mahalliy byudjetlarni shakllantirish uchun shart- sharoitlar yaratish (shu jumladan, davlat moliya resurslarini taqsimlashda mahalliy tuzilmalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish), mahalliy tuzilmalar iqtisodiy faoliyatining barqaror me'yoriy negizini yaratish va boshqa masalalar shular jumlasidandir.

9.3. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari

Davlatning vakolatlarini taqsimlash muammolarini hal qilish borasidagi faoliyati mahalliy boshqaruvni yanada rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan kuchli demokratik davlat qurishning zarur sharti sifatida mahalliy boshqaruvning samaradorligi, roli va maqomini oshirishga yo'naltirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi yagona davlat siyosati doirasida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur maqsadga erishish uchun respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash sohasidagi siyosat:

-fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirish konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z faoliyatiga davlat tomonidan kafolat berilishini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ushbu yo'nalishlarning har birida quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

1) fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshiruvchi konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, bu quyidagilarni nazarda tutadi:

a) fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylash va saylanishi, saylab qo'yiladigan va boshqa mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari orqali mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirishi, hududiy ijtimoiy o'zini-o'zi boshqarish faoliyatini tashkil etish orqali mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda ishtirok etish konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish;

b) mahalliy tuzilmalarning chegaralari o'zgargan taqdirda aholining fikrini e'tiborga olish tartibini qonun hujjatlarida belgilash;

v) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining aholi bilan samarali o'zaro hamkorligi tizimini tashkil etish.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida vakolatlarni samarali taqsimlash mexanizmini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida davlat respublika, tarmoq va mintaqaviy davlat hokimiyati organlarida bir qator samarali vositalarga ega. Ularning asosiylari jumlasiga quyidagilar kiradi:

-mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mahalliy boshqaruv organlarining tashkiliy, moliyaviy va xo'jalik yuritish sohasidagi mustaqilligini huquqiy tartibga solish;

-mahalliy boshqaruv organlariga yordam ko'rsatish masalalari bilan shug'ullanadigan davlat organlari tizimini shakllantirish;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning konstitutsiyaviy asoslarini ro'yobga chiqarish va mahalliy tuzilmalarni rivojlantirishga ko'maklashadigan respublika va mintaqaviy dasturlarni qabul qilish;

-mutanosib minimal mahalliy budjetlarni ta'minlash, mahalliy tuzilmalar soliq negizini maqbullashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beruvchi byudjet va soliq tizimlarini tartibga solish;

-davlat mulkiga mansub mahalliy o'zini-o'zi boshqarish vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur obektlarni mahalliy mulk tarkibiga kiritish;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylab qo'yiladigan xodimlarning malakasini oshirish, nomzodlar va saylov kompaniyalarning ishtirokchilarini saylovlarga va aholi irodasini to'g'ridan- to'g'ri ifoda etadigan boshqa tadbirlarga tayyorlash;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini axborot bilan ta'minlash, shu jumladan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning konstitutsiyaviy asoslarini aholiga tushuntirish, mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni isloh qilishning borishi va muammolari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish tizimini tashkil etishda aholining roli haqida axborot berish va h.k.

Mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlari tizimini "O'zaro aloqalar mexanizmi" tushunchasi, ayniqsa, to'liq ifoda etadi. Mazkur tushuncha yuqorida zikr etilgan organlar o'rtasida mavjud siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy-texnikaviy yutuqlarning murakkab xususiyatini aks ettiradi. Mazkur mexanizm o'zaro aloqalar unsurlarining majmuini o'z ichiga oladi. Ular orasida mintaqaviy va mahalliy boshqaruv bo'g'inlarining manfaatlarini ifoda etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro aloqalarini amalga oshirish tamoyillari, turlari, shakl va yo'nalishlarini alohida ajratish zarur.

Bunda mazkur o'zaro aloqalarning yo'nalishlari, avvalo, mahalliy miqyosda boshqaruv vazifalarini shakllantirish va amalga oshirish bosqichlari (mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etish hamda uning vakolatlarini amalga oshirish) bilan bog'liq; tamoyillar esa mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro munosabatlari quriladigan tub asoslardir.

Yuqorida zikr etilgan boshqaruvni tashkil etishning barcha bosqichlari va o'zaro aloqalarning barcha yo'nalishlarida yuzaga keladigan hamda turli huquqiy va tashkiliy shakllarda amalga oshiriladigan boshqaruv aloqalarining turlari o'zaro aloqalar mexanizmi mazmuni uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman, o‘zaro aloqalarning yo‘nalish va tamoyillari universal xususiyatga ega, chunki ular davlat hokimiyatining nafaqat ijro etuvchi, balki boshqa organlarining va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘zaro aloqa usullari hisoblanadi. Boshqaruv aloqalarining asosiy turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vakolatlarni taqsimlash;
- vakolatlarni o‘zaro o‘tkazish (berish);
- mahalliy hokimiyat organlariga ko‘maklashish (davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash);
- turli boshqaruv bo‘g‘inlari o‘rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;
- turli hokimiyat organlarining faoliyati ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

Boshqaruv aloqalarining yuqorida zikr etilgan barcha turlari mintaqaviy va mahalliy hokimiyatning o‘zaro munosabatlari tizimida muhim o‘rin tutishiga qaramay, muvofiqlashtirish va nazorat qilish keng qamrovli xususiyatga ega bo‘lib, ularsiz biron-bir boshqaruv vazifasini hal qilishi mumkin emas.

Muvofiqlashtirish boshqaruv faoliyatining tashkiliy jihatdan tobe bo‘lmagan subektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yishning muhim usulidir. Boshqaruv aloqasining turi sifatida, muvofiqlashtirish uyushtiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, faoliyati muvofiqlashtiriluvchi subektlarning sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan. Muvofiqlashtiruvchi aloqa subektlarning o‘zaro manfaatdorligiga asoslanadi: o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining ehtiyojlari turlicha bo‘lgan taqdirda ham, muvofiqlashtirish jarayonida manfaatlarni muvofiqlashtirishga o‘zaro ehtiyoj shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladiki, bu umumiy manfaatning shakllanishiga ko‘maklashadi.

Muvofiqlashtirish o‘zaro ta’sir xususiyatga ega: bu nafaqat to‘g‘ri, balki teskari aloqa hamdir, ya’ni ikkala tomon ham faol ish olib boruvchi subektlar sifatida ishtirok etadi. Boshqaruv amaliyotini tahlildan o‘tkazish mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan muvofiqlashtiruvchi aloqalar quyidagi shakllarda amalga oshirilishini ko‘rsatadi:

- davlat boshqaruvining nomlari yuqorida zikr etilgan bo‘g‘inlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning deyarli barcha sohalariga, ayniqsa, qabul qilingan huquqiy hujjatlar haqida o‘zaro axborot berishga taalluqli bo‘lgan axborot almashish;

-respublika va mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan mahalliy boshqaruv organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga maslahatlar berish;

-me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yoki tashkiliy-iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish;

-davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida shartnomalar (bitimlar) tuzish;

-respublika va mintaqada davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv hamda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakillaridan hamkorlikdagi boshqaruv organlari tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

-respublika yoki mintaqada hokimiyat organlari qoshida mahalliy boshqaruv organlarining vakillaridan tarkib topgan mahalliy hokimiyat organlarining vakolatxonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini ta'minlash;

Mahalliy boshqaruv organlari ustidan davlat nazorati boshqaruvi mintaqaviy bo'g'inida amalga oshiriladi va nazorat faoliyatining subektiga qarab quyidagi turlarga ajratildi:

-respublika va uning subektlarining davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi (vakillik) organi tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat;

-respublika va mintaqada ijro etuvchi hokimiyat organlarining mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning qonuniyligi ustidan nazorati;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatida qonuniylikka rioya qilinishi ustidan prokuror nazorati;

-sud nazorati;

-boshqa mustaqil davlat organlari tomonidan amalga oshiriluvchi nazorat.

Yuqorida zikr etilgan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari ustidan nazoratning har bir turi o'ziga xos xususiyatlar, nazorat shakllari yoki vositalari to'plamiga ega bo'lib, bu nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi davlat hokimiyati organlari maqomi va vakolatlarning o'ziga xosliklari bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqib, respublika va mintaqada ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy va maxsus nazoratni ma'muriy nazorat deb tavsiflash mumkin. Mazkur nazorat, avval, huquqiy xususiyatga ega bo'lib, mahalliy organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining

qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlarining ijro etilishini tekshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan respublika, mintaqaviy va mahalliy organlarning o'zaro munosabatlari tamoyillarini umumlashtirib, mintaqaviy boshqaruv organlari yuqorida zikr etilgan maqsadlarga erishish uchun qo'llashlari mumkin bo'lgan, qonun hujjatlari va huquqiy nazoratning tabiatiga zid kelmaydigan quyidagi nazorat shakllarini ajratish mumkin:

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish (mahalliy tuzilmalarning ustavlari, ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi);

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning me'yoriy huquqiy hujjatlarini muvofiqlashtirish;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi (mansabdor shaxs) vakolatlarini to'xtatish;

Davlat nazoratining yuqorida zikr etilgan shakllari bilan bir qatorda, davlat tomonidan berilgan vakolatlarning mahalliy organlar tomonidan amalga oshirilishini ma'muriy nazorat qilishning boshqa bir shakli ham keng nazorat vositalariga ega. Mazkur nazorat shaklini davlat boshqaruvining xususiyatidan kelib chiqib, tarmoq nazorati deb tavsiflash mumkin. Bunday nazorat mahalliy boshqaruvning qonuniyligi, samaradorligi va maqsadga muvofiqligiga baho beradi.

Tarmoq nazorati shakllari, odatda, nafaqat mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi umumiy mintaqaviy qonunlar, balki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga alohida davlat vakolatlari berish tartibi to'g'risidagi maxsus davlat qonunlarida ham mustahkamlanadi. Bunda mazkur nazorat turiga xos mahalliy hokimiyat organlariga berilgan vakolatlarning mazmunini ham nazarda tutish kerak. Jumladan:

-davlat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotni so'rab olish (20-modda);

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish ijro etuvchi organlari rahbarlarining hisobotlarini tinglash (20-modda);

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilgan viloyat mulki obektlari va moliyaviy mablag'lardan maqsadli foydalanilishini tekshirish (21-modda);

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga zid ravishda qabul qilingan alohida viloyat davlat vakolatlarini amalga

oshirish masalalariga oid huquqiy hujjatlarining amal qilishini sud qarori chiqarilgunga qadar to'xtatib qo'yish (19-modda).

Davlat vakolatlarini bajarmaganlik yoki nomaqbul ravishda bajarganlik uchun mahalliy hokimiyat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga nisbatan yuqori davlat hokimiyati organlari tomonidan quyidagi sanksiyalar qo'llanilishi mumkin: mintaqa yoki respublika mulki obektlari va berilgan moliyaviy mablag'lardan maqsadsiz foydalanish natijasida yetkazilgan zararining mazkur organlar tomonidan qoplanishi hamda ulardan alohida davlat vakolatlarining olib qo'yilishi.

Mazkur mexanizmlardan mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli respublika va mintaqaviy maqsadli dasturlar doirasida kompleks foydalanish O'zbekiston Respublikasida mahalliy boshqaruv organlarini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida davlat hokimiyatining turli pog'onalari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifa va tamoyillari, Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati, Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Turli miqyosdagi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirmay, iqtisodiy rivojlangan davlat qurish, jamiyatda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish mushkul. "Davlat boshqaruvi", "Mintaqaviy boshqaruv" va "Mahalliy boshqaruv" atamalari murakkab tizimni (davlat boshqaruv faoliyatining o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari majmui)ni tashkil etadiki, odatda, boshqaruv maqsadlari, vazifalari, usullari, shakllari, subektlari va obektlari mazkur tizimning asosiy unsurlari hisoblanadi.

Mazkur unsurlar davlat hokimiyati ijro etuvchi organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimining maqomi, ularning maqsadlari, vazifalari va ish prinsiplari, vakolatlari doirasi, javobgarligi, tashkiliy huquqiy ish shakllari, shuningdek davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan vertikal yo'nalish hamda xo'jalik yurituvchi subektlar, fuqarolar va ularning birlashmalari bilan

gorizontal yoʻnalishda oʻzaro aloqalarini belgilash orqali huquqiy rasmiylashtiriladi.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari oʻrtasida vakolatlar aniq taqsimlangan boʻlmasa, bu davlat hokimiyati va mahalliy oʻzini-oʻzi boshqarish organlari oʻrtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Subektiv omil - tegishli mansabdor shaxslarning hududlarni mutanosib rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish manfaatlarida respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining oʻzaro samarali aloqalarini taʼminlashga yoʻnaltirilgan oqilona qarorlar ishlab chiqa olmasligi, baʼzan esa bunday qarorlarni ishlab chiqishni istamasligi yuqorida zikr etilgan muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Biroq respublika va mintaqaviy hokimiyat organlari zimmasiga haddan tashqari koʻp ish yuklanganligi, moddiy-texnika, moliya, axborot va boshqa resurslarning taqchilligi natijasida mazkur hokimiyat organlari tomonidan mahalliy miqyosidagi muammolarni hal etishga yetarli eʼtibor berilmayapti. Shu bois soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda davlat boshqaruvi tizimida yuqorida zikr etilgan hokimiyatning uch pogʻonasi oʻrtasida vakolatlarni taqsimlashning samarali mexanizmini yaratish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, mazkur mexanizm mamlakatda mahalliy faoliyatni yanada mukammal tartibga solish, uni davlat siyosati va mintaqaviy siyosatning mustaqil sohasiga ajratish imkonini beradi.

Tayanch soʻz va iboralar: Davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat, oʻz-oʻzini boshqarish, vakolat, mansabdor shaxs, meʼyoriy-huquqiy hujjatlar, mahalliy mulk, mahalliy budjet, jamoat tartibi, mehnat resurslari.

Oʻzini-oʻzi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Markazlashgan hokimiyat nima?
2. Markaziy hukumat nima?
3. Oʻzbekiston Respublikasida qanday hukumat boʻgʻinlari mavjud?
4. Mahalliy hokimiyat nima?

5. O‘z-o‘zini boshqarish nima?

6. Davlat hokimiyatining turli pog‘onalari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifa va tamoyillari?

7. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati?

8. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo‘llari?

X BOB. MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT

10.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari

10.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar

10.3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari

10.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning o'rganish obekti turli ko'rinishdagi hududiy notengliklar, ya'ni aholining turmush darajasi va yashash sharoitidagi, ishsizlik va bandlikdagi, alohida hududlarning iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi va tadbirkorlik sharoitidagi tafovutlar hisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Turli mamlakatlarning markaziy hukumatlari, hududiy va mahalliy davlat boshqaruv organlari bunday tafovutlarni bartaraf etish uchun bir qator (mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tuzilishi va ichki muammolari, hokimiyat tepasida turgan partiyalarning maqsadlari) omillarga bog'liq bo'lgan xilma-xil vositalardan foydalanadilar.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);

- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlar va h.k. bilan ta'minlanishi;

- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Yangi O'zbekiston Tarqqiyot Strategiyasining 33-maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan: "Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish. 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish" chora tadbirlari belgilangan

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy iqtisodiy siyosat kapital qo'yilmalar qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo'nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo'nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa hududlar bilan aloqalarini yaxshilash. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi.

Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish - yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash (ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomeratsiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag'batlantirish. Mazkur yo'nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarini joylashtirishda davlat tomonidan muhim e'tibor beriladigan asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning quyidagi 2 xil usuli keng qo'llaniladi:

Adolatli usul - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turiki, unga ko'ra mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajasi deyarli bir xil sharoit va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi.

Samarali usul - umumdavlat manfaatlari yo'lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish salohiyatlaridan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir.

Har ikki usul turli holatlarda o'zaro bir-birini to'ldiradigan yoki bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Bu esa muayyan mamlakat iqtisodiy taraqqiyotning qaysi pog'onasida turganligiga bog'liq. Iqtisodiy salohiyati katta, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan AQSh, Kanada, Yaponiya va g'arbiy Yevropa mamlakatlarining mintaqaviy iqtisodiy siyosatida adolatli usul keng qo'llaniladi.

10.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar

Xorijiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hududlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha turli

mamlakatlarda xilma-xil yoʻnalishlar mavjudligiga qaramay, ular oʻrtasida tafovutlar kam, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi maqsadlari esa quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- iqtisodiy qoloq mintaqalar rivojlanishini ragʻbatlantirish;
- markaziy hokimiyat vazifalarining katta qismini mahalliy davlat organlari zimmasiga yuklash;
- yirik shaharlarda sanoat ishlab chiqarishi toʻplanishini cheklash;
- yangi oʻzlashtirilgan hududlarda ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishni ragʻbatlantirish.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri hududiy rivojlantirish jamgʻarmalarini tashkil etish hisoblanadi. Birinchi marta 1975-yilda Yevropa Ittifoqi qoshida hududiy muvofiqlashtirish jamgʻarmasi tashkil etilgan. Boshqa bir qancha mamlakatlarda ham ayrim hududlarning ijtimoiy- iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida maxsus jamgʻarmalar (Italiyada davlat subsidiyasi hisobiga faoliyat yuritadigan va janubiy hududlar infratuzilmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan “Janub xazinasini”; Bolgariyada ayrim hududlar rivojlanishini jadallashtirish davlat dasturini taʼminlash boʻyicha jamgʻarma, Vengriyada uchta maqsadli jamgʻarmadan iborat hududlar rivojlanishining markaziy jamgʻarmasi va boshq.) tuzilgan.

Koʻplab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy iqtisodiy siyosatining muhim xususiyati shundaki, unda yirik maʼmuriy-hududiy birliklar (guberniya, shtat, provinsiya) emas, balki muayyan shahar va munitsipalitetlar hududiy muvofiqlashtirish makonlari hisoblanadi. Jumladan, Fransiyada kam rivojlangan Janubiy-gʻarb mintaqasining 9 ta aglomeratsiya va 17 ta shahar, Ispaniyada 10 ta “rivojlanish markazlari” va 2 ta “sanoatni ragʻbatlantirish markazlari”, Yaponiyada 10 ta “sanoat rivojlanishining alohida hududlari”, 6 ta “yangi sanoat shaharlari”, Italiyada 12 ta “sanoatni rivojlantirish hududlari” va 26 ta “sanoatlashtirish yadrolari”, Germaniyada 300 ta “muhim aholi punktlari” va hokazo.

Bu sohada niderlandiyaliklar va belgiyaliklar tajribasi ayniqsa diqqatga sazovor. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, Belgiyada shahar va qishloqlar rivojlanishini rejalashtirish boʻyicha qonun ilk bora 1915-yilda qabul qilingan.

Mamlakat mintaqalari oʻrtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy demografik rivojlanishdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, turli darajadagi hududiy jarayonlarni tartibga solish hamda hududlarni kompleks jihatdan

rivojlantirishda davlat tomonidan olib borilayotga mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ahamiyati muhim hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat-davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir. Ammo ko'zda tutilgan maqsadlarga eng avvalo iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish asosida erishiladi. Binobarin, har qanday mintaqaviy iqtisodiy siyosat bu hududiy iqtisodiy siyosatdir, iqtisodiy siyosat esa keng ma'nodagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir. Ma'lumki, mintaqaviy iqtisodiyot fani asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni o'rganadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish esa mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi. Jumladan, o'tish davrining iqtisodiyoti bu davrni mumkin qadar tezroq bozor iqtisodiyotining mustahkam ishlab chiqarish, huquqiy va ma'naviy asoslarini yaratishni talab qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot turli mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, barcha davlatlarga mos yagona andoza murakkab jarayon bo'lib, nafaqat bevosita iqtisodiyot tizimining o'zi, balki ichki va tashqi vaziyat, ijtimoiy va ekologik holatning qulayligi, ma'naviyati va moslashuvi kabi omillarga ham bog'liq.

AQShda mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy shakli turli xildagi mintaqaviy maqsadli dasturlar hisoblanadi. Umumdavlat mintaqaviy dasturlari AQSh ning federal qonunchilik va ijroiya hokimiyatlari darajasida ko'rib chiqiladi va federal byudjetdan moliyalashtiriladi. Bunday dasturlar bo'yicha eng muhim qarorlar AQSh kongressi tomonidan qabul qilinib, u mintaqaviy dasturlarning bosh maqsadlarini, qisman dasturiy tadbirlar yig'indisi, federal byudjetdan ajratmalar ajratishning maksimal mumkin bo'lgan miqdori, shuningdek, dasturiy tadbirlarni o'tkazish yuklatilgan organlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Davriy ravishda kongress amalga oshirilayotgan dasturlarning borishi haqidagi axborotlar bilan tanishib boradi. Bir qator boshqa davlatlarda mahalliy o'z-o'zini boshqarish tizimi xuddi Fransiyadagidek turga xos bo'lib, lekin to'liq unga o'xshamaydi. Fransiyaning eng yirik ma'muriy bo'linmasi mintaqa hisoblanadi.

Mintaqalar Fransiyaning dengizorti hududlarida ham mavjuddir. Mintaqalarning tashkil topishi amalda bo'lgan tor va kichik ma'muriy-hududiy birliklarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi to'siqlarni yengib o'tish zaruratidan kelib chiqqan edi. Bu birliklarning uncha katta

bo‘lmagan o‘lchamlari tabiiy, iqtisodiy va inson resurslaridan samarali foydalanishga yordam bera olmay qoldi. Italiyada, masalan, uch bo‘g‘inli tizim – viloyatlar, provinsiyalar va jamoalar amal qiladi. Viloyatlar – bu mustaqil mas’uliyat va funksiyalarga ega avtonom tuzilmalar bo‘lsa, provinsiya va jamoalar esa – davlat va viloyatlar hududiy bo‘linishi doirasidagi mahalliy boshqaruv birliklaridir. Odatda, viloyat o‘z ma’muriy funksiyalarining bir qismini provinsiya va jamoalarga bo‘lib berib, shularga mos ravishda moliyaviy resurslarni (ham viloyat, ham davlat resurslarini) ham taqsimlab beradi. Yaqin vaqtlargacha Italiya resurslarni taqsimlash yuqori darajada markazlashgan va ma’muriy nazorat qilinishi darajasi baland bo‘lgan mamlakat edi. Markaziy va mahalliy byudjetlar xarajatlarining nisbati bu yerda 2:1 ni (“katta yettilik” davlatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkich) tashkil yetar edi.

XX asr 90-yillarining yangi qonunchiligi boshqaruv funksiyalarini hududiy taqsimlanish tizimini o‘zgartirib yubordi. 1992-1999 yillarda munitsipalitetlar, provinsiyalar va tumanlarning soliq avtonomiyasi o‘rnatilib, 1993 yilda esa munitsipalitetlar va provinsiyalar rahbarlarini, shuningdek, ularning majoritar tizimdagi qonunchilik yig‘inlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash tartibi joriy etildi. 2000- yildan boshlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy ovoz berish yo‘li bilan tumanlar boshliqlarini saylash tartibi ham amalga oshirila boshlandi.

Natijada, davlat mintaqaviy siyosatining maqsad va vazifalarini keng ko‘lamda qayta ko‘rib chiqish uchun huquqiy asos yaratilib, uning tamal toshini “Bassanini qonunlari” (1997-1998 y.y.) deb nom olgan tadbirlar paketi qo‘ydi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning aralash turi yuqorida aytib o‘tilganidek, ko‘proq Germaniya va Yaponiya uchun xosdir. Germaniya federativ davlat sifatida o‘ziga xos murakkab tizimni mujassamlashtirgan. O‘z-o‘zidan joy (land)lar ham, federatsiya ham noharakatchan hisoblanmaydi.

Davlatning mohiyati ularning o‘zaro aloqalarini aniqlab berishdadi. Federatsiya va yerlar o‘rtasidagi jips aloqa gomogenlikda (bir turdalik) o‘z ifodasini topgan⁷⁸. Germaniyada hududiy boshqaruvning besh bo‘g‘ini – federatsiya, yerlar, okruglar, tumanlar va tuman, jamoa rangidagi shaharlar ajratib ko‘rsatiladi. Kommunal boshqaruvning bazaviy birliklari jamoalar, tumanlar va shaharlar hisoblanadi. Kommunal tizimning quyi bo‘g‘inlari hisoblanuvchi jamoalar

⁷⁸ Koshechkin SH. FRG: vzaimodeystvie federatsii i zemel // Problemiy teorii i praktika upravleniya 2001. №2. s.93.

ichida shahar va qishloq jamoalari ajratiladi, lekin ularning barchasida jamoaning vakillik organi bo'lib kengashlar ishtirok etadi.

Mamlakatda kommunal boshqaruv tizimiga talablar unifikatsiyalashtirilmagan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan ko'plab mahalliy boshqaruv organlari mavjud. Munitsipal ma'muriyatlarning saylov va ijroiya organlari orasidagi funksional aloqalarining ma'lum bir xususiyatlari bilan xarakterlanadigan bir necha turlari ajratiladi⁷⁹.

AQShda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni olib borilishining ilk davri, birinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. Sanoatning yuqori sur'atlarda o'sishi hududiy nomutanosiblikni va ildam rivojlangan industrial markazlarning so'nishiga olib keladi, natijada aholining migratsiyasi kuchayadi. 1922-yilda mamlakatda «Shaharlarni rejalashtirish davlat qo'mitasi» vujudga keladi, bu qo'mitaning asosiy maqsadi yirik shaharlarning o'sishini to'xtatishga qaratilgan edi (bu qo'mita ma'lum bir natijalarga erishgani yo'q, biroq shtatlar o'rtasida transport kommunikatsiyalarini tashkil etilishi va shaharlarni rejalashtirish metodlari bazasiga asos soldi⁸⁰).

Ko'plab mamlakatlarda mintaqaviy iqtisodiy siyosat ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, turli hududlar uchun turlicha qo'llanilishi mumkin. Masalan, tug'ilishni kamaytirish siyosati nihoyatda qat'iy yo'lga qo'yilgan Xitoyning zichlik ko'rsatkichlari ancha past bo'lgan Uyg'ur-Syangan avtonom okrugi va Tibet uchun oilada bolalar soni cheklanmagan.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiyaning bu sohadagi tajribasi alohida afzalliklarga ega. Aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli dasturlar izchil amalga oshirilishi natijasida Yaponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar safidan joy oldi.

Yaponiya mintaqaviy-iqtisodiy siyosati yer va tabiiy resurslarning cheklanganligidan, kishilar faoliyatini tabiiy sharoit bilan uyg'unlashtirish zarurati va mamlakat turli hududlari aholisining turmushi bo'yicha bir xil sharoit yaratish talabidan kelib chiqadi.

Umuman, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish jamiyat va davlat oldida turgan maqsad va vazifalar, ularning miqyosi va amalga oshirish

⁷⁹ Koshechkin SH. FRG: vzaimodeystvie federatsii i zemel // Problemy teorii i praktiki upravleniya 2001. №2. s.93.

⁸⁰ Edgar M. Hoover and Frank Giarratani "An Introduction to Regional Economics"/Pub BR, 2015, page 192

imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Yaponiyada moddiy va moliyaviy resurslar hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kam rivojlangan, “chekka” mintaqalarga jalb etishning tez moslashuvchan va qulay usuli barpo etildi.

Shu bilan birga, federal hukumat soliqlar va davlat grantlari orqali mahalliy dasturlarni (ta’lim, sog‘liqni saqlash, avtomobil yo‘llarini qurish) amalga oshirish natijasida mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy darajasini oshirishga olib keldi. Ayniqsa, o‘tgan asrning 40-50 yillarida AQShda ro‘y bergan yuqori darajadagi tug‘ilish (bebi-bum), aholining ayniqsa, qoratanli aholi savodsizlik darajasining va iqtisodiy faoligining pastligi, federal dasturlarda iqtisodiy aholi bandligi muammolarini hal etishga va daromadlarini ko‘paytirish masalalari ijtimoiy maqsadlarning ustivor yo‘nalishlaridan iborat bo‘lgan. Shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xomashyo, yoqilg‘i, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste‘mol va transport, iqtisodiy geografik o‘rin muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ekologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi roli oshib bormoqda⁸¹.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat obektlariga, siyosiy-hududiy birliklar (avtonom respublika, shtat, viloyatlar, qishloq manzilgohlari), favqulotda ro‘y bergan tabiiy va ekologik falokat zonalari, siyosiy kelishmovchilik ro‘y berayotgan hududlar kiradi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshishi va oshirilmasligi, tanlangan va ilmiy jihatdan asoslangan mintaqalarning rivojlanish strategiyasi bilan bevosita bog‘liq. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat juda ko‘p muammolar yechimini qamrab oladi, moddiy ishlab chiqarish sohalarini, aholining bandligi, xizmat ko‘rsatish sohalarini joylashtirish, turizmni rivojlantirish va hokazo. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi-mamlakat mintaqalari o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy nomutanosib rivojlanishni yumshatishga qaratilgan. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

- Yordamga “muhtoj” mintaqalarni ajratish va ularga nisbatan davlat tomonidan mintaqaviy iqtisodiy siyosat olib borish;
- “depressiv mintaqalarni” tiklash;
- “jadallashtirish” siyosati;
- “imtiyozlash” siyosati.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadlariga esa:

⁸¹ Edgar M. Hoover and Frank Giarratani “An Introduction to Regional Economics”/Pub BR,2015,page 194

- depressiv va “muhtoj” hududlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish;
- imtiyozli shartlarda qarz berish va soliqni belgilash;
- davlat hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura obektlarini yaratish;
- migratsion oqimlarni tartibga solish kiradi⁸².

10.3. Mustaqillik-yillarida O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Respublikamiz iqtisodiyotida ham bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan boshqa mamlakatlardagi singari “samarali” usulni qo‘llash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab foydalanilmayotgan zahiralalar ishga tushirilmoqda; yangi korxonalar asosan kommunikatsiyalar bilan yaxshi ta‘minlangan kichik va o‘rta shaharlarga joylashtirilmoqda; qishloq xo‘jaligida tabiiy-iqlim sharoitiga mos ekinlar ekish joriy etilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, birinchi navbatda boy tabiiy- iqtisodiy salohiyatga ega hudud va shaharlarni rivojlantirish, mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Qishloqda sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarini ishga tushirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumki, respublikamizning turli hududlari maydoni, aholi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma obektlari bilan ta‘minlanishi, shaharlashuv darajasi, aholining turmush sharoiti va boshqalarga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, mamlakat ma‘muriy-hududiy birliklari o‘rtasidagi aholi zichligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to‘g‘ri kelsa (1 km² maydonda 767 kishi), aksincha eng siyrak mintaqa Navoiy viloyatining Tomdi tumani (1 km² maydonda 0,58 kishi) hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani respublika ma‘muriy-hududiy birliklari orasida aholi tabiiy o‘shining yuqoriligi bo‘yicha eng oldingi o‘rinni egallaydi. 2001-yil davomida bu erda har 1000 kishiga nisbatan tabiiy o‘sh 26,9 kishiga to‘g‘ri kelgan. Eng quyi ko‘rsatkich esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 4,7 kishiga teng bo‘lgan.

⁸² Edgar M.Hoover and Frank Giarratani “An Introduction to Regional Economics”/Pub BR,2015,page 199

Aholi tabiiy ko'payishida shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan yirik, sanoatlashgan va mahalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan shaharlarda aholi tabiiy ko'payishi qishloq joylarga nisbatan bir necha bor past ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Ohangaron, Chirchiq shaharlarida tabiiy o'sish respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Toshkent shahrining ayrim tumanlari orasida ham shunday tafovutlar uchraydi. Jumladan, mahalliy millat vakillari ko'p istiqomat qiladigan Shayxontohur tumanida aholining tabiiy ko'payishi Mirzo Ulug'bek tumaniga nisbatan esa 3,7 hamda Hamza tumaniga nisbatan 5,5 marta yuqori.

Samarqand viloyati Urgut tumani aholi soni bo'yicha mamlakat ma'muriy- hududiy birliklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi. U yerda 335 ming kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani esa, aksincha, aholisi eng kam hudud hisoblanadi. U erda 13,6 ming kishi yashaydi.

Umuman, har bir tuman yoki shaharning o'ziga xos xususiyatlari haqida bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Mamlakatning mintaqaviy- iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning mana shunday alohida jihatlari albatta hisobga olinishi lozim.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari, mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar, mustaqillik yillarida O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning o'rganish obekti turli ko'rinishdagi hududiy notengliklar, ya'ni aholining turmush darajasi va yashash sharoitidagi, ishsizlik va bandlikdagi, alohida hududlarning iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi va tadbirkorlik sharoitidagi tafovutlar hisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv

vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Turli mamlakatlarning markaziy hukumatlari, hududiy va mahalliy davlat boshqaruv organlari bunday tafovutlarni bartaraf etish uchun bir qator (mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tuzilishi va ichki muammolari, hokimiyat tepasida turgan partiyalarning maqsadlari) omillarga bog‘liq bo‘lgan xilma-xil vositalardan foydalanadilar.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o‘z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);

- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlar va h.k. bilan ta’minlanishi;

ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma’lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Tayanch so‘z va iboralar: iqtisodiy siyosat, mintaqqa, tabiiy resurslar, mehnat, iqtisodiyot.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari nimadan iborat?
2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bu?
3. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadi nima?
4. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy metodlariga nimalar kiradi?
5. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi maqsadlari qanday vazifalarni hal etishga qaratilgan?
6. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat obyektlariga nimalar kiradi?
7. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo‘yicha xorijiy tajribalarga misollar keltiring
8. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiy siyosatining qanday asosiy yo‘nalishlari bor?

XI BOB. MINTAQALAR MOLIYASI VA UNI TARTIBGA SOLISH

11.1. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi

11.2. Mahalliy byudjet-mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbaidir

11.3. Byudjetlararo munosabatlar

11.1. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi

Hududiy moliya davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shahar) mahalliy byudjetlar, nobyudjet fondlari, mintaqa ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy vositalaridan iborat.

Hududiy moliya aholiga ijtimoiy-madaniy va kommunal- maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. Shunday qilib, hududiy moliya - hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Hududiy moliya orqali davlat ijtimoiy siyosatni faol amalga oshirmoqda. Mintaqaviy hokimiyat organlarining byudjetlari uchun ajratilgan vositalar asosida xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, kommunal xizmat sohalarini moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Mintaqalarning moliyaviy resurslari yordamida hukumat taraqqiyoti turlicha bo'lgan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtiradi. Bunday tafovutlarni bartaraf etishda maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun mablag'lar muayyan ma'muriy-hududiy birliklar byudjetlarining daromad manbalari hamda yuqori byudjetlarning ajratmalari hisobidan shakllantiriladi.

Hududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari quyidagilardan iborat:

1. Mahalliy byudjet
2. Munitsipal mulk hisoblanuvchi korxonalarining moliyaviy resurslari.

215-modda. *Munitsipal mulk.* Davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik⁸³, korxonalar va boshqa mulkiy

⁸³ <https://lex.uz/docs/-111189?ONDATE=15.01.2020>

komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk munitsipal mulk bo'ladi.

Munitsipal mulk bo'lgan mol-mulkni, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar. Munitsipal mulk bo'lgan mol-mulk yuridik shaxslarga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida birlashtirib qo'yilishi mumkin. Munitsipal mulk mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

3. Korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy-kommunal obektlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari.

4. Hududiy nobyudjet fondlari

Senatning 36-yalpi majlisida "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ma'qullangan.

Mazkur Qonun bilan 2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari hamda 2024–2025 yillar uchun byudjet mo'ljallari belgilangan.

Ta'kidlanganidek, Qonunga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 5,3 foizni va iste'mol narxlari indeksi 2022 yilning dekabr oyiga nisbatan 9,5 foiz miqdorida bo'lishidan kelib chiqib, Davlat byudjeti parametrlari hisob-kitob qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining daromadlari 2023-yilda 310,7 trln so'mni hamda xarajatlar 343,2 trln so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Qonun bilan 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi (O'zbekiston Respublikasi hukumati) nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollari miqdorida etib belgilanmoqda.

2023-yilgi Davlat byudjeti xarajatlari (davlat maqsadli jamg'armalariga ajratiladigan transfertlar bilan birga) 257,7 trln so'mni, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 24,1 foizni tashkil qilmoqda.

Senatorlar Davlat byudjetining ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar miqdoriga jiddiy e'tibor qaratdilar. Qayd etilganidek, ta'lim sohasi xarajatlari 58,4 trln so'm, sog'liqni saqlash sohasiga 28,4 trln so'm, madaniyat sohasiga 2,5 trln so'm, sport sohasiga 2,3 trln so'm va

fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 2023-yilda 1,8 trln so‘m yo‘naltirish belgilangan.

2023-yil uchun Davlat byudjetida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirish uchun 18,1 trln so‘m ajratiladi.

Shu bilan birga kelgusi yilda jami 52 mingdan ortiq daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal va foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 1,1 trln so‘m subsidiyalar to‘lab berilishi ko‘zda tutilgan.

Iqtisodiyotga ajratilishi rejalashtirilayotgan xarajatlar 36,7 trln so‘mni, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,4 foizni, jami xarajatlarning 14 foizini tashkil etib, bu mablag‘lar asosan tomchilatib sug‘orish, geologik qidiruv ishlarini va aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda uy-joy kommunal xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

11.2. Mahalliy byudjet - mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbaidir

Demokratik davlat tuzilishining muhim tarkibiy qismi mahalliy davlat boshqaruv organlari va ularning faoliyati hisoblanadi. Mahalliy davlat boshqaruv organlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun, muayyan mulk va moliya - byudjet xuquqiga ega bo‘lishi shart. Mahalliy hokimiyat idoralari hokimlar, xalq deputatlari kengashlari o‘z vakolatlari doirasida davlat moliya faoliyatini amalga oshiradilar.

Hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismi - bu mahalliy byudjet hisoblanadi. “Mahalliy davlat hokimiyat idoralari to‘g‘risida”gi qonunning II moddasiga muvofiq “Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari fondlar, kredit resurslari shuningdek Respublika (viloyat, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi”.

“Mahalliy byudjet - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”.

Mahalliy byudjetlar orqali mahalliy hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni moliyaviy manbalar bilan ta‘minlab boriladi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarining keyingi yillarda ildamlab borishi ularning davlat byudjetidagi salmog'ini ham oshib borishiga olib kelgan, bunga sabab asosan 1995-yildan boshlab mahalliy byudjetlar tomonidan oldingi yillarda Respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirib kelingan kadrlar va mutaxassislar tayyorlash, ya'ni o'rta maxsus o'quv yurtlari xarajatlarini moliyalashtirilishini berilishi davlat kapital qo'yilmalarining mahalliy byudjetlardagi hajmini ortib borishi hisobiga hamda davlatning aholini ijtimoiy ximoya qilish xarajatlarining keskin oshib borishi va xarajatlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar tomonidan amalga oshirilishi ham mahalliy byudjetlar xarajatlarining salmog'ining oshishiga olib keldi.

Hududiy rivojlantirish byudjeti asosan quyidagi manbalar hisobida shakllantiriladi:

1. Davlat mulkini xususiylashtirish hisobidan tushgan mablag'lar va bo'sh ishlab chiqarish maydonchalarini sotish. Hududiy rivojlantirish byudjet mablag'lari asosida hududiy investitsiya loyixalarini moliyalashtirish xamda investorga davlat kafolatini berish uchun sarflanadi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rinishdagi byudjet daromadlari mintaqalarda tadbirkorlar va investor uchun qulay ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirishda muxim rol o'ynayda. Ayrim mamlakatlarda esa mahalliy banklar tuziladi. Mahalliy banklar mahalliy xokimiyat organlari (shahar tuman ishtirokida tuziladi) Bank ustav kapitalining 51 %dan kam bo'lmagan miqdorda) va uning nazoratida bo'ladi. Mahalliy banklarning asosiy maqsadi hududni rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga ko'mak berishdan iborat.

Mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular riskli bo'lgan jarayonlar yoki operatsiyalar amalga oshirmaydi, balki mahalliy majburiyatlarni moliyalashtirishni kafolatlaydi. Shu sababli mahalliy banklar daromad topish emas, asosan moliyaviy mablag'larni samarali boshqarishni nazarda tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy byudjetlar qimmatli qog'ozlar, xususan, maxfliy obligatsiyalarni chiqarish vakolatiga ega. Bu qimmatli qog'ozlar joriy davrda defitsitga yo'l qo'ymaslik, investitsiya resurslarining yetishmovchiligini bartaraf etish, yuqori daromadli ishlab chiqarish yoki tadbirkorlik faoliyati uchun zarur infratuzilmaviy sharoitni yaratish muxim o'rin egallaydi. Mintaqada moliyaviy munosabatlarning boshqaruvdagi asosiy vazifalari mintaqqa ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining material va moliyaviy muvozanatlikni ta'minlash, bo'sh moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish, aholi pul

daromadlari va iste'mol bozori imkoniyatlari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha nazorat o'rnatishan iborat. Mintaqa moliyaviy salohiyatni shakllantirishda ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyati muxim rol o'ynaydi⁸⁴.

Mahalliy byudjetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalarini, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlarini, kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar moliyalashtirib boriladi. Shu bilan birga mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy qimoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy qimoya qilish xarajatlarining deyarli 100 foizi mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi.

11.3. Byudjetlararo munosabatlar

Byudjet har bir davlat moliyaviy tizimining asosi hisoblanadi, chunki byudjet barcha moliyaviy tizimlarni yagona bir tizimga birlashtirib, davlatning joriy yil uchun turli xo'jalik tarmoqlari va aholi bilan o'zaro munosabatlarini aniqlab boradi. Jamiyat hayotida byudjetning bunday holati qonun kuchi orqali ta'sir ko'rsatishiga imkon beradi. Shuning uchun har bir davlat byudjeti yuqori, qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanadi, uning daromad va xarajat qismlarini ijro etish byudjet jarayoni ishtirokchilari uchun muhim hisoblanadi.

Davlat byudjeti chuqur mohiyatini iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Davlatning har doim o'z vazifalarini bajarish jarayonida pul mablag'lariga zaruriyati tug'iladi. Davlat byudjetining daromad qismini shakllantirib turib soliq to'lovchilar va boshqa soliqsiz manbalar turlari bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Byudjet jarayonining ikkinchi sub'yekti aholi va korxonalar hisoblanib, ularning daromadlari bir qismi umumdavlat ehtiyojlariga sarf qilinadi.

O'z mohiyati bo'yicha byudjet - iqtisodiy kategoriya bo'lib, davlatning markazlashgan moliyaviy resurslar fondini taqsimlash va shakllantirish iqtisodiy munosabatlari majmuidir.

Mahalliy byudjetning iqtisodiy mohiyati ular bajaradigan vazifalarda o'z aksini topadi. Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

- pul fondlarini shakllantirish, ya'ni mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlash;

⁸⁴ Edgar M. Hoover and Frank Giarratani "An Introduction to Regional Economics"/Pub BR, 2015, page 210- 212

- hududiy tarmoqlar o'rtasida ushbu fondlarni taqsimlash va ulardan foydalanish;
- mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi korxonalar, tashkilotlarni nazorat qilishadi

Bozor iqtisodiyoti rivojlanganda federal davlatlarda mahalliy byudjetlar mustaqil hisoblanadi, ya'ni davlat byudjeti tarkibiga kiritilmaydi, ular konsolidatsiyalashgan (umumlashgan) byudjetga kiradi.

Bunday byudjetlar mablag'larining katta qismi ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladi. Mahalliy byudjetlarga asosan ikkinchi darajali soliqlar birlashtirilgan. Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjetlar mahalliy soliq va to'lovlar hisobiga mustaqil shakllanadi. Byudjet defitsiti sharoitida mahalliy hokimiyat organlari davlat kreditlariga, shuningdek mahalliy zayomlarga murojaat qiladilar.

Unitar davlat sifatida O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar mutlaq mustaqil hisoblanmaydi. Ularga bir qator cheklolar

- mahalliy byudjetlar balansli daromad va xarajatlarga ega bo'lishi kerak. Mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi;

- mahalliy byudjetlarni tasdiqlashda va ijro etishda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- (1) qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbaalar hisobiga jamg'armalarni tashkil qilish;

- (2) mablag' jalb qilishni amalga oshirish (yuqori byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno);

- (3) byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'dan ortiqroq mablag' sarflash (ushbu qonundan nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

- (4) byudjet mablag'lari hisobiga boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish;

- (5) yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalarini berish
 - mamlakat hududlarining salohiyati turlicha va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tengsizlik mavjud;

- tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, suv toshqini va boshqalar), shu jumladan, ulardan kelgan zararlar ham mahalliy byudjet zimmasiga tushadi.

O'zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq mahalliy byudjetlar defitsiti davlat byudjetidan olingan subsidiyalar va kreditlar hisobiga tartibga solinadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

- 1) mahalliy soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa soliqsiz tushumlar;
- 2) qabul qilingan qonuniy normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga yo'naltirilgan umumdavlat soliqlar;
- 3) davlat mulkini foydalanishga berishdan tushgan daromadlar;
- 4) qonunchilikka muvofiq vorislik, hadya qilish huquqi bo'yicha davlat tasarrufiga o'tgan pul mablag'lari;
- 5) yuqori byudjetlardan olingan subvensiyalar, dotatsiyalar va ssudalar;
- 6) yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek chet-el mamlakatlarining beg'araz pul tushumlari;
- 7) qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

Mahalliy byudjetlar daromadlari o'z daromadlari va tartibga solinadigan daromad manbalaridan tashkil topadi.

O'z daromadlari yoki biriktirilgan daromadlar - byudjet huquqining subektiga tegishli mablag'lar, ya'ni byudjetga to'laligicha yoki qat'iy o'rnatilgan ulushda doimiy ravishda yuqori turgan byudjetlarni chetlab o'tib tushadigan mablag'lardir. O'z daromadlar asosini mahalliy soliq va yig'imglar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar tashkil qiladi. Tartibga solinadigan daromadlar - bu yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga ularni daromadlari va xarajatlarini tartibga solish (balanslashtirish) maqsadida ajratiladigan pul mablag'laridir. Tartibga solinadigan daromadlariga alohida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, subvensiyalar, o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha yuqori byudjetlardan olinadigan mablag'lar kiradi.

Mahalliy byudjet daromadlariga, shuningdek pul-buyum, lotereya mablag'laridan tushumlar, musodora qilingan mulkni sotishdan tushgan mablag'lar va boshqalar kirishi mumkin.

Shuningdek, mahalliy byudjet daromadlari yuqori byudjetdan dotatsiya va subvensiyalar olish hisobiga ham shakllanadi.

Byudjet subvensiyasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladi.

Byudjet dotatsiyasi o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladi.

Byudjet ssudasi yuqori byudjetdan quyi byudjetga yohud respublika byudjetdan rezident-yuridik shaxsga yoki chet-el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Respublika byudjetidan byudjet dotatsiyalari va subvensiyalari mahalliy byudjetlarga qabul qilingan. Davlat byudjeti doirasida ajratiladi. Dotatsiya va subvensiyalar miqdori quyidagilardan kelib chiqib aniqlanadi:

1) hududlarning moliyaviy ahvoli (o'z daromadlar bazasining yetarligini hisobga olgan holda);

2) ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlari;

3) hududlar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining farqlanishi;

4) har bir hudud bo'yicha aholi soni;

5) hududlar bo'yicha moliyaviy disbalansni yo'qotish uchun hisobga olinadigan boshqa omillar.

Mahalliy hokimiyat organlarining o'z daromad manbaalariga manfaatdor bo'lishi xo'jalik yuritish tashabbusini ko'rsatish, byudjetga to'lovlarni oshirish imkonini beradi va rag'batlantiradi. Biroq shu bilan birga, mahalliy byudjetlarning doimo oshib borayotgan xarajatlari daromadlar yetarli darajada o'smayotganligi sharoitida ushbu byudjetlarni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu asosan yuqori manbaalardan mablag'larni o'tkazish hisobiga amalga oshiriladi.

Hududiy rivojlantirish byudjeti asosan, quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi: davlat mulkini xususiyalashtirish hisobidan tushgan mablag' ishlab chiqarish maydonchalarini sotish. Hududiy rivojlantirish byudjet mablag'lari tanlov asosida hududiy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda investorlarga davlat kafolatini berish uchun sarflanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rinishdagi byudjet daromadlari mintaqalarda tadbirkorlar va investorlar uchun qulay ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayrim mamlakatlarda esa, mahalliy banklar tuziladi.

Mahalliy banklar mahalliy hokimiyat organlari (shahar, tuman) ishtirokida tuziladi (bank ustav kapitalining 51 foizidan kam bo'lmagan miqdorida) va uning nazoratida bo'ladi. Mahalliy banklarning asosiy maqsadi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga ko'mak berishdan iborat. Mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular riskli bo'lgan jarayonlar yoki operatsiyalarni amalga oshirmaydi, balki mahalliy (munitsipal) majburiyatlarni moliyalashtirishni kafolatlaydi.

Mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi quyidagicha:

1. Mahalliy soliqlar.
2. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar.
3. Maxaliy byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovutni qoplashga byudjet dotatsiyasi.
4. Mahalliybyudjetda ko'zda tutilgan maqsadli xarajatlarni amalga oshirishga subvensiya.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi, mahalliy byudjet-mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbaidir,byudjetlararo munosabatlar kabi masalalr ko'rib chiqildi.

Hududiy moliya davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shahar) mahalliy byudjetlar, nobyudjet fondlari, mintaqa ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy vositalaridan iborat. Hududiy moliya aholiga ijtimoiy-madaniy va kommunal- maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. Shunday qilib, hududiy moliya - hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Hududiy moliya orqali davlat ijtimoiy siyosatni faol amalga oshirmoqda. Mintaqaviy hokimiyat organlarining byudjetlari uchun ajratilgan vositalar asosida xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, kommunal xizmat sohaslarini moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Mintaqalarning moliyaviy resurslari yordamida hukumat taraqqiyoti turlicha bo'lgan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtiradi. Bunday tafovutlarni bartaraf etishda maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun mablag'lar muayyan ma'muriy-hududiy birliklar byudjetlarining daromad manbalari hamda yuqori byudjetlarning ajratmalari hisobidan shakllantiriladi.

Hududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari quyidagilardan iborat:

1. Mahalliy byudjet
2. Munitspal mulk hisoblanuvchi korxonalarining moliyaviy resurslari.

215-modda. *Munitsipal mulk.* Davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy byudjet mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik⁸⁵, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta‘limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk munitsipal mulk bo‘ladi.

Munitsipal mulk bo‘lgan mol-mulkni, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar. Munitsipal mulk bo‘lgan mol-mulk yuridik shaxslarga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo‘yilishi mumkin. Munitsipal mulk mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobidan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

3. Korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy-kommunal obektlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lari.

4. Hududiy nobyudjet fondlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Soliq, byudjet, soliqlaridan ajratmalar, mablag‘, subvensiya, dotatsiya, ssuda, tovar, moliya.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Mintaqalarning moliyaviy resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmiga nimalar kiradi?
3. Dotatsiya va subvensiyalar miqdori qanday aniqlanadi?
4. Byudjet subvensiyasi bu?
5. Byudjet dotatsiyasi bu?
6. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi?
7. Mahalliy byudjet-mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbalari nima?
8. Byudjetlararo munosabatlar deganda nima tushuniladi?

⁸⁵ <https://lex.uz/docs/-111189?ONDATE=15.01.2020>

XII BOB. MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH

12.1. Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari

12.2. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari

12.3. Mintaqaviy o‘shish nazariyalarini tahlil etish masalalari

12.4. O‘zbekiston hududlaridagi iqtisodiy o‘shishning omillarga asoslangan tahlili

12.5. Mintaqada iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari

12.1. Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari

O‘tgan asrning 70-yillarigacha “iqtisodiy rivojlanish” deyilganda mamlakatning ishlab chiqarishni aholi o‘shish sur‘atlaridan yuqoriroq sur‘atlarda oshirish qobiliyati tushunilar, rivojlanish jarayonining miqdoriy o‘lchovi sifatida “iqtisodiy rivojlanish darajasi” tushunchasi xizmat qilar, u mamlakat milliy daromadini uning aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanar edi.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi hisoblanadi. Demak, milliy daromadining o‘shish sur‘atlari qanchalik yuqori bo‘lsa, aholisining o‘shish sur‘atlariga nisbatan tezroq ortgan mamlakatda iqtisodiy rivojlanish darajasi shunchalik osha boradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi yuqori o‘shish sur‘atlariga erishgan bo‘lsada, bu boradagi ko‘rsatkichlarni uzoq vaqt saqlab qola olishmagan. Chunki ularda iqtisodiy o‘shish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga olib kelmagan.

Shuning uchun ham o‘tgan asrning 70-yillariga kelib, “iqtisodiy rivojlanish” tushunchasi sifat jihatidan boyitilib, milliy iqtisodiyot tuzilmasi, qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar nisbati, eksport tarkibi, mamlakat aholisining ma’lumot darajasi, ehtiyojlari tarkibi va boshqalar bilan ifodalana boshladi. Keyinchalik esa iqtisodiy tadqiqotlar chuqurlashuvi bilan rivojlanishga ijtimoiy va siyosiy omillar sezilarli ravishda ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘p qirrali jarayon sifatida qaraldi.

“Iqtisodiy rivojlanish” tushunchasi o‘tgan asrning oxirgi choragida mazmunan chuqurlashdi. Bunga fan-texnika inqilobi va uning ta’sirida

ishchi kuchi sifatiga qo'yiladigan talablar oshishi sabab bo'ladi. "Inson kapitali" qo'yilmalari samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi obektiv zarurat sifatida tan olindi.

AQSh tajribasida hududiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish amaliyoti o'rganadigan bo'lsak, mazkur fikr doirasidan kelib chiqqan xolda ta'kidlash mumkinki, AQSh mintaqaviy rivojlanishi siyosati avvalo hududlararo nomutanosiblikni bartaraf etishda, aholi turmush sharoitlari, daromadlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishda, hududiy xizmatlarni taklif etishda, rivojlanishning raqobatbardosh subsidiyalashtirishni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

AQSh mintaqaviy rivojlanish dasturlari hududiy rivojlanish yoki hududlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish va aholi turmush farovonligini oshirishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda amalga oshiriluvchi dasturlarda hududlar quyidagi muammoli mintaqalarga ajratiladi:

1. Rivojlanishning o'zini o'zi qo'llab quvvatlash bosqichida to'xtagan, rivojlantirishdan ortda qolgan hududlar.

2. Hududlararo raqobatchilikka sekinlashgan va o'z ixtisoslashuvini yangi mehnat turiga almashtirish imkoniyati bo'lmagan hududlar.

3. Kuchli rivojlangan va aholisi o'ta zich joylashgan hududlar. Mazkur turlanish asosida davlatning asosiy hududiy siyosati shakllantiriladi.

Bu esa davlatning hududiy birliklar va ishchi kuchi sifatini oshirishga, aholi bandligining yuqori darajasini saqlashga, subsidiyalar yoki investitsiyalarni qisqartirish, m'lumotlar va xizmatlar ko'rsatish tezligini boshqarish, izlanishlarni qo'llab quvvatlash, mahalliy va hududiy infratuzilmaga ko'maklashish kabi omillarni o'z ichiga olgan choralar orqali hudud tizimiga va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Jahon bankining ma'ruzasida (1991-y.) iqtisodiy rivojlanishga inson taraqqiyotiga qaratilgan jarayon sifatida qaraldi. Unda ta'kidlanishicha, "taraqqiyotning maqsadi - hayot sifatini yaxshilash hisoblanadi. Hayot sifatining yaxshilanishi, xususan, kambag'al mamlakatlarda, avvalo, daromadlar ko'payishi va faqat bugina emas, balki, yaxshiroq ta'lim olish, ovqatlanish va sog'liqni saqlash imkoniyatlari tengligi, shaxsiy erkinlikni kengaytirish va boy madaniy hayotni ko'zda tutadi".

Yuqoridagi ta'rifda shu narsaga e'tibor berish kerakki, hayot sifatining yaxshilanishi birinchi navbatda barcha aholi daromadlarining o'sishiga - mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha pul daromadlarining o'sishiga bog'liq qilib qo'yiladi.

Endi esa, “Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish” tushunchasiga ta’rif berib ko‘raylik va uning o‘zi nimani anglatishini aniqlaylik. Ta’rif berishdan oldin ushbu tushunchaning zarurati nimada ekanligini ko‘rib chiqamiz.

Jahon tajribasiga ko‘ra iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan hal etilgandagina erishiladi.

Bunda respublika hokimiyat organlari e’tibori umummilliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish, iqtisodiyot rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash va shu asosida faoliyat yuritish, qonunni himoya qilish va himoyalash kabi ishlarga qaratilgan bo‘ladi. Shunday qilib, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va boshqalar) o‘zlariga birlashtirilgan daromadlar manbalari hisobiga hal etishda ko‘proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga keladi.

Demak, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish-respublika hokimiyat organlari tomonidan hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga hamda bu rivojlanish bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarga ta’sir etish vositasi bo‘lib, uning natijasida hududiy siyosat ro‘yobga chiqadi. “Hududiy siyosat” atamasi keng tarqalgan bo‘lsa-da hali uning yagona ta’rifi mavjud emas. Bu o‘rinda undan “hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish” atamasiga sinonim sifatida foydalanamiz, chunki xuddi shunday mazmun g‘arb adabiyotlarida «hududiy siyosat» atamasiga beriladi.

Xullas, “hududiy siyosat”ning ta’riflari ko‘p. Ularni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, hududiy siyosat markaziy (respublika) hokimiyat organlarining hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish maqsadidagi xatti-harakatidir. Hududiy siyosatning bosh maqsadi - ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishiga zamin yaratuvchi, mamlakat yoki uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi tengsizliklarni mumkin qadar kamaytirishdan iborat.

Davlat hududiy siyosatining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- mamlakatda hududiy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish;

- hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan qat'iy nazar, yagona minimal ijtimoiy standartlar va teng ijtimoiy himoyani ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash;

- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tenglashtirish;

- atrof-muhit ifloslanishini to'xtatish hamda uning ifloslanishi oqibatlarini yo'qotish, hududlarni kompleks ekologik himoya qilish;

- o'ta muhim strategik ahamiyatga ega hududlarni ustuvor rivojlantirish;

- hududlarning tabiiy - iqlim xususiyatlaridan to'liq foydalanish;

- o'zini-o'zi boshqarish kafolatlanishini ta'minlash.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda hududiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mintaqalarda ko'p ukladli iqtisodiyotni, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirish, tovar, mehnat va kapitalning umumdavlat va hududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko'maklashish;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonidagi katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o'z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichma - bosqich yaratish;

- hududlar iqtisodiy tuzilmasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan darajasiga erishish, bozor sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish;

- hududlararo infratuzilmaviy tizimlarni (transport, aloqa, axborot va boshqalar) rivojlantirish;

- ekologik va favqulodda holatlarga uchragan, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan, demografik va migratsion muammolar mavjud hududlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatiladi.

Endi esa hududiy siyosat vositalarini ko'rib chiqamiz. Siyosatni amalga oshirish vositalari sifatida mikro va makro darajada qo'llaniladigan turli xil bevosita va bilvosita, ma'muriy-huquqiy va iqtisodiy vositalar xizmat qiladi. Hududiy siyosatni amalga oshirish vositalari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish;

- hududlar iqtisodiyoti va ijtimoiy soha ob'yektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan - to'g'ri ishtiroki;

- davlat buyurtmalarini joylashtirish;

- mahalliy hokimiyat imkoniyatlari chegaralangan faoliyat sohalarida xudularga tashkiliy, huquqiy va axborot ko‘magini ko‘rsatish;
- iqtisodiy mexanizm va vositalarni qo‘llash;
- erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish

Prognoz qilish - hududiy taraqqiyot strategiyasini ilmiy asoslash va hududiy siyosatni ishlab chiqishning muhim tarkibiy qismi, prognozlarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad - yuz berayotgan va kutilayotgan jarayonlarning rivojlanishi, hududiy siyosat va uni amalga oshirish vositalarining variantlari, u yoki bu boshqaruv qarorlarining oqibatlarini baholashadi. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish shakllaridan biri davlatning mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlari hisoblanadi. Ularga hozir ham, kelajakda ham alohida e‘tibor berish kerak.

Hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy soha obektlarini rivojlantirishda davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtiroki manzilli tartibga solish yo‘llaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga misol tariqasida mamlakatda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni keltirish mumkin.

Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy mexanizimi budjet tizimi hisoblanadi. Budjetlar qonuniy aktlar asosida qabul qilinadi va ishlatiladi. Hududiy rivojlanishning makroiqtisodiy vositalari davlatning soliq, kredit, investitsiya, narx, ijtimoiy va boshqa siyosatning hududlar bo‘yicha differentsiatsiyalashgan parametrlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismidir.

12.2. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o‘rganishga oxirgi o‘n yilliklarda nisbatan kamroq e‘tibor berildi. To‘g‘ri, hududiy iqtisodiyot bo‘yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko‘rib chiqildi. Biz mavjud hududiy nazariyalarni mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning amaliy masalalarini hal etishda foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan tahlil etishga harakat qildik.

Hududiy siyosat nazariyalari hududlar iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solish yoʻnalishlarini shakllantiradi. Biroq bu nazariyalarning oʻzining oʻrganish bilan chegaralanib qolish toʻgʻri emas, chunki ulardan koʻpi mintaqalarning iqtisodiy oʻsishi nazariyalariga asoslangan (boshqacha qilib aytganda, mintaqalarning iqtisodiy oʻsish surʼatlarida farqlar yuzaga kelishiga sabab boʻluvchi omillarni aniqlamasdan turib, hududiy siyosat haqida gapirish notoʻgʻri).

Hududiy oʻsish nazariyalarini koʻrib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi - hududlarda iqtisodiy oʻsish modellarini qoʻllashadi. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining oʻsishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga oʻxshatish mumkin (development ekonomiks). Ikkinchisi esa, alohida korxonalar va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatining belgilab beradi. Kompaniyalar oʻz faoliyatini u yoki bu hududda olib borishlarining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali koʻrib chiqiladi. Tahlil etilayotgan nazariyalarni ishlab chiqish bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassisleri, ham iqtisodchilar shugʻullanishgan. Chunki iqtisodiy geografiya bilan hududiy iqtisodiyot oʻrtasida aniq chegara oʻrnatishning iloji yoʻq. Hududiy nazariyalar sohasida Rossiya iqtisodchilari va geograflari tomonidan ham katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular asosan gʻarb olimlari fikrlarini rivojlantirganlar. Bu borada ayniqsa, universitet hudud maktabining ijtimoiy va iqtisodiy geografiya vakillari oʻziga xos xususiyatga ega boʻlganlar. N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy, I.A.Viti, Yu.G.Saushkin kabi olimlar ushbu yoʻnalishni mustahkamlashga katta hissa qoʻshganlar.

Klassik standart nazariyalar 1920-yillarda A.Predel va T.Palander tomonidan tanqid qilinadi. A.Predel muvaffaqiyatli joylashtirish joylarini koʻrsatib oʻtgan (yaʼni optimal joylashtirish joyini matematik aniqlash imkoniyatini inkor etgan). T.Palander maxsus (turli xil tarmoqdagi korxonalar uchun) va umumiy standart nazariyalarini taklif etdi. Joylashtirish nazariyalari rivojlanishi yangi bosqichining (taxminan XX asr oʻrtalarida boshlangan) koʻzga koʻringan vakillari Avgust Lyosh va Devid Smit hisoblanadi. Ularning nazariyalari yangi yoki neoklassik standartlar bilan ataladi (bu erda «neoklassik» tushunchasining neoklassik iqtisodiyot nazariyasiga aloqasi yoʻq). Neoklassik nazariyaning klassik nazariyadan farqi shundaki, unda ishlab chiqaruvchilar optimal hududiy joylashuvni taʼminlay oluvchi sanoat ishlab chiqarishi joylashuvining umumiy nazariyasini yaratish mumkin

emasligini tushunib etishlari lozim. Unga ko‘ra, xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarishning joylashish joyini tanlash sub’yektiv amalga oshiriladi. Optimal joylashtirishning mezonlari sof foydani maksimallashtirish hisoblanadi. Statik nazariyalarning rivojlanishi hozirgacha davom etmoqda. Ular asosan korxonani joylashtirish omillari sonining ko‘payishi yo‘nalishida amalga oshirilmoqda. Undan tashqari, bir zavodli emas, balki ko‘p zavodli sanoat firmalari ko‘rib chiqila boshlandi (Raynold Grosning 1980-yillar boshlaridagi ishlari). Aynan ko‘p zavodli sanoat firmalari hayotda ko‘p bo‘lib, aksariyat hollarda ularning tarkibiga iqtisodiyotning uchinchi sektori korxonalari ham kiradi. Bunday kompaniyalarda optimal joylashtirish muammosiga yondashuv bir zavodli firmalarga nisbatan tubdan farq qiladi. Ko‘p zavodli firmaning asosiy maqsadi tarkibidagi korxonalarni shunday joylashtirishki, bunday joylashtirish natijasida minimal va kompaniya foydasi maksimal bo‘lsin. Joylashtirishning dinamik nazariyalari, yuqorida aytib o‘tilganidek, XX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Birinchi sodda dinamik konsepsiya sifatida X.Xotelling modelini aytish mumkin. U 1920-yillardagi ishida o‘zaro raqobatlashadigan ikkita ishlab chiqaruvchi korxonani optimal joylashtirishni isbotlab bergan. Dinamik nazariyalarda statik nazariyalardan farqli ravishda ko‘proq ko‘p zavodli kompaniyalar ko‘rib chiqiladi. R.Vernoning mahsulot ishlab chiqarish davri konsepsiyasini garchi, u mintaqaviy nazariya doirasidan chetga chiqib ketgan bo‘lsa ham, joylashtirishning dinamik nazariyasi deb hisoblash mumkin (1960-yillarda paydo bo‘lgan). Vernoning asosiy tezisi shundan iboratki, har bir mahsulot chegaralangan hayotiy davrga ega bo‘lib, shu davrda ishlab chiqarish jarayoni hamda uni optimal joylashtirishda o‘zgarishlar ro‘y berib turadi. Mahsulotning hayotiy davri bir qancha bosqichni (ishlab chiqarish, o‘zgartirish, ulg‘ayish, standartlashtirishni) o‘taydi. Ular bir-biridan joylashtirishning asosiy omillaridagi nisbatlari bilan farq qiladi.

Hozirda dinamik nazariyalar soni ko‘p emas. Dinamik konsepsiyalar doirasida sanoat firmalarining hududiy rivojlanish bosqichlari ajratiladi. Har bir bosqichda kompaniyalar o‘z faoliyatini joylashtirishning turli mezonlaridan foydalanishadi. Masalan, Storper va Uolker bunday bosqichlarning to‘rttasini ajratadi. Birinchisi – “lokalizatsiya” - yangi sanoat firmalari va korxonalarining yangi hududlarda joylashuvi. Ikkinchisi – “selektiv suburbanizatsiya” - dastlab tanlangan hududlarda bozor holatlari mustahkamlangan sari ushbu firmalar quvvatlarining oshirib borilishi. Uchinchisi – “disperssiya” -

sanoat firmalarining chetga (pereferiyaga) tomon harakati. Nihoyat, to'rtinchisi – "joylashuvchi og'irlik markazlarini ko'chirish" - sanoat tuzilmasining yangilanishi ta'siri ostida ishlab chiqarishni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishdir. Masalan, texnologik yangiliklar asosida, talab tuzilmasining tarkibiy o'zgarishi hisobiga, eski tarmoq va ishlab chiqarish evolyusiyasi natijasidir. Firmalar - yangilanish jarayonining tashuvchilari ko'pincha oldin paydo bo'lgan yirik sanoat markazlaridan tashqari joylashadilar. Bu esa jarayonni yana "lokalizatsiya" bosqichiga qaytaradi.

12.3. Mintaqaviy o'sish nazariyalarini tahlil etish masalalari

Hududiy o'sish nazariyalari tahlilini boshlashdan oldin, u bilan bog'liq ikkita masalani ko'rib chiqish zarur. Birinchisi – "o'sish" va "rivojlanish" kategoriyalarining nisbatlari, ikkinchisi - o'sish muammolari ko'rib chiqiladigan mintaqalar chegaralarini aniqlash. "O'sish" va "rivojlanish" mezonlarining o'zaro nisbatlarini aniqlashga keladigan bo'lsak, davlat tomonidan tartibga solishning umume'tirof etilgan asosiy maqsadi oddiy o'sish emas, balki rivojlanish hisoblanadi. Bu haqda P.Samuelson shunday degan edi: "ishlab chiqarishning faqatgina oddiy miqdoriy o'sishiga intilish kerak emas (hatto aholi jon boshiga ham). U bilan birga jamiyatning hamma ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi ichki rivojlanishiga erishish zarur". Keyinchalik esa ko'pincha olimlar shu narsani ta'kidlashadiki, nazoratsiz miqdoriy o'sish butun insoniyatga xavf solishi mumkin. Chunki u ekologik, energetik, xomashyo va boshqa global muammolarni tug'diradi.

Shunga qaramay, hududiy nazariyalar doirasida va asosan hududiy siyosatning amaliy chora-tadbirlarini amalga oshirishda gap ko'proq iqtisodiy o'sish haqida boradi. Birinchidan, "iqtisodiy o'sish"ni "rivojlanish"ga qaraganda miqdoriy baholash mumkin. Shuning uchun ham uni tadqiqotlar va amaliyotda qo'llash ancha oson. Ikkinchidan, bir mamlakat doirasida iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi hududiy tengsizliklar haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ko'pgina tadqiqotchilar "o'sish" deganda "rivojlanish"ni tushunadilar.

Hududiy o'sish nazariyalarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ishlab chiqarish vazifasiga asoslangan neoklassik nazariyalar, ikkinchisiga neokeynschilar, institutsionallar va iqtisodchi - geografiyashunoslar modellarining sintezi bo'lgan kumulyativ o'sish nazariyalari kiradi (aniqroq qilib aytganda esa, birinchi bo'lib kumulyativ o'sish modelini institutsionalistlar taklif etishgan, so'ng uni

iqtisodchi-geografiyashunoslar rivojlantirishgan, neokeynschilar esa Hududiy siyosat tadbirlarini amalga oshirishda unga tayanishgan).

Neoklassik maktab haqida gapiradigan bo'lsak, bu yerda hududiy o'sish sur'atlaridagi farqlar yo'nalishidagi dastlabki tadqiqotlar umummilliy iqtisodiy o'sishni tushuntirishda foydalanilgan nazariyalarga asoslangan. Ushbu usulni birinchi bo'lib Dj.Bors qo'llagan. Bunday yondashuv 1960-yillarning o'rtalarigacha mashhur bo'lgan, undan hozirgi paytda ham foydalaniladi. Bu yerda asosiy e'tibor iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan omillarga qaratiladi.

Ushbu yondashuvga ko'ra, hududiy o'sish parametrlari tabiiy resurslarning miqdori va sifati, mehnat resurslarining miqdori va malakasi, kapital zaxirasi va texnologiya darajasi bilan aniqlanadi. O'sishning ko'pgina oxirgi neoklassik modellarida dastlabki modellar kabi kapitalni investitsiyadan keladigan daromad kam, yuqori rivojlangan hududlardan keladigan investitsion daromadi yuqori bo'lgan, sust rivojlangan hududlarga ko'chirish yo'li bilan hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirishga intilishlar mavjud. Aksincha, ish haqi darajasi past hududlarda daromadlar kamroq bo'ladi, shuning uchun ham mehnat resurslari ko'proq rivojlangan hududlarga ko'chib o'tishadi. Biroq oxirgi neoklassik modellarda hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini bir-biriga yaqinlashtirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashilgan. A.Lyoshning fikricha tenglashtirish faqatgina stixiyali bozor kuchlari orqali juda ham sekin amalga oshadi. Kumulyativ o'sish nazariyalarida asosiy model muallifligi G.Mtordalga tegishli. Ko'p holatlarda u mamlakatlar misolida, qay tarzda ixtisoslashuv va miqyos samarasi yordamida arziyas ustunliklarga ega bo'lgan hududlar vaqt o'tishi bilan uni ko'paytirishlari mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvdan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'sish markazlari (qutblari) kabi hududlar ustunliklari ularning tez rivojlanishini ta'minlasa, bir paytning o'zida kam rivojlangan mintaqalar orqada qolishi yanada chuqurlashishi mumkin. Ushbu konsepsiya N.Koldora va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida matematik ko'rinishga keltirilgan. O'ziga xos "o'sish qutblari", yirik sanoat markazlariga aylanayotgan shaharlar to'plamining shakllanishi haqida X.Richardson ham yozgan. Uning fikricha, aynan hududiy aglomeratsion tejam muhiti bunda muhim rol o'ynaydi. U texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligini rag'batlantiradi, korxonalarni joylashtirish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Richardson modeli asosida neoklassik modeldagi kabi vazifa

yotadi. U o'sish sur'atlari bilan kapital jamg'arish sur'atlari, mehnat taklifining ko'payishi va texnika taraqqiyoti tezligi o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Dj.Fridman fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sish ko'proq shaharlarda yuz beradi (biroq olimlar-urbanistlar faqatgina ustunliklarni emas, balki yirik shaharlarning kamchiliklarini ham aytib o'tadilar). Fridman "markaz-pereferiya" nazariyasining klassigi hisoblanadi. U mamlakatda o'sish markazlari (ular "yadro"lar deb ataladi) shakllanishining to'rt bosqichini ajratadi:

- o'z atrofidagi Hududlarga kam ta'sir ko'rsatuvchi lokal yadrolarning mavjudligi.

- keng pereferiyaga ta'sir ko'rsatuvchi va o'sish qutblarini shakllantiruvchi eng kuchli yadroning paydo bo'lishi.

- o'sish qutblarida potentrik tuzilma shakllanishiga olib keluvchi yana ko'pgina yadrolarning rivojlanishi.

- yadrolarning baqquvat pereferiyaga ega urbanistik poliareal tuzilmaga aylanishi.

- chekka (pereferiya) hududlarning (rivojlanish markazida va ulardan tashqarida bo'lgan) rivojlanishini tasvirlashda Dj.Fridman, T.Xegerstrand va boshqa qator olimlar taklif etgan "yangiliklar diffuziya"si sxemasidan foydalaniladi.

J.R.Budvil o'sish qutblari nazariyasini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shdi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiyotning hamma tarmoqlarida bir xil bo'lavermaydi. Har doim dinamik, ya'ni "propulsive" deb ataluvchi tarmoqlarni ajratish mumkin. Ular butun iqtisodiyotning rivojlanishi uchun rag'batlantiruvchi hisoblanadi va "rivojlanish qutblari" sifatida namoyon bo'ladi. V.Leontevning "xarajatlar - ishlab chiqarish" tipidagi o'zaro aloqalar tizimi orqali yangiliklar samarasi butun iqtisodiyotga tarqaladi. Ishlab chiqarish konsepsiyasi jarayoni hisobiga, "promulsiv" tarmoqlar aniq bir nuqtada (rayonda) – "o'sish markazlarida (qutblarida) to'planadi". J.R.Budvil V.Kristallarning markaziy o'yinlar nazariyasiga asoslangan holda ularning ierarxiyasini taklif etdi. O'sish qutblari orasida quyidagilar ajratiladi:

- uchinchi sektor tarmoqlarida ixtisoslashuvchi va yaqinidagi qishloq joylariga xizmat ko'rsatuvchi kichik "klassik" shaharlar;

- qaysi hududlarning iqtisodiy rivojlanishi davlat tomonidan rag'batlantirilishi kerak va nima uchun tashqi ta'sirlar hisobiga rivojlanayotgan, diversifikatsiyalangan iqtisodiy tuzilmaga ega o'rta kattalikdagi sanoat korxonalarini;

- propulsiv tarmoqlarni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiyot tuzilmasi rivojlangan yirik shahar aglomeratsiyalari;

- bir qancha shahar tizimlarini qamrab oluvchi va hududiy tuzilmalar evolyusiyasini aniqlab beruvchi integratsiya qutblari.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish (yoki hududiy siyosat) nazariyalari quyidagi ikkita asosiy savolga javob berishi kerak:

- qaysi hududlarning iqtisodiy rivojlanishi davlat tomonidan rag‘batlantirilishi kerak va nima uchun boshqacha qilib aytganda, hududiy siyosatning maqsadlari va obektlari qanday bo‘lishi kerak, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning zarurati bormi?

- tanlangan hududlarning iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish usullari qanday bo‘lishi kerak?

Birinchi savolga javob hududiy o‘shish nazariyalaridan kelib chiqadi. Neoklassik nazariyaning asosiy xulosasi shundan iboratki, vaqt o‘tishi bilan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi darajasi tenglashadi. Hududiy nazariyalar rivojlanishining dastlabki bosqichida ushbu ilmiy maktab tarafdorlari, hududlar iqtisodiy rivojlanishiga davlatning aralashuvi maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga kelishadi. Biroq shu bilan birga ular, tabiiyki, ijtimoiy masalalarni hal etish muammoli hududlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish zaruratini inkor etishmagan.

Kumulyativ o‘shish nazariyasi tarafdorlari esa, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar kamayishi yoki ko‘payishini hisobga olib, aksincha, faol hudud siyosatini olib borishni taklif etishgan. Hududiy siyosatning hududlar iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi farqlarni kamaytirish maqsadida ular shakllantirilgan (yoki boshqacha qilib aytganda, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini tekislash; bu yerda “tekislash” deganda, tenglikka erishish emas, balki farqlarni kamaytirish tushuniladi). Bundan kelib chiqadiki, davlat ancha orqada qolgan hududlarning iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirishi kerak.

Dastavval, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari ushbu ikkita yondashuv bilan chegaralanar edi. Biroq bunda neoklassik nazariya tarafdorlarining fikrlari amaliy tasdig‘ini topmas-qisqa muddatda hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar yo‘qolmas edi. Shuning uchun ham davlatni hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga u yoki bu darajada aralashishiga to‘g‘ri kelar edi. G.Kameron uch oqimni ajratadi: birinchisi –

“neintervalistlar” bo‘lib, ular hududiy o‘shiga davlat tomonidan aralashish zaruratini inkor etadilar; ikkinchisi – “adaptorlar” bo‘lib, ular stixiyali bozor kuchlarini kamaytirish va ishchi kuchi migratsiyasi hamda investitsiyalarni rag‘batlantirish hisobiga tabiiy jarayonlarni tezlashtirish yo‘li bilan hududlar rivojlanishiga uncha sezilarli bo‘lmagan to‘g‘rilashlar kiritib turish tarafdori; uchinchi – “radikal qayta quruvchilar” bo‘lib, intensiv tartibga solishni amalga oshirish tarafdorlari bo‘lishgan. “Adaptorlar” g‘oyasining mohiyati davlatning tartibga solish vazifasi sifatida tabiiy jarayonlarni ularning yo‘nalishini o‘zgartirmasdan turib tezlashtirishdan iborat. Yanada aniqroq aytganda, iqtisodiy o‘shini rag‘batlantirish xususiy kompaniyalar manfaatlari korxonalarini rivojlantirish va joylashtirishning umumiy yo‘nalishlariga mos tushganda samarali bo‘ladi. Bu esa, sanoati rivojlanmagan hududlarda sanoatini rivojlantirish uchun sharoitlar mavjud yoki bunday sharoitlar paydo bo‘layotganda yuz beradi. Ular esa davlatning maqsadli siyosati bilan mustahkamlanadi. Hududiy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalarining “pionerlari” S.Dennison va A.Lyosh hisoblanadi. Ular rivojlanishni tartibga solishda o‘zaro tubdan farq qiluvchi ikkita konseptual yondashuvga asos solishgan. S.Dennisonni “faol qayta quruvchilarga” kiritish mumkin, A.Lyoshni esa, yuqorida qayd etib o‘tilganidek “adaptorlar”ga. S.Dennison urushdan oldingi Buyuk Britaniya uchun jiddiy muammo bo‘lgan depressiv hududlarni tartibga solishni ko‘rib chiqqan. U asosiy e‘tiborini sanoat investitsiyalari geografiyasiga bevosita usullar yordamida ta’sir etishga qaratgan. Bu usullar sanoatga yangi kapital qo‘yilmalarini joylashtirish ustidan markazlashgan nazoratni o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lgan.

A.Lyosh hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishni ancha keng sohalar bo‘yicha ko‘rib chiqqan. Shu bilan birga u hududiy iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyatlarini yuqori baholagan. U muayyan hududlarda tabiiy jarayonlarning kechishini yengillashtiruvchi chora-tadbirlardan tanlab foydalanishni taklif etgan; ishlab chiqarishni ko‘chirish, raqobatni rag‘batlantirish uchun imtiyozli sharoitlar yaratish tarafdori bo‘lgan hamda investitsiya kiritishning eng yaxshi yo‘nalishlari haqida axborot beruvchi markaziy byuro yaratishni taklif etgan. Bularning hammasi, Leshning fikriga ko‘ra, hududiy notengliklarni tekislashning yetarli sharti bo‘lgan kapital mobilligini oshirishga olib keladi. Dennisondan farqli ravishda A.Lesh qoloq hududlarda investitsiyalarni rag‘batlantirishni maqsadga muvofiq,

deb hisoblamagan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, 1940-yillar oxirida hududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish nazariyalari rivojlanishiga E.Guver ham sezilarli hissa qo'shgan. U davlatning tartibga solish maqsadlariga xususiy korxonalarni mukammal joylashtirish, muammoli hududlar iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish, ishlab chiqarish o'sishini rag'batlantirish va hudud iqtisodiy tuzilmasini yaxshilashni kiritgan. E.Guver tartibga solish chora-tadbirlarini ikki guruhga ajratgan. Birinchisi - qaytaruvchi bo'lib, ular stixiyali bozor kuchlari faoliyatining salbiy oqibatlarini yumshatish; ikkinchisi - oldini oluvchi hisoblanib, ular uzoq istiqbolda bandlikning holatini yaxshilashga qaratilgan. U shu bilan birga iqtisodiy konyunktura holatiga qarab, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga nisbatan selektiv (tanlama) tartibga solishni amalga oshirish zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Biroq, E.Guver uzoq muddatli tartibga solishning muhimligi haqida to'xtala turib, hududiy chora-tadbirlarni birinchi navbatda qisqa muddatli, akseldaviy tartibga solish bilan bog'lagan. Shunday qilib, hududiy nazariyalarni o'rganish mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan va amalga oshirilayotgan hududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu albatta, ushbu yo'nalishga e'tibor kuchayotgan hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan samarali foydalanish mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini belgilab beradi.

12.4. O'zbekiston hududlaridagi iqtisodiy o'sishning omillarga asoslangan tahlili

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari O'zbekistonda transformatsiya jarayonining mohiyati va mamlakat rivojlanishining hududiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida hududlardagi iqtisodiy o'sishni omillarga asoslangan holda tahlil qildi.

Tadqiqotda Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan JoGG (Job Generation and Growth Decomposition) dekompozitsion tahlil vositasidan foydalanildi.

Tahlilning bu vositasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha mehnat unumdorligi va bandlik sohasidagi o'zgarishlar YaIM (YaHM) ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushiga qanday ta'sir qilishini baholash imkonini beradi.

Dekompozitsion tahlil usulidan foydalangan holda, Jahon Banki dunyoning turli mamlakatlarida "ishsiz o'sish"ning sabablarini aniqlab, kambag'allikni qisqartirish omillarini tahlil qiladi. "Ishsiz o'sish"

(jobless growth) - iqtisodiy o'sish jarayonida bandlik darajasining pasayishi yoki o'zgarishsiz qolishini ifodalaydi. Bu atama dastlab 1935 yilda "The New York Times" gazetasida qo'llanilgan. Mazkur uslubni O'zbekiston hududlari uchun qo'llash ularni rivojlantirishdagi eng muhim tarmoqlar hamda ishsizlik va kambag'allik darajasini qisqartirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda dastlabki ma'lumotlar sifatida mehnat unumdorligi, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida band bo'lganlar, aholi, jumladan, mehnatga layoqatli aholi soni kabi ko'rsatkichlar tanlab olindi. Baholash Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri bo'yicha 2018-2021 yillar uchun amalga oshirildi. Natijalarga ko'ra, Toshkent, Namangan, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Xorazm, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy o'sish mamlakat hududlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (111,0%) yuqori bo'lgan. Qolgan 6 ta hudud mo'tadil rivojlanish darajasi bilan ajralib turadi (105,9-110,8%). Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining asosiy tarmog'i (YaHMdagi ulushi 35,0-54,0%) bo'lgan Namangan, Jizzax, Xorazm, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda mehnat unumdorligi hamda aholi bandlik darajasining ortishi kuzatilgan. Bu esa hududlarda iqtisodiyotni rivojlantirish yangi ishlab chiqarish quvvatlarini (yoqilg'i-energetika, elektrotexnika, farmasevtika sanoati, xizmat ko'rsatish, qurilish) barpo etish va samarali ish o'rinlarini yaratish orqali amalga oshirilganidan dalolat beradi. Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Toshkent va Navoiy viloyatlari kabi yuqori salohiyatli hududlarda (YaHM ning aholi jon boshiga ulushi respublika parametridan 1,3-2,8 baravar yuqori) iqtisodiy o'sish asosan hududlarning raqobatbardosh ustunligini (metallurgiya, yoqilg'i-energetika kompleksi) shakllantiruvchi mavjud bazaviy ishlab chiqarishning rivojlanishi hisobiga ro'y bergan. Ushbu hududlar yuqori samarali faoliyat turlari, asosan xizmat ko'rsatish va sanoat sohasiga ixtisoslashgani bilan ajralib turadi. Iqtisodiy o'sishning nisbatan past darajasi aholi zich joylashgan Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida kuzatilgan (2018-2021 yillarda YaHMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi o'sishi 7-8% dan past). Ushbu holat 2019-2021 yillarda butun dunyoda yuzaga kelgan beqaror vaziyat sababli ishlab chiqarishning biroz pasayishi (masalan, avtomobilsozlik va neft-kimyano sanoati, qurilish) oqibatida yuzaga kelgan. Tadqiqot natijasida PMTI ekspertlari tomonidan hududlarning mutanosib iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi yuqori samarali tarmoqlar aniqlandi: xizmat ko'rsatish sohasida - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand viloyati va

Toshkent shahri; qurilish sohasida - Toshkent shahri, Namangan viloyati; sanoat sohasida - Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari; qishloq xo‘jaligi sohasida - Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyatlari⁸⁶.

12.5. Mintaqada iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida hududlarda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish hisobiga mamlakat iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashga keng e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida aynan makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish hamda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish, bevosita ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish yo‘nalishlari alohida ko‘rsatib berilgan.

Har qanday mamlakatning asosiy iqtisodiy muammosi barqaror iqtisodiy o‘shishni va uning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o‘shish uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur‘atlar bilan o‘shirishni ta‘minlash bo‘lib, yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlari muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, texnik qayta qurollantirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni jadallashtirish va chuqurlashtirish natijasida erishiladi.

Mamlakatimiz hududlarini kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini hamda boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-mayda PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, uning ijrosi hududlarda mavjud salohiyatdan foydalangan holda yuqori sur‘atlardagi iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi. Yuqoridagilardan kelib

⁸⁶ <http://www.uzdaily.uz/uz/post/7713>

chiqqan holda hozirgi kunda mazkur ishning dolzarbligi yuqori hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish muammolari hozirgi kunda iqtisodiy munozaralarda, turli siyosatchilar, hukumat a'zolari, turli millat vakillari muloqotlarida markaziy o'rin tutadi. Chunki, real ishlab chiqarishning o'sishi har qanday xo'jalik tizimiga xos cheklangan resurslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosini ma'lum darajada hal qilish imkonini beradi.

A.Smit va T.Maltusning nomi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy rivojlanishning dastlabki konsepsiyalaridan biri uning o'sishi yoki sekinlashuvining birlamchi omillari mehnat, kapital va aholi ekanligi to'g'risidagi taxminlarga asoslangan edi. Ammo ular, klassik siyosiy iqtisodning ko'plab tarafdorlari singari, inson bilimlarini rivojlantirish, ilm-fan taraqqiyoti va uning yutuqlarini texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish uchun qo'llash kabi muhim omilning ahamiyatini hisobga olishmagan.

Klassik maktabning yana bir yorqin vakili David Rikardo iqtisodiy o'sishni asbob-uskunalarni texnologik takomillashtirish va savdoga ixtisoslashish hisobidan nazorat qilish mumkinligini ta'kidlagan bo'lsada, biroq u ham mutlaqo barqaror holatni nazarda tutgan.

Iqtisodiy o'sishning keyingi konsepsiyalarida rivojlanishning to'rtta determinantini: ishchi kuchi, kapital, resurslar va texnologiyalarni birlashtirishning turli xil variantlariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, iqtisodiy o'sish nazariyalariga U.Rostouning bosqichlar nazariyasi alohida qiziqish uyg'otadi, unga ko'ra, ma'lum bir vaqtdan keyin barqaror iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiy tuzilishida yuz beradigan muhim sifat o'zgarishlariga olib keladi va tabiiy ravishda iqtisodiyot "bir bosqichdan ikkinchisiga", yoki bir holatdan ikkinchisiga o'tadi.

Samarali talab keynsian modelining asosiy omili hisoblanadi va aynan umumiy samarali talabning kengayishi iqtisodiy o'sishga yordam berishi kerak. Amalda Keyns talab omillariga emas, balki klassik yondashuvga xos bo'lgan taklif omillariga urg'u beradi. Keynsning fikriga ko'ra iqtisodiy o'sish masalasini o'rganishda investitsiyalarning multiplikatsion samarasi muhim hisoblanadi. Mamlakat qanchalik boy bo'lsa, ortib borayotgan milliy daromadning shunchalik katta qismi jang'arilib, investitsiyalarga yo'naltiriladi.

O'sish nazariyasiga Yozef Aloiz Shumpeter ham 1934-yilda chop etgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" ishi bilan katta hissa qo'shdi. Aynan Shumpeter iqtisodiy fanga "innovatsiya" tushunchasini kiritib, tadbirkorning mohiyatini iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan mutlaqo yangicha ko'rib chiqdi. Shumpeter nazariyasida rivojlanishning

harakatlantiruvchi kuchi sifatida tadbirkor, boz ustiga tadbirkor-novator, ijodiy shaxs ishtirok etadi.

Iqtisodiy o'sishning zamonaviy tushunchasi ilmiy muomalaga amerikalik iqtisodchi Saymon Kuznes tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, iqtisodiy o'sish - bu uzoq muddatdagi ishlab chiqarish o'sish sur'atlarining aholi o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan iqtisodiy rivojlanishdir.

Iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, P.Samuelson va V.Nordxausning fikriga ko'ra, kapital, texnologiya, tabiiy va inson resurslari. Yuqorida tilga olingan olimlar iqtisodiy o'sishni «mamlakatning potensial YaIM yoki ishlab chiqarish hajmining o'sishi» deb tushunadilar, bu esa ishlab chiqarish imkoniyatlari chegaralari kengayganda paydo bo'ladi.

K.R.Makkonnell va S.L.Bryu ham o'zlarining klassik asarlarida iqtisodiy o'sishni quyidagi omillar orqali aniqlanishi xususida to'xtalib o'tishgan: a) tabiiy resurslarning miqdori va sifati; b) mehnat resurslari miqdori va sifati; v) kapital resurslar; g) texnologiyalar.

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy salohiyat bilan bog'liq bo'lgan ilmiy nazariy tadqiqot va iqtisodchi olimlarning fikr mulohazalari o'rganilgan holda ushbu tushunchalarni ochib berishga o'ziga xos yondashilgan. Muallif mintaqa iqtisodiy o'sishi va uning iqtisodiy salohiyati xususida o'z xulosasini shakllantirib, salohiyat elementlari va ulardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha o'z taklifini kiritgan.

Iqtisodiy o'sish turli nuqtai-nazarlar orqali o'rganilishi sababli, uning intensiv va ekstensiv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ekstensiv iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini qo'shimcha jalb qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro'y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o'zgarmasdan qoladi. Intensiv iqtisodiy o'sish ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanib, mehnat unumdorligini oshirish orqali ta'minlanadi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Nazariyalar va ularda harakatlantiruvchi kuchlarning xilma-xilligi mintaqaning iqtisodiy tizimlari rivojlanishining maqsadi, manbai, harakatlantiruvchi kuchi va boshqariladigan omilini tavsiflovchi yagona umumiy butunlikni aniqlash vazifasining murakkabligi bilan izohlanadi. Biroq, maqsadlar, o'sish omillari, boshqariladigan kategoriyalar va harakatlantiruvchi kuchlar diqqat bilan o'rganilganda, ko'rish mumkinki, ularning barchasi umumiy bitta iqtisodiy tizimning

“salohiyati” degan tushunchaga birlashgan bo‘lib, har biri uning bir bo‘lagi hisoblanadi.

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning asosi sifatida uning salohiyatini qabul qilish mumkin. Salohiyat (potensial) - (lot. rotentia - kuch), har qanday vazifani amalga oshirish, aniq maqsadga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar; shaxs, jamiyat, davlatning ma‘lum bir sohadagi imkoniyatlari.

“Salohiyat” atamasi biror sub’yektda yashirin, o‘zini hali to‘liq namoyon qilmagan imkoniyatlar mavjudligini bildiradi, bu imkoniyatlar ob’yektiv yoki sub’yektiv shart-sharoitlarga muvofiq ularning faoliyat sohasida o‘zini namoyon etmagan bo‘ladi. Iqtisodiy nazariyada ham salohiyat har qanday sohadagi mavjud vositalar, imkoniyatlar to‘plami sifatida ta’riflanadi, ammo shu bilan birga “salohiyatli” atamasi “amalga oshirish qobiliyatiga ega” degan ma’noni anglatadi, uning mavjudligi va foydalanilishi ehtimoliy omil hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning, jumladan mintaqa iqtisodiyotining salohiyati deganda nima tushunilishi borasida kelishmovchiliklar mavjud. Masalan, Oksford lug‘atida iqtisodiy salohiyat bu – raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan quvvat va imkoniyat darajasi deb ta’rif berilgan bo‘lsa, boshqa manbada iqtisodiy salohiyat “xalq xo‘jaligi tarmoqlarining ma‘lum davr mobaynida kapital qurilishni amalga oshirish, yuk tashish va aholiga xizmat ko‘rsatish qobiliyatlari to‘plami” deb ta’rif keltirilgan. Bir qator ilmiy nashrlarda ham mualliflarning iqtisodiy salohiyat bo‘yicha yagona fikrlari kuzatilmaydi. Jumladan, A.Yu.Chalenko iqtisodiy salohiyatni mavjud bo‘lgan resurslar to‘plami, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlari natijasi deb tavsiflagan. Yana bir manbada “iqtisodiy salohiyatning hajmi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligini, mamlakatning raqobatbardoshligini, korxonalarining kapitallashuv darajasini ko‘rsatadi” deb ta’kidlangan.

F.M.Rusinovning fikriga ko‘ra, salohiyat keng ma’noda mavjud bo‘lgan va ma‘lum maqsadga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan vositalar, zaxiralar, manbalarni anglatadi. Ushbu tushunchada iqtisodiy salohiyat to‘plangan buyumlashtirilgan oldingi mehnatga tenglashtiriladi. Fikrimizcha, iqtisodiy salohiyatning mazmunini bu qadar toraytirish mumkin emas, chunki odamlarning jonli faoliyati, jonli mehnatisiz o‘tmishdagi mehnati shunchaki zaxiradir, uni faqat shartli ravishda salohiyat deb atash mumkin. Ayrim iqtisodchi olimlar iqtisodiy salohiyatni milliy boylikka tenglashtiradilar. Ammo milliy boylik iqtisodiy salohiyatdan kengroq tushunchadir. Iqtisodiy salohiyat mehnat bilan yaratilgan moddiy ne‘matlarning jamg‘arilishini ta’minlaydi,

ammo tabiiy resurslarni yaratmaydi, balki ularni ne'matlar yaratish uchun ishlatadi va shu tariqa milliy boylikning bir qismi hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlarning ishlarida aks ettirilgan salohiyatni tasniflashning boshqa usullari ham amaliyot uchun ahamiyatlidir. Masalan, bir qator mualliflar salohiyatni bloklar bo'yicha, tabiiy va ishlab chiqarish resurslarini, aholi, tashkilot va boshqaruvni ajratgan holda tarkibiy unsurlar bo'yicha ko'rib chiqishni taklif qilishadi. Shu bilan birga, hudud va mintaqaning hududlararo, davlatlararo va jahon aloqalari va kommunikatsiya tizimlaridagi mavqeini aks ettiruvchi geosiyosiy salohiyat alohida ajratib ko'rsatiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda salohiyatni tasniflash qiziqarli hisoblanadi. Bunda salohiyat uch jihatdan ko'rib chiqiladi. Birinchi jihat - hududiy. U aholi soni va tuzilishi hamda hududning geosiyosiy mavqei bo'yicha mehnat salohiyatini o'z ichiga oladi. Ikkinchi jihat - ishlab chiqarish. Odatda, u o'z tarkibiga sanoat, agrar, ishlab chiqarish va infratuzilma, innovatsiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish salohiyatini yanada to'liq tavsiflaydi. Uchinchi jihat hududni ijtimoiy-ma'naviy, intellektual salohiyatini ifodalaydi.

Iqtisodiy salohiyatning bir qator ta'riflarida faqat iqtisodiy soha nazarda tutilgan, ya'ni resurslar birinchi o'ringa olib chiqilib, iqtisodiyotning asosiy maqsadi - insonlarning ehtiyojlarini qondirish aks ettirilmagan. Shuning uchun "iqtisodiy salohiyat deganda iqtisodiyotning belgilangan muddatda ma'lum hajmda hamda sifatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni iste'molchilarga yetkazish qobiliyati tushunilishi kerak". Ammo, ushbu ta'rifda ham iqtisodiy faoliyat natijasida yaratilgan, lekin tovar va xizmat bo'lmagan ne'matlar, hisobga olinmaydi, masalan, oilada ishlab chiqarilgan ne'matlar. Shuni inobatga olib, biz iqtisodiy salohiyatga iqtisodiyotning belgilangan muddatda ma'lum hajmda hamda sifatda ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazish qobiliyati deb tushuncha berishimiz mumkin.

Ko'rib o'tilgan yondashuvlarning ahamiyatli xususiyati shundaki, ularda asosan resurslardan iqtisodiy foydalanishni ifodalaydigan faqat ijtimoiy - iqtisodiy tizimning iqtisodiy salohiyati o'rganilgan. Ammo, ijtimoiy iqtisodiy tizim sub'yektlari ham iqtisodiy ham noiqtisodiy manfaatlar bilan birlashtirilgan. Bunday holatda iqtisodiy salohiyat iqtisodiy jarayonga jalb qilingan ijtimoiy iqtisodiy tizim salohiyatining ma'lum bir qisminigina tashkil etadi. Mintaqa umumiy salohiyatini ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

Iqtisodiy salohiyat bu moliyaviy, tashkiliy-texnik, hududiy va

tarmoq xususiyatidagi mavjud yoki ehtimoldagi sharoitlar va cheklanmalar doirasida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari va hudud iqtisodiy faoliyatining chegaraviy ko‘rsatkichlari yig‘indisidir.

Ijtimoiy salohiyat - siyosiy, ma’naviy, falsafiy-axloqiy, madaniy-etnik xususiyatidagi mavjud yoki ehtimoldagi turmush darajasi mezonlari va cheklanmalari doirasida hayot faoliyatini tashkil etish bo‘yicha imkoniyatlar va mazkur sharoitda hayot darajasi sifat ko‘rsatkichlaridir.

Yuqoridagi nazariy tahlillar mintaqqa salohiyatini aholi, davlat va atrof- muhit manfaatlarini inobatga olgan holda mavjud resurslardan foydalanish asosida uzoq muddatli faoliyatni ta’minlash qobiliyati sifatida aniqlashga imkon beradi. Shunga asoslanib, hududning salohiyatini tabiiy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, ilmiy-texnik salohiyat, boshqaruv salohiyati, mehnat salohiyati kabi tarkibiy unsurlardan iborat tizim sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Mintaqaning salohiyati belgilangan maqsadga erishish uchun mavjud bo‘lgan va ishlatilishi mumkin bo‘lgan vositalar, zaxiralar, resurslar hisoblanadi. Salohiyat, mohiyatiga ko‘ra, mintaqani harakatga keltirilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatdir, demak, agar resurslar va zaxiralar ko‘paymasa, faqat ulardan intensiv foydalanish ularning kamayishiga olib keladi. Agar mintaqqa resurslarni ko‘paytirsam, zaxiralarni kengaytirsam, innovatsion zaxiralarni, investitsiyalarni ko‘paytirsam, u holda mintaqaning salohiyati o‘shishiga intiladi.

12.1-jadval

Mintaqa salohiyatining turkumlanishi”.


Turkumlash belgisi	Salohiyat ko‘rinishi
Namoyon bo‘lishiga ko‘ra	Iqtisodiy Ijtimoiy
Foydalanish istiqbollari bo‘yicha	Ishlatilayotgan Investitsion Rezerv (zaxira)
Mazmuniga ko‘ra	Resursli Jarayonli
Foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha	Bazaviy Funksional Rezerv

Yuqorida aytib o‘tilganlarga asoslanib, mintaqaning iqtisodiy salohiyati, bizning fikrimizcha, foydalanish imkoniyatlarini boshqarish nuqtai nazaridan ham quyidagi tarkibiy qismlarning majmuasi sifatida ifodalanishi mumkin: resurs salohiyati (bazaviy), funksional salohiyat (foydalanish), rezerv salohiyat (o‘shish), ularning yig‘indisi mintaqqa salohiyatini strategik boshqarish

(rivojlanish)ni beradi. Mintaqa salohiyati o'zining muayyan ichki tuzilishiga ega bo'lgan murakkab tizim hisoblanadi va bir qator xususiyatlarga ko'ra turkumlanadi (12.1-jadval).

Yuqoridagilarga asoslanib, mintaqa salohiyatiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: mintaqa sub'yektlari o'rtasidagi resurslar va jarayonlarni baholash, foydalanish va rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha iqtisodiy munosabatlar to'plami.

Iqtisodiy salohiyatdan foydalanish imkoniyatlarini boshqarish nuqtai - nazaridan uning tarkibiy tuzilmasini ko'rinishi 12.1-rasmda keltirilgan.



12.1-rasm. Mintaqa iqtisodiy salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini strategik boshqarish

Biz taklif etayotgan mintaqa salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini boshqarish nuqtai-nazaridan turkumlarning har biri o'ziga xos ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy tarkibiy qismlarga ega. Bazaviy resurslar salohiyati tarkibiga tabiiy resurs, tabiiy-iqlim, iqtisodiy-geografik, demografik salohiyat kiradi.

Funksional salohiyatga mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, infratuzilmaviy, tadbirkorlik, tashqi iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va uslubiy salohiyat mujassamlangan. Rezerv salohiyati ilmiy-texnikaviy, intellektual salohiyat, ijtimoiy, investitsion, innovatsion, raqamli salohiyat, tashkiliy va boshqaruv salohiyatni hamda norasmiy salohiyatni o'z ichiga oladi.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari, mintaqaviy o'sish nazariyalarini tahlil etish masalalari, O'zbekiston hududlaridagi iqtisodiy o'sishning omillarga asoslangan tahlili, mintaqada iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari kabi masalalar ko'rib chiqildi.

O'tgan asrning 70-yillarigacha "iqtisodiy rivojlanish" deyilganda mamlakatning ishlab chiqarishni aholi o'sish sur'atlaridan yuqoriroq sur'atlarda oshirish qobiliyati tushunilar, rivojlanish jarayonining miqdoriy o'lchovi sifatida "iqtisodiy rivojlanish darajasi" tushunchasi xizmat qilar, u mamlakat milliy daromadini uning aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanar edi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi yuqori o'sish sur'atlariga erishgan bo'lsada, bu boradagi ko'rsatkichlarni uzoq vaqt saqlab qola olishmagan. Chunki ularda iqtisodiy o'sish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga olib kelmagan.

Shuning uchun ham o'tgan asrning 70-yillariga kelib, «iqtisodiy rivojlanish» tushunchasi sifat jihatidan boyitilib, milliy iqtisodiyot tuzilmasi, qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar nisbati, eksport tarkibi, mamlakat aholisining ma'lumot darajasi, ehtiyojlari tarkibi va boshqalar bilan ifodalana boshladi. Keyinchalik esa iqtisodiy tadqiqotlar chuqurlashuvi bilan rivojlanishga ijtimoiy va siyosiy omillar sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi ko'p qirrali jarayon sifatida qaraldi.

"Iqtisodiy rivojlanish" tushunchasi o'tgan asrning oxirgi choragida mazmunan chuqurlashdi. Bunga fan-texnika inqilobi va uning ta'sirida ishchi kuchi sifatiga qo'yiladigan talablar oshishi sabab bo'ladi. "Inson kapitali" qo'yilmalari samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ob'yektiv zarurat sifatida tan olindi.

AQSh tajribasida hududiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish amaliyoti o'rganadigan bo'lsak, mazkur fikr doirasidan kelib chiqqan xolda ta'kidlash mumkinki, AQSh mintaqaviy rivojlanishi

siyosati avvalo hududlararo nomutanosiblikni bartaraf etishda, aholi turmush sharoitlari, daromadlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishda, hududiy xizmatlarni taklif etishda, rivojlanishning raqobatbardosh subsidiyalashtirishni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

AQSh mintaqaviy rivojlanish dasturlari hududiy rivojlanish yoki hududlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish va aholi turmush farovonligini oshirishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda amalga oshiriluvchi dasturlarda hududlar quyidagi muammoli mintaqalarga ajratiladi:

1. Rivojlanishning o'zini o'zi qo'llab quvvatlash bosqichida to'xtagan, rivojlantirishdan ortda qolgan hududlar.

2. Hududlararo raqobatchilikka sekinlashgan va o'z ixtisoslashuvini yangi mehnat turiga almashtirish imkoniyati bo'lmagan hududlar.

3. Kuchli rivojlangan va aholisi o'ta zich joylashgan hududlar. Mazkur turlanish asosida davlatning asosiy hududiy siyosati shakllantiriladi.

Bu esa davlatning hududiy birliklar va ishchi kuchi sifatini oshirishga, aholi bandligining yuqori darajasini saqlashga, subsidiyalar yoki investitsiyalarni qisqartirish, m'lumotlar va xizmatlar ko'rsatish tezligini boshqarish, izlanishlarni qo'llab quvvatlash, mahalliy va hududiy infratuzilmaga ko'maklashish kabi omillarni o'z ichiga olgan choralar orqali hudud tizimiga va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tayanch so'z va iboralar: iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, mintaqa, diversifikatsiya, resurslar, mehnat, iqtisodiyot, milliy daromad.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari deganda nima tushuniladi?

2. Iqtisodiy rivojlanish deyilganda nimani tushunasiz?

3. Iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?

4. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslarini ayting?

5. Hududlar qanday muammoli mintaqalarga ajratiladi?

6. Mamlakatda o'sish markazlari shakllanishi nechta bosqichga ajratiladi?

7. Hududiy o'sish nazariyalarini nechta guruhga ajratish mumkin?

8. Mintaqaviy o'sish nazariyalarini tahlil etish masalalari?

9. O'zbekiston hududlaridagi iqtisodiy o'sishning omillarga asoslangan tahlili?

XIII BOB. MINTAQALARNI IJTIMOIIY - IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

13.1. Hududiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati.

13.2. Mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari.

13.3. Strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari.

13.1. Hududiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati.

Jamiyat taraqqiyotining globallasuv bosqichida mamlakat mintaqalarini mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish, shuningdek milliy iqtisodiyotning hududiy jihatdan optimal tarkibiy tuzilmasini shakllantirish makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida davlat mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin nomutanosibliklarning yuzaga kelmasligi uchun ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda hududlararo mutanosiblikni saqlab turishga yo'naltirilgan muayyan choratadbirlarni qo'llab keldi. Ayni paytda, yirik davlat investitsiyalari mintaqalarning strategik muhim mineral - xom ashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlashga, mavjud demografik salohiyatdan oqilona foydalanishga yo'naltirildi. Pirovard natijada mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muayyan ijobiy siljishlar yuz berdi va ma'lum darajada barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi. Xususan, yangi sanoat markazlari va mintaqalarda iqtisodiy holatlarini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan zamonaviy yirik korxonalarining bunyod etilishi sust rivojlangan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining birmuncha jadallashuviga olib keldi. Milliy iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, ya'ni iqtisodiyotda davlat sektori ulushining sezilarli darajada qisqarishi sharoitida iqtisodiyotni boshqarishda davlatning bevosita ishtiroki susayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish asosida davlatning tartibga solish tizimini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar

olimlarining asarlarida hududiy strategiyalarni ishlab chiqishning muammoli-analitik asoslari yaratilgan va strategik dasturlashning nazariy -metodologik masalalari birmuncha yoritilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari, strategiyalari hamda dasturlarini uzoq muddatli istiqbolga ishlab chiqishning nazariy metodologik asoslari asta-sekin rivojlanib kelmoqda. Strategiyalarni ishlab chiqishning mavjud xorijiy tajribalari federativ davlatlar ma'lumotlariga asoslangan. Shu boisdan ham ularda yaratilgan metodologiyadan bizning sharoitimizda to'la foydalanish maqsadga muvofiq emas. Lekin, ularning ilmiy amaliy ahamiyatini e'tirof etgan holda, ularda ilgari surilgan nazariy-uslubiy yondashuvlardan, sharoitimizga moslagan holda foydalanish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Konsepsiya mamlakatning strategik maqsadlari, vazifalari va ehtiyojlari haqidagi tizim kabi hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda birinchi qadam hisoblanadi. U bevosita strategiyaning tamoyillari, mexanizmlari va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash shart-sharoitlarini yaratish tizimini namoyon etadi.

Hududiy rivojlanish strategiyalari, konsepsiyalari mintaqaviy rivojlanishga oid klassik va zamonaviy nazariyalar, hududiy rivojlanishni boshqarish va dasturlashtirish borasidagi xorijiy hamda vatandosh iqtisodchi olimlar asarlari, shuningdek iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijalari asosida hosil qilingan tajribalarga tayangan holda ishlab chiqiladi. Konsepsiyalarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustivor yo'nalishlari asosiy o'zak vazifasini o'taydi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda "qutbiy rivojlanish" hamda "mintaqaviv tenglashtirish» kabi paradigmlar mavjud. "Tenglashtirish siyosati" sobiq ittifoqning geografik siyosatida keng qo'llanib kelingan. Ushbu konsepsiyadan Yevropa Ittifoqi davlatlarida va Yaponiya kabi bir qator rivojlangan mamlakatlarda ham samarali foydalanib kelinmoqda. Masalan, el mintaqalami "tenglashtirish" va yaqinlashtirish siyosatini qo'llab keladi. Germaniyada nemis millati birligini ta'minlash maqsadida g'arbiy va sharqiy hududlarni tenglashtirish siyosati olib boriladi.

Hozirgi vaqtda Yevropa mintaqaviy siyosatida "tenglashtirish siyosati"ni zamonaviy modifikatsiyasi hisoblanmish "birdamlik (jipslik)

siyosati”ni (Cohesion Policy) hayotga tadbiq etish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda Rossiya Federatsiyasining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari loyihasida mintaqaviy tenglashtirish siyosati o‘rniga “qutbiy rivojlanish” hamda “lokomativ mintaqalar (tayanch mintaqalar)”ni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati olib boriladi.

“Lokomativ mintaqalar” konsepsiyasi tarafdorlari, bozor iqtisodiyoti islohotlarining va iqtisodiy o‘shishning salbiy hosilasi bo‘lmish mintaqaviy differentsiatsiyadan cho‘chimaslikni uqtirishga harakat qiladilar.

“Qutbiy rivojlanish” hamda “lokomativ mintaqalar” konsepsiyalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hududiy rivojlanishdagi farqlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlariga va qolaversa, davlatning iqtisodiy siyosatiga zid keladi.

Bugungi kunda “tenglashtirish siyosati” asosan rivojlangan mamlakatlarda qo‘llab kelinmoqda. Bizning mintaqalarimizning rivojlanish darajasi mazkur konsepsiyadan foydalanish imkoniyatini bermaydi. Undan birmuncha modernizatsiyalashtirilgan holda iqtisodiy o‘shishning bir xildagi sharoitlarini ta‘minlashda, mintaqalarda ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi rivojlanish darajalarini tenglashtirishda foydalanish mumkin. Mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqishda Yevropada 70-yillarda iqtisodiy inqiroz sababli keng tarqalgan mahalliy rivojlanish (o‘shish) nazariyasidan ham foydalanish mumkin. Mazkur nazariya mohiyatan hududning rivojlanish samaradorligini, uning mahalliy iqtisodiy salohiyati hamda investitsion jozibadorligini va mahalliy darajadagi tadbirkorlikni rag‘batlantira olish imkoniyatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan.

Mintaqaviy iqtisodda qutbiy rivojlanish nazariyasi mintaqaviy siyosatning barcha jihatlarini qamrab oluvchi yagona nazariya hisoblanadi. F.Perru va J.R.Budvil ilmiy izlanishlarida rivojlantirilgan qutbiy rivojlanish nazariyalariga ko‘ra mamlakatning sust rivojlangan mintaqalarida “rivojlanish nuqtalari”ni shakllantirish asosida sanoatning jadal rivojlanishiga erishish mumkin. Hududiy oqilona joylashtirilgan bir nechta sanoat korxonalari boshqa korxonalarining shakllanishiga, ya‘ni mintaqaning rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimiz mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi va tabiiy iqtisodiy salohiyatidagi farqlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda hududiy va tarkibiy ustuvor yoʻnalishlarni, investitsiya siyosatini qayta qurishni, shuningdek ularning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishni inobatga olinishini talab etadi.

Shu boisdan ham mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini asoslashni quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Mamlakat miqyosidagi hududiy rivojlanishning umumiy strategiyalaridan samarali foydalanish maqsadida barcha alohida mintaqalarning strategiyalari ularni obektiv taqqoslash imkoniyatini taʼminlash uchun tarkibiy va metodologik jihatdan oʻzaro oʻxshash boʻlishlari maqsadga muvofiq boʻladi.

Mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari.

Oʻzbekistonning hududiy rivojlanish strategiyasi jahon amaliyotida qoʻllanilayotgan, shu bilan birga iqtisodiy islohotlarning milliy modeli ustuvor yoʻnalishlarini hisobga oluvchi metodologik yondashuvlarga va tamoyillarga tayanishi shart. Hududiy rivojlanishning yagona majmualiy strategiyasini ishlab chiqish tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- mamlakatning barcha hududlarida bozor islohotlarini chuqurlashtirishga va yagona iqtisodiy siyosatni tadbiq etishga, milliy ehtiyojlarni qondirishga, yagona umumdavlat bozorini shakllantirishga boʻlgan davlat ehtiyojining ustuvorligi;

- ishlab chiqarishni hududiy xom ashyo manbalari, energiya va mehnat resurslari, isteʼmolchilarga yaqinlashtirishni, shuningdek mahalliy sharoitni inobatga olish asosida ijtimoiy muammolarni hal etishni koʻzda tutuvchi tarmoq va hududiy rivojlanish tamoyillarining uygʻunligi;

- hududlar iqtisodiyotining oqilona tarkibini shakllantirishni, mahalliy sharoit va aholi talablarining oʻzaro bogʻliqligini inobatga olgan holda alohida tarmoqlar va yoʻnalishlarni rivojlanishini taʼminlovchi majmualilik va mutanosiblik;

- mintaqalarning majmualiy rivojlanishini taʼminlashda hududiy organlar, vazirlik va idoralar, mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatlari oʻrni va masʼuliyatini oshira borish;

- aholining yashash joyidan qatʼiy nazar bir xil sharoit yaratish, mintaqalarni aholi daromadlarini xizmat koʻrsatish sohasiga nisbatan

tezroq o‘sishi va aholini oqilona bandligini ta’minlash nuqtai nazaridan ijtimoiy kafolatlash.

Hudud rivojlanishini strategik prognozlashtirishning birinchi bosqichida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, ya’ni hududning rivojlanish muhiti tahlil etiladi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi mavjud holatni obektiv baholash va imkoniyatlarni aniqlash asosida istiqboldagi “o‘shish nuqtalari”ni asoslab berish, hududning boshqa hududlarga nisbatan global jarayonlarga munosabatini aniqlash, hududdagi mavjud resurslar (mehnat, moddiy, intellektual) salohiyatini baholashdan iborat.

Hududiy rivojlanish strategiyasining maqsad va vazifalari mavjud vaziyatni, omil va imkoniyatlarni, shuningdek mintaqadagi aniqlangan muammolar va disproporsiyalarni chuqur tahlil etish asosida belgilanadi. Ta’kidlash joizki, strategiya “hududiy adolat”ni ta’minlash va aholi turmush darajasidagi hududiy rang-baranglikni qisqartirishga erishish maqsadida tuzilishi lozim.

Hududiy rivojlanish strategiyasining bosh maqsadi - mamlakatning barcha mintaqalarini majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish va mamlakatning iqtisodiy o‘shishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi talab etiladi:

- mintaqaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini baholash, amalga oshirilayotgan islohotlarning natijaviyligini aniqlash, asosiy rivojlanish jarayonlarini, iqtisodiy o‘shishning muammo va zahiralarni aniqlash;

- har bir mintaqaning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida mavjud tabiiy, mineral xom ashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, shuningdek, mehnat salohiyatidan majmuali hamda samarali foydalanishni ta’minlash;

- hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiya va taktikasini ishlab chiqish, mintaqaning istiqboldagi ixtisoslashuv tarmoq va sohalarini, iqtisodiyotning tayanch tarmoqlari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos holda tayanch sanoat tarmoqlari rivojlanishining strategik dasturlarini: neft-gaz tarmog‘i rivojlanish dasturi, elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, shuningdek, energiya tejamkorligi dasturlarini amalga oshirish;

- barqaror va xavfsiz iqtisodiy rivojlanishni, mintaqalararo integratsiyani kengaytirish imkoniyatini beruvchi, mamlakat uchun yagona transport va telekommunikatsiya makonini yaratishni nihoyasiga yetkazish;

- investitsion loyihalar, iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va mamlakatning o'sib kelayotgan aholisi ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan energiya tejovchi, suv va gaz ta'minoti tizimlarini rivojlantirish;

- aholi va korxonalar daromadlarini oshirish hisobiga ichki bozor sig'imini kengaytirish;

- mintaqalar va korxonalar eksport salohiyatini oshirish;

-mintaqalar demografik ehtiyojlari bilan bog'liq holda ijtimoiy infrastruktura tarmoqlarini rivojlantirish;

-dasturlarni amalga oshirishda xususiy sektor, xorijiy investorlar va davlatning moliyaviy resurslarini jalb etish va ulardan samarali foydalanish.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini tahlil etish asosida respublika iqtisodiyotining hududiy tarkibidagi jarayonlar, ijobiy o'zgarishlar, mintaqalarning majmuali va barqaror rivojlanishi bilan bog'liq muammo va hududiy farqlar, ichki zahira va imkoniyatlar aniqlanadi. Mintaqalarning barqaror, mutanosib va majmuali rivojlanish omillari, sharoitlari hamda imkoniyatlari mineral xom ashyo va yoqilg'i-energetika bazasi, yer-suv resurslari, demografik salohiyati va boshqa mahalliy resurslarning prognoz balanslari asosida aniqlanadi. Bular mintaqalar iqtisodiyotini alohida tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishning real imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Har tomonlama ilmiy asoslangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakat mintaqalarining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini majmuali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilanadi. Ularda tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish va joylashtirish, aholining turmush darajasi, atrof-muhit muhofazasi, mintaqalarning ustuvor yo'nalishlari, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish kabi jihatlarga alohida urg'u beriladi.

Strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari. Mintaqa iqtisodiyoti mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi va hududiy mehnat taqsimotiga mos ravishda rivojlanadi. Hududiy mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim shakllaridan biri hisoblanadi va mamlakatning turli mintaqalarini u yoki bu sanoat yoki qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yoki bir vaqtning o'zida bir qancha

tarmoqlarga ixtisoslashuvini belgilab beradi. Mehnatning mamlakat mintaqalari bo'yicha hududiy oqilona taqsimlanishi mintaqalarni barqaror rivojlanishini ta'minlash sharoitlaridan hisoblanadi. Har bir mintaqa faqat o'ziga xos bo'lgan bozor iqtisodiyoti ixtisoslashuvini shakllantirishi va iqtisodiy aloqalar orqali boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlashi mumkin.

Shu boisdan ham strategiyalarni ishlab chiqishda mintaqalarning mahalliy resurslari imkoniyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda uzoq muddatli istiqboldagi xo'jalik ixtisoslashuvini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oqilona hududiy ixtisoslashuv yo'lini tanlash zarur. Har bir mintaqa o'zining mintaqaviy bozoriga ega bo'lishi va shu bilan birga o'zidagi yetakchi tarmoqlar mahsulotlarini mamlakat va jahon bozoriga olib chiqishi lozim. Ta'kidlash mumkinki, muayyan geografik muhitda mamlakatning mazkur hududi iqtisodiy salohiyatini o'zida namoyon eta oladigan xo'jalik strukturasi shakllanadi. Hududlarning nisbatan o'ziga xosligi va barqarorligi ham mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va tadbiiq etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqaning optimal rivojlanish strategiyasini hudud iqtisodiy salohiyatini har jihatdan inobatga olgan holda tanlash mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalangan va ishlab chiqarish kuchlarini saqlagan holda, hudud resurslarini qayta ishlash jarayoniga jalb etish imkoniyatini beradi.

Mintaqalar iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini tanlashda mahalliy resurslardan foydalangan holda uzoq muddatli samara olishni ta'minlash imkonini beruvchi mintaqa iqtisodiyotining barcha bo'g'inlarini keng miqyosda rivojlantirish muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi salohiyatni majmual iqtisodiy baholash talab etiladi.

Tarmoq va funksional o'zgartirish hamda qo'shimchalarni inobatga olgan holda hududiy rivojlanish strategiyasining maqsadli yo'nalishlari asoslab beriladi. Ushbu yo'nalishlarni miqdoriy baholash indikatorlari sifatida aholi jon boshiga ishlab chiqariluvchi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti, xizmat ko'rsatish, eksport, aholi daromadlari hajmi, shuningdek sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushi tavsiya etiladi. Hudud aholisining bandlik ko'rsatkichlari va tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasi ham maqsadli yo'nalishlar sifatida ko'rilishi mumkin.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari va strategiyalarini amalga oshirishning muhim mexanizmi sifatida resurs ta'minoti va moliyalashtirish manbalari namoyon bo'ladi. Mahalliy moliya va byudjet holatini tahlil etish dasturlarni moliyalashtirishning optimal tizimini tanlash, mahalliy byudjetning soliq daromadlarini shakllantiruvchi, shu bilan birga, hukumat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan asosiy tarmoq va korxonalarni aniqlash imkonini beradi.

Mintaqalar rivojlanishini boshqarish dastaklari va strategiyalari amalga oshirish mexanizmlari asosiy va maqsadli yo'nalishlarni ro'yobga chiqarish mexanizmlarini shakllantirishning umumiy yondashuvlari orqali aniqlanadi. Mexanizmlarni asoslash hududiy boshqaruvning Vatanimiz va xorijiy tajribalarini umumlashtirish va baholashni ham qamrab olishi lozim.

13.2. Mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari

2018-yilda davlatning har tomonlama ko'magi bilan tashkil qilingan, "BUYUK KELAJAK" ekspertlar kengashi Rossiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Kanada, Daniya, Shveysariya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Turkiya, Qozog'iston, Finlyandiya kabi 35 dan ziyod davlatda istiqomat qiluvchi 300 dan ortiq mutaxassis-vatandoshlarni birlashtiradi. U o'zida ulkan potensialga ega «intellektual markaz»ni ifodalagan holda, navqiron davlatimiz manfaatlari uchun yo'naltiradi. Hozirgi vaqtda, mamlakatimiz oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirmoqda:

- O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish.
- O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo'lgan uzoq muddatli rivojlanish modelini amalga oshirishda ko'maklashish.
- O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo'lgan uzoq muddatli rivojlanish modelini joriy qilish bo'yicha batafsil reja ishlab chiqish.
- O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha rivojlanish strategiyasi doirasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarni har tomonlama, ekspertlar tomonidan qo'llab-quvvatlash

Mamlakat tarixida ilk bor, bir necha yuz olim va amaliyotchilarning ko‘magi bilan qisqa muddatda **“O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiyasi”** deya nom olgan o‘ta muhim hujjat tayyorlandi.

Strategiya O‘zbekistonning 2035 yilgacha rivojlanishining 4 ta ssenariysini ifodalaydi:

- **evolyutsion ssenariy** – muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan islohotlar holatida tashqi ijobiy kon’yuktura;

- **pessimistik ssenariy** – muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan islohotlar holatida tashqi salbiy kon’yuktura va tashqi inqirozlar;

- **dinamik ssenariy** – tashqi ijobiy kon’yuktura va yirik investitsiya hajmi vaqtida islohotlar amalga oshiriladi;

- **progressiv ssenariy** – tashqi salbiy kon’yuktura va tashqi inqirozlar vaqtida islohotlar amalga oshiriladi.

Strategiya Konsepsiyasi loyihasi mamlakatning dinamik ssenariy bo‘yicha rivojlanishini ko‘zda tutib, yurtimizni dunyoning 50 ta iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shishni maqsad qilgan. U davlat boshqaruvini isloh qilish, iqtisodiy va ijtimoiy sohaning rivojlanishi hamda innovatsiya va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash kabi hal qiluvchi yo‘nalishlardan iborat.

Davlat boshqaruvini isloh qilish yo‘nalishida, loyiha tomonidan qonunchilik bazasini takomillashtirish, sud tizimini isloh qilish, aholining siyosiy madaniyatini ko‘tarish, islohotlarni unumli amalga oshirish va davlat boshqaruvi institutlarini takomillashtirish bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Bularning barchasi O‘zbekistonning xalqaro indekslardagi o‘rnini ko‘tarilishini ta‘minlashi zarur.

Iqtisodiyotda sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo‘jaligining rivojlanishi rejalashtirilmoqda. Tadbirkorlar tashabbuskorligiga, ularning moliyaviy imkoniyatlar bilan ta‘minlanishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarga asoslangan holda, 2035-yilga borib, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 479 milliard dollarga yetishi ko‘zda tutilga 2018-yil 28-29-iyun kunlari “O‘zbekiston-2035” birinchi xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi, unda hujjatni tuzish bo‘yicha asosiy yondashuvlar muhokama qilindi. “Dala tadqiqotlari” davomida vazirliklar va idoralarda uchrashuvlar o‘tkazildi, asosiy ma‘lumotlar yig‘ildi, buning asosida iqtisodiyotning hozirgi holati tahlil qilindi. Ekspertlarning taklif va mulohazalarini inobatga olgan holda, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining 2035-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasining dastlabki nusxasi tayyorlandi. 2018-yil

dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti idorasi vakillari uchun Taraqqiyot strategiyasi loyihasining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

2019-yil 5-6 fevral kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston 2035” ikkinchi xalqaro forumi O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasi konsepsiyasi ustida ishlashning navbatdagi bosqichi bo‘ldi. Konsepsiyaning keng qamrovli muhokamalarida deputatlar, davlat organlari, ilmiy va ta‘lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar vakillari tomonidan qimmatli mulohazalar va tavsiyalar berildi. Qabul qilingan fikrlar Strategiya konsepsiyasi loyihasining materiallari sharhlar asosida takomillashtirildi va to‘ldirildi.

Jamoatchilik eshittirishlarida O‘zbekistonning barcha fuqarolari, jinsi, millati va faoliyat turidan qat’iy nazar, ishtirok etishi mumkin. Sharhlar va fikrlar jamoatchilik eshittirishlari boshlangan kundan 30 kun davom etadi.

Jamoatchilik eshittirishlari davomida qabul qilingan fikr va mulohazalar asosida Strategiya konsepsiyasi loyihasi qayta ko‘rib chiqilib mamlakat rahbariyatiga taqdim etish uchun tayyorlanadi.

O‘zbekistonda tadbirkorlik rivojlanib, iqtisodiyotda o‘shish kuzatilmoqda. Pirovardida, aholining ishchanlik kayfiyati ko‘tarilib, tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatish sifati oshmoqda, ularning turlari ko‘paymoqda. Hududlarning o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot parametrlari aniqlanib, rivojlanish strategiyalari belgilab olinmoqda⁸⁷.

Bu jarayon esa islohotlarni tizimli davom ettirishni taqozo etadi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasini hududlar kesimida baholab borishni kun tartibiga qo‘yadi.

O‘z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atini yanada tezlashtirish uchun maqsadli dasturlarni hududlar imkoniyatlarini aniq tashxislash asosida o‘z vaqtida qabul qilish va bajarilishini tizimli kuzatish mexanizmi takomillashmagani muayyan muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Islohot - bu yangilanish va o‘zgarish, ishlarning natijadorligi uchun mas’uliyatni yanada teranroq his qilish degani. Islohotlar ijobiy natijasi bu

-boshqaruv tizimi, rahbarlarimiz va odamlarimiz o‘zgarishi kerak. Insonning dunyoqarashi o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi, yangilanadi va shu

⁸⁷ file:///C:/Users/ASUS/Desktop/%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D1%82%D0%B0%D0%BA%D0%B0%D0%B0/yangi-zbekiston-ududlarni-izhtimoiy-i-tisodiy-rivozhlantirish-strategiyasi%20(1).pdf

asnoda Yangi O‘zbekiston poydevori mustahkamlanadi⁸⁸.

Bugun mintaqalarning iqtisodiy muammolarini o‘rganish, ishga tushirilmagan zahiralarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish masalalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning strategiyasida yanada rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi – Tarqqiyot strategiyasi tamoyili asosida “...hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish”⁸⁹ masalalariga jiddiy e‘tibor berilgan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xos dolzarb masalalar, ekologik-iqtisodiy muammolar, moliya-kredit tizimi va uni mintaqalarni innovatsion rivojlantirishdagi roli, mintaqalar iqtisodiyoti o‘zaro aloqalarining samarali mexanizmlari va iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqish masalalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillariga iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va ixtisoslashtirishning optimal kombinatsiyasi va ustuvor yo‘nalishlarda innovatsiyalarni markazlashtirish kiradi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xos doirasida quyidagi muammolar ko‘rib chiqiladi: alohida mintaqalarning iqtisodiyoti; ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar; mintaqaviy tizimlar (milliy iqtisodiyot-o‘zaro ta‘sir qiluvchi hududlar tizimi sifatida); ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish; iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihatlari; mintaqaviy boshqaruv tizimlarini modellashtirish; mintaqada iqtisodiy faoliyatni boshqarish mexanizmlari va usullarini takomillashtirish va boshqalar.

Davlat hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini olib borish orqali mintaqalarning o‘ziga xosligi, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mintaqalararo integratsiya masalalari, muammoli mintaqalarni qo‘llab-quvvatlash,

⁸⁸ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston”nashriyoti, 2022. – 416 bet.

⁸⁹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston”nashriyoti, 2022. – 416 bet.

islohotlarni ayrim yo‘nalishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mintaqalarga o‘tkazish, turli mintaqalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi jiddiy farqlarni kamaytirish va tugatish masalalariga alohida e‘tibor beradi. Yangi O‘zbekiston strategiyasida davlat boshqaruvini markazlashtirish amaliyotidan voz kechish zurligi, ko‘pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlariga o‘tkazish jarayonini davom ettirish kerakligini ta’kidlanadi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish XIX-asrda shakllana boshladi. Xorijiy tadqiqotchilar orasida nemis iqtisodchilari - Iogann Geynrix Tyunen, Alfred Veber, Valter Kristaller, Avgust Lesh kabi professorlari eng katta hissa qo‘shgan. Pensilvaniya universitetining iqtisod fakulteti professori Valter Isard, fransuz iqtisodchisi Jan Shardonne, rossiyalik-amerikalik iqtisodchi Vasiliy Leontiev, V.Tompson, T.Palander, shuningdek, taniqli darslik mualliflari X.Armstrong va J.Teylorlar mintaqaviy iqtisodiy nazariya muammolari, ishlab chiqarish kuchlarini taqsimlash va hududiy ishlab chiqarish samaradorligi masalalarini ishlab chiqishgan. Eng yorqin konturlarini AQShda 1950 yillarda iqtisodiy nazariya va iqtisodiy geografiya chorrahasida mintaqaviy ilm-fan asoschisi Valter Isardning asarlarida ko‘rsatib o‘tilgan. XX - asrning birinchi yarmidagi sovet tadqiqotchilaridan G.M.Krjijanovskiy, I.G.Aleksandrova, V.V.Kuybisheva, N.N.Kolosovskiy uzoq muddatli rejalashtirish va iqtisodiy rayonlashtirish masalalari bilan shug‘ullangan. Yigirmanchi asrning 60 yillaridan boshlab mintaqaviy iqtisodiyot Rossiyada eng to‘liq rivojlangan bo‘lib, u iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishini rejalashtirish uchun mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini o‘rganadigan iqtisod fanining bir tarmog‘i sifatida talqin qilingan. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidagi mahalliy olimlar orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak: T.S.Xachaturova, Ya.G.Feygina, N.N.Nekrasov, A.G.Granberg, P.M.Alampiev, E.B.Alaeva, K.N.Bedrintseva, G.I.Granika, F.D.Zastavniy, R.S.Livshits, K.I.Klimenko, Yu.K.Kozlova, A.M.Korneeva, V.V.Kistanov, A.G.Omarovskiy, N.N.Oznobina, V.F.Pavlenko, M.M.Palamarchuk, Yu.G.Saushkina, E.D.Silaeva, N.I.Shrag va V.M.Torosov (*“Mintaqaviy iqtisodiyot” 2004 yil (“Rossiyada 2004 yildagi eng yaxshi ilmiy kitob”)*)).

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifasi - butun mamlakat va uning alohida hududlari iqtisodiy manfaatlari o‘rtasidagi oqilona murosani ilmiy jihatdan asoslashdir.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish doirasida quyidagi muammolar o‘rganiladi:

- muayyan mintaqa iqtisodiyoti;
- hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar;
- mintaqaviy tizimlar (milliy iqtisodiyot o‘zaro ta’sir qiluvchi hududlartizimi sifatida);
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish;
- iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihatlari;
- hududiy boshqaruv tizimini modellashtirish;
- mintaqada xo‘jalik faoliyatini boshqarish va tartibga solish mexanizmlari va usullarini takomillashtirish⁹⁰.

O.G.Smeshko o‘zining “Mintaqaviy iqtisodiyot: rivojlanish omillari” monografiyasida (*Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg menejment va iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2014. -266 b. ISBN 978-5-94047-703-7*) hududning iqtisodiy makonining rivojlanishini belgilovchi omillar tadqiq etilgan. Tahlil asosida muallif tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash tamoyillari hududning iqtisodiy rivojlanish nazariyasini shakllantirish asoslab berilgan, samarali boshqaruvni qabul qilish vositasi sifatida hududiy boshqaruv metodologiyasi yechimlari taklif etilgan. Monografiya davlat organlari xodimlariga mo‘ljallangan hokimiyat va mahalliy davlat hokimiyati organlari, olimlar va idoralar xodimlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari ishlab chiqilgan⁹¹.

Hududiy rivojlanish yoki davlatning mintaqaviy siyosati quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga olishi kerak: mamlakatning hududiy yaxlitligi va bir butunligini ta’minlagan holda mamlakat mintaqalarini mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish; insonlarning turmush darajasi va sifatidagi hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish; mamlakat aholisini qaysi hududlarda yashashidan qat’iy nazar ularga o‘zlarining ijtimoiy- iqtisodiy xuquqlarini amalga oshirishlari uchun teng imkoniyatlar yaratish va xokazolarni nazarda tutadi⁹².

Prezidentimizning “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori bu jabhadagi ishlarni yangi bosqichda rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish

⁹⁰https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A0%D0%B5%D0%B3%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D0%B0%D1%8F_%D1%8D%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D0%BA%D0%B0

⁹¹ https://www.spbume.ru/file/pages/76/smeshko_mon.pdf

⁵ Industrial management and its importance in sustainable economic development MI Kutbitdinova - Economics and Innovative Technologies, 2018.

imkonini beradi⁹³.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimini joriy etish vazifasi belgilanib, unda tizimni shakllantirishda statistik ko'rsatkichlarga va so'rovnomalarga asoslaniladi. Bunda 8 asosiy mezonga alohida e'tibor qaratilib va har bir yo'nalish baholab boriladi.

Birinchisi, hududlarda barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va iqtisodiy islohotlar samaradorligi ta'minlash. Barcha hududlarda ham iqtisodiy rivojlanish mutanosibligiga yetarli e'tibor berilib, bu yo'nalish asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Ikkinchisi, hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlash. Bu borada hududlarda mavjud ichki imkoniyatlardan yetarli foydalanilmayotgan bo'lishi mumkin. Hududlar iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni ixtisoslashuv yo'nalishlari joylarda mehnat bozori tarkibiga va bu bozor amal qilishining samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bu jarayon chuqur va tizimli kuzatishlarni taqozo etadi.

Uchinchisi, hududlarda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash. Aholi turmush sifati islohotlarning pirovard natijasini ifodalaydi, ya'ni ijtimoiy farovonlikning bosh mezonini hisoblanib, bu boradagi ishlarni chuqur tahlil qilish asosiy talablardan biridir.

To'rtinchisi, hududlarda aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi hamda ishonchliligini ta'minlash. Hududlarda aholining iqtisodiy faolligini ta'minlash va biznes doiralarning tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'pincha mahalliy hokimiyat organlari ishchanligi, tashabbuskorligi, omilkorligi va aholi bilan yaqindan ishlash ko'nikmalariga bog'liq. Ishlab chiqarishning barqarorligi esa yaxshi infratuzilma mavjudligi bilan chambarchasdir. O'z navbatida, aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi hududlarda mavjud mehnat, kapital, mineral xomashyo va boshqa resurslardan oqilona foylanish imkoniyatini kengaytiradi. Bu mezon hududlarda aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilayotgan sharoitlarga ham baho berish imkoniyatini beradi.

Beshinchisi, hududlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish,

⁹³ Prezidentimizning 2020 yil 1 maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qarori.

iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya qilish. Hududlar milliy bozorda qaysidir ma'noda, boshqa hududlar bilan o'zaro raqobatlashsa, o'z navbatida, mintaqaviy va xalqaro bozorlarda ushbu hududlar o'z imkoniyat va salohiyatini birlashtiradi, ular endi yagona iqtisodiy kuchga aylanib, xalqaro darajada raqobatlashadi. Shuningdek, raqobatbardoshlik hududlarda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlariga, hududning sanoatlashganlik darajasiga ham bog'liq. Agar hududlar bir yoqlama iqtisodiyotga ega bo'lsa, u holda raqobatbardoshlik darajasiga putur yetadi. Hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash bevosita raqobatbardoshlik darajasini oshiradi va mazkur mezonga alohida ahamiyat berilgan.

Oltinchisi, hududlarda ishbilarmonlik muhiti sifatini yaxshilash, tadbirkorlikni doimiy qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish. Hududlarda ishbilarmon doiralar va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari keng bo'lib, biroq joylarda ishbilarmonlik muhitining tashkiliy, huquqiy, institutsional va ijtimoiy jihatlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi sababli tadbirkorlik qatlami o'z salohiyatidan samarali foydalana olmaydi. Bundan tashqari, tadbirkorlik rivojlanishiga yirik, o'rta va kichik tadbirkorlik pog'onalari bo'yicha, ularning integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan ham yondashish maqsadga muvofiq. Tadbirkorlik katta salohiyatga ega bo'lgan, doimiy harakatchan va dinamik ijtimoiy-iqtisodiy kuchga aylanishi lozim. Shu sababli mazkur mezonga tayanib hududlarning ishbilarmonlik muhitiga yetarli darajada tizimli baho berish imkoniyati yuzaga keladi.

Yettinchisi, hududlarning moliyaviy mustaqilligiga erishish hamda bank- moliya sohasini rivojlantirish. Bu borada so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga erishildi. Shu bilan birga, hududlarning moliyaviy mustaqillikka erishishi yo'nalishidagi islohotlarni yanada davom ettirish zarurati mavjud. Bu mahalliy hokimiyatlarning hududlarda faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi. O'z navbatida, mahalliy byudjetlardaromadlari shakllanishi va uning xarajatlari taqsimlanishida erkinlik va shaffoflik masalalarini hal qilish imkoniyatini ham kengaytiradi. Bank-moliya sohasini rivojlantirish orqali hududlar iqtisodiyot kompleksida gorizontaal va vertikal aloqalarni yanada takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratilib, shu sababli mazkur mezon bo'yicha hududlardagi vaziyatga baho berish sohadagi islohotlarni yanada jadallashtirishga turtki bo'ladi.

Sakkizinchisi, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining

fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligi va ma'lumotlarning ochiqqligini oshirish. Mamlakatimizda tub islohotlar dastlab Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini qabul qilish bilan boshlangan edi. Shundan keyin "Davlat idoralari xalq uchun xizmat qilish kerak" tamoyili yildan-yilga chuqur ijtimoiy-iqtisodiy mazmun kasb etib kelmoqda. Mazkur mezon ushbu tamoyilning hududlarda qanchalik darajada hayotga yanada chuqurroq tatbiq etilayotganiga baho berish imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari alohida, tumanlar va shaharlar kesimida, manzilli tarzda muhokama qilish tizimli tus olmoqda. Endi tumanlar va shaharlar darajasigacha reyting baholash ko'rsatkichlari shakllantiriladi. Bu juda muhim. Chunki reyting baholash natijalari nafaqat viloyatlar darajasida, balki tumanlar va shaharlar darajasida amalga oshirilsa, bu ko'rsatkichlar orqali iqtisodiy islohotlar qaysi hududlarda qanday sur'atlarda va miqyoslarda amalga oshirilayotgani, mamlakatimiz hududlarining yalpi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga qo'shayotgan hissasiga baho berish imkoniyati yuzaga keladi.

Hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijadorligini ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning joylardagi ichki imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi.⁷

Xulosa qilib aytganda, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyalarini ishlab chiqishda hududga xos bo'lgan muammolarni e'tiborga olish kerak bo'ladi. Yangi O'zbekiston strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish hamda 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish asosan Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda "millionlik shaharlar"ga aylantirish bo'yicha choralar ko'rish, 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib, foydalanishga topshirish masalalariga e'tibor qaratilish lozim. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish. Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi "Shaharlar qulayligi" indeksini joriy etish. Shaharlarni

raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va “Aqlli shahar” konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish. Toshkent shahrida barpo etilgan “INNO” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkini 4 ta hududda tashkil etish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish. Oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish. Qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish.

Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish Yangi O‘zbekiston strategiyasida belgilangan.

Shuningdek, hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarning “o‘sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob‘yektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish lozim. Respublika hududlarida qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstansiyaning qurish va yangilash. Respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash. Suv ta’minoti quvurlaridagi suv sirqish nuqtalarini sun’iy yo‘ldosh texnologiyasi orqali masofadan zondlab aniqlash va ta’minlashga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Toshkent shahrida oqova suvini tozalash tizimini shahar hududidan tashqariga chiqarib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlarni barpo etish. Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’minlash, keytering kabi xizmatlarni

ko'rsatish punktlarini rivojlantirish. Respublika hududlarida savdo va yo'l bo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish ob'yektlarini tashkil etish. Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik sub'yektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish⁹⁴ hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

13.3. Strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyati ko'p jihatdan ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarga uzviy bog'liqdir. Zero, ijtimoiy sub'yektlar – mahalla va oila institutlari, kompaniyalar, tashkilotlar, uyushmalar, nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu islohotlarning ajralmas elementlari – bosh tomiridir.

Demak, oila instituti vakili sifatida har bir fuqaro oila a'zosi, huquqiy maqomidan qat'i nazar, kompaniyalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va uyushmalar rahbarlari hamda xodimlari jamiyat ravnaqi, tinchligi, farovonligi va taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shishlari ularning yurt oldidagi asosiy burchlari ekanligini anglab yetishlari hamda shunga bor kuch-g'ayratini safarbar etishlari lozim.

Shunday ekan, ijtimoiy sub'yekt sifatida xoh alohida shaxs, xoh tashkilot bo'lsin, yagona maqsad tevaragida birlashishi lozim. Zotan, rivojlanish konsepsiyasi muayyan jamoaning izchil va uzluksiz faoliyat yuritishi uchun tayanch-suyanchiq, to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi mayoq vazifasini o'taydi.

Tahlillarga ko'ra, hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlariga ko'rsatilayotgan katta e'tibor va yaratilayotgan sharoitlar natijasi o'laroq, baholash faoliyatiga talab kun sayin kuchayib bormoqda. Bunday holat yangi baholash tashkilotlari yuzaga kelishiga turtki bo'lyapti. Bu esa, o'z navbatida, ushbu sohada faoliyat yuritib kelayotgan baholash tashkilotlari bilan sog'lom raqobatlashadigan, yuz berayotgan o'zgarishlarga tezda moslasha oladigan muhitni yaratish uchun xodimlar tajribasini oshirish hamda ularni yagona maslak atrofida

⁹⁴ <https://www.sammu.uz/frontend/web/upload/content-files/61fb9c694a831.pdf>

birlashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish masalasini ko'ndalang qo'yadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Veritas" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'z rivojlanish konsepsiyasi yo'nalishlarini belgilab oldi. Konsepsiya ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 iyundagi "Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida nazarda tutilgan vazifalardan kelib chiqib belgilangan va ular quyidagilardan iborat:

birinchi, yagona jamoa sifatida birlashib, hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlariga yaratilib berilayotgan barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanib, avvalo, jamiyat ravnaqi va taraqqiyoti, tadbirkorlik sub'yektlarining rivoji hamda istiqbolini ta'minlashni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash;

ikkinchi, hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, faoliyat davomida amaldagi qonunchilik talablariga rioya etish, xodimlarda Vatanga va milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ularni mamlakatimiz rivoji va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga safarbar etish;

uchinchi, soha rivojiga salmoqli hissa qo'shish, buning uchun o'z ustida ishlash, kasbiy mahorat va malaka oshirishga intilish, tizimga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, sohada ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, xorijiy tillarni o'zlashtirish, mukammal so'zlashuv darajasiga erishish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish borasida davlat vakolatli idoralariga asoslangan takliflar kiritish, ommaviy axborot vositalarida sohada ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangiliklar bilan ishtirok etish;

to'rtinchi, kompaniya faoliyati uzluksizligi va izchilligini ta'minlash maqsadida ichki tartib-xizmat intizomini kuchaytirish, xodimlarda kasbga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirish, ilm salohiyatini oshirishga safarbar etish. Innovatsion yondashuv asosida kasb tayyorgarligi mashg'ulotlari o'tkazib borish, masofadan ta'lim yo'nalishini joriy etish, kompaniyada malakali va iqtidorli xodimlar jamlashni tashkil etish maqsadida oliy o'quv yurtlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, elektron kutubxona tashkil etish, tizimga oid adabiyotlar bazasini shakllantirish va boyitib borish, metodik qo'llanmalar tayyorlash vazifalarini yuklatish. Xodimlarni rag'batlantirish tizimini barpo etish va yo'lga qo'yish;

beshinchi, xodimlarni soha yo‘nalishi hamda kompaniya faoliyatini yanada yaxshilash yuzasidan asoslangan yozma takliflar kiritib borishga safarbar etish;

oltinchi, kompaniya manfaatlarini ustuvor deb bilish. Kompaniya manfaatlariga zid xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik. Bunday holatlar sodir etilgan taqdirda tegishli qonuniy choralar ko‘rish;

yettinchi, ish sifatini yanada oshirish, mijozlarga tez va sifatli xizmat ko‘rsatish, sansolarlik kabi salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini imkon qadar soddalashtirish;

sakkizinchi, baholash faoliyatiga uchinchi shaxslarning aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik va bu holatlarga chek qo‘yish;

to‘qqizinchi, kompaniya faoliyati izchil rivojlanishini ta‘minlash, ish davomida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tezkorlik bilan bartaraf etish, faoliyatni to‘g‘ri yo‘naltirish maqsadida tahlil ishlarini yo‘lga qo‘yish. Tahlil tadbirlarini har chorak yakunlari bo‘yicha o‘tkazib, zarur hollarda talab etilgan muddatlarda tahlillarni bajarish va o‘rnatilgan tartibdagi ma‘lumotnoma taqdim etish;

o‘ninchi, har oyda ikki marotaba kompaniya xodimlari yig‘ilishini o‘tkazish. Yig‘ilishlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va kelgusida amalga oshirilishi kutilayotgan vazifalarni belgilab olishni tartibga solish.

“Veritas” mas‘uliyati cheklangan jamiyati o‘z faoliyati davomida “Sifatli, ishonchli, malakali va xolis xizmat ko‘rsatish” tamoyiliga to‘liq amal qilmoqda va shu yo‘ldan bormoqda. Kompaniyamiz shiorida qayd etilgan “sifat, ishonch, malaka va xolis xizmat ko‘rsatish” kabi so‘zlar zamirida o‘ta muhim mas‘uliyat mavjudligini his etish hamda buni o‘zgalarga yetkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Shiorimiz zamirida eng muhim hisoblangan “ilm” asosiy o‘rinni egallaydi. Ilmsiz malaka, kasbiy ko‘nikma bo‘lmaydi, ular yo‘q joyda sifat ham bo‘lmaydi. Faqat aqli raso shaxs vaziyatga xolis baho bera oladi.

Shunday ekan, shiorimiz bizni doimo izlanishga, yangiliklar yaratishga, sohaga innovatsion g‘oyalarni joriy etishga, bir qolipga tushib qolmaslikka, ish samaradorligini oshirish uchun tinmay harakat qilishga undaydi.

Bunda har bir taqdim etilgan baholash ob‘yektiga individual yondashish, uning qiymati yuzasidan buyumning xos parametrlaridan kelib chiqib, yakuniy xulosa berish, hisobotlarning tarkibiy tuzilishiga alohida e‘tibor qaratish, hisobotlar elektron bazasini yaratish, ularni

saqlash tizimini ishlab chiqish va amaliyotda keng qo'llash tavsiya etiladi.

Baholash ob'yektlarining qiymati yuzasidan faqat va faqat ob'yektiv – xolis ma'lumot berish va ushbu ma'lumotni nazariy jihatdan isbotlab bera olish salohiyatiga ega bo'lgandagina bu amaliyotga kirishish maqsadga muvofiqligi belgilab qo'yiladi. Zotan, noxolis ma'lumot nafaqat ushbu ma'lumotni taqdim etgan xodim sha'ni, balki butun baholash kompaniyasi obro'siga dog' tushiradi.

Bunday holatlarda xodimlardan baholash kompaniyasi tub manfaatlariga zid bo'lmagan xolis va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini ishga solish talab etiladi. Aynan mana shu jihatlar, ya'ni o'z vaqtida xolis va to'g'ri qaror qabul qilish yoki rad javobini berish ko'p jihatdan kompaniyamizning kelgusida barqaror faoliyat yuritishiga turtki bo'ladi.

Bu esa mijozlarning saralash tizimini yaratish kerakligini taqozo etadi. Bunda mijozlar shartli ravishda xavf guruhlariga saralanadilar. Xavf guruhlari mijozlarning ishonchlilik darajalariga qarab gradatsiyalanishi nazarda tutiladi. Shunda o'ta yuqori xavf guruhiga kiritilgan mijozlarga tegishli baholash ob'yektlari o'ta sinchkovlik bilan tekshirilishi, ularning hujjatlari yanada puxtaroq nazoratdan o'tkazilishi talab etiladi.

Biz mijozlarga ularni qadrlashimizni o'z vazifamizga bo'lgan xolis munosabatimiz va kasbiy majburiyatlarimizga mas'uliyat bilan yondashimiz orqali yetkazishimiz lozim. Bunda mijozlar bizning fikrimiz ularning sarmoyalari va mulklarini tassaruf qilishlari yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilishlari uchun zarur omil ekanligini anglab yetishlari darkor.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida hududiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati, mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari, strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Jamiyat taraqqiyotining globallasuv bosqichida mamlakat mintaqalarini mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish, shuningdek milliy iqtisodiyotning hududiy jihatdan optimal tarkibiy tuzilmasini shakllantirish makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida davlat mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin nomutanosibliklarning yuzaga kelmasligi uchun ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda hududlararo mutanosiblikni saqlab turishga yo'naltirilgan muayyan choratadbirlarni qo'llab keldi. Ayni paytda, yirik davlat investitsiyalari mintaqalarning strategik muhim mineral - xom ashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlashga, mavjud demografik salohiyatdan oqilona foydalanishga yo'naltirildi.

Pirovard natijada mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muayyan ijobiy siljishlar yuz berdi va ma'lum darajada barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi. Xususan, yangi sanoat markazlari va mintaqalarda iqtisodiy holatlarini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan zamonaviy yirik korxonalarining bunyod etilishi sust rivojlangan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining birmuncha jadallashuviga olib keldi.

Milliy iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, ya'ni iqtisodiyotda davlat sektori ulushining sezilarli darajada qisqarishi sharoitida iqtisodiyotni boshqarishda davlatning bevosita ishtiroki susayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish asosida davlatning tartibga solish tizimini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar olimlarining asarlarida hududiy strategiyalarni ishlab chiqishning muammoli-analitik asoslari yaratilgan va strategik dasturlashning nazariy -metodologik masalalari birmuncha yoritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: milliy iqtisodiyot, mintaq, urbanizatsiya, makon va joy, mehnat taqsimot, konsepsiya, baholash xizmati, strategiya, bozor, sarmoya.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Konsepsiya deganda nimani tushunasiz?
2. "Lokomotiv mintaq" konsepsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Hududiy rivojlanishning yagona majmuali strategiyasini ishlab chiqish tamoyillarini aytib bering.
4. Hududiy rivojlanishning yagona majmuali strategiyasini ishlab chiqish tamoyillarini aytib bering.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi «Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-4702-son qarori nechta vazifadan iborat?

6. Hududiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini ayting.

7. Mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

8. Strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlarini ayting.

XIV BOB. MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGI VA RAQOBAT USTUNLIGI

14.1. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va shakllanishi to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar

14.2. Mintaqa aholisini ish bilan bandligini ta‘minlashda kichik biznesning tutgan o‘rni

14.3. Mintaqada yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari

14.4. Chet-el investitsiyalari va erkin iqtisodiy zonalarning mintaqalar iqtisodiyotida tutgan o‘rni

14.1. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va shakllanishi to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar

O‘zbekiston Respublikasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda mintaqalarning rivojlanish darajasi, tarmoqlar tarkibi, mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi kabi xususiyatlari hisobga olinmoqda. Mana shuning uchun ham har bir mintaqani majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va uni tartibga solish mexanizmining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish bevosita ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etishi bejiz emas. Ilmiy adabiyotlarda mintaq va uni tadqiq etuvchi fan tushunchasi mohiyatini talqin etish, uning chegaralari va jamiyat tarkibidagi o‘rnini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud.

Iqtisodchi geograf va mintaqashunos olim I.A.Rodionova mintaqaviy iqtisodiyotni “iqtisodiyotdagi geografik (hududiy) yo‘nalish, ishlab chiqarish kuchlari va rayonlar rivojlanishining xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan” deb hisoblaydi⁹⁵. Bir guruh tadqiqotchilar “mintaqa” tushunchasiga shunday ta‘rif beradilar: mintaq (region) ma‘lum hudud bo‘lib, u boshqa hududlardan qator belgilar bo‘yicha farq qiladi va o‘ziga xos bir butunlik tarkibiy elementlari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjudligi bilan ifodalanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot mintaq taraqquiyotining ob‘yektiv shart sharoitlari va omillari, ishlab chiqarish tarkibi, ijtimoiy soha va aholining turmush sharoiti, aholi va xo‘jalikning joylashishi, iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishi va uning boshqarish mexanizmi, mazkur mintaqaning boshqa mintaqalar va mamlakatlar bilan o‘rnatgan iqtisodiy aloqalarini tadqiq etadi⁹⁶.

⁹⁵ Родионова И.А. Региональная экономика. – М.: “Экзамен”, 2003. -С. 6-7.

⁹⁶ Каюмов А.А., Назарова Х.М., Эгамбердиев Ф.Т. Минтақавий иқтисодиёт. – Т.: “Университет”, 2004. -4-б.

“Mintaqa” deganda umumiy tabiiy-geografik, tarixiy, milliy-madaniy birlik va diniy-etnik yaqinlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (xo‘jalik ixtisoslashuvi va iqtisodiy rivojlanish, demografik vaziyat, aholi turmushi va x.k.) darajasi, turli bosqichda takomillashmagan boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishdagi ma‘muriy-hududiy organlar faoliyatining mushtarakligini taqozo qiluvchi yaxlit hududiy birlikni tushunish maqsadga muvofiq⁹⁷ deb yozadi boshqa guruh olimlari.

Mintaqaviy iqtisodiyot tabiiy-iqtisodiy va boshqa omillarni mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bevosita bog‘lab o‘rganadi. Uning doirasiga, ayrim iqtisodchilar ta‘kidlaganlaridek, demografiya, tabiiy resurslar va sharoitlar, ekologiya va h.k. muammolarni chuqur o‘rganish kirmaydi. U iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, demografiya, ekologiya, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti kabi fanlarning ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanadi, deb ta‘kidlaydi A.M.Sodiqov.

A.G.Granberg hududlar turli alomatlar va maydonlari bo‘yicha birbiridan farq qilgani uchun ularni mintaqalarga ajratish zarurligini ta‘kidlaydi. Mintaqa tarkibiy elementlarining yaxlitligi, o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turuvchi ma‘lum hududdir. Mamlakat hududini mintaqalarga bo‘lish rayonlashtirish deb ataladi.

Iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvini kuchaytirish negizida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar asosan xo‘jalik yuritishdagi kamchiliklarni tanqid qilishga e‘tibor qaratadi.

Ko‘pgina mualliflar o‘z ta‘riflarida mintaqa rivojlanishida uni boshqarish omiliga katta e‘tibor qaratadilar. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, mintaqalarni asoslash mezonlarining ko‘p ekanligi ishlab chiqarishni aniq tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishga to‘liq imkoniyat bermaydi.

T.Ahmedov va A.Sodiqovlarning fikrlariga asoslangan holda, mintaqani boshqariladigan tizimning o‘zaro birligini mujassamlashtirgan mamlakat iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismida o‘z hokimiyat va boshqaruv tashkilotlariga ega bo‘lgan yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘muriy-hududiy tizim deb hisoblaymiz. Bunday tizimlarga turli iqtisodiy mintaqalar bilan bir qatorda ma‘muriy-hududiy birliklarni kiritish mumkin (mamlakat, viloyatlar, shaharlar, tumanlar va boshqalar).

⁹⁷Абдуллаев О., Бахриддинов Н. Ҳозирги замон географиясининг долзарб муаммолари. – А., 2007. -136-139-б.

Barcha ma'muriy-hududiy mintaqalar takror ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish ob'yekti hisoblanadi. Ular mustaqil respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv zanjiri o'zaro bog'liq bo'g'inlarining yagona tizimini tashkil etadi.

Iqtisodchi olimlar o'rtasida ma'muriy-hududiy birliklardan qaysilarining asosiy o'rin tutishi bo'yicha yagona fikr yo'q. Nazarimizda, ma'muriy-hududiy birliklarni viloyatlar darajasida ajratib ko'rsatish va ularni asosiy, deb hisoblash haqidagi takliflar diqqatga sazovordir. Ular o'z sanoat va qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishi, moliyaviy resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy majmuasiga ega. Bunday mintaqalar darajasida davlatning umumiy vazifalari bevosita mahalliy xususiyatlar va imkoniyatlarga bog'lab belgilanadi.

Mazkur jarayonda ma'muriy-hududiy tizimlarning o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga yo'naltirilgan nomarkazlashtirilgan boshqaruvni kuchaytirish masalalari yangicha tus olmoqda. Buning asosida mintaqada samarali va majmuali rivojlanishga erishish uchun xalq deputatlari mahalliy kengashlari va hokimiyatlar vazifalarini aniq chegaralash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'zini o'zi moliyalash va boshqarishning iqtisodiy tamoyillariga tayanib xo'jalik yuritishni mahalliy asosda tashkil etish, mintaqalarda faoliyat yurituvchi barcha sub'yektlarga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kuchaytirishga erishishni tashkil qilish lozim.

Mintaqaviy xususiyatlar faqat majmuali yondashilgandagina hisobga olinishi mumkin. Ayni paytda mahalliy hokimiyat idoralarining mintaqani majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini rejalashtirish hamda muvofiqlashtirishdagi, ahamiyati keskin oshadi. Mahalliy hokimiyat idoralari bugungi kunda mintaqani majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish funksiyasi va uni amalga oshirish uchun zarur resurslarga to'liq ega emaslar.

Mazkur funktsiyani markazdan mintaqada darajasiga berish amalda vertikal nomarkazlashuvdir. Ushbu jarayon fiskal nomarkazlashuvni hamda mintaqalarga o'z resurslarining ma'lum qismidan mustaqil foydalanish xuquqini berishni nazarda tutmog'i lozim.

Mahalliy darajada aholining tabiiy ko'payishini, migratsiya jarayonlarini, mehnat resurslarini bandlik sohalari bo'yicha taqsimlashni, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyatni boshqarishning, turli xizmatlar iste'molini, uy-joy qurish va aholini joylashtirishni, qurilish, sanoat bazasini rivojlantirishni, suv va elektr

ta'minoti, turli kommunikatsiyalarni tartibga solishning ta'sirchan mexanizmini yaratish mumkin.

Mintaqalarda barcha bo'g'inlar o'rtasida o'zaro aloqalar va bog'liqliklarning o'sishi, demografik va ijtimoiy rivojlanish, aholini joylashtirish va infratuzilma tizimini shakllantirish, atrof-muhitni tartibga solish zarurati boshqarishning ma'lum jihatlarini markazlashtirishni taqozo etadi.

Mamlakat darajasida hududiy boshqarishning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lmog'i kerak:

- hududlararo mehnat taqsimotini takomillashtirish orqali xalqaro mehnat taqsimotida samarali mavqeni egallash;

- mamlakatning muhim mintaqaviy nisbatlarini aniqlash, mamlakat ichida mahsulotlar va xizmatlar bilan o'zini o'zi maksimal ta'minlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, aholini joylashtirishning respublika miqyosidagi oqilona tizimini shakllantirish, qulay demografik sharoit yaratish va mintaqalararo boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish, tarmoqlar ixtisoslashuvi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, mintaqalararo ahamiyatga ega bo'lgan tabiatdan foydalanish muammolarini hal etish yo'li bilan ularni majmual va mutanosib rivojlantirish va x.k;

- mintaqalarni boshqarish mexanizmlari va iqtisodiy usullarini ishlab chiqish.

Undan keyingi viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi) darajasidagi asosiy vazifalar jumlasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

- mamlakat darajasida hududiy mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish;

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarishni mutanosib majmual rivojlanishini ta'minlash, xo'jalik yuritishni hududiy tashkil etishni takomillashtirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, aholini iste'mol tovarlari bilan ta'minlash, mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga erishish, tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va tumanlararo ahamiyatga ega bo'lgan boshqa masalalarni yechish orqali mintaq taraqiyotini ta'minlash.

Undan keyingi quyi darajada shaharlarning iqtisodiyotni tartibga solish vazifalari tarmoq va tarmoqlararo manfaatlarni o'zaro uyg'unlashtirib, o'z hududlarining resurslaridan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarini bir-biriga

bog‘lab rivojlantirish nuqtai nazaridan kelib chiqib sifat jihatdan yangicha tarzda amalga oshirishdir.

Viloyatlar tartibga solish vazifalarini real amalga oshirishlari uchun viloyat, shaharlarning vazifalari aniq belgilanganligi; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishonchli boshqarish tizimini ta’minlaydigan tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarning takomillashgan o‘zaro aloqalarining shakllanganligi;

viloyat, shahar va tumanlarning majmuali rivojlanishi moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan to‘liq ta’minlanganligi; barcha hududiy tizimlarni rivojlantirish uchun bir xil qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratilganligi; samarali qarorlar qabul qilish uchun sifat jihatdan yangi va ishonchli mintaqaviy statistik ma’lumotlar bazasi mavjud bo‘lishi lozim.

Har bir hududiy tizim mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuning uchun ham ularni rivojlantirish, avvalambor, boshqa mintaqalar bilan aloqalari va munosabatlariga, barcha bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning qanchalik yaqinligi va faolligiga bog‘liq.

Bunday sharoit mavjud vertikal va gorizontal aloqalar va munosabatlar bilan ta’minlanadi. Ushbu ikki guruh, aloqalar mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonlarining ochiqligini ta’minlaydi.

Iqtisodiyotni tartibga solish tizimini takomillashtirish ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni intensivlashtirishga, viloyatda aholi turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilganligini hisobga olib, har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor strategik maqsadini aniqlash zarur.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi hozirgi kunda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishga, iqtisodiyotni erkinlashtirishga, xususiy sektorni rivojlantirish ustuvorligiga, kichik tadbirkorlik va fermer xo‘jaliklariga e’tiborni kuchaytirishga, bank moliya tizimini takomillashtirishga, yangi soliq tizimini yaratishga va boshqalarga qaratilgan. Bu strategiya, o‘z navbatida, mintaqa doirasida ishlab chiqilgandagina ko‘zda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish mumkin⁹⁸.

Mintaqalarni majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini quyidagilar taqozo etadi:

– aholining turmush darajasini ko‘tarish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;

⁹⁸ Гранберг А.Г. Стратегия территориального социально-экономического развития // Вопросы экономики. 2001.№9, -С.15.

- jahon tajribasi va amaliyoti mintaqalardagi xom ashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash;
- yirik investitsion loyihalarni asoslash, amalga oshirish va ularni mintaqaga jalb etish;
- mintaqa iqtisodiy tarkibini takomillashtirish va samarali shakllantirish masalalarini hal qilish;
- ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish va atrof-muhitni himoya qilish muammolarini yechish;
- mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasini ko‘tarish;
- mintaqani respublika mehnat taqsimotidagi o‘rnini belgilash.

Shunday qilib mamlakat doirasida ishlab chiqilgan mintaqalarni majmualari rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o‘ziga xos tabiiy iqtisodiy salohiyatiga to‘g‘ri keluvchi strategiyasiga asoslangan bo‘lishi darkor. Strategiyaning maqsadi-mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida uning barqaror iqtisodiy o‘sishi va aholi turmush darajasini yuksalishiga erishishdir. Markaz va mintaqalar o‘zaro aloqalarini takomillashtirishning ijobiy samarasiga faqat ularning birgalikda faoliyat olib borish asosida erishish mumkin. Demak, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mintaqa xususiyatlariga mos siyosat va yondashuvlardan foydalanish, ayniqsa, majmualari ijtimoiy-iqtisodiy strategik rivojlantirishni ta‘minlash katta ahamiyat kasb etadi.

14.2. Mintaqa aholisini ish bilan bandligini ta‘minlashda kichik biznesning tutgan o‘rni

O‘zbekiston sanoati jadal va mutanosib rivojlanmoqda, uning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish hamda eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar tobora chuqurlashtirilmoqda. Sanoat tarmoqlari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi va raqobatbardoshligi oshmoqda. Rivojlanishning evolyusion yo‘li va O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilga asoslangan mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash tanlangan modelining izchil va aniq maqsadni ko‘zlab amalga oshirilishi samarasida O‘zbekiston iqtisodiyoti hamon davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy ta‘siriga bardosh beribgina qolmay, balki makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror yuqori sur‘atlarini ta‘minlamoqda.


Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektoriga kiritilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi yengil sanoat tarmog‘iga hamda neft va gazni qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirilmoqda.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilib, xorijiy investorlarga yanada qulay investitsiya muhiti yaratilmoqda. Respublikamizda xorijiy sarmoyadorlar katta xuquq va imkoniyatlarga ega, bu ularga iqtisodiy faoliyatlarini samarali tashkil etish va katta daromad olish imkonini beradi.

O‘zbekistonda xom ashyo resurslarining ko‘pligi, energiya resurslarining arzonligi, qimmat bo‘lmagan ishchi kuchi, egallanmagan to‘qimachilik mahsulotlari bozori va xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda imtiyozlar respublikaga investitsiyalar kiritishda investorlar uchun asosiy iqtisodiy imkoniyatlar hisoblanadi.

Mahsulot tannarxiga ta’sir etuvchi asosiy xom ashyo resurslarini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda mahsulot ishlab chiqarish boshqa davlatlarga qaraganda arzon tushishini ko‘rish mumkin. Masalan, davlatlar bo‘yicha ishchi kuchi qiymatlarining solishtirma tahlilini 14.1-rasmdagi gistogrammada ko‘rishimiz mumkin.


Gistogrammada to‘qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlarning to‘qimachilik tarmog‘ida soatiga o‘rtacha ishchi kuchi qiymati (AQSh dollarida) ifodalangan bo‘lib, Pokistonda - 0,37, Xitoyda - 0,48, Hindistonda - 0,67, Turkiyada - 2,88 va Janubiy Koreyada - 7,1 AQSh dollarini tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa o‘rtacha ishchi kuchi qiymati soatiga 0,22 AQSh dollarini tashkil qiladi.



14.1-rasm. Davlatlar bo‘yicha mehnat resurslarining to‘qimachilik sanoatida band bo‘lgan ishchi kuchi qiymatlarining solishtirma ko‘rsatkichlari (foizda)⁹⁹

⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzildi.

Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston o‘zining to‘qimachilik va tayyor mahsulotlar jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan bo‘lmish arzon ishchi kuchi resurslariga egadir. Yana bir asosiy omil bu xom-ashyo resurslarining o‘zimizda mavjudligi va uning nisbatan arzonligidir. 2-rasmdagi diagrammada xom ashyo resurslarining davlatlar bo‘yicha solishtirma narxlar berilgan.



14.2-rasm. Xom-ashyo resurslarining davlatlar bo‘yicha solishtirma narxlar, AQSh dollari¹⁰⁰

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 1 metr kub tabiiy gazning narxi O‘zbekistonda 0,03 AQSh dollarini tashkil qilsa, Turkiya, Fransiya va AQShda 0,21-0,23 AQSh dollarini, Xitoyda 0,28 AQSh dollarini tashkil qiladi. O‘zbekistonda 1 kVt/soat elektr energiyasining narxi 0,02 AQSh dollarini tashkil etsa, boshqa davlatlarda 0,03-0,09 AQSh dollarini tashkil qiladi. 1 kg mazutning narxi O‘zbekistonda 0,08 AQSh dollarini tashkil qiladi. Xitoy, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya davlatlarida mazutning narxi 0,29-0,34, AQSh va G‘arbiy Yevropa davlatlarida 0,20-0,23, Pokistonda 0,50 AQSh dollarini tashkil qiladi.

Xom-ashyolarning arzonligi, o‘z navbatida, mahsulot tannarxining arzonlashuvi va daromadning oshishiga olib keladi, ishlab chiqarish xarajatlari esa boshqa davlatlarga qaraganda birmuncha past bo‘ladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, respublikamizda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish masalalariga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Chunki nisbatan arzon xom-ashyo va arzon ishchi kuchiga ega bo‘lgan holda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va natijada yuqori darajada qo‘shilgan qiymat orttirmasini xosil qilish

¹⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzildi.

bugungi kunda har bir sanoat korxonasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytda bu borada qator loyihalar ishlab chiqilmoqda. Buni “Bursel-Toshkent Tekstil” qo‘shma korxonasi misolida ko‘rish mumkin. “Bursel-Toshkent Tekstil” qo‘shma korxonasi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, uning oladigan daromadlari yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarga qaraganda birmuncha ko‘p. Misol uchun, 1 kg paxtadan 850 gramm kalava ip yoki 5 dona futbo‘lka ishlab chiqarish mumkin. 850 gramm kalava ipning narxi 2 AQSh dollarini va 5 dona futbo‘lkaning narxi 12,5 AQSh dollarini tashkil qiladi. Ushbu oddiy taqqoslashdan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish davri qanchalik tugallangan bo‘lsa, korxonada shuncha ko‘p foyda oladi¹⁰¹.

14.1-Jadval.

“Bursel-Toshkent Tekstil” qo‘shma korxonasi misolida xom ashyoni chuqur qayta ishlash hisobiga qo‘shilgan qiymat orttirmasining hosil bo‘lishi misoli

No	Mahsulot turi	1 kg paxta tolasidan chiqadigan bir birlik mahsulot	Narxi (AQSh dollari, o‘shish)
1.	Paxta tolasi	-	1,2
2.	Ip-kalava (Nm 51)	0,85 kg	2,0 (66%)
3.	Trikotaj mato	0,82 kg	2,2 (83%)
4.	Erkaklar futbolkasi	5 dona	12,5 (10 marta)

Hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratilgan va bunday harakatlar doimo qo‘llab quvvatlangan. Jumladan, xo‘jalik faoliyati uchun barqaror huquqiy me‘yorlar yaratilmoqda; korxonada faoliyatiga ortiqcha ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi aralashuvlar cheklandi; korxonalarni ro‘yxatga olish va mahsulotlarga litsenziya va sertifikat berishdagi ortiqcha jarayonlar kamaytirildi; investisiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qo‘shma va xorijiy korxonalarga ko‘pgina imtiyozlar va yengilliklar berildi.

Masalan, minimal siyosiy risklar O‘zbekiston Respublikasining “Xorijiy sarmoyalar va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari

¹⁰¹ «Bursel-Toshkent Tekstil» qo‘shma korxonasi ma‘lumotlari asosida tuzildi

to'g'risida»gi Qonuni bilan ta'minlangan bo'lib, quyidagilarni belgilaydi:

- chet-el investisiyalari va O'zbekiston Respublikasi chet-el investorlarining boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi;
- investisiyalash sharoitlari yomonlashgan taqdirda chet-el investisiyalariga nisbatan 10 yil mobaynida investisiyalash boshlangan sanada amal qilgan qonunchilik qo'llaniladi.

Xorijiy investorlarning qonun yo'li bilan xuquqlarini himoyalash bilan bir qatorda, ular asosida faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalariga qator imtiyozlar ham belgilangan, ya'ni ular:

- 7 yil davomida daromad solig'idan ozod etiladi;
- korxonalar QQSdan tashqari byudjetga to'lanadigan barcha soliq va to'lovlardan ozod qilinadi;
- 5% qo'shimcha chegirma beriladi.

“Xorijiy sarmoyalar va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun shuni aniq belgilaydiki, O'zbekiston Respublikasidagi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sarmoyalashtiriladigan rejimga nisbatan xorijiy sarmoyadorlar tomonidan sarmoyalashtirilayotgan rejim noqulay bo'lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, respublika rahbariyati va hukumati tomonidan xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalariga berilgan imtiyoz va kafolatlarning ahamiyati juda katta. Xorijiy sarmoyadorlarga beriladigan umumiy imtiyozlar ichida quyidagilarni alohida ta'kidlash zarur:

- O'zbekiston Respublikasi sarmoyalar dasturiga kiritilgan, xorijiy sarmoyalar asosida tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalarini dastlabki 7 yil davomida daromad solig'idan ozod etiladi;
- xorijiy sarmoyalar asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalarini ustav kapitalida xorijiy sarmoyalar miqdori 50%dan va hajmi 1,0 mln AQSh dollari va undan ko'p bo'lsa, foydadan olinadigan soliq 16%ni tashkil etadi;
- yangi tashkil etilayotgan korxonalar, shu jumladan, xorijiy sarmoyalar asosida tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, ta'minot, tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bundan mustasno), qishloq joylarda, ovul yoki posyolkalarda tashkil etilsa, ro'yxatga olingan sanadan e'tiboran birinchi yili daromad solig'idan ozod etiladi, ikkinchi yili esa belgilangan soliq stavkasidan 25%, uchinchi yili belgilangan soliq stavkasidan 50% miqdorida soliq

to‘laydi. Keyingi yillar daromad solig‘i belgilangan stavkalarda to‘liq to‘lanadi;

- chet-el sarmoyalari asosida tashkil qilinayotgan boshqa korxonalar (savdo, vositachilik, ta‘minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchilardan tashqari) ro‘yxatdan o‘tgan vaqtdan boshlab o‘rnatilgan miqdorga nisbatan birinchi yilda 25% va ikkinchi yilda 50% soliq to‘laydilar. Keyingi yillarda olinadigan foyda uchun to‘lanadigan soliqni o‘rnatilgan miqdorga nisbatan to‘liq to‘lashni amalga oshiradilar.

Respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarning kirib kelishi va qo‘shma korxonalarining yaratilishini rag‘batlantirish maqsadida imtiyozlar quyidagi shartlar asosida berilishi belgilangan:

- xorijiy investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investisiyalarni O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50%ni tashkil etishi;

- ushbu korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investisiyalarni kiritish;

- xorijiy investisiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo‘yish;

- mazkur imtiyozlarning qo‘llanish muddati davomida olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investisiyalashga yo‘naltirish.

Shubhasiz, ushbu imtiyozlar respublikaga qo‘shimcha investisiyalar kirib kelishini yanada oshiradi.

14.3. Mintaqada yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida “... mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yukturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda”, deb aytilgan. Mazkur holat esa “...hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ahvolini tahlil qilish, amalga oshirilayotgan tadbirlarning aholi hayotining

sifatiga ta'sir etish darajasini oshirish bo'yicha amaliy chora tadbirlarni ishlab chiqish"¹⁰²ni xayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Suv resurslarining cheklanganligi va sohadagi raqobat kurashining keskinlashib borishi sharoitida bu muammolarni hal qilish uchun yer resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va uni hal qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, sanoatning xom ashyo resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, aholini sifatli qishloq ho'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash orqali millat salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish muhim o'rin egallaydi.

O'zbekistonda sun'iy sug'orib dehqonchilik qilishga asoslangan ho'jalik yuritish shakllari rivojlangan. Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik mahsulotlarining 90 foizidan ko'prog'i ishlab chiqariladi. Shuningdek, suv resurslarining cheklanganligi, ekologik vaziyatning murakkabligi uchun ham yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurdir. Shuning uchun mintaqalarning hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif, tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mexanizmini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati aholisining soni va iqtisodiyotining o'zak tarmoqlari tez va intensiv o'sib borayotgan mintaqalaridan biri hisoblanadi. Viloyat yer maydoni 28,57 ming kv kmni tashkil etadi, bu respublika hududining 6,3 foizini tashkil etadi¹⁰³. Viloyatda 3088,8 ming kishi (respublika aholisining 9,5 foizi) istiqomat qiladi. Sanoatning xom neft va tabiiy gaz qazib olish, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqish, oziq-ovqat, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, elektr va gazni qayta ishlash sanoatlari rivojlangan. Qishloq xo'jaligi esa tobora intensivlashib bormoqda. Ammo agrar ishlab chiqarishning sun'iy sug'orishga asoslanganligi, agrar sohada yer-suv resurslaridan samarali foydalanish masalalarini bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi.

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi 08.08.2017 yildagi PQ-3182-sonli Qarori.

¹⁰³ O'zbekiston xududlarining yillik statistik to'plami. – T., 2017. -189-b.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek: «... yer ulkan boylik bo‘libgina qolmay, mamlakatning mavqeini belgilab beradigan omil hamdir”. Shu sababdan yerlardan oqilona foydalanish orqali yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 23-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investisiya dasturi to‘g‘risida»gi PQ-2697-son qaroriga asosan irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, yirik suv xo‘jaligi ob‘yektlaridan ishonchli foydalanilish va xavfsiz ishlatilishini oshirish choralari ko‘rilmogda. 2013-2017-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturiga asosan qator nasos stansiyalari modernizatsiya qilindi. Qashqadaryo viloyatida “Qo‘ng‘ir”, “Yo‘ldosh”, “Yangibog‘”, “... zamonaviy energiya tejoychi agregatlar va elektr qurilmalaridan keng foydalanildi¹⁰⁴. Bu yana 275 ming gektar yer maydonining suv ta‘minoti yaxshilanishiga xizmat qiladi. Bularning barchasi ochilmagan, foydalanilmagan imkoniyatlarni bermoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyatida g‘alladan bo‘shagan maydonlarning 60 ming 47 gektariga 16 turdagi takroriy ekin ekilib, ulardan 356 ming 493 tonna hosil olish mo‘ljallanmogda. Hosilning 6 ming 490 tonnasini zaxiraga olish, 143 ming 385 tonnasini ichki bozorga, 110 ming 102 tonnasini eksportga chiqarish rejalashtirilgan”¹⁰⁵.

Yer resurslarining cheklanganligi va unumdorligi pasayib borishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmogda.

Qashqadaryo viloyatida sug‘oriladigan yerlar maydoni 507,8 ming ga yoki respublika ko‘rsatkichlarining 12 foizini tashkil etadi. Mintaqa ekin maydonlarining ko‘pligi bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Uning ekin maydonlari 675,4 ming gektar yoki respublika ko‘rsatkichlarining 16,7 foizini tashkil qiladi. Uning tarkibida sug‘oriladigan yerlar 69,4 foizni, lalimi yerlar esa 30,6 foizni tashkil qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar viloyatdagi lalimi yerlarning respublikadagi salmog‘i katta (34,4 foiz) ekanligini ko‘rsatmogda. Bu esa viloyatda **lalimi** ekinlarni ekish, yuqori texnologiyalar asosida bunday ekinlar hosildorligini yanada oshirish imkoniyatlarini ko‘paytiradi. Yerlarning 10,0 foizini ko‘p yillik daraxtzorlar, ularning 9,9 foizi sug‘oriladigan yerlarga to‘g‘ri keladi. Respublikadagi bo‘z

¹⁰⁴ http://uza.uz/oz/business/mamlakatimizda-1-1-million-gektardan-orti-erning-suvtaminot?sphrase_id=2894276

¹⁰⁵ <http://uza.uz/oz/business/ash-adaryeda-60-ming-gektardan-ziyed-maydonda-16-turdagitak-04-10-2017>

yerlarning 28,1 foizi, shundan sug'oriladiganlari 10,3 foizi viloyat hissasiga to'g'ri keladi¹⁰⁶.

Mintaqa pichanzorlari va yaylovlari mamlakatdagi shunday yerlarning 11,3 foizini tashkil etadi va bu boradagi imkoniyatlarning kattaligidan dalolat beradi. Pichanzorlar va yaylovlarga suv chiqarish, bu borada zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish chorvachilik sohasida jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ustuvor ta'minlash masalalarida katta siljishlarga olib kelishi mumkin.

Tomorqa hamda bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari bo'yicha respublika ko'rsatkichlarining 12 foizi mintaqaga to'g'ri keladi. Respublikadagi shunday yerlarning 9,8 foizi sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Meliorativ qurilish holatiga yerlar respublika ko'rsatkichlarining 27,2 foizini tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlar mintaqaning bu boradagi imkoniyatlari kattaligini ko'rsatmoqda. Mintaqa o'rmonzorlari, butazorlari respublika ko'rsatkichlarining mos ravishda 6,7 va 14,3 foizini tashkil etadi¹⁰⁷.

Yuqoridagi tahlil etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati yer resurslariga boy bo'lgan va bu boradagi imkoniyatlari katta bo'lgan mintaqalardan hisoblanadi. Masalan, viloyatdagi ekin maydonlar, shundan sug'oriladigan yerlar, bo'z yerlar va meliorativ qurilish holatidagi yerlar bo'yicha respublikadagi eng salmoqli o'rinlarga egadir. Ammo ushbu yerlardan oqilona va samarali fodalaniqda, deb aytib bo'lmaydi. Shuning uchun bu boradagi ishlarni jadallashtirish va yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- avtomatlashtirilgan yer ma'lumotlari tizimini yaratish, yuritish va takomillashtirish;
- majmualiy ravishda yer tuzish, yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish va yer holatini nazorat qilish strategik masalalarini hal qilish;
- yer tuzish ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida majmualiy olib borishni takomillashtirish;
- sug'oriladigan yerlarning cho'llanish, erroziya, sho'rlanish tuproq unumdor qatlaminin nochor holga kelishi, gumus va ozuqa moddalari miqdorining kamayishi, haydalma va xaydov osti

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикасининг ер ресурслари тўғ'рисида Миллий ҳисоботи. – Т., 2015. -10-б.

¹⁰⁷ Ўзбекистон Республикасининг ер ресурслари тўғ'рисида Миллий ҳисоботи. – Т., 2015. -10-б.

qatlamlarining zichlanishi hamda texnologik ifloslanish jarayonlarining oldini olishga yo'naltirilgan majmuali masalalarni muntazam ravishda hal etib borish;

- iqtisodiyotga tarkibiy va institusional qayta qurish talablariga javob beradigan yer bozorini tiklash va rivojlantirish;

- davlat yer kadastri yuritishning hozirgi zamon qonunchiligi va normativ texnologiyalari talablariga javob bera oladigan tizimini takomillashtirish;

- yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda tabiiy iqtisodiy omillarning roliga baho berish;

- ixtisoslashuv va mujassamlashuv jarayonlarining yerdan foydalanish samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy jihatdan aniqlash va baholash;

- yerdan foydalanishning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida undan foydalanishni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- turli mulkchilik shakllarida yerdan foydalanish samaradorligi darajasiga baho berish;

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yerdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- Qashqadaryo viloyatining ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yerdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturining izchil amalga oshirilishi istiqbolli islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi va rivojlantirilishida respublika yer resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatining amalga oshirilishi muammolari yechilishiga imkoniyatlar yaratish alohida e'tibor qaratilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Keyingi tahlil mintaqadagi fermer xo'jaliklari soni yer maydoni va yer turlari bo'yicha o'ziga xos vaziyatning shakllanganligini ko'rsatmoqda. Masalan, mintaqadagi barcha turdagi qishloq xo'jaligi sub'yektlari tomonidan foydalanilayotgan yerlarning miqdoriy ko'rsatkichlari (respublikadagi salmog'i) fermer xo'jaligi ko'rsatkichlariga nisbatan biroz yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu esa mintaqa fermer xo'jaliklarining yetarli darajada samara bilan ishlayotganligi yoki yerdan foydalanish borasida barcha imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotganligini ko'rsatmoqda.

Shuni e'tiborga olib, fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- fermer xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xizmat ko'rsatish tizimini zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish;

- fermer xo'jaliklariga ajratib berilayotgan yerlardan foydalanishda, ekinlar tarkibini tanlashda qonunchilikda ko'zda tutilgan erkinliklarni to'liq ta'minlash;

- fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- fermerlarning bilim va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash ishini yo'lga qo'yish va boshqalar;

- dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining boshqa xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan yuqoriligi dehqon xo'jaliklarining mulk, yer va yetishtirilgan mahsulotga egalik hissining ortib borishi va shu asosda mehnatga bo'lgan munosabatining o'zgarishi bilan izohlanadi,

Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining yuqori bo'lishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi:

- dehqon xo'jaliklari mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi bozor sub'yekti sifatida faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan;

- dehqon xo'jaliklari to'liq xususiy mulk asosida faoliyat yuritishi ularga mustaqil ravishda barcha xavf-xatarlarni o'z zimmalariga olgan holda bozorlarni va ekin turlarini tanlash imkoniyatini beradi.

Fermer xo'jaliklarining yerlaridan samarali foydalanishda Prezidentimizning 2017-yil 1-iyundagi "2017-yilda boshqoli don ekinlaridan bo'shaydigan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish, ekish uchun talab etiladigan moddiy-texnika resurslarini o'z muddatida yetkazib berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim dasturilamal bo'lmoqda.

Qarorga asosan viloyatdagi fermer xo'jaliklari yerlarida sabzi, karam, pomidor, sholg'om, turp, bodring, qalampir, baqlajon, lavlagi, kartoshka kabi sabzavotlar, qovun-tarvuz, shuningdek, kungaboqar, mosh, loviya, soya, kunjut, tariq kabi dukkakli hamda ozuqabop ekinlar o'sib, mo'l hosil bermoqda. Takroriy ekin fermerning o'zi uchun ham, a'zolari uchun ham qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Mahsulotning ortiqchasini eksportga chiqarish orqali olinadigan valyuta tushumi esa iqtisodiyotimiz mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

14.4. Chet-el investisiyalari va erkin iqtisodiy zonalarning mintaqalar iqtisodiyotida tutgan o‘rni

O‘zbekistonda bozor munosabatlari jozibadorligini oshirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada yaxshilash va investisiyalar samarasini oshirishdan iborat.

Jahon xo‘jaligi tizimida globallashuv va baynalminallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir vaqtda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini muttasil oshirish va tadbirkorlarni rag‘batlantirish orqali xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi imkoniyatlaridan samarali foydalanish uzoq vaqt uchun mo‘ljallangan barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”¹⁰⁸ deganlaridek, eng avvalo aholining turmush tarzini qanchalik darajada yuksaltirib borilsa mamlakat iqtisodiyoti yanada rivojlanishi barchamizga ma’lum.

Shu asnoda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari bilan 2017 yil – “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili”da banklar tomonidan oddiy aholini tadbirkor qilishi maqsadida kredit mablag‘lari ajratildi. Bunday imkoniyatlar esa aholini haqiqatan ham boyishiga olib keladi, desak adashmaymiz.

Shuni aytish joizki, 2016 yilda 3,3 mingdan ziyod tadbirkorlik sub’yektlariga mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda tashkiliy, huquqiy va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatdiki, natijada 2,9 milliard AQSh dollaridan ziyod eksport shartnomalari imzolandi, Ular doirasida 470 tadbirkor qariyb 1,4 milliard dollarlik eksportni amalga oshirdi. Bu 2015 yilga nisbatan 33 foizga ko‘p. O‘tgan yilda jamg‘arma ko‘magida 242 tadbirkor Germaniya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda ishtirok etdi. Natijada 425 million dollarlik eksport kelishuvlari imzolanib, 62 million dollarlik mahsulot eksport qilindi¹⁰⁹.

¹⁰⁸ “Hurriyat” gazetasi, 2017 yil 1 mart.

¹⁰⁹ O‘zA internet 2017-yil 11-yanvar ma’lumotlari.

Buning zaminida esa, mamlakatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bevosita uning uchun xorijiy sarmoyadorlarni iqtisodiyotga jalb etish muhim hisoblanadi. Shu bois ham, mamlakatimiz birinchi rahbari I.A.Karimov mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib: "O'z-o'zidan ayonki, hech qaysi o'ziga ishongan xorijiy kompaniya, ayniqsa, xususiy kompaniya chuqur islohotlar amalga oshirilmayotgan, sarmoya kiritishning zarur kafolat va istiqbollari mavjud bo'lmagan bozorga qadam bosmaydi. Bu esa bizning zimmamizga xorijiy investisiyalar uchun imkon qadar ko'p qulaylik yaratilgan muhitni shakllantirish masalalari bilan muntazam va atroflicha shug'ullanish vazifasini yuklaydi", deya bejiz ta'kidlamagan¹¹⁰.

O'zbekistonda 2017-yilda 199 ta investisiya loyihasi doirasida 4,505 milliard dollar hajmidagi xorijiy investisiyalar jalb etilishi rejalashtirildi. Prezident Shavkat Mirziyoev qarori bilan tasdiqlangan joriy yil investisiya dasturiga ko'ra, chet-el kreditlari hisobiga hukumat kafolati bilan 79 ta loyiha bo'yicha 1,854 milliard dollar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar evaziga 120 ta loyiha asosida 2,65 milliard dollar o'zlashtiriladi.

Xorijiy investisiyalarning eng katta qismi (37 ta loyiha bo'yicha 2,47 milliard dollar) yoqilg'i-energetika tarmog'iga to'g'ri keladi. Ulardan chet-el kompaniyalari to'g'ridan-to'g'ri investisiyalari hisobiga neft-gaz sohasiga 20 ta loyiha doirasida 1,97 milliard dollar kiritiladi.

Jumladan, Rossiyaning "Lukoil" kompaniyasi 2017-yilda umumiy qiymati 8 milliard dollardan oshiq bo'lgan ikki kelishuv bo'yicha 1,217 milliard dollar investisiya qiladi. Gazprom International sho'ba tizimi bo'lgan Gas Project Development Central Asia Ustyurt mintaqasi va Surxondaryo viloyatida 1,3 milliard dollarlik ikki loyihani amalga oshiradi¹¹¹.

Energetika tarmog'ida xorijiy kreditlar hisobiga 17 ta loyiha asosida 506,7 million dollar o'zlashtiriladi. Mitsubishi Corporation va Mitsubishi Hitachi Power Systems (Yaponiya) Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida quvvati 900 megavatt bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi qurilishi va Navoiy IES uchun 450 megavattli bug'-gaz qurilmasi o'rnatishga kirishadi. Xitoyning Zhuhai Singyes Green Building Technology kompaniyasi Samarqand viloyatida quyosh elektr stansiyasi qurilishini boshlaydi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish

¹¹⁰ Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari.. T.: - O'zbekiston, 2009.

¹¹¹ <http://www.gazeta.uz/ru/2017/03/01/invest>

mumkinki, 2016 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga ko'paydi va 3,7 milliard dollardan oshdi.

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, banklarning investisiya maqsadlariga ajratilgan investision kreditlari miqdori ham 2015-yilga nisbatan 1,2 marta oshib, 2017- yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 12,2 trln. so'mni tashkil qildi.

O'zbekistonda qulay investisiyaviy muhit yaratish bo'yicha amaliy choratadbirlar ko'rilayotgani o'z samarasini bermoqda. 2016 yilda mamlakatimizda jalb qilingan investitsiyalar hajmi 9,6 foiz ortib, 16,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgani, jumladan, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foiz o'sib, 3,7 milliard dollardan ortgani bunga yaqqolmisoldir.¹¹²

Ta'kidlash kerakki, xorijiy davlatlar, shuningdek, dunyoga mashhur kompaniyalar hamda xalqaro moliya institutlarining moliyaviy ko'magida energetika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, yengil va oziq-ovqat, neft-kimyo, qurilish materiallari kabi sanoatimizning yetakchi sohalarida ko'plab ana shunday loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Birgina 2016-yilda umumiy qiymati 5,2 milliard dollarga teng bo'lgan 164 ta yirik investisiyaviy loyihani amalga oshirish ishlari yakunlangani so'zimiz tasdig'idir. Ularning aksariyati aholi zich hududlarda ro'yobga chiqarildi.

Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 27-fevral kuni investitsiyalar jalb qilish va sanoatni rivojlantirish masalalari yuzasidan ўтказилган йиғилишда qayd etilishicha, so'ngi yillarda barcha tarmoqlardagi dasturlarga 31 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada o'tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshgan.

Kelgusi 5 yilda iqtisodiyot barqaror o'sishi uchun sanoatni yana 1,5 barobarga oshirish, eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun 120 milliard dollar sarmoya, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya zarur. Шунингдек, Yig'ilishda jahon moliya bozorlaridagi vaziyatdan kelib chiqib, soha oldidagi muhim vazifalar ko'rsatib o'tildi. 2023-yilda 11 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, yirik investorlar bilan manzilli ishlash bo'yicha vazifalar belgilandi. Investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy diplomatiyani va chet-eldagi diplomatik

¹¹² <http://xs.uz/index.php/homepage/iqtisodiyot/item>

vakolatxonalar ishtirokini kuchaytirish muhimligi qayd etildi. Yil yakunigacha 304 ta yirik va 3 mingta hududiy loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ularning natijasida qo‘shimcha 10 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Davlat rahbari sanoat bo‘yicha tarmoq va hududlardagi qo‘shimcha zaxiralarni ishga solish, mahsulotlar raqobatdoshligini oshirish uchun tannarxni kamaytirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Xorijiy konsultantlarni jalb qilib, maxsus va kichik sanoat zonalarini hududlarni rivojlantirish drayveriga aylantirish zarurligi ta’kidlandi.

To‘qimachilik, charm, qurilish materiallari, elektr texnikasi, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik kabi tarmoqlarda yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish, jahon brendlarini olib kelish orqali yangi bozorlarga chiqish muhimligi aytiladi. Yangi loyiha takliflarini ishlab chiqish va investorlarga taqdim etish bo‘yicha loyiha guruhlarining ishini faollashtirish topshirildi. Yig‘ilishda ijtimoiy masalalarga ham to‘xtalib o‘tildi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ichimlik suvi va yo‘l infratuzilmasi dasturlaridan kelib chiqib, ustuvor loyihalarni shakllantirish vazifasi qo‘yildi¹¹³.

Keyingi yillarda yangi sohalar o‘zlashtirilishi, yirik ishlab chiqarish ob‘yektlari bunyod etilishi, qisqacha aytganda, iqtisodiyotimizning investisiyaviy jozibadorligi ortishida erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ayniqsa doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan chet-eldan investisiyalar jalb etishni va mamlakatda investisiya muhitini yanada rag‘batlantirish, O‘zbekiston hududida chet-ellik investorlar faoliyati uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunlarni takomillashtirib borilayotganligi ham xorijiy investorlarning mamlakatimizda erkin faoliyat yuritishlari uchun turtki bermoqda. Xususan, yaqinda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan amaldagi “Chet-el investisiyalari to‘g‘risida”gi, “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga mamlakatimiz iqtisodiyotiga, ayniqsa, sanoatning yuqori texnologik tarmoqlariga chet-el investisiyalarini faolroq jalb etishga, mamlakatimizda investisiya muhitini takomillashtirishga, O‘zbekiston hududida chet-ellik investorlar faoliyati uchun qulayroq shart-sharoitlar

¹¹³

<https://daryo.uz/2023/02/27/ozbekistonda-2023-yilda-11-mlrd-dollarik-togridan-togri-xorijiy-investisiya-ozlashtiriladi>

yaratishga qaratilgan tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu kabi qonun hujjatlaridagi o'zgartishlarni joylarda yaratilgan imtiyoz, preferensiyalarni va sharoitlarni targ'ibot-tashviqot tadbirlari orqali chet-el investorlariga yetkazilishi kelgusida qonun hujjatlarini yanada samarali ijro etilishiga xizmat qilishi tabiiy. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ular faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilayotganligi mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandlik darajasini yanada oshirishning muhim omili sifatida jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish, xorijiy investisiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharait yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rossiyalik iqtisodchilardan A.Kuznetsov¹¹⁴ hamda S.A.Ribakov va N.A.Orlovalar¹¹⁵ ning keltirishicha, Erkin iqtisodiy zona – bu xorijiy tovarlar hech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo'lgan hudud. O'zbekistonlik A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov¹¹⁶ va Rossiyalik T.P.Danko, Z.M.Okirut¹¹⁷, N.V.Igoshin¹¹⁸ kabi mualliflar bir ovozdan, - “Erkin iqtisodiy zona - bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud”- degan xulosaga kelishgan. Janubiy Koreyalik olim Kimning izlanishlariga ko'ra, “Erkin iqtisodiy zonalar – bu xorijiy davlatlar, korxonalar va firmalar uchun maxsus tashkil etilgan hududlar bo'lib, bu yerda ularning korxonalari va ishchi xodimlari hukumat tomonidan berilgan imtiyozlar tufayli o'z navbatida mavjud qonun-qoidalarga bo'ysungan holda daromad olishi mumkin bo'lgan zonalardir. Davlat erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan maqsad bunday zonalarda boshqa yerlarga qaraganda ko'proq iqtisodiy shaffof muhit mavjudligi va bu orqali investisiya oqimini va raqobatbardosh sanoat hamda savdo-sotiq xususiyatlarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi”¹¹⁹ .

¹¹⁴ Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика // Мировая экономика и международные отношения. - 1990. - N 12. - С. 24;

¹¹⁵ Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. – М.: Вершина, 2006. – С. 12.

¹¹⁶ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – B. 180;

¹¹⁷ Данко Т.П., Окрут З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. – М.: ИНФРА-М, 1998. – С. 27

¹¹⁸ Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование. Учебник для вузов. – М.: Финансы, ЮНИТИ, 2000. – С. 45.

¹¹⁹ Kim Young Rae. (2009). The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 8-75.

V.Papovning tadqiqotlariga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy zonalar shunday hududlarki, bu boshqa hududlardan alohida ajratilgan davlat tomonidan maxsus imtiyozlar va qulayliklar berilgan, lekin bu afzalliklar davlatning biror boshqa yerida yoki iqtisodiy tarmog‘ida kuzatilmaydi”¹²⁰, deb ta’rif beradi. Mamlakatimiz olimlaridan A.V.Vaxobov, S.S.Mirzalieva, M.A.Raimjonova va A.A.Ostonakulovlar tomonidan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarida erkin iqtisodiy zonalar va ular faoliyatiga oid o‘z ilmiy qarashlarini bayon qilishgan. A.V.Vaxobov tomonidan “Erkin iqtisodiy zonalar - shunday geografik hududki, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi” deb, ta’rif berilgan¹²¹. S.S.Mirzalieva tomonidan “Erkin iqtisodiy zona - mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma’muriy boshqaruvga va xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning imtiyozli rejimiga ega bo‘lgan qismidir” deb, ta’rif berilgan¹²². Ushbu ta’rifda fikrimizcha, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida jalb etiladigan investitsiyalar va ular hajmidan kelib chiqib imtiyozlarning belgilanishi nazardan chetda qolgan. M.A.Raimjonova tomonidan “Mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma’muriy boshqaruvga ega bo‘lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishlar beriladigan hudud - erkin iqtisodiy hudud”, deb ta’rif keltirilgan¹²³. A.A.Ostonakulov tomonidan “Erkin iqtisodiy zona - hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularga investitsiyalarni jalb etish maqsadida alohida imtiyozlar belgilangan, shuningdek, ulardan iqtisodiyotni modernizasiya va diversifikasiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir”¹²⁴ -degan fikr

¹²⁰ Papava Vladimer. (2007). The Immortal idea of a free economic zone, Georgian Foundation for Strategic and International Studies, 1-16.

¹²¹ Vaxobov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Moliya., 2010. 360 b.-180b

¹²² Mirzalieva S.S. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi. Diss. avtoref. ... i.f.n. Toshkent. 2001. -8b

¹²³ Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. “Extremum-press” nashriyoti, 2013 y. 76 b.-11b

¹²⁴ Ostonokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. Diss.. i.f.n. Toshkent. 2017. -151b-18b

ilgari surilgan. Xususan: H.R.Hamroevning “Zonal siyosat” nomli monografiyasida erkin iqtisodiy hududlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi, faoliyati va jahon tajribasi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin¹²⁵. Bundan tashqari, Ye.Avtokushin o‘zining risolalarida “erkin zonalar investisiya o‘chog‘i” –deb, ta’rif keltirib o‘tadi¹²⁶. Iqtisodiy lug‘atlarda erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) xorijiy investisiyalarning kirib kelishini rag‘batlantirishiga urg‘u berilgan. U yerda yozilishicha: “Erkin iqtisodiy hudud: xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyatni rag‘batlantiruvchi, imtiyozli valyuta-moliyaviy va qulayroq soliq rejimlariga ega bo‘lgan hududdir”¹²⁷.

Hozirgi globallashgan davrda har bir davlat o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘yishi aniq, lekin bu maqsadlar investisiyalarsiz tashkil etilishi qiyindir. Shu investisiyalarning majoziy ma’noda o‘chog‘i hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 150 dan ortiq davlatida tashkil etilgan erkin zonalar mamlakatlar taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelmoqda. O‘zbekistonda ham qariyb, 10 yillik tajriba mavjud. Bu jarayon albatta O‘zbekiston uchun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o‘rganishni talab qiladi. Hamma davlatlarda ham erkin iqtisodiy zonalar yaratish ishlari ilmiy asosda, puxta o‘ylangan erkin iqtisodiy zonalar siyosati orqali tashkil etilgan, deb bo‘lmaydi:

birinchidan, erkin iqtisodiy zonalar siyosati borasida o‘ziga xos o‘rni bor va ikkinchidan, tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash uchun ahamiyati muhimroq davlatlardan biri bu-Yaponiyadir. Bu davlat erkin iqtisodiy zonalar siyosati masalasida o‘ziga xos tomonlarga ega bo‘lib, u quyidagi mezonlar tizimiga tayanadi:

-mintaqalarning cheklangan yer resurslaridan iloji boricha samarali foydalanish;

-tabiiy resurslarning nisbatan kambag‘alligini hisobga olish;

-mahalliy va markaziy ma’muriyat manfaatlarini moslashtirish;

-yirik shaharlarda aholining va sanoat ishlab chiqarishning haddan tashqari konsentratsiyalashuvini kuchsizlantirish.

Mamlakat milliy masshtabda mintaqalarni rivojlantirishni rejalashtirishning o‘ziga xos usullariga ega. Davlat tomonidan rejalashtirish o‘z ichiga rivojlanish rejasining umumiy hamda alohida

125 Hamroev H.R. Zonal siyosat: Monografiya.- Toshkent: Fan,- 2008.

126 Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. М. 1993.С124. 4

127 Краткий внешнеэкономический словарь-справочник. Под редакцией В.И.Рыбалкин. – М.: «Международные отношения», 1991. – С.82

vazirliklarning qo‘shma tadbirkorlikni turli usullari bo‘lgan zonalarni rivojlantirish rejalarini oladi. Yaponiyada erkin import zonalari nomini olgan erkin iqtisodiy zonalar keng tarqalgan. Bunday zona “importni rivojlantirish va investisiyalarni jalb qilish hisobida rivojlanish maqsadida qonunchilikda alohida choralarni o‘z ichiga oladi. Ular dengiz va havo portlarida tashkil etiladi, bu zonalarni tuzishdan maqsad: portlarda mintaqa miqyosida tovarlarning yig‘ilishi oqibatida yapon iqtisodiyotining butun sohalaridagi muomala xarajatlarini optimallashtirishdan iboratdir;

- xorijiy investisiyalarning o‘sib ketayotgan sharoitda mamlakatda sanoat bazalarini “yuvilib ketish” jarayonini sekinlashtirishdan iborat;
- qo‘shni Osiyo mamlakatlari bilan mehnat taqsimotini kengayishiga ko‘maklashishdan iborat;
- tartibga solishning yangi usullarini sinashning o‘ziga xos “poligonlarini” yaratishdan iborat.

Yaponiyada quyidagi tur erkin savdo zonalari tuzish taklif etilgan:

- importga ko‘maklashuvchi erkin iqtisodiy zonalari: eksportga mo‘ljallangan o‘shish davriga oid tartiblarni ko‘rib chiqish va o‘zgartirish (10 mingga yaqin qarorlarni ko‘rib chiqish zarur). Bu zonalar Xitoy maxsus zonalari va Tayvanning - eksport qayta ishlash zonalariga nisbatan o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi munosabatda bo‘lishi zarur.

- resursni tejovchi erkin iqtisodiy zonalari. Ularda jahon bozorlarida konyunktura qulay bo‘lgan davrda sotib olinadigan xomashyoning yirik zaxiralaridan bojsiz saqlash ko‘zda tutilgan. Xomashyoni yapon iste’molchilari ham, zonada ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xorijiy firmalar ham ishlatishlari mumkin; - egizak zonalar, ya’ni Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalaridagi mehnat ko‘p talab qiladigan ishlab chiqarishlarni to‘ldiruvchi zonalar. Bu zonalarga egizak zonalardagi xomashyo va detallarga asoslanuvchi kapital ko‘p talab qilinadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan:

- Okean oldi mamlakatlaridagi firmalar uchun “eng qulay” tartibli erkin iqtisodiy zonalari. Ulardagi korxonalar, hatto yapon texnologiyasini qo‘llasalar ham soliq imtiyozlarga ega bo‘ladilar;

- xalqaro savdo bilan aloqador masalalar bo‘yicha ma’lumot-maslahat beruvchi maxsus tashkilotlar tuziladigan erkin iqtisodiy zonalari;

- iqtisodiy taraqqiyoti darajasi past bo‘lgan mamlakatlarga ko‘maklashuvchi erkin iqtisodiy zonalar. Ularda rivojlanayotgan mamlakatlar tovarlarining sifat darajasini ko‘tarish Yaponiyada mavjud

marketing to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish, sifatini boshqarishning yapon tizimini joriy etishga ko'maklashish ishlari olib boriladi. Erkin import zonalari bilan bir qatorda ilmiy - texnik tipidagi tadbirkorlikni rivojlantirishga mo'ljallangan erkin iqtisodiy zonalar ham mavjud. Ular AQShning texnoparklariga o'xshab ketadi, ammo ancha farq qiladi. Texnopolis deganda, shahar va uning atrofi yaxlit bir hudud sifatida qaralib, unda yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari, ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari (texnopolis uchun ilmiy va injener kadrlarni tayyorlovchi), hozirgi zamon ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma joylashtiriladi. Bu tuzilmalarning eng muhim farq qiluvchi xususiyatlaridan biri, chekka tumanlar iqtisodiyotini ko'tarishning bosh richagi sifatida ilm ko'p talab qilishi va qo'shilgan qiymat hissasining-yuqoriligi bilan ajralib turuvchi ilg'or, o'zlashtirish bosqichida yoki rivojlanish bosqichida bo'lgan tarmoqlar texnologiyalar tanlab olingan. "Texnopolis" dasturi quyidagi maqsadlarga ega:

- sanoatni markazdan chekka o'lkalarga qayta taqsimlash,
- mahalliy universitetlardagi ilmiy xodimlarning faoliyatini aktivlashtirish hisobidan ilmiy ishlanmalarni intensivlashtirish; -

sanoatni ilm ko'p talab qiladigan va energiyani tejoyvchi texnologiyalarga qayta mo'ljallashtirish. "Texnopolis" dasturini Yaponiyaning tashqi savdo va sanoat vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dastur bo'yicha mamlakatning iqtisodiy jihatdan qoloq prefekturalarida 20 ga yaqin texnopolis nomini olgan ilmiy - texnik zonalar yaratish ko'zda tutilgan edi. "Texnopolislar sstrategiyasi" - Yaponiyani umummilliy krizisdan olib chiqish va dunyoning buyuk davlatlar qatoriga olib chiqishga yordam bergan ishlardan biridir. Odatda texnopolis deganda, iqtisodiyotda yangi texnologiya tadqiqot markazlari va shu texnologiyadan foydalanuvchi korxonalar asosiy rol uynaydigan shahar tushuniladi. Lekin, bu ta'rif asosiy mazmunni ifodalamaydi: yangi texnologiya odamlar orasida, odamlar va tabiat orasida qandaydir munosabat yaratishda qurol bo'lib hisoblanadi. Birinchi texnopolislar yaratilishi AQShda boshlandi, ammo faqatgina yaponlar texnopolislarni davlat darajasida shakllangan siyosatga aylantirdilar. Fikrimizcha, bu yapon hukumati olib borgan erkin iqtisodiy zonalar siyosatining kuchliligidandir. XX asrning 70-yillarida Yaponiya asosida yapon millatining saqlash va rivojlantirish maqsadi yotgan, insoniyat erishgan ilmiy na madaniy potensialni ongli ravishda foydalanish jarayonini davlat tomonidan tashkil etishning strategiyasi ishlab chiqildi. Bu strategiya "texnopolislar strategiyasi", ya'ni

odamlarning yangi yashash sharoitlarini hokimiyat, biznes va ilm bilan birgalikda ishlab chiqarish nomini oldi. Qo‘yilgan maqsad quyidagi 3 yo‘nalishda amalga oshirildi:

- mahalliy resurslarni ishlatish asosida mahalliy hayotni faollashtirish;

- zamonaviy texnologiyani jalb qilish va texnopolisni shakllantirish asosida mahalliy hayotni faollashtirish;

- aholi bilan ish olib borish (“sifatli resurslarni tarbiyalash” ma’noda).

Yapon iqtisodiyotini rivojlantirishga monopolislar ham xizmat qilmoqda. Ularning yordamida Yaponiya texnologik yangiliklarni import qilishdan o‘zining milliy ishlab chiqarish texnologiyalarni ishlashini amalga oshira oldi. Xulosa qilib aytganda, texnopolislar yapon iqtisodiyotini o‘zgarib ketishiga olib keldi. Agar Yaponiya yigirmanchi asrning 70 - 80 yillarida dunyoning texnologiyalar importyori bo‘lgan bo‘lsa, 90-yillarda esa eksportyoriga aylandi. Bunda texnopolislarning roli juda beqiyosdir.

Janubiy Koreya. Koreya uzoq vaqt mobaynida o‘z mamlakatiga xorijiy investisiyalarni deyarli jalb qilmasdan kelgan. Mamlakat hududida xorijiy qo‘shma korxonalar bo‘lmagan. Faqat 1960 yil “Xorijiy investisiyalarni jalb qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingach sharoit o‘zgardi. Bu investorlarga qator imtiyozlar bergandi. Ammo bu qonun o‘z imtiyozlarini 10 yildan keyin bera boshladi. 1970 yilda Janubiy Koreyada birinchi erkin iqtisodiy zona tashkil etildi, bu xorijiy kapital oqimini jadallashtirib yubordi. Asosiy maqsad, mamlakat iqtisodiyotida faqat eksport uchun ishlaydigan korxonalar sonini ko‘paytirish, mamlakatning agrar rivojlanishda, mehnat ko‘p talab qiladigan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga erishish edi. Koreyadan o‘rganadigan muhim jihatlardan biri, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar eksport-import faoliyat uchun litsenziya talab etilmasligidir. Xorijiy investisiyalar o‘zi bilan birga zamonaviy menejment va biznes axloqini olib kirishdi desak, hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Janubiy Koreyadagi xorijiy kapital jalb qilishni rag‘batlantirish jarayoni 2 bosqichni bosib o‘tdi.

I bosqich (1962-1984 yillar). Barcha xorijiy investorlar quyidagi imtiyozlarga ega edi:

- soliq imtiyozlari (daromad solig‘i, korporativ soliq, mulk solig‘i 50% kamaytirilgan);

- bojxona to‘lovlaridan ozod qilish;

- import qilinadigan uskunarlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi.

II bosqich (1984 yildan hozirgi kungacha). Faqat yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi soliq solish tizimi kiritilgan. Unga, quyidagi imtiyozlar kiritilgan:

- daromad solig'i. Kapitali 100 % xorijiy bo'lgan qo'shma korxonalar ishlovchi xorijiy fuqarolar bu soliqni to'lashdan ozod qilinadi;

- korporativ soliq. Kapitali 100 % xorijiy bo'lgan korxonalar korporativ soliqdan ozod qilinadi;

- birinchi besh yil soliq to'lashdan ozod qilinadi, keyingi 3 yil soliqqa 50 % li imtiyoz beriladi;

- xorijiy investorlarga dividendlarini xorijga ko'chirishda huquqiy himoya qilingan hamda hech qanday to'siqning yo'qligidir.

Janubiy Koreyada bir qancha erkin iqtisodiy zonalar qishloq xo'jaligi va olis tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishga qaratilgan. Ushbu tumanlarda aholi boshqa tumanlarga nisbatan juda zich joylashganligi hamda ularni ish bilan ta'minlashga erishilgan va mehnat ko'p talab qiladigan tarmoqlar ixtisoslashtirilgan. Janubiy Koreyadagi erkin iqtisodiy zonalar o'rganishdagi muhim xulosalardan biri shuki, fan milliy korporatsiyalarining investitsiyalarini mamlakatga jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar kuchli qurol ekanligini yaqqol isbot qilib berdi.

Xitoy. Xitoydagi erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy islohotlarning jadal sur'atlar bilan borishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda erkin iqtisodiy zonalarining hissasi 20 % ni tashkil etadi. Xitoy Osiyoning mamlakatlari ichida birinchi bo'lib erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qaror qabul qildi. Xitoy olimlari erkin iqtisodiy zonalar yaratishdan oldin AQSh, Yaponiya, Gongkong, Singapur, Tayvanlarni tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqishganligi ular yuritgan erkin iqtisodiy zonalar siyosatida ham o'z aksini topgan.

Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar yaratishdan quyidagi maqsadlar ko'zlangan:

1. Xorijiy kapitalni jalb qilish.

2. Rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or texnologiyani va menejment tajribasini qabul qilish.

3. Samarador ish joylarini yaratish yo'li bilan nafaqat aholi bandligi darajasini ko'tarish, balki aholining turmush darajasini oshirish, mamlakat ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishga erishish.

4. Eksportni ko'paytirish yo'li bilan valyuta tushumlarini oshirish.

5. Chet-el kapitalidan eng unumli tarzda foydalanish.

6. Xalqaro iqtisodiy va texnologik hamkorlik darajasini oshirish iqtisodiy va texnologik axborotni yig'ish, xorijiy mamlakatlar hamkorlik va tashqi savdo sohasida band bo'ladigan kadrlarni tayyorlash.

7. Ijtimoiylashgan keng masshtabda ishlab chiqarishni boshqarishdagi xorij tajribasini o'rganish.

8. Zamonaviy sanoat korxonalarini yaratish.

9. Yangi tur mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro ko'lamda raqobatbardoshligini ta'minlash.

10. Ichki sanoatga e'tibor bergan holda, asosiy e'tiborni tashqariga yo'naltirilgan iqtisodiyotni qurish, sanoat, savdo va qishloq xo'jaligi integratsiyasi, chorvachilik, baliqchilik va turizmni bir vaqtda rivojlantirish.

11. Maxsus iqtisodiy zonalarda aholi jon boshiga daromad miqdorini jadal oshirish.

Xitoy tajribasida zona uchun joy tanlashda quyidagilar asosiy hisoblangan:

- tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqishini ta'minlay oladigan yirik port bo'lishi kerak (yoki bunday port qurilishi kerak);

- jahonning yirik moliyaviy iqtisodiy markazlariga qulay joylashgan bo'lishi kerak (birinchi navbatda Gonkong, Singapur va Yaponiya shaharlariga);

- aholi zichligi unchalik yuqori bo'lmagan, nisbatan erkin, bo'sh maydonlarga ega bo'lgan joylarda joylashishi kerak (yangi sanoat ob'yektlarini qurish va yangi ishlovchilarni joylaylashtirishga imkon bo'lishi uchun).

Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy investorlarni jalb qilgan asosiy omil bu nafaqat erkin iqtisodiy zonalarda, balki mamlakat miqyosida infratuzilmaning yuqori darajada tashkil etilganligidir.

Infratuzilma bu - shunday omilki, u davlatdan zonalarni yaratish bo'yicha asosiy qo'yilmalarni talab qiladi va o'z navbatida, ular faoliyat yuritishining makroiqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Bunda Xitoyliklar infratuzilmaning shakllanishi "oltita qo'yilish, tekislash" shiori ostida ketmoqda. Yo'llarni, suv, gaz quvurlarini, kommunikatsiyani, issiqlik, elektr uzatish liniyalarini qo'yish va shuningdek yer uchastkalarini tekislash. Bundan yaxshi ko'rinadiki, qurilish deyarli noldan boshlangan. Xitoy erkin iqtisodiy zonalaridagi imtiyozlar tizimi quyidagilardan iborat:

- kamida 5 yil muddatda o‘z foydasini Xitoyga qayta investisiyaga aylantirgan xorijiy investorlarga reinvestisiya qilingan ulushga mos ravishda to‘langan daromad solig‘ining 40% qaytarib beriladi;

- past rentabelli yoki iqtisodiy chekka va qoloq tumanlariga o‘z kapitalini kiritgan tadbirkorlar 11 yildan boshlab, (10 yil imtiyoz davridan keyin) daromad solig‘ini 15-30 foizi mukofot tarzida chegiriladi;

- 5 mln. AQSh dollaridan ortiq investisiya kiritgan yoki zamonaviy texnologiyani taqdim etgan yoxud aylanma kapitali sekin aylanadigan korxonalar solig‘idan qisman yoki to‘liqligicha ozod qilinishi mumkin;

- bojxona zonalariga bojxona - sanoat solig‘i hamda bojxona to‘lovlarini to‘lamasdan, xohlagan mahsulotni kiritish mumkin. Bu tovarlarni ichki bozorda olib kiritilayotganda esa soliq va to‘lovlar to‘liq holda olinadi¹²⁸.

Xitoy tajribasidagi yana bir jihat, bu erkin iqtisodiy zonalardagi mahalliy hukumatlarning qo‘shma korxonalar uchun mahalliy byudjetga aloqador bo‘lgan soliqlar bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar berishi bo‘ldi. Masalan, subsidiyalar past narxlar tizimi orqali kommunal xizmati uchun, uchastkalardan va ishlab chiqarish xonalaridan foydalanish uchun ijara to‘lovini arzonlashtirishga, shuningdek, byudjet dotatsiyalari va davlat kreditlari beriladi. Ma‘muriy imtiyozlar investorlarni infratuzilma vositalarini ta‘minlashga, qayd qilish va bojxona muolajalarini soddalashtirishga tegishli, shuningdek biznesga ko‘maklashayotgan turli xil xizmatlarni ko‘rsatishga tegishlidir. Xitoy tajribasidan xulosa qiladigan bo‘lsak, erkin iqtisodiy zonalarni yaratishda va rivojlantirishda ular quyidagilarga asosiy e‘tibor qaratganlar:

1. Puxta o‘ylangan huquqiy – me‘yoriy normativ baza yaratilganligi;

2. Iqtisodiy, moliyaviy va boshqa imtiyozlarning turi va darajasi mahalliy sharoit, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda puxta ravishda tabaqalashtirilgan.

3. Zonalarda moslashuvchan investisiya siyosati amalga oshirilganligi.

4. Ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot bazasi va savdo-sotiq tizimini qayta ishlash sanoatini kompleks rivojlantirishga qaratilganligi.

¹²⁸ Александрова Е. Специальные экономические зоны в мировом хозяйстве. // Внешнеэкономическая деятельность. 1997. № 10.-С.15-18

5. Katta miqdorda nisbatan arzon bo'lgan ishchi kuchining mavjudligi.

6. Eksport uchun real va shaffof ishlash imkoniyatining yaratilishi.

7. Xitoy sug'urta kompaniyalari xorijiy investorlarni sug'urtalashni o'z bo'yniga olganligi.

8. Erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishini davlat tomonidan keng tarzda qo'llab-quvvatlash ammalga oshirilganida, deb bilamiz.

Bu tajribani O'zbekistonda ishlab chiqish va erkin iqtisodiy zonalarini yaratishda o'rganish lozim.

Erkin iqtisodiy zonalar masalasida juda katta ishlar olib borayotgan va katta yutuqlarga erishgan davlat bu - Amerika Qo'shma Shtatlaridir. Hozirgi kunda, AQShda faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2000 tadan ortiqni tashkil etadi. Ularning ko'pchiligini tadbirkorlik, tashqi savdo va texnik - tadqiqot zonalarini tashkil etadi. AQShning tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, erkin iqtisodiy zonalarining shakllaridan biri bo'lgan texnik-tadqiqot zonalar yoki texnopolislar yaratish va rivojlantirish borasida yuqori tajribaga ega. AQSh texnopolislarini yaratish dasturida asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- kadrlar bilan yordam berish;

-qurilish maydonlari va inshootlarini tayyorlash uchun litsenziya va subsidiya berish shaklidagi tijorat yordami;

- moliyaviy yordam (xodimlarni texnik jihatdan tayyorlash uchun ssuda, subsidiya va qarzlarni berish, ilmiy tadqiqot ishlari uchun soliq imtiyozlarini berish)¹²⁹.

AQShning tadbirkorlik zonalarini faoliyati tajribasining umumiy xulosasi shundan iboratki, tashkil etiladigan zona unchalik ko'p bo'lmagan tuzilmani o'z ichiga olishi, sohaga nisbatan rag'bat, imtiyozlar tizimiga boy bo'lishi lozim. Tashqi savdo zonalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, bu zonalarda eksport mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan ancha tezroq o'sadi. Ular bevosita yoki bilvosita aholining bandlik darajasini oshiradi, iqtisodiyotga nafaqat lokal darajada, balki butun milliy iqtisodiyot darajasida ijobiy ta'sir etadi, deb qaralgan. Ularda asosiy e'tiborni xalqaro marketingni rivojlantirishga, xalqaro savdo markazlarini yaratishga qaratilgan. Tashqi savdo zonalarining ikki turi mavjud: umumiy zonalar (general purposi, GR) va

¹²⁹ Шеховцев А., Шестакова М., Громов А. Свободные экономические зоны: мировой опыт и перспективы в России. // Вопросы экономики. - 2000. № 10 С.104-117

maxsus kichik zonalar (spesial purposi, SR). Eng muhim jihat zonalarda tovarlar 4 turga ajratiladi va ularning har biriga alohida bojxona tartibi tuzilgan:

- imtiyozli xorijiy tovar maqomi;
- imtiyozi bo‘lmagan xorijiy tovar maqomi;
- ichki tovar maqomi;
- zona miqyosidagi tovar maqomi.

Rossiyada erkin iqtisodiy zonalar Xitoy tajribasidan foydalangan holda tashkil etilgan. Rossiya investisiyalar oqimini o‘ziga jalb qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni hisoblaydi:

- yirik ichki bozor;
- arzon xomashyo va energiya resurslari;
- malakali va nisbatan arzon ishchi kuchi hamda foydalanilmayotgan ilmiy potensial;
- olim va yuqori malakali mutaxassis kadrlarning nisbatan arzonligi;
- harbiy-sanoat kompleksining qudrati va zamonaviy potentsiali¹³⁰.

Rossiya hukumatining erkin iqtisodiy zonalar siyosatini tahlil qilsak, erkin iqtisodiy zonalar yaratishning birinchi bosqichida markaziy hukumatda erkin iqtisodiy zonalar siyosati yaxshi yuritilmagan. Natijada ular «quyidan», mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan, katta-katta maydonlarni erkin iqtisodiy zonalar, deb e‘lon qilishdan boshlandi. Ammo, 1994 yildan erkin iqtisodiy zonalar siyosati shakllana boshladi. Buning xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lganligini izlanishlarimiz orqali ko‘rib o‘tdik. Masalan:

- yirik maydonda zona yaratishga qat’iy to‘siq qo‘yilganligi;
- yaratilajak zona maydonini iloji boricha davlat tomonidan qisqartirishga harakat qilinganligi;
- mahalliy sharoit xususiyatlarini chuqur o‘rganmasdan, xorijdagi erkin iqtisodiy zonalarining sodda shakllarini kiritish boshlangani;
- zonani boshqarish byurokratik tamoyillar bo‘yicha olib borishga katta e‘tibor qaratilganligini anglash mumkin.

Ammo, Rossiya texnik tadqiqot zonalarini yaratishda o‘ziga xos tajribaga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ular harbiy vazifalarni bajarish uchun “yopiq” va “yarim yopiq” deb nomlangan ilmiy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlar paydo bo‘ldi. Ularni naukograd deb nomlashadi. Naukograd (ilm shaharchasi) aholi yashaydigan joy sifatida Rossiyada yirik ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlab

¹³⁰ Яковец Ю.В. Свободные экономические зоны и совместное предпринимательство в области культуры и туризма. М.- 1991

chiqarish komplekslarida mamlakatning oliy hukumat organi qarori asosida ilmiy-texnik yo‘nalishning davlat ahamiyatidagi muhim vazifalarni hal qilish uchun barpo etilgan. Ular odatda bir yirik zavod yoki ilmiy - tekshirish instituti atrofida barpo etildi. Ular fanni oldinga surishda katta xizmat qildi. Hozirgi paytda Rossiyada naukogradlar soni 70 ga yaqindir. Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, Rossiya tajribasidan texnik tadqiqot zonalari amaliyotini o‘rgansak maqsadga muvofiqdir. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etayotgan yoki yaratayotgan ko‘plab mamlakatlar quyidagilarga erishganlar:

- birinchidan, iqtisodiy jihatdan qoloq mintaqalarni rivojlantirish;
- ikkinchidan, texnologiyalarni modernizatsiyalash;
- uchinchidan, yangi nou-xaularni, texnologiyalarni mamlakatga o‘zlashtirish;
- to‘rtinchidan, o‘z mutaxassislarini va ishchilarini mehnatning, boshqaruvning va sotishning yangicha usullariga o‘qitish va o‘rgatish;
- beshinchidan, eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun o‘z xomashyo resurslaridan oqilona va yuqori samaradorlikda foydalanish.¹³¹

Xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida ayrim davlatlar soliqlar, boj to‘lovlari va ma‘muriy boshqaruvda maxsus imtiyozlar taqdim etsa, boshqa davlatlar esa erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etmoqda. “Hozirgi kunda jahonda 3500 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, erkin iqtisodiy zonalarda dunyo yalpi mahsulotining deyarli 500 mlrd AQSh dollaridan ortiq qismi yaratilib, ularda 60 milliondan ortiq kishi faoliyat olib bormoqda”¹³². Xususan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan Xitoyda 116 ta, Janubiy Koreyada 61 ta erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilganligi erkin iqtisodiy zonalarning xalqaro miqyosda iqtisodiyotni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida “faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil

¹³¹ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2018 yil 5/2018 (№ 00037) www.iqtisodiyot.uz

¹³² www.WorldBank.org

etish”¹³³ muhim masalalardan biri sifatida belgilandi. 2018 yili yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarda raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb etish maqsadida 14 ta erkin iqtisodiy zona tashkil etilgan bo‘lib, shu kunga qadar “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon”, “Xazorasp” erkin iqtisodiy zonalarida 486 mln.AQSh dollariga teng 62 ta loyiha amalga oshirilib, 4,6 mingdan ortiq ish o‘rni yaratildi. Hududlarda joylashgan bo‘sh binolar yoki samarasiz ish yuritayotgan ishlab chiqarish binolaridan samarasiz ish yuritayotgan ishlab chiqarish binolaridan foydalanish samarali tashkil etilib, 535 mlrd so‘mga teng 1021 ta loyiha amalga oshirildi va 9,6 mingdan ziyod ish o‘rni yaratildi¹³⁴.

Erkin iqtisodiy zonalarning qanday hududlarga joylashtirilishi ham muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiyoti rivojlangan hududlarga tashkil etilishi samaradorlikning oshishiga va boshqa hududlarga siljishiga olib keladi, Urgut tumanini oladigan bo‘lsak, aholisi ko‘p, iqlimi, geografik joylashuvi juda mos keladi. Urgut sanoat zonasining maydoni qariyb 42 gektar bo‘lib, bu hududda 40 ta sanoat korxonasi, jumladan, 19 ta qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 1 ming 200 ga yaqin kishi mehnat qilmoqda. O‘tgan yili sanoat zonasida qiymati 157,5 milliard so‘mlik 20 turdan ziyod sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, eksport hajmi 10 million AQSh dollaridan oshdi. Xususan, bu yerda mahalliy xomashyodan gilam va gilam mahsulotlari, sintetik tola, elektr duxovkalar, gaz plitalari, bir marta ishlatiladigan plastik idishlar, polimer yelim va boshqa mahsulotlar tayyorlanmoqda. 2017 yilda tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha yana 78 ta loyihani amalga oshirish va 3 ming 400 ish o‘rni tashkil etish rejalashtirilayotgani ta’kidlandi.

Urgut tumanining resurs bazasidan samarali foydalanish, sanoat va eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, investisiya va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish maqsadida Urgut erkin industrial zonasi tashkil etilishida alohida ahamiyat kasb etdi.

¹³³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-sonli Farmoni.

¹³⁴ Ostokulov A.A. “Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish” mavzusidagi iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.2017 y.

Qo‘qon Erkin iqtisodiy zonasini oladigan bo‘lsak, aholisi zichligi, xonadonlarda ham nimadir ishlab chiqarishga layoqati kuchli xalq hisoblanganligi sababli ham bu mintaqaga to‘g‘ri keladi.

G‘ijduvonda erkin iqtisodiy zona tashkil qilinishining boisi tumanda ko‘pgina mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasi mavjud. Meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiriladi, ularni chuqur qayta ishlash, qadoqlash, saqlash kabi texnologik jarayonlarni joriy qilish, mahalliy xomashyo hisobidan qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish imkoniyatlari keng. Qolaversa, mahalliy va xorijiy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarini jalb etish uchun imkoniyatlar katta.

Ushbu sa’y-harakatlar bugun respublikamizda bir necha yillar oldin boshlangan iqtisodiy siyosatning naqadar puxta ishlab chiqilgani va oqilona ekanligini isbotlamoqdaki, buni nafaqat yurtimiz aholisi, balki dunyoning eng nufuzli xalqaro tashkilotlari, rivojlangan mamlakatlar rahbarlari, yetuk iqtisodchi-olimlar va yirik investorlar ham tan olmoqdalar.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz hududlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi natijasida ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholi bandligi ta‘minlanadi. Respublikamizning eksport salohiyati oshadi va valyuta tushumi ko‘payadi. Ushbu valyuta evaziga tadbirkorlarda xorijdan ilg‘or texnologiyalarni keltirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilishdan asosiy maqsad, hududlarda mineral-xom ashyo resurslari va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy korxonalar yaratish uchun xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etishga qulay sharoitlarni yuzaga keltirishdir. Mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning alohida o‘rni bor.

Bugungi kunda mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy zona (“Navoiy” EIZ, “Angren” EIZ, “Jizzax” EIZ, “Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ, “Namangan” EIZ, “Hazorasp” EIZ, “Termiz” SEZ, “Nukus-farm” EIZ, “Zomin-farm” EIZ, “Kosonsoy-farm” EIZ, “Sirdaryo-farm” EIZ, “Boysun-farm” EIZ, “Bo‘stonliq-farm” EIZ, “Parkent-farm” EIZ, “Andijon-farm” EIZ, “Chorvoq” ETZ, “Baliq ishlab chiqaruvchi” EIZ, “Sirdaryo” EIZ, “Buxoro-agro” EIZ,

“Chiroqchi” EIZ) va 348 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularda umumiy qiymati 2,6 milliard dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 36 mingga yaqin ish o‘rni yaratilgan. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so‘mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta‘minlangan.

Lekin mazkur zonalarda mahalliy va xorijiy investorlar o‘z faoliyatini to‘laqonli boshlashi uchun ayrim muammolar ham borki, bu yangi investorlar va tadbirkorlarni istiqbolli loyihalarni amalga oshirishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatyapti.

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan investisiya loyihalari muhokamasi yuzasidan joriy yil 27 aprel kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda bu masalaga alohida e‘tibor qaratilib, tadbirkorlarni qiynab kelayotgan muammo – infratuzilma masalalarini hal etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbarining “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori erkin iqtisodiy zonalar hududida investisiya loyihalarini o‘z vaqtida ishga tushirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarning yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Unga muvofiq, 2021-yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini infratuzilmasini yaxshilash uchun 1 trillion 600 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi. Endilikda 17 ta erkin iqtisodiy zonada qo‘shimcha elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari hamda avtomobil yo‘llarini barpo etish uchun 584 milliard so‘m, 145 ta kichik sanoat zonasi uchun 395 milliard so‘m yo‘naltirildi¹³⁵. Yirik investisiya loyihalarini infratuzilma bilan ta‘minlash maqsadida 232 milliard so‘m ko‘zda tutilgani, rivojlanishdan ortda qolgan 33 ta tumanda sanoat va biznesni jadal rivojlantirish uchun 264 milliard so‘m ajratilishi ayni muddao bo‘ldi. Bundan buyon biz deputatlar mazkur mablag‘larni ajratilishi va maqsadli ishlatilishi ustidan ta‘sirchan parlament va deputatlik nazoratini o‘rnatishimiz lozim bo‘ladi.

2021-yilda erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo‘lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,5 trillion so‘m bo‘lgan 1 ming 800 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgani ta‘kidlandi. Bu loyihalar esa yurtimizda sanoatni yanada rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab

¹³⁵ <https://xs.uz/uzkr/post/erkin-iqtisodiy-zonalar-taraqqiyot-tayanchi>

chiqarishda muhim omildir. Erkin iqtisodiy zona — bu yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish maqsadida tashkil etiladigan hududdir. Uni tuzishdan maqsad eng avvalo, mamlakatni yoki alohida olingan hududni strategik rivojlantirishga doir vazifalarini, ya’ni tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ilmiy-texnik masalalarni hal qilishdan iborat bo‘ladi.

Erkin iqtisodiy zonalar hududida imtiyoz va preferensiyalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.10.2016 yildagi PF-4853-son Farmoniga erkin iqtisodiy zonalar (keyingi o‘rinlarda – EIZ) ishtirokchi korxonalarini quyidagilardan¹³⁶:

- yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslar mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalaridan;

- bo‘shab qoladigan mablag‘larni yangi korxonalarini tashkil etish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish va texnik, texnologik qayta jihozlash, kengaytirish, ishlab chiqarish binolarini qurish, o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur xom ashyo va materiallar xarid qilishga maqsadli yo‘naltirgan holda o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan uskunalar, xom ashyo, materiallar hamda butlovchi buyumlarni, mahsulot eksport qilinganda vujudga keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘ining manfiy summasi qaytarilmasligi huquqi bilan bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig‘imlaridan tashqari);

- mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» DUKning tovarlar ro‘yxatini kompleks ekspertiza qilish natijalari bo‘yicha ijobiy xulosasi bo‘lgan taqdirda

¹³⁶ <https://invest.gov.uz/uz/investor/sez-i-mpz/>

chetdan keltiriladigan qurilish materiallarini bojxona to'lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig'implari bundan mustasno);

EIZda imtiyozlar kiritilgan investisiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investisiyalar — 3 yil muddatga;

3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha hajmdagi investisiyalar — 5 yil muddatga;

5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha hajmdagi investisiyalar — 7 yil muddatga;

10 million va undan ko'p AQSh dollari hajmidagi investisiyalar so'nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari qo'llangan holda — 10 yil muddatga beriladi.

EIZda ishtirok etayotgan korxonalar erkin iqtisodiy zonalar faoliyati davomida eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan xom ashyo, material va butlovchi buyumlar uchun bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari) ozod etiladi.

Davlat erkin iqtisodiy zonalarning qatnashchilarining muhnadislik-kommunikatsiya tarmoqlarga, ularni ishlab chiqarish maydonchalariga o'z vaqtida tutashtirgan holda, kafolatli ulanishini ta'minlaydi¹³⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrda "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5600-sonli Farmoniga ko'ra mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllantirildi, ma'muriy funksiyalarni nomarkazlashtirish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari (keyingi o'rinlarda — ma'muriy kengashlar) vakolatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini boshqarish mexanizmi soddalashtirildi.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatish amaliyotini o'rganish ularning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolar va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

¹³⁷ <https://invest.gov.uz/uz/investor/sez-i-mpz/>

Xususan, ma'muriy kengashlar va erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari faoliyatining yetarlicha samarali emasligi, shuningdek, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining sust rivojlanganligi investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda va erkin iqtisodiy zonalarining salohiyatli investorlar uchun jozibadorligini pasaytirmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirishda davlat boshqaruvi organlari funksiyalarining takrorlanishi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal qilishning kechikishiga olib kelmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada soddalashtirish, investitsiyalar jalb qilish uchun sharoitlarni yaxshilash, investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirishni ta'minlash, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida:

maxsus iqtisodiy zonalar hududidagi yer uchastkalari maxsus iqtisodiy zonalarining direksiyalariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi va ularning tasarrufida turadi, bundan maxsus sanoat zonalarining hududlari mustasno;

maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalarining qarorlari bilan ma'qullangan investitsiya buyurtmanomalarida belgilangan hajmlardagi yer uchastkalari maxsus iqtisodiy zonalarining direksiyalari tomonidan elektron onlayn-auksionga chiqariladi, bunda yer uchastkasini auksionga chiqarishni boshqa tashkilotlar bilan kelishish, shu jumladan "ERELEKTRON" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish talab etilmaydi¹³⁸;

investorlar tomonidan taklif etiladigan investitsiya buyurtmanomalarida yer uchastkasini elektron onlayn-auksionga chiqarishdagi boshlang'ich narx haqidagi hamda har yilgi ijara to'lovi miqdori haqidagi taklif ham nazarda tutilishi mumkin;

elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang'ich narxi hamda har yilgi ijara to'lovi miqdori investitsiya buyurtmanomalarini ko'rib chiqish vaqtida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari qarori bilan belgilanadi¹³⁹;

¹³⁸(1-банднинг учинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон)

¹³⁹ (1-банднинг бешинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон)

elektron onlayn-auksion g'olibi investitsiya buyurtmanomalarida belgilangan yer uchastkasini ijaraga olish va investitsiya bitimi tuzish huquqini qo'lga kiritadi, bunda yer uchastkasini ijaraga olish shartlari investitsiya bitimida nazarda tutiladi;

elektron onlayn-auksiondan tushgan pul mablag'lari (auksionni o'tkazish xarajatlari chegirib qolingan holda) hamda har yilgi ijara to'lovlari maxsus iqtisodiy zonalarning direksiyalariga o'tkaziladi, ushbu mablag'lar maxsus iqtisodiy zonalarning bosh rejalariga muvofiq tashqi va ichki muhandislik-kommunikatsiya hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini qurish va yaxshilash uchun sarflanadi¹⁴⁰;

maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan bojxona imtiyozlari qo'llangan holda import qilinadigan o'xshashi bo'lmagan texnologik uskunalar va respublikada ishlab chiqarilmaydigan qurilish materiallari bojxona rasmiylashtiruvi tovarlar ro'yxatini har tomonlama ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" (keyingi o'rinlarda — Markaz) DUKning ijobiy xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilangan¹⁴¹.

¹⁴⁰ (1-банд Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 7 октябрдаги ПФ-6320-сонли Фармониغا асосан учинчи — еттинчи хатбошилар билан тўлдирилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.10.2021 й., 06/21/6320/0940-сон) (1-банднинг учинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 15 майдаги ПФ-5719-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.05.2019 й., 06/19/5719/3136-сон); (1-банднинг саккизинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон); (1-банднинг тўққизинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон); (1-банднинг ўнинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон).

¹⁴¹ (1-банднинг ўн биринчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон)

Олдинги таҳрирга қаранг. Товарлар рўйхатини ҳар томонлама экспертизадан ўтказиш бўйича Марказнинг хулоса бериш муддати беш календарь кунидан ошмаслиги лозим; (1-банднинг ўн иккинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон); Олдинги таҳрирга қаранг. (1-банднинг ўн учинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон); Олдинги таҳрирга қаранг. (1-банднинг ўн тўртинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон); Олдинги таҳрирга қаранг. (1-банднинг ўн бешинчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 июндаги ПФ-153-сонли Фармониغا асосан чиқарилган — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.06.2022 й., 06/22/153/0518-сон)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi har chorakda direksiya rahbarlarining ma’qullangan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bo‘yicha hisobotlarini eshitadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini eng yaxshi jahon tajribasiga asoslangan holda takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritish vazifasi belgilangan:

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi DUKning tashkiliy-huquqiy shaklini aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirib, uning balansiga “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi hududidagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari ob‘yektlarini davlat ulushi sifatida, shuningdek, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasining barcha yer maydonlarini doimiy foydalanish huquqi asosida berish;

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi tomonidan erkin iqtisodiy zona ishtirokchilariga, shu jumladan marketing, konsalting, logistika, kommunal-maishiy, mehmonxona, ta’lim, sug‘urta va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish;

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi hududida soddalashtirilgan viza rejimi va xodimlarni, shu jumladan chet-el fuqarolarini ishga yollash tartibini joriy qilish;

erkin iqtisodiy zona qatnashchilari uchun litsenziya va ruxsatnoma olishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilish. Bunda “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasiga qatnashchini kuzatish va talabgorning malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlash vakolati beriladi;

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi ishtirokchisi loyihalarni joylashtirish shartlarini bajarmagan taqdirda u bilan tuzilgan shartnomani faqatgina sud tartibida bekor qilish tartibini o‘rnatish;

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi hududida chet-el fuqarolari uchun qulay yashash va mehnat sharoitlarini yaratish kabilardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5600-sonli Farmoni talablariga asosan:

- Erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihasini amalga oshirish bo‘yicha Ma’muriy kengashlar tomonidan qarorlar biznes-rejalar va texnik-iqtisodiy asoslarga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import

kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKning ijobiy xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi.

- Markazning amalga oshirilayotgan loyihalar biznes-rejalari yoki ularning texnik-iqtisodiy asosnomalari bo‘yicha xulosalar berish muddatlari yigirma kalendar kunidan oshmasligi belgilangan.

Qayd etish lozimki, erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilariga berilgan imtiyozlar faqat erkin iqtisodiy zonalar hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmonining Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash yo‘nalishida.

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashorqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgandavlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish, Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish, kelgusi besh yilda 120 milliardAQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish maqsad qilib olingan¹⁴².

Erkin iqtisodiy zonalarini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish va ularning faoliyati ko‘rsatish shartlarini o‘zgartirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida yagona integral mezondan foydalangan holda Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kompleks baxolash zarur. Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirishda EIZda faoliyat yurituvchi rezidentlarni asosiy faoliyati ko‘lamini oshirishni jadallashtirish muhim hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalarini boshqarishda zonada faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan ekologik toza ishlab chiqarishganligi uchun qo‘shimcha imtiyozlar berilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Mamlakatda EIZlarda tadbirkorlik faoliyatini yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun hududlar ajratishda EIZ boshqaruv organlarni faoliyatida shaffoflikni ta‘minlash mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda zarur omildan biri bo‘lib hisoblanadi¹⁴³.

¹⁴² Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли фармони

¹⁴³ <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/609/589>

Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish va bu boradagi huquqiy asoslar mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integratsiyalashuviga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarni rag‘batlantirishning o‘ziga xos va betakror mexanizmini joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash va nafaqat xorijiy investisiyalarnin balki, Iqtisodiyotning barcha jabhalarida tutgan o‘rnini yanada faollashtirish uchun esa quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish darkor:

- xorijiy investisiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy baza va qonunchilikni takomillashtirish;

- ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini barcha hududlarda tezlashtirish va kengaytirish;

- iqtisodiy tizim va undagi xususiy sektorni investorlar bilan aynan mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali yo‘sinda, ya‘ni yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish sohalarida to‘laqonli hamkorlik qila oladigan holga keltirish;

- Erkin iqtisodiy zonalarni yanada rivojlantirishning xorij tajribalarini o‘rganish;

- iqtisodiyotda mavjud ishchi kuchi va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish va ularning sifatini oshirish;

- bank-moliya tizimini isloh qilish va moliya bozorini rivojlantirish orqali kapital aylanishi tezlashuvini ta‘minlash;

- mamlakatda qulay ishbilarmonlik va investisiya muhitini shakllantirish, tadbirkorlik erkinligini ta‘minlash;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va eksportni rag‘batlantirish;

- Milliy iqtisodiyotning ijtimoiy, siyosiy, ekologik va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tarmoqlarni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash orqali uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ularni shakllantirishda ichki va xorijiy investorlarning investisiya loyihalari bo‘yicha takliflarini strategik ahamiyatiga qarab yig‘ish, tahlil qilish va tanlab olish lozim.

Xorijiy investisiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet-el investorlari ishtirokini kengaytirmay turib iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiya qilish, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarning jalb etilishi iqtisodiy

imkoniyatlarning kengayishini jadallashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va zaxiralarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish orqali baqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun hizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va shakllanishi to'g'risidagi ilmiy yondashuvlar, mintaqahohlikni ta'minlashda kichik biznesning tutgan o'rni, mintaqada yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari, chet-el investitsiyalari va erkin iqtisodiy zonalar mintaqalar iqtisodiyotida tutgan o'rni, hududiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati, mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari, strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari kabi masalalar ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda mintaqalarning rivojlanish darajasi, tarmoqlar tarkibi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi kabi xususiyatlari hisobga olinmoqda. Mana shuning uchun ham har bir mintaqani majmuali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va uni tartibga solish mexanizmining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish bevosita ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etishi bejiz emas.

Mahalliy darajada aholining tabiiy ko'payishini, migratsiya jarayonlarini, mehnat resurslarini bandlik sohalari bo'yicha taqsimlashni, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyatni boshqarishning, turli xizmatlar iste'molini, uy-joy qurish va aholini joylashtirishni, qurilish, sanoat bazasini rivojlantirishni, suv va elektr ta'minoti, turli kommunikatsiyalarni tartibga solishning ta'sirchan mexanizmini yaratish mumkin. Mintaqalarda barcha bo'g'inlar o'rtasida o'zaro aloqalar va bog'liqliklarning o'sishi, demografik va ijtimoiy rivojlanish, aholini joylashtirish va infratuzilma tizimini shakllantirish, atrof-muhitni tartibga solish zarurati boshqarishning ma'lum jihatlarini markazlashtirishni taqozo etadi.

Mamlakat darajasida hududiy boshqarishning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lmog'i kerak:

- hududlararo mehnat taqsimotini takomillashtirish orqali xalqaro mehnat taqsimotida samarali mavqeni egallash;

- mamlakatning muhim mintaqaviy nisbatlarini aniqlash, mamlakat ichida mahsulotlar va xizmatlar bilan o'zini o'zi maksimal ta'minlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, aholini

joylashtirishning respublika miqyosidagi oqilona tizimini shakllantirish, qulay demografik sharoit yaratish va mintaqalararo boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish, tarmoqlar ixtisoslashuvi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, mintaqalararo ahamiyatga ega bo'lgan tabiatdan foydalanish muammolarini hal etish yo'li bilan ularni majmual va mutanosib rivojlantirish va x.k;

- mintaqalarni boshqarish mexanizmlari va iqtisodiy usullarini ishlab chiqish.

Tayanch so'z va iboralar: mintaqqa, mintaqaviy iqtisodiyot, raqobat, raqobatbardoshlik, mehnat resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi, kichik biznes, tabiiy resurslar, sanoat sohasi, Erkin iqtisodiy zona, sanoat zonasi.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Raqobat nima?
2. Raqobatbardoshlikni oshiruvchi omillar nimalar?
3. Mehnat resurslari nima?
4. Aholi bandligi nima?
5. Erkin iqtisodiy zona nima?
6. Mamlakat darajasida hududiy boshqarishning vazifalari nimalardan iborat bo'lmog'i kerak?
7. Erkin iqtisodiy zonalarni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozim?
8. Erkin iqtisodiy zonalar hududida qanaqa imtiyoz va preferensiyalar qullaniladi?

XV BOB. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO‘PAYTIRISH YO‘LLAR

15.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi

15.2. Mintaqalarning eksport salohiyati

15.3. Mamlakatimiz eksport salohiyati va unda sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘rni

15.4. Mintaqalarda qo‘shma korxonalarini rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari.

15.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 77-II-sonli Qonunining 3-moddasida: “Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi” deb ta’rif berilgan.

Ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqliligi belgilangan.

Ushbu Qonun tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu Qonunning asosiy vazifalari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, uning iqtisodiy suvereniteti va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, milliy iqtisodiyot rivojini rag‘batlantirish, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
2. tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining tengligi;
3. savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

4. tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;

5. tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;

- valyuta bilan tartibga solish;

- soliq bilan tartibga solish;

- tarif va notarif tartibga solish;

- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo‘llash;

- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o‘rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish;

- eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilash;

- o‘z xossa hamda xususiyatlariga ko‘ra yalpi qirg‘in qurolini (yadroviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharlovchi qurol) hamda uni yetkazib berish vositalarini (raketalar va yalpi qirg‘in qurolini yetkazib berishga qodir boshqa texnika vositalarini), boshqa turdagi qurol-yarog‘ hamda harbiy texnikani yaratishda muhim hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan, eksport nazorati ob’yektlari ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan tovarlar, asbob-uskunalar, ilmiy-texnika axboroti, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga nisbatan eksport nazoratini o‘rnatish;

- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalarini belgilash;

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilikka muvofiq boshqacha usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tganidan buyon tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish

yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O‘zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o‘rnatgan. Toshkentda 35 mamlakatning o‘z elchixonasi ochilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston to‘la huquqli asosda eng obro‘li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo‘lib, barcha qit‘alardagi o‘nlab mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro‘yxatdan o‘tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O‘tgan yillar mobaynida respublika ko‘plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo‘shildi. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

- o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;
- teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- mafkuraviy qarashlardan qat‘y nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning 193 mamlakati bilan savdo aloqalarini olib bormoqda. Bunda tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Xitoy (18,1%), Rossiya Federatsiyasi (15,7%), Qozog‘iston (8,0%), Koreya Respublikasi (6,5%), Turkiya (6,0%), Germaniya (2,3%) va Qirg‘iziston (2,0%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda¹⁴⁴

2021- yil¹⁴⁵ yakunlariga ko‘ra O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2020- yilga nisbatan 5,8 mlrd. dollarga yoki 16%ga ko‘paydi va 42,1 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Eksport hajmi 10%ga ko‘payib, 16,611 mlrd. dollarga yetdi. Import hajmi esa 20,4%ga ko‘paydi va 25,461 mlrd. dollarni tashkil qildi.

¹⁴⁴ <https://strategy.uz/index.php?news=1305>

¹⁴⁵ <https://review.uz/oz/post/infografika-ozbekistonning-2021-yil-yanvar-fevral-oyi-uchun-tashqi-savdos>
Давлат статистика қўмитаси .

2021-yilda O‘zbekistondan eksportning asosiy qismini sanoat tovarlari (*umumiy eksportning 26,1%*), oltin (*24,7%*), xizmatlar (*15,3%*) va oziq-ovqat tovarlari (*8,3%*) ni tashkil etdi.

O‘tgan yil davomida O‘zbekistonga importning asosiy qismini mashinalar va asbob-uskunalar importi (*32,4%*, *2020 yilga qaraganda 5,2%ga kamroq*), sanoat tovarlari (*18,5%*), kimyoviy vositalar (*14,3%*), oziq-ovqat tovarlari (*9,9%*) va xizmatlar (*6,8%*) tashkil etdi.

O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari orasida Rossiya (*umumiy savdo aylanmasining 17,9%*), Xitoy (*17,7%*), Qozog‘iston (*9,3%*), Turkiya (*8,1%*) va Janubiy Koreya (*4,5%*) davlatlari qolmoqda.

O‘zbekistonning Rossiya bilan tovar ayirboshlash hajmi yil davomida *32,8%ga o‘shirib*, 7,517 mlrd. dollarni, Xitoy bilan – 7,44 mlrd. dollarga (*+15,5%*) yetdi.

O‘zbekiston Qozog‘iston Respublikaning yetakchi tashqi savdo hamkorlari uchligida qolmoqda – 3,9 mlrd.dollar (*+30%*).

O‘zbekiston Respublikasida eksport siyosatining mohiyati va vazifalari¹⁴⁶. O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi tizimiga faol jalb etilishi, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarning o‘rnatilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimini tubdan qayta ko‘rishni talab etadi. Bunday zarurat yuzaga kelgan quyidagi 2 muhim holat bilan bog‘liq edi. Birinchidan, O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lgach, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida mustaqil siyosat ishlab chiqish va uni amalga oshirishga javobgar bo‘lgan maxsus tashkilotlar tuzishni taqazo etdi. Ikkinchidan, Respublikada milliy iqtisodiyotni tubdan qayta qurish jarayoni boshlanishi tufayli tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning soni kengaydi, ularga tashqi iqtisodiy bitimlarni tuzishda kengroq huquqlar berildi. Bu sohadagi shartnomalarni, bitimlarni faqat davlat idoralari emas, balki mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan turli birlashmalar, tashkilotlar, korxonalar ham tuzishi mumkin bo‘ladi. Hozirgi kunda respublikada yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatining o‘rnini ta‘minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish.

¹⁴⁶ <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2189/1576>

2. Eksport faoliyatini tashkil etishning qonuniy asoslarini o'rgatish.

3. Mulkchilik ko'rinishidagi turli shakllaridan qat'iy nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish.

4. Milliy iqtisodiyotni muvaffaqiyatli islox etish uchun tashqi iqtisodiy omildan to'liq foydalanish.

Hozirgi kunga kelib, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

-Respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish strategiyasini aniqlaydi, uning normativ bazasini ishlab chiqadi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari harakatiga umumiy rahbarlikni va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi – yagona tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni, xalqaro aloqalarning barcha ishtirokchilari, ya'ni davlat, shirkat, paychilik, jamoat, xususiy tashkilotlar faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi;

-Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning davlat usullarini ishlab chiqadi va qo'llaydi (bojxona tariflari, eksport kvotalari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat va boshqalar);

-Vazirlikka taqdim etilgan ro'yxatga mos keluvchi mahsulotlar bo'yicha eksport-import operatsiyalari o'tkaziladi;

-Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'yektlari tomonidan tuziladigin tashqi iqtisodiy shartnoma va kelishuvlarni tekshirishni amalga oshiradi.

Innovatsiya, O'zagroimpeks, Interservis, O'ztashqitrans, O'zekspomarkaz –tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi yirik xo'jalik hisobidagi tashqi savdo va iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi. Ular shu tashkilotlar uchun belgilangan mahsulot va xizmat turlari bo'yicha tijorat-xo'jalik faoliyatini amalga oshiradilar. Tashqi iqtisodiy faoliyat banki yoki Respublika Milliy banki bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarga xizmat ko'rsatadi, shuningdek eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlar tuzadi; korxonalar, tashkilotlar, xususiy shaxslarning valyutadagi hisob-kitoblarini olib boradi; xorijiy valyuta sarmoyalarini jalb etadi, valyutadagi kredit zahiralarini yig'adi va valyutadagi kreditlarni amalga oshiradi; valyuta zaxiralarini yaratadi, saqlaydi va respublikaning valyuta manfaatlarini himoya qiladi.

O'zbekinvest davlat sug'urta kompaniyasi mamlakat va xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha tashkilot hisoblanadi. Davlat

Soliq qo‘mitasining Bosh bojxona boshqarmasi bojxona masalalari bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Eksport faoliyatini boshqarishda tarmoq tashkilotlari, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi idoralar, yirik korxonalar va tashkilotlar tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, xorijiy sheriklar bilan shartnoma va bitimlar tuzadi, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi taklif tayyorlaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda funksional tashkilotlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tashkilotlarga Davlat istiqbolini belgilash va statistika komiteti, Moliya vazirligi, Davlat soliq komiteti, Mehnat vazirligi kabilar kiradi. Bu tashkilotlarning har biri mas‘uliyat doirasiga kiruvchi masalalarni hal etadi va ularning natijasi uchun javobgardir. Respublika Moliya vazirligi Respublika valyuta zaxiralarini jamlash, taqsimlash va foydalanishga javobgar bo‘lib, bu jarayonlarni bajarish usullarini ishlab chiqadi va qo‘llaydi.

Respublika hukumati topshirig‘iga ko‘ra va tuzilgan bitimlar, shartnomalar asosida valyuta fondi hisobidan qanday mablag‘larni olish, o‘tkazish yoki qo‘yishni hal etadi. Valyuta boshqarmasi, shuningdek respublikaning to‘lov balansini ishlab chiqaradi. Unda uning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushadigan barcha daromadlar va harajatlar aks etadi. Respublika Soliq qo‘mitasi tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi soliq solish masalalarini tartibga soladi, bu masalalar bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning saqlanishi ustidan nazorat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ishtirokchilari mulkchilikning turli ko‘rinishlaridagi korxonalar va tashkilotlar bo‘lib qoladi. Shu jumladan, qo‘shma korxonalar ham tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisi bo‘lib, ular —Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi respublika qonuniga binoan sheriklar bilan eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlarni tuzishda ma‘lum huquqlarga egadir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsati bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarga ma‘lum tashkilotlarda o‘z valyuta hisoblari bo‘lishiga va bu mablag‘lardan foydalanishga ruxsat berilgan. Shu bilan birga barcha mamlakatlar, hattoki bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi keskin chegaralangan mamlakatlarda ham davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo‘liga ma‘lum to‘siqlar qo‘yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat mudofaa qobiliyatini

ta'minlash, ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni himoyalash va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo'lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o'rganish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta'minlovchi standartlarni o'rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o'z tashqi siyosatlarini yurgizadilar. Tashqi iqtisodiy siyosat – bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Respublikaning tashqi iqtisodiy siyosatida uning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini, raqobatbardoshligini oshirish alohida o'rin tutadi.

Mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o'z oldiga qo'ygan vazifalari mavjud bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosati shu vazifalarni bajarishga qaratilmog'i lozim. Ular orasida eng muhimlaridan biri eksportni rivojlantirish va uning tuzilishini yaxshilash hisoblanadi. Chunki, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish milliy ishlab chiqarishni texnik iqtisodiy jihatdan jahon darajasiga ko'taradi, uning tuzilishini takomillashtiradi, Respublika valyuta zaxiralarini ko'paytiradi.

Shuningdek, import tuzilishini takomillashtirish, ya'ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish uchun chet-el investitsiyalarini jalb etish, O'zbekistonning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o'rnatish ham eksport siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

15.2. Mintaqalarning eksport salohiyati

Jahon xo'jaligi birliklarining integratsiyalashuvi va unda globalashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi natijasida mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga bo'lgan e'tibori ortmoqda. Natijada tashqi savdo munosabatlari ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishining muhim bir omili hisoblanmoqda. Ushbu sharoitda eksport salohiyatini boshqarish masalalari turli darajalarda: korxonalar, mintaqalar va mamlakatlar miqyosida amalga

oshirilmoqda. Mikro darajada eksport salohiyatini oshirishdan asosiy masqad iqtisodiy daromad hajmini oshirish bo'lsa, mamlakatlar darajasida ushbu yo'nalishdagi tadbirlardan quyidagi natijalar kutiladi:

- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari tez fursatda barxam toptirish;
- jahon xo'jaligida mos ravishda ishtirok etish.

Salohiyat so'zining lug'aviy ma'nosi biror bir faoliyatni amalga oshirish, biror bir ishni bajara olish uchun zarur bo'lgan vositalar, moddiy va nomoddiy elementlar majmuasini anglatadi. Yana bir manbada salohiyat so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: "Oldinga qo'yilgan aniq maqsadga yetish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zahiralar yig'indisi – salohiyat deyiladi". Eksport salohiyati esa o'zakning yuqoridagi lug'aviy ma'nolaridan kelib chiqib, eksport qilish uchun zarur hisoblangan moddiy va nomoddiy vositalar yig'indisini anglatadi deb aytishimiz mumkin.

Eksport salohiyati mamlakat iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati bir qator sabablar bilan izohlanadi.

Birinchi, eksport yangi bozorlarni, yangi iste'molchilarni qamrab olish hisobidan talabning ortishiga sabab bo'ladi, ishlab chiqarishning kengayishi, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishiga olib keladi. Ikkinchi, eksport mahsulotlarini xorijiy valyutaga sotilishi evaziga milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qiymati ijobiy tomonga o'zgaradi.

Uchinchi, qator mahsulotlarga jahon bozoridagi narx yuqori bo'lib, daromadlar hajmining ortishi yangi soha va ishlab chiqarish kuchlariga investitsiya qilish uchun fond tashkil etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, jahon bozoriga ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi sifatida kirib borish sifat ko'rsatkichlariga yuqori talablar qo'yadi, va modernizatsiyalash, rivojlantirishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi, natijada miqdor va sifat o'zgarishlari paralel ravishda boradi, milliy ishlab chiqarish hususiyatlari ijobiy tomonga o'zgaradi, ishlab chiqarish omillarining sifati va samaradorligi ortadi.

Yuqoridagi iqtisodiy natijalar ba'zi rivojlangan mamlakatlar uchun ustuvor xarakter kasb etmasligi mumkin, shu sababli ba'zan eksport salohiyati, ushbu mamlakatlar uchun asosiy omillardan hisoblanmaydi.

Lekin iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda bandlik, investitsiya, narxlar darajasidagi tafovutda yuqorida aytilgan vaziyatlar kuzatiladi va bu muammolarning yechimi sifatida eksportni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. Natijada eksport salohiyatining iqtisodiy o'sishga erishishdagi ahamiyati va dolzarbligi ortadi.

Eksport salohiyati, iqtisodiy o'sishdagi muhimligi sababli, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, V.N.Shimov eksport salohiyati iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi bo'lib, to'rt miqyosda o'rganilishini ta'kidlagan: halqaro, mamlakat, mintaqa va alohida olingan korxonalar kesimida.

Yu.V.Tokarev esa eksport salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: Korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi va chetga sotishi, hamda talab etilgan xizmatlarni ko'rsata olish qobiliyati eksport salohiyati deb ataladi. Ushbu ta'rifdan eksport salohiyatining muhim shartlaridan biri raqobatbardoshlik ekanini ko'rishimiz mumkin.

I.A.Rusakov esa eksport salohiyati atamasiga bir qancha kengroq ta'rif beradi: Korxonaning eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni xorijiy bozorlarda sotish, investitsiyalar jalb qilish va halqaro xamkorliklarda ishtirok etishini ta'minlovchi iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari yig'indisi eksport salohiyati deyiladi.

Mintaqalar ko'lamida eksport salohiyati atamasiga shu kabi ta'rif I.V.Elkin tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra mintaqaning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni boshqa (xorijiy) mintaqalarda sota olish imkoniyati uning eksport salohiyatini belgilab beradi. Bundan mintaqaviy eksport salohiyati majmuaviy (kompleks) xarakter kasb etishi hamda mintaqada joylashgan alohida korxonalarning eksport salohiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi tushuniladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, eksport salohiyati yuqori darajada bo'lmagan ikki korxonaning hamkorligi eksport imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirib yuborishi mumkin. Ya'ni, ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlarini xorijiy bozorlarga olib chiqish imkoniyatlariga ega bo'lmazligi mumkin.

Xorij bilan muntazam ishlab kelayotgan boshqa bir korxonalar esa aloqalar yo'lga qo'yilganiga qaramasdan, kapital taqchilligi yoki boshqa muammolar sababli o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanmasligi holatlari ham uchraydi. Va mana shu ikki korxonaning hamkorligi umumiy eksport salohiyatini ko'p marotaba ortishiga olib keladi. Yana bir iqtisodchi olim tomonidan eksport salohiyatiga berilgan ta'rifda uning iqtisodiy salohiyat tarkibiy qismi, ichki va tashqi omillar o'zgarishiga

bog'liq bo'lmagan holda, korxonada maqsad va vazifalaridan kelib to'g'ri tashkillashtirilgan, mahsulotlarni yaqin va uzoq xorijda sotish imkoniyati ekanligi aytilgan. Shu kabi holatlarni hisobga olgan holda mintaqa yoki mamlakat eksport salohiyati uning tuzilmaviy birliklari eksport salohiyatlari yig'indisidan iborat deb aytish mumkin emas.

Ta'rifni yanada to'ldirib quyidagicha keltirilishi maqsadga muvofiqdir: Mamlakat yoki mintaqaning eksport salohiyati deb uning tarkibiy qismlari, tuzilmaviy birliklarining alohida olingan eksport salohiyati majmui va birliklar o'rtasidagi hamkorlik natijalarining eksport imkoniyatlariga aytiladi. Eksport salohiyati shakllanishi va rivojlanishi, amalda undan foydalanish samaradorligi ko'plab omillar ta'siriga bog'liq. Ushbu omillarni ichki va tashqi turlarga ajratish mumkin.

Mamlakatning ichki tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillari ichki omillar hisoblanadi. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda ichki omillar shartli ravishda boshqariluvchi va boshqarib bo'lmaydigan omillar guruhlariga ham ajratiladi. Boshqariluvchi omillar – korxonada yoki davlat xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqarish va bozorga kirib borish, sifat va narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib, ularning ta'sir doirasi va xususiyatini o'zgartirish imkoni mavjud. Iqtisodiy siyosat misolida ko'rilsa, davlat uni mamlakat va xalq manfaati yo'lida o'zgartirib, uni boshqarib turishi, lozim bo'lgan paytda eksport imkoniyatlarini qisqartirishi mumkin va aksincha. Ko'lamiga ko'ra eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi guruhlariga ajratildi:

1. Korxonada xususiyatlari, bunda korxonaning ichki imkoniyatlari nazarda tutilmoqda. Ya'ni korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olishi, uning aloqa-kommunikativ xususiyatlari, kadrlari shu bilan birga bozorda vujudga kelgan talabni qondirish imkoniyatlari va boshqalar.

2. Tarmoq xususiyatlari, ya'ni mavjud tarmoqning iqtisodiy imkoniyatlari, infratuzilmasi, hukumat, davlat tomonidan tarmoqqa yaratilgan imtiyozlar va boshqalar.

3. Bozor xususiyatlari, korxonada uchun maqsadli bozor xususiyatlari bo'lib, unda bozor sig'imi, undagi segmentlar ulushi, imkoniyatlari va talab xususiyatlari qamrab olinadi.

O'z izlanishlarida korxonada eksport salohiyatini oshirishdan asosiy maqsad daromadlarni oshirish va harajatlarni kamaytirish ekanini ko'plab iqtisodchilar ta'kidlagan. Bu maqsadga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish mumkinligi belgilangan:

1) tashqi bozorga yetkazib berilayotgan tovar va xizmatlar miqdorini oshirish;

2) Xorijiy bozordagi mavqeini yaxshilash, eksport qilinayotgan mahsulot sifatini oshirish hisobiga uning narxini oshirish;

3) ishlab chiqarish va yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish;

4) eksportga chiqariladigan tovar va xizmatlarning umr davomiyligi siklini uzaytirish (marketing) eksportni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy usullaridan quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

- eksport faoliyatini kreditlash;

- eksport shartnomalarini sug‘urtalash;

- eksport shartnomalari bajarilishini kafolatlash;

- alohida tarmoq va soha uchun mahsus moliyaviy imtiyozlar joriy qilish;

- eksportga chiqarilgan mahsulotlarni xorijlik haridorlarga turli muddatga kredit yoki lizing asosida sotish;

- eksportchi korxonalar aylanma mablag‘larini kreditlash.

Hukumatimiz tomonidan eksport salohiyati imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish hamda bu boradagi muammolarni bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratilayotganini 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar orqali ham ko‘rish mumkin. Mazkur hujjatda mamlakatimiz eksport salohiyatidan samarali foydalanishni yanada oshirishga qaratilgan qator, jumladan quyidagi yo‘nalishlar belgilangan:

– eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

– agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

– rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish.

Mustaqil taraqqiyot davrida mamlakatimiz eksport tarkibining tahlili bu borada ahamiyatli diversifikatsion siljishlar ro‘y berayotganini ko‘rsatadi. Eng ahamiyatli jihat – agar 1990-yilda eksportning 60 foizini paxta tolasi tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilda bu ko‘rsatkich atigi 5,1 foizni tashkil etib, mazkur salmoq deyarli 12 baravar qisqargan. Aksincha, xizmatlarning ulushi 1% dan 25,5% gacha, ya‘ni 25 baravardan ko‘proq o‘sgan. Shuningdek, boshqa asosiy eksport

yoʻnalishlari boʻyicha tegishli ravishda quyidagicha nisbat shakllangan: oziq-ovqat mahsulotlari – 4% va 8,5%; kimyoviy mahsulotlar va buyumlar – 2% va 6,7%; energetika va neft mahsulotlari – 17% va 13,7%; qora va rangli metallar – 5% va 5,7%; mashina va asbob-uskunalar – 2% va 1,7%.

Umuman olganda 2018 yilda 224 ta mamlakat ichida Oʻzbekiston 11,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida mahsulotlarni eksport qilib jahonda eksport boʻyicha 84-oʻrinni egalladi. Shu qatorda, kichik biznesning eksportdagi ulushi 2018 yilda 28,6% ga etgan.

Bundan tashqari jahon bozoridagi konʻyunkturaning beqarorligiga qaramasdan, iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSh dollari miqdorida yoki 2017-yilga nisbatan 9,6 foizga koʻp investitsiyalar yoʻnaltirildi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston 2018-yil oʻz mahsulotlarini eksport qilish uchun Yevropa, Osiyo va Afrika qitʼalarida bir necha oʻnlab yangi eksport bozorlarini ochdi. Oʻtgan 2018-yil davomida Oʻzbekistonda eksport faoliyatiga 877 ta yangi korxonalar jalb qilingan boʻlib, mahalliy mahsulotlarni eksport qilish uchun 60 ta yangi bozor ochildi.


Xorij mamlakatlari bilan aloqalarning tobora chuqurlashuvi Oʻzbekistonning eksport salohiyatini yanada oshishi uchun qulay sharoit sifatida baholanmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 4–5 aprel kunlari Rossiyaga uyushtirgan davlat safari davomida umumiy qiymati 16 mlrd AQSh dollariga yaqin boʻlgan 50 dan ziyod mehnat migratsiyasi, neft yetkazib berish, hududlar hamkorligi, agrosektor, sanoat, turizm, tibbiyot va boshqa sohalardagi kelishuvlar imzolanganligi bunga yaqqol misoldir.

Joriy yilda erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya va eksport faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi farmon qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda, tashqi bozorlarda talab katta boʻlgan, yuqori qoʻshilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni taʼminlaydigan mineral-xom ashyo va qishloq xoʻjaligi resurslarini chuqur qayta ishlash boʻyicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, Samarqand, Buxoro, Fargʻona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish oʻrinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida “Urgut”, “Gʻijduvon”, “Qoʻqon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalari tashkil etildi. Jumladan, 2017 yilda 948 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 6,5 trln. soʻmlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi

belgilangan. Shu bilan birga, 122 turdagi o‘zlashtirishga taklif etilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etadigan korxonalarni aniqlash va tegishli loyihalarni amalga oshirish belgilab olingan.

15.3. Mamlakatimiz eksport salohiyati va unda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘rni


O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida eksport faoliyati bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishish ta‘minlanmoqda (15.1-rasm).



*15.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi eksport hajmi, mln. AQSh dollarida*¹⁴⁷


Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 2020 yilda respublika tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 15 127,7 mln. AQSh dollariga yetdi. So‘nggi o‘n yillik bo‘yicha ko‘rsatkichlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, mamlakatimiz eksport hajmi yillik 12 mln. AQSh dollaridan ortiq bo‘lganini kuzatishimiz mumkin.

¹⁴⁷ <https://www.stat.uz> - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий веб-сайти маълумотлари асосида тайёрланди.



15.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi eksport hajmining o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda¹⁴⁸

Yuqoridagi rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi o‘n yillikda mamlakatimiz eksport hajmining o‘shish sur‘ati ko‘rsatkichlarida barqarorlik kuzatilmagan, ya‘ni 2012, 2014, 2015, 2016 va 2020 yillarda pasayish kuzatilgan. 2020 yildagi pasayish ko‘rsatkichi (86,6%)ni 2019 yilda boshlangan pandemiya ta‘siri deb baholasak, avvalgi yillardagi pasayish ko‘rsatkichlarini sohada hal qilinishi zarur bo‘lgan tizimli muammolar mavjudligidan dalolat berishini aytib o‘tishimiz mumkin.



15.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarining soni, birlikda¹⁴⁹

Yuqoridagi rasm ma‘lumotlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, respublika bo‘yicha ro‘yxatga olingan sanoat korxonalarini soni so‘ngi

¹⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий веб-сайти маълумотлари асосида тайёрланди.

¹⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий веб-сайти маълумотлари асосида тайёрланди.

sakkiz yillikda muntazam ravishda ortib bormoqda. Xususan, 2021 yilda ro'yxatga olingan sanoat korxonalari soni 88 727 ta bo'lib, 2020 yilga nisbatan 119,5% ga o'sish kuzatilgan. 2021 yilda ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalarining 94%i faol hisoblanadi.

15.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi eksport tarkibi¹⁵⁰ (umumiy hajmga nisbatan foizda)

	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Eksport tarkibi (foizda)	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	13,3	6,4	10,3	12,4	10,5	5,7	7,0	7,8	8,8	9,5
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	5,6	5,6	4,2	4,7	4,9	6,9	7,0	6,5	5,0	5,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	18,5	34,6	24	23	21,4	14,2	12,8	19,1	14,5	4,4
Qora va rangli metallar	7,4	7,8	6,7	7,2	6,6	5,9	7,3	8,4	7,2	8,2
Mashina va asbob-uskunalar	6,6	6,5	5,7	4	1,3	1,8	2,8	1,5	2,4	3,1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nngi o'n yil respublika umumiy eksporti tarkibida sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan besh turdagi asosiy mahsulotlar yuqori ulushga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday mahsulotlar qatorida oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalarini kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimiz eksport hajmining o'sish ko'rsatkichlarida barqarorlik kuzatilmagan. Respublika eksport faoliyatida sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ulushi yuqori hisoblanadi. Bu ulushni yanada oshirish, eksport tarkibida tayyor mahsulot hajmini ko'paytirish masalasi ustuvor vazifa sifatida saqlanib qolmoqda. Yana bir muhim jihat, respublika bo'ylab ro'yxatdan o'tgan

¹⁵⁰ <https://www.stat.uz> - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси

sanoat korxonalari soni yildan-yilga ortib bormoqda va ular tarkibidagi faol korxonalar ulushi doimiy ravishda yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning eksport hajmini oshirish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Bugungi kunga kelib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning eksportini kengaytirish juda muhimdir. Bu bevosita mamlakat iqtisodiyotini jahon bozoriga chiqishiga, turli sohalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mamlakatning, shuningdek sanoat korxonalarining eksport strategiyasini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Respublikada eksport faoliyatini rivojlantirish, xususan sanoat mahsulotlari eksport hajmini oshirish uchun birinchi navbatda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- sanoat korxonalaridagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;

- sanoat turli tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda, an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;

- yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, imtiyozlar berish;

- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;

- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish;

- barqaror iqtisodiy tashqi savdo qonunchiligi, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini bo'yicha me'yoriy bazani mustahkamlash¹⁵¹.

15.4. Mintaqalarda qo'shma korxonalarini rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari

Tashqi bozorni tadqiq etish O'zbekiston Respublikasi korxonalarining xorijiy bozordagi strategik liniyasini ishlab chiqish uchun, ayniqsa, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va ularni bozorlarga kiritishda zarur masaladir. Bozorni batafsil o'rganish uni iste'molchilar

¹⁵¹ https://uzbridge.eyuf.uz/maqolalar/UzBridge_2021_1_son1.pdf, Мамлакатимиз экспорт салоҳияти ва унда sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning urni

guruhlari va tovarlarning iste'mol xususiyatlariga muvofiq segmentlashni talab qiladi. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, eng muvofiq segment deb ushbu bozorning taxminan 20 % xaridorlari firma taqdim etgan tovar hajmining 80 %ini xarid qilganlari hisoblanadi. Tovar bilan bog'liq bo'lgan masala uni oldindan aniqlangan bo'lajak xaridorlarning ayrim guruhlariga aniq mo'ljallab loyihalashtirishning zarurligidir

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning **Harakatlar strategiyasida** viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" ma'ruzasida aynan, "...iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani, shuningdek, mamlakatimiz hududlarini rivojlantirish bo'yicha qaysi eng muhim ko'rsatkichlarni joriy yil birinchi choragi va birinchi yarim yilligida bajarish uchun nima qilish kerak?" deb ta'kidlab o'tganlar.

Eksportga mo'ljallangan va importning o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi chet-el kapital ishtirokidagi korxonalar uchun quyidagi qo'shimcha imtiyozlar joriy qilingan:

- ularga ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun soliq kredit olish huquqi berilgan, ya'ni byudjetga to'lanadigan foydadan olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va yer solig'i yuzasidan to'lovlar ikki yilgacha muddatga kechiktiriladi;

- "2017-yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 854 million dollarga yetdi".

Milliy valyutamizni erkin konvertatsiya qilishga kirishdik. "Yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani tijorat banklaridan cheklovsiz sotib olish va erkin sotish imkoniga ega bo'ldi. Chet-el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalari hajmi liberalizatsiya davriga nisbatan 1,5 barobar oshib, o'rtacha 1,3 milliard dollarni tashkil

etdi. Shu bilan birga, davlatimizning oltin-valyuta zaxiralari yil davomida 1,1 milliard dollarga ko‘paydi”¹⁵².

O‘zbekiston hukumati tomonidan belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish doirasida barra va qayta ishlangan meva-sabzavotchilik mahsulotlarini eksport qilish hajmlarini va ularning turini oshirish, ularni sotish uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda.

2016- yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston korxonalarini tomonidan 818,5 ming tonna meva-sabzavotchilik mahsulotlari (2015 yilga nisbatan 38,3 foizga ko‘proq), jumladan, sabzavotlar – 242,1 ming t (29,6 foiz), mevalar – 229,6 ming t (28 foiz), poliz ekinlari – 6,8 ming t (0,8 foiz), uzum – 96,2 ming t (11,7 foiz), dukkakli mahsulotlar – 120,2 ming t (14,7 foiz) va quritilgan mahsulotlar 124,5 ming t (15,2 foiz) miqdorida eksport qilingan. Jami 65 turdagi meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bunda eksportning asosiy hajmi gilos (14,4 foiz), mayiz (12,8 foiz), o‘rik (7,63 foiz), uzum (7,57 foiz), mosh (6,91 foiz), pomidor (6,86 foiz), no‘xat (6,51 foiz), ko‘katlar (5,65 foiz), shaftoli (nektarin) (4,11 foiz) va xurmo (3,96 foiz) mevalariga to‘g‘ri kelgan.

O‘zbekiston meva-sabzavotchilik mahsulotlari dunyoning 43 ta davlatiga eksport qilinadi. O‘tgan yili bu davlatlar qatori yana 9 ta davlat bilan to‘ldirildi: birinchi marta Italiya va Ispaniyaga konservalangan kapers (kovul), Livanga grek yong‘oqlari, Vetnamga mayiz, Belgiyaga quritilgan sabzavotlar, Shveytsariyaga uzum va qovun, Gollandiyaga turshak, Isroilga mayiz, Chexiyaga quritilgan mevalar va mayiz jo‘natildi.

Umumiy hajmga ko‘ra, O‘zbekiston meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksport qiluvchi davlatlar o‘rtasida 48-o‘rinni egallamoqda.

Shu bilan bir qatorda, eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida Hindiston, Germaniya, Polsha, Latviya, BAA va Belarusda savdo uylari ochish bo‘yicha ishlar yakunlanmoqda. 2017 yil oxirigacha bu savdo uylari ro‘yxatdan o‘tkazilib, o‘z faoliyatini boshlaydi.

2017-yilda 1,27 mln tonna meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksport qilish prognoz qilinmoqda. Bugungi kunda “O‘zagroeksport” AJ bu rejalarni amalga oshirish uchun qat’iy shartnomalarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda qarori bilan 12 turdagi buyum va mahsulotlar eksportiga o‘rnatilgan taqiq bekor qilindi.

¹⁵² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси

Shunday qilib, don (bug‘doy, javdar, suli, guruch, makkajo‘xori, grechka), non-bulochka mahsulotlari, un va yorma, qoramol va parranda, go‘sh va sut mahsulotlari, uy parrandasining oziq-ovqat sut mahsulotlari, shakar, qadimgi asori-atiqalar, o‘simlik yog‘i, charm, mo‘yna-jun (shu jumladan qorako‘l) xom ashyosi, lom va rangli metall chiqindilari, pilla, ipak xom ashyosi (o‘ralmagan), ipak chiqindilari hamda polietilentereftalat (PET) chiqindilari, kesmalari va skraplari kabilarni eksport qilish mumkin bo‘ladi. Surxondaryoda 2017-yil davomida 30 dan ortiq tadbirkorlik sub’yekti tomonidan qariyb 37 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari Rossiya, Belarus, Ukraina, BAA, Hindiston, Eron, Pokiston va boshqa davlatlarga eksport qilindi.

Afg‘oniston O‘zbekistonning dukkakli mahsulotlariga asosiy xaridorlardan biri hisoblanadi. Yil davomida vohadan xorijga eksport qilingan 14,3 tonnadan ortiq bu turdagi mahsulotlarning 12 ming tonnadan ortig‘i, ya’ni salkam 84 foizi aynan Afg‘onistonga yetkazib berildi.


2017-yil 1-yanvaridan ushbu mahsulotlar va buyumlarning eksport shartnomalari davlat bojxona xizmati idoralarida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatga qo‘yilishi talab etiladi.

Qonunchilikka kiritilgan o‘zgartishlar Prezidentning 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ta’minlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”ga qarori ijrosi yuzasidan qabul qilingan. Eslatib o‘tamiz, avval xabar berilganidek, 2017 -yil 1-yanvaridan O‘zbekiston tadbirkorlik sub’yektlarida barcha turdagi rejadan tashqari tekshirishlar bekor qilingan. Faqatgina yuridik shaxsga barham berish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning muroajaatlari tufayli Respublika nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan o‘tkaziluvchi qisqa muddatli tekshirishlar bundan mustasno. Shu bilan birga, Prezidentning parlamentga Murojaatnomasida belgilanganidek, 2018-yilda eksport sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarga yana bir bor to‘xtalib o‘tildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va yirik sheriklarimiz – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSh, Turkiya va boshqa mamlakatlarga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlarni bajarish bo‘yicha qabul qilingan “yo‘l xaritalari” o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash zarur. Tadbirkorlik sub’yektlarini bojxona ko‘rigidan o‘tkazishda xavf-xatardan ogoh etish

tizimini joriy qilish, bojxona organlari tomonidan beriladigan ortiqcha va zamon talabiga javob bermaydigan litsenziya va ruxsatnomalarni bekor qilish lozim. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish bo'yicha strategiya ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.


2021-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2020-yilga nisbatan 16,0 foizga o'sib, 42,1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, eksport hajmi 10 foizga oshib, 16,6 mlrd. dollarga yetgan bo'lsa, import 20,4% ga o'sib, 25,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Shuningdek, iqtisodiy faollikning ortishi va ichki hamda tashqi tovarlar narxlarining o'zgarishi natijasida 2021 yilda tashqi savdo balansining manfiy saldosi 46,3 foizga ortib, 8,9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Iqtisodiy faollikning ortishidan tashqari, mahalliy iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar narxlarining inflyatsiyasi hamda mos ravishda almashuv kursining o'zgarishi ham tashqi savdo balansiga ta'sir qiladi.



15.3-rasm. 2019-2021 yillarda eksport tarkibi va dinamikasi, mln.doll¹⁵³

2021-yilda umumiy eksport hajmi 16,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Umumiy eksport hajmi pandemiyadan oldingi darajagacha tiklanmagan bo'lsada, oltinsiz eksport hajmi 34,4 foizga ko'paygan holda deyarli 2019-yildagi eksport darajasiga yetib, 12,5 mlrd. dollarga teng bo'lgan. Shuningdek, 2021-yilda umumiy eksport tarkibida diversifikatsiya darajasi oshib, to'qimachilik mahsulotlarining ulushi 17,6 foizga (2,9 mlrd. dollar) va boshqa mahsulotlar ulushi 28,1 foizga (4,7 mlrd. dollar) yetgan.

¹⁵³ Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida



15.4-rasm. 2019-2021 yillarda asosiy savdo hamkorlari bilan o'zaro savdo balansi mln.doll va dinamikasi, %

Bundan tashqari, 2020-yilda va 2019-yilga nisbatan ayrim eksport tovarlari bo'yicha jadal o'sish jarayoni qayd etilgan. Xususan, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2020 yilga nisbatan 52,3 foizga, 2019-yilga nisbatan 79,9 foizga o'sgan bo'lsa, mashina va asbob-uskunalar eksporti mos ravishda 59,0 va 64,6 foizga, rangli metall – 58,7 va 54,2 foizga, kimyo mahsulotlari – 40,3 va 39,5 foizga oshgan.

2021-yilda import hajmi 2020-yilga nisbatan 20,4 foizga, pandemiyadan oldingi 2019 yilga nisbatan 4,8 foizga ko'payib, 25,5 mlrd. dollarni tashkil qildi. O'tgan yillar davomida importning asosiy qismi mashinalar va asbob-uskunalar importiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, 2021-yilda kimyoviy mahsulotlar, qora metall mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar importining ulushlari 2019-2020 yillarga nisbatan ko'paygan. Shu bilan birga, o'tgan yilda oziq ovqat mahsulotlari importi 2,9 mlrd. dollarga teng bo'lib, 2020 - yilga nisbatan 35,5 foizga va 2019-yilga nisbatan 55,3 foizga ko'paygan bo'lsa, kimyo mahsulotlari 4,3 mlrd. dollar bo'lib, mos ravishda 24,0 va 33,0 foizga, energotashuvchilar va neft mahsulotlarining importi 1,5 mlrd. dollarni tashkil etib, 39,2 va 63,8 foizga oshgan.

Xitoy (17,7 foiz), Qozog'iston (9,3 foiz) va Turkiya (8,1 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Xususan, Rossiyaga eksport hajmi jami eksportning 12,4 foiziga yetib, 2,1 mlrd. dollarni tashkil etgan holda o'tgan yilga nisbatan 38,6 foizga oshgan bo'lsa, import hajmi jami importning 21,4 foizga teng bo'lib, 5,5 mlrd. Dollarni tashkil etdi¹⁵⁴.

¹⁵⁴ <https://sof.uz/uz/post/ozbekistonning-tashqi-savdo-aylanmasi-2021-yilda-16-foizga-oshdi>

Xitoy bilan o‘zaro savdoda eksportning jami eksportdagi ulushi 15,2 foizga va importning jami importdagi ulushi 19,3 foizga teng bo‘lib, mos ravishda 2,5 va 4,9 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Bunda, eksport 2020 yilda 23,4 foizga va import 11,9 foizga kamaygandan so‘ng, 2021 yilda eksport 30,0 foizga va import 9,4 foizga oshgan. Shuningdek, 2021 yilda Qozog‘istonga eksport 29,0 foizga ortib 1,2 mlrd. dollarga teng bo‘lgan va jami eksportning 7,1 foizini tashkil qilgan. Import esa 30,6 foizga ko‘payib, jami importning 10,8 foizini tashkil qilgan va 2,7 mlrd. dollarga yetgan. O‘tgan yillarda Turkiya bilan o‘zaro savdoda eksport va import hajmlarining monandligi saqlanib qolgan holda, eksport 65,9 foizga va import 56,2 foizga o‘sib, har biri 1,7 mlrd. dollarga teng bo‘lgan. Quyidagi 15.2-jadvalda respublikamizda eksport tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

15.2-jadval

Eksport tarkibi to‘g‘risida ma’lumot (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
Tovar va xizmatlar, tovarlar eksporti	12 553,7	13 990,7	17 488,7	15 102,3	16 610,6
Tovarlar eksport qilish (FOB bahosida)	10 079,2	10 920,7	14 023,8	13 097,3	
Paxta	477,1	22,1	281,6	146,9	136,5
Kimyoviy mahsulotlar	883,7	905,3	878,1	873,2	1 225,3
Qora metallar	152,8	320,3	302,7	317,5	186,4
Rangli metallar	761,9	851,5	951,3	924,4	1 467,0
Energetika va neft mahsulotlari	1 607,6	2 666,8	2 528,9	659,0	889,9
Mashina va uskunalari	354,8	212,8	427,1	442,0	702,8
Oltin	3 260,0	2 909,5	4 918,3	5 804,4	4 109,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	875,9	1 097,8	1 529,9	1 443,8	1 471,8
Xizmatlarni eksport qilish	2 474,5	3 070,0	3 434,8	2 005,0	2 547,4
Qurulish	37,1	36,7	41,9	42,3	
Transport xizmatlari	1 600,7	1 687,9	1 765,7	1 426,1	
Sayohat	546,9	1 041,1	1 313,0	255,8	
Boshqa xizmatlar	289,8	304,3	314,2	280,8	
Boshqa	1 705,3	1 734,5	2 206,0	2 486,1	946,4

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan eksport qilinadigan yangi bozorlar va tovarlar guruhlarini aniqlandi¹⁵⁵.

2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining 28-maqсадiga ko‘ra, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan

¹⁵⁵ <https://uz.tafsilar.info/jekonomika/zbekiston-z-ma-sulotlarini-jeksport-ilishning-jangi-isti-bollarini-izlamo-da/>

mahsulotlarni sotishning yangi salohiyatli bozorlarini aniqlash asosiy masalalardan biridir.

Tahlil qilish uchun **go4WorldBusiness** xalqaro bozori ma'lumotlaridan foydalanildi, ular 2022-yil aprel-iyul oylari uchun 3000 dan ortiq xalqaro yuk tashishlar haqidagi ma'lumotlarni qamrab oldi. Barcha ma'lumotlar veb-qirgish usuli (saytlardan ma'lumot yig'ishning avtomatlashtirilgan usuli) yordamida olingan.

Istiqbolli bozorlarni aniqlash metodologiyasi 3 bosqichdan iborat:

1. **go4WorldBusiness** bozorining ma'lumotlar bazasidan barcha mamlakatlar orasida so'nggi 5 yil ichida mahsulot importi kamaygan davlatlar chiqarib tashlandi;

2. O'zbekiston ushbu mahsulotlarni eksport qilayotgan davlatlar bundan mustasno;

3. ushbu toifadagi tovarlar importining o'rtacha hajmining O'zbekistondan import qiluvchi mamlakatgacha bo'lgan geografik masofaga nisbati sifatida hisoblangan bozor istiqbollari indeksi yuqori bo'lgan mamlakatlarni tanlash.

Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, quyidagi mamlakatlar istiqbolli bozorlar bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- don ekinlari – Yaponiya, Bangladesh;
- o'simlik moylari – Hindiston, Xitoy, Bangladesh;
- metallar – Bangladesh;
- meva va sabzavotlar – Bangladesh, Singapur, Ummon;
- ziravorlar – Hindiston, Buyuk Britaniya, Bangladesh;
- to'qimachilik mahsulotlari – Hindiston, Bangladesh, Singapur.

Qayd etish joizki, aniqlangan istiqbolli bozorlarda eng ko'p talab qilinadigan tovarlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan ma'lumotlarning qo'shimcha tahlili o'tkazildi, bu mavsumiy omil mavjudligini aniqladi, ya'ni. xalqaro trafikning katta qismi yoz oylarida amalga oshirilgan va umumiy trafik sonining yarmidan ko'pini tashkil etgan, quyidagi tavsiyalar berilgan:

Tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllantirishda asosiy e'tiborni yuqoridagi mamlakatlar bozorlariga qaratib, ularda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ayrim turdagi mahsulotlarga talab kattaligini, shuningdek, bu davlatlar bilan bo'lishi mumkin bo'lgan savdo yo'llari (yo'laklari) hamda tarif va tarifsiz to'siqlar bilan bog'liq vaziyatni o'rganish va eksportyorlar e'tiboriga yetkazish zarurligi, hamda tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish uchun ko'rsatilgan

davlatlar bilan qo‘shma korxonalar, savdo uylari va bozorlar tashkil etish lozim¹⁵⁶.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi, mintaqalarning eksport salohiyati, mamlakatimiz eksport salohiyati va unda sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘rni, mintaqalarda qo‘shma korxonalarini rivojlanishi, tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari kabi masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 77-II-sonli Qonunining 3-moddasida: “Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi” deb ta’rif berilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tayanch so‘z va iboralar: Tashqi iqtisodiy aloqa, tayyor mahsulot valyuta, soliq, tarif, notarif tartibga, iqtisodiy manfaatlar, eksport-import, tashqi bozor, tashqi savdo

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi to‘g‘risida tushuncha bering.
2. Mintaqalarning eksport salohiyati tushuntiring.

¹⁵⁶ <https://uz.tafsilar.info/jekonomika/zbekiston-z-ma-sulotlarini-jeksport-ilishning-jangi-isti-bollarini-izlamo-da/>

3. Mintaqalarda qo'shma korxonalarni rivojlanishi.
4. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari to'g'risida ma'lumot bering.
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
6. Istiqbolli bozorlarni aniqlash metodologiyasi tushuntiring.
7. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi qanday belgilar bilan uzviy bog'liq ?
8. Mintaqalarni majmualiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini tushuntiring.
9. Respublikada eksport faoliyatini rivojlantirish, xususan sanoat mahsulotlari eksport hajmini oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur?

XVI BOB. HUDUDLAR TARAQQIYOTINING EKOLOGIK JIHATLARI VA TABIATDAN FOYDALANISHNING MINTAQAVIY MUAMMOLARI

16.1. O‘zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo‘llari

16.2. Suv resurslarining xolati va ulardan foydalanish

16.3. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar

16.4. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi milliy qonunchilik asoslari.

16.1. O‘zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo‘llari

Mustaqillik yillarida atrof-muhit muhofazasi sohasida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2010-yildan buyon 2015-yilga qadar atmosferaga chiqarib yuboriladigan zaharli moddalar miqdori 1,7 marta qisqardi. Lekin atrof-muhit muhofazasi sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan ishlar ko‘lami kattaligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojatnomasida 2023-yilning **to‘rtinchi yo‘nalishini** ekologiya, ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tdi¹⁵⁷.

Mamlakatimiz mintaqalarida sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlash qator iqtisodiy, tashkiliy va ekologik muammolar yechimini hal etishga bog‘liq. Jumladan:

- mintaqalarining tabiiy va mehnat resurslari salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish;
- sanoatning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirish;
- eski korxonalarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, yangi zamonaviy korxonalar qurilishini jadallashtirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiya va kasanachilikni rivojlantirish;
- sanoat tarmoqlarining hududiy tarkibini takomillashtirish;
- xomashyo va energiya sig‘imini kamaytirish;

¹⁵⁷ <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>

- mahsulotlarning yangi raqobatbardosh, eksportbop turlarini ko'paytirish;

- ekologik noqulay mintaqalarda atrof-muhit muhofazasi sohasida qator tadbirlarni amalga oshirib borishni taqozo etadi.

2016-yil 20-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'simlik va hayvonot olami genofondi institutida 22-may – Xalqaro biologik xilma-xillik kuniga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekoharakat deputatlar guruhi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi Ekoharakat bilan hamkorligidagi **“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarishning qonunchilik asoslari”** BOBida seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik va hayvonot olami genofondi instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti xodimlari, O'zbekiston ekologik harakati faollari, O'zbekiston baliqchilikni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston ovchilar va baliqchilar uyushmasi, O'zbekiston qushlarni muhofaza qilish jamiyati, ekologiya sohasida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar. Ta'kidlandiki, xalqaro huquq normalarga ko'ra, bio xilma-xillikni muhofaza qilish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, ularni boshqarish va butligini saqlash hamda samarali faoliyat yuritishini ta'minlash davlatning birinchi darajali vazifasi sifatida e'tirof etilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston barqaror rivojlanish uchun biologik xilma-xillikni saqlab qolishning o'ta muhimligiga alohida ahamiyat bergani holda bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarga, shu jumladan 1995-yilda Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shildi va respublika hukumati tomonidan O'zbekiston Respublikasida Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasi tasdiqlandi.

Mazkur xujjatga asosan mamlakat umumiy yer maydonining 10 foizini muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga kiritish rejalashtirilgan. Biologik xilma-xillikni saqlab qolish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to'laqonli amalga oshirilishini e'tirof etgan

holda hukumatimiz tomonidan mazkur hududlar maydonini kengaytirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur hududlarni tashkil etish, boshqarish va kengaytirish bilan bog‘liq xuquqiy asoslarni belgilab beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari tizimiga 8 ta davlat qo‘riqxonalari, 1 ta davlat biosfera rezervati, 2 ta tabiat milliy bog‘i, 10 ta davlat buyurtma qo‘riqxonalari, 6 ta tabiat yodgorliklari, 3 ta yovvoyi hayvonlarni ko‘paytirish bo‘yicha pitomniklar, respublika hududidan oqib o‘tuvchi 8 ta daryolarining suvni muhofaza qilish zonalari, respublika hududida joylashgan xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq joylari ro‘yxatga kiritilgan 2 ta (Dengizko‘l va Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi) ko‘llar tizimi kiradi.

Ta’kidlash kerakki, 2004-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga respublikamizda mazkur hududlarning maydonini kengaytirish maqsadida biosfera rezervati tushunchasi kiritildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan “Baday-to‘qay” davlat qo‘riqxonasi negizida “Quy-Amudaryo” davlat biosfera rezervati tashkil etildi. Biosfera rezervatining vazifasi rezervat hududidagi tabiiy landshaftlarni, to‘qayga xos fauna va floraning yo‘q bo‘lib ketish havfi ostidagi turlarini hamda hududga xos boshqa tabiiy ob‘yektlarini saqlab qolish, qayta tiklash, ekologik holatini yaxshilash, tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni va aholining ijtimoiy farovonligini ta’minlash, tabiat jarayonlarini o‘rganish, ekologik ta’lim va tarbiyaning rivojlanishiga yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil topgan.

“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarishning huquqiy asoslari hamda bu sohadagi qonunchilik asoslarini rivojlantirish”, “O‘zbekistonda flora va fauna xilma-xilligini saqlashda milliy bog‘larning ahamiyati” BOBlarida ma’ruzalar qilindi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘nggi qisqa davr mobaynida atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi, xususan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish bo‘yicha munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam huquqiy baza yaratildi. Bugungi kunda respublikada atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha 30 ga yaqin muhim qonunlar va yuzlab qonunosti normativ hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2002-yil 3-apreldagi 111-son qarorini amalga oshirish maqsadida keyingi 15 yilda respublikada monitoringning yagona tizimi yaratildi, atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi asosiy tabiiy va texnogen manbalarning ro‘yxati shakllantirildi, o‘lchashlarni bajarishning zamonaviy metodikalari ishlab chiqildi, ekoanalitik laboratoriyalarning moddiy-texnika bazasi modernizatsiya qilindi, monitoring natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzurida davlat axborot-tahlil markazi tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda atrof tabiiy muhit monitoringi 390 ta sanoat korxonalarida, 68 ta yer usti suv oqimlari punktlarida, 87 ta suv tashlama kollektorlarida, 1694 ta yer osti suvi quduqlarida, 74 ta buloqlarda va 61 ta atmosfera havosini kuzatish postlarida olib borilmoqda.

Atrof muhitni muhofaza qilishga maqsadli yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida atmosfera havosiga tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy massasi ko‘rsatib o‘tilgan davrda 1,5 baravarga qisqardi. Namangan, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon va Sirdaryo viloyatlarining o‘rganilgan tumanlarida sug‘oriladigan yerlar boniteti 0,9 dan 4,7 ballgacha oshdi.

Shu bilan birga, suv resurslari va atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar monitoringi shuni ko‘rsatdiki, ba‘zi tozalash inshootlarida oqova va tashlamalarni tozalash ishlarini amalga oshirish samarasi yetarli darajada emas, yirik sanoat korxonalari atrofidagi ba‘zi tuproqlar ifloslangan. Ekoanalitik laboratoriyalarning metodik va moddiy-texnika bazasi yanada takomillashtirishni talab qiladi. Atrof tabiiy muhit monitoringi tizimining ish sifatini yanada oshirish va ifloslanish darajasi holatini prognoz qilish va muntazam ravishda baholashni ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2016—2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi Dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirliklar, idoralar, xo‘jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tasdiqlangan Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlasinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda

tasdiqlangan Dasturda belgilangan tadbirlarni bajarish uchun zarur bo'ladigan mablag'larni vazirliklar va idoralarning xarajatlar smetasida nazarda tutsin.

Mamlakatimiz cho'llari dunyodagi qurg'oqchil cho'l biomlari saqlab qolingani hududlardan hisoblanadi. Fikrimizga yorqin misol sifatida flora va faunaning yo'qolib borayotgan ko'plab turlari mavjud hamda yuqori qimmatli biologik xilma-xillikka ega bo'lgan Ustyurt yassi tog'ini keltirish mumkin. O'z navbatida, mazkur joydagi foydali qazilmalar, jumladan, uglevodorod zaxiralari, neft-gaz tarmog'ining jadal rivojiga yordam beradi va hududning o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi.

Ushbu mintaqada olib borilayotgan keng ko'lamli tadqiqotlar neft-gaz konlarini izlash, mazkur tarmoqda mustahkam xom ashyo bazasini shakllantirish va energetika jihatidan mustaqillikni ta'minlash, neft-gaz kompaniyalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, bo'yicha ijtimoiy javobgarlikni ham talab qiladi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston bosqichma-bosqich Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Konvensiyani va ko'chib yuradigan turlarni saqlash bo'yicha Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Mazkur loyiha hayotga tatbiq etilishining ahamiyati esa yurtimiz tabiiy bioxilma-xilligini saqlab qolish maqsadi bilan izohlanadi. Qolaversa, "Oldini olish – minimallashtirish – tiklash – bioxilma-xillikni muqarrar qoldiq yo'qotishlarini qoplash" tamoyilidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining 12 ta qonuniga o'zgartishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, davlat ekologik nazoratini o'tkazish tekshiruvlarining usullari uchun hujjatlar to'plami tayyorlandi. Ko'rilgan bunday chora-tadbirlar atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qiluvchi organlar kelgusida yangi neft-gaz loyihalarini hududning bioxilma-xilligiga ta'sirini yanada diqqat bilan o'rganishi mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, ham neft-gaz tarmog'i mutaxassislari, ham faoliyati bioxilma-xillikka ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kadrlarni o'qitish dasturi ham loyihaga kiritildi. Pirovardida mazkur sohada xalqaro tajribani inobatga olgan holda "Neft-gaz sektorini rivojlantirish hamda boshqa sanoat va qishloq xo'jaligida hududlarni o'zlashtirishda bioxilma-xillikni saqlash" nomli o'quv qo'llanma nashr etildi. O'z navbatida, tabiiy resurslarga ta'sirning oldini olish va minimallashtirish, bioxilma-xillikni tiklash, biologik turfa xillikning muqarrar yo'qotishlarini qoplash tamoyili bo'yicha neft-gaz kompaniyalari

faoliyatining barcha jarayonlari loyihaning yana bir nashri – “O‘zbekistonning harid ekotizimlaridagi neft-gaz sektorida bioxilma xillikni saqlash uslublari” nomli qo‘llanmada ham yoritilgan.

Loyiha doirasida GIS formatida Ustyurt yassi tog‘i mintaqasini zonalarga bo‘lish xaritasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, unga biologik xilma-xillikning qimmatini hisobga olgan holda uchta zona ham kiritilgan bo‘lib, har birida o‘simlik hamda hayvonot olami ob‘yektlariga zarar yetkazmasdan yerdan foydalanish ishlarini olib borishga qay tartibda darajada ruxsat etilgani batafsil yozilgan.

Shu bilan birga, yana bir muhim jihatni qayd etish joizki, loyiha doirasida “Saygachiy” qo‘riqxonasini qayta tashkil qilishda zarur hujjatlar to‘plami tayyorlanib, qo‘riqxonaga uchun kerakli uskuna va inventarlar sotib olingan. Vazirlar Mahkamasining mazkur masaladagi qarori loyihasi beshta manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tayyorlandi.

16.2. Suv resurslari xolati va ulardan foydalanish

Sayyoramizdagi barcha suv zaxirasining 97 foizdan ortig‘i iste‘mol uchun yaroqsiz hisoblanib, chuchuk suv hajmi juda kam miqdorni tashkil qiladi. Bugun dunyodagi ko‘plab davlatlarda obihayot tanqisligi og‘riqli masalalardan biri ekani barchamizga yaxshi ma‘lum.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojatnomasida 2023-yilning **to‘rtinchi yo‘nalishini** ekologiya, ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tdi. Mamlakatimiz rahbari o‘z murojatlarida :

“Konstitutsiyamizda tabiiy resurslar, jumladan, suv havzalari va yer osti zaxiralarini muhofaza qilish bo‘yicha talablarni kuchaytirishimiz zarurligini, mamlakatimiz so‘nggi 3 yilda qurg‘oqchilikni boshdan kechirdi. Buning ta’siri, ayniqsa, Amudaryoning quyi havzasidagi hududlarimizda yaqqol sezildi. Shu o‘rinda Amudaryo o‘zanida yangi kanal qurilishi bo‘yicha qo‘shni Afg‘onistonning muvaqqat hukumati hamda jahon hamjamiyati bilan birga xalqaro me‘yorlar asosida va mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini inobatga olish yuzasidan amaliy muloqotlar olib borish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv qo‘shnilarimiz tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanishiga ishonamiz. Umuman, so‘nggi 15 yilda yog‘ingarchilik 25 foizga qisqardi. Yozda o‘ta issiq kunlar davomiyligi ortgani oldimizda hali katta sinovlar borligidan dalolat beradi. Lekin hozirgi vaqtda ekin

maydonlariga suv yetkazib berishda sezilarli yo‘qotishlar bor. Shu bois, suv xo‘jaligi tizimi isloh qilinadi. Suvning hisobini ochiq-oshkora yuritish tizimi joriy etiladi va kelgusi uch yilda 13 mingga yaqin suv xo‘jaligi ob‘yekti raqamlashtiriladi. Shu bilan birga, 16 ta yirik nasos stansiyasi davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilinadi va muqobil energiyaga o‘tkaziladi. Bularga qo‘shimcha ravishda suv solig‘i bo‘yicha tushumlarning bir qismi tumanlarda sug‘orish xizmatlarini rivojlantirish, ariq, zovur va kanallarni betonlashga yo‘naltiriladi. ozirgi vaqtda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash shular jumlasidandir. Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni, xususan, **“Yashil makon” umummilliy loyihasi** doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz.

Shu bois, “2023-yilda ham suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan 100 ming gektar qo‘shimcha ekin maydonlarini aholiga ajratamiz. Buning hisobidan qariyb 350 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi”¹⁵⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir.

Amudaryo va Sirdaryo havzalarining suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi yiliga 64 mlrd.m3 suvdan foydalanishga haqli. Xuddi shu tartibda mintaqadagi boshqa respublikalarning ham transchegaraviy daryolardan foydalanish miqdorlari belgilab olingan.

Mamlakatimizga kirib kelayotgan, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ishlatilayotgan barcha suv resurslarining aniq hisob-kitobi yuritiladi. Suv resurslari olinadigan limitlarga nisbatan amalda kam ekanligini raqamlar ham tasdiqlab turibdi. Misol uchun, oxirgi besh yil davomida O‘zbekistonning foydalanilgan o‘rtacha yillik suv miqdori 51–53 mlrd. m3 ni tashkil qilgan.

¹⁵⁸ <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>

Sodda qilib aytganda, aslida suv resurslari kam bo'lganligi uchun bugun O'zbekiston foydalanayotgan suv miqdori hatto 1980 yillarda hisoblangan respublika bo'yicha suvga ehtiyojning 75–80 foiziga ham yetmaydi. Holbuki, bu davrda aholi soni qariyb ikki baravarga o'sdi, sanoat rivojlandi, odamlarning turmush tarzi o'zgardi, farovonligi, ehtiyojlari ortdi.

Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati, sa'y-harakatlari natijasida oxirgi besh yilda qo'shni davlatlar bilan yo'lga qo'yilgan o'zaro do'stona va ishonchli aloqalar Markaziy Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy suv resurslaridan hamkorlikda foydalanishga mustahkam zamin yaratdi. Ko'p yillardan buyon yechilmay kelayotgan masalalar hal qilinib, o'z yechimini topayapti.

Ayni shu jarayonda O'zbekiston suv taqchilligini kamaytirish uchun suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish va suvni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida Markaziy Osiyo davlatlari orasida tashabbuskor bo'lmoqda.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida kam resurs va mablag' sarflagan holda yuqori hosil va daromad olish uchun bog'dorchilikni rivojlantirish intensiv va superintensiv texnologiyalarga o'tishni taqozo qiladi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida Prezidentining bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirishga doir qarorlari qabul qilindi. Tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish asosidagi suv tejevchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilgan yangi tashkil etiladigan bog'lar va issiqxona xo'jaliklari subsidiya ajratish yo'li bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bog'-tokzorlarni sug'orish boshqa ekinlarga nisbatan kam suv talab qiladi. Respublikamizdagi mavjud barcha bog'-tokzorlarni sug'orishda suv tejevchi texnologiyalar, xususan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llash yuqori samara berib, oddiy usulda sug'orishga nisbatan 2 baravar kam suv sarflanadi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2017–2021-yillarda jami 642,4 ming gektar maydonda suv tejevchi (shundan 308,5 ming gektar tomchilatib sug'orish) texnologiyalar joriy qilinib, mamlakatimizdagi sug'oriladigan maydonlarning 17 foizini qamrab oldi. Shuningdek, joriy yilning o'tgan davrida 310,6 ming gektar suv tejevchi texnologiyalar, jumladan, 70,2 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasi ishga tushirildi. Yil yakuniga qadar 478 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilinishi ta'minlanadi va

suv tejoychi texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 27 foizga yetkaziladi.

Suv resurslarini samarali boshqarish, suvdan tejamli foydalanish Davlatimiz rahbari va hukumatimizning doimiy e'tiboridagi masala. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 mlrd. m³ suvni tejash vazifasi yuklatilgan bo'lib, ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan dastur izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida irrigatsiya tarmog'i eng ko'p rivojlangan va yirik suv xo'jaligi infratuzilmasiga ega davlat hisoblanib, 4,3 mln. gektar sug'oriladigan ekin maydonlari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlashda jami 28 ming 570 km uzunlikdagi irrigatsiya tarmoqlari, 38 ming 781 dona gidrotexnik inshoot, 19 ming 752 dona gidropostlar xizmat qiladi.

2022- yil ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida o'tgan olti oyda bajarilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari natijasida 102 ming gektardan ortiq maydonning suv ta'minoti va 58 ming gektar maydonning meliorativ holati yaxshilanishiga erishildi.

Shu o'rinda yerlarning sho'rlanish darajasi, yer osti suvlari sathining pasayishi, cho'llanish jarayonlari Suv xo'jaligi vazirligi mutaxassislarining e'tiboridagi masala ekanligini, bu borada zarur chora-tadbirlar ko'rib borilayotganini aytib o'tish zarur.

Bundan tashqari, dunyo tajribasida yer osti suvlaridan tartibsiz foydalanilishi natijasida yer osti suvlari zaxirasi kamayib ketish kabi holatlar ko'plab kuzatilgan.

Shundan kelib chiqib, yer osti suv zaxiralaridan foydalanishni quduq burg'ilashga ruxsatnoma berishni tartibga solish hamda ruxsatsiz quduq burg'ilanishining oldini olishga qaratilgan tartibini belgilash maqsadida bir qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, Nurota, Qo'shrabot hamda Zomin tumanlarida joylashgan konlar hududida yer osti suv resurslarining jadal olinishi natijasida yer osti suvlari sathining pasayishi va zaxiralarining kamayishi kuzatilayotgani sababli Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-oktyabrdagi "Ayrim hududlarda yer osti suvlaridan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Shuningdek, 2021-yil 8-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, unga asosan gidrogeologik xulosa berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish, yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ulash uchun ruxsatnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish hamda yer osti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste‘mol qilish uchun ruxsatnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentlari tasdiqlangan.

Yer osti suv sathi o‘zgarishi yer usti suvlari orqali to‘yinib, yog‘ingarchilik va yer usti suvlari miqdoriga bevosita bog‘liqdir. So‘ngi yillarda mintaqamizda ketma-ket kuzatilgan suv tanqisligi sharoitida yer usti suv manbalarida suvning kamayib ketishi sababli yer osti suv sathi pasayishi kuzatildi.

Suv xo‘jaligi sohasidagi mutaxassislar tomonidan Yevropa va dunyo tajribasi o‘rganib chiqilgan bo‘lib, bunda dunyodagi ko‘plab davlatlarda yer usti manbalarida suv kamayganda yer osti suv zaxiralarini to‘yintirish ishlari amalga oshiriladi. Shuni hisobga olgan holda, hozirda yer osti suvlari zaxirasini to‘yintirish bo‘yicha mavjud ilmiy va amaliy usullarni chuqur tahlil qilish hamda mamlakatimiz sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari boshlab yuborilgan.

Ayni paytda respublikada yer osti suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholi orasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, ularni miqdor jihatdan kamayib ketishi va ifloslanishi oldini olish, pirovard natijada aholini uzoq muddatli istiqbolda sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yer osti chuchuk suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori loyihasi ishlab chiqilgan. Qaror loyihasida yer osti suvlari sathi pasayib ketayotgan hududlarda yer osti chuchuk suvlaridan foydalanish ishlarini to‘liq tartibga solish nazarda tutilgan¹⁵⁹.

Suv resurslarini olishga bo‘lgan imkoniyatning notekisligi, ularni taqsimlash va foydalanish bo‘yicha nazorat qilishga erishish borasidagi raqobat mahalliy va mintaqaviy nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi butun dunyoda tan olinmoqda. Suv Markaziy Osiyo mamlakatlari

¹⁵⁹ <https://water.gov.uz/uz/posts/1545735855/2364>

ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi. Oxirgi 20 yil ichida mintaqaning ba'zi hududlarida (ayniqsa Sirdaryo va Amudaryoning quyi qismlarida) kuzatilayotgan suv tanqisligi ijtimoiy - iqtisodiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishi sur'atlarini hisobga olsak kelajakda suv tanqisligi o'sishi ehtimoli yuqori, bu esa nafaqat cho'l mintaqalari, balki butun mintaqaning barqaror taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi.

Qurg'oqchil iqlim sharoitiga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mamalkatlari hududida suv resurslaridan samarali foydalanish barqaror taraqqiyotning eng asosiy omillaridan hisoblanadi. Mintaqadagi yer usti suvlarining katta qismi bir necha davlat territoriyasidan oqib o'tishi transchegaraviy daryolarni boshqarishda hamkorlik qilish ehtiyojini tug'diradi.

Mintaqaning beshta asosiy davlatlarini birlashtiruvchi suv resurslarining asosiy manbai Orol dengizi havzasidagi ikki yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo hisoblanadi. Daryolarning quyi qismida joylashgan davlatlarda katta miqyosdagi yerlarni o'zlashtirilishi Orol muammosininining asosiy sababi bo'ldi. Bundan tashqari, sobiq sovet davlatlari suv-energetika tizimi bo'yicha o'zaro bir-biriga bog'liq. Qish mavsumida Qirg'iziston va Tojikistonga energetikani yetkazib berish uchun suv oqizilishi yozda Qozog'iston va O'zbekistonda irrigatsiya maqsadlari uchun suv yetishmasligiga olib kelmoqda. Afsuski, Markaziy Osiyoda transchegaraviy daryolarni boshqarish borasida mavjud muammolarni xal qilish bo'yicha tuzilgan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar hozircha katta muvaffaqiyatga erishmayapti.

O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan; yer osti suvlari va muzliklardan iboratdir. Davlatlararo daryolar - Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olibborilishini nazorat qilish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

Jamoat birlashmalari, jamoalar o'z nizomlariga muvofiq hamda fuqarolar suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadilar. Suvning xolatiga ta'sir o'tkazadigan yangi va ta'mirlangan korxonalar, inshootlar va boshqa ob'yektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish hamda ishga tushirish, shuningdek yangi texnologiya jarayonlarini joriy etish chog'ida aholining sihat-salomatligini saqlash va ichimlik suviga bo'lgan talablarini hamda maishiy ehtiyojlarini birinchi navbatda qondirish sharti bilan suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash lozim. Bunda suv ob'yektlaridan olinadigan va shu ob'yektlarga qaytariladigan suvni hisobga olishni, suvni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashni, suvning zararli ta'sirini oldini olishni, yerlarni suv bosish xavfini imkon qadar kamaytirishni, yerlarni sho'rlanishdan, zax bosishdan yoki qaqrab qolishdan muhofaza qilishni, shuningdek qulay tabiiy sharoitlar va landshaftlarni saqlab qolishni ta'minlovchi tadbirlarni o'tkazish ko'zda tutiladi. Suvdan foydalanish turi ikki xildir:

- suvdan umumiy foydalanish - suvning xolatiga ta'sir qiladigan inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo'llamay foydalanish;
- suvdan maxsus foydalanish - inshootlarni yoki qurilmalarni qo'llanish yo'li bilan foydalanish.

Suvdan foydalanish limitlari qishloq va suv xo'jaligi organlari tomonidan belgilanib, unga rioya etish idoraviy bo'ysinuvidan qati nazar, suvdan foydalanuvchilarning barchasi uchun majburiydir. Suvdan foydalanuvchilar:

- 10 - suv ob'yektlaridan oqilona ravishda foydalanishlari, suvni tejab-tergab sarflash, suvning sifatini qayta tiklash va yaxshilash to'g'risida qayg'urishlari, suv olishning belgilangan me'yorlariga rioya etishlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari va fukarolarning suvdan foydalanish xuquqi:

- suvdan foydalanishga ehtiyoj qolmaganda yoki undan voz kechilganda;

- suvdan foydalanish muddati tugaganda; - korxonalar, muassasalar, tashkilot, fermer xo'jaligi tugatilganda, dehqon xo'jaligi tugatilganda yoki uning faoliyati to'xtatilganda;

- suv xo'jaligi inshootlari boshqa suvdan foydalanuvchilarga berilganda;

- tanho foydalanilayotgan suv ob'yektlarini qaytarib olishga zarurat tug'ilganda bekor qilinadi.

- tabiat ob'yektlariga (erlar, o'rmonlar, xayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va hokazolarga) zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymasliklari;

- suv resurslaridan foydalanganlik haqini o'z vaqtida to'lashlari shart. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish qoidalari buzilgan yoki suv ob'yektidan belgilab qo'yilganidan boshqa maqsadda foydalanilgan, suv haqi to'lanmagan hollarda ham korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish huquqi bekor qilinishi mumkin (ichimlik suvga bo'lgan ehtiyoj va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun suvdan foydalanish huquqi bundan mustasnodir).

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish ishlari qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkatlarining) boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, tashkilotlari, fermer va dehqon xo'jaliklarining sug'oriladigan yerlarida qulay suv rejimi vujudga keltirish maqsadida amalga oshiriladi. Suv ob'yektlaridan qishloq xo'jaligi Suvdan foydalanish rejalari suvdan birlamchi foydalanuvchilar tomonidan tuzilib, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan umumlashtiriladi.

Quyidagilar: - irrigatsiya tizimi boshqarmasi tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi bilan kelishgan holda - suvdan birlamchi foydalanuvchi bo'yicha; - irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bilan kelishgan holda - irrigatsiya tizimi bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi - havza irrigatsiya tizimi hamda viloyatlararo va respublika ahamiyatiga molik ayrim yirik suv xo'jaligi ob'yektlari bo'yicha to'zilgan va umumlashtirilgan suvdan foydalanish rejalari tasdiqlaydi.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda asosiy e'tibor suv inshootlaridan samarali foydalanish va birlamchi suvdan foydalanuvchilarning suvni iste'molchiga yetkazib berishdagi samaradorligini oshirishga qaratish lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi uchun yetishtirilayotgan mahsulot aynan ikkilamchi suvdan foydalanuvchilar tomonidan hosil bo'lishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shu bo'g'in uchun texnik, iqtisodiy, ma'muriy, tashkiliy va taklif etilayotgan ekologik chora-tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Texnik chora-tadbirlarni qo'llanilishi natijasida kanallarda bug'lanish tufayli suv yo'qotilishi kamaytiriladi, ekin maydonlarida behudaga suvni yo'qotishlarga chek qo'yiladi. Bizga ma'lumki, viloyat bo'yicha sug'orish tizimining foydali koeffitsienti 0,74 ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich hozircha yuqori emas. Bundan tashqari ekin maydonlarini

kapital tekislab turish, hamda ekishdan oldin joriy tekislash ishlarini o‘z vaqtida bajarilishi va ekinlarni turiga qarab joylashtirilishi suv sarfini kamaytirishga olib keladi

Mamlakatimizda aholi tomonidan hamda ishlab chiqarish va dehqonchilik tizimida suvdan tejamkorlik bilan foydalanish masalasiga ustuvor e‘tibor qaratilib, mazkur resursning barqaror ta‘minotini kafolatlash yuzasidan tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 4-maydagi “2017-2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimiz aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu qaror yer osti suvlari zaxiralaridan foydalanish samaradorligini oshirish, shu asosda aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash sifatini yanada yaxshilash hamda ayrim shahar va tumanlar markazlarida yer osti suvlari sathlari ko‘tarilishining oldini olishga yo‘naltirilgan. Hujjatda yer osti suvlarini hisobga olish va ulardan foydalanishda nazoratni ta‘minlash uchun vakolatli davlat organlari, suvdan foydalanuvchilar va iste‘molchilarning suv resurslaridan oqilona foydalanish, olinayotgan suv hajmini to‘liq hisobga olish hamda uning ifloslanishi va kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha vazifalari belgilangan.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari dasturi sohada muhim o‘rin tutadi. Ushbu dastur yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va ularni hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari kompleksini, yer osti chuchuk suvlari zaxiralarini ko‘paytirishning maqsadli parametrlarini va boshqa shu kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda eslatib o‘tamiz, bugungi kunda mamlakatimizdagi 69 shahar, 335 posyolka va 2 ming 902 qishloq aholisining ehtiyoji yer osti suvlari zaxiralari hisobiga qondirilmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi 40-50 yilda sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi chuchuk yer osti suvlari holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, bu esa konlardagi zaxiralarning 35 foizga qisqarishiga hamda suv olish inshootlarining ruxsatsiz qurilishi va suvni nazoratsiz olish oqibatida ayrim manbalarda suv zaxiralarning tugashiga olib keldi. Respublikaning ayrim hududlarida

yer usti suvlarini chiqarib tashlash va drenaj tizimlarining qoniqarsiz holati, yer osti suvlari sathining intensiv ko'tarilishi, shuningdek rejali tarzda gidrogeologik monitoring olib borilmaganligi oqibatida ayrim shaharlar va boshqa aholi punktlarining suvga botishi kuzatilmoqda. Yer osti suvlari monitoringining 1465 kuzatish punktidan iborat amaldagi tizimi suv manbalarining ifloslanishiga, yer osti suvlari zaxiralarining kamayishiga va aholi punktlari hududlarining suvga botishiga olib keluvchi salbiy omillarni o'z vaqtida va to'laqonli baholash imkonini bermayapti. Sifatli ichimlik suv taqchil bo'lgan ayrim mintaqalarda suvni industrial chuchuklashtirish qurilmalaridan yetarli foydalanilmayapti, respublikada ularni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmayapti.

O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tomonidan shu yil fevral-mart oylarida 10 mingtadan ortiq suv quduqlari xatlovdan o'tkazilganligi natijalari ko'rsatib o'tilgan salbiy omillarning yer osti suvlari holatiga ta'siri davom etayotganligini ko'rsatdi.

Bular: 60 foizdan ortiq quduqlardan yer osti suvlarining nazoratsiz olinishi hamda 59 foiz quduqlardan yer osti suvlarini tasdiqlanmagan zaxiralardan olinishi; yaqin o'n yillar mobaynida chuchuk yer osti suvlari mavjud resurslarining yarmidan ko'pini tiklab bo'lmas tarzda yo'qotishning real xavfi mavjudligi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hisobga olingan holda qabul qilingan qaror yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari samaradorligini oshirishga va shu asosida respublika aholisini suv bilan ta'minlash sifatini yaxshilashga hamda ayrim shaharlar va tuman markazlarini suvga botishining oldini olishga yo'naltirilgan. Jumladan, qaror bilan:

2017-yil 1-iyuldan quyidagicha tartib joriy etiladi, unga muvofiq: belgilangan tartibda ruxsat olinmasdan, biroq texnik talablarga rioya etilgan holda qazilgan foydalanish quduqlari keyinchalik belgilangan tartibda foydalanish uchun tegishli suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari tomonidan rasmiylashtirilishi lozim; belgilangan tartibda ruxsat olinmasdan va texnik talablar buzilgan holda qazilgan foydalanish quduqlari, tegishli suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarini muqobil suv manbalariga ulashni hisobga olgan holda belgilangan tartibda tugatiladi; yuridik va jismoniy shaxslarga suv olish uchun quduq qazishga belgilangan tartibda gidrogeologik xulosa berish faqat Davlat geologiya qo'mitasining gidrogeologiya korxonalarini

tomonidan amalga oshiriladi; suv olish uchun quduq qazishga ruxsatnomalar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining davlat ekologik ekspertizasi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan beriladi. er osti suvlarini hisobga olish va ulardan foydalanish yuzasidan nazoratning ta'minlanishi uchun vakolatli davlat organlarining hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish, olinayotgan suv hajmini zarur tarzda hisobga olish, ularning ifloslanishi va kamayishini oldini olish kabi suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining vazifalari belgilab qo'yilmoqda.

2017-2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan samarali foydalanilishini nazorat qilish va ularni hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlanmoqda.

Dastur 2017-2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan samarali foydalanilishini nazorat qilish va ularni hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari kompleksini;

2017-2021-yillarda chuchuk yer osti suvlari zaxiralarini ko'paytirishning maqsadli parametrlarini;

2018-2021-yillarda yer osti suvlari monitoringi kuzatish punktlari tarmog'ini kengaytirish dasturini;

2018-2021-yillarda Davlat geologiya qo'mitasi gidrogeologiya korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarini;

2018-2019- yillarda Davlat geologiya qo'mitasining hududiy gidrogeologiya stansiyalarining ishlab chiqarish bazalarini qurishni va jihozlashni;

2018-2020-yillarda shaharlar va tuman markazlarida drenaj va kuzatuv quduqlarini hamda kollektorlarni qurish va mukammal ta'mirlash parametrlarini o'z ichiga oladi.

Chora-tadbirlar dasturini moliyalashtirishga 2017-2021-yillarda jami 395,9 milliard so'm, shu jumladan 109,2 milliard so'm Davlat byudjetidan, 286,7 milliard so'm Davlat byudjetidan, xalqaro moliyaviy institutlar va mahalliy byudjetlardan yo'naltiriladi.

Dastur amalga oshirilishini muvofiqlashtirish uchun Ishchi guruh tasdiqlangan.

Shuningdek mamlakatimizda ishlab chiqarilgan chuchuklashtirish qurilmalarini sanoat darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish va ular bilan tegishli aholi punktlarini jihozlash uchun 2017-yil oxirigacha

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarida tajriba-eksperiment ishlarini olib borish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi korxonalarini ixtisosli kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida 2017/2018 o‘quv yilidan boshlab Toshkent irrigatsiya va mineral suv institutida «Meliorativ gidrogeologiya» ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash tashkil etiladi.

Ushbu qarorning amalga oshirilishi:

birinchidan – yer osti suvlaridan foydalanishni nazorat qilish va ulardan oqilona foydalanishni hisobga olishning samarali mexanizmlarini joriy etish;

ikkinchidan – chuchuk yer osti suvlari zaxiralarini ko‘paytirish bo‘yicha gidrogeologik ishlar samaradorligini oshirish hamda qo‘shimcha ravishda 7 ta shahar, 21 ta posyolka va 426 ta qishloq aholi punktlarining suv ta‘minotini asoslash;

uchinchidan – yer osti suvlarini kuzatish tarmog‘ini 1155 ta quduqqa ko‘paytirish va ularda 500 ta zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarni o‘rnatish bilan yer osti suvlarining holati ustidan samarali monitoring olib borilishini tashkil etish;

to‘rtinchidan – drenaj quduqlar sonini 715 taga, kuzatish drenaj quduqlari sonini 1369 taga, kollektorlar uzunligini – 280 kilometr ga ko‘paytirish, shuningdek 1650 ta drenaj quduqlarida sarflarni o‘lchash qurilmalari o‘rnatish hisobiga 132 ta shahar va tuman markazlarini suvga botishining oldini olish imkonini beradi.

16.3. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2021 yil “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5005-sonli qarorida belgilanganidek, strategiya mamlakat suv resurslarini barqaror boshqarish va irrigatsiya sektorini takomillashtirishni qamrab oladigan bir qator infratuzilmaviy, siyosiy, institutsional va salohiyatni rivojlantirish choralari o‘z ichiga oladi.

Uning doirasida quyidagilar ta'minlanadi:

- irrigatsiya tizimi kanallari beton qoplamali qismi 35 foizdan 38 foizgacha oshishi, irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlari foydali ish koeffitsientining 0,63 dan 0,66 gacha oshishi;

- suv ta'minoti darajasi past bo'lgan sug'oriladigan maydonlar 526 ming gektardan 424 ming gektargacha kamaytirilishi;

- suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish 308 ming gektardan 1,1 million gektargacha, shu jumladan tomchilatib sug'orish texnologiyasi 121 ming gektardan 822 ming gektargacha yetkazilishi;

- sho'rlangan maydonlar 1 926 ming gektardan 1 888 ming gektarga, shu jumladan o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan yerlar 581 ming gektardan 532 ming gektargacha qisqartirilishi;

- qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan jami 232 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlari qayta foydalanishga kiritilishi;

- 60 ta yirik suv xo'jaligi ob'yekti raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o'tkazilishi;

- Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi 1 688 ta nasos stansiyasidagi 5 231 ta nasos agregati elektr energiyasi iste'moli va suv sarfi hisobi monitoringi onlayn rejimda olib borilishi;

- suv xo'jaligida DXSh tamoyillari asosida jami 124 ta loyiha amalga oshirilishi, sug'orish uchun suv yetkazib berish xarajatlari 9 foizi suv iste'molchilari tomonidan qoplanishi.

2021-yil 1-oktyabrga qadar etilen polimerlari va propilen polimerlari olib kirishda bojxona boji nol stavkasi belgilanadi. Shuningdek, respublikada ishlab chiqarilayotgan polietilen mahsuloti eksportini 40 ming tonnaga qisqartirish evaziga uning ichki bozorda birja savdolari orqali sotilayotgan qismini oshirish choralari ko'riladi. Polietilen va polipropilen mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalar birja savdolariga jalb qilinadi.

“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJga ushbu mahsulotlarni birja orqali sotuvchi xorijiy kompaniyalar (nerezident) uchun savdolariga qatnashishda zakalat summasi kiritish talabini bekor qilish hamda birja komission yig‘imlaridan ozod qilish tavsiya etiladi.

Suv tanqisligi sharoitida ekinlarni ko'llatib sug'orish va suvni zovurga tashlab qo'yishning har bir holati favqulodda holat sifatida baholanadi.

202- yil 1-iyulga qadar suv resurslari avtomatlashtirilgan idoralararo axborot tizimi bosqichma-bosqich ishga tushiriladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar soha yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning millionlab aholisi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning daromadi asosan qishloq xo‘jaligi sohasi hisobidan shakllanadi. Shu bois, 2018-yilda Qishloq xo‘jaligi va Suv xo‘jaligi vazirliklari tashkil etildi. O‘tgan davrda Prezident va hukumatning Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatiga doir 13 ta Farmon va qarorlari qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 -yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi xalqaro moliya institutlari bilan juda puxta ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Hammamizga ma’lumki, ilgari O‘zbekistonda suv xo‘jaligining quyi tashkilotlari mutaxassislari tomonidan suvni o‘lchash ishlari qo‘lda olib borilib, kunlik hisob-kitob natijalari daftarga qayd etilgan va ma’lumotlar telefon orqali markazga yetkazilgan.

Strategiyada 2023-yilgacha suv resurslarini prognozlashtirish, ularning hisobini yuritish va ma’lumotlar bazasini shakllantirish tizimini takomillashtirish hamda shaffofligini ta’minlash bo‘yicha qator vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston rahbariyati tomonidan qo‘yilayotgan bu keng qamrovli vazifalar suv va elektr energiyasidan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlarning ishonchliligini oshirish va ularni tezkor qaror qabul qiluvchilar uchun ochiqlash hamda suv yetkazib berishning sifati va yetkazib berish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Davlat-xususiy sheriklik O‘zbekiston suv xo‘jaligi uchun mutlaqo yangi yo‘nalish. Xususiy sheriklar suv xo‘jaligidagi muayyan infratuzilmani modernizatsiya qilishga investitsiya kiritadi va uni boshqaradi. Bu xalqaro tajribada yo‘llar yoki shifoxonalar kabi infratuzilmani rivojlantirish va ishlatishda xususiy kapital va tajribani jalb qilish uchun keng qo‘llaniladigan mexanizmdir.

Xususiy kapitaldan sug‘orish va suv infratuzilmasida foydalanish xorijda ham nisbatan kamroq tarqalgan. Biroq, O‘zbekiston hukumati suv xo‘jaligida DXSh loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ulkan maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan. Asosiy e’tibor nasos stansiyalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lib, bu energiyani iqtisod qilish va agregatlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

2021-yil yakuniga kelib O‘zbekistonda suv xo‘jaligi ob‘yektlariga 5 567 ta zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, 3 099 ta “Aqlli suv”, 426 ta nasos stansiyasiga suv miqdorini va 2 022 ta

meliorativ kuzatuv qudug'iga sizot suvlari ko'rsatkichlari va yerlarning minerallasganlik darajasini onlayn nazorat qilish qurilmasi o'rnatildi. 20 ta suv xo'jaligi ob'yekti avtomatlashtirildi. 1688 ta nasos stansiyasiga 2173 ta avtomatlashtirilgan elektr o'lchov asboblari o'rnatildi va respublika bo'yicha yagona elektron axborot tizimiga integratsiya qilindi hamda elektr energiya sarfini «onlayn» nazorat qilish imkoniyati yaratildi. 2021-yilda davlat-xususiy sheriklikni joriy etish bo'yicha qiymati 1 216 mlrd.so'm bo'lgan 100 ta loyiha yuzasidan bitimlar imzolandi. Ushbu loyihalar doirasida xususiy sheriklar tomonidan dastlabki 3 yilda 112,3 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritilishi va 152,9 mlrd. so'm byudjet mablag'i iqtisod qilinishi ko'zda tutilgan. 5 ta xorijiy investitsiya loyihasi doirasida 136,2 mln. dollar o'zlashtirildi. Buning natijasida yil yakuniga kelib jami 554,5 km kanal va ulardagi 353 ta gidrotexnik inshoot rekonstruksiya qilindi, 92 ta vertikal sug'orish qudug'i burg'ilandi. Loyihalar hududida 800 mln. so'm ekspluatatsiya mablag'lari iqtisod qilinishiga, irrigatsiya tizimi kanallarining foydali ish koeffitsientini 15 foizga oshirishga erishildi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 7 ta yo'nalish belgilangan. Uning uchinchi yo'nalishida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish maqsadlardan biri sifatida ko'rsatilgan.

2022-yilda yangi va foydalanishdan chiqqan 129 ming gektar yerlarni o'zlashtirish, suv tejovchi texnologiyalarni 260 ming gektarda joriy etish, suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 mlrd. kub metr suvni iqtisod qilish kabi vazifalarning qo'yilishi, jumladan, muqarrar suv tanqisligini yumshatish bo'yicha amaliy choralar qabul qilayotganligining isbotidir.

Suv resurslarini tejash zarurati. Qishloq xo'jaligi ekinlari asosan ertalab sug'orilmoqda. Kollektor-drenaj tarmoqlari eskirgan. Bularning oqibatida suv juda ko'p isrof bo'layapti. Xususan, suv yo'qotilishining 10 foizga qisqarishi orqali har yili 4 milliard kubometr obi- hayotni tejashga erishish mumkin.

Shunday vaziyatda suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish, tizim ob'yektlarini loyihalash, davlat ekspertizasidan o'tkazish, qurish va rekonstruksiya qilish, ayniqsa, suv omborlari va boshqa yirik ob'yektlarining xavfsizligini ta'minlashda jiddiy kamchilik va muammolar saqlanib qolmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining joriy yil 6-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini

yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi ob‘yektlari xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sohada tub burilishni boshlab bergan muhim hujjat bo‘ldi.

Mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, tizimni tubdan yangilash, modernizatsiya qilish zimmamizdagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Suv xo‘jaligi bosharuvini takomillashtirmasdan, zamonaviy hiob-kitoblarni shakllantirmasdan, axborot texnologiyalari va davlat-xususiy sherikligini keng joriy etmasdan turib, bu maqsadga erishib bo‘lmaydi. Farmonda aynan mazkur vazifalarni hal etishning aniq yo‘llari, vazirligimizning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi.

Suv xo‘jaligi vazirligi mamlakatiizda barcha suv resurslarini hisobga olish hamda suvdan foydalanish, suv iste‘moli samaradorligini oshirish buyicha tegishli tadbirlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, suv balansini shakllantirish bo‘yicha vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Bu yil mamlakatimizda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni 5 baravarga oshirish vazifasi qo‘yilgan. Shundan kelib chiqib, vazirning suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni rivojlantirishga mas‘ul bo‘lgan o‘rinbosari lavozimi tashkil etildi. Viloyat va tumanlarda shu yo‘nalishda tarkibiy tuzilmalar tuzilishi belgilandi.

2021-yilda 4000 gektar maydonda suvni tejoychi texnologiyalarni o‘rnatishni rejalashtirganmiz, — deydi Kattaqo‘rg‘on tumani irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i Jamshid Qo‘ldoshev. — Hisob-kitoblarga qaraganda, bu 20-25 million kub metr suvni tejash imkonini beradi. Tumanimizda ham suvni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llanilishiga mas‘ul lavozimning joriy etilishi fermer xo‘jaliklarining har gektar maydonga qancha suv sarflashi, qancha iqtisod qilganini monitoring qilib borish, zamonaviy uskunalarni keng qo‘llayotganlarni rag‘batlantirishda ham asqotadi.

2021–2023 yillarda suv iste‘molchilarining mas‘uliyati va hissasini oshirish maqsadida 100 dan ortiq davlat-xususiy sheriklik loyihalari imzolanishi, 18 ming 576 ta suv o‘lchash postlariga raqamli qurilmalar, 1 ming 688 ta nasos stansiyasiga “onlayn” rejimda monitoring qilish qurilmalari o‘rnatilishi, 27 ming 270 ta meliorativ quduqni avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o‘tkazish, shuningdek 100 ta gidrotexnik inshootni avtomatlashtirish rejalashtirilgan.

Hozirga qadar suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirishga vazirlikning Axborot-tahlil va resurs markazi, davlat-xususiy sheriklikni

rivojlantirishga esa yuridik xizmati biriktirilgan edi. Natijada ushbu yoʻnalishlarda aniq va samarali tizim asosida ish olib borilmagan.

Endilikda vazirning davlat-xususiy sheriklik va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boʻyicha maslahatchisi lavozimi joriy etiladi. Shuningdek, markaziy apparatda Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini joriy etish hamda Suv xoʻjaligida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmalari tuziladi.

— Men Oʻzbekistonda suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga moʻljallangan strategiyasini amalga oshirishda koʻmaklashish uchun xorijiy maslahatchi sifatida ish olib boraman, — deydi Jon Rayt. — Mening asosiy faoliyatim respublikada suv xoʻjaligini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Suvdan samarali foydalanish juda muhim ahamiyatga ega va bunga tizimdagi inshootlarni modernizatsiya qilish evaziga erishish mumkin. Ushbu farmonda belgilab berilgan vazifalar ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Farmon bilan Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xoʻjaligi obʻyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xoʻjaligi obʻyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi etib qayta tashkil etiladi. Inspeksiyaga xavflilik darajasi yuqori boʻlgan suv xoʻjaligi obʻyektlaridan foydalanishda xavfsizlik boʻyicha koʻrsatkichlar va mezonlarga amal qilinmaganda suv toʻplashni cheklash yoki toʻxtatib qoʻyish, xavflilik darajasi yuqori boʻlgan suv xoʻjaligi obʻyektlarining xavfsizligini taʼminlash maqsadida tegishli vazirlik va idoralar, loyiha tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot va taʼlim muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini ekspert sifatida jalb qilish huquqi beriladi.

Maʼlumki, “Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonun 1999-yilda qabul qilingan. Suv xoʻjaligida keyingi yillar mobaynida amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib, mazkur qonunga tegishli oʻzgartishlar kiritilmagan. Farmonda “Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi toʻgʻrisida”gi yangi tahrirdagi qonuni loyihasini zamonaviy talablar va yondashuvlar asosida ishlab chiqish, shuningdek, Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Suv xoʻjaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi hamda Suv xoʻjaligida kapital

qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligini tashkil qilish bo'yicha ham vazifalar belgilagan.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilindi. Unga muvofiq, vazirlikning tashkiliy, o'rta va quyi bo'g'indagi barcha tashkilotlar apparatining namunaviy tuzilmalari tasdiqlandi. Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining hamda Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Suvdan oqilona foydalanilsa, suv resurslari samarali boshqarilsa hamda hududlar va ekinlarning xususiyatlari hisobga olingan holda, adolatli taqsimlansa, albatta, qishloq xo'jaligida yuqori hosil olinadi. Bozorlarga va yurt dasturxoniga qut-baraka kiradi.

16.4. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi milliy qonunchilik asoslari ¹⁶⁰

Bugungi kunda dunyoda atrof-muhit muhofazasi sohasida jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. Buni iqlim o'zgarishiga katta ta'sir o'tkazayotgan global isishda, azon qatlamining yemirilishi davom etishida, ichimlik suvi zaxiralarining tobora kamayib borayotganida, atmosferaga chiqayotgan karbonat angidrid gazlari miqdorining yuqoriligida va boshqa bir qator texnogen tUSDagi omillarda ko'rish mumkin.

Bunday holat, o'z navbatida, davlatlar tomonidan fuqarolarning ekologiya va atrof-muhit sohasidagi qonuniy huquqlarini ta'minlashni yanada murakkablashtirmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarda hamda davlatlar milliy qonunchiligidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar va insonlarning ekologiya va atrof-muhit muxofazasi sohasidagi huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qator normalar belgilangan. Ammo ushbu normalar eskirgan va fuqarolar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bugungi kun talablariga javob bermayapti.

O'zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhit muxofazasi sohasidagi amaldagi milliy qonunchiligi so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida bir qator strategik dasturlar doirasida inson manfaatlarini

¹⁶⁰ https://uza.uz/uz/posts/ekologiya-va-atrof-muhit-muhofazasi-sohasidagi-milliy-qonunchilikni-takomillashtirish-zarur_340559

ko‘zlovchi keng ko‘lamli islohotlar “inson qadrini ulug‘lash” shiori ostida amalga oshirilib kelinmoqda.

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash sifatida fuqarolarning ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlash ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni himoya qilish, fuqarolar va insonlarning ushbu sohadagi qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha mustaqillik yillarida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 21-aprelda imzolangan “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga sharhning birinchi xatboshiga ko‘ra, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o‘rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergan 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganligi va amal qilib kelayotganligi keltirilgan.

Shunga qaramasdan, mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning aksariyati mustaqilligimizning ilk davrlarida qabul qilinganligini, ularda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha belgilangan ko‘plab normalar zamonaviy sharoitlar o‘zgarishi munosabati bilan va buning natijasida jamiyatdagi huquqiy munosabatlar rivojlanib borishi sababli, sohadagi huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solish va fuqarolarning ushbu sohadagi qonuniy huquq va manfaatlarini samarali ta‘minlashning imkonini bermayapti.

Shu kabi muammolarning mavjudligi uzoq istiqbolda O‘zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi milliy qonunchiligini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining Bosh qomusimiz qabul qilinganligining 29-yilligiga bag‘ishlangan nutqida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovoldi kompaniyasi paytida saylovchilar va keng jamoatchilik vakillari tomonidan O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarni ham amalga oshirish bo‘yicha takliflarning kelib tushganligi sababli, istiqbolda Yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarni o‘tkazish ustuvor vazifalardan biri sifatida amalga oshirilishini aytib o‘tdi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning ekologiya va atrof-muhit sohasidagi faqat konstitutsiyaviy burchlari belgilangan, fuqarolarning munosib ekologiya va atrof-muhitga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlari hamda davlat organlari va tashkilotlarining fuqarolarga munosib ekologik sharoit va atrof-muhitni ta’minlab berish bo‘yicha majburiyatlari aks ettirilmagan.

Xususan, hozirda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining faqatgina 50-moddasida “fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburliklari” belgilangan, ammo Bosh qomusimizda fuqarolarning munosib, inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan ekologik va atrof-muhitga nisbatan konstitutsiyaviy huquqlari belgilanmagan. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 29 yanvardagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-son, 1993-yil 12-iyunidagi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi 837-XII-son va boshqa shu kabi qonunlarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha faqatgina fuqarolar majburiyatlari belgilangan.

Ammo, davlat organlarining ushbu sohadagi vazifalari va majburiyatlari belgilanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, Yangi O‘zbekistonni shakllantirish istiqbollari fuqarolar va insonlarning ekologiya va atrof-muhit sohasidagi nafaqat konstitutsiyaviy burchlarini, balki konstitutsiyaviy huquqlarini ham belgilash muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash joiz.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga xalqaro huquq normalarida ham alohida e’tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu masala yuzasidan qabul qilgan protokol va konvensiyalari hamda dasturlari mavjud. Hozirda BMTning ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi asosiy xalqaro huquqiy hujjatlari sifatida 1992-yilgi “Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Konvensiyani, 2003-yilgi “Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta’sirini baholash to‘g‘risidagi konvensiyaga Atrof-muhitni strategik baholash protokoli”ni, 2015-yilgi “Iqlim bo‘yicha Parij bitimi”ni va shularga o‘xshash boshqa bir qator hujjatlarini keltirish mumkin.

Ushbu xalqaro huquqiy hujjatlarda global ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha normalar belgilangan.

BMTning 2015-yilning sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan barqaror rivojlanish bo‘yicha sammitida 2030-yilgacha erishish rejalashtirilgan 17 ta maqsaddan iborat Barqaror rivojlanish maqsadlari qabul qilindi. Ushbu maqsadlardan 5 tasi (3, 6, 13, 14 va 15 maqsadlar) bevosita

ekologiya va atrof-muhitni, insonlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish masalalariga bag‘ishlanadi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yilning 23-oktyabrida “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga 1-ilovada “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar” hamda 3, 6, 13 va 15 milliy maqsadlarda aholi salomatligini yaxshilash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklash, iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo‘yicha tezkor choralarni qabul qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi.

2030 -yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida va boshqa shu kabi O‘zbekiston Respublikasining strategik ahamiyatga ega bo‘lgan uzoq istiqbolli dasturlarida ekologiya va atrof-muhitni asrash hamda uni qayta tiklash masalalariga yechim topish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab olingan.

Bunda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini, fuqarolarning munosib ekologiya va atrof-muhitga nisbatan qonuniy huquq va manfaatlarini konstitutsiyaviy huquq sifatida ta‘minlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining munosib ekologiya va atrof-muhitga bo‘lgan qonuniy huquq va manfaatlarini konstitutsion norma sifatida belgilanmagan.

Bugungi kunda global iqlimga bo‘layotgan jiddiy tahdidlar, yer yuzida atmosferaga zararli ta‘sir ko‘rsatayotgan zaxarli gazlar miqdorining ortib borishi, turli xil zavod, fabrikalar va sanoat korxonalarini tomonidan tabiatga zaxarli kimyoviy chiqindilarning chiqarilishi, ularning insonlar va jonzorlar sog‘lig‘iga tiklab bo‘lmas ta‘sir o‘tkazayotgani global ekotizimlarni qayta tiklash va atrof-muhitni muhofaza qilish tendensiyasiga tobora katta kuch bag‘ishlamoqda.

BMT tomonidan ekologiya va atrof-muhit sohasida qabul qilgan xalqaro huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar, xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi milliy qonunchiligi tajribasi, qolaversa Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessansni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan uzoq istiqbolli strategiya va dasturlar asosida ta‘kidlash mumkin-ki, ekologiya va atrof-

muhitni muhofaza qilish insoniyat oldidagi hayotiy ahamiyatga ega masalaga aylanib ulgurdi.

O‘zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi milliy qonunchiligini yanada takomillashtirish uzoq istiqbolga mo‘ljallangan vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 29 yanvardagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-son, 1993 yil 12 iyunidagi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi 837-XII-son va boshqa shu kabi bir qator amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki mazkur qonun hujjatlarini zamon talablaridan kelib chiqib yangi tahrirda qabul qilish talab etiladi. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ekologiya va atrof-muhitga yetkazilgan zararga nisbatan javobgarlikni belgilash hamda yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar miqdorini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning munosib atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini, davlat organlari tomonidan munosib atrof-muhitni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarini konstitutsiyaviy norma sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Qisqacha xulosalar

Mavzu doirasida O‘zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo‘llari, suv resurslarining xolati va ulardan foydalanish, O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi milliy qonunchilik asoslari kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Tabiiy muhit – abiotik va biotik tizimlar va umuman, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosferaning murakkab va xilma-xil birikmalari hamda o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. Unda ekzogen, endogen va kosmik omillar va jarayonlar ta’sir ko‘rsatib, g‘oyat xilma-xil fizik, kimyoviy va biologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi va ular relefning rivojlanishini, jinslarning emirilishi va minerallarning paydo bo‘lishi moddalar migratsiyasining geokimyoviy jarayonlarini va ularning tarqalishi va konsentratsiyasini, organik dunyoning rivojlanishini, quruqlik va Dunyo okeani uchun xarakterli bo‘lgan o‘ziga xos landshaft tiplarining shakllanishini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojatnomasida 2023-yilning **to‘rtinchi yo‘nalishini** ekologiya,

ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tdi.¹⁶¹

Mamlakatimiz mintaqalarida sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlash qator iqtisodiy, tashkiliy va ekologik muammolar yechimini hal etishga bog‘liq. Jumladan:

- mintaqalarining tabiiy va mehnat resurslari salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish;
- sanoatning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirish;
- eski korxonalarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, yangi zamonaviy korxonalar qurilishini jadallashtirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiya va kasanachilikni rivojlantirish;
- sanoat tarmoqlarining hududiy tarkibini takomillashtirish;
- xomashyo va energiya sig‘imini kamaytirish;
- mahsulotlarning yangi raqobatbardosh, eksportbop turlarini ko‘paytirish;
- ekologik noqulay mintaqalarda atrof-muhit muhofazasi sohasida qator tadbirlarni amalga oshirib borishni taqozo etadi.

Tayanch so‘z va iboralar: biologik xilma-xillik ekologiya, atrof-muhit, suv resurslari, zarar miqdori, yer osti suvlari, konvensiya,

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. O‘zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo‘llari to‘g‘risida tushuncha bering.
2. Suv resurslarining xolati va ulardan foydalanish.
3. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot bering.
4. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi milliy qonunchilik asoslarini tushuntiring.
5. Bugungi kunda dunyoda atrof-muhit muhofazasi sohasida qanday muammolar yuzaga kelmoqda?
6. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha qanday vazifalar amalga oshirish ko‘rsatilgan ?

¹⁶¹ <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>

7. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga xalqaro huquq normalarida qanaqa e'tibor qaratiladi?

8. O'zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni himoya qilish, fuqarolar va insonlarning ushbu sohadagi qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tushuntiring.

GLOSSARIY

Ingliz	Rus	O‘zbek	Mazmuni
Agrarian crises	Аграрные кризисы	Аграр inqirozlar	– qishloq xo‘jaligida ro‘y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo‘lib, siklli tavsifga ega bo‘lmaydi va sanoat sikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi.
Agrarian relations	Аграрные отношения	Аграр munosabatlar	– yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.
Agricultural production infrastructure	Сельскохозяйственная производственная инфраструктура	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi	– bevosita qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar.
Agro-industrial complex	Агропромышленный комплекс	Agrosanoat majmuasi	– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlarining birligi.
Budget deficit	Бюджетный дефицит	Byudjet taqchilligi	- davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.
Business activities	Предпринимательская деятельность	Tadbirkorlik faoliyati	– shakli va sohasidan qat‘iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.
Business cycle	Экономический цикл	Iqtisodiy sikl	– ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to‘lqinsimon harakati.
Climb	Подъём	Yuksalish	– iqtisodiy siklning iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va to‘lovga layoqatli talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi.
Commodity exchange	Товарная биржа	Tovar birjasi	– oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.

Comparable prices	Сопоставимые цены	Qiyosiy narx	– ishlab chiqarishning natijalari maʼlum yil (bazis yil) asosida hisoblanuvchi vaboshqa yillar bilan taqqoslanuvchi narx.
Competition	Конкуренция	Raqobat	– bozor subʼyektlari iqtisodiy manfaatlarining toʻqnashuvidan iborat boʻlib, ular oʻrtasidagi yuqori foydava koʻproq naflilikka ega boʻlish uchun kurash.
Concentration of capital	Концентрация капитала	Kapitalning toʻplanishi	– qoʻshimcha qiymatning bir qismini jamgʻarish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.
Concentration of production	Концентрация производства	Ishlab chiqarishning toʻplanishi	– ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda toʻplanishi.
Consumer spending	Потребительские расходы	Isteʼmol sarflari	– aholi daromadlarining tirikchilik neʼmatlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan
Consumption	Потребление	Isteʼmol	– ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni.
Consumption	Потребление	Isteʼmol	– jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.
Corporate sector	Предпринимательский сектор	Tadbirkorlik sektori	– iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi boʻgʻini.
Credit	Кредит	Kredit	– boʻsh turgan pul mablagʻlarini ssuda fondi shaklida toʻplash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

Current prices	Текущие цены	Joriy narx	– yil davomidagi ishlab chiqarish natijalarini hisoblashda qo‘llaniluvchi amaldagi narx.
Cyclical unemployment	Циклическая безработица	Siklik ishsizlik	– iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.
Demand for labor	Спрос на рабочую силу	Ishchi kuchi talabi	– muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.
Depreciation rate	Норма амортизации	Amortizatsiya normasi	– amortizatsiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.
Depression	Депрессия	Turg‘unlik (depressiya)	– ishlab chiqarishning bir joyda deysinib turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy sikl fazasi.
Direct methods	Прямые методы	Bevosita usullar	– iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma‘muriy vositalari.
Disposable income	Располагаемый доход	Ixtiyorida bo‘lgan daromad	– barcha soliqlar to‘langandan keyin qolgan daromad, ya‘ni shaxsiy iste‘mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad.
Disposal of property	Распоряжение собственностью	Mulkni tasarruf etish	– mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.
Distribution	Распределение	Taqsimot	– ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va sub‘yektlari o‘rtasida taqsimlash jarayoni.

Diversification	Диверсификация	Diversifikatsiya	– ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotishbozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish, ularning sifatinitakomillashtirish.
Economic categories	Экономические категории	Iqtisodiy kategoriya	– doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.
Economic crisis	Экономический кризис	Iqtisodiy inqiroz	– ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishi.
Economic development	Экономическое развитие	Iqtisodiy rivojlanish	– ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o‘z ifodasini topadi.
Economic equilibrium	Экономическое равновесие	Iqtisodiy muvozanat	– iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.
Economic growth	Показатели экономического роста	Iqtisodiy o‘shishning ko‘rsatkichlari	– iqtisodiy o‘shishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.
Economic or pure profit	Экономическая или чистая прибыль	Iqtisodiy yoki sof foyda	– yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan
Economic proportionality	Экономическая пропорциональность	Iqtisodiy mutanosiblik	– iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o‘rtasidamiqdor va sifat o‘lchamlarning mos kelishlikdarajasi.
Economic reforms	Экономические реформы	Iqtisodiy islohotlar	– iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy choratadbirlar majmui.
Economic	Экономическое	Iqtisodiy	– milliy daromadning bir

savings	сбережение	jamg'arish	qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ko'paytirish uchun sarflanibborishi.
Economy stabilizing	Стабилизация экономики	Iqtisodiyotni barqarorlashtirish	– tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish shart-sharoitlarni vujudga keltirish.
Emigration	Эмиграция	Emigratsiya	– fuqarolarning o'z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi.
Exchange	Обмен	Ayirboshlash	– jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.
Exchange	Биржа	Birja	– namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.
Exchange rate	Валютный курс	Valyuta kursi	– bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.
Export	Экспорт	Eksport	– tovarlarni chet-ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarmamlakatdan tashqariga chiqariladi.
Extended reproduction	Расширенное воспроизводство	Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish	– ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.
Extensive economic growth	Экстенсивный экономический рост	Ekstensiv iqtisodiyo'sish	– ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

Factoring	Факторинг	Faktoring	– boshqa iqtisodiy sub'yektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.
Factors of Economic Growth	Факторы экономического роста	Iqtisodiy o'sish omillari	– iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.
Final product	Конечный продукт	Pirovard mahsulot	– ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste'mol qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlar.
Financial system	Финансовая система	Moliya tizimi	– moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.
Fiscal (fiscal) policy	Фискальная (налогово-бюджетная) политика	Fiskal (solliq-byudjet) siyosati	– davlat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish maqsadida solliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o'zgartirish bo'yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar.
Forfeiting	Форфейтинг	Forfeiting	– uzoq muddatli faktoring munosabatlari.
Frictional unemployment	Фрикционная безработица	Friksion ishsizlik	– malakasiga mos ishqidirayotgan va ish o'rinlar bo'shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.
General equilibrium	Общее равновесие	Umumiy muvozanatlik	– iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning bir-biriga teng kelgan holati.
Government sector	Государственный сектор	Davlat sektori	– o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalarining majmui.

Gross domestic product (GDP)	Валовой внутренний продукт (ВВП)	Yalpi ichki mahsulot (YAIM)	– yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati.
Gross national product (GNP)	Валовой национальный продукт (ВНП)	Yalpi milliy mahsulot (YAMM)	– milliy iqtisodiyotda bir yildavomida vujudga keltirilgan va bevosita iste‘molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi.
Households	Домашнее хозяйство	Uy xo‘jaliklari	– iqtisodiyotning iste‘mol sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik.
Immigration	Иммиграция	Immigratsiya	– xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko‘chib kelishi.
Import	Импорт	Import	– chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.
Incomes	Доходы населения	Aholi daromadlari	– aholining ma‘lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.
Indirect methods	Косвенные методы	Bilvosita usullar	– iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.
Inflation	Инфляция	Inflyatsiya	– qog‘oz pul birligining qadrsizlanishi.
Inflation gap	Инфляционный разрыв	Inflyatsion farq	– yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo‘lgan miqdori.
Intensive economic growth	Интенсивный экономический рост	Intensiv iqtisodiy o‘sish	– ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payibborishi.
Intermediate	Промежуточный продукт	Oraliq mahsulot	– ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar.

Investments	Инвестиции	Investitsiya	– ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirishga, ya‘ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo‘yilma.
Joint-stock company	Акционерное общество	Aksiyadorlik jamiyati	– ko‘proq foyda olish maqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.
Labor exchange	Биржа труда	Mehnat birjasi	– ishchilar va tadbirkorlar o‘rtasidagi ishchi kuchini oldi- sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro‘yxatga oluvchi muassasa.
labor Objects	Предметы труда	Mehnat predmetlari	– bevosita mehnat ta‘sir qiladigan, ya‘ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.
Labor supply	Предложение рабочей силы	Ishchi kuchi taklifi	– muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo‘lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.
Laffer curve	Кривая Лаффера	Laffer egri chizig‘i	– davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning tasvirlanishi.
Leasing	Лизинг	Lizing	– odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to‘lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaragaberishdan iborat kreditning pulsiz shakli.
Liberalization of the economy	Либерализация экономики	Iqtisodiyotni erkinlash- tirish	– bu xo‘jalik hayotining barcha sohalaridagi to‘siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishgayo‘naltirilgan chora-tadbirlar

Macro-economics	Макро-экономика	Макро-иqtisodiyot	– moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.
Market	РЫНОК	Bozor	– ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo‘ladigan munosabatlar yig‘indisi.
Market economy	РЫНОЧНАЯ экономика	Bozor iqtisodiyoti	– tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy
Market infrastructure	Инфраструктура рынка	Bozor infra-tuzilmasi	– bu bozor aloqalarini o‘rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmatko‘rsatuvchi muassasalar tizimidir.
Market mechanism	РЫНОЧНЫЙ механизм	Bozor mexanizmi	– bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta‘minlaydigan dastak va vositalar.
Market Objects	Объекты рынка	Bozor obyekti	– ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.
Market participant	Субъект рынка	Bozor subyekti	– ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.
Market price	РЫНОЧНАЯ цена	Bozor narxi	– bir tomondan, tovarlarning sotilishi ta‘minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx.
Market reforms	РЫНОЧНЫЕ реформы	Bozor islohotlari	– bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Materially	Материальные предметы	Moddiy-buyumlashgan	– milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan
Methods of state regulation of the economy	Методы государственного регулирования экономики	Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari	– tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.
Modernization	Модернизация	Modernizatsiya lash	– jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui.
Modernization of production	Модернизация производства	Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash	– ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.
Monetary system	Денежная система	Pul tizimi	– tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli.
Money	Деньги	Pul	– umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar.
Money turnover	Денежное обращение	Pul muomalasi	– tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.
Natality	Естественный прирост населения	Aholining tabiiy o'sishi	– bu aholining emigratsiya va immigratsiyadan tashqari harakati.

National income (ND)	Национальный доход (НД)	Milliy daromad	– yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo‘lib, hozirgi hisoblar tizimida SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.
National wealth	Национальное богатство	Milliyboylik	– insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg‘arilgan moddiy va ma‘naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in‘omlari.
Natural monopoly	Естественная монополия	Tabiiy monopoliya	– korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozoriningholati.
Natural wealth	Природное богатство	Tabiiy boylik	– milliy boylikning tabiatda mavjud bo‘lib, insoniyat tomonidan foydalanishga jalb qilingan tabiat ashyolari va kuchlari (yer, qazilma boyliklar, o‘rmonlar, suv va boshqalar).
Net National Product (NNP)	Чистый национальный продукт (СННП)	Sof milliy mahsulot (SMM)	– yil davomida jonli mehnatning unumli harakati bilan yaratilgan yangi mahsulotdir.
Nominal GDP	Номинальный ВВП	Nominal YAIM	– joriy narxlarda hisoblangan
Nominal income	Номинальный доход	Nominal daromad	– aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.
Off-farm credit	Межхозяйственный кредит	Xo‘jalik-lararo kredit	– bir korxonaga (muassasa) tomonidan ikkinchisiga berilib, ularning kapital qurilish, qishloq xo‘jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo‘jalik hisobi bo‘g‘inlari bilan munosabatlariga xizmat qiluvchi qarz mablag‘lari.

Okun's Law	Закон Оукена	Ouken qonuni	– ishsizlik darajasi va YAIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.
Ownership of property	Владение собственностью	Mulkka egalik qilish	– mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning iqtisodiy shakli.
Partial equilibrium	Частное равновесие	Xususiy muvozanatlik	– bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.
Personal income	Личный доход	Shaxsiy daromad	– milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxonada foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo'lga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.
Price	Цена	Narx	– real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi.
Private consumption	Личное потребление	Shaxsiy iste'mol	– iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi.
Privatization	Приватизация	Xususiy lashtirish	– mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy va boshqa shaxslarga o'tishi.
Privatization	Разгосударствление	Davlat tassarrufidan chiqarish	– mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Production	Производство	Ishlab chiqarish	– kishilik jamiyatining mavjudbo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni yaratish jarayoni.
roduction function	Производственная функция	Ishlab chiqarish funksiyasi	– ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasi o‘rtasidagi bog‘liqlik.
Productive consumption	Производительное потребление	Unumli iste‘mol	– ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.
Productivity	Производительность труда	Mehnat unumdorligi	– ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyati.
Profit rate	Норма прибыли	Foyda normasi	– foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo‘lgan nisbatining foizdagi ifodasi.
Property relations	Отношения собственности	Mulkchilik munosabatlari	– mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.
Public reproduction	Общественное воспроизводство	Ijtimoiy takror ishlabchiqarish	– jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib
Real GDP	Реальный ВВП	Real YAIM	– narxlarning o‘zgarishini hisobga olib, o‘zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan
Real income	Реальный доход	Real daromad	– narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni sotib olishga yetadigan quvvati, ya‘ni aholi daromadining xarid quvvati.
Real wages	Реальная заработная плата	Real ish haqi	– nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

Recessionary gap	Рецессионный разрыв	Retsession farq	– yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam bo‘lgan miqdori.
Recovery	Оживление	Jonlanish	– iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o‘tishini tavsiflovchi fazasi.
Reexport	Рээкспорт	Reeksport	– biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o‘z iste‘moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.
Reimport	Реимпорт	Reimport	– iste‘molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.
Saving	Сбережение	Jamg‘arish	– aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to‘plab borilishi.
Shadow economy	Теневая экономика	Xufyona iqtisodiyot	– YAIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.
Simple reproduction	Простое воспроизводство	Oddiy takror ishlab chiqarish	– ishlab chiqarish miqyoslarining o‘zgarmagan holda takrorlanishi.
Social infrastructure	Социальная инфраструктура	Ijtimoiy infratuzilma	– odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan sohalar.
Social payments	Социальные платежи	Ijtimoiy to‘lovlar	– kam ta‘minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko‘rsatishga qaratilgan turli xil to‘lovlar.

Social politics	Социальная политика	Ijtimoiy siyosat	– davlatning daromadlartaqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgansiyosat.
Soundness of investments	Эффективность инвестиций	Investitsiyalar samaradorligi	– milliy daromad (foyda) o‘sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.
Stocks and bonds market	Рынок ценных бумаг	Qimmatli qog‘ozlar bozori	– turli ko‘rinishdagi qimmatli qog‘ozlar (aktsiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilar)ni oldi-sotdi munosabati.
Structural crises	Структурные кризисы	Tarkibiy inqirozlar	– iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalaririvojlanishi o‘rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.
Structural unemployment	Структурная безработица	Tarkibiy ishsizlik	– ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o‘zgarishlar natijasida vujudga keladigan
System of National Accounts	Система национальных счетов	Milliy hisoblar tizimi	– milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi.
Tax	Налог	Soliq	– jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.
Tax rate	Ставка налога	Soliq stavkasi	– soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.
The criterion of economic growth	Критерий экономического роста	Iqtisodiy o‘shish mezonini	– iqtisodiy o‘shishni nisbatan to‘liq darajada baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichni xarakterlaydi.

The economic functions of the state	Экономические функции государства	Davlatning iqtisodiy vazifalari	– iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.
The economic growth	Экономический рост	Iqtisodiy o‘rish	– YaIM, SMM, MD miqdorining mutloq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.
The external debt of the state	Внешний долг государства	Davlat tashqi qarzi	– xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.
The marginal propensity to consume	Предельная склонность к потреблению	Iste‘molga keyingi qo‘shilgan moyillik	– daromad hajmining o‘zgarishi natijasida iste‘mol sarflari hajmining o‘zgarishi darajasi.
The marginal propensity to save	Предельная склонность к сбережению	Jamg‘arishga keyingi qo‘shilgan moyillik	– daromad hajmining o‘zgarishi natijasida jamg‘arish hajmining o‘zgarishi darajasi.
The market of loan capital	Рынок ссудного капитала	Ssuda kapitali bozori	– pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berish bo‘yicha oldi-sotdi munosabati.
The method of scientific abstraction	Метод научной абстракции	Ilmiy abstraksiya usuli	– tahlil paytida xalal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea- hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e‘tiborni qaratish.
The multiplier effect	Эффект мультипликатора	Multiplikator samarasi	– bu sof milliy mahsulotdagi o‘zgarishning yalpi sarflardagi o‘zgarishga nisbati.

The norm (rate) percent	Норма (ставка) процента	Foiz normasi (stavkasi)	– foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.
The production process	Процесс производства	Ishlab chiqarish jarayoni	– kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat.
The reproduction of the labor force	Воспроизводство рабочей силы	Ishchi kuchini takror hosil qilish	– insonning mehnatga bo‘lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta‘minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o‘shirishni ta‘minlash, qarigan ishchilar o‘rnini bosadigan yoshishchilar avlodini yetishtirish jarayoni.
The state budget	Государственный бюджет	Davlat byudjeti	– davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta‘minlash manbala-rining tartiblashtirilgan rejasi.
The total labor force	Совокупная рабочая сила	Yalpi ishchi kuchi	– jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste‘mol qiymatlarini aratishda ishtirok etuvchi bir- biri bilan chambarchas bog‘liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui.
The use of property	Пользование собственностью	Mulkdan foydalanish	– mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi, ya‘ni uning nafli jihatlarining bevosita iste‘mol qilinishi.
Tools	Орудия труда	Mehnat qurollari	– inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta‘sir qiladigan vositalar.

Total product	Общий продукт	Umumiy mahsulot	– jalb qilingan barcha ishlabchiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi.
Total supply	Совокупное предложение	Yalpi taklif	– mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilgan va sotishga tayyor bo‘lgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmi.
Unemploed	Безработные	Ishsizlik	– mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta‘minlanmagan ishchi
Unemployment rate	Уровень безработицы	Ishsizlik darajasi	– ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.
Wage	Заработная плата	Ish haqi	– ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.
Work force	Рабочая сила	Ishchi kuchi	– insonning mehnat qilishga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.:O‘zbekiston, 2018.

1.2.O‘zbekiston Respublikasining “Chet-el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.

1.3.O‘zbekiston Respublikasining “Chet-ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.

1.4.O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” Qonuni, 2000-yil 25-may.

1.5.O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2012-yil 26-aprel.

1.6.O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) Qonuni, 2014-yil 09-dekabr.

1.7.O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonuni, T:, 2015 yil 22 may.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi ”To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid kushimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-dekabdagi “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 378-sonli Qarori.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”PF-4947-sonli Farmoni.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi 3607-son «Samarqand viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3724-sonli Qarori, 2018-yil 14-may.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4067- son Qarori.

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF–5780-son Farmoni.

III.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma‘ruzalari

3.1.Mirziyoyev, Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3.2.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr,

IV.Maxsus ilmiy adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar

4.1. Anderson R. C. and Reeb D. M. (2003). Founding-family ownership and firm performance: Evidence from the S&P 500 // Journal of Finance, Vol.58 No. 3, pp. 1301-1328.

4.2. Anna Motylska-Kuzma, (2017) «The financial decisions of family businesses», Journal of Family Business Management, Vol. 7 Issue: 3, pp.351-373.

4.3. Barxatova N. M. (1999). Semeynyy biznes i semi v biznese // EKO, № 2 (<http://ecotrends.ru/subscribe/1841-2014-03-06-10-13-03>)

4.3. Batuxin Ye. Call-sentr v konsepsii CRM // Sales business/ Prodaji. 2004, №3.

4.4. Bozorov D. Sinergetik paradigma. Monografiya. “Tafakkur”

4.5. Выков V.A.. Elektronnyy biznes i bezopasnost. - M.: Radio i svyaz, 2000.

4.6. Bagiyev G.L., Asaul A.N. Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti. Uchebnoye posobiye/ Pod obshchey red. prof. GL.Bagiyeva. - SPb.: Izd-vo SPbGUEF, 2000.

4.7. Vedev D. Rossiyskiye realii i perspektivy. Rynek sistem upravleniya predpriyatiyem // Connect. Mir svyazi. 2001.№12. 42-44.

4.8. Benavides-Velasco, C.A., Quintana-Garcia, C. and Guzman-Parra, V. (2013), “Trends in family business research”, Small Business Economy, Vol. 40, pp. 41-57.

4.9. Volkov D. A. (2011). Stadii i jiznennyye sikly razvitiya semeynogo biznesa // Rossiyskoye predprinimatelstvo, Выр. 2, s. 11-16.

4.10. Gamidov G.S. i dr. Osnovy innovatiki i innovatsionnoy deyatelnosti - C-Pb.: Politexnika, 2000.

nashriyoti. – T.: 2010.

4.11. Daily C. M. and Dollinger M. J. (1992). An empirical examination of ownerShip structure in family and professionally managed firms // Family Business Review, Vol.5 No.2, pp.375-386.

4.12. Imomov H. H. Investitsiyalarni taShkil etiSh va moliyalaShtiriSh. (O‘quv qo‘llanma) –T.:TDIU, 2010.

4.13. Kalendjyan S. O. i Volkov D. A. (2011). Razvitiye semeynogo predprinimatelstva v Rossii // Ekonomicheskaya politika, № 5, s. 148-154.

4.14. Karimov N.G‘. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor muxanizmlarini takomillashtirish. // Strategii modernizatsii i obespecheniya dolgosrochnogo ustoychivogo ekonomicheskogo rosta. Forum ekonomistov Uzbekistana. – T/: “SMI-ASIA”, 2011.

4.15. Karlibayeva R.X. Investitsiyalarni taShkil etiSh va moliyalaShtiriSh. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: Cho‘lpon nomidagi naShriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

4.16. Kotlar, J., Fang, H., De Massis, A. and Frattini, F. (2014), “Profitability goals, control goals, and the R&D investment decisions of family and nonfamily firms”, Journal of Product Innovation Management, Vol. 31 No. 6, pp. 1128-1145.

4.17. Kelly L. M., Athanassiou N. and Crittenden W. F. (2000). Founder Centrality and Strategic Behavior in the Family-Owned Firm // EntrepreneurShip Theory and Practice, no. 25(2), pp. 27-42.

4.18. Korolev V. A. (2007). Rossiyskiy sobstvennik na 20 letnem gorizonte: struktura sobstvennosti, rol semi i korporativnoye upravleniye // Rossiyskiy jurnal menedjmenta, № 5 (3), s. 145-174.

4.19. Kurganov A. Rezultativnost podderjki malogo biznesa // Gosudarstvennaya slujba. – 2009. – № 1. – S. 83–85.

4.20. Kopachev A.A., Elektronnaya kommertiya kak faktorinnovatsionnogo razvitiya deyatelnosti predpriyatiya - Sankt-Peterburg, 2009.

4.21. Kredit tashkilotlari va banklar tarkibiy bo‘linmalari soni. <http://www.cbu.uz/uzc/statistics/bankstats/>.

4.22. Lixtenberg G. K. Degradatsiya filosofii. - M., 2004.

4.23. Materialy seminaru po voprosam innovatsionnoy kultury. YUNESKO - Parij, 28 fevral 1-mart 2002.

4.24. Mamatov F. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini sinergetik yondoshuv asosida takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. - T., 2012.

4.25. Mirzayev Q.J. Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik masalalari. Monografiya. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2010.

4.26. Moliya: Korxonalar moliyasi. Darslik / J.R.Zaynalov, S.S.Alieva, Z.O.Axrorov va boShqalar. –T.: Iqtisod-moliya”, 2018.

4.27. Murodova D. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Strategiya dalneyshego povыsheniya konkurentosposobnosti natsionalnoy ekonomiki:

materialы IV-go Foruma ekonomistov (Chast II) / pod общ. Red. d.e.n. A.M. Sadыkova. – T: PROON, IPMI, 2012.

4.28. Muratov S. Uspex avtomatizatsii: klyuchevыe faktory // Biznes-forum, I t. 2003. №11.

4.29. Nordstrem K.A., Ridderstrale I. Biznes v stile fank. — SPb.: Stokgolmskaya shkola ekonomiki v Sankt-Peterburge, 280.

4.30. Ojegov Sergey Ivanovich. SLOVAR RUSSKOGO YAZYKA. Ok. 57000 slov. Pod. Red.d-ra filol. nauk, prof. N.Yu. Shverdovoy. – 12-ye izd. – M.: Rus. yaz., 1978.

4.31. Pardayev M.Q., Qurbonov Z.N. Oila biznesi va tadbirkorligi. - Samarqand: SamKI, 1999.

4.32. Pardayev O.M. Maxsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2017.

4.33. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M.. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 384 b.;

4.34.. Popov S.A. Kompleksnyy analiz otsenki effektivnosti upravleniya programmami podderjki malogo predprinimatelstva. Fundamentalnyye issledovaniya. №10, 2013.

4.35. Polivayev V. E-commerce: shtrixi k portretu // CONNECT! Mir svyazi. 2004, №6.

4.36. Solovyanenko N. I. Prioritetы zakonodatelstva v oblasti elektronnoy kommersii // Mir elektronnoy kommersii. 2000. № 1. Yanv.

4.37. Suhail Sultan, Andre de Waal, Robert Goedegebuure, (2017) «Analyzing organizational performance of family and non-family businesses using the HPO framework”, Journal of Family Business Management, Vol. 7 No.3, pp.242-255.

4.38. Tashnazarov S. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishida sinergetik yondoshuvning namoyon bo‘lish xususiyatlari.// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2016-yil (www.iqtisodiyot.uz).

4.39. Uspenskiy I.V. Ensiklopediya Internet-biznesa - SPb: Piter, 2001.

5.40. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. .Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017.

4.41. Cherniskiy A. (2007). Semeynyy biznes, ili kak rabotayetsya s rodstvennikami // Nasha vlast. Dela i litsa, Выр. 6. (http://naShavlast.ru/article_description/64/223.html)

4.42. Chrisman, J.J., Chua, J.H., Kellermanns, F.W., Matherne, C.F. III and Debicki, B.J. (2008), “Management journals as venues for publication of family business research”, EntrepreneurShip Theory and Practice, Vol. 32 No. 5, pp. 927-934.

4.43. Shavqiyev E., Karimov Z. Tijorat banklari faoliyatining sotsial-iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion xizmatlarning roli. // O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti va Janubiy Koreya Respublikasining Kangvon Universiteti hamkorligida tashkil etilgan xalqaro nazariy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, SamQXI, 2015.

4.44. Shodiyeva G.M. Oila xo‘jaligi froyonligini oshirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya - T.: Fan. 2006.

4.45. Ernando de Soto X. Zagadka kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuyet na zapade i terpit porajeniye vo vsem ostalnom mire - M.: “Olimp-Biznes”, 2002.

4.46. Elektronnyy marketing: Ucheb, posobiye / pod red. T.P. Danko, N.B. Zavyalovoy, O.V. Satinovoy. - M.: INFRA -M, 2003.

4.47. O‘zbekistondagi lizing xizmatlari sektorining obzori (2017-yil yakunlari bo‘yicha). – T.: “O‘zbekiston Lizing Beruvchilar Uyushmasi”, 2018.

4.48. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. Zebuniso – Konigil. Tahrir hayati M. Aminov, T. Daminov, T. Dolimov va b. – T.:” O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

4.49. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-t. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2004.

4.50. O‘zbekistonda xorijiy kapitalga ega 5517 korxonalar ishlamoqda. // [www. Kun.uz.](http://www.kun.uz) O‘zbekiston, 2018-yil 12-yanvar.

4.51. O‘zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni ma’lum qilindi. // [www. Kun.uz.](http://www.kun.uz) O‘zbekiston, 2019-yil 15-yanvar.

4.52. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. - T.: Moliya, 2003.

V. Statistik to‘plamlar

5.1. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2018.

5.2. O‘zbekiston raqamlarda (statistik to‘plam). –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2017.

5.3. O‘zbekiston raqamlarda (statistik to‘plam). –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2018,

5.4. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2017.

5.5. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2018.

VI. Internet saytlari ma’lumotlari

6.1. sampayarik.uz/uz/node/269

6.2. <https://samarkand.uz/.../samarqand-viloyati-kattaqorgon-Sha>

6.3. <https://uzse.uz/analytics> Birjevoye obozreniye” po itogan 2017 goda

6.4. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi sayti.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI	7
1.1. “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmeti, vazifalari va metodlari.	7
1.2. XIX-XX asrlarda mintaqaviy tadqiqotlar maktabi va fanning bugungi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari	18
1.3. Mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari hamda uning asosiy jihatlari	22
1.4. Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish metodlari.	23
II Bob. Mintaqalar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari va tamoyillari	34
2.1. Ishlab chiqarish kuchlari xaqida tushuncha.....	34
2.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha xorijiy nazariyalar	37
2.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari.....	55
2.4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari	57
III Bob. O‘zbekistonning ma‘muriy hududiy bo‘linishi	61
3.1. O‘zbekistonning ma‘muriy - hududiy bo‘linishining tarixi va hozirgi holati.....	61
3.2. Ma‘muriy-hududiy bo‘linish masalalarini qonuniy-huquqiy asoslari	64
3.3. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari	67
IV Bob. Mintaqalar tabiiy-resurs salohiyati va ularning hududiy taraqqiyotda tutgan o‘rni.....	77
4.1. Tabiiy resurslar turlari va ulardan foydalanish.....	77
4.2. Tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining iqtisodiy ahamiyati.....	81
4.3. Tabiiy va mineral-xomashyo resurslarining mintaqalar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlantirishiga ta‘siri	82
4.4. Tabiiy resurslardan foydalanishda kutiladigan muammolar va ularning yechimlari.....	96
V Bob. Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari	107
5.1. O‘zbekiston mintaqalarining demografik holati.....	107
5.2. Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish	120
5.3. “Ijtimoiy siyosat” tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlanish zaruriyati va uning asoslari	125

VI Bob. Mintaqalarda sanoat tarmog‘ining rivojlanish xususiyatlari	132
6.1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari	132
6.2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko‘rsatkichlari	136
6.3. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni	155
6.4. Sanoatga qulay investitsiya muhitining yaratilganligi holati	159
VII Bob. Qishloq xo‘jaligining hududiy ixtisoslashuvi	171
7.1. Qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va reliefi.....	171
7.2. Agrosanoat majmuasi tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish.....	180
7.3. Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari	188
VIII Bob. Transport va axborot kommunikatsiya infratuzilmasining mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari.....	197
8.1. Transportning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi	197
8.2. Temir yo‘l transporti	208
8.3. Avtomobil transporti	213
8.4. Havo va suv transportlari.....	216
8.5. Axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlari	219
8.6. Transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari	221
IX Bob. O‘zbekistonning respublika, mintaq va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mexanizmi.....	229
9.1. Davlat hokimiyatining turli pog‘onalari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifa va tamoyillari	229
9.2. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati	232
9.3. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo‘llari	234
X Bob. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat.....	243
10.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari	243
10.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo‘yicha xorijiy tajribalar	245
10.3. Mustaqillik-yillarida O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	251
XI Bob. Mintaqalar moliyasi va uni tartibga solish.....	255
11.1. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi	255

11.2. Mahalliy byudjet - mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbaidir.....	257
11.3. Byudjetlararo munosabatlar	259
XII Bob. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish	265
12.1. Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari	265
12.2. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari.....	269
12.3. Mintaqaviy o‘shish nazariyalarini tahlil etish masalalari	272
12.4. O‘zbekiston hududlaridagi iqtisodiy o‘shishning omillarga asoslangan tahlili	277
12.5. Mintaqada iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari	279
XIII Bob. Mintaqalarni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi	288
13.1. Hududiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati..	288
13.2. Mintaqalarning rivojlanish konsepsiyalari va asosiy tamoyillari.	295
13.3. Strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari.....	305
XIV Bob. Mintaqalar raqobatbardoshligi va raqobat ustunligi.....	311
14.1. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va shakllanishi to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar	311
14.2. Mintaqa aholisini ish bilan bandligini ta’minlashda kichik biznesning tutgan o‘rni	316
14.3. Mintaqada yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari	321
14.4. Chet-el investisiyalari va erkin iqtisodiy zonalarning mintaqalar iqtisodiyotida tutgan o‘rni.....	327
XV Bob. Mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalari va eksportni ko‘paytirish yo‘llar	355
15.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi	355
15.2. Mintaqalarning eksport salohiyati	361
15.3. Mamlakatimiz eksport salohiyati va unda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘rni.....	367
15.4. Mintaqalarda qo‘shma korxonalarni rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari.....	370

XVI Bob. Hududlar taraqqiyotining ekologik jihatlari va tabiatdan foydalanishning mintaqaviy muammolari.....	380
16.1. O‘zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo‘llari	380
16.2. Suv resurslari xolati va ulardan foydalanish	385
16.3. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar	396
16.4. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi milliy qonunchilik asoslari	402
GLOSSARIY	409
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	427

*G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov,
Z.S.Artikov, L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov.*

MINTAQAVIY IQTISODIYOT

darslik

Muharrir: Z.Meliyev

Musahhih: Z.N. Bobodustov

Texnik muharrir: D. Hamrayev

*Darslik Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining
2023 yil 30-maydagi 10-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.*

“FAN BULOG‘I” nashriyoti, Samarqand - 2023

ISBN: 978-9910-9864-5-1

Tasdiqnona № 4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969

Bosishga ruxsat etildi: 18.10. 2023 y.

© “Fan bulog‘i” nashriyoti, Samarqand 2023 y.

19.10.2023 yilda chop etildi.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84¹/₁₆, Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturası.

Nashr bosma tabog‘i 27.37

Buyurtma № 0082A/23. Adadi 200 nusxa

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.**

LICENSE № 025316.

REESTR № X-119112.

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.